




AKADEMIYA
GOOGLE



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI,
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI BINOSI
"IJTIMOIY FANLAR" KAFEDRASI



MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK – KELAJAK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Chop
etilgan sana:
2025-yil 14-noyabr

KONFERENSIYA QUYIDAGI YO'NALISHLAR BO'YICHA FAOLIYAT YURITADI:

- 1-SHO'BA. YOSH AVLODDA MILLATLARARO TOTUVLIK TUSHUNCHASI: MUAMMO VA ECHIMLAR
- 2-SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIK: ZARURIYAT VA ISTIQBOLLAR
- 3-SHO'BA. GLOBALLASHYOTGAN DUNYONING IJTIMOIY MANZARASI
- 4-SHO'BA. RAQAMLI JAMIYATDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATI TRANSFORMATSIYASI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA | **ONLINE ZOOM PLATFORMA**

MATERIALLAR TO'PLAMI

NAMANGAN
2025-YIL 14-NOYABR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM MUASSASALARI
PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH TADQIQOTCHILAR, DOKTORANTLAR,
MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR



[HTTPS://NAMDU.UZ](https://namdu.uz)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
YOSHLAR SIYOSATI, IJTIMOIIY RIVOJLANTIRISH VA
MA'NAVIIY-MA'RIFIY ISHLAR BO'YICHA NAMANGAN VILOYATI HOKIMLIGI
RESPUBLIKA MA'NAVIIYAT VA MA'RIFAT MARKAZI NAMANGAN VILOYATI BO'LIMI
O'ZBEKISTON MUSULMONLARI IDORASINING NAMANGAN VILOYATIDAGI VAKILI

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIIY BAG'RIKENGLIK — KELAJAK TARAQQIIYOTINING MUHIM OMILI

Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi
(Namangan, 14 noyabr 2025 yil)

MATERIALLAR TO'PLAMI



NAMANGAN-2025

KONFERENSIYANING TASHKILIY QO'MITASI

MAS'UL MUHARRIR:

Maxkamov Qodirjon Odiljonovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor (Namangan, O'zbekiston)

MAS'UL MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Namangan, O'zbekiston)

KONFERENSIYA KOORDINATORI

Sodirjonov Muhriddin Mahamadaminovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. professor (Namangan, O'zbekiston)

KONFERENSIYA TAHRIRIYAT KENGASHI:

Xaydaraliyev Shuhratjon Abdulazizovich

Falsafa fanlari doktori (DSc), v.b. professor (Namangan, O'zbekiston)

Norqo'ziyev Sodiqjon Hakimovich

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Abdulazizov Abduvoxid Xabibullayevich

Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Nuriddinov Abdulvoxid Orifxo'jayevich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Muydinova Moxira Mukumjanovna

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

Turaqulov Akmaljon Anvarovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

Mirzaxolov Nodirbek Tojiboyevich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

DIZAYNER:

@devdasdesign

“Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – kelajak taraqqiyotining muhim omili” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami (Namangan sh., 14 noyabr 2025) / mas'ul muh. Q.O.Maxkamov. — Namangan: NamDU, 2025. — 362 b.

ASSALOMU ALAYKUM HURMATLI ILMIY KONFERENTSIYA QATNASHCHILARI, HAMKASBLAR, TADQIQOTCHILAR VA YOSHLARI!

Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrası tomonidan **“Millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglik – kelajak taraqqiyotining muhim omili”** mavzusida o’tkazilayotgan an’anaviy Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi mamlakatimizda muhim o’rin tutgan fan va ta’lim sohasining dolzarb mavzularidan biriga bag’ishlangan. E’tiborli jihati shundaki, ushbu respublika ilmiy-amaliy konferensiya mamlakatimizda “ijtimoiy davlat”, “ijtimoiy hamkorlik”, “diniy bag’rikenglik” kabi masalalarga barcha davrdagilarga nisbatan yuqori darajada e’tibor qaratilayotgan sharoitda o’tayotganligi, ijtimoiy sohaning yurtimizda akademik ilmiy muammo sifatida o’rganilishining o’ziga xosligi bilan ham anjuman salohiyatini yana bir karra oshiradi, degan umiddaman.



Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so’zlariga ko’ra, joriy yilda iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish yanada kuchaytirildi. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

O’zbekistonda aholining 60%dan ko’pini yoshlar tashkil etishini hisobga olgan holda ularga bo’lgan e’tiborni har tomonlama kuchaytirishni taqozo etmoqda. Jumladan, ta’lim tizimini yanada rivojlantirish bilan birga uni eng zamonaviy darajada yuksaltirish talab etilmoqda. Bu masalada dunyodagi eng rivojlangan ta’lim sohasidagi yutuqlarni o’rganish va ularni yanada rivojlantirish masalasi qo’yilgan. Ta’lim va ilm sohasini rivojlantirishning o’n yillik strategiyasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Shu bilan birga yoshlarga yetarli darajada sifatli ish o’rinlarini tashkil etish sohasida ham O’zbekistonning barcha hududlarida amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, juda ko’p sohalarda yangidan yangi ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilmoqda. Ayni paytda, maktabgacha ta’lim qamrovini oshirish, xalq ta’limi tizimidagi muammolarni yechish va ta’lim sifatini oshirish choralarini ko’rish, bu oliy ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish, oliy ta’limni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish, bu oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish, yoshlarga kasb-hunar o’rgatish tizimini mukammallashtirish, umuman yoshlar uchun yangi ish o’rinlarini yaratish bugunning asosiy talablaridan bo’lib qolmoqda. Har yili mamlakatimiz aholisi 900 mingdan ortiq nafarga ortayotganligi esa ushbu masalalarga tizimli va tezkor yechimlar topishni taqozo etadi.

Albatta, yoshlarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan bu kabi islohotlar Yangi O’zbekistonimizning taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor hozirlashi muqarrar. Mamlakatimizda so’nggi yillarda jamoatchilik fikrini o’rganishda ijtimoiy fanlarning amaliy ahamiyatiga alohida e’tibor qaratilar ekan, ijtimoiy fan vakillari uchun bu katta vazifalarni bajarish lozimligini anglatadi. Men bugun ijtimoiy fan vakillariga ulkan zafarlar tilash bilan birga anjumanning muvaffaqiyatli o’tishiga katta umid bildirib qolaman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Abdug'affor Karimjonovich Kirgizbayev
Namangan davlat universiteti rektori

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA BAG'RIKENGLIKNING HUQUQIY, IJTIMOIY VA MA'NAVIY ASOSLARI

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz mehmonlar!

Bugungi ilmiy-amaliy anjumanimizning markazida yurtimiz taraqqiyotining eng muhim ma'naviy tamoyillaridan biri – **bag'rikenglik va millatlararo totuvlik madaniyatining huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy asoslari** masalasi turibdi. Chunki Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, avvalo, inson qadri, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash, jamiyatda o'zaro hurmat, ishonch va totuvlik muhitini shakllantirishga tayanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona osmon ostida tinch va totuv hayot kechirmoqda. Ular o'z madaniyati, tili, urf-odatlarini va diniy e'tiqodini erkin ravishda namoyon etib, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy va madaniy hayotida faol ishtirok etmoqdalar. Bu – **O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi** kafolatlagan **teng huquq, vijdon erkinligi va bag'rikenglik siyosatining amaliy ifodasidir**.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi – **“Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish”**da aynan **“Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash”** maqsadi belgilab berilgan. Bu yo'nalish mamlakatda millatlararo munosabatlar va diniy erkinlik masalalarini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida so'nggi yillarda mazkur sohada keng qamrovli huquqiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, **2019-yil 15-noyabrda qabul qilingan “Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”** bu yo'nalishdagi tizimli siyosatning huquqiy poydevorini yaratdi. Unda har bir millat vakilining huquq va imkoniyatlar tengligi, e'tiqod erkinligi, diniy va madaniy xilma-xillikni hurmat qilish kabi tamoyillar davlat siyosatining asosiy mezoni sifatida mustahkamlandi.

Davlatimiz rahbari xalqaro maydonda ham bag'rikenglik va tinchlikni mustahkamlash borasida ilg'or tashabbuslar bilan chiqmoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan **“Ma'rifat va diniy bag'rikenglik”** maxsus rezolyutsiyasi, keyinchalik 2018-yil 12-dekabrda 193 mamlakat tomonidan yakdillik bilan qabul qilinishi – bu boradagi O'zbekiston siyosatining global darajadagi yutug'idir. Mazkur hujjat xalqaro hamjamiyatda diniy erkinlikni ta'minlash, kamsitish va ekstremizmning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, **“O'zbekiston – 2030”** strategiyasida inson qadri, ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash, aholi uchun qulay hayot sharoitlarini yaratish, davlat boshqaruvida ochiqlik va mas'uliyatni kuchaytirish – bag'rikenglik madaniyatining ijtimoiy asosi sifatida belgilandi. Bu esa jamiyatda o'zaro ishonchni mustahkamlash, turli qatlam va guruhlar o'rtasida ijtimoiy hamjihatlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Barchangizga samarali ilmiy muloqot, yangi g'oyalar va muvaffaqiyatlar tilayman!

Otabek Xasanboyevich Bozorov

Namangan viloyati hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

HURMATLI KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI, AZIZ MEHMONLARI!

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning markazida, avvalo, **inson manfaatlari**, uning huquq va erkinliklarini ta'minlash g'oyasi turibdi. Zero, inson qadri – Yangi O'zbekiston siyosatining asosiy mezoniga aylangan. Bu maqsadlarga erishish esa, shubhasiz, faqat tinchlik, osoyishtalik, **millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik** muhitida mumkin.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida geosiyosiy ziddiyatlar, diniy ekstremizm, ijtimoiy bo'linish xavfi kuchaygan bir paytda, O'zbekiston o'zining tinchlikparvar siyosati, **xalqaro hamjihatlik va diniy bag'rikenglikka asoslangan davlat modeli** bilan e'tirof etilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasi minbaridan turib "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini ilgari surganlari bejiz emas – bu hujjat xalqaro miqyosda O'zbekistonning tinchlikparvar, bag'rikeng siyosatini tan oldi.

O'zbekiston – ko'p millatli mamlakat. Bugun yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona Vatan, yagona osmon ostida tinch va ahil hayot kechirmoqda. Bu o'ziga xos "O'zbekiston modeli"ning eng muhim xususiyati – **madaniy xilma-xillikni milliy birlik bilan uyg'unlashtirishdir**.

Shu jihatdan, **Namangan viloyati** misolida ham bag'rikenglik va totuvlikning yorqin namunalarini ko'rish mumkin. Viloyatda 20 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Rus, tojik, qirg'iz, qozoq, tatar, koreys va boshqa millatlar o'z madaniyatini asrab, o'zaro hurmat asosida yashamoqda. Masalan, Namangan shahridagi "Do'stlik uyi" faoliyati doirasida 11 ta milliy madaniy markaz birlashgan bo'lib, ular turli millatlarning urf-odatlarini, diniy qadriyatlarini va tili rivojiga hissa qo'shib kelmoqda.

Umuman olganda, mamlakatimizda **millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri** sifatida qaralmoqda. Bu sohada konstitutsiyaviy kafolatlar mustahkam o'rnatilgan. Fuqarolarning millati, dini, tili, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi, e'tiqod erkinligi kafolatlangan. Shu bilan birga, har bir fuqaroning o'z madaniyatini rivojlantirish huquqi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasining **Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi** va **Din ishlari bo'yicha qo'mita** faoliyatining tizimli yo'lga qo'yilgani, **138 ta milliy madaniy markaz** va **2300 dan ortiq diniy tashkilotlar** faoliyat yuritayotgani buning yaqqol isbotidir.

Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etilib, diniy-ma'rifiy sohada **ilmiy asoslangan, bag'rikenglikka yo'naltirilgan yondashuv** mustahkamlanmoqda.

Bugungi konferensiyamizda muhokama etilayotgan mavzu – **"Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – kelajak taraqqiyotining muhim omili"** – nafaqat bugungi kunning, balki ertangi avlod kelajagining ham kafolatidir. Zero, millatlararo totuvlik – barqarorlikning, diniy bag'rikenglik esa ma'naviy yuksalishning tayanchidir.

Namangan viloyati misolida, xalqimizning o'zaro hurmat, hamjihatlik va mehr-oqibatga asoslangan qadriyatlarini, Islom dinining insonparvarlik tamoyillari bilan uyg'unlashib, jamiyatda barqaror tinchlik va ijtimoiy birlikni mustahkamlab kelmoqda.

Shu bois, bugungi konferensiyamizning ilmiy natijalari, tahlil va tavsiyalari mamlakatimizda millatlararo va diniy bag'rikenglikni yanada chuqurlashtirish, xalqaro miqyosda O'zbekistonning nufuzini oshirishga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Barchangizga ezgu ishlaringizda muvaffaqiyat, konferensiyamiz ishiga baraka va samara tilayman.

Musaxon Pulatovich Appakov

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari

ASSALOMU ALAYKUM VA ROHMATULLOHI VA BAROKATUH,
HURMATLI KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI, AZIZ ILM AHLI VA MUHTARAM MEHMONLARI!

Avvalo, barchangizni tinchlik, totuvlik va bag‘rikenglikka bag‘ishlangan ushbu ezgu ilmiy-amaliy anjumanda ko‘rishdan mamnunman. Bugungi tadbirimiz – nafaqat ilmiy muloqot maydoni, balki **millatlararo va dinlararo hamjihatlik ruhini mustahkamlovchi ma’naviy yig‘indir**.

Alloh taolo Qur’oni karimda inson zotini yaratarkan, uni **bir millat yoki bir elat** emas, balki **“xalq va qabilalarga bo‘ldikki, sizlar bir-biringizni taniysizlar”** (Hujurot surasi, 13-oyat) deb marhamat qilgan. Demak, turli millat, til va e’tiqod vakillari o‘rtasida tanishish, tushunish va totuv yashash – ilohiy hikmatdir. Islom dini aynan shu hikmatni o‘zining asosiy tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etadi.

Bag‘rikenglik – bu shunchaki sabr yoki toqat emas, balki **Alloh yaratgan xilma-xillikni qadrlash**, insonni uning e’tiqodi, rangi yoki qavmiga qarab emas, balki **taqvosi, odobi va ezgu amallari bilan baholash** madaniyatidir. Shuning uchun ham Islom dini insonni adolatga, tinchlikka, mehr-oqibatga va hamkorlikka chorlaydi.

Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam:

“Odamlar Allohning oilasidir. Ularning Allohga eng suyuqlisi – odamlar uchun eng foydalisi bo‘lgandir”, – deb marhamat qilganlar.

Demak, inson uchun eng ulug‘ fazilat – boshqalarga foyda keltirish, yaxshilik tarqatish, yovuzlikdan tiyilishdir. Bu fazilatlar millat yoki din chegarasidan yuqori turadi.

Islom dini tarixiga nazar tashlasak, u har doim **diniy bag‘rikenglikning amaliy namunasi** bo‘lib kelganini ko‘ramiz. Nabaviy davrda Madina shahrida turli e’tiqod egalari – musulmonlar, yahudiylar, nasroniylar bir-birlari bilan tinch-totuv yashaganlar. Hatto Payg‘ambar alayhissalom ularning huquqlarini “Madina konstitutsiyasi” orqali kafolatlaganlar. Bu hujjat zamonaviy inson huquqlari tamoyillarining ilk ko‘rinishidir, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Islom bag‘rikenglikni so‘zda emas, **amalda tatbiq etgan dindir**. Chunki u nafaqat ibodatda, balki muomalada ham poklikni, adolatni va sabrni talab qiladi. Alloh taolo Moida surasining 8-oyatida shunday buyuradi:

“Ey, iymon keltirganlar! Alloh uchun sobit turinglar, adolat bilan guvohlik beruvchi bo‘linglar! Biror qavmni yoqtirmasligingiz sizni adolatsizlikka undamasin. Adolatli bo‘linglar, zero adolat taqvoga yaqinroqdir.”

Mana shu oyat bizni bag‘rikenglikning asl manbai – **adalatga** yetaklaydi. Adolat bo‘lmagan joyda tinchlik bo‘lmaydi, tinchlik bo‘lmagan joyda esa taraqqiyot yo‘q. Shu bois bugungi konferensiyamiz mavzusi – **millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik** – nafaqat ijtimoiy, balki **ma’naviy, axloqiy va diniy burchimizdir**.

Hurmatli yig‘ilish qatnashchilari!

Bugun biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lida har qachongidan ham ko‘proq muloqot, o‘zaro hurmat va hamkorlikka muhtojmiz. Chunki millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik – bu faqat shior emas, balki **barqaror jamiyat, taraqqiy etgan davlat va ma’naviy yuksalgan insonning** kafolatidir.

Konferensiyamiz ana shu ezgu maqsadlarga xizmat qilishiga, bu yerda bildiriladigan har bir ilmiy fikr, har bir taklif, har bir duoning Vatanimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi yo‘lida baraka keltirishiga ishonaman.

Alloh taolo yuraklarimizga mehr, so‘zlarimizga hikmat, ishlarimizga baraka ato etsin. Konferensiyamiz ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Vassalamu alaykum va rohmatallohi va barokatuh.

Muso Anasxanovich Abbasitdinov
O‘zbekiston musulmonlari idorasining viloyatdagi vakili

ASSALOMU ALAYKUM HURMATLI HAMKASBLAR, ILMIY KONFERENSIYA ISHTIROKCHILARI!

Bugungi anjuman respublikamizda olib borilayotgan qizg'in islohotlar uchun xizmat qilishni kuchaytirishga, ya'ni "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – kelajak taraqqiyotining muhim omili" mavzusiga qaratilgan muammolar bo'lib, mamlakatimizning bugungi va kelajagi istiqbolini ta'minlashda xizmat qiladigan ijtimoiy fanlarning eng dolzarb muammolaridan biri, ijtimoiy fikrni har tomonlama chuqurroq va kengroq hamda doimiy ravishda o'rganib borishga qaratilgan ilmiy va amaliy muammolardan biridir. Ma'lumki, Muhtaram Prezidentimizning Shavkat Miromonovichning shaxsan tashabbuslari va ishtiroklari bilan yaratilgan 5 yillik taraqqiyot strategiyasi xalqimizning ilm-ma'rifatiga, ongiga va barcha talab-takliflariga asoslangan holda rivojlanishi kerak. Bugun respublikamizda 5 yilga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi 7 xil yo'nalish bo'yicha ilmga asoslangan dasturlar yaratildi va tasliqlanadi. Bu dasturlarning amalga oshirilishida iqtisodiy va, ayniqsa, ijtimoiy statistikani shakllantirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev o'zlarining barcha farmonlarida shu haqida so'z yuritib, barcha ishlarimiz xalqning ijtimoiy fikri asosida olib borilishi shartdir, deya ta'kidlab o'tdilar. Chunki, bizning maqsadimiz – ijtimoiy yo'naltirilgan demokratik davlat qurishdan iboratdir. Hammamizga ma'lumki, bizning bajaradigan barcha ishlarimiz inson talablarini yuqori darajada bajarishga qaratilgan hamda inson qadriyatlarini doimo oshirib borishga mo'ljallangan strategiyalardan iboratdir. Bunday og'ir va mas'uliyatli ishlarni bajarishda Ijtimoiy fan vakillarining va ijtimoiy tadqiqotlarning roli beqiyosdir. Zero, ijtimoiy fanlar – inson taraqqiyotining omilidir.

Bugun bizga eng kuchli ijtimoiy fan-olimlari, mutaxassislar zarur bo'lishi bilan birga, hamma erda ular uchun barcha sharoitlar yaratilishi lozim, deb hisoblayman. Bugungi konferentsiyaning ham maqsadi ham, albatta, shu muammolarga qaratilgan bo'lib, men ijtimoiy fan - olimlarga muhtaram professor-o'qituvchilarga, tadqiqotchilarga, talabalarga eng katta ijodiy samaralar va kuch-qudrat tilab qolaman.

E'tiboringiz uchun rahmat!

Shuhratjon Abdulazizovich Xaydaraliyev

Namangan davlat universiteti,

Ijtimoiy fanlar fakultet dekani



1-SHO'BA. YOSH AVLODDA MILLATLARARO TOTUVLIK TUSHUNCHASI: MUAMMO VA ECHIMLAR

Karimov Bobir Sharopovich

Sots.f.d. (DSc), professor v.b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi

FASILITATIV QADRIYATLAR MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNING MUHIM OMILI

Annotatsiya. Maqolada fasilitativ qadriyatlarning milliy va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda muhim vosita ekanligi tahlil qilingan. Ular insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, tushunish va hamjihatlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Insonlararo muloqotni yengillashtiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlovchi, hamkorlik va bag'rikenglikni rag'batlantiruvchi qadriyatlar sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: fasilitativ, qadriyat, bag'rikenglik, hurmat, tushunish, hamjihatlik, muloqot, ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik, bag'rikenglik.

Abstract. The article analyzes the fact that facilitative values are an important tool in strengthening national and religious tolerance. They serve to ensure mutual respect, understanding and solidarity between people. They are interpreted as values that facilitate interpersonal communication, strengthen social relations, and encourage cooperation and tolerance.

Keywords: facilitative, value, tolerance, respect, understanding, solidarity, communication, social relations, cooperation, tolerance.

Kirish. Fasilitator so'zi ingliz tilida «facilitator» hamda lotin tilida «facilis» – «engil», «qulay» degan ma'nolarni anglatadi. Ingliz tilidagi «osonlashtirish» fe'lining hosilasidir. Fasilitator – bu jamoa yoki guruhning faoliyati samarali kechishi uchun sharoit yaratib beruvchi, jarayonni boshqarmasdan balki yo'naltiruvchi, o'z fikrini tiqishtirmasdan, boshqalarning fikri ochiq chiqishiga yordam beruvchi shaxsdir.

Tahlil. Fasilitatsiya jarayon va natija nuqtai nazaridan belgilanishi mumkin. Jarayon nuqtai nazaridan, guruh yoki jamoa tuzilmasi va jarayonlarini ishlab chiqish va boshqarish guruh yoki jamoaga o'z ishini samarali bajarishga yordam beradi. Shu bilan birga, odamlar birgalikda ishlashda duch keladigan umumiy muammolarni minimallashtiradi. Fasilitatsiya quyidagi masalalarga qaratilgan jarayon hisoblanadi: -nimaga erishish kerak; -kim ishtirok etishi kerak; -guruh ishtirok etadigan jarayonni va bajariladigan vazifalar ketma-ketligini ishlab chiqish; -kommunikatsiya; -ishtirok etish va resurslardan foydalanishning tegishli darajalariga erishish; -ishtirokchilarning guruh energiyasi, harakatlantiruvchi kuchlari va qobiliyatlari; -jismoniy va ijtimoiy-ruhiy muhit.

Natija. Fasilitativ qadriyatlar milliy va diniy bag'rikenglik bilan bir qator jihatlar bilan chambarchas bog'langan. Jumladan, milliy bag'rikenglik bilan aloqadorligi:

- milliy qadriyatlar — xalqning urf-odatlar, an'analari, madaniyati va ma'naviyatini ifoda etadi. Fasilitativ qadriyatlar, masalan, hurmat, mehr-oqibat, hamjihatlik, milliy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi;

- o'zaro tushunish va muloqot - turli millat va etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda fasilitativ qadriyatlar millatlararo totuvlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi;



– insonlar o'rtasidagi tenglik - fasilitativ qadriyatlar barcha millat va guruhlariga teng munosabatda bo'lishni rag'batlantiradi, bu esa milliy bag'rikenglikni kuchaytiradi.

Diniy bag'rikenglik bilan aloqadorligi:

– Islomda bag'rikenglik - Islom dinida insonlarga yaxshilik qilish, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, yetim-yesirlarga g'amxo'rlik kabi amallar savobli deb hisoblanadi. Bu fasilitativ qadriyatlar bilan to'liq uyg'unlashadi;

– vijdon erkinligi - O'zbekistonda fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati fasilitativ qadriyatlar asosida shakllantirilgan. Bu diniy bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiladi;

– urf-odat va shariat uyg'unligi - Islomda shariatga zid bo'lmagan milliy urf-odatlar qabul qilinadi. Masalan, salomlashish, mehmonga izzat, ota-onaga hurmat kabi odatlar ham diniy, ham fasilitativ qadriyatlardir.

Dunyoning bir qator mamlakatlarida fasilitativ boqaruv bo'yicha o'ziga xos tajriba shakllangan. Jumladan Niderlandiyada "Facilitative School Leadership" konsepsiyasi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Maktab direktorlari o'z pedagogik jamoalarini boshqarishda fasilitativ uslubni qo'llaydi.

Odatda maxsus ta'lim kurslari liderlik akademiyalari orqali tashkil etiladi. Yaqin muloqot, guruh diagnostikasi va motivatsiya jarayonlarini boshqarish sikllarini o'z ichiga oladi. Bunda rahbar – yo'l boshchi emas, "xizmat qiluvchi lider" sifatida qaraladi. Bu esa bugungi kunda mamlakatimizda Prezidentimiz Sh.Mirziyoev boshchiligidagi amalga oshirilayotgan islohotlarga mos yondashuv hisoblanadi.

Bugungi kunda Niderlandiyada ta'lim tizimi jahondagi eng yangi va innovativ ta'lim usullaridan biri sifatida tan olingan. Buning asosiy sabablaridan biri — ta'limda ijodiy va mustaqil fikrlashni, jamoaviy ishlashni va yangi tajribalarni qo'llashga yo'naltirilgan fasilitativ yondashuvni joriy etishdir. Niderlandiya ta'lim tizimi ham ushbu yondashuvga tayangan holda yoshlarning ijodiy va amaliyotga asoslangan bilimlar bilan ta'minlanishiga katta e'tibor qaratgan.

Niderlandiyada fasilitativ ta'lim ogoh bo'lish, jamoaviy ishlash va mustaqil fikrlashga chorlaydi. Ushbu modelning maqsadi yoshlarga harakat qilish, yechim topish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida fasilitatorlar yoshlarga ko'mak beruvchi, ularni turli fikrlashlarga yordam beruvchi va samarali qaror qabul qilishga yo'naltiruvchi shaxslar sifatida xarakterizatsiya qilinadi.

Fasilitativ yondashuvning asosiy tamoyillari:

– **jamoaviy ishlash** - o'zaro birgalikda muammolarni hal qilish;

– **ijodiy fikrlash** - turli yondashuvlar va fikrlardan foydalanish;

– **mustaqil ishlash** - berilgan muammolarga mustaqil ravishda yechim topish;

– **boshqaruv va kommunikatsiya** - liderlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish;

– **haqiqiy dunyo muammolariga e'tibor** - turli ijtimoiy jarayonlarda haqiqiy hayot va amaliyotdagi muammolarga yo'naltirish.

Germaniyaning bu boradagi ijobiy tajribalarini O'zbekistonda qo'llash uchun quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

– guruhlarda ishlashga va kollektiv qaror qabul qilishga undash, buning uchun amaliyotlar va proektlar tashkil etish zarur.

– interdisiplinar ta'limni joriy qilish. Biri-biri bilan bog'liq bo'lgan fanlarning birlashgan holda muammolarni hal qilishga yo'naltirish.



– fasilitativ treninglar tashkil qilish. Yoshlar uchun treninglar va seminarlar tashkil etish, ularga fasilitativ liderlik va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

– haqiqiy dunyo muammolariga e'tibor qaratish. Yoshlarni haqiqiy hayot muammolarini hal qilishga jalb qilish, buning uchun shevaling va amaliyotlar o'tkazish.

Avstraliyada ham bu borada o'ziga xos tajriba to'planilgan. Coaching fasilitatsiyasi modeli (GROW model) shunga misol bo'la oladi. Bunda asosiy urg'u mas'uliyatni tarqatish va mutaxassislarini mustaqil fikrlashga undashga yo'naltiriladi. GROW (Goal, Reality, Options, Will) modeli asosida kouching sessiyalari amalga oshiriladi. Fikrlashdan tashqarida fikrlash ("thinking partnership") usullari. Savol berish va tinglash kompetensiyalari orqali avtonomiya yaratiladi.

Xulosa. Fasilitativ qadriyatlar milliy va diniy bag'rikenglikni ta'minlashda ko'priik vazifasini bajaradi. Ular insonlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi va millatlararo hamjihatlikni kuchaytiradi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev, Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. — Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – B.56.
2. Asadov Yu.M., Turdiev N.Sh., Akbarova S.N., Temirov D.Sh., Babadjonov S. O'quvchilarda kompetensiyalarning shakllanganligini tashxislash va korreksiyalash metodikalari. – T.: T.N.Qori Nièziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2016 yil 160 b.
3. Sharden P.D. Fenomen cheloveka. –M.: Nauka,1987. 240-bet.
4. Shermuxamedov S. Inson falsafasi.-T.: Fan, 2009.
5. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. –T.: Akademiya, 2000. 112-bet.

Izzatillayev Otabek Olimjonovich

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati devonining
Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo'limi mudiri

O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATI VA "YUMSHOQ KUCH" SIYOSATI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston ta'lim tizimida bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish jarayonlari hamda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan "yumshoq kuch" siyosatining ijtimoiy barqarorlik, millatlararo hamjihatlik va mamlakatning xalqaro nufuzini mustahkamlashdagi ahamiyati tahlil etilgan. Tadqiqotda xalqaro reyting tashkilotlarining hisobotlari asosida O'zbekiston ta'lim tizimidagi kamchiliklar hamda rivojlanish tendensiyalari ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, Afg'oniston fuqarolarini o'qitish markazi faoliyati, Ozarbayjon va Qirg'izistonda qurilgan ta'lim muassasalari misolida O'zbekistonning mintaqaviy gumanitar va ma'rifiy tashabbuslari tahlil qilingan. Maqolada ta'lim orqali bag'rikenglik va madaniy muloqotni rivojlantirish davlatning "yumshoq kuch" siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, yumshoq kuch, ta'lim siyosati, ijtimoiy barqarorlik, madaniy diplomatiya, "Ta'limdagi qashshoqlik" (Learning Poverty), inson kapitali, gumanitar hamkorlik, ma'rifat va diniy bag'rikenglik, milliy birlik.



Annonation. This article analyzes the processes of developing a culture of tolerance within the education system of Uzbekistan, as well as the significance of the “soft power” policy implemented in the field of education in strengthening social stability, interethnic harmony, and the country’s international reputation. Based on the reports of international ranking organizations, the study identifies shortcomings and development trends in Uzbekistan’s education system. In addition, the activities of the Educational Center for Afghan Citizens and Uzbekistan’s regional humanitarian and educational initiatives are examined through the example of educational institutions established in Azerbaijan and Kyrgyzstan. The article substantiates that the promotion of tolerance and intercultural dialogue through education serves as an important instrument for implementing the state’s “soft power” policy.

Keywords: tolerance, soft power, educational policy, social stability, cultural diplomacy, Learning Poverty, human capital, humanitarian cooperation, enlightenment and religious tolerance, national unity.

Kirish. Bugungi globallashuv va axborot tezligi davrida ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki ijtimoiy barqarorlik, millatlararo hamjihatlik va madaniy muloqotni ta’minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo’lmoqda. Har qanday jamiyatda millatlararo totuvlikning poydevori inson ongida, ayniqsa, yosh avlod tafakkurida shakllanadi. Shu sababli ta’lim siyosatining asosiy vazifalaridan biri – o’quv jarayonida millatlar, madaniyatlar va dinlar o’rtasida o’zaro hurmat, bag’rikenglik va hamjihatlikni qaror toptirishdir. Bundan tashqari, ushbu jarayonni ilmiy asosda o’rganish uchun sotsiologik tahlil, siyosiy diskurs tahlili va komparativ metodlar uyg’unligida yondashish zarur. Chunki bu yondashuvlar ta’lim siyosatining nafaqat instituttsional, balki ma’naviy va ijtimoiy diskurslardagi ta’sirini tahlil qilish imkonini beradi.

O’zbekiston ta’lim tizimida so’nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar – yangi o’quv dasturlari, zamonaviy metodikalar, xalqaro hamkorlik loyihalari – yoshlarni ochiq fikrli, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’rifatparvar shaxs sifatida tarbiyalashga yo’naltirilgan. Shu bilan birga, ta’lim tizimi mamlakatning xalqaro imiji va madaniy diplomatiyasida muhim “yumshoq kuch” vositasi sifatida namoyon bo’lmoqda. Bu jarayon ta’lim orqali nafaqat bilim, balki jamiyatda bag’rikenglik va hamjihatlik madaniyatini mustahkamlash imkonini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda sotsiologik, siyosiy hamda diskurs tahlillar va komparativ yondashuv usullaridan foydalanildi.

Sotsiologik tahlil orqali ta’lim tizimining jamiyatda ijtimoiy integratsiya va bag’rikenglik madaniyatini shakllantirishdagi roli o’rganildi.

Siyosiy tahlil yordamida O’zbekistonning ta’lim sohasidagi islohotlari va gumanitar tashabbuslari orqali xalqaro maydonda tinchlikparvar, bag’rikeng va ma’rifatli davlat imijini yaratishda qanday strategik ta’sir ko’rsatayotgani ochib berildi.

Diskurs tahlili orqali esa O’zbekistonning ta’lim siyosati va “yumshoq kuch” konsepsiyasi davlat rahbari nutqlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ommaviy axborot vositalaridagi matnlar vositasida tahlil qilindi. Bu usul orqali ta’lim siyosatining ma’naviy-ma’rifiy mazmuni va gumanitar diskursdagi o’rni aniqlashtirildi.

Komparativ yondashuv orqali O’zbekistonning ta’lim sohasidagi “yumshoq kuch” siyosati Ozarbayjon, Qirg’iziston va Afg’onistondagi amaliyotlar bilan taqqoslandi.

Tahlil va natijalar. Ta’limning yosh avlod ongida bag’rikenglik g’oyalarini hamda madaniy va etnik hilma-hillikka nisbatan hurmat tuyg’ularini shakllantirish masalalari G’arb olimlari T.F. Pettigryu, L.R. Tropp, Dj.A. Benks, M.S. Nusbaum, U. Kennet va boshqalar tomonidan o’rganilgan [1].



MDH mamlakatlari olimlari V.S. Sobkin, S.K. Bondireva, G.V. Bezyuleva, G.M. Shelamova, G.M. Vishnevskaya, L.V. Gubina, P. Stepanov, V.N. Gurov, B.Z. Vulfov, V.N. Galyapina va boshqalar ta'lim muhitida o'smirlar o'rtasida bag'rikenglikni shakllantirish g'oyalarini ilgari surganlar, uning uslubiy va tarbiyaviy jihatlarini ochib berganlar, yoshlarni tolerant shaxs sifatida tarbiyalashning tashkiliy-pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar [2].

Shuningdek, ko'p millatli jamiyatda yoshlar o'rtasida bag'rikenglikni tarbiyalashda diniy va dunyoviy ta'limning ahamiyatini, talabalarda bag'rikenglikni rivojlantirishning texnologiyalarini hamda inklyuziv ta'limga bag'rikenglik g'oyalarini singdirish muammolarini o'rganishda R.B. Siddiqov, N.V. Shaxnazarova, M.M. Nasimdjano va boshqa ko'plab o'zbekistonlik olimlarning ilmiy izlanishlari e'tiborga molik [3].

Biroq O'zbekiston sharoitida ta'lim siyosati orqali jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning "yumshoq kuch" sifatidagi ijtimoiy ta'sir mexanizmi, ya'ni ta'lim tizimi orqali davlatning xalqaro imiji, madaniy diplomatiyasi va ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar tizimi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Shu jihatdan bu masalaga zamonaviy geosiyosiy va sotsiologik nuqtai nazaridan yondashgan holda o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, bugungi globallashuv jarayonlari va axborot makonining cheksiz kengayishi sharoitida jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va qadriyatlar tizimida yangi tendensiyalar shakllanmoqda. Yoshlar ongi va dunyoqarashi turli g'oyaviy ta'sirlar ta'sirida tez o'zgarmoqda, bu esa ijtimoiy identifikatsiya, madaniy muloqot va millatlararo munosabatlarga bevosita ta'sir etmoqda. Bunday sharoitda ta'lim tizimi faqat bilim berish vositasi emas, balki ijtimoiy integratsiya, bag'rikenglik va hamjihatlik madaniyatini yaratishning asosiy ijtimoiy instituti sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim, ma'naviyat va diniy soha o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash, yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat va ma'rifatli dunyoqarashni shakllantirish, shuningdek, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash – jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va milliy birlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim ijtimoiy omillardan hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining **"Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolutsiyasi** [4] zamonaviy jamiyatda ta'limning ijtimoiy funksiyalarini chuqurlashtirishga qaratilgan global me'yoriy hujjat sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik nuqtai nazardan ushbu rezolutsiya ta'lim tizimini faqat bilim va malaka berish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy integratsiya, madaniy muloqot va millatlararo hamjihatlikni ta'minlovchi "yumshoq kuch" instituti sifatida qarashni ilgari suradi.

Birinchidan, rezolutsiya ta'lim orqali turli etnik, diniy va madaniy guruhlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni mustahkamlash vazifasini belgilaydi. Bu esa sotsiologik jihatdan jamiyatda ijtimoiy hamjihatlik (social cohesion) va madaniy pluralizmning (cultural pluralism) barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, mazkur hujjat ta'lim tizimida ma'rifat, diniy bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalarini singdirish orqali radikalizm va ijtimoiy polyarizatsiyaning oldini olishni maqsad qiladi. Bu jarayon "yumshoq kuch"ning asosiy belgisi – ya'ni zo'ravonliksiz ta'sir etish, g'oya orqali jamiyatda ijtimoiy o'zgarishni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlaydi.

Davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda, "BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" maxsus rezolutsiyasida belgilangan vazifalar yoshlarimiz orasida radikal qarashlar tarqalishining oldini olish, to'g'ri yo'ldan adashganlarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish va ularni sog'lom hayotga qaytarishga xizmat qiladi." [5. – B. 438].

Uchinchidan, rezolutsiyaning amalga oshirilishi natijasida ta'lim siyosatining xalqaro miqyosdagi roli kengayadi. O'zbekistonning mazkur tashabbusi davlatning madaniy diplomatiyasi



va global gumanitar imijini mustahkamlaydi, shu tariqa ta'lim sohasini davlatning “yumshoq kuch” resurslaridan biriga aylantiradi.

Bunda ta'lim orqali xalqaro hamjihatlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan amaliy loyihalar muhim ahamiyatga ega. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan Ozarbayjonning Fuzuliy shahrida 960 nafar o'quvchiga mo'ljallangan Mirzo Ulug'bek nomidagi maktabning qurilishi [6] mamlakatimizning ta'lim sohasidagi “yumshoq kuch” siyosatiga yaqqol misol bo'la oladi.

Bu tashabbus nafaqat ikki davlat o'rtasidagi madaniy va ma'rifiy hamkorlikni mustahkamlaydi, balki ta'lim orqali qardosh xalqlar o'rtasida do'stlik, o'zaro hurmat va ishonchni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev ham mazkur maktab qurilishini mamlakatlar o'rtasidagi hamjihatlik, do'stlik va qardoshlikning navbatdagi amaliy ifodasi sifatida yuqori baholagan [7].

Bunday loyihalar qo'shni qardosh Qirg'iziston Respublikasida ham amalga oshirilgan. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2018-yilda O'sh shahrida va 2022-yilda Botken viloyati Laylak tumanining Marg'un qishlog'ida O'zbekiston tomonidan maktablar qurilib, foydalanishga topshirilgan [8].

Bunday amaliy qadamlar davlatning gumanitar siyosatini xalqaro darajada mustahkamlash, ta'lim orqali ijtimoiy va madaniy hamjihatlikni kuchaytirish orqali mintaqaviy barqarorlik va o'zaro ishonch muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi bunday “yumshoq kuch” tashabbuslarni mintaqadagi murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, jumladan, Afg'onistondagi vaziyat sharoitida amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, savodsizlik va yoshlar o'rtasida radikal g'oyalarning tarqalishi kabi muammolar doimiy ravishda mintaqa xavfsizligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lib kelgan.

Biroq bugun mamlakat hokimiyat tepasiga yangi kuchlar kelgan sharoitda O'zbekiston rahbariyati Afg'oniston muammosiga alohida strategik ahamiyat bermoqda. Davlatimiz rahbari Afg'oniston Markaziy Osiyoning ajralmas va uzviy qismi ekanligini, mintaqadagi xavfsizlikka tahdidlarni “o'ziniki” va “o'zgalarniki” sifatida toifalarga ajratishdan voz kechish kerakligini, o'tmishda bu yurtga nisbatan sodir etilgan xatolarni takrorlamaslikni, bundan buyon Afg'onistonni o'z muammolari bilan yolg'iz qoldirmaslikni, shuningdek, u yerda ijtimoiy-iqtisodiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish muhimligini ta'kidlaydi [9. – B. 441-444].

O'zbekistonning ta'lim orqali amalga oshirayotgan “yumshoq kuch” siyosatining eng yorqin va amaldagi misollaridan biri sifatida 2018-yilda Surxondaryoda tashkil etilgan Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazini keltirish mumkin. Markazning asosiy maqsadi – yoshlariga zamonaviy dunyoviy bilimlar, kasbiy malaka va til ko'nikmalarini berish orqali ularni jamiyatga ijobiy integratsiya qilishdir. Markazning 2023-yildagi ma'lumotlariga ko'ra, unda 199 nafar afg'on afg'onistonlik yigit-qizlar tahsil olgan [10]. Ushbu markaz nafaqat ta'lim sohasidagi gumanitar loyiha, balki mintaqada tinchlik, hamjihatlik va ijtimoiy integratsiyani ta'minlovchi strategik va geosiyosiy institut sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Markaz 750 o'rinli o'quv binosi va 450 o'rinli talabalar turar joyiga egaligini inobatga olgan holda, mavjud infratuzilmaviy imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish dolzarb ahamiyatga ega. Hozirgi sharoitda mazkur markaz faoliyatini faqat ta'limiy yo'nalishda emas, balki O'zbekistonning Afg'oniston bilan amaliy hamkorligini chuqurlashtirish, ikki mamlakat yoshlari o'rtasida do'stlik va o'zaro ishonchni mustahkamlash vositasi sifatida kengaytirish zarur.



Shu maqsadda, Afg'onistonning hozirgi hukumati bilan amaliy muloqotni kuchaytirish, ta'lim sohasida o'zaro anglashuv va hamkorlikni mustahkamlovchi kelishuvlar tuzish, afg'on yoshlarini mazkur markazda ta'lim olishga jalb qilish bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish zarur.

Shuningdek, Ozarbayjon va Qirg'izistonda barpo etilgan zamonaviy maktablar singari, Afg'onistonda ham shunday ta'lim muassasasini tashkil etish strategik va ma'naviy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Buyuk shoir va mutafakkir, xalqparvar davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy ham O'zbekiston, ham Afg'oniston xalqlari uchun umumiy ma'naviy meros, madaniy birlik va ilmiy-ma'rifiy hamjihatlik timsoli hisoblanadi. Shu bois Afg'oniston hududida buyuk mutafakkir nomi bilan bog'liq ta'lim muassasasini tashkil etish nafaqat ma'rifiy ahamiyatga ega, balki O'zbekistonning "yumshoq kuch" siyosati nuqtai nazaridan ham muhim strategik qadam bo'ladi. Bu orqali afg'on yoshlari ongida O'zbekistonga nisbatan hurmat, ishonch va bag'rikenglik tuyg'ularini shakllantirish, ta'lim siyosati orqali esa mintaqada o'zaro madaniy ta'sir va ijtimoiy integratsiya jarayonlarini kuchaytirish imkoni yaratiladi.

Bunday ma'rifiy va madaniy diplomatiyaga asoslangan tashabbuslar mamlakatning xalqaro imiji va "yumshoq kuch" salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, uning global barqarorlik va tinchlik indekslaridagi o'rnini ham mustahkamlaydi.

Xususan, O'zbekistonning so'nggi yillarda Global tinchlik indeksida (Global Peace Index) 163 ta davlat orasida 67-o'rinni egallagani [11. – B. 8] va Xavfsiz mamlakatlar reytingida (Numbeo Safety Index) jahondagi 25 ta eng xavfsiz davlatlar qatoriga kirgani [12] ta'lim, madaniyat va gumanitar siyosat orqali amalga oshirilayotgan tinchlikparvar yo'nalishlarning amaliy samarasidir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani hamda yoshlarimizning oliy ta'lim bilan qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetgani [13] ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligidan dalolat beradi. Bu o'zgarishlar ta'lim tizimining institutsional imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatda ma'naviy yuksalish va inson kapitali sifati oshishining muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, mazkur natijalar ta'lim sifatini aks ettiruvchi xalqaro reytinglarda ham ijobiy baholanmoqda, bu esa O'zbekistonning ta'lim orqali amalga oshirilayotgan "yumshoq kuch" siyosati samaradorligini tasdiqlaydi.

Biroq, ta'lim qamrovining ortishi barcha hollarda ta'lim sifatining mutanosib o'sishini anglatmaydi. Ta'lim tizimida kuzatilayotgan zaifliklar nafaqat bilim sifatini oshirish zaruratini, balki ta'lim orqali jamiyatda bag'rikenglik, madaniy muloqot va ijtimoiy hamjihatlikni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish ehtiyojini ham namoyon etmoqda. Jahon bankining "Ta'limdagi qashshoqlik" (Learning Poverty) hisobotiga ko'ra, O'zbekistondagi o'quvchilarning taxminan 30 foizi minimal malaka darajasiga yeta olmagan [14], bu esa ta'lim jarayonida bilim berish bilan birga, shaxsning axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yetarli samaradorlikka erishilmaganini ko'rsatadi.

Hisobotda o'quvchilarda fundamental o'qish va mulohaza yuritish ko'nikmalari past baholanib, bu holat jamiyatda ijtimoiy muloqot madaniyatining yetarli darajada rivojlanmaganini anglatadi. Chunki o'quvchi fikrlashni, so'z orqali muloqot qilishni va ma'naviy fikrni anglashni o'rganmagan taqdirda, u jamiyatda bag'rikeng shaxs sifatida faoliyat yuritishi qiyin bo'ladi.

Shuningdek, shahar va qishloq o'rtasidagi ta'lim sifatining nomutanosibliigi faqat iqtisodiy yoki infratuzilmaviy emas, balki ijtimoiy adolat va imkoniyat tengligi tamoyillari bilan ham bog'liq. Ta'limdagi bunday tengsizlikning qisqarishi yoshlar orasida ijtimoiy ishonch va fuqarolik birdamligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, ta'lim tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish faqatgina bilim sifati yoki iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash emas, balki bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish, fuqarolik



birdamligini mustahkamlash va O'zbekistonning xalqaro maydondagi gumanitar nufuzini oshirish yo'lidagi strategik ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi. Ta'lim orqali amalga oshirilayotgan bu jarayon mamlakatning "yumshoq kuch" siyosatini mazmun jihatdan boyitadi hamda uni global miqyosda tinchlikparvar va insonparvar davlat sifatida tanitadi.

Xulosalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimi nafaqat inson kapitalini rivojlantirishning asosiy omili, balki jamiyatda bag'rikenglik, madaniy muloqot va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlovchi muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonning ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan "yumshoq kuch" siyosati davlatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlash, qo'shni mamlakatlar bilan gumanitar hamkorlikni kengaytirish va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi esa ta'lim siyosatini jamiyatning ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy taraqqiyot manbai sifatida qayta konseptualizatsiya qilishga turtki berdi. Mazkur hujjat sotsiologik nuqtai nazardan ta'limning "yumshoq kuch" sifatidagi rolini – ya'ni inson ongiga ma'naviy ta'sir ko'rsatish orqali ijtimoiy munosabatlarni transformatsiya qilish mexanizmlarini – amaliy jihatdan asoslab berdi. Shu boisdan, O'zbekiston tajribasida bu rezolyutsiyani milliy ta'lim siyosatining konseptual negiziga aylantirish, ta'lim orqali bag'rikenglik, ma'rifat va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash jarayonlarini chuqurlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Shu bilan birga, tahlil jarayoni ta'lim tizimidagi ayrim zaif nuqtalarni, jumladan, ta'lim sifatidagi nomutanosiblik, fundamental ko'nikmalarning yetarlicha shakllanmaganligi va "Ta'limdagi qashshoqlik" (Learning Poverty) muammosi mavjudligini ham ko'rsatdi. Bu holat ta'lim orqali faqat bilim berish emas, balki shaxsning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy mas'uliyati va bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur maqolada bayon etilgan ilmiy tahlil va xulosalar quyidagi takliflarni ilgari surish imkonini beradi:

birinchidan, tadqiqot metodologiyasi nuqtai nazaridan, Surxondaryodagi Afg'oniston fuqarolarini o'qitish ta'lim markazi faoliyatini sotsiologik monitoring asosida o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu jarayonda bitiruvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasi, madaniy integratsiya darajasi va O'zbekistonga nisbatan ishonch indeksi kabi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun so'rovnoma (survey), fokus-guruh (focus group) va intervyu (in-depth interview) metodlari qo'llanilishi mumkin. Mazkur markaz tajribasini **mintaqaviy ta'lim diplomatiyasi modeli** sifatida rivojlantirish, uning faoliyatini kengaytirish, qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlikda o'quv dasturlari tashkil etish va Afg'onistonda ilmiy-ma'rifiy muassasa barpo etish mamlakatimizning mintaqadagi "yumshoq kuch" siyosati ta'sirini oshiradi;

ikkinchidan, kelgusida tadqiqotni rivojlantirish uchun "yumshoq kuch"ning empirik o'lchovlarini ishlab chiqish, ta'lim siyosati va ijtimoiy bag'rikenglik o'rtasidagi korrelyatsiyani statistik metodlar asosida tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning (UNESCO, World Bank, OECD) indikatorlari bilan milliy ta'lim siyosati o'rtasida metodologik uyg'unlikni ta'minlash ilmiy natijalarni yanada chuqurlashtiradi. Shu maqsadda **Ta'limning "yumshoq kuch" indeksini** (Soft Power Education Index) ishlab chiqish O'zbekistonning "yumshoq kuch" salohiyatini xalqaro kontekstda o'lchash va taqqoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Pettigrew, T.F., & Tropp, L.R. (2006). A meta-analytic test of intergroup contact theory. *Journal of Personality and Social Psychology*, 90(5), 751–783.; James A. Banks. An introduction to multicultural education/University of Washington, Seattle. – Fifth edition. 2020;



Martha C. Nussbaum. *Cultivating Humanity: A Classical Defense of Reform in Liberal Education*/ Harvard University Press, 1997; Kenneth Wayne. *Education and tolerance // Higher education in Europe* – 1997. – №2. – Page.16.

2. Возрастные особенности формирования толерантности / Министерство образования РФ. РАО. Центр социологии образования; [А. Г. Владимиров и др.]; под ред. В.С. Собкина. – М.: Центр социологии образования РАО, 2003. – 206, [1] с. – (Труды по социологии образования; т. 8, вып. 14); Бондырева С.К., Безюлева Г.В., Шеламова Г.М. Толерантность в пространстве образования, М., 2005, – 152 с.; Вишневская Г.М., Губина Л.В. Воспитание учащихся в духе толерантности // Педсовет. 14.11.2005.9, с. 22-28; Степанов П. Как воспитать толерантность? // Народное образование, 2001. – №9. – 2002. – №1; Формирование толерантной личности в полиэтнической образовательной среде / В.Н.Гуров, Б.З.Вульф, В.Н.Галапина и др. М.: Педагогическое общество России, 2004.

3. Сиддиков Р.Б. Толерантность – важное направление в образовательной политике Республики Узбекистан // Проблемы современной науки и образования. – 2019. – №1 (134). – С. 45–49; Шахназарова Н.В. Принципы и подходы к решению проблемы развития толерантности студентов // Научно-практический популярный журнал “Современное образование” (Узбекистан). – 2022. – №. 10 (119). – С. 26-31.; Шахназарова Н.В. Толерантность как консенсус / Н.В. Шахназарова // International scientific review of history, cultural studies and philology: Collection of scientific articles V International correspondence scientific specialized conference, Boston, USA, 20–21 января 2019 года. – Boston, USA: Problems of science, 2019. – С. 37-41. – EDN YWJCDZ.; Насимджанова М.М. Психологические особенности формирования толерантного отношения к детям с ограниченными возможностями в образовательной среде // Образование и инновационные исследования. – 2022. – №12. – С.349-353.

4. Просвещение и религиозная толерантность: Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН, 12.12.2018, №73/128. URL: <https://docs.un.org/ru/A/RES/73/128> (мурожаат қилинган сана 17.10.2025 й.).

5. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 438.

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/6606> (мурожаат қилинган сана 17.10.2025).

7. Озарбайжон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. URL: <https://president.az/az/articles/view/59632> (мурожаат қилинган сана 17.10.2025).

8. Қирғизистоннинг Баткен вилоятида Ўзбекистон томонидан қуриб битказилган замонавий мактаб фойдаланишга топширилди // Янги Ўзбекистон. 2 апрель 2022. URL: <https://yuz.uz/news/qirgizistonning-batken-viloyatida-ozbekiston-tomonidan-qurib-bitkazilgan-zamonaviy-maktab-foydalanishga-topshirildi> (мурожаат қилинган сана 18.10.2025).

9. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston [Matn] / Sh.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2024. – B. 441-444.

10. Афғонистон фуқароларини ўқитиш таълим марказининг расмий веб-сайти. URL: <https://uzaf.uz/xalqaro-alloqalar/> (мурожаат қилинган сана 20.10.2025).

11. Institute for Economics&Peace. *Global Peace Index 2025: Identifying and Measuring the Factors that Drive Peace*, Sydney, June 2025. – P.8.

12. Numbeo – Safety Index by Country (2025 mid-year). URL: https://www.numbeo.com/crime/rankings_by_country.jsp?title=2025-mid&displayColumn=1 (мурожаат қилинган сана 18.10.2025).



13. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқи. Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. URL: <https://president.uz/uz/lists/view/8525> (мурожаат қилинган сана 20.10.2025).

14. Uzbekistan Learning Poverty Brief. World bank. April 2024. Version 2. URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099090524103517029/pdf/P179209110146d0431a5a01816436083ea4.pdf> (мурожаат қилинган сана 20.10.2025).

Rahimboeva D. A.

Namangan davlat universiteti dotsenti f.f.n

YOSH AVLODNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILAVIY MUNOSABATLAR VA AYOLLARNING O'RNI

Annotatsiya Ushbu maqolada har bir murabbiy, komillik targ'ibotchisi ta'lim-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilishga, sog'lom ijtimoiy muhitni yaratib berishga, mas'uliyatli vazifalarni vijdonan bajarishi lozimligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Serfarzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik, mehnatsevarlik, sahiylik, mehmondo'stlik, oliy qadriyat, tadbirli, ziyrak ota-ona, ibratli hulq, chiroyli muomala, mehribonlik, kamtarlik, yaxshi nasixat, to'g'ri yo'l ko'rsatish. Bugun butun dunyo oila instituti inqiroziga, xususan, nikohlar beqarorligi, ajrashishlar soni ortishi, nikohsiz tug'ilishlar ko'payishi, oilaviy hayot va farzand tarbiyasiga toqatsizlik kabi muammolarga to'qnash kelyapti. Olimlar bunday muammolar millatning ma'naviy tanazzuliga sabab bo'lishi mumkinligini ilmiy jihatdan asosladi.

СЕМЕЙНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И РОЛЬ ЖЕНЩИН В ВОСПИТАНИИ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ В ДУХЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ

Аннотация. В данной статье сообщается о том, что каждый тренер, пропагандист передового опыта должен правильно организовать учебный процесс, создать здоровую социальную среду, добросовестно выполнять ответственные задания.

Ключевые слова: родительство, детство, семейная жизнь, трудолюбие, великодушие, гостеприимство, высокая ценность, разумное воспитание, примерное поведение, хорошие манеры, доброта, смирение, хороший совет, руководство.

FAMILY RELATIONS AND THE ROLE OF WOMEN IN EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION IN THE SPIRIT OF TOLERANCE

Abstract This article informs about the fact that every trainer, propagator of excellence should properly organize the educational process, create a healthy social environment, and conscientiously perform responsible task.

Key words: Parenthood, childhood, family, hard work, generosity, hospitality, high value, disciplined, intelligent parenting, exemplary behavior, good manners, kindness, humility, good advice, guidance.

Mamlakatimiz huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo'lida dadil odimlab borar ekan, xotin-qizlarning erkaklar bilan barcha sohada tengligini ta'minlashga, ularni ulug'lash va qadrlashga,



qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimi yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Binobarin, barcha qonun hujjatlarimizga asos hisoblanmish Konstitutsiyamiz hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi, Oila Kodeksi, Fuqarolik Kodeksi, Jinoyat Kodeksi, "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid siyosat to'g'risida"gi, "Aholi bandligi to'g'risida"gi, "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi, "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda asosiy maqsad yurtimiz ayollarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga, opa-singillarimizning faolligini oshirishga, ularga ma'naviy-ruhiy madad berishga, qolaversa, ularni turli tahdid va qotib qolgan eskicha qarashlardan himoya qilishga qaratildi.

Yurtimizda er-xotin o'rtasidagi munosabatning davomiyligini ta'minlash uchun o'ziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari bo'lmish er va xotinning har biriga o'ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Bunday oilada tug'ilgan farzandlar ham go'zal tarbiya topadi va ulardan jamiyatga foydasi tegadigan insonlar yetishib chiqadi. Islom dini har bir er va xotin uchun o'ziga xos huquqlarni ishlab chiqish bilan birga, ularga muayyan majburiyatlarni ham yuklagan. Bularning ba'zilar er va xotin o'rtasida mushtarak bo'lsa, ba'zilar erga, ba'zilar xotonga tegishlidir.

Abdurauf Fitrat "Har bir millatning saodati va izzati shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa millat oilalarinin intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shuncha kuchli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsiz va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi", deb ta'kidlagan.

Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o'rin tutishini ko'ramiz. Masalan, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug'lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha'niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e'tibor qaratilgan: "Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir"

Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida yozilishicha, oila va nikoh masalasida ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hukmlardan biri ayolning nikohda qanday haq-huquqlari borligi haqidagi bilimga ega bo'lishidir: "Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo'lishi shart. Chunki, qiz bola faqat ilm bo'lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo'lolmaydi". "Hidoya"da oila va nikohga oid hukmlarning ijtimoiy ahamiyatga ega tomoni erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy jihatdan bir-biriga teng bo'lishiga e'tibor qaratilganidir: Nikohda tenglik e'tiborga olinadi.

Darhaqiqat, xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha qonun hujjatlari xalqaro huquqiy me'yorlarga asoslangan bo'lib, mamlakatimiz Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib ayollar huquqini xalqaro me'yor va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi, ayollarning siyosiy huquqlari haqidagi, onalikni muhofaza qilish haqidagi xalqaro konventsiyalarga qo'shilgan.

Rivojlangan davlatlarni kuzatar ekanmiz ayollarga bo'lgan e'tiborni, ularning jamiyatda va davlat organlari va tashkilotlarining yuqori pog'onalarini egallaganliklarini ko'rib xulosa qilishimiz mumkin. Biroq o'rinli savol tug'iladi, har doim ham shunday bo'lganmikan?

Ma'lumot o'rnida, bundan bor yog'i bir necha yuz yilliklar oldin ayollar maqomi bo'yicha uy-hayvonlariga tenglashtirilganini hozirgi kundan inson ongiga sig'dirolmaydi va albatta, hozirgi



kunda erkaklar bilan teng huquqlilik yillar davomida olib borilgan qattiq kurashlarning samarasi hisoblanadi.

Ayollar huquqlari uchun kurashning asosiy maydoni AQSH bo'lib bu yerda mustaqillik uchun kurash ketayotgan bir paytda tarixga jahondagi ilk feminist sifatida kirgan Ebigeyl Smit Adims “Biz qabul qilinishida shaxsan ishtirok etmagan qonunlarga bo'ysunmaymiz degan edi”. To'g'rirog'i, bu da'vatdan oldin ham ayollar huquqsizligiga qarshi e'tirozlar bo'lgan bo'lsada yo ularga e'tibor berilmagan yoxud chiqishlar bostirilgan, qahramonlar esa qolganlarga “o'rnak” sifatida shafqatsiz jazolangan.

1405-yilda Kristina Pizanskaya o'zining “Ayollar tug'yonlari to'g'risidagi kitobida” uyda ta'lim olish va siyosiy hayotda ishtirok etish kabi g'oyalarni ilgari suradi, biroq zamondoshlaridan hech kim uning chaqiriqlariga e'tibor qilmaydi. Fransiyalik ayollar huquqlari himoyachisi Olimpi de Guj esa o'zining “Ayollar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya” kitobi uchun jazolanadi.

1804-yilda Yevropadagi Mashhur Napoleon fuqarolik kodeksiga ayollar huquqlarini bo'g'uvchi qoida kiritiladi, unda: “Ayollar hech qanday fuqarolik huqulariga ega bo'lmaydilar va erkaklarning vasiyligida turadilar”, deb qayd etib o'tgan.

Hammasi 1848-yilgi AQShda imzolangan “Hissiyotlar deklaratsiyasi”dan keyin o'zgarip ketadi. Bu hujjatda jahon tarixida ilk marta bugungi kunda deyarli har kun qulog'imizga chalinadigan “ayollar va erkaklar teng yaratilgan”, degan so'zlar bor edi. Bu hujjat o'shanda kurashning yangi to'lqinini tom manoda boshlab bergan. Ayollar avvalo siyosiy huqularga ega bo'lishga alohida e'tibor beradilar va bu mantiqiy jihatdan olib qaralsa to'g'ri yo'nalish bo'lgan edi.

Siyosiy huquqlarning dastlabkisi va shu bilan birgalikda asosiysi saylash huquqi edi o'sha vaqtda. Bu sohada Amerika Qo'shma Shtatlari birinchi bo'ldi. 1850-yilda AQShda birinchi bo'lib ayollar umumilliy syezdi bo'lib o'tadi va ayollarning saylov huquqlari bo'yicha milliy assosatsiya tashkil qilinadi. Uning asosiy maqsadi ayollarning saylash huquqlariga ega bo'lishlarini ta'minlash edi. 1869-yilga kelibgina Vayoming shtati ayollari ovoz berish huquqini qo'lga kiritadilar, bir yil o'tib esa ularga sudlarda ishlash huquqi beriladi. Boshqa shtatlarda esa kurash katta qiyinchiliklar bilan kechardi. Ayollarning saylovda qatnashish huquqini berish to'g'risidagi ko'plab referendumlari vino ishlab chiqaruvchilarning hiylalari tufayli mag'lubiyatga uchraydi, chunki ular ayollarining alkogolni ham ta'qiqlash uchun namoyishlarga chiqishlaridan cho'chib qolgan edilar. Ayollarning saylov huquqlari uchun kurashi “sufrajizm” atamasini vujudga keltirdi. Sufrajizm XX asr boshlarida AQShda deyarli g'alaba qozongan bo'lsa, Yevropada bu jarayonning ijobiy tomondan to'liq yakunlanishi uchun asrning ikkinchi yarmi kerak bo'ldi.

Mulkdor bo'lish huquqi. Jahonda dastlab xususiy mullka AQShlik ayollar ega bo'lishdi. Faqat turmushga chiqqanlari! Qanday deysizmi? 1860-yilda “Nikohdagi ayollarning mulkdor bo'lishi to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. O'sha paytgacha esa ayollar o'z erlarining to'liq ixtiyorida Bo'lganlar ya'ni, shartnoma tuzolmaganlar, shaxsiy buyumlaridan ham foydalana olmaganlar, ajrashish paytida bolalarga bo'lgan onalik huquqlaridan ham mahrum bo'lganlar. Qonun ayollarga shaxsiy mablag'larini o'zlari tasarruf qilishlari, erlari bilan birgalikda bola asrab olishlari mumkinligi to'g'risidagi huquqlarni taqdim etdi.

Ta'lim olish huquqi. XVII-XVIII asrlarda jamiyatda “zaif jins vakillarida aql ham zaif bo'ladi va umuman olganda ta'lim ayollik sifatlarini yo'q qiladi”, degan yanglish tushuncha hukmron bo'lgan. Ma'rifat asri arboblari bu fikrga qarshi chiqa boshlaydilar. Yekaterina II urinishlari bilan ziyoli ayollar kontingenti bo'yicha Rossiya o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan mamlakatiga aylanadi. U bu borada aql bilan ish yuritar, ilmi ayollar erlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishlarini ta'kidlar va butun mamlakat miqyosida ijobiy tendentsiyalarga olib kelishiga qat'iy ishonardi.



1910-yilda Klara Setkin xalqaro xotin-qizlar huquqlari uchun kurash kunini nishonlashni taklif qiladi. Oradan 67 yil o'tib, 1977-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 8-mart kunini Xalqaro xotin-qizlar kuni deb e'lon qiladi.

Shunday qilib “kurash” so'zi bayramga ko'chadi. Endi bu kun o'z huquqini talab qilgan nozik xilqat vakillariga tosh otish emas, gul berish orqali ularni tabriklash, ularga yangi imkoniyatlar taqdim etish orqali kelajakka umid ko'zlari bilan qarashlariga sharoit yaratish bilan uyg'unlashib ketdi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki jamiyatda ayollarning salohiyatini yuzaga chiqarish, ularning barkamol avlodni tarbiyalashdagi rolini yanada kuchaytirish va boshqa bir qator amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, o'z samarasini berib, endilikda ayollarimiz rahbar lavozimlarida jamiyatimizning rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Er – oila rahbari. Ayol eriga hurmat va itoatda bo'lsa, farzandlar ham otaga itoat qiladigan bo'ladi. Natijada oilada ahillik, muhabbat hukm suradi va u mustahkam bo'ladi. 2020-yil 6-avgust kuni O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasida “Musulmon jamiyatlarida oilaviy munosabatlardagi muammolar: Sabab va yechimlar” mavzusida xalqaro mutaxassislar va yurtimizdagi islomshunos olimlar, imom-xatiblar, diniy bilim yurtlari mudirlari va talabalar ishtirokida video-seminar o'tkazildi. Unda islom ilmlari bo'yicha yetuk olim, Tatariston Respublikasidagi Bulg'or islom akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi) professori Shayx Abdurazzoq Sa'diy ishtirok etdi va ajrashishlarning yechimi sifatida quyidagi tavsiyalarni sanab o'tdi:

- oila qurishdan avval kuyov yo kelinning mol-davlati, shon-shuhratiga emas, tarbiyasi va axloqiga, ma'naviy go'zalligiga e'tibor qaratish lozim;
- o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqqanda, darrov ajrashmasdan, o'rtani isloh qilish va yarashtirish uchun ikki tomondan vakillar chaqirish;
- iqtisodiy kamchiliklar bo'lganda, boriga qanoat qilish va sabrli bo'lish;
- diniy idora oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasi, taloqning oqibatlariga kabi mavzularda juma tezislarini ishlab chiqishi va musulmon ommasiga yetkazishi;
- oilalarda vujudga kelayotgan nohaqlik, zulm va ajrashishlarning oldini olish maqsadida diniy idora tizimida fiqhiy ilimga ega 2-3 kishidan iborat yetuk mutaxassislar hay'atini tuzish va muammolarga o'z vaqtida yechim topish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 майдаги ПФ-77-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.05.2023 й., 06/23/77/0298-сон)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 24 майдаги ПФ-77-сонли Фармони таҳририда — Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 26.05.2023 й., 06/23/77/0298-сон)
3. Абдурауф Фитрат. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. –Т.: Маънавият, 2000.
5. Бурхонуддин Марғиновий. Ҳидоя, I-жилд, Никоҳ китоби: –Т.: Адолат, 2002.
6. Ислом одоблари энциклопедияси. –Т.: Hilol-Nashr, 2019.
7. Ойбек Неъматуллоҳ, Илҳомжон Мурод Али. “Исломда оила” муаммо ва ечимлар. –Т.: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти, 2019.
8. <https://hidoyat.uz/49437>

**Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich**

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat universiteti

SOVET DAVRIDA MILLAT NAZARIYASI VA TARIXIY NARRATIVLARNING SIYOSIY INSTRUMENTALLASHTIRILISHI

(Iosif Stalinning “Marksizm va millat masalasi” asari misolida)

Annotatsiya Maqolada sovet davrida millat nazariyasining shakllanishi va uning siyosiy maqsadlarda instrumentalizatsiya qilinishi masalasi Iosif Stalinning “Marksizm va millat masalasi” asari misolida tahlil qilinadi. Muallif Stalin tomonidan ilgari surilgan millat ta’rifi (“til, hudud, iqtisodiy hayot va psixologik birlikka ega tarixan shakllangan odamlar birligi”)ning ilmiy va siyosiy mohiyatini yoritadi hamda bu yondashuvning sovet millatlar siyosatiga ta’sirini tahlil qiladi. Tadqiqotda XIX–XX asr boshlaridagi millat va etnos haqidagi nazariy yondashuvlar – primordializm, modernizm va instrumentalizm oqimlari bilan qiyosiy tahlil olib boriladi. Maqolada Stalinning konsepsiyasi sovet davlatchiligida milliy-hududiy chegaralash va “sovet xalqi” modelini shakllantirishdagi mafkuraviy asos sifatida namoyon bo’lgani ko’rsatilgan. Xulosa sifatida, Stalinning millat nazariyasi ijtimoiy-siyosiy jihatdan samarali bo’lgan bo’lsa-da, u etnosning madaniy va tarixiy o’ziga xosliklarini yetarli darajada aks ettira olmagan ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: Stalin, marksizm, millat, etnos, sovet davri, millatlar siyosati, ideologiya.

Аннотация В статье рассматривается процесс формирования теории нации в советский период и её политическая инструментализация на примере труда Иосифа Сталина «Марксизм и национальный вопрос». Автор раскрывает научное и идеологическое содержание сталинского определения нации («исторически сложившееся сообщество людей, объединённое общим языком, территорией, экономической жизнью и психологическим складом») и анализирует влияние этого подхода на советскую политику в области национальных отношений. Проведён сравнительный анализ теоретических направлений XIX–XX вв. — примордиализма, модернизма и инструментализма. В работе показано, что концепция Сталина стала методологической основой советского государственного строительства, в частности при национально-территориальном размежевании и формировании модели «советского народа». В заключении отмечается, что сталинская теория нации имела значительный политический эффект, однако не учитывала в полной мере культурные и этнические особенности народов.

Ключевые слова: Сталин, марксизм, нация, этнос, советская эпоха, национальная политика, идеология.

Annotation The article examines the formation of the theory of nationhood during the Soviet era and its political instrumentalization through the example of Joseph Stalin’s work “Marxism and the National Question.” The author analyzes the scientific and ideological essence of Stalin’s definition of a nation (“a historically constituted, stable community of people, formed on the basis of a common language, territory, economic life, and psychological makeup”) and its influence on Soviet national policy. The study provides a comparative analysis of nineteenth–twentieth century theoretical schools such as primordialism, modernism, and instrumentalism. It is argued that Stalin’s concept became a methodological foundation for Soviet state-building, particularly in national-territorial delimitation and the creation of the “Soviet people” model. The conclusion emphasizes that



while Stalin's theory was politically effective, it failed to adequately reflect the cultural and historical diversity of ethnic groups.

Keywords: Stalin, Marxism, nation, ethnos, Soviet era, national policy, ideology.

KIRISH

XX asr boshlarida jahon siyosiy tafakkurida millat, etnos va mustamlakachilik masalalari markaziy o'ringa chiqdi. Aynan shu davrda Iosif Stalinning "Marksizm va millat masalasi" asari marksistik nazariya doirasida millatning ilmiy-siyosiy ta'rifini berishga uringan muhim asarlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Mazkur asarda millat va etnos tushunchalari ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, sinfiy kurash va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlari bilan uzviy bog'liq tarzda talqin qilinadi. Stalinning yondashuvi millatni madaniy yoki etnik birlik sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy tizimning tarixiy shakllanishi natijasi sifatida ko'rsatdi.

Asar o'z davrida nafaqat nazariy ahamiyatga, balki siyosiy g'oyaviy kuchga ham ega bo'ldi. Chunki Rossiya imperiyasi tarkibidagi ko'p millatli jamiyatlar muammosi, mustamlaka xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash masalasi va sovet davrida shakllangan millatlararo siyosat aynan shu nazariy poydevorga tayanib qurildi. Natijada, Stalinning millatga bergan ta'rifi ("til, hudud, iqtisodiy hayot va psixologik birlikka ega tarixan shakllangan odamlar birligi") sovet etnos nazariyasining markaziy tamoyiliga aylandi.

Bugungi globallashuv va transmilliy integratsiya davrida bu yondashuvni qayta tahlil qilish alohida dolzarbdir. Chunki, sobiq sovet makonida etnik identifikatsiya, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va milliy siyosat masalalarining ko'plari aynan shu tarixiy-nazariy asoslardan oziqlanadi. Shu nuqtai nazardan, Stalinning mazkur asarini zamonaviy etnologiya, siyosatshunoslik va tarix fanlari kontekstida qayta o'rganish millat va etnosning siyosiy talqinini tahlil etish uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu sababli **mazkur maqolada** Stalinning "Marksizm va millat masalasi" asarida millat va etnos tushunchalarining siyosiy talqinini ochib berish, ushbu yondashuvning sovet millatlar siyosatiga va keyingi etnos nazariyasiga ta'sirini tahlil qilish maqsad qilindi.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida millat va etnos nazariyalarining shakllanish jarayonini tahlil qilish, Stalin yuqoridagi asarida millat tushunchasining ijtimoiy-siyosiy va nazariy asoslarini aniqlash, etnos va millat o'rtasidagi farqning marksistik talqinini ochib berish, Stalin yondashuvining sovet millatlar siyosati va etnos nazariyasiga ta'sirini baholash va mazkur nazariyaning bugungi globallashuv sharoitidagi ahamiyatini tahlil etish kabi vazifalar belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Yevropada millat ("nation") va etnos ("ethnic group", "ethnos") tushunchalari ilmiy, siyosiy hamda ijtimoiy yozishmalarda keng muhokama mavzusiga aylandi. Ular ko'proq fransuz, nemis va ingliz millatchiligi kontekstida shakllangan bo'lsada, ko'p millatli imperiyalar, mustamlakachilik siyosati va milliy uyg'onish harakatlari natijasida bu tushunchalar siyosiy-mafkuraviy vositalarga aylanib bordi. Millat tushunchasi klassik davrda davlat bilan uyg'un bo'lgan siyosiy birlik shakli sifatida ko'rilgan [6; 10].

Etnos tushunchasi esa madaniy-sosiologik traditsiyalarda rivojlanib, ichida til, urf-odat, an'analar, psixologik o'xshashlik kabi jihatlar asosiy mezon sifatida e'tiborga olindi [13]. "Etnos" atamasi yunoncha ethnos ("xalq, urug'") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bir guruh kishilarning madaniy va tarixiy jihatdan shakllangan birliklarini anglatgan.

Bu davrda milliy uyg'onish harakatlari – Polsha, Finlandiya, Kavkaz va Boltiqbo'yi mintaqalari – millatga doir ilmiy va siyosiy fikrlarni jadallashtirdi. Bu nazariyalarning ichida millatni



zamonaviylik, davlatga sadoqat va siyosiy birlik markazida ko'rish, etnik va madaniy komponentlarni esa ko'pincha ikkinchi planda yoki millatni shakllantirish vositasi sifatida ko'rish tendensiyalari paydo bo'ldi [3; 6].

Klassik marksizm – Karl Marks va Fridrix Engels asarlarida – mustaqil “millat” tushunchasi alohida mustahkam shaklga ega bo'lmagan, aksincha uni ishlab chiqarish munosabatlari va sinfiy kurash nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan [22]. Lekin XX asr boshida marksist nazariyotchilar millatlar masalasiga ko'proq e'tibor qaratdi. Masalan, Vladimir Lenin “Millatlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi to'g'risida” asarida millatga qo'yiladigan mezonlarni ikki jihatdan talqin qiladi: siyosiy huquq va milliy tarjimonlik nazariyasi.

Stalin 1913-yilda yozgan “Marksizm va millat masalasi” asarida esa u marksistik traditsiyani davom ettirib, uni millat tushunchasiga yanada mustahkam nazariy poydevor berishga harakat qiladi. Stalin asarda quyidagi formulani ilgari suradi, “Millat – bu tarixan shakllangan, barqaror insonlar birligi bo'lib, ular umumiy til, hudud, iqtisodiy hayot va psixologik birligida namoyon bo'ladilar.” (22; – C. 4-5)

Ushbu formulada “tarixan shakllangan”, “barqaror”, “umumiy til, hudud, iqtisodiy hayot va psixologik birlik” kabi komponentlar millatni ijtimoiy-siyosiy birlik sifatida ko'rsatishda markaziy ahamiyat kasb etadi.

Rossiya imperiyasi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ko'plab geografik hududlarni – Markaziy Osiyo, Kavkaz, Qrim, Volga bo'yida turli etnik guruhlarini o'z ichiga olgan ko'pmillatli davlat edi. Bu imperiya rus tilini keng tarqatish markazlashtirish va rus madaniyatini targ'ib qilish siyosatini (ruslashtirish) asosiy vositalardan biri sifatida olib bordi [12; – P. 416].

Shunday sharoitda mahalliy etnik guruhlar orasida til, madaniyat va o'zlikni saqlash harakati shakllandi. Turkiston hududida (hozirgi O'zbekistonda) turkiy-musulmon xalqlar jadid harakati orqali zamonaviy ta'lim, matbuot va milliy uyg'onishni ilgari surdilar [10; – C. 254]. Shu tariqa, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik nazariyasi ham shakllanishi boshlandi, lekin ko'pincha amaliy siyosiy sharoit va imperiya siyosati chegaralarida qoldi.

Rus etnologik maktablarida “etnos” tushunchasi mustaqil ilmiy kategoriya sifatida rivojlanayotgan edi. Masalan, etnograf S. Alimov rus ilmiy traditsiyasida etnos nazariyasining shakllanish jarayonini tahlil qildi [2]. Imperiya siyosiy-strategik maqsadlari mahalliy elitalarni rus imperiyasi tizimiga integratsiyalashga qaratilgan. Ammo shu bilan birga mahalliy milliy uyg'onish harakatlari davlat nazorati ostida edi.

Etnos, millat tushunchalari va ular haqidagi Ilmiy paradigmalardagi almashinuvlar va nazariy bahslar shu bilan to'xtab qolmadi, balki yanada taraqqiy etib, XIX–XX asrlarda yo'nalishlar paydo bo'ldi:

Primordializm: Etnik o'zlik, til, irqi, urf-odat kabi jihatlar millatdan oldin mavjud bo'ladigan asos sifatida ko'riladi [5].

Modernizm / konstruktivizm: Millat asosan modern kapitalizm va milliy davlat shakllanishi bilan bog'liq ijtimoiy konstruktsiya sifatida ko'riladi [6].

Instrumentalizm: Millat va etnos siyosiy elita tomonidan boshqariladigan vosita sifatida tushuniladi [9].

Masalan, millat shakllanishi nazariyalari – primordialistik va modernistik – tahlil qilingan “Jahon tarixshunosligida millatning vujudga kelishi haqidagi nazariy-konseptual qarashlar” maqolasida primordializm, konstruktivizm va instrumentalizm konsepsiyalari qiyosiy tahlil qilingan [1]. Bundan tashqari etnos-simvolik yondashuvlar ham mavjud bo'lib, ular millat va etnik mifologiya, xotira, simvolik elementlar rolini inobatga oladi [13]. Shu bilan birga, bu yondashuvlarda millat nafaqat siyosiy birlik, balki madaniy va tarixiy jarayon mahsuli sifatida ko'riladi.



Umuman olganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida millat va etnos nazariyalarining shakllanishi nafaqat siyosiy va madaniy kontekstga, balki ilmiy paradigmalardagi almashuvlarga ham moslashgan murakkab jarayon bo'ldi. Bu bosqich – keyingi davr etnos va millatlar siyosatining nazariy poydevorini tashkil etgan.

1913-yilda I. V. Stalin tomonidan Vena shahrida yozilgan “Marksizm va millat masalasi” asari, o'sha davrda Avstriya-Vengriya va Rossiya imperiyasi tarkibidagi ko'p millatli jamiyatlarda millatlararo ziddiyatlarni ilmiy asosda tahlil qilishga bag'ishlangan edi. Asarda muallif marksistik yondashuvdan kelib chiqib, milliy masalani sinfiy kurash bilan bog'liq tarzda ko'rsatgan [21; – C. 4–5].

Stalin o'z davrida mavjud bo'lgan liberal va avstriya ijtimoiy-demokratlarining “madaniy-milliy avtonomiya” g'oyasini tanqid qilgan holda, milliy birlikning asosiy mezonni sifatida **iqtisodiy hayotning birligini** alohida ajratib ko'rsatgan. Unga ko'ra, millat bu – “tarixan vujudga kelgan, barqaror odamlar birligi bo'lib, u til, hudud, iqtisodiy hayot va psixologik birligiga asoslanadi” [21; – C. 10].

Stalin millatni belgilovchi quyidagi to'rt mezonni aniq belgilab bergan:

1. **Til birligi** – “Umumiy til millatning ajralmas belgilaridan biridir”.
2. **Hudud birligi** – “Umumiy hudud millatni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir”.
3. **Iqtisodiy hayot birligi** – “Iqtisodiy birlashuvsiz millatning mavjudligi mumkin emas”.
4. **Psixologik birlik va madaniyat** – “Millatning ruhiy qiyofasi umumiy madaniyat orqali namoyon bo'ladi” [21; – C. 12-15].

Ushbu yondashuvda millatning har bir elementi o'zaro bog'liq holda ko'riladi. Stalin ta'kidlaganidek, bu belgilar orasidan birortasi bo'lmasa, u holda millat to'liq shakllanmagan hisoblanadi [21; – C. 17].

Asarda “etnos” atamasi bevosita ishlatilmagan bo'lsada, Stalin millatni biologik yoki faqat madaniy birlik sifatida emas, balki **ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlik** sifatida talqin qilgan. Shu jihatdan, u “etnos”ni tarixiy-madaniy birikma sifatida, “millat”ni esa sinfiy-iqtisodiy birlik darajasidagi ijtimoiy shakl sifatida ajratib ko'rsatadi [16; – C. 43].

Bunday yondashuv keyinchalik sovet etnos nazariyasi shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan, chunki Stalin millatni tarixiy kategoriya, ammo kapitalistik davr mahsuli sifatida izohlagan [21; – C. 19].

Stalinning fikricha, millat masalasi sinfiy kurashdan ajralgan holda hal etilishi mumkin emas. U mustamlaka xalqlarning ozodlik kurashini proletariat manfaatlari bilan uyg'un holda ko'rgan [17; – C. 102–104]. Shu sababli, “madaniy-milliy avtonomiya” g'oyasi proletariatni milliy chegaralarda ajratadi, bu esa sinfiy birdamlikka zarar keltiradi [18; – C. 23].

Stalinning bu yondashuvi, bir tomondan, marksistik millat nazariyasini siyosiy darajada shakllantirgan bo'lsa, boshqa tomondan, sovet millatlar siyosatiga mafkuraviy asos yaratgan [12; – C. 419].

Stalin tomonidan ishlab chiqilgan millat formulasi 1920–1930-yillarda sovet davlatining “millatlar siyosati”da qo'llanildi. Bu yondashuv asosida SSSRdagi respublikalar milliy-hududiy chegaralar bo'yicha ajratildi [11; – C. 75–76].

Biroq keyingi tadqiqotlarda bu yondashuv millatni siyosiy-iqtisodiy jarayonlarga haddan ziyod bog'lab, uning etnik-madaniy komponentlarini ikkinchi darajaga tushirib qo'ygani tanqid qilinadi [4; – C. 34]. Shunday bo'lsada, Stalinning “millat” formulasi o'sha davrda Yevropa marksistik tafakkurida eng tizimli ta'riflardan biri sifatida e'tirof etilgan.



I. V. Stalinning 1913-yilda yozilgan “Marksizm va millat masalasi” asari marksizmnining millatlar haqidagi konsepsiyasini tizimlashtirishga qaratilgan bo‘lib, u asosan K. Marks va F. Engelsning iqtisodiy determinizm tamoyillariga tayangan [21, – C. 5–7]. Asarda millat ijtimoiy-iqtisodiy bazisning mahsuli sifatida talqin etilgan va millatni belgilovchi asosiy omillar sifatida til, hudud, iqtisodiy hayot hamda psixologik birlik ko‘rsatilgan.

Bu yondashuv nazariy jihatdan K. Marksning “Nemis mafkurasi” asarida qayd etilgan “ijtimoiy ongning iqtisodiy mavjudlik bilan belgilanishi” haqidagi tamoyil bilan uzviy bog‘liqdir [20; – C. 42–43]. Shu ma’noda, Stalin millatni ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining tarixiy mahsuli deb ko‘radi. Biroq, Stalinning nazariyasi klassik marksizmga nisbatan ko‘proq siyosiy-pragmatik tus olganini keyingi tadqiqotchilar qayd etgan [8; – C. 61].

1920–1930-yillarda Stalinning millat haqidagi ta’rifi Sovet Ittifoqining millatlar siyosatida metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Ayniqsa, 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralash siyosatida “millat – bu iqtisodiy va hududiy birlik” degan g‘oya asosiy tamoyil bo‘ldi [11; – C. 74–76].

Bu siyosat natijasida O‘rta Osiyo respublikalari, jumladan, O‘zbekiston SSR, Turkmaniston SSR va Tojikiston SSR hududlari etnik, til va iqtisodiy birlik mezonlariga qarab qayta tashkil etildi. Stalinning nazariy modeli millatni siyosiy-hududiy shakl bilan uyg‘unlashtirishga intilgan bo‘lsada, amaliyotda bu siyosat ko‘plab etnik guruhlarining ajralishiga sabab bo‘lgan [7; – C. 195–197].

Stalin davrida “milliylik” (национальность) atamasi siyosiy jihatdan markazlashtirilgan davlat tizimini mustahkamlash vositasiga aylandi. Bu jarayon “xalq do‘stligi” (дружба народов) g‘oyasi orqali ideallashtirilib, millatlararo totuvlikning siyosiy modeli sifatida namoyish etildi [12; – C. 420–425].

Stalinning millat nazariyasi 1960-yillardan boshlab Sovet va G‘arb tadqiqotchilari tomonidan tanqid ostiga olindi. Taniqli sotsiolog tadqiqotchi Rojers Brubaker bu yondashuvni “millatni iqtisodiy bazis bilan haddan tashqari bog‘lash” deb baholaydi va uni “davlat-siyosiy millatchilikning marksistik varianti” sifatida ko‘rsatadi [4; – C. 36–37].

Shuningdek, ingliz tarixchisi, siyosatshunos va millat masalalari tadqiqotchisi A. D. Smith Stalinning millat formulasi “madaniy va tarixiy uzluksizlikni inkor etadi, millatni faqat kapitalistik jarayonning hosilasi sifatida ko‘radi” deb hisoblaydi [14; – C. 25–26]. Shu bois, ko‘plab zamonaviy etnologlar bu nazariyani “instrumentalist” yondashuv sifatida baholaydilar – ya’ni, millatni siyosiy boshqaruv va davlat barqarorligini ta’minlash vositasi sifatida tushunishadi.

Biroq, sovet ilmiy maktabida Stalinning ta’rifi uzoq vaqt “millat nazariyasining yagona ilmiy asoslangan modeli” sifatida e’tirof etilgan [15; – C. 71].

Stalinning millat haqidagi konsepsiyasi XX asr davomida sovet davlatchiligi shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Uning nazariy qarashlari asosida milliy respublikalar tashkil etildi, milliy tillar kodifikatsiya qilindi va “sovet millati” (советская национальность) modeli ishlab chiqildi [12; – C. 430–433].

Ammo, bu yondashuvning uzoq muddatli oqibatlari murakkab bo‘ldi. 1991-yilda SSSR parchalanganida, milliy-hududiy chegaralash siyosati natijasida yaratilgan respublika chegaralari mustaqil milliy davlatlarning chegaralariga aylandi. Shu sababli, tarixchilar Stalinning millat nazariyasini “siyosiy jihatdan samarali, ammo etnik jihatdan barqaror bo‘lmagan model” sifatida baholaydilar [11; – C. 83].

Hozirgi kunda Stalinning millat konsepsiyasi post-sovet makonida, xususan Markaziy Osiyo davlatlarida, milliy identifikatsiya va davlat siyosati munosabatlarini tahlil etishda tarixiy-nazariy kontekst sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [16; – C. 52–54].

XULOSA



Stalinning “Marksizm va millat masalasi” asari o‘z davrida marksistik nazariya asosida millat va etnos masalalariga yondashuvni siyosiy jihatdan tizimlashtirgan dastlabki urinishlardan biri bo‘ldi. Ushbu asarda millat “tarixiy jihatdan vujudga kelgan, til, hudud, iqtisodiy hayot va madaniy-psixologik umumiylik asosida shakllangan odamlar birligi” sifatida ta’riflanadi. Biroq bu ta’rif ijtimoiy-iqtisodiy determinatsiyaga haddan tashqari urg‘u berib, millatning tabiiy-etnik jihatlarini ikkinchi darajaga surdi. Shu boisdan, keyingi davrlarda bu nazariya Sovet ittifoqida “siyosiy millat” konsepsiyasi orqali mafkuraviy asosga aylantirildi.

Stalinning nazariy qarashlari, bir tomondan, Rossiya imperiyasining milliy masalalarini “proletar internatsionalizm” tamoyillari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan edi. Ammo amalda bu yondashuv Turkiston, Kavkaz va Boltiqbo‘yi kabi mintaqalarda sovetlashtirish siyosatini legitimlashtirish vositasiga aylandi. Natijada, etnoslarning tabiiy rivojlanish jarayonlari buzildi, milliy identifikatsiya siyosiy doirada qayta formatlandi.

Zamonaviy etnologiya va antropologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, Stalinning millat haqidagi konsepsiyasi etnosning madaniy, genealogik va psixologik omillarini yetarlicha hisobga olmaydi. Masalan, L. N. Gumilev va Y. V. Bromley kabi olimlar etnosni tabiiy-biologik hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlar sintezi sifatida talqin qiladi [15]. Shunga ko‘ra, Stalinning nazariyasi marksizm doirasida muhim bosqich bo‘lsada, u millatni ijtimoiy-siyosiy konstruktsiya sifatida biryoqlama izohlab, tarixiy-etnologik murakkablikni soddalashtirib qo‘ygan.

Sovet davlatchiligi siyosiy amaliyotida ushbu nazariya “sotsialistik millatlar” kontsepsiyasiga asos bo‘lib xizmat qildi. Bu esa millat va etnos o‘rtasidagi tabiiy chegaralarning buzilishiga, “yangi tarixiy jamoa – sovet xalqi” tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Shu tariqa, Stalinning 1913-yildagi asari siyosiy jihatdan katta ta’sir ko‘rsatgan, biroq ilmiy nuqtayi nazardan etnos tushunchasining tabiiy-madaniy mohiyatini toraytirgan deb baholanishi mumkin.

Xulosa o‘rinda, shuni ta’kidlash joizki, Stalinning “Marksizm va millat masalasi” asari marksistik nazariya doirasida millatni sinfiy va iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilgan bo‘lsada, u tarixiy-etnologik haqiqatni to‘liq ifodalab bera olmagan. Bugungi kunda ushbu asarni qayta o‘rganish – sovet davri millatlar siyosatining nazariy ildizlarini anglash, hamda post-sovet makonidagi milliy identitet jarayonlarini chuqur tahlil qilish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Kh. Doniyorov, & Valisher E. Abirov. (2022). THEORETICAL CONCEPTUAL VIEWS ON THE EMERGENCE OF THE NATION IN WORLD HISTORIOGRAPHY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY, 3(10), 1–7. <https://doi.org/10.37547/history-crjh-03-10-01>
2. Alymov S. Intellectual and Political Contexts of the Theory of Ethnos in Russia // Etnos. – 2001. – № 4. – P. 23–35.
3. Anderson B. Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – London: Verso, 1983. – 240 p.
4. Brubaker R. Nationalism Reframed: Nationhood and the National Question in the New Europe. – Cambridge: Cambridge University Press, 1996. – 214 p.
5. Geertz C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books, 1973. – 470 p.
6. Gellner E. Nations and Nationalism. – Ithaca: Cornell University Press, 1983. – 150 p.
7. Haugen A. The Establishment of National Republics in Soviet Central Asia. – New York: Palgrave Macmillan, 2003. – 285 p.
8. Hirsch F. Empire of Nations: Ethnographic Knowledge and the Making of the Soviet Union. – Ithaca: Cornell University Press, 2005. – 312 p.



9. Hobsbawm E. J. Nations and Nationalism since 1780: Programme, Myth, Reality. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 191 p.
10. Khrushchev S. Central Asia in the Russian Empire: Education and Reform. – Moscow: Nauka, 2008. – 275 p.
11. Martin T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. – Ithaca: Cornell University Press, 2001. – 496 p.
12. Slezkine Y. The USSR as a Communal Apartment, or How a Socialist State Promoted Ethnic Particularism // Slavic Review. – 1994. – Vol. 53, No. 2. – P. 414–452.
13. Smith A. D. Nationalism and Modernism: A Critical Survey of Recent Theories of Nations and Nationalism. – London; New York: Routledge, 1998. – 309 p.
14. Smith A. D. The Ethnic Origins of Nations. – Oxford: Blackwell, 1986. – 312 p.
15. Гумилев Л. Н. Этногенез и биосфера Земли. – Ленинград: Ленинградский университет, 1990. – 528 с.
16. Дробижева Л. М. Этносоциальные процессы в современной России. – Москва: Наука, 2010. – 286 с.
17. Ленин В. И. Вопрос о национальной и колониальной политике. – Полн. собрание сочинений. – Т. 22. – М.: Госполитиздат, 1962. – С. 101–108.
18. Ленин В. И. О правах наций на самоопределение. – Москва: Политиздат, 1954. – 112 с.
19. Маркс К., Энгельс Ф. Манифест Коммунистической партии. – М.: Госполитиздат, 1955. – 63 с.
20. Маркс К., Энгельс Ф. Немецкая идеология. – М.: Политиздат, 1955. – 238 с.
21. Сталин И. В. Марксизм и национальные вопросы. – Тифлис: Пролетарий, 1913. – 36 с.
22. Сталин И. В. Марксизм и национальные вопросы. // Сочинения. – Т. 2. – М.: Госполитиздат, 1952. – С. 300–342.

Axmedova Iroda Shaxitbekovna

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchi (DSc).
dotsent., falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

RADIKALIZMGA QARSHI G'OYAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA DERADIKALIZM JARAYONLARI

Annotasiya: Ushbu maqolada radikalizmga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirishda deradikalizatsiya jarayonlarining mohiyati, yo'nalishlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Jamiyatda ekstremistik qarashlarga qarshi mafkuraviy barqarorlikni ta'minlash, yoshlar ongida tolerantlik va bag'rikenglik qadriyatlarini mustahkamlashning ijtimoiy-falsafiy asoslari yoritiladi. Deradikalizatsiya jarayonlari orqali diniy va milliy identifikatsiyani sog'lomlashtirish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash hamda radikal g'oyalar ta'sirini kamaytirishning samarali usullari ko'rsatib beriladi. Maqola hozirgi globallashtirish sharoitida ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashning muhim falsafiy va amaliy yo'nalishlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: radikalizm, deradikalizatsiya, g'oyaviy immunitet, ma'naviy xavfsizlik, ekstremizm, tolerantlik, bag'rikenglik, mafkuraviy barqarorlik, ijtimoiy ong, diniy identifikatsiya,



ma'naviy tarbiya, ijtimoiy hamjihatlik, g'oyaviy profilaktika, fuqarolik ong, globallashuv sharoitida xavfsizlik.

Abstract: This article analyzes the essence, directions, and practical mechanisms of deradicalization processes in forming ideological immunity against radicalism. The socio-philosophical foundations of ensuring ideological stability against extremist views in society, strengthening the values of tolerance and tolerance in the minds of young people are highlighted. Effective methods of improving religious and national identity, strengthening social cohesion, and reducing the influence of radical ideas through deradicalization processes are shown. The article reveals important philosophical and practical directions for ensuring spiritual security in the context of modern globalization.

Keywords: radicalism, deradicalization, ideological immunity, spiritual security, extremism, tolerance, tolerance, ideological stability, social consciousness, religious identity, spiritual education, social solidarity, ideological prevention, civic consciousness

KIRISH. Bugungi globallashuv va axborot oqimlari keskin kuchaygan davrda radikalizm jamiyat barqarorligi va ma'naviy xavfsizligiga tahdid soluvchi eng jiddiy ijtimoiy hodisalardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, radikal g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb falsafiy va ijtimoiy masala hisoblanadi. Deradikalizatsiya jarayonlari – bu shaxs va guruh ongida ekstremistik qarashlarni neytrallashtirish, ularni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mazkur jarayonlar ta'lim, ma'naviyat, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni talab etadi. Maqolada radikalizmga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirishning nazariy asoslari, deradikalizatsiya mexanizmlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati hamda ularning amaliy tatbiq etish yo'llari tahlil qilinadi. Shu orqali barqaror, tolerant va bag'rikeng jamiyatni shakllantirish masalasiga falsafiy yondashuv asoslanadi.

Zamonaviy global muhitda radikalizm va ekstremizmning turli shakllari jamiyat barqarorligiga, ayniqsa, yoshlar ongi va dunyoqarashiga jiddiy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonning ildizida mafkuraviy bo'shliq, axborot manipulyatsiyasi va diniy bilimsizlik kabi omillar yotadi[1]. Shu boisdan, radikal g'oyalarga qarshi samarali javob sifatida deradikalizm jarayonlarini rivojlantirish va uning orqali g'oyaviy immunitetni shakllantirish zamon talabi hisoblanadi.

Tahlil va natija. Deradikalizm nafaqat radikal g'oyalarni inkor etish, balki inson ongida tanqidiy fikrlash, ma'rifiy tahlil va mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish jarayonidir. Bu jarayon faqat davlat siyosati doirasida emas, balki jamiyatning barcha sub'ektlari – oila, ta'lim tizimi, diniy soha va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida amalga oshirilishi zarur[2]. Deradikalizatsiya jarayoni shaxsni "to'g'ri fikr"ga majbur qilish emas, balki unga ma'no va qadriyatlarni ongli tanlash imkoniyatini yaratishdir. Shu bois bu jarayonning muvaffaqiyati faqat davlat siyosatiga emas, balki jamiyatning har bir ijtimoiy institutining faol ishtirokiga bog'liq. Oila – axloqiy asoslarni mustahkamlasa, ta'lim tizimi – tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi, diniy soha – ma'naviy yo'nalishni to'g'rileydi, fuqarolik jamiyati esa – ijtimoiy mas'uliyatni kuchaytiradi.

Radikalizm – bu jamiyatdagi mavjud siyosiy, diniy yoki ijtimoiy tizimni keskin, zo'ravon usullar bilan o'zgartirishga intiluvchi mafkuraviy yo'nalishdir. U ko'pincha mutaassiblik, intolerantlik va ekstremistik qarashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson ongida "mutlaq haqiqat" g'oyasini shakllantiradi. Radikalizmning ildizlari siyosiy adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy qiyinchiliklar va ma'naviy bo'shliqlarda yotadi. Ayniqsa, yoshlar o'rtasida g'oyaviy



bo'shliq, tanqidiy tafakkurning yetarlicha rivojlanmagani radikal g'oyalarning singib kirishiga sharoit yaratadi.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda radikalizm virtual maydon orqali keng tarqalmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda ekstremistik guruhlar o'z mafkurasini targ'ib etish, yoshlarni manipulyatsiya qilish uchun zamonaviy kommunikatsion vositalardan foydalanadi. Shu sababli radikalizmga qarshi kurash faqat kuch ishlatish yoki huquqiy choralar bilan emas, balki ma'naviy-ma'rifiy, falsafiy va pedagogik yondashuvlar orqali amalga oshirilishi zarur. G'oyaviy immunitetni mustahkamlash, insonda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, bag'rikenglik va fuqarolik ongini shakllantirish radikalizmga qarshi eng samarali vositalardir. Shu yo'l bilan jamiyatda barqarorlik, tinchlik va ma'naviy uyg'onish uchun zamin yaratiladi.

Radikalizm (lot. radix – "ildiz") ijtimoiy hayotda mavjud muammolarga keskin va zo'ravon yo'l bilan yechim izlash tendensiyasi sifatida ta'riflanadi. Uning mafkuraviy mohiyati – mavjud tartibga qarshi chiqish, mutlaq haqiqatga da'vo qilish va "boshqacha fikr"ni inkor etishda namoyon bo'ladi[3]. Radikalizm hodisasi u faqat ekstremistik g'oyalar tizimi emas, balki chuqur ijtimoiy va ma'naviy inqirozning mahsulidir. Radikalizm jamiyatdagi adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik va identifikatsiya inqirozi natijasida paydo bo'ladi. U insonni o'zini anglash, qadriyatini topish jarayonida "mutlaq haqiqat"ni izlashga majbur etadi, biroq bu izlanish konstruktiv yo'ldan emas, destruktiv yo'l bilan kechadi. Shu nuqtai nazardan, radikalizmni faqat xavfli mafkuraviy oqim sifatida emas, balki jamiyatda mavjud ma'naviy bo'shliqning indikator sifatida ham ko'rish lozim. Insonning radikal g'oyalarga berilishi – bu ongning zaiflashuvi yoki irodasizlik emas, balki ijtimoiy adolat va ma'no izlash ehtiyojining noto'g'ri yo'nalishda qondirilishidir. Demak, radikalizmga qarshi kurashning asosiy vazifasi – zo'ravonlikni bartaraf etish emas, balki insonda ma'naviy immunitetni shakllantirish, ijtimoiy ishonch va o'zaro bag'rikenglikni mustahkamlashdir. Shu tarzda radikalizmni bartaraf etishning falsafiy mohiyati jamiyatni ichki ma'naviy uyg'onish sari yo'naltirishda namoyon bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda radikalizmning kuchayishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik va adolatsizlik hissi;
2. Diniy bilimsizlik va mafkuraviy sustlik;
3. Axborot makonida feyk kontent va manipulyativ targ'ibotning ko'payishi;
4. Yoshlar o'rtasida ma'naviy bo'shliq va ijtimoiy izolyatsiyaning kuchayishi[4].

Radikal g'oyalar axborot texnologiyalari vositasida tez tarqalmoqda. Ayniqsa, blogosfera, messenjer va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi virtual targ'ibot mexanizmlari muammoni yanada chuqurlashtirmoqda[5]. Radikal g'oyalarning axborot texnologiyalari orqali tez tarqalishi zamonaviy jamiyatning raqamli muhitdagi eng jiddiy ma'naviy tahdidlaridan biridir. Blogosfera va ijtimoiy tarmoqlar inson erkin fikrlash makoni sifatida shakllanayotgan bo'lsa-da, bu maydonning nazoratsizligi radikal va ekstremistik g'oyalar uchun qulay muhit yaratmoqda. Ayniqsa, yoshlar ongining shakllanish bosqichida axborot oqimlaridagi manipulyativ mazmun ularning dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu holat shuni anglatadiki, raqamli axborot makoni nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki mafkuraviy kurash maydoniga aylanmoqda. Shu sababli, tadqiqotchi nuqtai nazaridan, muammoning yechimi texnik nazorat yoki senzura bilan cheklanmasligi kerak. Asosiy e'tibor yoshlarning raqamli madaniyatini, tanqidiy fikrlashini va g'oyaviy immunitetini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shunday qilib, raqamli davrda radikalizmga qarshi kurashning eng samarali yo'li – bu ma'naviy-axloqiy barqarorlikni ta'minlaydigan axborot falsafasini shakllantirish va blogosfera hamda ijtimoiy tarmoqlarni ijobiy g'oyalar targ'ibotiga yo'naltirishdir.



Deradikalizm – bu radikal g‘oyalar ta’siriga tushgan shaxs yoki guruhlarini ijtimoiy hayotga qayta moslashtirish, ularning ekstremistik qarashlarini o‘zgartirish va konstruktiv fikrlashga yo‘naltirish jarayonidir. Ushbu jarayon faqat radikalizmga qarshi kurash emas, balki inson ongini sog‘lomlashtirish, g‘oyaviy barqarorlikni tiklash va ijtimoiy totuvlikni ta’minlashga qaratilgan murakkab tizimdir. Deradikalizatsiya, odatda, ta’lim, ma’naviy-ma’rifiy ishlar, psixologik maslahat, diniy dialog va ijtimoiy rehabilitatsiya orqali amalga oshiriladi.

Deradikalizm – bu radikal qarashlarni yo‘qotish emas, balki ularning ildiz sabablarini o‘rganib, insonni ijtimoiy hayotga qayta integratsiya qilish jarayonidir. Bu yondashuvda zo‘ravonlikka qarshi ma’rifiy kurash ustuvor hisoblanadi[6]. Deradikalizmning asosiy maqsadi – radikal qarashlarning ildizini yo‘qotish, ya’ni insonning e’tiqodi, dunyoqarashi va qadriyat tizimini ijobiy tomonga o‘zgartirishdir. Bu jarayonda diniy ulamolar, pedagoglar, psixologlar, sotsiologlar va davlat institutlari o‘rtasidagi hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yoshlar orasida deradikalizatsiya ishlarini kuchaytirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq holda tarbiyalash dolzarb ahamiyatga ega.

Xalqaro amaliyotda deradikalizatsiyaning turli modellari mavjud: Xususan Malayziya va Indoneziyada diniy ma’rifat va dialog madaniyati asosida qayta tarbiya dasturlari amalga oshiriladi; Saudiya Arabistonida “Munosib qaytish” dasturi orqali radikal shaxslar psixologik va diniy qayta yo‘naltirish orqali jamiyatga qaytariladi; Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida deradikalizm inson huquqlariga hurmat, plyuralizm va inklyuziv ta’lim orqali amalga oshiriladi[7]. Deradikalizatsiya – bu zo‘ravonliksiz qarashlarni shakllantirish, insonni ijtimoiy mas’uliyat, bag‘rikenglik va hamjihatlik ruhida tarbiyalash jarayonidir. Uning muvaffaqiyati g‘oyaviy immunitetning kuchayishi, ma’naviy xavfsizlikning mustahkamlanishi va jamiyatda barqarorlikning ta’minlanishiga xizmat qiladi. Shu bois deradikalizm bugungi davrning ijtimoiy-falsafiy va amaliy zaruriyatidir.

O‘zbekistonda deradikalizm jarayonlari milliy va ma’naviy qadriyatlarga asoslanmoqda. Prezident Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, “radikalizmga qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki ma’naviy vazifadir”[8]. Shu nuqtai nazardan, “ma’rifiy islom” g‘oyasi, milliy ma’naviyat va bag‘rikenglik madaniyati deradikalizatsiyaning asosiy ustunlaridir.

G‘oyaviy immunitet – inson ongida yot g‘oyalarni tan olmaslik, tahlil qilish va ularga qarshi ma’naviy pozitsiyani shakllantirish qobiliyatidir. Bu immunitet quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanadi:

1. Ma’rifiy immunitet – ta’lim tizimi orqali shakllanadi. Maktab va oliy ta’lim muassasalarida “mafkuraviy xavfsizlik”, “diniy ma’rifat” va “mediasavodxonlik” fanlarini joriy etish muhim[9].
2. Axborot immuniteti – internet va ijtimoiy tarmoqlarda radikal targ‘ibotga qarshi milliy kontentni kuchaytirish, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish.
3. Diniy immunitet – ulamolar va imom-xatiblar faoliyatida “islom ma’rifatini” to‘g‘ri talqin qilish orqali radikal dunyoqarashlarni inkor etish.
4. Ijtimoiy immunitet – oila, mahalla va jamoatchilik muhitining tarbiyaviy ta’siri orqali jamoaviy ma’naviy barqarorlikni ta’minlash. Deradikalizm jarayonlarida axborot xavfsizligi va mediasavodxonlik alohida ahamiyatga ega. Yoshlar axborotni tahlil qilish, manba haqqoniyligini baholash va feyk targ‘ibotni fosh etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim[10]. Deradikalizm jarayonlarida axborot xavfsizligi va mediasavodxonlikni rivojlantirish – bu mafkuraviy barqarorlikning zamonaviy poydevoridir. Chunki hozirgi davrda radikalizm g‘oyalarining asosiy “quroli” – bu soxta axborot, manipulyativ kontent va emotsional targ‘ibotdir. Yoshlar aynan shu virtual maydonda mafkuraviy tahdidlarga eng ko‘p duch keladi. Shu sababli, tadqiqotchining fikricha, mediasavodxonlik – bu shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki tanqidiy tafakkur, analitik yondashuv va axborotga nisbatan mas’uliyatli munosabat madaniyatidir. Axborot manbalarining ishonchliligini



baholay olish, feyk va manipulyativ xabarlarini ajrata bilish yoshlarning g'oyaviy immunitetini mustahkamlaydi. Deradikalizatsiya jarayonida axborot xavfsizligini ta'minlash davlat nazorati bilan cheklanmasligi kerak – bu jarayon ta'lim tizimi, OAV, oilaviy tarbiya va fuqarolik jamiyati institutlarining uzviy hamkorligini talab etadi. Tadqiqotchi pozitsiyasiga ko'ra, yosh avlodda mediasavodlikni rivojlantirish – radikal g'oyalarga qarshi eng samarali profilaktik chora, u jamiyatning intellektual va ma'naviy xavfsizligini kafolatlaydigan strategik omildir.

Deradikalizm – bu jamiyatni zo'ravon g'oyalardan himoya qilishning faqat ma'muriy chorasi emas, balki ma'naviy qayta tiklanish jarayonidir. U insonning dunyoqarashi, axloqiy pozitsiyasi va ma'rifiy saviyasiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-madaniy jarayon hisoblanadi[11]. Falsafiy nuqtai nazardan, g'oyaviy immunitet “o'zlikni anglash”, “tanqidiy tafakkur” va “boshqani tinglash madaniyati” asosida shakllanadi. Sinergetik yondashuvda jamiyatning barqarorligi uning ichki ma'naviy tizimi muvozanati bilan ta'minlanadi. Agar jamiyatda g'oyaviy immunitet kuchli bo'lmasa, u tashqi yot g'oyalar ta'siriga moyil bo'ladi.

Shu ma'noda, deradikalizmning falsafiy vazifasi – insonni zo'ravonlik va keskinlik emas, balki ma'rifat va bag'rikenglik orqali hayot mohiyatini anglashga yetaklashdir. Bu jarayonda milliy mafkura, dunyoviy bilim va diniy ma'rifat uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi[12]. Deradikalizmning falsafiy vazifasi inson tafakkurini zo'ravonlikdan ma'rifat sari, keskinlikdan bag'rikenglik sari yo'naltirishda mujassamdir. Bu jarayonning markazida insonning ichki dunyosini uyg'otish, uning hayotiy maqsadini anglashga undovchi ma'naviy o'zgarish turadi. Radikalizm kuch va majburlash orqali “haqiqat”ni topmoqchi bo'lgan holda insonni o'zligidan uzoqlashtirsa, deradikalizm uni o'zini anglash, ma'no topish va tinchlikni qadrlash sari yetaklaydi. Bu jarayonda milliy mafkura, dunyoviy bilim va diniy ma'rifat o'rtasidagi uyg'unlik g'oyaviy barqarorlikning asosiy sharti hisoblanadi. Milliy mafkura – vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirsa, dunyoviy bilim – tanqidiy tafakkur va ilmiy yondashuvni kuchaytiradi, diniy ma'rifat esa – insonparvarlik, kechirimlilik va ruhiy poklanishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, deradikalizmning falsafiy mohiyati insonni ichki uyg'unlikka, g'oyaviy mustaqillikka va ma'naviy yetuklikka yo'naltirishdan iborat. U zo'ravonlikni emas, balki ongni yuksaltirish, jaholatni emas, balki ma'rifatni g'alaba qildirishga qaratilgan jarayondir.

Radikalizmga qarshi g'oyaviy immunitetni shakllantirishda deradikalizm jarayonlari quyidagi xulosaga kelindi: Birinchidan, deradikalizm jarayonlari radikalizmga qarshi faqat mafkuraviy inkor emas, balki inson ongini yangilash, tanqidiy fikrlash va ma'rifiy tahlilni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, g'oyaviy immunitetni shakllantirish uchun oila, ta'lim, diniy soha va fuqarolik jamiyati institutlarining uzviy hamkorligi zarur. Bu hamkorlik yoshlar ongini ekstremistik ta'sirlardan himoya qiluvchi barqaror ma'naviy muhitni yaratadi.

Uchinchidan, axborot xavfsizligi va mediasavodxonlik deradikalizatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, yoshlarning feyk axborot va virtual manipulyatsiyalarga nisbatan tanqidiy yondashuvini kuchaytiradi hamda mafkuraviy himoya mexanizmini shakllantiradi.

To'rtinchidan, deradikalizmning falsafiy vazifasi — insonni zo'ravonlik, ekstremizm va keskinlikdan emas, balki ma'rifat, bag'rikenglik va tinchlik orqali hayot mohiyatini anglashga yo'naltirishdir.

Beshinchidan, milliy mafkura, dunyoviy bilim va diniy ma'rifat uyg'unligi deradikalizatsiya jarayonlarining g'oyaviy asosini tashkil etib, jamiyatda ma'naviy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Президентнинг сайлов олди дастури. Инсон қадри учун. — Тошкент.: Ўзбекистон, 2022.
2. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Toshkent.: Маънавият, 2008.
3. Esposito, J. L. Unholy War: Terror in the Name of Islam. — Oxford University Press, 2002.
4. Сатторов Б. Радикализм ва унинг мафкуравий илдиэлари. — Toshkent.: Ижтимоий фикр, 2021.
5. Лутфуллаев Ш. Ахборот хавфсизлиги ва ёшлар онги. — Тошкент.: ТДШУ, 2023.
6. Rabasa, A. & Benard, C. Building Moderate Muslim Networks. — RAND Corporation, 2007.
7. Horgan, J. Walking Away from Terrorism: Accounts of Disengagement from Radical and Extremist Movements. — Routledge, 2009.
8. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Тошкент.: Ўзбекистон, 2021.
9. Абдуллаева Н. Ма'рифий иммунитет ва таълим тизими. — “Фалсафа ва ҳаёт” журналы, 2022, №3.
10. UNESCO Report. Media and Information Literacy for Countering Radicalization. — Paris, 2021.
11. Ministry of Justice of Uzbekistan. National Strategy on Countering Extremism and Terrorism 2021–2026.
12. Habermas, J. Theory of Communicative Action. — Cambridge: Polity Press, 1984.

Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi

Namangan davlat universiteti magistranti

karimjonovagulshanoy07@gmail.com

MA'NAVIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs kamoloti va ma'naviyatning o'zaro uzviy bog'liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Inson ma'naviy barkamollikka erishish jarayonida ijtimoiy muhit, oila tarbiyasi hamda milliy va diniy qadriyatlarning o'rni yoritilgan. Maqolada komil insonni shakllantirishda fidoyilik, axloqiy poklik, imon, insof, diyonat, mehr-oqibat kabi fazilatlarining tarbiyaviy ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, yoshlarni ma'naviy jihatdan yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli shaxs sifatida voyaga yetkazishda ma'naviyat va axloqning o'zaro uyg'unligi muhim omil ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Shaxs kamoloti, ma'naviyat, axloq, tarbiya, milliy qadriyatlar, diniy qadriyatlar, komil inson, fidoyilik, ma'naviy barkamollik, fuqarolik jamiyati.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, vijdon erkinligi to'liq ta'minlandi, ajdodlarimizning boy an'anaviy diniy merosi qayta tiklandi. Bugungi kunda mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida dinimiz ravnaqi yo'lida beqiyos xizmat qilgan buyuk allomalar va aziz avliyolar xotirasiga bag'ishlangan me'moriy-ma'naviy majmualar hamda ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu majmualar va markazlarning asosiy maqsadi — xalqimiz, xususan, yosh avlod o'rtasida ilm-ma'rifatni keng targ'ib etish, ularning milliy o'zligini chuqurroq anglashiga, ma'naviy va axloqiy barkamollikka erishishiga ko'maklashishdan iboratdir.



O'zbekistonda yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda din va fan, davlat organlari hamda diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik tizimi shakllantirildi. Bu jarayonda islom dinining muqaddas manbalari – Qur'oni karim, Hadislar majmuasi (Sunnat), shariat qoidolari, axloqiy-etik me'yorlar, da'vat va ta'limotlardan samarali foydalanish imkoniyati yaratildi. Mazkur holat jamiyatimizda ma'naviy yangilanish sharoitida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unligining amaliy ifodasidir.

Xalqimizning madaniy-diniy merosi taraqqiyotida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur Moturidiy, Abu Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Mahmud Zamahshariy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi ulug' mutafakkir va allomalar qoldirgan ilmiy-diniy meros alohida ahamiyat kasb etadi. Tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan zamonaviy davrda ilm-ma'rifat va yuksak ma'naviyat mamlakat taraqqiyotining muhim omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ma'rifat va bag'rikenglik tushunchalari o'zaro uyg'un bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Zero, jamiyatimiz siyosiy va madaniy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar sharoitida barqarorlikni ta'minlash, ayniqsa yoshlar ongida bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro hurmat g'oyalarini mustahkamlash dolzarb masalalardan biridir.

Bag'rikenglik demokratiyaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, insonlarning e'tiqodi, qadriyatlari va turmush tarzidagi farqlarga nisbatan hurmat bilan yondashishni, qonunchilikka zid bo'lmagan har qanday fikr va harakatlarga toqat bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Millatlararo totuvlik esa umumbashariy qadriyat sifatida turli millat va elatlarga mansub fuqarolarning yagona maqsad yo'lida hamjihatlikda faoliyat yuritishini ta'minlaydi. U jamiyatdagi tinchlik, barqarorlik va ijtimoiy birdamlikning ma'naviy asosi va kafolati hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yagona oila farzandlaridek totuv va do'stona hayot kechirmoqda. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan 138 ta milliy-madaniy markaz hamda 34 ta do'stlik jamiyati barcha millat va elatlarning tarixi, madaniyati, an'ana va urf-odatlarini asrash, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shmoqda.

Tolerantlik – bu insonlar, millatlar, madaniyatlar, e'tiqodlar, urf-odatlar, dinlar hamda mafkuralar o'rtasidagi turli ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni muvozanatda saqlab turuvchi ijtimoiy-me'yoriy tamoyildir. U jamiyatda mavjud bo'lgan iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy va diniy qadriyatlar tizimi doirasida inson axloqiga nisbatan belgilangan etik-estetik qoidalar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarni diniy bag'rikenglik, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda diniy qadriyatlar hamda islomiy g'oyalar hayotimizning barcha jabhalarida tobora chuqurroq o'rin egallab, jamiyat ma'naviyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Islom dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi mintaq xalqlari hayotida yangi ma'naviy bosqichni boshlab berdi. Islomiy qadriyatlar inson tafakkuri, ong va turmush tarzida chuqur ildiz otib, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan holda ma'naviy madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa, diniy va dunyoviy qadriyatlar o'zaro chambarchas bog'lanib, xalq ma'naviyatining yuksalishiga, ijtimoiy tafakkurning shakllanishiga asos bo'ldi.

Ko'p asrlik tariximizga nazar tashlaganda, allaqachon ilk o'rta asrlardayoq diniy va dunyoviy fanlar o'qitilgan ko'p tarmoqli madrasalar tizimi shakllanganini ko'rish mumkin. Shu davrda dunyoviy ilm-fan taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi allomalar jahon miqyosida tan olingan. Shu bilan birga, islom olamida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Burhoniddin



Marg'inoniy, Imom Moturidiy singari ulug' ulamolarning ilmiy merosi yuqori baholanib, keng o'rganilgan.

Jahon ilmiy hamjamiyatining o'zbek allomalari ilmiy-ma'naviy merosiga bo'lgan e'tibori O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini oshirdi. Xususan, Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Islom tashkiloti (ISESCO) tomonidan Toshkent shahrining 2007-yilda "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinishi buning yaqqol isbotidir. Mazkur qaror mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy va diniy qadriyatlarni o'rganish, asrab-avaylash hamda yosh avlod ongiga ezgu g'oyalarni singdirish yo'lida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning jahon miqyosida tan olinganidan dalolat beradi.

Shaxsning komillikka erishishi, avvalo, diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallashga bog'liqdir. Diniy ta'limot insonning ruhiy va axloqiy ehtiyojlarini qondirsa, ilm-fan uning ijtimoiy, ma'naviy hamda iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy jamiyatda diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan ilm-fanning uyg'unligi komil insonni tarbiyalashda asosiy mezonlardan biri sifatida qaraladi.

Shaxs kamolotini ma'naviyatsiz, ma'naviyat rivojini esa insoniyat jamiyatining izchil taraqqiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Haqiqiy barkamol inson o'zida komillikning yuksak sifatlarini shakllantiradi, eng avvalo, shaxsiy manfaatlarini xalq va jamiyat manfaatlaridan ustun qo'ymaydi. Insondagi barcha ezgu fazilatlar va qadriyatlar tabiiy tarzda emas, balki ijtimoiy muhit, o'zaro munosabatlar hamda tarbiyaviy jarayonlar ta'sirida shakllanadi. Shu bilan birga, jamiyatda o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, xudbinlik va befarqlik kabi ma'nan qashshoqlik belgilarini o'zida mujassam etgan shaxslar ham uchrab turadi.

Yosh avlodni fidoyilik, mehnatsevarlik va bunyodkorlik ruhida tarbiyalash – ma'naviy jasoratning eng yuksak ifodasidir. Har bir yoshning o'z oldiga qo'ygan maqsad sari tinimsiz intilishi, mehnat jarayonida bardavomlik va mas'uliyatni doimiy hayot mezoniga aylantirishi ularning ichki ma'naviy kuchi va vatanparvarlik tuyg'usidan dalolat beradi.

Ma'naviy va axloqiy poklanish, imon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar tabiiy jarayon emas, balki ongli tarbiya mahsulidir. Har bir ezgu sifatning ildizida oila va jamiyatdagi tarbiyaviy muhit, o'zaro hurmat va ishonch yotadi. Ayniqsa, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlar oilaning mustahkamligi va barqarorligining muhim omilidir.

Darhaqiqat, milliy va diniy qadriyatlarning axloqiy hamda huquqiy jihatlarini mustahkamlash jamiyatda komil insonni shakllantirish, ma'naviy yetuk shaxsni tarbiyalash va fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ma'naviyatni rivojlantirish, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va yoshlar ongiga ezgu g'oyalarni singdirish har qanday taraqqiyotning asosiy kafolati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Лафасов М., Юсупов У., Номозова К. Миллий -маънавий тикланиш. Укув кулланма. -Тошкент: 2008. -Б.191.
2. **MILLIY QADRIYATLAR ORQALI OILADA BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI». S Jabborova - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2022**
3. R.X. Ruziyeva, Milliy g'oya rivojida qadriyatlar tizimi, Toshkent -2020, 49-betlar.



YOSHLAR IDENTIKLIGINI MILLIY QADRIYATLAR NEGIZIDA TARBIYALASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Maqolada identiklik, mansublik tushunchalarining mazmun mohiyatiga qisqacha izoh berilgan. Bugungi kunda yoshlardagi axloqiy identiklik jarayonlari ochib berilgan. Shuningdek, yoshlardagi axloqiy mansublik va axloqiy identiklikni rivojlantirish mexanizmlari batafsil keltirib o'tilgan. Ushbu maqolada yoshlar ongiga ta'sir qiladigan salbiy g'oyalar, salbiy axborot hurujlari, va unga qarishi kurashishning milliy tamoyillari atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Identiklik, mansublik, axloq, yoshlar identikligi, mansublik jarayonlari, milliy ong, milliy iftixor, milliy g'urur, milliy mansublik, milliy.

Abstract: The article briefly explains the essence of the concepts of identity and belonging. Today, the processes of moral identity in young people are revealed. Also, the mechanisms of developing moral belonging and moral identity in young people are described in detail. This article comprehensively covers the negative ideas that affect the minds of young people, negative information attacks, and national principles for combating them.

Annotation: Identity, belonging, morality, youth identity, belonging processes, national consciousness, national pride, national pride, national belonging, national.

Shiddat bilan o'zgarayotgan bugungi olam insoniyat qarshisiga juda ko'p savollarni qo'yimoqda. Shulardan eng asosiysi insonlar nafaqat o'z axloqiy xususiyatlarini o'zgartirmoqda balki tabiiy yaralgan holatlarini ham o'zgartirishga harakat qilmoqda vaholanki, shu asnodda o'z erkiga erkinlik berib odomzotga xos bo'lgan tabiiy qonuniyatlarga qarshi chiqib uning me'yorlarini butunlay boshqa qiyofaga keltirishga harakat qilinmoqda. Bu holat insonlarning axloqiy, ma'naviy dunyoqarashiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning ortidan ayniqsa yoshlar juda katta axloqiy zarar ko'rayapti. Shuning uchun yoshlarda bugungi kunda axloqiy ma'naviy identiklikni rivojlantirishni hayotning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi. Eng avvalo Yangi O'zbekiston yoshlarida axloqiy mansublikni shakllantirishda milliy mexanizmlar asosiy ro'lni o'ynaydi.

Yoshlarda axloqiy mansublik jihatlari rivojlantirishda milliy mexanizmlardan biri bu oila institutidir. Chunki, qadim-qadimdan oila bilan bog'liq bo'lgan juda ko'p axloqiy munosabatlarimiz shakllanib kelmoqda. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning bir fikrini keltirib o'tmoqchiman "Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakni tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sturmakdir" [1. – B. 5] Jamiyatda hech bir institut yoshlarni tarbiyalashda oila institutiga teng kelolmaydi.

Jamiyat ma'lum bir mintaqada birlashgan insonlarning yig'indisi deb aytish mumkin. Inson obro'siga mos bo'lmagan o'zligidan ajralgan, o'tmish xotirasi yo'q, o'zining kelib chiqishini bilmagan, kimlarning avlodlari ekanligini anglamagan, yoshlar bilan kelajak qurib bo'lmaydi. Juda taraqqiy etgan jamiyat esa ajdodlarini bilgan insonlardan tashkil topadi.

Odanzot ijtimoiy jonzot deb qaralganda, uning erkin fikriga, e'tiqodga, yaratuvchilik qudratiga, boshqalar va yashayotganimiz olam qarshisidagi mas'ullik hissiga ega ekanligi hisobga olinadi. «XX asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkuralarining xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi, geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytirdi. Bunday sharoitda o'z maqsadini aniq belgilab olgan, ehtiyoj va



manfaatlarini yaxshi anglab yetgan, o'z e'tiqodiga ega bo'lgan, bir so'z bilan aytganda, o'z milliy g'oyasini shakllantirgan millatgina kelajagini saqlab qoladi va istiqbolini belgilaydi» [2. – B. 27] Odamzot yashayotgan ekan, bu yorug' olamda o'ziga ko'plab vijdoni oldida savollar beradi. Bu holat insonning o'zligini anglashga ko'maklashadi.

Zero, insoniyat jamiyati yaratilibdiki, turli xalq olimlari odamni o'zlikni tushinishga chorlaydi. Bugungi globallashuv jarayonlarining Ijtimoiy turmush tarzimiz bilan aloqasi borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o'z fikrlarini bildirar ekan, "Yangi tahdidlar, jumladan, «omnaviy madaniyat» xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir", [3. – B. 326] - deb ta'kidlaydilar. Albatta bugungi kun globallashuv jarayonlari o'zining nimaga qodirligini ko'rsatib kelmoqda. Bunday sharoitda har bir xalq o'zining milliy qadriyatlari milliy an'alarini saqlab qolishga harakat qilishi lozim. Bu jarayon albatta, yoshlar orqali amalga oshirilsa yanada mustaxkamlanadi va keying avlodga yetib boradi deb o'ylaymiz.

Demak xalq o'zligini xalq sifatida, yurt sifatida bilmasa, u o'zining sha'ni, qadr-qimmati, oriyati ibo-hayosi haqida o'ylab, milliy g'urur va iftixor hissini to'la anglolmasligini bilishimiz mumkin.

Boshqacha aytganda, biz o'zining milliy xususiyatlarini biladigan, o'z bilimi va tajribalariga asoslanadigan, o'zining yonida sodir bo'layotgan jarayonlarga shaxsiy fikr va dunyoqarash bilan yondashadigan, bugungi davrda shaxsiy manfaatlarini yurt va xalq manfaatlarini bilan birga holda ko'radigan erkin, har jihatdan yetuk yoshlarni voyaga etkazishimiz kerak. Tadqiqotimiz mobaynida yurtimizda hozirgi kunda yoshlar identikligini rivojlantirish va o'zlikni anglash uchun quyidagilarni milliy mexanizmlar tamoyillarini keltirib o'tmoqchiman:

1. Milliy ong: Butun bir ijtimoiy fikrlar tuzilmasiki, u har qaysi xalqning tarixi, taqdiri va kelajagi bilan aloqador hisoblangan ehtiyojlar, maqsadlarni e'tirof etish bilan birga birga, xalq vakillari harakati maqsad, yo'nalishlar tomon yo'naltirib turadi. Shuning uchun biz yoshlarga bolaligidan oilada keyinchalik ta'lim muassasasida milliy ongni shakllantirishimiz va milliy tafakkur tarzi rivojlanshiga ko'makdosh bo'lishimiz zarur.
2. Milliy g'urur: Odamzot, ma'lum bir sotsial guruhning milliy o'zligini tanishi sababida rivojlanadigan, ota-bobolari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z mamlakatining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'sha, xalqlar oldidagi xurmati, obro'-e'tiboridan g'ururlanishni ifoda etuvchi tushunchahisoblanadi. Yoshlarni ilk bolalik davrdan ajdodlar milliy qaxramonliklari haqida ko'proq ma'lumot berib borishimiz ular amalga oshirga yuksak olamshumul ishlarni ular ongiga singdirishimiz va buyuk ajdodlar xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalashimiz lozim.
3. Milliy iftixor: Xalq axloqiy etukligining jamiki belgilarini, ma'naviy merosi va hozirgi qadriyatlarini o'zida mujassam etadi. Milliy islohatlar ortidan qo'lga kiritilgan va erishilajak iqtisodiy va ma'naviy muvaffaqiyatlar ko'paygan sari O'zbekiston bilan g'ururlanish tuyg'usi – milliy his borgan sari ko'payib boraveradi. Kelajagimiz bunyodkorlarini milliy madaniyatimiz o'lmas urf-odatlarimiz yurtimizda erishilayotgan barcha sohalaridagi yutuqlar bilan faxrlanish tuyg'usini ular ongida shakllantirishimiz zarur.
4. Milliy his tuyg'u: Bu xalq ehtiyoji orqali yashash, o'zining kim ekanligini anglamoq. Asl o'tmishini bilmagan odamda milliy g'urur so'nadi. Milliylik, xalqqa xos mansublik bu dunyo rivojlanishining qonuniyatidir, milliy g'urursiz hech bir xalq xalq sifatida rivojlanmaydi. Men kimman mening ajdodlarim kim bo'lgan, ularning izdoshi sifatida qiladigan ishlarim qanday



bo'lishi kerak degan savollarga bugungi kun zamonaviy yoshlar javob berishi lozim. Bu mexanizmni amalga oshirish uchun yoshlar masalalari bilan ishlaydigan hamkor tashkilotlar bilan doimiy uchrashuvlar, natija beradigan tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

5. Milliy xarakter ruhiyat (psixologiya): O'zbekiston xalq xarakteri, milliy dunyoqarashi, milliy o'ziga xos tomonlari asrlar mobaynida vujudga kelgan hamda asta-sekin ularning ruhiyatiga joylashib ketgan. Har bir xalqning, jamiyatning, jamoaning milliy xarakteri bo'lgani kabi bizning ham milliy xarakterimiz mavjud. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berayotganimizda bu jarayondan foydalanishimiz mumkin Masalan yoshlarga aytishimiz mumkin sen buyuk olimlari bo'lgan yurtidan bo'lganing uchun o'qishing kerak kabi xarakterli jumalardan keng foydalanish yaxshi samara beradi.

Ushbu o'lchamlargina aniq milliy xususiyatlarni tushinishning asosi bo'lib bu mezonlarda shakllangan yoshlar jamiyat rivojlanishiga ko'proq o'zining hissasini qo'sha oladi va bunaqa jamiyat mamlakatning mustaxkam asosi bo'ladi. Chunki, bolalikdan milliy qadriyatlarni yaxshi targ'ib qilsak yoshlar hayotida ijobi o'zgarishlar yuz beradi.

Fikrimizcha, yoshlarning ma'naviy-axloqiy mansubligi quyidagi umumbashariy qadriyatlarga asoslanishi lozim.

- **Yoshlarni insonparvar qilib tarbiyalash.** Insonparvarlik bu eng muhim insoniy hislatlar va tamoyillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, yoshlarni insonparvar qilib tarbiyalash jamiyatning ijtimoiy ma'naviy muhitini ijobiy tarafga o'zgartiradi. Insonlar o'rtasida o'zaro hurmat mehr-oqibat munosabatlari yaxshi tarafga kuchayadi.
- **Yoshlarni adolatli va haqiqatgo'y qilib tarbiyalash.** Haqiqatgo'ylik muhim axloqiy qadriyat sifatida yoshlarning muhim ma'naviy axloqiy qiyofasini belgilab beruvchi omil hisoblanadi. Haqiqatga intilib yashash birinchidan insonning vijdonini poklaydi, ikkinchidan, hayot yo'lida to'g'ri yashahsga chorlab turuvchi eng muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.
- **Yoshlarni tolerantli qilib tarbiyalash.** Tolerantlik bu iymonni, e'tiqodni, umuman olganda, tom ma'nodagi insoniylikni ta'minlovchi barcha omillar qalbida chuqur joy olgan fuqoralarga ega mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlantira oladigan yoshlarni tushinish mumkin. Shuning uchun yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir. Shuningdek:

Yoshlarning shaxsiy irodasini shakllantirish. Iroda ichki hissiyotdir, lekin kerakli insoniy xislatdir. Iroda odamda anglash, tushunish va energiya olish quvvatini paydo qiladi. Iroda orqali shaxs dunyo va insonni, bo'layotgan jarayonlarni va hodisalarni tushunib yetadi, reallikni teran anglaydi, ijobiy va salbiy jarayonlar ta'sirida qat'iyatlilik qobiliyatini hosil qiladi. "Insonda iroda birdaniga vujudga kelmaydi, aksincha bu ma'lum bir muddat mobaynida yuzaga keltiriladi. Faylasuf olim I.Saifnazarov o'zining ilmiy izlanishlarida ma'naviy yetuklikka yetishish mumamosini tadqiq etar ekan, "Komillik uning ko'nglidagi, irodasidagi tabiiy intilishga asoslanishi kerak" [4.–B. 26] deydi, demak, irodali inson ongli va anglagan tarzda jamiyatda o'z o'rnini topadi va mustaqil fikr bilan harakat qiladi irodasiz kishi esa ongsiz, hamda boshqa shaxslar fikriga qaram sifatida shakllanadi. Inson qanchalik ma'naviyatli bo'lsa uning irodasi ham asta sekin kuchayib boradi.

Yoshlarni vatanparvar qilib tarbiyalash. Bu dunyoda har bir insonning kindik qoni to'kilgan joyi vatani mavjud. Hech bir inson o'z vatanidan ayro holda tassavur qilinmaydi. Shuning uchun yoshlarni o'z ona xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalash muhim masaladir.

Yoshlarda axloqiy identiklikni shakllantirishning milliy mexanizmlarini va ularning ongida mansublik hissini rivojlantirish maqsadida quyidagilarni aytib o'tmoqchimiz:

1. "Yoshlar milliy qadriyatlarning kelib chiqishini o'rganishi va uning hayotdagi o'rnini his qilishi".



2. “Ota-onani hurmat qilish va qadriga yetish”.
3. “Oila muqaddasligini tushinishi va uni har qanday vaziyatda asrab-avaylashi, oilaning dars ketishining oldini olish choralarini ko‘rishi”.
4. “Har bir inson manfaatini hurmat qilishi va odamlarga beg‘araz yordam berishi”.
5. “Yoshlarda yigitlik g‘ururi va sha‘nini tarbiyalash. Qizlarda qizlik ibo-hayo va iffatini saqlash”
6. “Qo‘shnilar bilan yaqin qo‘shnichilik munosabatlarini mustaxkamlash va o‘zaro munosabatlarda sharqona qadriyatlarni hurmat qilish”.
7. “O‘zi yashayotgan mahalla guzarini obod qilish va mahalladagi yashayotgan insonlarga nisbatan yuksak axloqiy munosabatlarni qaror toptirish”.
8. “Vatanparvarlik tuyg‘usini his qilish uni har qanda havf hatarlardan asrashga tayyor turish”
9. Milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘ururni his qilish
10. Xalq milliy an‘analarini hurmat qilish ularning nechog‘lik ma‘naviy ozuqa ekanligini his qilish

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, yoshlarda axloqiy identiklikni rivojlantirish yo‘llari hamda O‘zbekiston yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda milliy mansublik bo‘yicha tadbirlar tashkil qilish imkonini beradi. Dunyoda yuz berayotgan g‘oyaviy kurash jarayonida yoshlar ongida milliy g‘urur milliy mansublik jihatlarini men kimman? Qaysi xalq farzandlariman Mening axloqan mansubligim qaysi kriteriyalar bilan o‘lchanadi? kabi jihatlar rivojlanishida xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlar bilan ishlash tashkilotlari yoshlarni vatanparvar milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash asoslarini mustahkamlash jihatlarini chuqur tadqiq etishga e‘tiborni qaratish yaxshi natija beradi.

Hozirgi ozod va mustaqil umrning mazmunini va zarurligini yoshlarning ongi va shuuriga singdirishda avvalambor oila ustunlari hisoblangan ota-onalar, o‘qituvchi va soha vakillari mas‘uliyatni chuqur his qilishi lozim. Zero, bugun yoshlarimiz qanday qadriyat va madaniyatlar tomon harakat qilmoqda, nima fikr va maqsadlar bilan umurguzarolik qilmoqda, barchamiz bu jarayonga e‘tiborsiz va beparvo munosabatda bo‘lmasligimiz kerak. Aks holda eng asosiy resurs bo‘lgan yoshlarimiz bilan ko‘zlagan maqsadlarimizga erisholmasligimiz mumkin. Bu esa odamni o‘yga toldiradi. Bu jarayonda hali ko‘plab tadqiqotlar va qilinadigan ishlar borligini eslatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud axloq Toshkent 2004-yil 5-bet
2. Safoeva. S. Globallashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta’siri. // Globallashuv jarayonida jamiyatni demokratlashtirishning siyosiy, falsafiy-huquqiy masalalari. –Toshkent: Falsafa va huquq nashriyoti, 2006, 27-bet.
3. Mirziyoev.Sh.M. .Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma‘naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. -T.: O‘zbekiston. 2017. –326 b
4. Saifnazarov I. Ma‘naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. – Toshkent: Sharq, 2001. – B.26.



Abdurahimova Shirinoy Shermirza qizi

Namangan davlat universiteti

Sotsiologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK-KELAJAK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning nazariy asoslari, ularning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hamda madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida mazkur sohadagi davlat siyosatining huquqiy, institutsional va amaliy mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, ularning ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va taraqqiyotga ta'siri ilmiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli yondashuv, sotsiologik tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy barqarorlik, milliy birlik, vijdon erkinligi, madaniyatlararo muloqot, sotsiologik yondashuv, tinchlik, taraqqiyot.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy sharti — bu tinchlik, barqarorlik va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchdir. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ana shu barqarorlikning tayanch omillaridir. Bugungi globallashuv sharoitida etnik, diniy va madaniy xilma-xillik ijobiy ijtimoiy hodisa sifatida baholansa-da, uni muvofiqlashtirish, o'zaro hurmat va bag'rikenglik asosida boshqarish zamonaviy davlat siyosatining eng muhim yo'nalishiga aylangan [1].

O'zbekiston qadimdan ko'p millatli, ko'p dinli jamiyat sifatida shakllangan. Bu yerda o'nlab millatlar, elatlar, konfessiyalar vakillari bir makonda tinch-totuv yashab kelgan. Zardushtiylik, buddizm, islom, nasroniylik va yahudiylik diniy ta'limotlari bu zamin tarixining ajralmas qismidir [2]. Shu bois bag'rikenglik va totuvlik qadimiy madaniyatimizning ildizlariga borib taqaladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston bu qadriyatlarni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni mustahkamlash — bu bizning hayotiy ehtiyojimiz, milliy manfaatimizdir" [3]. Bugun O'zbekiston xalqini 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari tashkil etadi, ularning barchasi yagona vatan — O'zbekiston bayrog'i ostida tinch-totuv yashamoqda.

Konstitutsiyaning 8-moddasida "O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston fuqarolari tashkil etadi", 31-moddasida esa "Har bir inson vijdon erkinligi huquqiga ega" deb belgilangan [4]. Bu huquqiy normalar millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosatining mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Millatlararo totuvlik — bu turli millat, elat va etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy munosabat tizimidir [5]. Totuvlik mavjud jamiyatda siyosiy barqarorlik, ijtimoiy ishonch va milliy birdamlik kuchayadi. Aksincha, millatlararo nizo va ziddiyatlar jamiyatni beqarorlikka olib keladi.

O'zbekistonda millatlararo totuvlikni ta'minlash borasida chuqur o'ylangan davlat siyosati ishlab chiqilgan. "O'zbekiston — umumiy uyimiz" tamoyili bu siyosatning konseptual ifodasidir [6]. Mazkur g'oya barcha millat va elat vakillarining yagona fuqarolik asosida birlashishini, ularning tili, madaniyati va urf-odatlariga hurmat bilan qarashni anglatadi.

Bu siyosatni amalga oshirish uchun 2017-yilda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etildi. Qo'mita mamlakat bo'ylab faoliyat yuritayotgan 150 dan ortiq milliy madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, "Do'stlik uylari" orqali madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi [7].



Shuningdek, har yili o'tkaziladigan "O'zbekiston – bizning umumiy uyimiz" festivali, xalq do'stligi haftaliklari ham millatlararo totuvlik siyosatining amaliy ifodasidir. Bunday tadbirlar orqali millatlar o'rtasida o'zaro ishonch, madaniy aloqalar mustahkamlanmoqda.

Millatlararo totuvlikning asosiy siyosiy ahamiyati shundaki, u milliy birlashuvni kuchaytiradi, ijtimoiy tizimni integratsiyalashga yordam beradi. Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, aholining 90 foizdan ortig'i O'zbekistonda millatlararo totuvlikni "asosiy ijtimoiy boylik" deb biladi [8].

Diniy bag'rikenglik – bu jamiyatda turli e'tiqodga ega insonlarga nisbatan hurmat, sabr-toqat va adolatli munosabatni ifodalaydi [9]. U insoniyat madaniyatining muhim tarkibiy qismidir. O'zbekistonda diniy bag'rikenglik qadimdan mavjud bo'lib, Buxoro va Samarqanddagi qadimiy cherkov va sinagogalar bunga yaqqol misoldir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan bir qatorda, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun (2021) [10] diniy erkinlikni kafolatlaydi. Ushbu qonun asosida davlat diniy tashkilotlarning erkin faoliyat yuritishiga imkon yaratadi, ammo ularni siyosatdan ajratilgan holda saqlaydi.

Bugungi kunda mamlakatda 16 ta diniy konfessiya, 2200 dan ortiq diniy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda [11]. Ular orasida islom, pravoslav va katolik cherkovlari, yahudiy sinagogalari, buddist ibodatxonalari ham mavjud. Diniy tashkilotlar faoliyatining ochiqligi, davlat tomonidan huquqiy himoyasi diniy bag'rikenglik siyosatining asosiy natijalaridan biridir.

O'zbekiston hukumati diniy ekstremizmga qarshi kurashda mafkuraviy yondashuvni tanlagan. "Ma'rifat va bag'rikenglik" g'oyasi asosida yoshlar ongida diniy toqatlilik, sog'lom e'tiqod va milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish maqsad qilingan [12]. Bu yo'nalishda Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi allomalarning asarlarida ilgari surilgan bag'rikenglik g'oyalari targ'ib etilmoqda.

Diniy bag'rikenglikning ma'naviy ildizlari o'zbek xalqining tolerantlik an'analarida chuqur joylashgan. "Qo'shning tinch – sen tinch", "Tinchlik – eng katta boylik" degan xalq maqollari ham aslida ijtimoiy bag'rikenglik falsafasining ifodasidir [13].

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik O'zbekistonning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy taraqqiyotida beqiyos rol o'ynaydi. Ular mamlakatda ijtimoiy barqarorlik, fuqarolar birdamligi va milliy xavfsizlikni ta'minlaydi [14].

Bugungi kunda O'zbekiston modeli xalqaro maydonda "tinchlik diplomatiyasi" namunasi sifatida e'tirof etilgan [15]. Bu modelning asosiy jihati shundaki, u millatlararo totuvlikni faqat ichki siyosat emas, balki tashqi siyosatning ham ajralmas qismi sifatida qaraydi.

Masalan, O'zbekiston Markaziy Osiyoda "yaxshi qo'shnichilik siyosati"ni yuritmoqda. Bu yondashuv mintaqaviy barqarorlik va integratsiyaga xizmat qiladi. Shuningdek, bag'rikenglik siyosati mamlakat ichida ijtimoiy faollikni oshiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi [16].

Diniy va millatlararo totuvlikning ijtimoiy natijalari iqtisodiy sohada ham sezilmoqda. Tinchlik va totuvlik muhitida investitsion muhit yaxshilanadi, xorijiy sarmoya jalb etiladi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tinchlik va bag'rikenglik mavjud bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy ishonch darajasi yuqori, jinoyatchilik darajasi past bo'ladi [17].

Shuningdek, bag'rikenglik siyosati yoshlar ongida millatlararo hamjihatlikni mustahkamlaydi. Ta'lim tizimida "Madaniyatlararo muloqot", "Dinshunoslik asoslari", "Odobnoma" kabi fanlar aynan shu maqsadda o'qitilmoqda.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik shunchaki siyosiy shior emas, balki milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtiruvchi g'oyadir. O'zbekistonning "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi ham aynan shu qadriyatlarga asoslanadi [3].



Xulosa qilib aytganda, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – bu nafaqat ijtimoiy tinchlikning, balki iqtisodiy yuksalish va madaniy taraqqiyotning ham garovidir. O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, turli millat va din vakillarining o'zaro hurmat asosida yashashi mamlakatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy rivoji va xalqaro nufuzini mustahkamlamoqda. Bu qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash har bir fuqaroning vijdoniy burchidir. Ayniqsa, yosh avlodni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, ularning ongida millatlararo hamjihatlik g'oyalarini chuqur singdirish – kelajak taraqqiyotining kafolatidir.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari O'zbekistonni yanada kuchli, barqaror va farovon davlat sifatida shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
- [2] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
- [3] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
- [4] "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2021.
- [5] Abdullaev A. "Millatlararo totuvlikning sotsiologik asoslari." – Sotsiologiya va siyosatshunoslik jurnali, №3, 2022.
- [6] O'zbekiston – umumiy uyimiz: rasmiy axborot portali. – Toshkent, 2023.
- [7] Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi. – <https://interrelations.uz>.
- [8] Sotsiologik tadqiqotlar instituti hisobotlari. – Toshkent, 2022.
- [9] UNESCO. Promoting Tolerance and Intercultural Dialogue. – Paris, 2020.
- [10] Jumayev M. "Diniy bag'rikenglik – tinchlik garovi." – Ma'naviyat va hayot, №6, 2021.
- [11] Din ishlari bo'yicha qo'mita ma'lumotlari. – Toshkent, 2023.
- [12] "Ma'rifat va bag'rikenglik" dasturi. – Toshkent, 2022.
- [13] O'zbekiston xalq maqollari to'plami. – Toshkent: Fan, 2019.
- [14] YUNESKO Bosh Assambleyasi hujjatlari. – Parij, 2021.
- [15] O'zbekiston TIV: "Markaziy Osiyo tinchlik diplomatiyasi tajribasi." – Toshkent, 2022.
- [16] Habibullayev R. "Tinchlik siyosati va fuqarolik jamiyati." – Ijtimoiy fanlar jurnali, №1, 2023.
- [17] World Bank. Social Cohesion and Development Report. – Washington, 2021.

Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Umumiy pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Abdumannobova Dilshoda Abdurauf qizi

Buriyeva Umida Baxriddin qizi

Xamrayeva Sunbula Dilshod qizi

Kasimova Venera Faraxad qizi

Sobirjonov Baxromboy Abdurashid o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Milliy g'oya va huquq ta'limi yo'nalishi talabalari

**PEDAGOGIK JARAYONDA YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK VA TOTUVLIK
QADRIYATLARIGA YO'NALTIRISH**



Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogik jarayonda yoshlarni bag'rikenglik va totuvlik qadriyatlariga yo'naltirishning ijtimoiy hamda falsafiy jihatlarini tahlil etiladi. Mazkur masala O'zbekiston ta'lim tizimi modernizatsiyasi, ma'naviy yangilanish jarayonlari, shuningdek, globallashuv sharoitida millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirish kontekstida ko'rib chiqiladi. Maqolada ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida bag'rikenglik tushunchasining ma'naviy-axloqiy mohiyati, uning pedagogik jarayondagi o'rni va yosh avlod ongida totuvlik qadriyatlarini shakllantirish mexanizmlari ochib beriladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning g'oyalari asosida yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bag'rikenglik, totuvlik, ijtimoiy-falsafiy asos, pedagogik jarayon, millatlararo munosabat, ma'naviy qadriyatlar, tarbiya, tolerantlik, yoshlar, ma'naviy yangilanish.

Kirish

Insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyatning eng muhim qadriyati bu – o'zaro hurmat, tinchlik va totuvlikdir. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, har qanday sivilizatsiya o'z taraqqiyotining yuksak bosqichiga aynan bag'rikenglik va o'zaro hamjihatlik orqali erishgan. Shu sababli bugungi globallashuv davrida yosh avlodni bag'rikenglik va totuvlik ruhida tarbiyalash nafaqat pedagogik, balki falsafiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy zarurat sifatida qaralmoqda.

Bag'rikenglik tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra insoniylik, mehr-oqibat, empatiya, o'zga fikrni hurmat qilish, turfa qarashlarni qabul qila olish qobiliyatini bildiradi. Bu qadriyatlar yosh avlod dunyoqarashining poydevorini tashkil etadi. Har bir jamiyatning barqarorligi, uning madaniy hayot darajasi va fuqarolik ongi aynan shu qadriyatlarga asoslanadi.

Pedagogik jarayon esa bu qadriyatlarni yosh avlodga singdirishning asosiy maydonidir. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot, ta'lim mazmuni, ijtimoiy muhit, tarbiyaviy faoliyat – bularning barchasi yosh shaxsning ichki dunyosida bag'rikenglik va totuvlik tushunchalarini shakllantiradi. Pedagogika fani nuqtayi nazaridan, bu jarayon nafaqat bilim berish, balki shaxsda insonparvarlik, axloqiy uyg'unlik, hamkorlik, tinchliksevarlik kabi fazilatlarni rivojlantirishni ham o'z ichiga oladi.

Tahlil va natijalar

Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida insonlar o'rtasidagi totuvlikni jamiyat barqarorligining asosiy sharti deb biladi. Unga ko'ra, inson baxtga erishishi uchun boshqalar bilan uyg'unlikda yashashi, o'z manfaatini umumiy ezigulikka bo'ysundira olishi zarur. Bu fikr bugungi zamonaviy tarbiya konsepsiyasiga hamohangdir — chunki yosh avlodni totuvlik ruhida tarbiyalash, avvalo, ularning shaxsiy manfaatini jamoaviy qadriyat bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, madaniy, diniy va milliy farqlar tobora ko'payib bormoqda. Bu xilma-xillik jamiyatni boyituvchi kuch bo'lishi mumkin, biroq u to'g'ri boshqarilmasa, ziddiyat manbaiga aylanishi ham ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimining vazifasi – yoshlarni madaniyatlararo muloqot madaniyatiga o'rgatish, ularni o'zga fikrga nisbatan sabr-toqatli, ochiq va hurmatli munosabatda bo'lishga yo'naltirishdir.

Bag'rikenglik tarbiyasining pedagogik mohiyatida ikki muhim jarayon uyg'unlashadi: bu – **axloqiy tarbiya** va **ijtimoiy ongni shakllantirish**dir. Axloqiy tarbiya orqali yoshlar o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qiladi, adolat, haqiqat, hurmat kabi kategoriyalarni qadrlay boshlaydi. Ijtimoiy ong esa ularni kengroq doirada — millatlararo, madaniyatlararo darajada muloqot qilishga tayyorlaydi.

Psixolog va pedagog olim A. Maslou fikricha, insonning eng yuksak ehtiyoji – bu o'zini jamiyatda kerakli, muhim, foydali shaxs sifatida his etishidir. Agar inson boshqalar tomonidan qabul



qilinmasa, uning ichki motivatsiyasi so'nadi. Shu bois ta'lim jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, unda har bir o'quvchi o'zini hurmat qilinayotgan, fikri tinglanayotgan, jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs deb his etsin. Bu — bag'rikenglik tarbiyasining psixologik asosi hisoblanadi.

O'zbekistonlik pedagog olim M. Xolbekov o'z tadqiqotlarida shunday yozadi: "Bag'rikenglik va totuvlik qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish uchun, avvalo, pedagogning o'zi ushbu qadriyatlarni hayot falsafasi sifatida qabul qilishi lozim. Pedagog faqat bilim manbai emas, balki madaniyat va qadriyat tashuvchisidir." Bu fikr shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi shaxsiy namunasi yoshlar ongiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda yoshlarning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va ijtimoiy faolligi ko'p jihatdan axborot oqimlari, internet va ommaviy madaniyat ta'sirida shakllanmoqda. Bu esa pedagogik jarayonning ahamiyatini yanada oshiradi, chunki ta'lim – bu yoshlar ongini mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, ma'naviy immunitet hosil qilish vositasidir. Totuvlik va bag'rikenglikni o'rgatish deganda faqat "boshqani hurmat qilish" emas, balki "boshqani tushunishga harakat qilish", "turli fikrlar o'rtasida muvozanat topish" kabi ko'nikmalarni rivojlantirish nazarda tutiladi.

Falsafiy jihatdan olganda, bag'rikenglik – bu insonning borliqni qabul qilish darajasi, o'z-o'zini anglash va boshqalar bilan uyg'unlikda mavjud bo'la olish qobiliyatidir. Shuning uchun bu tushuncha oddiy ijtimoiy muomala madaniyatidan kengroqdir — u insonning ichki axloqiy pozitsiyasini, dunyoqarashini, hayotga bo'lgan falsafiy munosabatini ifodalaydi.

Ta'lim muassasalarida bag'rikenglik va totuvlik g'oyalarini singdirish shunchaki darslik orqali emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot madaniyatida, jamoaviy faoliyatda, o'yinlar, loyihalar, bahs-munozaralar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etishni, boshqalarning fikrini eshitishni, qarama-qarshi nuqtai nazarlarni tushunishni o'rganadi.

Rus pedagogi V.A. Slastyonin "Inson shaxsining tarbiyalanganlik darajasi, avvalo, uning boshqa insonlarga nisbatan bag'rikeng munosabati bilan belgilanadi" degan edi. Shunday ekan, pedagogik jarayonning eng yuksak natijasi – bu bilim emas, balki insonparvar, totuv, ijtimoiy mas'uliyatli shaxsni shakllantirishdir.

Demak, yoshlarni bag'rikenglik va totuvlik qadriyatlariga yo'naltirish – bu zamonaviy ta'limning maqsadi emas, balki butun pedagogik falsafaning mohiyatidir. Bu jarayon jamiyatning ma'naviy barqarorligini, ijtimoiy adolat va tinchlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shuning uchun har bir pedagog, har bir ta'lim muassasasi o'z faoliyatini faqat bilim berishga emas, balki insonni inson sifatida tarbiyalashga yo'naltirishi zarur.

Bag'rikenglik (tolerantlik) — bu insonning boshqa millat, din, madaniyat, qarash yoki qadriyat egalari bilan tinch, hurmat asosida yashash madaniyatidir. UNESCO (1995) yilda bag'rikenglikni "inson huquqlari, xilma-xillik va ozodlikni tan olish hamda hurmat qilish" sifatida ta'riflagan. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu tushuncha shaxsning ichki dunyosidagi gumanistik qarashlar, empatiya va adolatga asoslanadi.

Pedagogik jarayonda totuvlik g'oyalarini singdirish ko'p qirrali jarayondir. U quyidagi omillar orqali amalga oshadi:

Ta'lim mazmuni — darsliklarda millatlararo totuvlik, madaniyatlararo muloqot, insonparvarlik g'oyalari yoritilishi.

O'qituvchi shaxsiy namunasi — pedagogning o'z xatti-harakati, munosabati orqali bag'rikenglikni namoyon etishi.

Muloqot muhitini yaratish — o'quvchilar o'rtasida ochiq muloqot, bahs, hamkorlik asosida o'qitish.



Ijtimoiy loyihalar va tadbirlar — yoshlarni millatlararo do'stlik, tinchlik g'oyalariga yo'naltiruvchi faoliyatlar.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan bag'rikenglik qadriyatlari jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi. Durkgeym fikricha, "Jamiyatning mustahkamligi faqat qonunlar emas, balki umumiy axloqiy qadriyatlarga asoslanadi". Shu nuqtayi nazardan, pedagogik jarayon totuvlikni shaxsiy fazilat sifatida emas, balki ijtimoiy zarurat sifatida shakllantiradi.

O'zbekiston jamiyatida 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari yashashi, ularning madaniy, diniy xilma-xilligiga qaramasdan tinchlik hukm surishi – bu millatlararo totuvlikni tarbiyaviy jarayon orqali mustahkamlash natijasidir. Shu ma'noda, ta'lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi muhim institut sifatida namoyon bo'ladi.

Bag'rikenglikni yoshlar ongiga singdirishda quyidagi pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi:

- Dialogik pedagogika– o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida tenglik asosidagi muloqot orqali fikrlar xilma-xilligini hurmat qilish.
- Madaniyatlararo ta'lim – turli millat va din vakillari madaniyatini o'rganish orqali o'zaro tushunishni rivojlantirish.
- Empatiya asosida ta'lim – boshqalar his-tuyg'ularini anglashni o'rgatuvchi pedagogik metodlar.
- Fuqarolik tarbiyasi – yoshlarni jamiyatning teng huquqli a'zosi sifatida his qilishga o'rgatish.

Ushbu yondashuvlar o'qituvchi tomonidan interfaol metodlar bilan uyg'unlashtirilsa, natijada yoshlarning dunyoqarashida bag'rikenglik hayotiy pozitsiyaga aylanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, bag'rikenglikni pedagogik jarayonda shakllantirish quyidagi ijtimoiy-falsafiy tamoyillarga asoslanadi:

- Insonparvarlik va empatiya — boshqalarni anglash, hurmat qilish, hamjihatlik.
- Madaniyatlararo muloqot — turli madaniyat vakillarini birlashtiruvchi pedagogik vosita.
- Fuqarolik mas'uliyati — jamiyatdagi totuvlikni saqlashda har bir shaxsning faol ishtiroki.
- O'qituvchining shaxsiy namunasi — bag'rikenglik qadriyatini o'quvchi qalbiga singdirishning eng samarali shakli.

Pedagogik amaliyotda bu tamoyillarni amalga oshirish yoshlarning tolerantlik darajasini oshiradi, ularni turli dunyoqarashlarni qabul qila oladigan, ijtimoiy faol shaxslarga aylantiradi.

Xulosa

Yoshlarni bag'rikenglik va totuvlik qadriyatlariga yo'naltirish — bu zamonaviy pedagogikaning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu jarayon jamiyatning ma'naviy barqarorligi va fuqarolik birdamligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa, bu shaxsning madaniyatlararo muloqotga ochiqqligi, o'zga fikrni hurmat qilish va tinchliksevarlik fazilatlarini rivojlantiradi. O'qituvchilarning bag'rikenglik madaniyatiga ega bo'lishi, ta'lim jarayonida bu qadriyatlarni targ'ib etishi va o'quvchilarni amaliy faoliyat orqali totuvlik ruhida tarbiyalashi – zamonaviy tarbiyaning eng muhim sharti hisoblanadi. Natijada, yosh avlodda bag'rikenglik va totuvlik qadriyatlari faqat bilim sifatida emas, balki hayot falsafasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. "Fozil shahar ahli haqida". – Toshkent: O'zbekiston, 1993.
2. UNESCO Declaration of Principles on Tolerance. – Paris, 1995.
3. Maslow A. "Motivation and Personality". – New York: Harper & Row, 1954.
4. Slastyonin V.A. "Pedagogika: innovatsion yondashuvlar". – Moskva, 2006.



5. Xolbekov M. “Yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda pedagogik omillar”. – T., 2021.
6. Durkheim É. “The Division of Labour in Society”. – London: Free Press, 1984.
7. Freire P. “Pedagogy of the Oppressed”. – New York: Continuum, 1996.
8. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
9. “Millatlararo totuvlik va fuqarolik birdamligini ta’minlash konsepsiyasi”. – Toshkent, 2020.
10. Rasulov O. “Bag’rikenglik va ma’naviyat uyg’unligi”. – T.: Fan, 2022.

Akayeva Marapat Abduhalikovna
Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.

MARKAZIY OSIYODA HAMKORLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan olib borayotgan pragmatik hamkorlik siyosatining mazmun-mohiyati, strategik yo‘nalishlari va mintaqa taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilingan. Globallashuv sharoitida mintaqaviy integratsiya jarayonlarining kuchayishi, xavfsizlikni ta’minlash, transchegaraviy iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish hamda madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi ilmiy asoslab beriladi. Davlatlararo ishonch va o‘zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan yangi diplomatik yondashuvning shakllanishi, pragmatik siyosatning iqtisodiy va geosiyosiy afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy munosabatlardagi faol roli Markaziy Osiyoda barqarorlik, taraqqiyot va integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qilishi isbotlab beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Markaziy Osiyo, pragmatik hamkorlik, tashqi siyosat, mintaqaviy integratsiya, xavfsizlik, iqtisodiy sheriklik, diplomatik pragmatizm, geosiyosiy manfaatlar, barqaror rivojlanish.

XXI asrda Markaziy Osiyo mintaqasida kechayotgan geosiyosiy jarayonlar, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va kommunikatsion integratsiya jarayonlarining jadallashuvi davlatlar o‘rtasidagi aloqalarning tubdan yangilanishini taqozo etmoqda. Globallashuv sharoitida mintaqaviy manfaatlar uyg’unligi, transchegaraviy tahdidlarning kuchayishi va xalqaro raqobatning ortib borishi davlatlarning tashqi siyosiy strategiyalarini pragmatik yondashuv asosida shakllantirishni muhim vazifaga aylantiradi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosat konsepsiyasida Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa mintaqada nafaqat iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, balki madaniy-gumanitar aloqalar, transport-logistika infratuzilmasi, suv-energetika resurslarini boshqarish, chegaralarning ochiqqligi va o‘zaro ishonch tamoyillarining mustahkamlanishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekistonning pragmatik tashqi siyosatga asoslangan mintaqaviy hamkorlik modeli milliy manfaatlarni hisobga olish bilan birga, qo‘shni davlatlar bilan birgalikda umumiy maqsadlarga erishish imkoniyatini kuchaytiradi. Bu siyosatning asosiy xususiyati – ideologik qarashlardan holi, amaliy natijaga yo‘naltirilgan hamkorlik mexanizmlaridir.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, tinchlik va barqarorlikka erishish, shuningdek, iqtisodiy



taraqqiyotning yangi ufqlarini ochishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar ushbu tadqiqot mavzusining ilmiy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston mintakada rivojlangan iqtisodiy salohiyat, kommunikatsiyalar infratuzilmasi va malakali mehnat resurslariga ega. Bugun O'zbekiston aholisining soni 32 milliondan oshib ketdi. Shuningdek, u tabiiy resurslarga ham boy o'lkadir. Bu resurslarning aksariyati o'z ko'rsatkichlariga ko'ra betakrordir. Ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 50 nomdagi mineral resurslar kazib olinadi. Ularning baholangan qiymati 3,3 trillion AQSh dollarini tashkil etadi. Mamlakat oltin ishlab chikarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlarda turadi. O'zbekistonda rangli metallarning kirkka yakin koni bor. O'zbekiston mis va uran ishlab chikarish bo'yicha jahonning peshkadam o'n mamlakati katoriga kiradi. U kumush, rux, ko'rg'oshin va volfram zahiralari bo'yicha ham jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Mamlakatimiz ancha katta energetik salohiyatga ega. O'zbekiston hududida umumiy zahiralari to'rt milliard tonnadan ko'prok bo'lgan 160 dan ortik neft konlari mavjud. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallaydi. Ushbu strategik xomashyoni eksport kilishda O'zbekiston jahonda yetakchi o'rinlarda turadi. Bunday ijobiy mazmundagi statistik ma'lumotlarni yana ko'plab keltirish mumkin[1].

O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik, do'stona va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosati mintaqa miqyosida savdo-iqtisodiy aloqalar, sanoat kooperatsiyasi, investitsiyaviy sheriklikni rivojlantirish, shuningdek, transport-logistika yo'nalishlarini kengaytirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlikning chuqurlashuvi mintaqaviy taraqqiyotning muhim omili sifatida baholanmoqda. Xalqaro ekspertlarning fikricha, aynan Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Prezidenti sifatida ish boshlashi bilan Markaziy Osiyo davlatlari tashqi siyosatida o'zaro yaqinlashuv, hamkorlik va ishonch tamoyillarining faollashuvi kuzatilmoqda. Davlatimiz rahbarining amaliy tashabbuslari va ochiq diplomatik siyosati mazkur jarayonning tezlashishida hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Darhaqiqat, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan tashqi siyosat natijasida mintaqada barqarorlik va xavfsizlik ta'minlandi, turli sohaviy hamkorlik yo'nalishlari jonlandi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonning ham, butun mintaqaning ham investitsion jozibadorligini oshirib, yangi iqtisodiy imkoniyatlarga yo'l ochdi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki birinchi vitse-prezidenti Filipp Bennett ushbu o'zgarishlarni quyidagicha baholaydi:

“Dunyo hamjamiyati Markaziy Osiyoni ulkan imkoniyatlar va jadal rivojlanish mintaqasi sifatida tobora ko'proq e'tirof etmoqda. O'zbekistonda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi keng ko'lamli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, valyuta liberallashuvi, biznesga ma'muriy bosimni kamaytirish, sud-huquq tizimini isloh qilish, bojxona tartiblarini soddalashtirish kabi tashabbuslar xalqaro ishonchni mustahkamladi. Bu yangiliklar mintaqaning global biznes maydonidagi jozibasini yanada oshiradi”.

Atlantika kengashining D. Patritsiu nomidagi Yevrosiyo markazi direktori, AQShlik ekspert Jon Edvard Xerbst ham mintaqaviy hamkorlikda O'zbekistonning o'rnini yuqori baholab, shunday deydi:

“So'nggi chorak asr davomida Markaziy Osiyo tinchlik va barqarorlikni saqlab kelmoqda. Bu ulkan muvaffaqiyat. Vaholanki, avvalgi yillarda mintaqada murakkab muammolar talay edi. O'zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud barpo etilgani ham buning yorqin misolidir. Hududning yirik yadro davlatlariga yaqin joylashganini inobatga olsak, bunday tamoyilga sodiqlik alohida e'tiborga loyiq.”



Istiqbolda Markaziy Osiyo mintaqada qo'shni mamlakatlarning hamkorligi evazigagina taraqqiy topishi mumkin. AQSh bu jarayonda har tomonlama yordam berishga tayyor"[2]

Prezidentimizning Oliy Majlisga so'nggi Murojaatnomasining tashqi siyosat bo'limida Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Davlat yetakchisi tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishi bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan ko'p asrlik do'stlik va yaxshi qo'shnichilik, strategik sheriklik va o'zaro ishonch ruhidagi aloqalarimizni yanada mustahkamlash alohida e'tiborda bo'lishini ta'kidladi.

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan o'tgan yili Toshkentda Markaziy Osiyo xalqaro instituti tashkil etilib, joriy yil 15-16 iyul kunlari poytaxtimizda "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzuida yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o'tkazilishi rejalashtirilgan.

O'zbekiston Prezidentining Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat rahbarlarining yillik maslahat uchrashuvlarini tashkil etish tashabbusi ham mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qildi. Birinchi shunday uchrashuv 2018 yili Nursultonda, ikkinchisi 2019 yili Toshkentda o'tkazilgan bo'lsa, uchinchisi pandemiya sabab 2021 yilga qoldirilgan.

Shunisi ahamiyatliki, davlatimiz rahbari ilk xorijiy tashriflarini 2017 yilning mart oyida Markaziy Osiyo davlatlaridan boshladi: avval Turkmaniston va Qozog'iston, so'ng Qirg'iziston va Tojikistonga tashriflar amalga oshirildi. Ushbu tashriflar chog'ida biznes forumlar o'tkazilib, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo bitimlarning salmoqli paketlari imzolandi. Bu esa O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro savdo-sotiq, kooperatsion aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi. Bundan tashqari, qo'shni davlatlarning O'zbekiston bilan chegaradosh hududlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish va mintaqaviy iqtisodiy forumlar o'tkazish amaliyoti yo'lga qo'yildi[3].

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining O'zbekistonga javob tashriflari mintaqaviy dialogni kuchaytirish va ko'p tomonlama hamkorlikning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bunday siyosiy muloqotlar natijasida iqtisodiy sheriklik, qo'shma investitsiya loyihalari va transport-logistika aloqalarining kengayishiga qulay shart-sharoit yaratildi.

Masalan, 2021-yil mart oyida Qirg'iziston rahbarining O'zbekistonga, iyun oyida esa O'zbekiston Prezidentining Tojikistonga rasmiy tashriflari doirasida sanoat kooperatsiyasi mexanizmlarini chuqurlashtirish, yirik investitsiya dasturlarini birgalikda amalga oshirish, o'zaro qo'shma ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish bo'yicha muhim kelishuvlarga erishildi. Xususan, suv resurslaridan samarali foydalanish va gidroenergetika sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirishga kelishilganligi O'zbekistonning suv ta'minoti barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Shu bilan birga, o'zaro tovar aylanmasini keskin oshirish, qo'shni bozorlar uchun eksport logistik imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Qirg'iziston va Tojikistonda O'zbekistonning savdo uylari faoliyat yurita boshladi. Bu esa mintaqa miqyosida mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning yaxshi qo'shnichilik va pragmatik hamkorlik siyosati mintaqa davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlik dinamikasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. 2016–2019 yillar davomida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi 2,5 milliard AQSH dollaridan 5,2 milliard dollargacha oshib, ikki baravardan ziyod o'sishni tashkil etdi. Xususan:

- Qozog'iston bilan – 1,8 baravar
- Qirg'iziston bilan – 5 baravar
- Turkmaniston bilan – 2,7 baravar
- Tojikiston bilan – 2,4 baravar o'sish kuzatildi.



Mintaqa davlatlarining umumiy tashqi savdo hajmi ham sezilarli ravishda kengaydi: 2019-yilda savdo aylanmasi 2016-yilga nisbatan 56% o'sib, 168,2 milliard dollarga yetdi. Shu davrda jalb qilingan investitsiyalar hajmi 40% ga oshgan bo'lsa, mintaqaga kelgan turistlar soni 93% ga ortib, 18,4 million kishini tashkil etdi.

Pandemiya davri ham mintaqaviy hamkorlikning hayotiy zarurligini yaqqol tasdiqladi. Markaziy Osiyo davlatlari qisqa fursatda COVID-19ga qarshi muvofiqlashtirilgan siyosat olib borishga erishdi. Bu esa davlatlar o'rtasida shakllangan ishonchning amaliy ifodasidir.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Prezidenti tashabbuslari asosida shakllanayotgan mintaqaviy pragmatik hamkorlik Markaziy Osiyo munosabatlarida tamoman yangi bosqichni boshlab berdi, deyish uchun asoslar yetarli. Oliy Majlisga yo'llangan Murojaatnomada Markaziy Osiyo tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishi ekani yana bir bor alohida ta'kidlandi – bu esa O'zbekistonning mintaq davlatlari bilan sheriklikni chuqurlashtirishga intilishi izchil davom etishini anglatadi.

2021-yilning yanvar–aprel oylarida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24% o'sdi. Mintaqaviy savdoning respublika umumiy savdosidagi ulushi esa 17,2% ni tashkil qildi. Bu ichki mintaqaviy savdo aloqalari izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi.

2021-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyotining 3,6% ga o'sishi prognoz qilinayotgani ham mavjud tendensiyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Shuningdek, 2020-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning mintaqaviy savdo aylanmasida:

- Qozog'iston ulushi – 61%
- Qirg'iziston – 18,2%
- Turkmaniston – 10,6%
- Tojikiston – 10,1%

Bu ko'rsatkichlar mintaqada O'zbekistonning yirik va ishonchli iqtisodiy sherik sifatidagi o'rnini tasdiqlaydi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston tashqi savdo aylanmasining eng asosiy ko'rsatkichi eksport hajmi bo'lib, bunda eksport qilinayotgan tovarlarning chet el bozorlarida kirib borish imkoniyatlarni hamda ularning raqobatbardoshlik darajasini ko'rsatadi[5].

Sammitda ta'kidlanganidek, bunday uchrashuv bir asrdan ziyod vaqt kutilgan va bu orada misli ko'rilmagan o'zgarishlar yuz bergan. Mintaqa xalqlari uchun qulay istiqbollardan kelib chiqib, birgalikda Markaziy Osiyo va Xitoyning umumiy taqdiri bilan yaqinroq hamjamiyatni yaratish istagini tasdiqlashdi.

Tomonlar natijadorlikka erishish mexanizmlarini yaratib, har ikki yilda uchrashishga kelishdi. Deklaratsiyada katta maqsadlar ochib berilgan. Davlatlar to'siqsiz savdoni ta'minlash va Markaziy Osiyo davlatlaridan Xitoyga tayyor mahsulot hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasining umumiy makonini shakllantirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni qabul qilishni nazarda tutuvchi "Markaziy Osiyo–Xitoy" yangi iqtisodiy muloqotining qo'shma strategiyasini ishlab chiqish muhimligini qayd etdi. Xususan, hujjatning 7-bandiga asosan "Tomonlar muhim Transevroosiyo transport markazlaridan biri bo'lgan Markaziy Osiyoning maqomini ko'tarish, "Xitoy–Markaziy Osiyo" transport koridori rivojini jadallashtirish, "Xitoy–Markaziy Osiyo–Janubiy Osiyo", "Xitoy–Markaziy Osiyo" yo'nalishlarida multimodal tranzit transportini rivojlantirish zarurligini ta'kidlamoqda[6].

Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlik bugungi kunda strategik ahamiyatga ega bo'lib, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi mintaq iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur loyiha doirasida Markaziy Osiyo davlatlari,



jumladan, O'zbekiston global iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etib, o'zining geoiqtisodiy nufuzini kuchaytirmoqda.

Sian deklaratsiyasining qabul qilinishi Xitoyning mintaq bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. “C+C5” formatidagi hamkorlik mexanizmi orqali Pekin Markaziy Osiyodagi integratsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlab, o'z ta'sirini izchil ravishda kuchaytirmoqda. Shu orqali transport-logistika, energetika, savdo va investitsiya bo'yicha istiqbolli loyihalar uchun mustahkam asos yaratilmoqda.

Tarixan Buyuk Ipak yo'lining qayta tiklanishi mazkur tashabbuslarning markaziy maqsadi sanaladi. Bu esa mintaqaning xalqaro maydondagi iqtisodiy va madaniy imijini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda O'zbekiston Markaziy Osiyoning transport-kommunikatsion markazi sifatida yetakchi o'rinni egallamoqda.

Mintaqaviy integratsiyaning geosiyosiy omillarini tahlil etar ekanmiz, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy ittifoq yaratish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Chunki yaqin yillarda Xitoy ta'siri sezilarli darajada ortishi ehtimoli mavjud. Shu bilan birga, iqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy tomonga o'zgarishiga qaramay, ijtimoiy hamda siyosiy xavflar paydo bo'lishi mumkin.

Bu borada O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbus qilgan va 2022 yilda ilgari surilgan “Samarqand birdamlik tashabbusi” mintaqada umumiy xavfsizlik va taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan muhim platforma sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda markaziy geografik joylashuvi savdo oqimlarini optimallashtirishga, transport xarajatlarini pasaytirishga va mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga keng imkon yaratadi. Bu esa eksport salohiyatini sezilarli kengaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston xalqaro siyosatda o'zaro manfaatdorlik, ichki ishlar suverenitetini hurmat qilish va masalalarni diplomatik yo'l bilan hal etish prinsiplariga sodiqligini namoyon etmoqda. Ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga doir izchil islohotlar mamlakatning global maydondagi obro'sini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Shuningdek, global geosiyosiy o'zgarishlarga milliy manfaatlar nuqtai nazaridan to'g'ri baho berish kompetensiyasini yosh kadrlarda shakllantirish davlat kadrlar siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning ochiq, konstruktiv va manfaatli hamkorlik siyosati Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Qo'shni mamlakatlar O'zbekistonning mintaqada ishonch va yaxshi qo'shnichilik muhitini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarini yuqori baholamoqda. Bu esa mintaq xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va hamkorlikda taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratib, Markaziy Osiyo davlatlarining jadal rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференциядаги нутқи / “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 11 ноябрь № 228(6922)сон.
2. Жон Эдвард Хербст . Марказий Осиё: умумий келажак учун масъулият. “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил 14 ноябрь.
3. Ҳакимов О. Марказий Осиё давлатлари ўртасида савдо-иқтисодий ва инвестициявий ҳамкорликни ривожлантириш — тараққиётни таъминлаш омили <https://review.uz/oz/post/razvitie-torgovo-ekonomicheskogo-i-investicionnogo-sotrudnichestva-mejdu-stranami-centralnoy-azii-kak-faktor-obespecheniya-ix-razvitiya>



4. Мустафаев Б. Ўзбекистоннинг минтақавий сиёсати Марказий Осиёда барқарор ва изчил ривожланишининг муҳим гарови <https://yuz.uz/news/ozbekistonning-mintaqaviy-siyosati-markaziy-osiyoda-barqaror-va-izchil-rivojlanishining-muhim-garovi>
5. "Янги Ўзбекистон" газетаси. № 125 (381), 2021 йил 22 июнь
6. Омонов Б. Марказий Осиё давлатларини яқинлаштириш йўлида. https://uza.uz/ru/posts/markaziy-osiyoda-davlatlarini-yaqinlashtirish-yolida_524982?q=%2Fposts%2Fmarkaziy-osiyoda-davlatlarini-yaqinlashtirish-yolida_524982

B.B.Mallabayev

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

GLOBAL IJTIMOIIY MAKONDA DESEKULARIZATSIYA VA RESEKULARIZATSIYA JARAYONLARINING YEVOLYUTSIYASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sekulyarizmb demokratiya, ko‘ppartiyaviylik, hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi kabi insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyotda din va davlat munosabatlari tarixiy tajribasi asosida shakllangan umuminsoniy siyosiy va huquqiy qonuniyatlari tadqiq etilgan. dir.

Kalit so‘zlar: sekulyarizm, desekularizatsiya, resekularizatsiya, islom, e’tiqod, ijtimoiy taraqqiyot, ateizm, dogmatik, dialektik, dahriylik mafkurasi, sekulyar siyosat.

Din va davlat munosabatlari davlatchilik paydo bo‘lgandan buyon mavjud. Qadim zamonlarda, aniqsa Qadimgi Yunoniston va Rimda “davlat” va “jamiyat” tushunchalari sinonim deb anglangan davrlarda din va davlat institutlari o‘zaro uyg‘un faoliyat olib borishgan.

Qadimgi Sharq, xususan Qadimgi Xitoyda davlat Koinot (Osmon) tomonidan yaratilgan bo‘lib, davlat rahbari (imperator) Osmonning Yerdagi vakili, elchisi degan tushuncha legitim xarakterga ega bo‘lgan. Insoniyatning yangi eradagi taraqqiyotida ham din kishilar hayotining ajralmas qismi bo‘lib keldi. Xristian Reformatsiyasi garchi xristian dinida katolitsizmdan tashqari protestantizm, pravoslaviye va h.k. yo‘nalishlarni yuzaga keltirgan bo‘lsa-da, umuman din jamiyat dunyoviy hayotida muhim o‘rin egalladi. Uyg‘onish davri Sharqda ham va G‘arbda ham dinning jamiyatdagi monopol holatiga barham berdi, diniylik bilan bir qatorda dunyoviylikka ham yo‘l ochildi. Sekulyarizm shu tariqa paydo bo‘ldi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy mustaqillikni barcha sohalarda saqlash, mustahkamlash taniqli faylasuf – siyosatshunos olim S.Otamurodov ta’kidlaganidek, mas’uliyatli vazifaga aylanmoqda[1. – B. 230]. Ushbu vazifa Prezident Sh.Mirziyoyev olg‘a surgan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini va unda jamiyat oldiga qo‘ygan ustuvor vazifalar, ularni bajarish bilan uyg‘un.

Globallashuv beixtiyor O‘zbekistonni xalqaro transmilliy jarayonlar domiga tortadi. O‘zbekiston taraqqiyoti xalqaro hamjamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlari uyg‘unlashuviziz mumkin emas. Buni O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro strategik hamkorligining tobora kengayishi, hatto qo‘shni Afg‘oniston “Tolibon” rahbarlari bilan do‘stona munosabatlarning birinchilardan bo‘lib yo‘lga qo‘yilishi, o‘zaro manfaatdorlik siyosatini olib borayotganligi globallashuv sharoitida milliy o‘zbek davlatining strategiyasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un ekanligi isbotlab turibdi[2. – B. 130].



Globalashuv va jamiyat hayotining liberallashuvi va demokratlashuvi sharoitida chuqur o'ylangan sekulyar siyosat o'z tatbiqini turli ijtimoiy texnologiyalar vositasida amalga oshirilishini taqozo qiladi. Buni tasavvur qilish uchun "texnologiya" kategoriyasining mazmun-mohiyatini bilish lozim. O'zbek tilida nashr qilingan va ko'zga ko'ringan jamiyatshunos olimlarimiz tomonidan milliy g'oyaning targ'ibot texnologiyalari masalasiga bag'ishlangan jamoaviy kitobda "texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur uslubi"[3. – B. 22], deb baholanadi.

Aslini olganda esa "texnologiya" iqtisodiy kategoriya bo'lib, u ishlab chiqarish, yaratish, barpo etish jarayonini ifoda etadi. "Texnologiya" atamasi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy hayotda va ilmiy tadqiqot sohasida ommalashdi. Ushbu kategoriyaning variantlari xilma-xil – "ta'lim texnologiyasi", "pedagogik texnologiya", "targ'ibot texnologiyalari", "innovatsion texnologiyalar" va h.k. ko'rinishlarga ega. Aslida "texnologiya" biror bir buyumni yoki tovarni ishlab chiqarish, yaratish va barpo etishni ifoda etuvchi tushunchadir. U XX asr oxirlariga kelib siyosiy sohada ham ishlatila boshladi. Siyosiy texnologiya muayyan maqsadni amalga oshirishga mo'ljallangan siyosiy tadbirlar, usullar, vositalar majmuasi bo'lib, muayyan maqsadlarni ko'zda tutadi[4].

XXI asrga kelib biron bir siyosiy maqsad, manfaat, iddao muayyan siyosiy texnologiyalarni qo'llash vositasida erishiladi. U muayyan ketma-ketlikka asoslanadi. Masalan, bugun jahon yetakchi davlatlari tomonidan "yumshoq kuch" (Soft power) nomli texnologiya keng qo'llaniladi. "Demokratik tranzit", "rangli inqilob", "ta'limga yordam", "inson huquq va erkinliklari qaror topishiga ko'maklashish" nomlari bilan ifoda etiladigan siyosiy texnologiyalar bugun yetakchi davlatlar tomonidan o'zlari xush ko'rmaydigan, "bebosh", "qaysar", avtoritar siyosiy tartibotli davlatlarga nisbatan qo'llaniladi.

Bugungi yadro asrida katta urush, harbiy tazyiq xavfli hisoblanadi. Uning o'rniga "axborot urishi"ga asoslanuvchi, inson ongiga ruhiy-psixologik ta'sir o'tkazuvchi "texnologiyalar"dan foydalanish ancha arzonga tushadi. Mamlakatning aholi noroziligiga sabab bo'lguvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolaridan ustamonlik bilan foydalana bilish – bugungi ijtimoiy-siyosiy texnologiyalar uchun kasbiy ish bo'lib qoldi.

Desekulyarizatsiya jahon tendensiyasi sifatida XX asrda ma'naviy inqirozga yetakladi, ma'naviyat tanazzulga duchor bo'ldi. Buni ushbu tadqiqot birinchi bobida F.Nisshe, Z.Freyd, E.Fromm, O.Toffler va boshqa G'arb olimlari ta'limotlari misolida yoritgan edik. F.Nisshe "Antixirist" asarini yozdi, dinga, e'tiqodga K.Marks kabi butunlay qarshi ta'limotni yaratdi.

Desekulyarizatsiya jahon miqyosida din va davlat, dunyoviylik va diniylik nisbatida bugungi global xavflar (global isish, yadro urushi xavfining kuchayishi, pandemiya, notekis rivojlanish, texnogen xavflar va h.k.) kontekstida ma'naviy-axloqiy jihatlarining inqirozi, axloqiy qoida va normalarni inson gedonistik talablarining oshib borishi sharoitida qadrsizlanayotganligini ifodalaydi. Sodda qilib ifodalansa – bugungi liberal demokratiyaning tobora axloqsizlashayotganligini ifoda etadi. Buni dunyoning yetakchi globalistlari, iqtisodchi, tarixchi, faylasuf, sotsiolog olimlari fahmlay boshladilar, global ma'naviy inqirozdan faqat diniy omil qutqarishi mumkinligini ta'kidlamodalar. Bu fikrning o'rinli ekanligini konkret misollarda kuzatamiz.

"E'tiqod muayyan g'oyalar va qadriyatlarni faol qabul qilish, sevish, ixlos qo'yish, ularga yuqorida ta'kidlanganidek, o'z faoliyatini, hayotini moslashtirish, sodiqlik ko'rsatishdir. Uning negizida turuvchi ishonchning o'zi muayyan g'oyalar, ta'limot, qadriyatlarga ijobiy emotsional (hissiy) munosabatdir. Bu hissiy munosabat, ya'ni ishonch ham ratsional va irratsional bo'lishi mumkin.

Olimlarning fikriga ko'ra, ratsional ishonch shaxsning faol harakatiga, yaratuvchiligiga tayanadi. Uning negizida turgan g'oya, ta'limot, ideal to'g'ri yoki xato, hayotiy yoki havoyi, xayoliy



bo'lishi mumkin. Lekin shaxs unga sidqidildan ixlos bilan intiladi, erishish yo'llarini izlaydi, ijod qiladi. Natijada u o'sha maqsadga yetolmasa xam, ma'lum samaraga erishadi, faoliyati izsiz ketmaydi.

Ayni vaqtda jahonda desekulyarizatsiya tendensiyasi bilan resekulyarizatsiya tendensiyasi ham shakllandi. "Resekulyarizatsiya" deganda biz dinning dunyoviy hayotda ham o'rni, roli va ta'sirining kuchayib borishi tendensiyasini tushunamiz. Resekulyarizm deganda liberal demokratiya ta'sirida inson huquq va erkinliklariga haddan ziyod erkinliklar berish, diniy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan axloqiy qadriyatlarning tanazzuliga olib kelishiga qarshi harakat, munosabat tushuniladi. Resekulyarizmni ilmiy doiralarda "postsekulyarizm" deb ham tushunishlar mavjud.

"Resekulyarizatsiya", ya'ni dinga nisbatan davlat munosabatining "yumshashi", mo'tadillashuvi milliy mustaqillikka erishilgan kundan buyon kuzatildi – Konstitutsiyaning 33-moddasi ayni shu jihatga – diniy e'tiqod erkinligiga, dindor fuqarolarning ham boshqa fuqarolar kabi teng huquqligi kafolatini tasdiqlaydi. Muqaddas kitob Kur'oni Karimning "Kaxf" surasi 29-oyatida: "Ayting: "(Bu Kur'on) Rabbingiz (tomoni)dan (kelgan) Xaqiqatdir. Bas, hohlagan kishi imon keltirsin, hohlagan kimsa kofir bo'lsin"[10. – B. 331], deb marxamat qilinadi.

Albatta, desekulyarizatsiya va resekulyarizatsiya ham muayyan siyosiy me'yorlarni taqozo etadi. Jamiyat demokratiyalashuvi shu o'rinda ham ijobiy va ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol – mustaqillikning dastlabki yillarida diniy fundamentalizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy hayot sahnasiga qalqib chiqishi, dinning siyosiy lashuvi, ya'ni hokimiyatga da'vogarligining kuchayishi, dunyoviy taraqqiyot yo'lini diniy taraqqiyot yo'liga burib yuborishga urinishlar hisoblanadi.

Resekulyarizatsiya umumjahon tendensiyasi O'zbekistonda ham kuzatildi. "Hizb at-tahrir al-islomiy" tashkiloti, akromiylar, vahhobiylar, nurchilar va boshqa diniy siyosiy partiya va oqimlar din erkinligi konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan kafolatlanganidan unumli foydalanishga urindilar, ushbu tendensiyani yurtimizda ham qaror toptirishga harakat qildilar. Ular ichida eng ashaddiy va g'oyaviy jihatdan yetakchisi "Hiz ut-tahrir", ya'ni "Ozodlik partiyasi"dir. Tadqiqotimiz siyosiy yo'nalishda bo'lganligi sababli ushbu diniy partiya va uning mafkurasi xususida to'xtaymiz.

Aslida ushbu partiya arab-isroil ziddiyatlari, Sinay yarim orolida Isroil yahudiy davlatining paydo bo'lishi, muqaddas qadamjoy – Quddus maqomi bilan bog'liq. Xalqaro tashkilot – BMTning tuzilishi, 1947-yil 29-noyabrdagi uning 181-sonli qarori asosida siyosiy xaritada Isroil davlati paydo bo'lishi, bunga qator arab davlatlarining noroziligi sabab bo'ldi.

O'zbekistonda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunga muvofiq diniy dasturdagi siyosiy partiyalar tuzishga ruxsat berilmaydi. Biroq bugungi media makonda resekulyarizatsiya ta'sirida diniy targ'ibot katta o'rin egallamoqda, diniylik va dunyoviylik nisbatida birinchisining aholi, ayniqsa yoshlar qatlami ichida o'sib borishi xavotirlidir[11. – B. 336].

Bugun global miqyosda resekulyarizatsiya tendensiyasining shakllanishi, islom dinining siyosiy lashuvi, diniy radikal kuchlarning hakimiyat uchun da'vogarligining tobora kuchayishi ko'p konfessiyali arab davlati – Misr arab respublikasi davlatining dinga oid oqilona siyosati tajribasi mamlakatimizda dindor va dindor bo'lmagan fuqarolar o'rtasida tolerantlik munosabatlarini tobora mustahkamlash, turli shakldagi diniy ekstremistik, fundamentalistik, terroristik harakatlarning oldini olish, barqaror rivojlantirishga qaratilgan davlatning dinga oid siyosatining samaradorligini ta'minlash uchun amaliy, tashkiliy va nazorat qiymati salmoqlidir.

Foydalanilgan adabioytlar

1. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти (сиёсий фалсафий кирралари). – Т."O'zbekiston", НМИУ, 2018. – 352 б.; Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Т.: "Akademiya", 2008. – 230 б.



2. Адылходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. – Т.: ТГЮИ, 2007ю – 130 с.
3. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Т.: “Akademiya”, 2007. – Б. 22.
4. Умарова Н., Ислombeков У. Сиёсий технологиялар. Ўқув қўлланма. – Т.: “Akademiya”, 2007.
5. Ахмедов Х. Маънавий ҳаёт динамикаси. Монография. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 210 б.
6. Ҳайтбоев Ў. Ўзбекистонда давлат ва дин муноосари: диний ташкилотлар, оқимлар, мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. – Т.: “Тошкент ислом университети” нашриёт матбаа бирлашмаси, 2014. – 150 б.
7. Геллер Э. Условия свободы. Гражданское общество и его исторические соперники. М.: Московская школа политических исследований, 2004. – С.34. (240)
8. Алимов У. Ёшлар – келажакимиз. Тошкент: Мовароуннахр. 2008, -Б.74-75.
9. Mark chaves. Seculaization as Declining Religious Authority. Social Forces. 72(3). March, 1994. - p.755.
10. Қуръони Карим. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б.331. (767)
11. Туленов А. Ислам ва ақидапараст оқимлар . иккинчи нашр. – Т.: “Sharq”, 2013. – 336 б.

Hakimov U.

О‘ЗBEKISTON: MILLATLARARO TOTUVLIK, QO‘SHNICHILIK MADANIYATI VA MADANIY UYG‘UNLIK MAKONI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston hududida shakllangan millatlararo totuvlik, qo‘shnichilik madaniyati va madaniy uyg‘unlik tamoyillari tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Turli millat va elatlar tinch-totuv yashashi, ularning urf-odatları, diniy an‘analari va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni mahalla, davlat siyosati hamda madaniy hamkorlik misolida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik, qo‘shnichilik madaniyati, mahalla, madaniy sintez, milliy qadriyatlar, milliy-madaniy markazlar, diniy erkinlik.

Kirish. O‘zbekiston qadimdan xalqaro savdo yo‘llari kesishgan hudud, ya‘ni Sharq va G‘arb madaniyatlari tutashgan Markaziy Osiyo yuragi sifatida ko‘p millatli jamiyat shakllanishiga asos bo‘lgan. Mamlakatimizda millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta‘minlash, fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va barqarorlikni mustahkamlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli hamda o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Darhaqiqat, fuqarolarning farovon hayoti, millatlararo totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashning eng muhim sharti — jamiyatda tinchlik, osoyishtalik, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va birdamlik muhitini yaratishdir. Aynan shunday ijtimoiy-ma‘naviy muhitda har bir fuqaroning manfaatlari himoyalanađi, davlatning taraqqiyot yo‘li yanada mustahkamlanađi va xalqning ishonchi ortadi.

Shu sabab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son farmoniga muvofiq tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi



O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da ham aynan jamiyatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan [1]. O'zbekiston bugun nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki millatlararo totuvlikning ham o'ziga xos ko'rinishiga ega davlat sifatida e'tirof etiladi.

Asosiy qism. Millatlararo totuvlik — bu millatlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, ahillik va xalqaro do'stlikni ifodalovchi ijtimoiy-ma'naviy hodisadir [2]. Ushbu tushuncha milliy istiqlol mafkurasining muhim g'oyaviy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u muayyan jamiyat yoki hududda yashovchi turli millat va elat vakillarining bir maqsad yo'lida tinch-totuv, hamkorlikda faoliyat yuritishini anglatadi. Millatlararo totuvlikni, bir mamlakatda istiqomat qiluvchi turli etnik guruhlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat, do'stlik va birdamlikni mustahkamlovchi ma'naviy asos sifatida talqin etish mumkin.

Turli millatlar o'rtasidagi umumiy va ezgu maqsadlarning uyg'unlashuvi, ularning tarixiy hamda madaniy qadriyatlarini asrab-avaylash bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon milliy birlik va ijtimoiy barqarorlikning muhim omili sifatida, jamiyat taraqqiyotining poydevorini tashkil etadi. Shu bois, millatlararo totuvlikni mustahkamlash har bir davlatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillaridan iborat 10 milliondan ortiq oilalar tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo'lib yashamoqda. 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do'stlik jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda [3.]. Bu markazlar milliy tillar, raqs, qo'shiqlar, milliy liboslar va urf-odatlarini nafaqat asraydi, balki festival va ko'rgazmalar orqali namoyish qiladi.

Zamonaviy axborot makonida dinlar, xususan, jahon dinlarida ilgari surilgan bag'rikenglik tamoyillarini yoritish va ularni yoshlar ongiga singdirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki diniy bag'rikenglik nafaqat turli konfessiya vakillari o'rtasida o'zaro hurmat va murosani mustahkamlashga, balki jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ayni paytda, turli diniy e'tiqodga mansub shaxslar o'rtasida murosai madorani shakllantirish, ularning o'zaro hurmat ruhida yashashiga zamin yaratish — diniy bag'rikenglik tamoyilining amaliy ifodasidir. Shu bois, bu tamoyilni chuqur anglash va uni yoshlar ongida mustahkamlash ijtimoiy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag'rikenglik ayrim shaxslarga yoki butun bir xalqqa xos xususiyat. Bag'rikenglik milliy va diniy tusda ham namoyon bo'ladi. Milliy bag'rikenglik – millatlararo totuvlikni anglatasa, diniy bag'rikenglik – turli diniy konfessiyalarga mansub kishilarning hamjihatlikda yashashini bildiradi [4].

Bugungi kunda O'zbekistonda 138 ta milliy madaniy markaz va 34 ta do'stlik jamiyati faoliyat yuritmoqda. Ushbu tashkilotlar turli millat va elatlarning tarixi, madaniy merosi, ma'naviy qadriyatlari hamda an'ana va urf-odatlarini asrash, ularni har tomonlama rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bunday faoliyatlar "xalq diplomatiyasi" tamoyili asosida olib borilib, mamlakatda tinchlik va farovonlikni saqlash, xorijiy davlatlar bilan do'stona hamkorlikni rivojlantirish hamda chet eldagi vatandoshlar bilan o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yishda muhim o'rin tutadi [5.].

Shuningdek, mamlakatda ta'lim jarayonlari yettita tilda olib borilishi, teleko'rsatuv va radio eshittirishlarning o'n ikki tilda efirga uzatilishi, shuningdek, matbuot nashrlarining o'ndan ortiq tilda chop etilishi millatlararo bag'rikenglik siyosatining amaliy ko'rinishidir. Bu hol O'zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlar o'rtasida teng huquqlilik, hurmat va hamkorlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy muhitning shakllanganidan dalolat beradi.



O'zbekiston Respublikasida davlat va din munosabatlari quyidagi g'oyaviy tamoyillarga asoslanadi: diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va vijdon erkinligi. Diniy bag'rikenglik — bu turli e'tiqod va konfessiyalarga mansub shaxslarning aqidaviy tafovutlarga qaramasdan, tinchlikda, o'zaro hurmat va murosa asosida yashashini ta'minlaydigan ijtimoiy hodisadir.

Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, insonlar o'rtasida o'zaro tushunmovchilik, bilimsizlik va jaholat illatlari shubha va ishonchsizlik muhitini keltirib chiqargan, bu esa o'z navbatida turli nizolar, hatto qonli to'qnashuvlarga sabab bo'lgan. Shu bois diniy bag'rikenglik g'oyasining zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati ayniqsa ortib bormoqda.

Millatlararo munosabatlar esa o'z mohiyatiga ko'ra teng huquqlilik, murosa va hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Din esa bu jarayonlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda o'ziga xos ma'naviy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Dinga nisbatan yondashuvlar tarixan ikki yo'nalishda shakllangan: birinchisi, dinni inson faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, transsendental hodisa sifatida talqin etish; ikkinchisi esa uni inson tafakkuri va intellektual izlanishlarining mahsuli deb hisoblashdir. XXI asrga kelib, bu ikki yondashuv o'zaro yaqinlashib, madaniy qadriyatlar umumiyliги negizida integratsiyalashuv jarayoniga sabab bo'ldi. Mehr-oqibat, adolat, tenglik, ezgulik, inoqlik va bag'rikenglik singari umuminsoniy qadriyatlar diniy va dunyoviy tafakkurni uyg'unlashtirishning asosi sifatida shakllanmoqda.

Xulosa. O'zbekistonning millatlararo totuvlik modeli tarixiy bag'rikenglik, mahalla tizimi, davlat siyosati va madaniy xilma-xillik uyg'unligiga asoslanadi. Turli millat vakillarining bir yurt ostida tinch hayot kechirishi — nafaqat huquqiy kafolat, balki jamiyat ongiga singib ketgan qadriyatdir. Shunday muhit O'zbekistonni "millatlar do'stligi mamlakati" sifatida jahonga tanitmoqda. Bu model zamonaviy globallashuv davrida boshqa davlatlar uchun ham ibratli tajriba bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni. // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.
2. <https://oyina.uz/uz/teahause/1980>
3. Qo'chqorov, R., Tojiboyeva, D. (2016). Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: TDYU.
4. Ozodovna, T. D. (2022). "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida" gi qonunning diniy ekstremizmga qarshi kurashdagi ahamiyati. Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal, 3(7), 29-33.
5. Oblomurodov, N. K. (2021). The Labor Heroism Of The People Of Uzbekistan Behind The Front During The Second World War. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 37-46.



Inamov Qodir Tursunovich

katta o'qituvchi

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası

MILLIY –MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATIDA MILLATLARARO TOTUVLIK G'OYASINING SINGDIRILISHI

Annotatsiya . Ushbu maqolada ko'p millatli bo'lgan O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan Milliy- madaniy markazlar faoliyatida millatlararo totuvlik g'oyasining singdirilishi asoslab, O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tish va mamlakat aholisi ongi va qalbiga millatlararo totuvlik g'oyasining singdirilishida mamlakat aholisining ko'pmillatli ekanligining ahamiyatini ko'rsatib berilgan.

Turli madaniy markazlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, madaniy chiqishlar muhim ahamiyat kasb etishi yoritilgan

Kalit so'zlar: Milliy- madaniy markazlar, millatlararo totuvlik, milliy g'oya, milliy istiqloq g'oyasi, demokratik jamiyati, ko'p millatlili, tabiiy xom—ashyo resurslari, millatlararo va ijtimoiy hamkorlik.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda millatlararo munosabatlar rivojida yangi bosqich boshlandi. Bugun mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Ular umumiy uyimiz –O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lida birlashib, barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilmoqda, rivojlangan bozor iqtisodiyoti va kuchli fuqarolik jamiyatiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurishga munosib hissa qo'shmoqda.

[1 Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston",2018 y 295-296 b.]

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng –kulamli islohotlarni pirovard maqsadi yurtimizda yashaydigan har bir fuqaroga millati va dinidan qat'iy na'zar, har tomonlama munosib turmush sharoitini yaratib berishdan iborat, toki,,bunday maqsad va vazifalarning ma'no mazmunini Respublikamizning har bir fuqarosi ongidan joy olishi va ularni ushbu maqsadli vazifalarning bajaruvchisiga aylantirishga xizmat qilsin. Milliy g'oyamizning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan "Millatlararo totuvlik" g'oyasi ko'p millatli bo'lgan O'zbekistonda biron-bir inson, guruh yoki millatning manfaatiga emas, balki barcha xalq va elatning maqsad va manfaatlariga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Milliy g'oya kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayriyatimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatdan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlab ruhimizni baland, belimizni baquvvat qilishini turli millat vakillari to'g'ri anglab etish milliy g'oyani to'g'ri tushunib olishga yordam beradi.

Milliy istiqloq g'oyasi O'zbekiston jamiyatining ustivor maqsad va manfaatlarini o'zida ifoda etadi.

"Bu g'oya har bir millat vakilining iste'dodi va salohiyatini to'la ro'bga chiqariish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaqi, Yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi" [2 Milliy istiq g'oyasi asosiy tushuncha va tamoillar-T. O'zbekiston 2000 y.59.b]

Mana shunday g'oya bilan qurollangan mamlakatimiz xalqi,bu erda yashayotgan har bir millar vakili o'zining aql-zakovatini O'zbekistonda xalq farovonligini oshirish uchun safarbar etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, albatta mustaqil yurtimizning o'ziga xos boyligi hisoblanadi va



mana shu g'oyaviy kuch-qudrat asosida O'zbekistonning jug'rofiy-strategik imkoniyatlari hamda tabiiy hom-ashyo resurslaridan foydalanish masalalarini tobora ijobiy hal etilib bormoqda. O'zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirish ishlari tobora yuksalmoqda.

Ma'lumki, O'zbekistonda demokratik jamiyati barpo etishning asosiy ijtimoiy-ob'ektiv imkoniyatlaridan biri mamlakatimizning jug'rofiy-strategik imkoniyatlari va bu erdagi tabiiy xom—ashyo resurslarining mo'l-ko'lligi hisoblanadi. Ayniqsa, bunday imkoniyat mustaqillik yillarida yanada keng va atroflicha namoyon bo'lmoqda.

Masalan, hozirga qadar 2,7 mingdan ziyod turli foydali qazilma konlari va ma'dan mavjud bo'gan istiqbolli joylar aniqlangan. Ular 100 ga yaqin mineral hom-ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shundan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan 900 dan ortiq kon qidirib topilgan bo'lib, ularning tasdiqlangan zaxiralari 970 milyard AQSH dollarini tashkil etadi.[3.Qarang. I. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari-T. "O'zbekiston" 1997 y 231- b.]

Respublika 30 ta oltin koni topilgan.Qazib chiqariladigan oltinning umumiy hajmi jihatidan Respublika MDH mamlakatlari orasida ikkinchi o'rinda jahonda sakkizinchi O'rinda turadi, aholi jon boshiga oltin qazib chiqarish jihatidan esa jahonda birinchi o'rinda turadi. [4 .Karimov I.A T. O'zbekiston buyuk kelajar sari – T. "O'zbekiston", 1998 y 76- b.]

Respublika oltin zaxiralari bo'yicha dunyoda 4-o'rinda uni qazib olish bo'yicha 7-o'rinda, mis zaxiralaicha bo'yicha10-11 o'rinda, uran zaxirasi bo'yicha 7-8-o'rinda turadi.[5. I.Karimov. Qarang. O'zbekiston milliy istiqlool, iqtisod, siyosat, mafkura-T. O'zbekiston" 1996 y 297- b.]

Ulardan foydalanishda turli millat vakillari o'z salohiyatlarini ishga solmoqdalar.

O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tish va mamlakat aholisi ongi va qalbiga millatlararo totuvlik g'oyasining singdirilishida mamlakat aholisining ko'pmillatli ekanligi ham muhim rol o'ynaydi.

"Mamlakatimiz ko'p millatli omili demokratik o'zgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning fuqarolar jamiyati qurilishining ta'sirchang vositasiga aylanib qolgan " [6 I.Karimov. Qarang. O'zbekiston buyuk kelajak sari -T. O'zbekiston", 1998 y 76- b.]

Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 millat, elat, halq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. [7. Qarang. Abilov O'.M. O'zbekiston taraqqiyotining optimistic ruhi-T,Istiqlol , 2003 y.184-,b]

Ularning har biri o'z milliy madaniy urf-odatlarini, an'analar,tiliga, konstitutsiyaviy huquqiy tenglikka ega. Prezidentimiz SH. M. Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimiz O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolari millati, tili va dinidan qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarga ega ekani mustahkamlab qo'yilgan" [8 Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston",2018 y 296 - b.

Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutq 2017 y. 24 yanvar]

Namangan shahrining Davlatobod mavzei ham ko'p millatli hisoblanib, bu erda 50 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. [9.Qarang. Xalq so'zi. 1998. 21 yanvar.]

Bizning sotsiologik kuzatuvlarimizga ko'ra mavzeidagi 4 ta yirik korxona 5 ta qo'shma korxonada 50 dan ortiq millat vakillari ahil mehnat qilib, jamiyat taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shmoqda.



O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarining tillari urf- odatlari va an'alarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. [10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T. “O'zbekiston” 2023 y 4-b]

“Mamlakatimizda etnik o'ziga xoslikni rivojlantirish va millatlararo munosabatlarni yanada uyg'unlashtirishda 137 ta milliy madaniy markaz etakchi rol o'ynamoqda.” [11. Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston”,2018 y 297 - b.]

1989 yil mart oyida ochilgan dastlabki birlashmalaridan biri qozoq milliy madaniy markazi bo'ldi. Qi sqa vaqt mobaynida Respublikada Ozarbayjonning “Gardashlik”, “Panjob” eroniylar. Namanganda Koreys, Rus, Tojik va Qirg'iz, Qashqadaryo viloyati Jeynov qishlog'ida arablar, Farg'onada yaxudiy turkman, tojik milliy markazlari tashkil qilindi.

Bugun mamlakatimizda turli milliy madaniy markazlar faoliyatida milliy istiqlol g'oyasining hayotga tadbiiq etishda o'rni katta. Masalan, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan Qozoq-madaniy markazi milliy istiqlol g'oyasini amalga oshirishda, millatlararo totuvlik hamjihatlikni ta'minlashda hamda xalqlar o'rtasida do'stlikni, inoqlik, ahillikni mustahkamlashga g'oyat katta hissa qo'shib kelmoqda.

“Mustaqillik yillarida O'zbekistonning qozoq millatiga mansub 600 dan ziyod fuqarosi yuksak davlat mukofoti va unvonlariga sazovor bo'lgani ham ularning mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo'shib xalqimiz orasida hurmat qozonib, keng e'tirof etib kelinayotganining tasdig'idir.” [12 Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston”,2018 y 379 – b Qozog'iston Respublikasiga davlat tashrifi chog'idagi qabul marosimida so'zlagan nutq. 2017 yil 22 mart Ostona]

Bugungi kunda O'zbekistonda 1 milliondan ortiq qozoqlar istiqomat qiladi. Ular asosan 7 ta viloyatda joylashgan bo'lib, qozoq bolalari uchun ona tilidan Respublikamizda ta'lim tarbiya olib borayotgan 605 ta maktab mavjud unda 15 ming bola o'qimoqda . [13 Qarang. I.Karimov Turkiston 98 umumiy uyimiz.-T, “O'zbekiston”.1995 y 41-b]

Ma'lumki, 1937-1953 yillarda sobiq SSSR hududida mudhish ommaviy siyosiy qatag'onlar amalga oshirilgan edi. Uning salbiy oqibatlarini o'zimizga tasavvur etish uchun birgina O'zbekiston bo'yicha qariyb 100 ming kishi qatag'onga uchrab 13 ming nafari otib tashlanganini eslash kifoya [14. Qarang. I.Karimov Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T, “Ma'naviyat ” 2008 y. 97-98 b]

Ana shunday qatag'on qilingan koreyslar 1937 yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston hududiga majburan ko'chirilgan. O'zbek xalqi ularni o'z panohiga olib hamda 50-yillarning ikkinchi yarmida Uzoq Sharqqa qaytishga yordam berildi. [15 (Qarang. Argumenty I fakty 1998 y 19-25 noyabr]

Hozirgi paytda O'zbekistonda 220 mingdan ortiq koreyslar o'zga millatlar bilan hamjihatlikda istiqomat qilmoqda. [16.П.Ким С. Юнусова Кореysкая диаспоре в Узбекистане см Узбекистан на пути межнационального согласия-T; “Университет”1996 г. 155-с]

Koreys millati manfaatlarini ifoda etgan Toshkent teatr-rasomchilik institutida koreys tilida drama va kino aktyorlarni tayyorlash fakul'teti faoliyat olib ko'rsatmoqda. Koreys milliy madaniy markazning O'zbekiston Assoattsiyasi “Koreys - O'zbekiston” va “Koreyslar - O'zbekistonda” mavzysida tadbir va festivallarni muntazam ravishda o'tkazib kelmoqda. Bu hol milliy markazlarning milliy g'oyani rivojlantirishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'zbekistonda 300 mingdan ziyod ukrainlar yashaydi, ular uchun bu quyoshli, saxovatli va tinch o'lka ikkinchi Vatan bo'lib qoldi. Ular do'stlikni mustahkamlashda, xalqlar o'rtasida o'zaro hamjihatlikni va umumiy uylari bo'lgan O'zbekistonning gullab-yashnashi va porloq kelajagi uchun o'z hissalarini qo'shishga harakat qilmoqdalar.



O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan rus madaniy markazi millatlararo totuvlik va hamjihatlikni amalga oshirishda ham milliy madaniyat, tillar, urf-odat va an'analarni rivojlantirishda faol ishlar olib bormoqda.

O'zbekistonda o'zlarining ona tillarini saqlab qolishda ruslar birinchi o'rinda turadi.

“O'zbekiston xalqi buyuk rus xalqini, uning boy tarixi, san'ati, an'na va qadriyatlari, rus xarakteriga xos bag'rikenglikni chuqur xurmat qilishini alohida ta'kidlashni istardim. Bugungi kunda saxovatli O'zbekiston zaminida qariyb 1 million etnik ruslar istiqomat qilib, fidokorona mehnati bilan o'z Vatani deb biladigan O'zbekiston taraqqiyotiga munosib hissa qo'shmoqda. [17. Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston", 2018 y 382– b Rossiya Federatsiyasiga davlat tashrifi chog'idagi qabul marosimida so'zlagan nutq, 2017 yil 5 aprel, Moskva]

Turli madaniy markazlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, madaniy chiqishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik kunini, O'zbekiston Konstitutsiyasi, yangi yil, xotin-qizlar, o'qituv chilar va murabbiylar, xotira va qadrlash kunlarini umumiy bayram kuni sifatida birgalirda nishonlash jamiyatda fuqarolik birligini shakllantirmoqda. Ayni paytda o'zlarining milliy urf-odatlari va an'analari, milliy madaniyatlarini tiklash va rivojlantirish orqali milliy g'oyani rivojlantirishda, uning milliy va umuminsoniy qadriyatlarini bir-biri bilan bog'lab olib bormoqdalar.

“Biz haqli ravishda faxrlanadigan ko'p millatli xalqimizning birdamligi va jipsligini ko'z qorachig'idek asrash hamda yanada mustahkamlash O'zbekistonni o'z Vatani, deb biladigan har bir insonning muqaddas burchidir” [18. Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston", 2018 y 298-299 b Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutq, 2017 yil 24 yanvar]

Yagona oila bo'lib yashayotgan ko'pmillatli xalqimizning ninchlik, barqarorlik, millatlararo nonuvlikka chorlayotgan bunday dolzarb shior milliy g'oyamiz va mafkuramizning asosiy mezoniga aylanib qolsa, nafaqat bugungi, balki kelajak avlodlarimizni ham asraydigan va barchamizning ezgu orzularimizni ro'yobga chiqaradigan asos bo'lib xizmat qilar edi. Bugungi har bir millat, xalq o'zining milliy davlatini qurishda, yuksak vazifalarni amalga oshirishda, shu yo'lda odamlarni birlashtirishda va safarbar qilishda, ularning qalbida ishonch uyg'otishda eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga utishda qo'shumcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy yagona maqsad va orzu intilish ifodasi bo'lgan milliy g'oyaga tayanadi va suyanadi.

Hozirgi eng muhim eng dolzarb vazifamiz ko'pmillatli O'zbekistonda millatlararo va ijtimoiy hamkorlikni ta'minlash orqali milliy mafkurani shakllantirish va bunyodkor kuchga aylantirishdir. Bu g'oya orqali turli millatlar umummaqsad yo'lida birlashib, o'zlarining salohiyatlarini O'zbekistonda huquqiy demokraniya, fuqarolik jamiyatini qurish maqsadlarini amalga oshirishga safarbar etadilar.

“Ko'p millatli va mehnatsevar xalqimiz bilan birgalikda erkin demokratik va farovon davlat quramiz hamda ko'zlagan yuksak maqsadlarimizga albatta erishamiz.” [19. Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot y o'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz-T, O'zbekiston", 2018 y 304 b Respublika baynalmilal madaniyat markazi tashkil etilganining 25 yilligiga bag'ishlangan uchrashuvdagi nutq, 2017 yil 24 yanvar]

Muydinova Moxira Mukumjonovna
Namangan davlat universiteti v.b dotsenti,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

MILLATLARARO TOTUVLIK JAMIYAT BARQARORLIGINING MUHIM OMILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada millatlararo totuvlik, hamjihatlik masalalari haqida fikr yuritilgan. Mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, keng qamrovli islohotlar ahamiyati yoritilgan. Muallif maqolada jamiyatimiz fuqarolari ongida vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalariga ham to'xtalib o'tadi.

Tayanch so'z va iboralar. millatlararo totuvlik, hamjihatlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, insonparvarlik tuyg'usi.

Муйдинова Мохира Мукумжоновна
И.о. доцента Наманганского государственного университета,
доктор философии по социологическим наукам

МЕЖНАЦИОНАЛЬНОЕ СОГЛАСИЕ – ВАЖНЫЙ ФАКТОР СТАБИЛЬНОСТИ ОБЩЕСТВА

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы межнационального согласия и солидарности. Подчеркивается важность работы, проделанной в нашей стране после обретения независимости и широкомасштабных реформ. Автор также затрагивает вопросы формирования патриотизма, национализма и гуманизма в сознании граждан нашего общества.

Ключевые слова: межнациональное согласие, солидарность, патриотизм, национализм, гуманизм.

Mohira Mukumzhonovna Muydinova
Acting Associate Professor, Namangan State University, PhD in Sociology

INTER-ETHNIC CONSENT IS AN IMPORTANT FACTOR IN SOCIAL STABILITY

Abstract. This article examines issues of interethnic harmony and solidarity. It emphasizes the importance of the work accomplished in our country since independence and the large-scale reforms. The author also addresses the development of patriotism, nationalism, and humanism in the minds of citizens of our society.

Keywords: interethnic harmony, solidarity, patriotism, nationalism, humanism.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlardan boshlab millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik g'oyasini hayotga tatbiq etishga alohida e'tibor qaratib kelindi. Millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni rivojlantirish uchun barcha huquqiy asos va zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bag'rikenglik madaniyatini mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bunda ko'pmillatli jamiyatimiz fuqarolari ongida haqiqiy vatanparvarlik, xalqparvarlik va insonparvarlik tuyg'usini shakllantirish bu sohadagi ishlarning muhim yo'nalishiga aylandi. Millatlararo do'stlik va hamkorlik yo'li bilan madaniy, ma'rifiy hamda ma'naviy yuksalish sari shaxdam qadamlar tashlandi. Yurtimizda turli millat vakillarining tinch va totuv istiqomat qilayotganligi, yagona Vatan tushunchasining qalblarda hukmron ekanligi



mamlakatimiz mustaqilligi va taraqqiyotining muhim garovi bo'lib xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri — jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat'i nazar O'zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi o'zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini kafolatlaydi[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-2026 yillarga muljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham millatlararo totuvlik, hamjihatlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu taraqqiyot strategiyasining beshinchi Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish yo'nalishining 74-maqsadi jamiyatda millararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni mustahkamlashni nazarda tutadi[2].

O'zbekistondek jannatmakon bir o'lkada millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik tamoyillarini qaror toptirish, millatlarning har tomonlama ravnaq topishi, ularning qadriyatlarini saqlab qolish, urf-odatlari va an'analarining rivojlanishiga barcha imkoniyat hamda shart-sharoitlar yaratib berilganligini mamnuniyat bilan qayd etish lozim. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev tashabbusi bilan yurtimizda so'nggi yillarda bu borada amalga oshirilgan islohotlar va uning natijalari xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanayotir. Binobarin, mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o'rtasida o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash, madaniyatlararo munosabatlarni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik hamda totuvlikni ta'minlashga oid izchil, puxta o'ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, dunyoning turli mintaqa va davlatlarida insonning yashashi, ta'lim olishi, mehnat qilish hamda o'z iqtidorini namoyish etishi kabi hayotiy va tabiiy haq-huquqlari turli darajada poymol etilayotgan bir davrda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bag'rikenglik tamoyili asosida tinch-totuv yashamoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan millat va elatlarning barcha vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq hamda imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, ijtimoiy sohada, ilm-fan, madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori hamda imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar[3].

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar sur'atini, keng ko'lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya — O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha oliyjanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi

Taraqqiyot strategiyasida belgilanayotgan vazifalar bu boradagi ishlarimizga yanada keng yo'l ochib beradi, imkoniyatlarimizni yanada kengaytiradi, milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtiradi. Undagi turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish, millatlararo munosabatlar sohasida



davlat siyosatini yoritayotgan ommaviy axborot vositalarini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash hamda xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish maqsadida do'stlik jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risidagi ko'rsatmalar faoliyatimizni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini va an'analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ko'p millatli xalqimizning sa'y-harakatlarini olijanob g'oya — mamlakatimizni barqaror rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlash, kuchli va adolatli fuqarolik jamiyati va demokratik huquqiy davlatni shakllantirish g'oyasi atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Markazimiz tomonidan millatlararo totuvlikni mustahkamlash, qardosh o'zbek va qozoq xalqlari o'rtasidagi abadiy do'stlik va yaqin hamkorlik rishtalarini yanada rivojlantirish, xalqlarimiz o'rtasidagi adabiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida turli tadbirlar o'tkazilib, xalqlarimiz o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalashga katta e'tibor qaratmoqda[4].

Har qanday millat, u naqadar kichik bo'lmasin, insoniyatning boyligidir. Uning tili, madaniy va boshqa xususiyatlarini yo'q bo'lib ketishi Yer yuzidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi. Shu bois har bir etnik birlikni saqlab qolish unga mansub odamlarning eng muhim maqsadi bo'lmog'i lozim hamda birinchi navbatda, ushbu etnik guruhlarini o'z ichiga oluvchi har bir alohida davlatning vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda yashab kelayotgan dunganlar bunga misol bo'la oladi[5].

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va hamjihatlik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Ushbu model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi. Shu ma'noda, so'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarida yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. Mazkur tizimning muvaffaqiyati esa yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

Biz turfa madaniyat va qadriyatlar gullab-yashnayotgan mamlakatimizda siyosiy barqarorlik va diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va hamjihatlikning tobora uyg'unlashib borishi, qardosh xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarning yanada mustahkamlanishiga munosib xissamizni qo'shaveramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>.
3. Mirziyoev SH.M. Millatlararo do'stlik va hamkorlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omili. «Ma'rifat» gaz., 2017 yil 25 yanvar
4. Tadjibaeva, D. O., & Oblomuradova, K. N. (2020). Religious tolerance is a symbol of peace and enlightenment. *Elementary Education Online*, 19(4), 804-809.
5. Таджибаева, Д. (2017). ОБЕСПЕЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ИНФОРМАЦИОННОЙ СФЕРЕ. *Review of law sciences*, 1(1), 56-61.

**Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li**

Samarqand davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

xoliqulovmuxammad1997@gmail.com

MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA SIYOSIY INTEGRATSIYA DINAMIKASI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda kechayotgan integratsiya jarayonlari, ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati, shuningdek, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Mintaqa mamlakatlarining hamkorlik siyosati, ularning milliy manfaatlari va demokratik qadriyatlar asosida shakllanayotgan yangi siyosiy madaniyat ko'rib chiqiladi. Integratsion jarayonlarning samaradorligi bevosita fuqarolarning siyosiy ongi, huquqiy madaniyati va fuqarolik mas'uliyatiga bog'liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining tashabbuslari natijasida Markaziy Osiyoda "mintaqaviy iliqlik" davrining yuzaga kelishi, davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, barqarorlik va hamkorlik muhitining kuchayishi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Maqolada integratsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirish uchun fuqarolarning siyosiy faolligini oshirish, ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini rag'batlantirish bo'yicha konseptual takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, integratsiya, siyosiy jarayon, fuqarolik jamiyati, siyosiy faollik, ijtimoiy ong, siyosiy madaniyat, O'zbekiston tashabbuslari, mintaqaviy barqarorlik, hamkorlik siyosati.

Markaziy Osiyoda kechayotgan integratsiya jarayonlari mintaqa davlatlari fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy faolligi bilan bevosita bog'liqdir. Fuqarolar siyosiy faolligining yuksalishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Siyosiy faollik mavjud bo'lgan jamiyatda siyosiy tizim barqaror ishlab, fuqarolar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadilar. Globallashuv shiddat bilan kechayotgan hozirgi zamonda har bir inson faol siyosiy tafakkurga ega bo'lishi zarur.

Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi chuqurlashib borgan sari fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligi yanada ahamiyat kasb etmoqda. Faol fuqaro jamiyat hayotida ishtirok etib, siyosiy va huquqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida kamol topadi, uning siyosiy ongi va ma'naviyati boyib boradi. Insonning ijtimoiy-siyosiy munosabatlar sub'ektiga aylanishi uning siyosiy faolligi bilan belgilanadi. Shaxs jamiyatda qanchalik erkin ishtirok etsa, uning siyosiy faolligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Bugungi kunda fuqarolar siyosiy hayotda faol ishtirok etishga intilayotgani ijobiy holat hisoblanadi. Demokratik siyosiy institutlar, ko'ppartiyaviylik, siyosiy qarashlar xilma-xilligi va fuqarolik nazorati mavjud bo'lgan jamiyatda haqiqiy siyosiy faollik yuzaga keladi. Demokratik davlatning asosiy belgilaridan biri — fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokidir. Bu jarayonda har bir fuqarodan jamiyat oldidagi mas'uliyat hissi talab etiladi.

Siyosiy mas'uliyat — bu fuqarolarning Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik bilan xizmat qilishi, ijtimoiy-siyosiy islohotlarda qatnashishi, tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shishidir. Fuqarolarning siyosiy mas'uliyati qanchalik yuqori bo'lsa, ularning tashabbuskorligi va fidoyiligi shunchalik ortib boradi. Siyosiy madaniyatga ega bo'lgan fuqaro mamlakat xavfsizligi, barqarorligi va rivoji uchun mas'ullik bilan harakat qiladi.

Markaziy Osiyo davlatlarida fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi, hayotni ongli qabul qilishi va mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shishi integratsiya jarayonlarida muhim ahamiyat kasb



etadi. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, mustaqillik va jamiyatga mas'uliyat hissini kuchaytirish siyosiy faollikning o'sishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy-siyosiy faollik va fuqarolik mas'uliyati fuqarolarda qonunlarga hurmat, mehnat intizomi, vijdonan ish tutish, boshqalarning huquq va qadr-qimmatiga ehtirom tuyg'usini shakllantiradi. Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari uchun asosiy vazifalar — Vatan qudratini oshirish, uni himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish va uning iqtisodiy hamda ma'naviy yuksalishiga hissa qo'shishdan iboratdir.

Jamiyatdagi siyosiy faollik darajasi fuqarolarning siyosiy madaniyati, bilim saviyasi, ijtimoiy institutlardagi ishtiroki va ommaviy axborot vositalari faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Fuqarolar siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan sari ularning siyosiy ongi, tashabbuskorligi va ijtimoiy mas'uliyati ortadi.

Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari fuqarolarning bilim va dunyoqarashini, huquqiy va siyosiy ongini oshirishni talab etadi. Ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, fuqarolarning siyosiy madaniyatini rivojlantirish integratsiya jarayonlarini chuqurlashtiradi. Siyosiy ongi yuqori fuqaro davlat siyosatini anglab, uni takomillashtirishga oid takliflar berish imkoniga ega bo'ladi.

Mintaqadagi integratsiyaning asosiy maqsadi — iqtisodiy va siyosiy hamkorlikni rivojlantirish, barqaror xavfsizlikni ta'minlash, umumiy manfaatlar asosida rivojlanishga erishishdir. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek:

“O'zimizning yaqin qo'shnilarimiz Turkmaniston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston bilan ochiq, do'stona va pragmatik siyosat olib borishga sodiqmiz. Tinch va iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan Markaziy Osiyo — bizning asosiy maqsadimizdir”¹.

Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlari tarixan 1994 yildagi Erkin savdo hududi to'g'risidagi kelishuvdan boshlanib, keyinchalik Yagona iqtisodiy makon, Markaziy Osiyo hamkorlik tashkiloti va Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) faoliyati orqali rivojlandi. Bu tuzilmalar mintaqada iqtisodiy hamkorlik, suv-energetika, transport va ekologiya sohalarida hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

ShHT Markaziy Osiyoda xavfsizlik, tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bilan birga iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhim platformaga aylangan. O'zbekistonning mazkur tashkilotdagi faol ishtiroki mintaqa xavfsizligi va integratsiyasi uchun katta ahamiyat kasb etmoqda.

Markaziy Osiyoda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun yangi tashabbuslar zarur bo'lib, Prezident Shavkat Mirziyoevning yangi siyosati ana shunday hayotiy tashabbus bo'ldi. Shavkat Mirziyoev tomonidan olib borilayotgan siyosat ekspertlar tomonidan “iliqlik davri”, “qayta ishga tushirish” davri deb nomlanib, O'zbekiston tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlarning asosiy mazmuni davlatlararo munosabatlardagi to'siqlarga barham berish, pragmatizm va mintaqaviy yakdillikni mustahkamlashga qaratilgan holda olib borilmoqda.

Markaziy Osiyoda O'zbekiston tomonidan qo'shnilar bilan munosabatlarni yaxshilash bo'yicha qat'iy qadamlar tashlandi. Jumladan, Qirg'iziston va Tojikiston rahbariyati bilan manfaatlar tutashgan nuqtani topishga muvaffaq bo'lindi. Shu paytgacha Toshkent va Bishkek munosabatlarida davlat chegarasi asosiy to'siq bo'lgan bo'lsa, Shavkat Mirziyoev uni “do'stlik chegarasi”ga aylantirishni taklif qildi. Ikki mamlakat rahbarlari tomonidan davlat chegarasi to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi bu sohada erishilgan katta yutuq bo'ldi. Tojikiston bilan doimiy havo qatnovini qayta tiklash bo'yicha kelishuvga erishildi. Parvozlarni qayta yo'lga qo'yish

¹ Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг' халқнинг иши ҳам улуг', ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 321-бет.

tashabbusini aynan O'zbekiston ilgari surdi. O'zbekiston rahbari Prezidentlik lavozimiga kirishganidan so'ng bir yil ichida Markaziy Osiyoning barcha respublikasini ko'p masalalarda birlashtirib turadigan integratsiya jarayonlari amalda boshlanishiga turtki berdi. O'zbekistonning ilg'or va ijobiy tashqi siyosati xorijda ham e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev tashqi siyosatda, birinchi galda, o'z qo'shnilari bilan to'planib qolgan muammolarni hal qilishga qaratilgan siyosatni olib boryapdi. Prezident Shavkat Mirziyoevning mintqa siyosiy maydoniga kirib kelishi qo'shnilar o'rtasidagi munosabatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston tashqi siyosatda turli yo'nalishlarda yuksak faollik ko'rsatib, Markaziy Osiyoda o'zaro munosabatlar sog'lomlashib borishiga o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev barcha mintqa davlatlari bilan aloqalarni yaxshilashga, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Mintaqaning har bir davlati Markaziy Osiyoning barqarorligi va ravnaqini ta'minlashga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Siyosiy iroda va amaliy qadamlarimiz tufayli biz hamkorlikning yanada yuqori bosqichiga ko'tarilmoqdamiz, - deydi Prezident Shavkat Mirziyoev, - Bizning hamjihatligimiz va faol sa'y-harakatlarimiz ko'p qirrali mintaqaviy hamkorlik uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Biz qisqa muddatda birgalikda real tarzda oldinga siljishga erishdik"².

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyodagi integratsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli kechishi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligiga, siyosiy ongi va madaniyatining yuksak darajada bo'lishiga bevosita bog'liq. Faol, mas'uliyatli va bilimli fuqarolar jamiyati — integratsiya jarayonlarining asosiy kafolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hantington Samuel Fillips. Sivilizatsiyalar to'qnashuvi va yangi dunyo tartibi. Tarjimon: J.Qodirov. –T.: “Yangi asr avlodi” nashriyoti. 2023.
2. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to'rtinchi maslahat uchrashuvi. Qirg'iziston. 2022-yil. 21-iyul. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/07/21/president-uz/>
3. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2019 йил, 321-бет.
4. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2020 йил, 270-бет.

Исмоилова Нигорахон Усмонжановна

Преподаватель Наманганского государственного университета

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АСПЕКТ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ ЛИЧНОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные перспективные направления и основы философского воспитания. Эти аспекты тесно связаны с задачами развития личности в гармонии с обществом и направлены на создание устойчивых моделей поведения, способствующих мирному сосуществованию различных этносов.

² Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд, Тошкент, Ўзбекистон, 2020 йил, 270-бет.



Ключевые слова: формирование, воспитание, воспитательная парадигма, образование, аспект, сознание.

SOCIAL PHILOSOPHICAL ASPECT OF THE FORMATION OF PERSONAL PROFESSIONAL CONSCIOUSNESS

Annotation: This article discusses the main promising areas and foundations of philosophical education. These aspects are closely linked to the tasks of developing the individual in harmony with society and are aimed at creating sustainable models of behavior that promote peaceful coexistence among different ethnic groups.

Keywords: formation, education, educational paradigm, education, aspect, consciousness.

Введение. Заинтересованность философии аспектами воспитания определяется самой судьбой философии, ее прошлым и будущим. Все общества (как древние, так и современные) фокусировали свое внимание на вопросах образования и воспитания. В процессе социализации подрастающее поколение приобретает необходимые навыки и начинает действовать в соответствии с нормами конкретной культуры. Социально-философские аспекты воспитания подрастающего поколения в духе межнационального согласия включают формирование уважительного отношения к другим культурам, развитие толерантности и эмпатии, а также усвоение универсальных человеческих ценностей, таких как гуманизм и милосердие. Эти аспекты тесно связаны с задачами развития личности в гармонии с обществом и направлены на создание устойчивых моделей поведения, способствующих мирному сосуществованию различных этносов. Основные аспекты, уважение к другим культурам: Воспитание должно прививать уважительное отношение к историческому прошлому, обычаям и традициям других народов, а также к их культуре; Развитие толерантности и эмпатии: Необходимо формировать способность понимать и принимать различия между людьми, сочувствовать им и проявлять терпимость к чужому мнению и взглядам; Формирование универсальных ценностей: Важной составляющей является усвоение общечеловеческих ценностей, таких как гуманизм, милосердие, справедливость, которые объединяют людей независимо от их национальности; Развитие личности в контексте общества: Цель воспитания состоит не только в развитии индивидуальных способностей, но и в формировании личности, способной гармонично существовать в социуме и соблюдать общепринятые нормы поведения; Патриотизм и интернационализм: Межнациональное согласие предполагает, что патриотическое чувство к своей родине и народу не исключает, а дополняет понимание своей причастности к мировому сообществу и уважение к другим народам; Ответственность: Важно формировать чувство ответственности за судьбу своего народа и Родины, которое проявляется в стремлении работать на благо общества и укреплять его могущество.

При этом появляется возможность выработать обоснованную концепцию, которая определяет модель постановки и решения проблем развития системы воспитания. Конкретно философско-методологический аспект проблемы рассматривается в работах В. С. Библера, М. Я. Боброва, Б. С. Гершунского, В. П. Горана, В. А. Дмитриенко, В. В. Давыдова, Э. В. Ильенкова, Н. С. Рыбакова, В. С. Степина, Л. А. Степашко, А. Л. Симанова, В. Г. Торосьяна и других.

Анализ и результаты. Концепт «воспитание» имеет много определений. Его толкуют в отечественной и зарубежной транскрипциях, в различных аспектах педагогической



деятельности, в широком и узком смысле, как социальный институт и т. д. Воспитание [1. – С.3], согласно отечественному классическому определению, – это процесс относительно осмысленного и целенаправленного возвращения человека в соответствии со спецификой целей, групп и организаций, в которых оно осуществляется. Воспитание в широком социальном смысле – целенаправленный процесс, который осуществляется системой учебно-воспитательных учреждений и часто отождествляется с социализацией. Социализация – процесс становления личности, усвоения индивидом ценностей, норм, установок, образцов поведения, присущих данному обществу [2. –С.328].

Социальное воспитание является составной частью относительно контролируемой социализации. Социализация – процесс становления личности, усвоения индивидом ценностей, норм, установок, образцов поведения, присущих данному обществу, социальной группе. Социальное воспитание – это возвращение человека в социальных институтах, социальных организациях [3. -С. 179].

Философское понимание идеализма в воспитании — это содержательная характеристика, в первую очередь, традиционного воспитания как такового, тысячелетних традиций, транслировавших, наряду с незыблемыми правилами социального поведения, идеалы, ценности, догмы, носящие универсальный характер и восходящие к мифологическим образам и смыслам. Идеалистический подход в воспитании впервые был последовательно изложен в сочинениях Платона, обозначившего воспитание как «припоминание» вечных идей и ценностей.

Начиная с Ж.Ж.Руссо, представители антропологического и гуманистического подхода теоретически осмысливали идеал всестороннего развития человека, приближенный к античному идеалу пайдеи. Различные аспекты человекоцентристской парадигмы разрабатывали в своих трудах и педагогической практике Э.Кей, Г.Шаррельман, Ф.Гансберг, Л.Гурлитт, К.Н.Вентцель, Л.Н.Толстой, М.Монтессори, С.Френе, Я.Корчак, В.А.Сухомлинский и многие другие [4. –С. 67]. Выразительное основание философии антропоцентризма в воспитании видим у К.Д.Ушинского: «Воспитатель должен стремиться узнать человека, каков он есть в действительности, со всеми его слабостями и во всем его величии, со всеми его будничными, мелкими нуждами и со всеми его великими духовными требованиями. Воспитатель должен знать человека в семействе, в обществе, среди народа, среди человечества и наедине со своей совестью; во всех возрастах, во всех классах, во всех положениях, в радости и в горе, в величии и унижении, в избытке и болезни, среди неограниченных надежд и на одре смерти, когда слово человеческого утешения уже бессильно. Он должен знать побудительные причины самых грязных и самых высоких деяний, историю зарождения преступных и великих мыслей, историю развития всякой страсти и всякого характера. Тогда только будет он в состоянии почерпнуть в самой природе человека средства воспитательного влияния — а средства эти громадны» [5. –С. 123].

Антропоцентризм в воспитании опирается на понимание сущности человека как открытой и обновляющейся системы, а воспитания — как создания динамической, благоприятной для индивида среды. При этом человек, стоящий в фокусе воспитательного процесса, сам задает векторы развития, и ни нормы, ни идеал не могут служить границами процесса; модель нацелена на многостороннее и индивидуальное развитие личности [6. –С. 123]. Главная задача — становление уникальной личности воспитанника.

Заключение.

Таким образом, подобно прагматизму, антропо-гуманистическая парадигма ориентирована на развитие личности как таковой, вне соотнесения с какими-либо



предзаданными схемами. Вместе с тем, в отличие от прагматизма, гуманизм не связан жесткой ориентацией на успешность; содержанием гуманистического воспитания становится многообразие проявлений человеческой личности.

Гуманистически ориентированное воспитание, наследуя античной и ренессансной традиции выдвижения образа идеального, гармоничного, всесторонне развитого человека, является сегодня одним из лидирующих подходов. Его успешность связана, в частности, с тем фактом, что такой тип воспитания не устанавливает жестких личных идентичностей, а предлагает выбор в формировании таковых, в том числе и в течение жизни. Таким образом, человек, воспитанный в гуманистической парадигме, способен самостоятельно определять свои потребности и соотносить с ними возможности, находить роль в социальных группах, соответствующую не каким-то внешним ожиданиям, а внутреннему самоощущению.

Вместе с тем ориентация на собственные потребности, без стремления к идеальным образцам и нравственным ориентирам, может повлечь за собой отсутствие незыблемых культурных и духовных ориентиров. В наиболее мрачной перспективе гуманистическое воспитание, не сдерживаемое никаким принуждением, может оказаться основанием для развития типичной личности потребительского общества, ориентированной только на собственные желания и запросы. В наиболее резких оценках негативные последствия свободного воспитания могут быть расценены в свете «гламурных приоритетов потребительской «цивилизации досуга», «деградации, базирующейся на окультуренных безусловных рефлексх животных» [7. –С. 4].

Между тем, некоторые философские течения XX–XXI вв. непосредственно ставят проблему философии воспитания, рассматривая философию как «общую теорию воспитания». Так, основной тезис одного из идеологов философии прагматизма Дж. Дьюи состоял в том, что философская теория, если она хочет быть жизненной, должна непосредственно влиять на процесс воспитания, формировать ценностное отношение человека к миру, способствовать изменению духовных и моральных связей людей в обществе. Философия воспитания в значительной мере связана с позитивистской методологией. Она представлена А. Брентом, А. Харрисом, П. Херстом, Л. Кольбергом [8. –С. 32]. По мнению приверженцев этой модели, важной целью воспитания является выработка у человека способности размышлять на моральные темы. А это, по их мнению, достигается главным образом логикой «языка морали», и «задача философов состоит в том, чтобы помочь личности понять роль языка в моральных рассуждениях». Каждая из рассмотренных «моделей» философии воспитания, несмотря на различное понимание методов и средств воспитания, ставит своей конечной целью формирование зрелой социально активной личности, лояльной к общественному строю и его ценностям.

Таким образом, следуя вышеизложенному пониманию, воспитание граждан должно осуществляться на базе того, что делает всех нас членами одного общества, гражданами одного государства. В этом случае в основу воспитания граждан должны быть положены национальные интересы Узбекистана, которая в настоящее время обрела субъектность на глобальном уровне и продолжает наращивать свое влияние в современном мире.

Список использованной литературы:

1. Полякова М. В. Концепты теории воспитания [Текст]: практ. ориентир. моногр. / М. В. Полякова. Екатеринбург: Изд-во ГОУ ВПО «Рос. гос. проф.-пед. ун-т», 2010. –С. 172.
2. Социологический энциклопедический словарь / под ред. Г. В. Осипова. -М.: 1998. - С. 328.



3. Соколенко В. М. Между полом и гендером // Человек. 2001. № 3. -С. 179.
4. Гагаев А.А., Гагаев П.А. Русские философско-педагогические учения XVIII–XX веков: Культурно–исторический аспект. — М.: Дом книги, 2002. — С. 189.
5. Ушинский К.Д. Собрание сочинений. — М.: Просвещение, 1974. — С. 321.
6. Гавров С.Н., Микляева Ю.В., Лопатина О.Г. Воспитание как антропологический феномен. Учеб. пособие. — М.: Форум, 2011. — С. 240.
7. Майстренко В.И. Социально-философский анализ воспитания как культурного феномена: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. — Ростов н/Д., 2009. — С. 23.
8. Шварцман К.А. Философия воспитания. – М.: Политическая литература, 1989. – С. 32.
9. Наливайко, Н. В. Философия образования в онтологических и аксиологических аспектах / Н. В. Наливайко // Философия образования. -2003. — № 7. - С. 26-35.
10. Якушкина, М. С. Сетевая форма взаимодействия социокультурных институтов в воспитательном пространстве муниципального района / М. С. Якушкина // Философия образования. № 1 (22). - 2008. - С. 227-234.

To'xtarov Ismatullo

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Farg'ona davlat texnika universiteti

MILLATLARARO TOTUVLIK VA IJTIMOY TARAQQIYOT

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik yillarida ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida millatlararo totuvlik g'oyasining o'rni va ahamiyati bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan. Unda mazkur omilni amalga oshirish maqsadida mamlakatimizda olib borilayotgan davlat siyosatining mazmuni va mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: milliy mustaqillik, ijtimoiy taraqqiyot, milliy taraqqiyot, ko'pmillatlilik, millatlararo totuvlik, milliy qadriyatlar, milliy manfaatlar, milliy munosabatlar, milliy siyosat.

Annotation. The article highlights issues related to the role and significance of the idea of interethnic harmony as one of the important factors of social development during the years of independence. It pays special attention to the content and essence of the state policy pursued in our country in order to implement this factor.

Keywords: national independence, social progress, national development, multinationality, interethnic harmony, national values, national interests, national relations, national politics.

Kirish. Kishilik jamiyatining uzoq asrlik tarixiy taraqqiyoti millatlararo totuvlik g'oyasining umumbashariy qadriyat ekanligidan darak beradi. Zero, aynan ana shu qadriyat yer kurrasining istagan burchagida istiqomat qilayotgan xalqlar va davlatlar milliy taraqqiyotining, mazkur makonlardagi tinchlik va osoyishta turmushining kafolatlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, ushbu tamoyilning taraqqiyparvar jihatlarini muntazam ravishda o'rganib borish va yanada rivojlantirish uchun e'tiborni kuchaytirish dolzarbligi doimiy bolgan muammolar qatorida turadi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda sayyoramiz aholisi 8 milliardga yetganligi o'ziga xos demografik muammo sifatida mutaxassislar qatori keng jamoatchilikni ham noqiziq bolmagan ko'pgina masalalar to'grisida bosh qotirishga undamoqda. Bu ko'rsatkich respublikamiz hududida 38



million kishini tashkil etishi va ular 130 dan ortiq millat va elat vakillaridan iboratligi darajasida konkretlashtirilsa, ushbu murakkab tarkibdan iborat aholining kechirayotgan turmushi mamlakatimiz taraqqiyotining muhim jihatini tashkil etishi inkor etib bo'lmaydigan va jiddiy e'tibortalab masala ekanligi ham oydinlashadi.

Bu borada, eng avvalo, shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, yurtimizda qadim-qadimdan turli millat va elatlarning vakillari bahamjihat istiqomat qilib keladi. Ular o'rtasida asrlar mobaynida milliy nizolarning ro'y bermaganligi, ziddiyat va kelishmovchiliklarning kuzatilmaganligi xalqimizning azaliy bag'rikengligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, butun insoniyatning ijtimoiy mavjudot sifatidagi muhim xususiyatlaridan biri turfa xil xalqlar va millatlarning o'ziga xosligidir. Biron-bir davlat xalqining o'z tarkibiga ko'ra turli millat vakillaridan iborat ekanligi esa azal-azaldan unga o'ziga xos tabiiy va boy rang-baranglikni kasb etganki, buning boisi har bir millatning umumiy manfaatlari bilan birga o'z qadriyatlari ham borligidadir. Bunday umumiy va xususiy jihatlar xalqlar va millatlarning urf-odatlarini, turmush madaniyati, axloqi, kiyinishi, tili, bayramlari, rasm-rusumlari kabilarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning barchasi har bir kishi uchun muayyan va muqaddas qadriyat bo'lib shakllangan va kundalik hayoti hamda turmushida katta ahamiyat kasb etadi.

Kezi kelganda shuni ham ta'kidlash joizki, ba'zi hollarda qadriyat va manfaatlar o'rtasida bih-biriga zid kelib qolishi va bining natijasida kutilmagan mojarolarning yuz berib qolishi hollari ham kuzatilishi mumkin. Ular o'rtasida o'zaro uyg'unlik va hamohanglik bo'lganda xalqlar va davlatlar taraqqiyotida yuksalish va ulkan ijobiy o'zgarishlar, bunyodkorlik ishlarining avj olishi ro'y beradi va, aksincha, ziddiyatlar avj olgan mahallarda esa tanazzulga yuz tutish, norozilik kayfiyatlarining ko'payishi avj oladi.

Bunda, tabiiyki, muayyan mamlakatlarda davlat tomonidan olib boriladigan milliy siyosat muhim rol o'ynaydi. Shunday ekan, bir jamiyatda yashab, yagona maqsad yo'lida mehnat qilayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasida o'zaro hurmat, hamdo'stlik va hamjihatlik munosabatlarini ta'minlash mintqa va davlatlarning milliy taraqqiyotini belgilaydi, ushbu makondagi tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Yangi O'zbekiston uchun ham millatlararo hamjihatlik tamoyili vatanimiz ravnaqi va istiqbolining muhim ma'naviy omilidir. Vaholanki, O'zbekiston ko'pmillatli mamlakat bo'lib, yurtimizda istiqomat qilayotgan millat va elatlarning manfaatlarini uyg'unlashtirish, ular o'rtasida bir-birini to'g'ri tushunish va totuvlikni qaror toptirish yurtimiz taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Zero, millatning istiqboli faqat o'z manfaatlarini ko'zlash, ushbu manfaatlarning tor qobig'ida harakatlanishdan iborat emas, balki boshqa xalqlar va mamlakatlarning taraqqiyoti, butun jahondagi bu boradagi vaziyat va imkoniyatlar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Bu g'oya ayni paytda har bir millat vakilining bor iste'dodi va iqtidorini to'liq ro'yobga chiqarish, salohiyatini namoyon qilish uchun sharoit ham yaratadi, qaysi millat yoki elatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar kindik qoni to'kilgan, o'z taqdiri va kelajagini bag'ishlagan O'zbekiston uchun, uning ravnaqi, shu yurt tinchligi, yurtdoshlar farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar qiladi, uning atrofiga birlashgan va jipslashgan holda umumiy maqsad va muddaolarni ro'yobga chiqarishga chorlaydi.

Azal-azaldan tasdig'ini topib kelayotgan "Qo'shning tinch – sen tinch" iborasi barcha xalqlar uchun allaqachon mutlaq haqiqatga aylangan. Ushbu haqiqatni chuqur anglab etmaslik yoki inkor qilish mumkin emas, aks holda yurt taraqqiyoti uchun asosiy omil bo'lgan tinchlik, osoyishtalik, barqarorlik, hamkorlik, hamjihatlik singari qadriyatlarning zavol topish ehtimolligi ortadi. Xuddi shu joyda bir mamlakat miqyosida milliy manfaatlarni to'liq ta'minlash murakkab vazifa ekanligi ayon bo'ladi va buni keng jamoatchilik uchun teran anglab yetish zarurdir.



Aks holda, millatlararo hamjihatlik tajovuzkor millatchilik va shovinizm deb ataladigan oqimlar iskanjasiga tushib, katta xavf ostida qolishi tayin. Bunday zararli g'oyalar ta'siriga tushgan jamiyatning ham kutilmagan muammolar girdobida qolishi muqarrar. Keyingi o'n yilliklar mobaynida jahonning turli mintaqalarida sodir bo'lgan milliy negizdagi nizo va kelishmovchiliklar bilan bog'liq bo'lgan koplab voqea va hodisalar ana shundan dalolat beradi. Millatlararo totuvlik tamoyili ana shu inqiroziy vaziyatdan barcha xalqlar va davlatlarni ishonchli asrab qoladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mamlakatimizning ko'pmillatli aholisi orasida millatlararo hamjihatlik va totuvlik muhitini yaratish maqsadida nihoyatda izchil siyosat olib borilayotganligi g'oyat e'tiborga loyiqdir. Xususan, yurtimizdagi etnik o'ziga xoslikni yanada rivojlantirish hamda millatlararo munosabatlarni hamohang qilish maqsadida tashkil etilgan 137 ta milliy madaniy markazlar katta rol o'ynayotganligi, davlat ta'lim muassasalarida tahsil olish jarayonlari 7 tilda olib borilayotganligi, Respublikamiz teleradiokompaniyasi o'z ko'rsatuvlarini 12 tilda namoyish etib kelayotganligi yuqoridagi fikrlarimizni yaqqol tasdiqlaydi. Respublika baynalminal madaniyat markazi mazkur yo'nalishdagi ishlarni tashkillashda bosh-qosh bo'layotganligi ham diqqatga sazovordir.

Binobarin, bularning barchasi shundan ham dalolat beradiki, mamlakatimizning tub aholisini tashkil etadigan o'zbek millatining asosiy vazifasi o'z ona tili bilan birgalikda milliy madaniyati va tarixini avaylab asrash hamda tiklashdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki yonma-yon, qo'ni-qo'shni va yurtdosh bo'lib yashayotgan kam sonli xalqlarning ham taqdiri uchun teng qayg'urish, ularning ham o'ziga xos madaniyatini saqlab qolish uchun va o'zligini to'liq namoyon eta olishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratib berilishida mas'uldir. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyevning o'zi ham alohida uqtirib o'tishganidek, "Odamlarning dardu tashvishi, manfaatlarini o'ylab yashash, aholi uchun munosib sharoitlar yaratish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rin olishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib belgilaganmiz" [2; 302].

Mustaqillik yillarida yurtimizda millatlararo totuvlik go'yasi ilgari surilishi natijasida yurtimizda istiqomat qilayotgan ko'pmillatli O'zbekiston xalqi ongida "O'zbekiston – yagona vatan" degan g'oya asosidagi tushuncha to'liq shakllantirishga erishildi va pirovard oqibatda o'zbekistonlikman degan har bir fuqaro ongida haqiqiy vatandoshlik his-tuyg'usini qaror toptirishga muvaffaq bo'lindi. Bunda, albatta, Respublikamiz Konstitutsiyasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analarini hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi" [1;45], deya ta'kidlangan tamoyili, tabiiyki, zamin bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa. Qayd etilgan barcha fikr va mulohazalardan ma'lum boladiki, millatlararo munosabatlardagi barqarorlik, o'zaro totuvlik va bag'rikenglik milliy va umuminsoniy qadriyatlar orasidagi dialektik aloqadorlikni chuqurlashtiradi va faqat mintaqamizdagina emas, balki butun dunyo miqyosidagi barqaror taraqqiyotni ta'minlashga muhim hissa qo'shadi. Bunda xalqimizning bunyodkorlik salohiyatidan tolaroq foydalanish yordamida barcha millatlar manfaatini yurtimizning ertangi kundagi istiqboliga erishih istagiga ishonch, istiqlolimiz kelajagi millatlar birligi bilan chambarchas bog'liqligi tamoyili tegrasida yaxlit qilish va birlashtirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston". 2023 yil.



2. Mirziyoyev Sh. Millatlararo do'stlik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai.// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. Toshkent, "O'zbekiston". 2017 yil.

O'rmonjonova Dilnozaxon Muhammadjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-7679-1270>

O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING YOSHLARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBİYALASHDA TUTGAN O'RNI VA ZAMONAVIY IJTMOIY ISH TIZIMLARI BILAN INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada O'zbekistonda mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni va uning zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahallaning an'anaviy tarbiyaviy funksiyalari bilan zamonaviy ijtimoiy ish texnologiyalarining uyg'unlashtirilishi orqali yoshlarning milliy va universal qadriyatlarni egallash darajasini oshirish imkoniyatlari o'rganilgan. Empirik tadqiqotlar asosida integratsiyalashgan dasturlar yordamida millatlararo totuvlik ko'rsatkichi 72% darajasiga yetkazilganligi, shu bilan birga intermadaniy kommunikatsiya ko'nikmalarining 71% darajada shakllantirilganligi aniqlandi. Maqolada mahalla va ijtimoiy ish xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikning hozirgi holati, muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari, shuningdek, yoshlar tarbiyasida integratsiyalashgan yondashuvlarning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ish, mahalla, yoshlar, totuvlik, integratsiya, tarbiya, ijtimoiylashuv, tizim, hamkorlik.

РОЛЬ ИНСТИТУТА МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНОГО СОГЛАСИЯ И ЕГО ИНТЕГРАЦИЯ С СОВРЕМЕННЫМИ СИСТЕМАМИ СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ

Аннотация: В данной научной статье анализируется роль института махалли в Узбекистане в воспитании молодежи в духе межнационального согласия и его интеграция с современными системами социальной работы. В исследовании изучены возможности повышения уровня усвоения молодежью национальных и общечеловеческих ценностей путем интеграции традиционных воспитательных функций махалли с современными технологиями социальной работы. На основе эмпирических исследований установлено, что с помощью интегрированных программ показатель межнационального согласия был доведен до 72%, а также сформированность навыков межкультурной коммуникации достигла 71%. В статье представлены текущее состояние сотрудничества между махаллей и службами социальной работы, проблемы и пути их решения, а также практические рекомендации по повышению эффективности интегрированных подходов в воспитании молодежи.

Ключевые слова: социальная работа, махалля, молодежь, согласие, интеграция, воспитание, социализация, система, сотрудничество.



THE ROLE OF THE MAHALLA INSTITUTE IN UZBEKISTAN IN EDUCATING YOUTH IN THE SPIRIT OF INTERETHNIC HARMONY AND ITS INTEGRATION WITH MODERN SOCIAL WORK SYSTEMS

Abstract: This scientific article examines the role of the mahalla institute in Uzbekistan in educating youth in the spirit of interethnic harmony and its integration with modern social work systems. The study explores the potential for enhancing the acquisition of national and universal values among young people by integrating the traditional educational functions of the mahalla with modern social work technologies. Based on empirical research, it was found that integrated programs achieved an interethnic harmony indicator of 72%, while the formation of intercultural communication skills reached 71%. The article presents the current state of cooperation between mahallas and social work services, identifies problems and solutions, and provides practical recommendations for improving the effectiveness of integrated approaches in youth education.

Keywords: social work, mahalla, youth, harmony, integration, education, socialization, system, cooperation.

KIRISH

Zamonaviy O'zbekiston jamiyatini barpo etishda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlash, yoshlarni insoniy qadriyatlar va fuqarolik javobgarligi ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Bu borada an'anaviy mahalla instituti nodir ijtimoiy mexanizm sifatida o'zining tarixiy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Bugungi kunda mahallaning yoshlar tarbiyasidagi rolini zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyalash, ayniqsa millatlararo totuvlikni shakllantirish kontekstida ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Yoshlar siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021-yil 14-sentyabrdagi PQ-5250-sonli Qarori [1]da yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamolotiga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur hujjatda yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va xalqaro hamjihatlik ruhida tarbiyalashda mahallaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish vazifasi belgilab berilgan.

Shuningdek, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" [2]da milliy o'zlikni anglash va boshqa millatlar vakillari bilan o'zaro hurmat asosida munosabatlar barpo etish tamoyillari alohida ta'kidlangan. Ushbu strategik hujjat mahalla va oila, ta'lim muassasalari hamkorligini mustahkamlash orqali yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirishni muhim vazifa sifatida ko'rsatadi.

Mahalla institutining zamonaviy sharoitdagi o'rni va ahamiyati "Mahalla fuqarolari yig'inlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [3]da aniq belgilangan. Mazkur qonun hujjati mahallaning ijtimoiy-madaniy faoliyatini tartibga solish, shu jumladan yoshlar tarbiyasi va millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi vakolatlari va majburiyatlarini belgilaydi.

Ilmiy adabiyotlarda mahallaning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati keng yoritilgan. Professor A. Abdullayevning "O'zbekiston jamiyati taraqqiyotida mahalla institutining o'rni" nomli asarida [4] mahallaning milliy qadriyatlarni saqlash va avloddan-avlodga yetkazishdagi tarixiy rolli tahlil qilingan. Shuningdek, T. Alimov va M. Xolmuhamedovlarning "Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot" darsligida [5] mahalla va ijtimoiy ish xizmatlarining integratsiyasi masalalari o'rganilgan.

Shu bilan birga, mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini oshirish, uning zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi mexanizmlari ilmiy jihatdan yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan



bo'lib, unda mahallaning zamonaviy sharoitda yoshlar tarbiyasidagi rolini takomillashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni va uning zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi masalasi so'nggi yillarda O'zbekiston ijtimoiy-pedagogik tadqiqotlarida keng o'rganilmogda. Bu masala nafaqat an'anaviy tarbiyaviy mexanizmlarni, balki zamonaviy ijtimoiy muammolarga an'anaviy yechimlarni qo'llash imkoniyatlarini o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekistonlik olimlarning so'nggi yillardagi tadqiqotlari mahalla institutining zamonaviy jamiyatdagi o'rni va funksiyalarini chuqur o'rganishga qaratilgan. Professor A. Abdullayevning "O'zbekiston jamiyati taraqqiyotida mahalla institutining o'rni" asarida mahallaning tarixiy evolyutsiyasi va uning milliy qadriyatlarni saqlashdagi roli fundamental o'rganilgan. Muallif ta'kidlashicha, "mahalla – nafaqat maishiy qo'llab-quvvatlash, balki ma'naviy-axloqiy tarbiyaning muhom markazi hisoblanib, uning yoshlarni milliy va universal qadriyatlar ruhida tarbiyalashdagi roli beqiyosdir" [6].

T. Alimov va M. Xolmuhamedovlarning "Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot" nomli darsligida esa mahalla va ijtimoiy ish xizmatlarining integratsiyalashuv yo'llari tahlil qilingan. Mualliflar "mahalla va ijtimoiy ishning uyg'unlashuvi – bu an'ana va zamonaviylikning optimal uyg'unligi bo'lib, yoshlar tarbiyasida yangi imkoniyatlar va samaradorlikni ta'minlaydi" degan xulosaga kelishgan [7].

R. Qodirovning "Milliy tarbiya: an'ana va innovatsiya" nomli monografiyasida mahallaning yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi roliga alohida e'tibor qaratilgan. Muallifning ta'kidlashicha, "mahalla – bu tabiiy ijtimoiy laboratoriya bo'lib, unda turli millat vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamjihatlik amaliy namoyon bo'ladi" [8].

Ilmiy maqolalar qatorida M. Yunusovanning "Yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda mahallaning roli" nomli tadqiqoti alohida qayd etilishi lozim. Muallif ushbu maqolasida mahalla darajasida olib borilayotgan tarbiya ishlarining yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'sirini empirik asoslangan holda o'rganib, "mahalla tarbiyasining yoshlarning intermadaniy kompetentligini shakllantirishda 78% samaradorlik darajasiga ega ekanligini" isbotlagan [9].

Ushbu tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlar qo'llanildi:

Tizimli tahlil - mahalla institutining tarkibiy tuzilishi va funksiyalarini kompleks o'rganish

Tarixiy tahlil - mahallaning tarbiyaviy faoliyatining tarixiy evolyutsiyasini o'rganish

Qiyosiy tahlil - an'anaviy mahalla tarbiyasi va zamonaviy ijtimoiy ish tizimlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlash

So'rovnoma - 5 ta viloyat markazidagi mahallalarda 300 nafar yosh qatnashchilar ishtirokida o'tkazildi:

Chuqur intervyu - 25 nafar mahalla raislari va ijtimoiy ish mutaxassislari bilan suhbat

Kuzatuv - mahallalarda o'tkaziladigan millatlararo tadbirlarni ishtirokchi kuzatuvchi sifatida kuzatish

Kontent-tahlil - mahallalarda yoshlar tarbiyasi uchun ishlab chiqilgan dasturiy hujjatlarni tahlil qilish.

Korelyatsion tahlil - mahalla tarbiyasi faolligi va yoshlarning millatlararo munosabatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash

Faktorli tahlil - yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash



Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari asosida shuni aytish mumkinki, mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi roli nafaqat an'anaviy, balki zamonaviy jihatlari bilan ham chuqur o'rganilishi zarur. Bu borada an'anaviy tarbiya usullarini zamonaviy ijtimoiy ish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali yanada samarali natijalarga erishish mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot davomida mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini aniqlash va uning zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi imkoniyatlarini o'rganish maqsadida olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida quyidagi ma'lumotlar olingan:

Tadqiqot 2023-yil sentyabrdan 2024-yil fevraligacha 5 ta viloyat (Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo) markaziy mahallalarida olib borildi. Tadqiqotda 300 nafar 18-25 yoshli yoshlar, 25 ta mahalla raisi va 15 nafar ijtimoiy ish mutaxassislari ishtirok etdi.

Tadqiqot davomida quyidagi asosiy natijalar qayd etildi:

Integratsiyalashgan dastur qo'llanilgan mahallalarda yoshlarning millatlararo totuvlik darajasi 72% ga yetdi, bu an'anaviy usullar qo'llanilayotgan mahallalarga nisbatan 2,1 baravar yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Xususan, "boshqa millat vakillari bilan do'stona munosabatda bo'lish" ko'rsatkichi 68% ni tashkil etdi.

Mahalla va ijtimoiy ish xizmatlari integratsiyasining samaradorligi quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

1-jadval. Mahalla va ijtimoiy ish xizmatlari integratsiyasining yoshlar tarbiyasidagi samaradorligi:

№	Ko'rsatkichlar	Integratsiyalashgan dastur (n=150)	An'anaviy dastur (n=150)	Farq
1	Millatlararo totuvlikni qo'llab-quvvatlash darajasi	72%	34%	+38%
2	Boshqa millat vakillari bilan do'stona munosabat	68%	29%	+39%
3	Madaniyatlarni o'zlashtirishga tayyorlik	65%	27%	+38%
4	Intermadaniy kommunikatsiya ko'nikmalari	71%	32%	+39%
5	Milliy va universal qadriyatlarni uyg'unlashtirish	69%	31%	+38%

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv yoshlarning 85% da milliy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish darajasini oshirgan. Mahallada tashkil etilgan "Milliy madaniyatlar festivali", "Do'stlik o'yinlari" kabi tadbirlar yoshlarning 78% i tomonidan ijobiy baholandi.

Mahalla raislari va ijtimoiy ish mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik darajasi quyidagi statistik ma'lumotlarda aks etgan.

2-jadval. Mahalla va ijtimoiy ish xizmatlari o'rtasidagi hamkorlik ko'rsatkichlari:

№	Hamkorlik turlari	Qoniqarli daraja (80-100%)	O'rtacha daraja (50-79%)	Past daraja (0-49%)
1	Qurilmalar almashinuvi	42%	38%	20%
2	Ma'lumotlar almashinuvi	35%	45%	20%



3	Birgalikda loyihalash	28%	52%	20%
4	Malaka oshirish	25%	55%	20%
5	Monitoring va baholash	30%	50%	20%

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalla institutining zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda sezilarli samara beradi. Xususan, R. Qodirovning ta'kidlashicha, "mahalla - bu tabiiy ijtimoiy laboratoriya bo'lib, unda turli millat vakillari o'rtasidagi o'zaro hurmat va hamjihatlik amaliy namoyon bo'ladi" [6]. Bu fikr bizning tadqiqotimiz natijalari tomonidan ham tasdiqlandi.

Shu bilan birga, quyidagi muammolar aniqlandi:

Mahalla raislarining 60% zamonaviy ijtimoiy ish metodlari bilan yetarlicha tanish emas;

Ijtimoiy ish mutaxassislarining 45% mahalla an'analari va maxsus xususiyatlarini hisobga olmagan holda ish olib boradi;

Moliyaviy resurslarning cheklanganligi (faqat 30% loyiha moliyalashtiriladi).

Mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini oshirish uchun an'anaviy tarbiya usullarini zamonaviy ijtimoiy ish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, shuningdek mutaxassislarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash zarur.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijasida "O'zbekistonda mahalla institutining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda tutgan o'rni va zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi" mavzusi bo'yicha quyidagi asosiy xulosalarga erishildi:

Mahallaning tarixiy ahamiyati va zamonaviy rolining o'zgarishi: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mahalla instituti nafaqat an'anaviy tarbiya markazi, balki zamonaviy sharoitda millatlararo totuvlik va madaniyatlararo muloqotning samarali platformasiga aylanishi mumkin. Mahallaning yoshlar tarbiyasidagi rolini uning tarixiy funksiyalari va zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar uyg'unligida qayta ko'rib chiqish zarur.

Integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi: Empirik tadqiqotlar mahalla va ijtimoiy ish xizmatlari integratsiyasining yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda an'anaviy usullarga nisbatan 2,1 baravar yuqori samaradorlik (72% va 34%) ko'rsatkichlariga erishish imkonini berishini isbotladi. Bu yondashuv yoshlarning intermadaniy kommunikatsiya ko'nikmalarini 71% darajasida shakllantirishga yordam beradi.

Institutional hamkorlikning ahamiyati: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, mahalla raislari va ijtimoiy ish mutaxassislari o'rtasidagi hamkorlik darajasi hali ham maqbul darajadan past (qoniqarli daraja 25-42% oralig'ida). Bu sohada mutaxassislarning o'zaro ishonchi va hamkorlik madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Metodologik yondashuvlarning takomillashishi: Mahallaning an'anaviy tarbiya usullarini zamonaviy ijtimoiy ish texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish orqali yoshlarning 85% da milliy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish darajasini oshirish mumkin. "Milliy madaniyatlar festivali", "Do'stlik o'yinlari" kabi loyihalar yoshlarning 78% tomonidan ijobiy qabul qilinadi.

Amaliy tavsiyalarining ishlab chiqilishi: Tadqiqot natijalari asosida mahalla va ijtimoiy ish xizmatlari integratsiyasini chuqurlashtirish, mutaxassislarning malakasini oshirish, loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish, shuningdek monitoring va baholash tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, mahalla institutining zamonaviy ijtimoiy ish tizimlari bilan integratsiyasi nafaqat yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, balki umuman milliy



tarbiya tizimini takomillashtirish, shu orqali yangi O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatlariga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi PQ-5250-sonli "Yoshlar siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. "Mahalla fuqarolari yig'inlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 16-dekabrdagi O'RQ-655-sonli Qonuni.
4. Abdullayev A. O'zbekiston jamiyati taraqqiyotida mahalla institutining o'rni. – Toshkent: Fan, 2019. – 256 b.
5. Alimov T., Xolmuhamedov M. Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 318 b.
6. Abdullayev A. O'zbekiston jamiyati taraqqiyotida mahalla institutining o'rni. - Toshkent: Fan, 2019. - 256 b.
7. Alimov T., Xolmuhamedov M. Zamonaviy O'zbekistonda ijtimoiy ish: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. - 318 b.
8. Qodirov R. Milliy tarbiya: an'ana va innovatsiya. - Toshkent: Ma'naviyat, 2020. - 192 b.
9. Yunusova M. "Yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda mahallaning roli", Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 2023, №2, 45-52-betlar.

Ravshanov Abbosjon Axmat O'g'li
Samarqand shahar 2-son sport maktabi

“DESIGNING A FRAMEWORK FOR CULTIVATING THE LOGICAL AND PSYCHOLOGICAL THINKING SKILLS OF CHESS LEARNERS.”

Abstract. The variety of approaches to the concept of "Logical thinking" and their controversy allow us to offer our own version. In our opinion, logical thinking is an actual psychological-pedagogical and social activity in the process of educational and practical activities aimed at applying various consciously reasonable logical operations in one's activity, creating hypotheses and evaluating the results according to the laws of logic, and using these skills is a systematic formative mental characteristic of a person based on a complex mechanism in solving cultural problems.

Keywords "Logical thinking", chess, consciousness, thinking, self-evaluation, self-analysis, nurture educational, competitive

Annotatsiya. "Mantiqiy fikrlash" kontseptsiyasiga yondashuvlarning xilma-xilligi va ularning qarama-qarshiligi bizga o'z variantimizni taklif qilish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, mantiqiy fikrlash - bu o'z faoliyatida turli ongli asosli mantiqiy operatsiyalarni qo'llash, gipotezalar yaratish va natijalarni mantiq qonunlari bo'yicha baholash va undan foydalanishga qaratilgan o'quv va amaliy faoliyat jarayonida dolzarb psixologik-pedagogik va ijtimoiy faoliyat bu ko'nikmalar. - madaniy muammolarni hal qilishda murakkab mexanizmga asoslangan shaxsning tizimli shakllantiruvchi psixik xususiyatidir.



Kalit soʻzlar "Mantiqiy fikrlash", shaxmat, ong, tafakkur, oʻz-oʻzini baholash, oʻz-oʻzini tahlil qilish, tarbiyaviy, raqobatbardosh

Аннотация. Разнообразие подходов к понятию «логическое мышление» и их противоречивость позволяют предложить свою версию. По нашему мнению, логическое мышление - это собственно психолого-педагогическая и социальная деятельность в процессе учебно-практической деятельности, направленная на применение в своей деятельности различных сознательно обоснованных логических операций, создание гипотез и оценку результатов в соответствии с законами логики, а также использование этих умений - это систематическая формообразующая психическая характеристика человека, основанная на сложном механизме решения культурных задач.

Ключевые слова Логическое мышление, шахматы, сознание, мышление, самооценка, самоанализ, воспитательный, образовательный, соревновательное

In the psychological and pedagogical literature, there is still a debate about the approaches to learning logical thinking and the components that make up its structure. In the context of innovative developments in the field of education and training, the thinking of students is education at a complex structural level, characterized by the hierarchy and interdependence of the components included in it.³

In chess, the operational and functional component is implemented in the form of a next move on the board. Thus, one move is the result of the logical reasoning of the chess player, which is based on the knowledge and experience-based methods of the operational and functional component: comparison, selection of features, summarization of information obtained on the basis of analysis, etc⁴[7,9].

The purpose of the research is to theoretically and methodologically justify and develop the pedagogically effective technological support of the system of formation of logical thinking of chess players.

The object of research is educational and competitive activities of chess players.

The subject of research is the theoretical, methodological and technological foundations of designing a system for forming the logical thinking of chess players.

Research tasks:

1. To study the situation of the problem of formation of logical thinking of chess players and to determine the important and specific features of the concept of solving it in the field of physical education and sports.

Research methods, study, analysis and generalization of materials of scientific methodological literature, study of information materials, official documents published in special periodicals, pedagogical observations, control tests, experience.

The formation of logical thinking at the stage of development and formation of technology for the successful implementation of specified tasks is presented in Table 5 below.

³ Oʻ.L.Matnazarov, D.B.Yaqubova Shaxmatning boshlangʻich asoslari. Uslubiy qoʻllanma. Xorazm Maʼmun akademiyasi nashrlilik boʻlimi, Xiva-2019. 89 bet. Коломок О.И., Вершинин М.А. О сущности логического мышления Проблемы образования: теория и практика. - 2000. Учебное пособие. № 2 - С. 84-86.. Коломок О.И., Вершинин М.А. Программа управления учебной деятельностью студентов // Теоретико-методологические основы формирования педагогической культуры: Мат. межвуз. науч. конф. - Волгоград: ВГАФК, Научный журнал. 2001. - С. 73-76.

⁴Вершинин М.А., Технологические аспекты формирования логического мышления учащихся // Педагогические технологии развития творческого мышления: Мат. межрегион, науч.-методич. конф. - Волгоград: ВГАФК, 2002. - С. 31-37Вершинин М.А. Эндшпиль: легкофигурные окончания (конь против слона). - Волгоград: Научный журнал. ВГАФК, 2004. - 28 с



The modules of the author's program for the training of chess players for the training and educational process of the third stage of the experiment have been developed.

Table 1.

Program for developing the logical and psychological thinking of chess students

Stage	Objective	Activities (Methods)	Expected Outcome	Evaluation Criteria	Duration
1. Preparatory Stage	To foster students' interest in chess and teach basic rules	- Introducing game elements during lessons - Practicing correct placement of the chessboard and pieces - Motivational discussions	The student knows the chessboard, pieces, and movement rules	80% of students score ≥ 70 points on the test	1 month
2. Stage of Developing Logical Thinking	To develop combinational thinking, analysis, and strategic decision-making skills	- "Checkmate in one move" exercises - Game analysis and solving combinations - Rapid (blitz) games to train quick thinking	The student can plan 2–3 moves ahead	75% of students correctly solve combination tasks	Months 2–3
3. Psychological Preparation Stage	To develop concentration, patience, and emotional stability	- Tournament games - Stress management exercises - Motivational training sessions	The student remains calm, focused, and stable during games	Psychological test result $\geq 70\%$	Months 4–5
4. Final Stage	To evaluate and strengthen the overall level of thinking	- Analytical tournaments - Individual assessment - Analysis of achievements and shortcomings	The student achieves harmony between logical and psychological thinking	80% or more of students achieve high results	Month 6

The program is aimed at gradually developing students' logical, analytical, and psychological preparedness. Each stage includes clear goals, outcomes, and assessment criteria, with progress monitored through observation and evaluation.

The program can be applied in schools, sports schools, or chess clubs.

Analysis of results. The motivational-goal component of the logical thinking of chess players was formed by strengthening internal motivation and cognitive activity, the desire to show oneself in competitive activities as an athlete, more diverse and self-improvement of professionally important

skills. Integrated learning and cognitive activity, in which the methods of logical analysis, synthesis, comparison, and generalization are highly relevant in solving theoretical and practical problems. The development of the motivational component was helped by the demonstration of bright and, at the same time, technically rather complex tactical and strategic examples, which reveal a rich spectrum of harmony in the interaction of chess pieces. Analysis of such tasks and self-analysis help to create a highly positive emotional background in learning[1,3,].

Evaluation of the level of performance of teaching technology is considered as an object of its quality management system.

Table 2

Components of logical thinking

Group name	Components of logical thinking				Integral indicator, G
Experimental group	Motivational-purposeful P1	Informant P2	Operationally functional P3	Reflexive P4	
Control group	0,8	0,71	0,72	0,68	0,74
	0,53	0,62	0,57	0,52	0,51

Description of the integrated indicator of the formed logical thinking of chess players (according to the results of the formative stage of the experiment)

In our opinion, only such a highly differentiated landscape (along with progress in the direction of increasing the level of generalization and systematization of the knowledge accumulated by humanity) provides a full opportunity for a synthetic review of the genetic composition of knowledge.⁵

Based on the above, we distinguish the following sets of knowledge within the structural part:

- 1) technological, which represents the information base of the technologies of organization and construction of the activity process;
- 2) methods of studying various phenomena in the process of activity, which combine a set of knowledge about general laws;
- 3) theoretical, including knowledge of goals, principles, methods, tools and various forms of action aimed at achieving specific results in the process of activity;
- 4) methods based on mastering the basics of various methods of organizing and managing the field of activity

Conclusions. Analyzing the concepts of "Thinking", "Logical thinking" and the concept of "Logical thinking of a chess player" are related to them, using various conscious logical operations in their activities, creating hypotheses and evaluating them according to the results. made it possible

⁵ Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojiev X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-~~№~~6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569., Xolboyeva G.X. *Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari* // SamDU ilmiy axborotnomasi. Ilmiy jurnal. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144., Kholboeva, Gulhayo Kholboevna (2021) "Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes," Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1:Iss.2, Article.1. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/1>



to describe a person based on a complex mechanism of abilities. with the laws of logic and aimed at using these skills to solve current psychological-pedagogical and socio-cultural problems.

During the development of the system of formation of logical thinking of chess players, a number of its functional (gnostic, design, constructive, communicative, organizational) and structural (motivational-target, informational, procedural, diagnostic, result) components were identified. This makes it possible to take into account the specific features of logical thinking, the features of the construction of its content and components, to predict and control the processes of its formation, and to diagnose the results.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida " PF-5368-son farmoni. 2018 yil 5-mart.

2. 2019-2023 O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 15-fevral.

Kholboeva, Gulhayo Kholboevna (2021) "Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes," Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1: Iss. 2, Article 1. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/1>

Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojiev X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.

Holboeva GH Mechanisms of improving primary gymnastics in increasing the motor activity of preschoolers // Scientific Bulletin of the Samarqand State University 2019, issue 6; 140-144.

Xolboyeva G.X. Methods of development of physical qualities in gymnastics for 5-7 years old". // Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 Volume 6, issue 6, june -2020; 743-747.

Holboeva G. H. Nazarova D. Mechanisms of increasing the motor activity of children aged 5-6 years on the basis of initial gymnastic exercises. // Scientific theoretical journal "Science to sport". 2020 Year Number 6. ISSN.2181-7804; 72-75.

Haydarov B.T., Holboyeva G.H., Theory and methodology of physical education. // Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.



2-SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIK: ZARURIYAT VA ISTIOBOLLAR

Maxkamov Qodirjon Odiljonovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Namangan davlat universiteti

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada fuqarolik jamiyati institutlarining jamiyat hayotida tutgan o'rni va ahamiyat hamda millatlararo munosabatlardagi vazifalari ochib berilgan. Shuningdek, nodavlat va notijorat tashkilotlarning erkinlik va qonun ustivorligini ta'minlashdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, xalq, institut, nodavlat, til, J.Lokk, Sh.Montecke, siyosat, diaspora.

Annonation: this article explores the role and importance of civil society institutions in society and their role in interethnic relations. It also highlights the role of non-governmental and non-profit organizations in ensuring freedom and the rule of law.

Keywords: civil society, people, institution, non-state, language, J. Locke, S. Montesquieu, politics, diaspora.

Kirish. Yangi O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlashda millatlararo munosabatlar birligi ta'minlash, uning zahirida kechayotgan hamkorlik munosabatlari natijalaridan demokratik islohotlar hamda iqtisodiy yuksalish jarayonlarida samapali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bunda albatta nodavlat va notijorat tashkilotlarning o'rni katta. Shu boisdan deya ta'kidlaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "biz xalqimiz bilan bamaslahat ishlab chiqilgan va hozirgi vaqtda jadal amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oya asosida barcha sohalarida faol islohotlarni amalga oshirish bo'yicha ustiaor vazifalarni belgilab oldik". [1,137] Bundan ko'zlangan maqsadlar zahirida nodavlat notijopat tashkilotlarning faoliyatidagi muhim vazifa hisoblangan madaniy munosabatlarni yanada rivojlantirish, ushbu faoliyatni kengaytirish, tupli millat vakillari orasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlikni mustahkamlash ishiga bevocita hissa qo'shish jihatlarini oshirish ham ko'zda tutilgan. Bunday japayonlarning fuqarolik jamiyati rivojlanish davrida kechayotganligi dolzarb ahamiyatga egadir.

Tahlil va natija. "Fuqarolik jamiyati" tushunchasi xususida dastlab yangi davr faylasuf olimlari T.Gobbc, J.Lokk, Sh.Montecke, I.Kant va Gegel kabi olimlar o'z asarlarida bayon etgan bo'lsalarda, ammo, yurtimizda miloddan avvalgi VII acrda zardushtiylik dinida ezgulik va yovuzlik, himmat va johillik kabi qapama-qarshi kuchlarning kurashi tasvirlangan. Jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni boshqapuvchi omil – axloq qoidalariga rioya etish insonning vazifasi, huquqi va burchi sifatida qaralgan.[2,102-103] Immanuil Kant fuqarolik jamiyatida inson erkin bo'lib, boshqa to'siqlar uning huquq va manfaatlarini to'sa olmasligini ta'kidlaydi. [3,421-424] Hozirgi globallashuv sharoitida fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-madaniy ahamiyati milliy madaniyat tapaqqiyotida, diniy bag'rikenglikda, millatlararo totuvlik va hap bir shaxsning umuminsoniy qadriyatlar negizida amalga oshirayotgan madaniy munosabatlarida namoyon bo'lmoqda.



Jamiyatning raqamlashishi va globallashuv jarayonlarining rivojlanib borishi fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarini takomillashtirish ularning mamlakatda demokratik o'zgarishlar va yangilanishlarda faol ishtipok etishiga ko'maklashish jamiyatda erkinlik va qonun ustivorligini ta'minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining asosi bo'lgan demokratik institutlarni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlariga oid islohotlar yildan yilga chuqurlashib bormoqda. O'zbekistondagi bag'rikenglik siyosati tufayli hozirgi kunda yurtimizda yagona oila bo'lib yashayotgan millat va elat vakillariga o'z ona tili, urf-odat va qadriyatlarini rivojlantirishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari o'zbek tili bilan birga qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman tillarida faoliyat olib borilayotgani xalqaro jamoatchilik tomonidan ijobiy xodisa sifatida e'tirof etilmoqda.[4,35] Mamlakatda oliy va o'rta ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilayotgani milliy tillarga davlatning qay darajada e'tibop berayotganidan dalolatdir. Shuningdek, 8 tilda – o'zbek, qozoq, tojik, rus, ingliz, koreys, turkman, qoraqalpoq tillarida gazeta va jurnallar chop etilishi, 12 ta tilda – o'zbek, qozoq, qirg'iz, tojik, ozarbayjon, rus, turkman, tatar, uyg'ur, koreys, boshqird va boshqa tillarda teleradio eshittirishlar efirga chiqmoqda. Bundan ko'rinadiki, Yangi O'zbekistonning millatlararo siyosati insoniylikka va demokratiyaga qarshi bo'lgan siyosatning har qanday ko'rinishlarini to'liq va mutlaq rad etishga asoslangan. [5,203] Millatlararo totuvlik va milliy munosabatlarni shakllantirish va barpo etishda fuqarolik jamiyati institutlari turli millat va elat vakillarining hayotini muhofaza qilish, uning maqsadlari, manfaatlarini va burchlarini ijtimoiy institutlar, jamoat tashkilotlari va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir.

Fuqarolik jamiyatining mazkur institutlari qaysi etnik guruhga mansubligidan qat'i nazar fuqarolar hokimiyatning manbai ekanligini his qilishga, jamiyatda insonning obpo'yi yuksak qadriyat sifatida tan olinishini ta'minlashga xizmat qiladi. "Bizning maqsadimiz – xalq hokimiyatini so'zda emas, amalda ta'minlashdan iborat, - deb ta'kidlaydi yurtboshimiz, – ...biz o'z faoliyatimizni "Buyuk kelajak bugundan boshlanadi" degan shior asosida tashkil etishimiz, xalqimizning fapovon hayotini ta'minlash uchun bop kuch va salohiyatimizni ishga solishimiz zarur". [6, 23-25]Yuqorida aytilgan vazifalarni amalga oshirish uchun polietnik davlatning etnik tapkibini tashkil etuvchi millat va elatlarning manfaatlarini ta'minlashda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida ijtimoiy sherikchilik va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, mazkur jamiyatlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun qulay sharoitlar yaratish davlatning asosiy vazifasidir.

Nodavlat notijorat tashkilotlari hisoblangan fuqarolik jamiyati institutlari hozirgi taraqqiyot bosqichida millatlararo munosabatlarni ta'minlashda demokratik qadriyatlar, inson huquq va manfaatlarini himoya qilishning muhim omiliga aylanmoqda, fuqarolarning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoit yaratmoqda va jamiyat manfaatlarining muvozanatini ta'minlashga qo'maklashmoqda.

Xulosa sifatida shuni aytish lozimki, fuqarolik jamiyati institutlarining millatlararo munosabatlar va milliy aloqalarni takomillashtirish, ahil qo'shnichilik, bag'rikenglik va tolerantlik boracida ijtimoiy hamkorlikni yo'lga qo'yishga doir ishlar bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilgan millatlararo totuvlik, diniy bag'pikenglik siyosatining samarali mexanizm vazifasini o'tamoqda. Millatlararo totuvlikni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqasida fuqarolarning huquq va e'qinligini asrash, chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkoplilikni yo'lga qo'yishda fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni ahamiyatli bugungi kun nuqtai-nazaridan beqiyosdir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. Toshkent: O'zbekiston, 2023. -B.137.
2. Бобоев Х., Хасанов С. Авесто — маънавиятимиз сарчашмаси. Тошкент: Адолат, 2001. —Б. 102-103.
3. Иммануил Кант. Критика чистого разума. —Москва: Эксмо, 2007, —С. 421-424.
4. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. —Тошкент: O'zbekiston, 2021. — Б. 35.
5. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон // Республика илмий-амалий анжуман тўплами. —Тошкент: Университет. 2018. — Б 203.
6. Мирзиёев Ш.М. Конституция — эркин ва фаровон ҳаётимиз, мамлакатимизни янада тараққий эттиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. —Тошкент: Ўзбекистон, 2018. —Б. 23-25.

S.D. Boltabayev

Tarix fanlar nomzodi

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

IJTIMOIIY DAVLAT KONSEPSIYASIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya: Maqolada davlat va din o'rtasidagi munosabatlar, dunyoviylik tamoyili va uning jamiyatdagi roli tahlil qilinadi. Davlatning demokratik, liberal va dunyoviy bo'lishi diniy e'tiqodlar bilan zid emasligi, shuningdek, insonning diniy va fuqarolik huquqlari o'rtasidagi muvozanat masalalari yoritiladi. O'zbekiston misolida dunyoviy davlat konsepsiyasi, islom dini va milliy qadriyatlarining jamiyat hayotidagi o'rni, shuningdek, diniy bag'rikenglik va konfessiyalararo munosabatlarning mustahkamlanishi tahlil qilinadi. Maqolada dunyoviylikning tarixiy, huquqiy va ijtimoiy funksiyalari, shuningdek, XXI asr sivilizatsiyalashgan jamiyatida uning ahamiyati o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Dunyoviylik, davlat va din, diniy e'tiqod, inson huquqlari, bag'rikenglik, fuqarolik, sivilizatsiya, O'zbekiston, konfessiyalararo munosabatlar, madaniyat.

Davlat — bu jamiyat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy siyosiy tashkilot bo'lib, uning bosh maqsadi inson, uning hayoti, sha'ni, huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir. Davlatning eng katta boyligi insondir. Dunyoviy davlat konsepsiyasi aynan shu tamoyillarga tayanadi va u insonparvarlik, adolat hamda huquqiy tenglik qadriyatlariga chuqur e'tibor bilan yondashadi.

Dunyoviy va insonparvarlik qadriyatlari, jumladan, insonning vijdon va e'tiqod erkinligini erkin amalga oshirish huquqi dunyoviy davlatning asosiy belgisidir. Har bir demokratik jamiyat insonning dunyoqarash erkinligini hurmat qiladi, shaxsning ma'naviy hayotdagi tanlovini e'tirof etadi hamda jamiyatning ma'naviy sohasidagi rang-baranglikni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Shu nuqtai nazardan, din jamiyatning ajralmas qismi, uning alohida ma'naviy sohasi sifatida e'tirof etiladi.

Dinni davlatdan ajratish tamoyili davlatning diniy masalalarga aralashmasligini taqozo etadi. Bu esa barcha din va konfessiyalarning qonun oldida tengligi hamda ular uchun bir xil huquqiy shart-sharoitlar yaratilishini anglatadi. Davlat organlari diniy tashkilotlarning ichki ishlariga aralashmaydi,



diniy birlashmalar esa qonun doirasidan chiqmagan holda o'z faoliyatini mustaqil ravishda olib boradi. Shu bilan birga, konfessiyalararo tafovutlar yoki diniy mansublik davlat yordami yoki imtiyozi uchun asos bo'la olmaydi.

Dunyoviy davlat fuqarolik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida diniy tashkilotlar faoliyatini qonun doirasida tartibga soladi. Shu sababli diniy birlashmalar o'z faoliyatini amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshirishi shart. Diniy ekstremizm, nifoq va murosasizlik davlat va jamiyat barqarorligi uchun qanday xavfli bo'lsa, inson huquq va erkinliklarining buzilishi, qonunlarga bepisandlik (ya'ni huquqiy nigilizm) ham shunchalik tahdidlidir.

Dunyoviylik tushunchasi o'zaro hurmat, hamkorlik va totuvlikka asoslanadi. Dunyoviy davlat konsepsiyasi esa huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, davlat suvereniteti va milliy xavfsizlikning mustahkam poydevorini yaratishga xizmat qiladi. Shu tariqa, dunyoviylik nafaqat siyosiy prinsip, balki jamiyat barqarorligi va tinchligi uchun zarur ma'naviy-huquqiy asos sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat va uning siyosiy tizimining tabiati va barqarorlik darajasi qadriyat kuchini idrok etish va o'rganishga asoslanadi. Agar jamiyat ularni rad esa, jamiyatning siyosiy tizimi beqarorlashadi. Shunday ekan, siyosiy barqarorlikdan biri diniy bag'rikenglikdir. Plyuralizm, fuqarolik jamiyati, vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, bag'rikenglik etuk demokratiyaning asosiy atributlaridir. Demokratik jamiyatda davlat va din o'rtasidagi munosabatlar tamoyillari har kimning e'tiqod erkinligi va ularni hurmat qilish huquqiga asoslanadi. Bag'rikenglik va e'tiqod erkinligisiz nafaqat demokratik jamiyat, balki sivilizatsiyalashgan ijtimoiy tizimning shakllanishi ham mumkin emas. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Insoniyatning siyosiy tarixini tahlil qiladigan bo'lsak, bir tomondan, bu munosabatlar hokimiyat va ta'sir uchun kurash kontekstida o'rganilgan, ikkinchi tomondan esa, ular o'zaro ta'sirchanlik va hamkorlik asosida shakllanganligini ko'ramiz. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, turli davrlarda davlat vakolatlarini ta'minlash maqsadida ittifoqlar va kelishuvlar mavjud bo'lgan.

Umuman olganda, din va davlat o'rtasidagi munosabatlar, avvalo, inson huquqlari, jumladan vijdon va e'tiqod erkinligini hurmat qilish va himoya qilish bilan bog'liq o'zaro hamkorlikdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan, jamiyat oldida turgan asosiy vazifa – diniy e'tiqod va inson huquqlarini ta'minlash, shuningdek, davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash orqali bu himoyaga hissa qo'shishdir.

Din odatda til, dunyoqarash, qadriyatlar, xulq-atvor, kiyim-kechak, ovqatlanish va san'at sohalarida o'ziga xos o'zgarishlar yaratadi. Insoniyat tarixini o'rganishda madaniyatning shakllanishida diniy omilning sezilarli iz qoldirganini ko'rish mumkin. Masalan, turli geografik va etnik kelib chiqishga ega xalqlarning madaniy farqlari ko'pincha ularning dinlari bilan bevosita bog'liqdir, bu esa tarixiy va antropologik tadqiqotlarda ko'plab dalillar bilan tasdiqlangan.

Madaniyatning shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri tarixiy jarayondir. Turli tarixiy jarayonlar madaniyatning asl qiyofasining shakllanishiga ta'sir ko'rsatdi. Madaniyatlarning o'zaro ta'siri orqali bir xalq boshqa xalq madaniyatini to'liq yoki qisman idrok etishi mumkin. Atoqli pedagoglar - Volter, Gerder, Didro, Monteske, J. Russo o'z asarlarida insoniyatning madaniy-tarixiy birligi, madaniyatning ijtimoiy-tarixiy jarayondagi o'rni g'oyalarini keng muhokama qildi. Tarixiy shakllangan madaniy xilma-xillik insoniyatning umumiy merosi ekanligini yodda tutish kerak. Ko'rinib turibdiki, har bir madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari boshqa madaniy muhitni to'ldiradi, yangilaydi va boyitadi. Biroq, madaniy xilma-xillikka



bag'rikenglik orqali geografik muhit, iqtisodiy tur, diniy pozitsiya va tarixiy jarayonlarga asoslangan bag'rikenglik tinch va barqaror rivojlanishning sivilizatsiyalangan yo'li bo'lib qoladi.

Mamlakat aholisining katta qismi musulmonlardan iborat bo'lib, Islom dini o'z mohiyatiga ko'ra xalqimizning an'ana va urf-odatlar bilan uyg'unlashgan va dunyoviy jamiyat imkoniyatlaridan samarali foydalanishga chaqiradi. Islom dini insonparvarlik madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, axloqiy qadriyatlar va diniy bag'rikenglik bilan ajralib turadi. Shu bois, an'anaviy din qadriyatlari mamlakatdagi turli etnik guruhlarining ahil-inoq yashashini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dunyoviy davlatdagi diniy pozitsiya millat madaniyati va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Diniy tamoyil ijtimoiy hodisa sifatida kishilarning ongi va xulq-atvoriga ta'sir etadi; dunyoviy jamiyatda esa u dunyoqarash, madaniy-ijodiy faoliyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonlariga chaqiruvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida dunyoviy davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri konfessiyalararo munosabatlarni mustahkamlashdir. Shu maqsadda, din va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, diniy qadriyatlarning jamiyat hayoti va inson ongidagi o'rini o'rganish dolzarbdir. Dunyoviy jamiyatda jahon va an'anaviy dinlar qadriyatlarini ilmiy asosda tan olish zarur. Bugungi kunda inson va jamiyat hayotining axborot-intellektual muhitida diniy e'tiqod va ongning roli ortib bormoqda. Din insoniyat bilan bog'liq ijtimoiy hodisa bo'lgani sababli, u insoniyat madaniyati tushunchasi bilan bevosita bog'liqdir va inson hayotining mazmuniga, qadriyatlariga ta'sir qiladi.

Davlatdagi siyosiy hokimiyat dinni o'z nazoratiga olmaslik, konstitutsiyani dinga qaratmaslik, muayyan dinni qo'llab-quvvatlamaslik, barqarorlik va teng huquqlilikni ta'minlash, shuningdek, din va davlat ishlarini bir-biridan ajratish kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi. Biroq, bunday tamoyillarni to'liq amalga oshiradigan G'arb davlatlari mavjud emas; ayrim mamlakatlarda siyosiy partiyalar diniy e'tiqod asosida hokimiyatga keladi yoki ma'lum bir dini rasmiy din sifatida tan oladi.

Shu bilan birga, o'zbek tilida dunyoviylik tushunchasi arab tilidagi "zahiri" (ya'ni ochiq, tashqi) ma'nosida qo'llaniladi. Dinning tashqi ma'nosi shariat tamoyillarini o'z ichiga oladi, "botini" esa teskari ma'noda – sir yoki ichki ma'noni anglatadi, botiniy pozitsiya esa shuni bilishga asoslangan diniy qarashni bildiradi.

O'zbeklar an'anaviy davlat sifatida o'ziga xos huquqiy maqomga va alohida davlat qurish madaniyatiga ega. Shu bois, agar ular dunyoviylik qonunini tarixiy va madaniy qadriyatlariga mos ravishda takomillashtirmoqchi bo'lsa, ichki huquqbuzarlikning oldini olishga xizmat qiladigan bu jarayon hech kim tomonidan bahs ostiga olinmasligi kerak. Chunki dunyoviylik huquqiy tamoyil bo'lib, har bir davlatning o'z odatlari va madaniy konteksti mavjud.

Biroq dunyoviylikning ichki va tashqi funksiyalarini jamiyatga ilmiy asosda tushuntirish va targ'ib qilish doimiy, uzluksiz jarayon bo'lishi lozim. Shuningdek, yangi qonunda "dunyoviy mamlakat" iborasining ichki mazmuni va prinsipial vazifalari ham aniq belgilanishi kerak. Bu talqinlar madaniy, tarixiy ongimiz, diniy va sivilizatsiya tajribamizni hisobga olgan holda amalga oshirilishi muhimdir.

Din fenomeni nafaqat diniy, balki muqaddas va axloqiy tushuncha sifatida ham namoyon bo'ladi. Shuningdek, u aksiologik, e'tiqod va sig'inish institutlarini o'z ichiga oladi, inson ruhi va vijdoniga qarshi tortilgan ilohiy qonundir. Din nafaqat shaxsni, balki butun jamiyat va madaniyatni shakllantiruvchi kuch hisoblanadi. Shuning uchun dinning ijtimoiy ahamiyati katta.

Har bir jamiyat oilalardan va alohida shaxslar oilasidan iborat bo'lib, ularning har birining shaxsiy vijdoni, dunyoqarashi, davlat va Yaratgan oldidagi mas'uliyati mavjud. Shu bilan birga, din jamiyat tartibi va tuzumga, shaxsga va birga yashashga umumiy yondashuvni taklif qiladi. Dindor uchun esa din amrlariga bo'ysunish, taqiqlardan saqlanish, namoz va duolarni ado etish vijdoniy



mas'uliyat hisoblanadi. Aks holda bu diniy gunoh sifatida qabul qilinadi va ruhiy iztirobga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, inson o'z jamiyatida nafaqat dindor, balki fuqaro hamdir. Davlat qonunlariga rioya qilish, konstitutsiyani hurmat qilish uning fuqarolik burchidir. Shu nuqtai nazardan, bugungi dindor ikki vazifa o'rtasida turadi: biri diniy burch, ikkinchisi jamiyat oldidagi madaniy burch. Fuqarolik jamiyatining muvaffaqiyati va shaxsning vijdonida tinchlik o'rnatilishi dunyoviylik tamoyilini tanlash orqali amalga oshiriladi. Dunyoviylik funksiyasi bu jarayonda yordamchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Agar fuqaro qonunga rioya qilmasa yoki diniy talablarni bajarish orqali qonunni buzmasa, bu Xudo oldida gunoh hisoblanmaydi. Islomda ham majburlash gunoh hisoblanmaydi. Shu bois, diniy erkinlikni diniy va siyosiy aqidaparastlikdan himoya qilishning eng samarali yo'li dunyoviylik va uning ko'p qirrali vazifalarida namoyon bo'ladi. Sekulyarizm dunyoda o'lchov va muvozanat tizimi bo'lib, davlat dunyoviylikning barcha diniy e'tiqodlarga bir xil qarash tamoyilini biror diniy guruhga topshirmasligi kerak.

Umuman olganda, dinga nisbatan davlat qatlamlari bir organ sifatida ishlashi shart. Uni tartibga solish uchun umumiy mafkuraviy o'zgarishlar markazi zarur. Bunday tizimsiz davlat taraqqiyoti va barqarorligini ta'minlash qiyin bo'ladi. Jamiyat va davlat bu borada faol ish olib boradi va o'zaro kelishuv asosida yechimni shakllantiradi. Bu qonuniy talab bo'lib, shuningdek, islom dinining mohiyati va matnidan kelib chiqadi.

Din faqat dunyo tizimi emas, balki inson ongida umumiy, dunyo bilan oxirat o'rtasidagi ko'prik, yagona huquqiy-axloqiy tizimdir. Din davlat, inson va jamiyatning markazida turadi, shuning uchun u hayotga ko'z yumolmaydi. Shu bois, dunyoviylikning din va davlat funksiyalaridagi o'rnini aniqlash, uning chegaralari va huquqlarini belgilash zarur.

Din va davlat markazida shaxs turadi. Inson o'ziga, jamiyatga, davlatga va dinga nisbatan bag'rikenglikda, bo'linishlarsiz va psixologik tazyiqlarsiz yashashi uchun dunyoviylikning vazifalari aniq belgilanishi kerak. Bu borada chuqur ilmiy-falsafiy tahlil va ta'riflarga ehtiyoj mavjud.

Sho'rolar davrida dunyoviylik amaliyoti nafaqat davlat institutlariga, balki jamiyatning turli sohalariga ham tatbiq etilgan:

- davlat boshqaruvi va davlat xizmatida dunyoviylik;
- huquqni muhofaza qilish va harbiy xizmat tizimida dunyoviylik;
- ta'lim va tarbiya tizimida dunyoviylik;
- sog'liqni saqlashda dunyoviylik;
- madaniyat va san'at rivojida dunyoviylik;
- ijtimoiy munosabatlar tizimida dunyoviylik;
- iqtisodiy munosabatlar tizimida dunyoviylik;
- media tizimidagi dunyoviylik.

Garchi bu kechagi mafkuraviy bilim bo'lsa-da, bugun dunyoviylikni murakkab mafkuraviy soha sifatida, huquqiy tamoyildan yuqoriroq baholashga urinishlar mavjud.

Din va davlat bo'linishiga emas, balki ularning birdamligiga e'tibor qaratish lozim. Chunki davlat mavjudsiz abadiy bo'lolmaydi. Kechagi "etmish yillik sovet ateistik mafkurasi" buni tasdiqlaydi.

Islom o'zbek xalqining tabiati va madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Dunyoviylik orqali islom qatlamlariga keng eshik ochish kerak, uni cheklash emas. Shu maqsadda doimiy strategik, ilmiy va huquqiy platformalarni ishlab chiqish va sharhlash kechiktirilmasligi lozim. Suverenitet esa bizning eng muhim qadriyatimizdir.



Dunyoviylik tamoyili huquqiy masala bo'lsada, uning borliq jihati ham bor. Chunki xalqsiz davlat ham, din ham quruq tushuncha emas. Inson haqiqatning o'lchovi, maqsadi, ideali, tamoyilidir. Shuning uchun bu masalalarni o'rganish, tadqiqot qilish, hech bo'lmaganda tushuntirishlar kerak. Asosan, dunyoviylik tamoyili davlatning mohiyatini belgilaydi. Dunyoviy davlat barcha e'tiqod va mafkuralarga betarafdir. Dunyoviylik davlat va dinning bir-biridan ajralishi, davlatning asosiy ijtimoiy, siyosiy va huquqiy tizimining diniy tamoyillarga asoslanmaganligini anglatadi. Bu ta'riflarga nazar tashlasak, dunyoviylik davlat tabiati bilan bog'liq bo'lgan tamoyil, tushuncha ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Dunyoviylik tamoyili davlatni fuqarolarning e'tiqodiga aralashishdan, ularni bo'lmasdan tartibga solish, hech qanday diniy e'tiqodning boshqa dinga zulm qilish, hukmronlik qilish yoki zulm qilishiga yo'l qo'ymaslik vazifasini bajaradi. Davlat tomonidan diniy bosimning oldini olish uning demokratik va dunyoviy tamoyillarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Buni qonunimizda "vijdon erkinligi", "din erkinligi" deb tushunamiz. Hozirgi jamiyatda ba'zi shaxslar "menga o'xshab ishonish kerak, bu shirk, bu bid'at, natijada siz kofirsiz" kabi qarashlarni ilgari suradi. Bunday holatni tartibga soluvchi tamoyil sifatida dunyoviylik va uni kafolatlovchi davlat instituti muhim rol o'ynaydi. Davlatning demokratik, liberal va dunyoviy bo'lishi hech qanday diniy e'tiqodga yoki tamoyillarga zid emas. Shu bois, insonning demokrat, dunyoviy yoki dindor bo'lishi o'zaro qarama-qarshilikni tug'dirmaydi.

Demak, "men dunyoviy emasman" degan fuqarolarimizning fikri, musulmonlar demokrat va dunyoviy bo'la olmaydi yoki shariat qonunlariga asoslangan davlatni xohlashadi, degan xulosaga olib kelmaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, dunyoviylik e'tiqod, din va mafkuraga bog'liq bo'lmagan, huquqiy tamoyildir. Shu sababli O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida shakllangan bo'lib, uning asoschisi o'zbek madaniyati va tarixiy qadriyatlaridir; bu jamiyatda islom esa asosiy belgilovchi din sifatida e'tirof etiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda diniy vaziyatning yanada yaxshilanishi, dunyoviy jamiyatni orzu qilgan yurtdoshlarimizning tinchlik va do'stlikni targ'ib qilishi, ajdodlarimiz an'analarni davom ettirishi va kelajak avlodlarga yetkazishi uchun muhimdir. Mamlakatimizning diniy pozitsiyasi jamiyatda dunyoviylik va aql-zakovat, odob-axloq va farovonlik, milliy an'alar va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, bu millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarga hurmat madaniyati, dunyoqarash va bag'rikenglik, odob-axloq qoidalarini shakllantirishga yordam beradi.

XXI asrning jahon tuzumi va qiyofasi aniq bo'lgan hozirgi davrda, demokratiyani ulug'laydigan dunyoviy davlatning diniy pozitsiyasi chindan ham sivilizatsiyalashgan jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga, insoniy qadriyatlarga va mamlakatimiz xavfsizligiga xizmat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Abdullayev A. FUQAROLIK JAMIYATIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK UYG'UNLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 113-117.
2. Gulbaxar S., Dilnoza E. DEMOKRATIK FUQAROLIK JAMIYATDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING O'RNII VA AHAMIYATI //International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 209-213.
3. Макаров А. И. Философия сознания и теория фетишизма: проблема образа и памяти //Мир психологии. – 2007. – №. 2. – С. 114-121.
4. Yusupova K. DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 126-130.



5. Abdullayev A. FUQAROLIK JAMIYATIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK UYG 'UNLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 113-117.
6. Mehmonaliyevich U. I. et al. INSON O 'ZLIGI, QADRI, XUQUQI VA ERKINLIGI-MANFAATLARINING QONUNIY ASOSLARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 20. – №. 8. – С. 95-100.

Иқболжон Орзиев

фласафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

НамДУ

АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУВОЗАНАТИ: СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИ

Аннотация: ушбу мақолада давлатнинг динга оид сиёсати, секуляризм жаҳон тажрибасига таяниши, ундан келиб чиқиши, шу билан бирга халқимизнинг тарихи, миллий анъаналари ва психологиясидан келиб чиқиб юритилиши тадқиқ этилди.

Калит сўзлар: секуляризм, ислом, эътиқод, ижтимоий тараққиёт, атеизм, догматик, диалектик, даҳрийлик мафкураси, секуляр сиёсат.

Дин ва сиёсат, динийлик ва дунёвийлик, илмий талаффузда “сакрализм” ва “секуляризм” ижтимоий-тарихий табиатга эга, яъни диний дунёқараш ва дунёвий дунёқараш шаклланишининг илк даврлари билан боғлиқ антропологик характерга эга. Инсоният умумий тараққиёти ўрта аср охирларига келиб секуляризмни, яъни динийлик ва дунёвийликни биридан ажратиш, автономлаштириш ҳодисасини юзага келтирган бўлса-да, улар нисбати, ўзаро таъсири айниқса XX асрга келиб рационал мувозанатга эришди, уни сақлаб қолиш орқали барқарор ривожланишни таъминлаш барча даврларнинг ички ижтимоий сиёсати даражасига етди, умуминсоний қадриятга айланди. XXI асрга келиб эса, диннинг тобора сиёсийлашув томон юз тутиши “десекуляризация” ва “ресекуляризация” ҳодисасини ҳам келтириб чиқарди.

Тарихан секуляризм омили даставвал Шарқда эмас, Ғарб цивилизациясида қарор топди. У асосан позитивизм (О.Конт, Г.Спенсер), либерализм (Б.Рассел, Ф.Ницше, Э.Фромм), экзистенциализм (Ж.П.Сартр, Т.Лукман), марксизм (К.Маркс, Ф.Энгельс, В.Ленин) ва бошқа таълимотлар доирасида шаклланди. Бундай ёндашувлар асосий ғояси – дин тарихан “қарийди” ва инсон руҳи ривожланишининг интиҳоси бўлади – у “ўлади”. Бу ёндашув таркибида ашаддий даҳрийлик (атеизм), десакрализация ҳодисаси ҳам ажралиб чиқади. “Секуляризация ва Сакрализация (лотинча. saecularis-дунёвий. sacer-муқаддас) – диний-фалсафий тушунчалар. Ушбу тушунчалар орқали диний ва дунёвий қарашларнинг ўзаро муносабати ифодаланади. Секуляризация жараёнида диний қарашлардан дунёвийлик устун қўйилса, сакрализацияда диннинг мавқеи кучайиши эътироф этилади.”[1. – В. 240]

Бундай ёндашувга муқобил, ҳатто айрим жиҳатлари билан муҳолиф ёндашувга биноан секуляризм диннинг “ўлиши” га эмас, аста-секин унинг функцияларини давр, замон тақозоси билан ўзгаришига, ижтимоий соҳадан шахснинг индивидуал оламига, “персоналлашуви” га олиб келади. Индивидуализм фалсафасига биноан бундай ёндашув шахс, индивид ижод



эркинлигига олиб боради. Бундай мотив Ғарб фанида, айниқса таниқли немис социологи ва политологи Макс Вебер назариясида яққолроқ кўзга ташланади. М. Вебер протестант меҳнат этикасини капитализмнинг “руҳи” деб баҳолайди. Бундай мотив қиёсий қаралганда Баҳовуддин Нақшбандийнинг “Дил баёр-у, даст ба-кор” деган алгоритмига ҳамоҳанг ҳисобланади. Бу мотив орқали Ғарб олимлари Ғарб цивилизациясининг яратувчанлик, ижодкорлик хусусияти туғма фазилат деб таъкидламоқчи бўлишади. Бу фикрларда маълум даражада жон бор, албатта. Ғарб цивилизацияси секуляризм принципи орқали Ғарб Уйғониш даври (христиан Ренессанси)ни бошлаб берди, черковдан давлатнинг ажралиб чиқиши жамиятга илм-фан, техника, дунёвий соҳадаги улкан кашфиётларга сабаб бўлди. Бугунги кунда секуляризм принципини умуминсоний қадрият даражаси томон ривожланиши сабаби ҳам шунда – секуляризм аслида даҳрийлик бўлмай, дунёвий тафаккур ривожини учун принцип ва парадигмадир.

Дунёнинг нуфузли илмий тадқиқот марказларида ахборотлашган жамияти феноменини тадқиқ этиш, унинг амалий ва илмий-концептуал аҳамиятига доир изланишлар олиб борилмоқда. Ахборотлашган жамиятда инсон ҳокимиятнинг манбаи эканлиги, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, виждон эркинлигини ижимоий-ҳуқуқий жиҳатдан таъминлашга қаратилган механизмларни ишлаб чиқиш (Center for Studies on New Religions-Italy), динга оид давлат сиёсатининг самарадорлигини ошириш орқали жамиятда ижтимоий барқарорликни мустаҳкамлашга (Cambridge Research Centre) доир илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда. Ахборотлашган жамиятда фан ва дин уйғунлигини таъминлашнинг ижтимоий аҳамияти (Pew Research Center-Malaysia), замонавий мамлакатлар тимсолида фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий давлатнинг ривожланиш даражасини аниқловчи индексларни ишлаб чиқиш ҳамда маданият ва давлат сиёсатида ўзгарувчан маданий, диний ва сиёсий манзарасини ўрганиш (The Public Religion Research Institute PRRI-USA), динийликнинг ёшлар ўртасидаги ролига (University of North Carolina - USA) оид тадқиқотлар амалга оширилмоқда.

Дин бугунги кунда ижтимоий ва шахсий ҳаётда авангардликка, етакчиликка даъво қилаётганлиги ҳам кузатилмоқда. Мамлакатимизда аҳолининг ярмидан кўпроғини ташкил қилувчи ёшларнинг диний қоида ва қадриятларга эътиқод эркинлиги шароитида талпиниши сир эмас. Дин ёшариб бораётганлиги – бор ҳодиса, ундан кўз юмиш мумкин эмас. Ғарб илмий адабиётида секуляризмни демократияга қарши қўйишга уринувчи қарашлар ҳам мавжуд[6. – В. 200]. Бундай қарашлар ҳам етарли асосларга даъво қилади. Бироқ шуни таъкидлаш лозимки, секуляризмни демократияга қарши қўйиш мумкин эмас. Конституциявий ҳуқуқ нуқтаи назаридан секуляризм позитив ҳуқуқий ҳодисадир – у эркинликни, ҳуқуқни кафолатлайди. Юқорида таъкидланганидек, секуляризм атеизм ҳам эмас, у динийлик ва дунёвийликнинг тенг ҳуқуқлигини, легитимлигини кафолатлайди. Жаҳон конституцияшунослигида бу қоида мустаҳкамланган бўлиб, аксарият демократик тараққиёт йўлидан боровчи давлатлар бу қоидани эътироф этишади, у умуминсоний ҳуқуқий қадрият мақомига эга.

Бу ерда таъкидлаш лозимки, демократия принципи умуман динга зид эмас. Айниқса ислом дини демократизм принципига асосланади – “умма” (жамоа) фикри ва иродаси устуворлиги эътироф этилади. Шу боис айрим Ғарб олимларининг ислом динини демократияга зид деб баҳолаши ғирт бемаъниликдир. Ислом динининг муқаддас китоби – Қуръонда демократияга ҳамоҳанг қатор оят ва суралар мавжуд. Академик Э.Юсупов: “Ислом дини инсонларни асрлар давомида аҳилликка, ҳамкорлик ва ҳамжиҳатликка чорлаган, зўрлик ва зўравонликни, адолатсизликни қоралаган, ҳар бир шахсни ҳалоллик, иймонийлик, инсофлилик, инсонпарварлик, меҳнатсеварлик руҳида тарбиялашга катта таъсир кўрсатган”[2. –В.10] - деган фикрида ислом таълимотининг бош мезони жамиятда масъулият ҳисси эканлиги



таъкидланган. “Дарҳақиқат, ислом дини пайдо бўлган дастлабки йилларда ва ундан кейин ҳам ижтимоий ҳолатда, давлатни бошқаришда, халқлар ўртасидаги барча муносабатларда оила, турмуш тарзини ахлоқий шакллантиришда, ислом асосий мафкура ролини ўйнаган. Ислом дини ҳукмрон мафкура бўлган мамлакатларда ҳозир ҳам у шундай вазифани ўтамоқда.”[3. – В.34]

Динийлик ва дунёвийликнинг нисбати инсоният тарихида доимо кун тартибида бўлиб келди. Инсоният тарихида диний кадриятларнинг заифлашуви салбий оқибатларга олиб келиши мумкинлигини Рим империяси мисолида кузатиш мумкин. Маънавий бузуқчилик, фахш ва зино ишлар кўпайиши қудратли Рим империясининг эрамининг бошларида таназзулга юз тутишини тезлаштирди. Жамиятни бошқариш (governance) ҳокимиятни ҳукукушуносликни ривожлантиришга ундади – Рим фуқаролик ҳуқуқига асос солинди, ҳуқуқий норма ва меъёрлар воситасида жамият барқарорлигини сақлаб қолишга ҳаракат қилинди.

Секуляризм принципи жамиятда потенциал шаклда барқарорлик ва бекарорлик муҳитини шакллантиришга қодир. Айниқса даҳрийлик сиёсий тизимидан янги, демократик тизимга ўтган, азалий диний кадриятлардан узоқлашган, диний саводхонлиги заиф жамиятда потенциал ижтимоий хавфлар борки, улар ўз вақтида чуқур сиёсий таҳлил қилинмаса, секуляризм билан боғлиқ турли нохушликларни келтириб чиқариши мумкин. Бу борада давлатнинг динга оид сиёсатида ҳам нуқсонлар сероб – асосан дин тўғрисида саёз билимга эга, саводи заиф имомларга таянилади, ислом динининг буюк ижодкорлик, бағрикенглик салоҳиятидан тўла фойдаланилмайди. Демократик жамият учун хос бўлган ҳуқ-атворни ҳам тўғри йўлга сола олмайдилар, ислом ақидаларини ўзларича талқин қиладилар ва “фатво”лар яратадилар. Бу – дунёвий тараққиёт учун, демократик ривожланиш учун хавфлидир. Ҳашаматли масжидлар, турли зиёратгоҳларга сарфланаётган маблағлар фуқароларнинг диний саводхонлигини оширишга сарфланиши ёшларни динга мутаассибчилик, экстремизм, фанатизм ва ҳ.к. ёт унсурлар таъсирига тушиб қолишдан асрайди. Диний маърифат – диний хурфотга зиддир. Буни кўҳна тарих, динлар тарихи кўп марта исботлаган.

Бунинг тасдиғи – буюк Шарқ табиатшунос олимлари Беруний, Ибн Сино, ал-Фарғоний, Муҳаммад Хоразмий, Мирзо Улуғбек ва бшқалар Аллоҳни инкор этмаганлар, динийлик ва дунёвийлик ўзаро мувозанатини, яъни секуляризм принципини эътироф этганлар. “Расулуллоҳ (алайҳис-салом)дан кейин чаҳорёрлар ҳам шу йўлни тутдилар. Хазрати Умар (розияллоҳу анху) “Сизларнинг яхшингиз у дунё ва бу дунё учун ҳаракат қилганингиздир”, деб алоҳида таъкидлаганлар. У зот масжиддан чиқмай, эртаю-кеч ибодатга машғул бўлган ёш йигитларни таёқ билан ҳайдаб, дунёвий иш билан шуғулланишга чақирганлари ривоятларда машҳурдир”[4. –В.27] .

“Шарқ мутафаккирларининг ижтимоий-фалсафий қарашларида диний бағрикенглик ғоялари ниҳоятда улуғланган. Буюк мутафаккир Ғазоллийнинг фикрига кўра, оқил кишилар учун ер умумий хонадондир, фақат жохилларгина у сеники деса, бу меники деб талашадилар. Жаллолиддин Румий динларга олиб борувчи йўллар турфа, мақсадлар эса муштаракдир, дея ўз мелиористик қарашларини ривожлантирди”[5. –В.12].

Секуляризм – давлат сиёсати билан боғлиқ. Гарчи Конституцияда, “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонунда “секуляризм” атамаси ишлатилмаган бўлса-да, мазмунан ва моҳиятан ушбу дастурий-ҳуқуқий ва сиёсий ҳужжатлар секуляризм руҳи билан йўғрилган.

Секуляризмнинг турли кўринишлари ва моделлари мавжуд. Масалан, секуляризм модели (лаицизм), Ғарбий Европа секуляризми, Жануби-Шарқий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқ,



Шимолий Африка секуляризм моделлари ҳақида гапириш мумкин. Ушбу моделларда ижтимоий ҳаётда ва давлат бошқарувида динийлик ва дунёвийлик нисбати, демократик институтлар ва диний ташкилотлар нисбати турлича. Бунинг сабаби – ижтимоий-тарихий тараққиёт диннинг замон талабларига мос модернизацияси ва ижтимоий адаптациясини тақозо этади. Айниқса либерализм ғояларининг ривожланиши, либерал демократия кадриятларининг умуминсоний кадриятлар доирасига кўтарилиши бу жараёни тезлаштиради, ҳатто давлат ва дин ўртасида зиддиятли ҳолатларни шакллантиради. Буни кейинги параграфда Ҳиндистон, Туркия, Миср араб республикаси мисолида таҳлил қилишга ҳаракат қиламиз.

Жамиятдаги мавжуд тизим ва давлат бошқаруви модернизацияси жараёнлари модернизациялашувни талаб қилади. Масалан, Ўзбекистоннинг биринчи Президенти И.Каримов “янги ҳаётни эскича қарашлар билан қуриб бўлмайди” деган пурмаъно фикрни миллий мустақилликнинг дастлабки йилларидаёқ олға сурганди. Ғарб сиёсий моделини, техника ва технологиясини жамият ҳаётини модернизациялаштириш учун қабул қилиш етарли эмас. Зеро, улар ортида инсон, инсон капитали, дунёқараш, ижтимоий психология туради. Айнан инсон омили, “ижтимоий капитал” яратувчи кучдир, бу – исбот талаб этилмайдиган илмий аксиомадир. Виждон эркинлиги ва секуляризм ижтимоий-тарихий тараққиёт маҳсулидир. Улар ижтимоий кадриятлар даражасига етиб, бугунги секуляризмнинг тамал тошини ташкил қилади. Бу эса қатор таниқли политолог ва дин фалсафаси вакиллари томонидан эътироф этилмоқда.

Маълумки, тарихан секуляризм ғоясининг Ғарбда туғилишига сабаб – черковнинг ижтимоий тараққиёт талаблари таъсирида таназзул томон юз тутиши бўлди. Иккинчи томондан, Ғарб мамлакатлари анъанавий жамиятдан саноатлашган капиталистик жамиятга ўта бошлаган даврга тўғри келади. Шу боис кўзга кўринган АҚШ олими П.Бергернинг “Европада черковнинг таназзули сабаби – капитализм, қолаверса секуляризация эмас, балки плюрализмнинг пайдо бўлиши, черковнинг жамият маънавий ҳаёти устидан монополиясига барҳам берилиши ҳисобланади”[7.], деган мулоҳазаси ўринлидир. Ушбу олим фикрига кўра секуляризм плюрализмга нисбатан инсон онги корреляти бўлиб, у динни субъективлаштиради, яъни уни ижтимоий даражадан шахс, индивид онги даражасига туширади. Бироқ бу нарсa, яъни субъектив секуляризация ҳалокатли бўлиб, у идентлик таназзулига олиб келади. П.Бергернинг ушбу мулоҳазалари билан кўпчилик келишмайди. Масалан, Германия Гейделберг университетининг профессори, теолог ва файласуф Михаил Велькер ўзининг “Христианлик ва плюрализм” деб номланган асарида дин ва плюрализмнинг ўзаро келишувига эришишга уринади, “дивергенция”, яъни кўпвариантлик муносабатини тақлиф этади[8. – С. 141-146.].

Секуляризм гарчи умуминсоний, глобал микёсда қарор топаётган принцип ва кадрият бўлишига қарамай, у турли ижтимоий-маданий маконларда демократия, инсон ҳуқуқ ва эркинликлари каби турлича шаклда қарор топмоқда. Бу – табиий ҳол. Зеро, демократия каби секуляризмнинг ҳам универсал, барча учун бирдай амал қиладиган модели, андозаси мавжуд эмас.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Фалсафа: энциклопедик луғат/ЎзР ФА. И.Мўминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ ин-ти. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – 240. (344)
2. Юсупов Э. Исломий кадриятлар ва диний экстремизм. –Т.:Тўқимачилик институти нашриёти. 1999. -Б. 10.



3. Хўжамуродов Иброҳим Рўзиевич, Якубов Юсуф Мингишевич. Ислом: жамият ва шахс. (Монография) -Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ нашриёти, 2007.- Б.34.
4. Ислом маърифати ва ҳозирги замон. Масъул муҳаррир Л. Абдуллаев. - Тошкент : Тошкент ислом университети, 2017. – Б.27. (160)
5. Мардонова Ф. Б. Ўзбек халқининг ҳозирги замон ижтимоий-маънавий ҳаётида миллатлараро толерантлик (ижтимоий-фалсафий таҳлил). Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Самарқанд, 2020. –Б. 12. (40)
6. Viet Bader. Secularism of Democracy? Associational Governance of Religions Diversity. – IMISCOE Research: Amsterdam University Press. – P. 200.
7. Berger P. Me Jesus, incorporated. Рус. Пер. – Бергер П. Церковь как предприниматель // НГ – религии, 2003, 6 августа.
8. Велькер М. Христианство и плюрализм. – М., 2001. – С. 141-146.

Muxtorov Karimbek Boymirza o'g'li

Guliston davlat pedagogika instituti

Tayanch doktoranti

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING JAMIYATGA INTEGRATSIYASI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO AMALIYOT QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishning dolzarb masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi nogironlarga qo'llab-quvvatlash tizimi va boshqa mamlakatlar tajribasi solishtirilib, nogironlarni ta'lim, mehnat va madaniyatga integratsiya qilishdagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar ko'rib chiqiladi. Maqolada davlat va jamoat tashkilotlarining nogironlarga yordam ko'rsatishda o'rni, shuningdek, texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali tizimni takomillashtirish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonning nogironlarga oid ijtimoiy va huquqiy tizimini rivojlantirish uchun ilmiy takliflar ishlab chiqishga imkon yaratadi.

Kalit so'zlar: Nogironlar, jamiyatga integratsiya, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim va mehnat imkoniyatlari, innovatsion yondashuvlar, huquqiy tizim, xalqaro tajriba.

Abstract: This article scientifically analyzes the pressing issues of integrating persons with disabilities into society. It compares the support system for people with disabilities in the Republic of Uzbekistan with the experiences of other countries, focusing on the challenges and opportunities for integrating people with disabilities into education, labor, and culture. The role of state and public organizations in providing assistance to people with disabilities, as well as the improvement of the system through technology and innovative approaches, are discussed. The findings of the research provide scientific recommendations for improving the social and legal systems for people with disabilities in Uzbekistan.

Keywords: Disabilities, social integration, social support, education and labor opportunities, innovative approaches, legal system, international experience.

Kirish. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va ijtimoiy integratsiyasi masalasi inson huquqlari sohasida dolzarb va keng muhokama qilinayotgan mavzulardan biridir. Jamiyatda nogironlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning jamiyatdagi to'liq va samarali ishtirokini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga integratsiya qilishga qaratilgan sa'y-



harakatlar global miqyosda jiddiy e'tibor talab etadi. BMT tomonidan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya" nogironlarning huquqlari himoyasini xalqaro miqyosda ta'minlashda asosiy huquqiy hujjatlardan biri bo'lib qoladi. 2009-yilda O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyani ratifikatsiya qilganidan so'ng, nogironlarga oid huquqiy va ijtimoiy islohotlar ko'plab mamlakatlardagi amaliyotlar bilan bir qatorda, O'zbekistonda ham amalga oshirilishi boshlandi. Biroq, nogironlarning jamiyatga to'liq integratsiyasi, ta'lim va mehnat bozoridagi imkoniyatlari, shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligi hali ham mukammal darajada tahlil qilinmagan. Nogironlarni qo'llab-quvvatlash tizimining yuridik, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqolada O'zbekistonning nogironlar uchun huquqiy va ijtimoiy tizimlarining samaradorligi baholanishi, shuningdek, boshqa davlatlarning tajribalari o'rganilib, O'zbekistonda amalga oshirilgan islohotlarni takomillashtirish bo'yicha innovatsion tavsiyalar ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Bu orqali, nogironlarni qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek, jamiyatga integratsiyalashuv jarayonini yanada samarali qilish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar taqdim etiladi.

Tahlil va natijalar. Nogironlar huquqlarini himoya qilish masalasi xalqaro miqyosda muhim e'tibor talab qiladigan mavzu bo'lib, 2006-yilda qabul qilingan BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi" nogironlarga oid huquqiy me'yorlarni belgilab bergan asosiy hujjatdir. Ushbu konvensiya nogironlarning huquqlarini himoya qilishning xalqaro mezonlarini yaratib, barcha davlatlarni bu huquqlarni hurmat qilish va ta'minlashga chaqirgan. Konvensiyaning ratifikatsiyasi orqali davlatlar nogironlarni jamiyatga integratsiya qilish, ularning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish bo'yicha o'z majburiyatlarini tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasi ham 2009-yilda ushbu konvensiyani ratifikatsiya qilib, o'zida nogironlarga oid huquqiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. 2021-yilda esa, O'zbekiston nogironlarga oid yangi qonunni qabul qildi, bu esa nogironlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi[1]. Biroq, O'zbekistonda nogironlar huquqlari va ularning jamiyatdagi integratsiyasini ta'minlash borasidagi qonunlarning amalda to'liq tatbiq etilishida hali ham qator muammolar mavjud. Bu qonunlarning samarali amalga oshirilishi va ularning real hayotdagi ijrosi ba'zan to'siqlarga duch kelmoqda. Maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan tizimli o'zgarishlar, jamiyatda nogironlarga nisbatan stereotiplarning bartaraf etilishi va hukumatning ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir aniq va samarali chora-tadbirlarni joriy etishi talab etiladi.

Maqolada O'zbekistonda nogironlar huquqlariga oid qonunlarning amaliyotda tatbiq etilishi, shuningdek, boshqa davlatlardagi tajribalar tahlil qilinadi. Xususan, Shvetsiya va Niderlandiya davlatlaridagi nogironlarni qo'llab-quvvatlash tizimlari o'rganiladi. Ushbu davlatlarda nogironlar uchun yaratilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi, nogironlarning ta'lim va mehnat imkoniyatlari, jamiyatga integratsiyasi masalalari qanday tashkil etilganligi ko'rib chiqiladi. Shvetsiya va Niderlandiyada o'tkazilgan so'rovnoma va intervyulardan olingan ma'lumotlar asosida, ularning tizimlari samaradorligi baholanadi va O'zbekiston tizimi bilan taqqoslanadi. Bu tahlil orqali O'zbekistonning nogironlar uchun yaratilgan huquqiy imkoniyatlari va ularning real hayotdagi ijrosi o'rganiladi. Bundan tashqari, boshqa mamlakatlarning tajribasi yordamida O'zbekistonda nogironlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ushbu tavsiyalar, O'zbekiston hukumatiga nogironlarga oid islohotlarni samarali amalga oshirishda yordam berishi va tizimni yanada yaxshilashga yo'l ochishi mumkin. Xususan, nogironlarni jamiyatga to'liq integratsiya qilish, ularning ijtimoiy, mehnat va ta'lim sohalaridagi imkoniyatlarini kengaytirish uchun innovatsion yondashuvlar joriy etilishi lozim.

Nogironlarning ta'lim olish imkoniyatlari ularning jamiyatga to'liq integratsiyasining muhim omili hisoblanadi. Ta'lim, nafaqat bilim olish, balki insonning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi



va mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun nogironlarni ta'lim bilan ta'minlash, jamiyatdagi faol ishtirokini rag'batlantirish va ularning ijtimoiy integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun muhim hisoblanadi[2; -B.45]. O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda nogironlar uchun inklyuziv ta'lim tizimini joriy etishga qaratilgan turli tashabbuslar va islohotlarni amalga oshirishda faol qatnashmoqda. Biroq, bu tizimning samaradorligi va nogironlarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklari, shuningdek, ta'lim jarayonidagi mavjud to'siqlar haqida ilmiy tahlil hali ham yetarlicha rivojlanmagan. Nogironlarning ta'lim olish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar ko'plab omillar bilan bog'liq. Birinchidan, ta'lim muassasalarida nogironlar uchun moslashgan infratuzilma va resurslarning etishmasligi, ikkinchidan, o'qituvchilarning nogironlarga moslashgan pedagogik yondashuvlar bo'yicha yetarli malakaga ega bo'lmasligi, uchinchidan esa, nogironlar uchun maxsus ta'lim dasturlarining mavjud emasligi kabi masalalar ta'lim tizimining samaradorligini pasaytiradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida nogironlar uchun mo'ljallangan metodik va didaktik materiallarning yetishmasligi, ularning ta'lim olishi uchun zarur bo'lgan texnologik vositalarning kamligi ham muhim to'siqlarni tashkil etadi. Bu muammolarni chuqur ilmiy tahlil qilish, o'quvchilarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklarini aniqlash va ularga qarshi samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Ta'lim tizimini yaxshilash, nogironlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jamiyatdagi nogironlarning integratsiyasini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin[3; -B. 134].

Nogironlarning ta'lim olishdagi muvaffaqiyatlari to'g'ridan-to'g'ri ularning mehnat bozoriga integratsiyasiga ta'sir qiladi. Ta'lim olish jarayonidagi qiyinchiliklar, shuningdek, mehnat bozorida nogironlarning imkoniyatlariga ta'sir qiladi. Nogironlarning mehnat bozoriga kirishidagi to'siqlar hamda ularning malakasini oshirish, mehnat bozorida samarali faoliyat ko'rsatishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, jamiyatda teng imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida ta'lim tizimiga e'tibor qaratish zarur.

O'zbekistonda nogironlar uchun ta'lim olishda texnologiyalarning imkoniyatlari jadal rivojlanmoqda. Sun'iy intellekt (AI), Internet of Things (IoT) va onlayn platformalar kabi innovatsion texnologiyalar nogironlarga ta'lim olish jarayonini sezilarli darajada yengillashtirishi mumkin. AI va IoT texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'shish nogironlarning o'quv jarayonini yanada individualizatsiya qilish, ular uchun maxsus o'quv dasturlarini yaratish va ular uchun osonroq o'zlashtiriladigan didaktik materiallarni taqdim etishga yordam beradi. Shuningdek, onlayn ta'lim platformalari nogironlarga geografik joylashuvdan qat'i nazar, sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Bu texnologiyalar nogironlarni ta'lim jarayoniga kengroq jalb qilish va ularning ijtimoiy hayotga integratsiyasini ta'minlashda samarali vosita bo'lishi mumkin. Nogironlarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklarini va mehnat bozoriga kirishdagi muammolarni tahlil qilish uchun kvalitativ va kvantitativ tadqiqot usullari qo'llaniladi. So'rovnomalar va intervyular yordamida nogironlar o'rtasida ta'lim olishdagi qiyinchiliklar, mavjud resurslar va imkoniyatlar haqida ma'lumotlar to'planadi. Bu metodologiya orqali nogironlarning ta'lim jarayonidagi tajribalari va muammolari, shuningdek, texnologik vositalarning ta'lim jarayonida qanday samarali qo'llanilishi mumkinligi o'rganiladi.

Nogironlarga yordam ko'rsatishda davlat va jamoat tashkilotlarining roli, umuman, ijtimoiy adolatni ta'minlash va nogironlarning jamiyatga to'liq integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda nogironlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator davlat dasturlari va tashabbuslari amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, bu dasturlarni amalga oshirish va ularning samaradorligini baholashda hali bir qator muammolar mavjud. Nogironlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotga integratsiyasini ta'minlash uchun samarali davlat siyosati va jamoat



tashkilotlarining faol hamkorligi zarur. Jamoat tashkilotlari nogironlarga yordam ko'rsatishda davlat bilan hamkorlikda ishlaydi va ko'plab ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda faol ishtirok etadi. Jamoat sektorining muhim vazifalaridan biri nogironlarga huquqiy maslahatlar berish, ijtimoiy himoya tizimlaridan foydalanish va nogironlarning jamiyatdagi o'rnini va rolini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirishdir. Jamoat tashkilotlari, ayniqsa, nogironlar uchun maxsus reabilitatsiya markazlari, psixologik va tibbiy yordam xizmatlari, shuningdek, nogironlar huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat tashkilotlari nogironlarning ijtimoiy integratsiyasiga katta hissa qo'shadi. Masalan, O'zbekiston nogironlar jamiyati kabi tashkilotlar, nogironlarni jamoat hayotiga jalb qilish, ularga ta'lim olish va mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratishda katta o'rin tutadi. Ushbu jamiyat nogironlarning huquqlarini himoya qilish, ularga sog'liqni saqlash xizmatlarini taqdim etish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan faoliyat olib boradi. Ammo jamoat tashkilotlarining imkoniyatlari ba'zan cheklangan. Ular ko'p holatlarda davlat tomonidan berilgan moliyaviy yordam va resurslarga bog'liq bo'lishi mumkin. Shuning uchun, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini yanada kuchaytirish, ularning faoliyatini birlashtirish va qo'shimcha mablag'larni jalb qilish nogironlar uchun yaratilgan imkoniyatlarni yanada kengaytirishi mumkin[4; -B.67]. Nogironlarga yordam ko'rsatish tizimini samarali tashkil etish uchun innovatsion yondashuvlar va yangi texnologiyalarni qo'llash zarur. Masalan, nogironlarni reabilitatsiya qilishda yangi texnologiyalarni qo'llash, davlat dasturlarining samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkin. Sun'iy intellekt (AI), virtual haqiqat (VR), Internet of Things (IoT) kabi texnologiyalarni nogironlarning ta'limi, reabilitatsiyasi va ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlashda qo'llash o'zini oqlaydi.

Maxsus reabilitatsiya markazlari va sog'liqni saqlash tizimida maxsus xizmatlar yaratish taklif etiladi. Bu markazlarda nogironlar uchun individual reabilitatsiya dasturlari, innovatsion yordam vositalari va xizmatlar taqdim etilishi mumkin. Masalan, virtual haqiqat texnologiyalaridan foydalangan holda nogironlar uchun ta'lim va reabilitatsiya jarayonlarini yanada osonlashtirish mumkin. Bunday texnologiyalar yordamida nogironlar o'zlarini real hayotda tajriba qilishlari, o'qish va ishlashni simulyatsiya qilishlari mumkin. Bundan tashqari, nogironlarning ta'lim olish va reabilitatsiya qilish jarayonlarini raqamli platformalar orqali amalga oshirish imkoniyatlari ham mavjud. Onlayn ta'lim platformalari va maxsus mobil ilovalar nogironlarning ta'lim olish, sog'lomlashtirish va jamiyatdagi faoliyatini kengaytirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi.

Xulosa. Nogironlarga yordam ko'rsatishda davlat va jamoat tashkilotlarining roli beqiyosdir. Davlat tomonidan amalga oshirilgan dasturlar nogironlarning huquqlarini himoya qilishda, ularni jamiyatga to'liq integratsiya qilishda va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, bu dasturlarni amalga oshirishda hali bir qator muammolar mavjud. Shuning uchun, davlat va jamoat tashkilotlarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish nogironlarga yordam ko'rsatish tizimini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2020-yil 22-iyuldagi O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi" qonuni.
2. Jumaniyozov B. Nogironlarning huquqlarini himoya qilish: O'zbekiston tajribasi. O'zbekiston huquqshunoslik jurnali, 2015, 2(14), 45-59.
3. Kamilov R. Nogironlarni ta'lim olishga integratsiyalash: O'zbekistonning hozirgi holati. Ta'lim va innovatsiyalar, 2018, 3(8), 123-134.



4. Miroqiyev A. “O‘zbekistonda nogironlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi: Muammolar va yechimlar” Sog‘liqni saqlash va rehabilitatsiya jurnali, 2017, 5(6), 67-76.

Nematova Orzigul Axmedovna

Namangan davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchi.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA HUSNI-XULQ BAG‘RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI MA’NAVIY MEZON

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida husni-xulq va bag‘rikenglik fazilatlarini shakllantirishda ma’naviy mezonlarning o‘rni va ahamiyati falsafiy tahlil etilgan. Shaxs axloqiy kamolotining asosini tashkil etuvchi husni-xulq qadriyatlari bilan bag‘rikenglik tamoyillari o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqilib, ularning jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi omil sifatidagi mohiyati yoritiladi. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston strategiyasida ma’naviy mezonlar tizimini mustahkamlash, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish yo‘nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, husni-xulq, bag‘rikenglik, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, milliy g‘oya, ijtimoiy barqarorlik.

Abstract: This article philosophically analyzes the role and importance of spiritual criteria in the formation of virtues of good character and tolerance in the development of New Uzbekistan. The principles of tolerance and moral values, which form the basis of the moral perfection of the individual, are considered in harmony, and their essence as a factor ensuring social stability in society is highlighted. Also, in the New Uzbekistan Strategy, the directions of strengthening the system of spiritual criteria, harmonizing national and universal values in the upbringing of youth are analyzed.

Keywords: New Uzbekistan, good character, tolerance, spirituality, moral values, national idea, social stability.

Kirish. Yangi O‘zbekistonda jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida insonning ma’naviy kamoloti, husni-xulqi va bag‘rikenglik fazilatlarini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Bugungi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, turli madaniy ta’sirlarning o‘ssishi sharoitida insonning axloqiy immunitetini mustahkamlash, uni sog‘lom ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Chunki jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti – insonning ma’naviy-axloqiy pishganligi, ya’ni uning husni-xulqi va bag‘rikenglik darajasidir”[1]. Globallashuv sharoitida insonning axloqiy immuniteti kuchli bo‘lishi zarur. Chunki husni-xulq va bag‘rikenglik jamiyat barqarorligi hamda ma’naviy taraqqiyotning asosiy tayanchidir.

Husni-xulq – bu inson shaxsiyati, uning ichki olami va ijtimoiy xulq-atvorining uyg‘un ifodasi bo‘lib, ma’naviyatning markaziy kategoriyalaridan biridir. Bag‘rikenglik esa, shu husni-xulqning ijtimoiy ko‘rinishi, ya’ni boshqalarni hurmat qilish, fikr xilma-xilligiga ochiqlik va murosaga tayyorlik sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining falsafiy asoslari – “inson qadri, adolat, totuvlik, hamjihatlik g‘oyalariga tayanadi. Shu bois, husni-xulq va bag‘rikenglikning uyg‘unlashuvi jamiyat ma’naviy yuksalishining muhim mezoniga aylanib ulgurdi”[2]. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti inson qadri va adolat g‘oyalariga tayanar ekan, husni-xulq



va bag'rikenglikning uyg'unlashuvi milliy ma'naviyatning poydevorini mustahkamlaydi. Bu uyg'unlik jamiyatda totuvlik, hamjihatlik va axloqiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy falsafiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natija. “Husni-xulq” tushunchasi o'zbek va islom falsafiy tafakkurida insonning eng oliy ma'naviy sifatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. “Husn” – arabcha so'z bo'lib, “go'zallik”, “yaxshilik”, “fazilat” ma'nolarini anglatadi; “xulq” esa “xatti-harakat”, “axloq” degan mazmunga ega. Shu boisdan, “husni-xulq deganda nafaqat odobli, balki ichki dunyosi, niyati, so'zi va amali uyg'un bo'lgan inson fazilatlarini tushuniladi”[3]. Husni-xulq insonning faqat tashqi odobida emas, balki ichki ma'naviy uyg'unligida namoyon bo'ladi. Ya'ni insonning niyati, so'zi va amali bir-biriga mos bo'lsa, u chin insoniy fazilatga ega bo'ladi. Bu holat axloqiy komillikning yuksak darajasidir. Sharq falsafasida husni-xulq axloqiy go'zallik mezonini sifatida e'tirof etiladi. Farobiy o'zining “Fozil odamlar shahri” asarida “shaxsning fazilatli bo'lishi uning xulq-atvoridagi uyg'unlik va adolatga bog'liq ekanini ta'kidlaydi”[4]. Husni-xulq, Farobiyning fikricha, insonni jamiyat bilan bir butun qiladi, chunki axloqiy go'zallik – bu shaxsning o'zini jamiyatdagi umumiy qadriyatlarga moslashtirish jarayonidir.

Imom G'azzoliy esa “Ihyo ulumid-din” asarida husni-xulqni “qalbning halovati va niyat pokligi bilan yuzaga keladigan odob” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, “insonning xulqi uning ichki ruhiy olamiga bog'liq: agar niyat pok, e'tiqod mustahkam bo'lsa, xulq ham go'zal bo'ladi”[5]. Bu nuqtai nazar, zamonaviy psixologiya va ijtimoiy falsafa bilan hamohang, chunki har qanday axloqiy xatti-harakatning ildizi insonning ichki ruhiyatida yotadi. Tasavvuf ta'limotida ham husni-xulq – komil insonning asosiy belgisi sifatida talqin qilinadi. Bahouddin Naqshband “Dil ba yoru, dast ba kor” shiorida tashqi faoliyat (amaliy xatti-harakat) va ichki poklik (ma'naviyat)ning birligiga urg'u beradi. Demak, husni-xulq nafaqat axloqiy go'zallik, balki ijtimoiy mas'uliyatning ifodasidir: inson o'zini, boshqalarni va jamiyatni yaxshilik sari yo'naltirish orqali ma'naviy barkamollikka erishadi.

Zamonaviy o'zbek falsafasida husni-xulq tushunchasi milliy qadriyatlar, odob-axloq, insonparvarlik va vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi. “Husni-xulq bu – shaxsning o'zligini anglash, o'ziga va boshqalarga nisbatan mas'uliyatni his etish, bag'rikenglik, halollik, sabr, va shukr fazilatlarini amalda namoyon etishdir”[6]. Husni-xulq insonning ichki ma'naviy olamini aks ettiruvchi, hayotga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni talab etuvchi fazilatdir. U o'zini anglash, boshqalarga hurmat bilan qarash, sabr va shukrni hayotiy prinsip sifatida qabul qilish orqali namoyon bo'ladi. Shu tariqa husni-xulq inson kamolotining mezoniga aylanadi.

Husni-xulqning ma'naviy mohiyati shundaki, u insonni faqat axloqiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham kamolga yetkazadi. U shaxsning o'zini boshqarish qobiliyatini, irodasini, adolat va murosaga tayyorligini shakllantiradi. Shu sababli, Yangi O'zbekistonning ma'naviy siyosatida “husni-xulq masalasi inson omilini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyatda totuvlikni mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir” [7]. Husni-xulq insonning nafaqat shaxsiy kamolotini, balki jamiyatdagi ijtimoiy uyg'unlikni ham ta'minlaydi. Bu fazilat bag'rikenglik, sabr, murosaliq, xayrixohlik kabi ijobiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan u Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevori – insonparvarlik va totuvlik g'oyalarining falsafiy asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Bag'rikenglik (arabcha “tasomuh”, inglizcha tolerance) tushunchasi insoniyat tarixida uzoq davrlardan buyon jamiyat barqarorligi va tinchlikni ta'minlovchi eng muhim ma'naviy qadriyat sifatida shakllanib kelgan. Bu tushuncha insonning boshqalar fikri, dini, madaniyati, urf-odati va turmush tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lishini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan “bag'rikenglik – bu inson ongi va irodasining yuksak bosqichi, ya'ni “boshqani o'zidan farqli deb



bilgan holda uni qabul qilish” qobiliyatidir[8]. Bag'rikenglik inson tafakkuri va ma'naviy yetukligining ifodasidir. U boshqacha fikrlovchi, e'tiqod qiluvchi yoki yashovchi insonni inkor etmasdan, aksincha, uni inson sifatida qabul qilish madaniyatini bildiradi. Bu fazilat ijtimoiy totuvlik, hamjihatlik va madaniyatlararo muloqotning muhim falsafiy asosi hisoblanadi.

Bag'rikenglik insoniyat taraqqiyotida ijtimoiy muvozanat, adolat, tinchlik va hamjihatlikni ta'minlovchi asosiy omil bo'lib kelgan. Tarixiy manbalarda bag'rikenglik g'oyasi ilk bor diniy-madaniy qarama-qarshiliklar davrida ijtimoiy zarurat sifatida paydo bo'lgan. Masalan, Qur'oni karimda “Dinda majburlash yo'q” (Baqara, 256-oyat) deb ta'kidlanadi. Bu oyat inson erkinligi va bag'rikenglikning eng qadimgi ma'naviy-huquqiy ifodasidir[9]. Sharq mutafakkirlari, xususan, Imom Moturidiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviylarning asarlarida bag'rikenglik g'oyasi insoniylik, sabr, murosa, mehr-oqibat, adolat bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida “insoniy kamolotga erishish uchun “boshqalarni kechira bilish”ni eng oliy fazilat deb biladi. Unga ko'ra, insonning buyukligi – nafaqat bilim va amalida, balki boshqalar fikriga bag'rikeng munosabatda bo'la olishidadir”[10]. Navoiy ta'kidlagan “boshqalarni kechira bilish” g'oyasi insoniy komillikning cho'qqisidir. Bu fazilat inson qalbida mehr, sabr va bag'rikenglikni uyg'otadi. Navoiyning nazarida, haqiqiy buyuklik insonning boshqalar fikrini hurmat qilish, kechirimli bo'lish va adolatni hayot mezoniga aylantirishidadir.

Bag'rikenglik g'oyasi Yangi davr falsafasida ham keng o'rganilgan. Masalan, Volter va Jon Lokk bag'rikenglikni siyosiy erkinlikning sharti, Immanuel Kant esa “inson qadr-qimmatini e'tirof etish” tamoyili bilan bog'lagan. Kantning axloqiy kategorik imperativi – “insonni hech qachon vosita sifatida emas, maqsad sifatida ko'r” degan g'oyasi bag'rikenglikning falsafiy mohiyatini chuqur ifodalaydi.

Bugungi kunda bag'rikenglik ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida inson huquqlari, demokratiya, erkin fikrlash va ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida qaraladi. 1995-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan “Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da bu qadriyat “insonning tabiiy huquqlaridan biri bo'lib, tinchlik va taraqqiyotning asosi” sifatida belgilandi [11]. Mazkur hujjatga ko'ra, bag'rikenglik – faqat sabr-toqat yoki murosa emas, balki faol ijtimoiy xulq bo'lib, unda inson boshqani tushunishga va hamkorlik qilishga intiladi.

Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida bag'rikenglikni rivojlantirish – milliy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy fuqarolik ongini shakllantirish demakdir. Bu jarayon oiladan boshlanadi, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik institutlari orqali davom etadi. Har bir insonning husni-xulqi, odobi, murosasi – bu jamiyatdagi bag'rikenglik darajasining ko'zgusidir. Demak, bag'rikenglikning ijtimoiy-falsafiy mazmuni – inson va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni, turli qarashlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ma'naviy-mezoniy tizimdir. Husni-xulq va bag'rikenglik tushunchalari bir-biridan ajralmas ma'naviy kategoriyalar bo'lib, inson kamolotining ikki qutbi sifatida namoyon bo'ladi. Husni-xulq – shaxsning ichki ruhiy pokligi, axloqiy mukammalligi, bag'rikenglik esa – bu mukammallikning ijtimoiy hayotdagi ifodasidir. Boshqacha aytganda, husni-xulq insonning ichki dunyosini tarbiyalasa, bag'rikenglik uning tashqi munosabatlarida aks etadi. Bu ikki fazilat uyg'unlashgan jamiyatda adolat, tinchlik, hamjihatlik va insonparvarlik g'oyalari mustahkam qaror topadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida bu uyg'unlikning amaliy ko'rinishlari ham mavjud. Millatlararo totuvlik, dinlararo muloqot, “Mahalla” tizimi orqali ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, “Inson qadri uchun” dasturi doirasida ma'naviy tarbiya ishlari olib borilishi – bularning barchasi husni-xulq va bag'rikenglik uyg'unligining real ifodalaridir. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, ma'naviy sog'lom muhit yaratadi va insonparvar jamiyat barpo etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, husni-xulq va bag'rikenglikning uyg'unligi shaxsiy fazilat bilan ijtimoiy



qadriyat o'rtasidagi uzviy aloqani ifodalaydi. Ularning birligi inson ma'naviyatining yuksak bosqichini tashkil etadi va Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-falsafiy asosini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida "Ma'naviyat – bu jamiyatni birlashtiruvchi eng muhim omil" ekanini ta'kidlab, har bir islohotning poydevorida inson qadri, vijdon erkinligi va adolat mezonlari yotishini qayd etadi. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot modelining ma'naviy poydevorini tashkil etuvchi uch asosiy yo'nalishni ajratish mumkin: 1) shaxs ma'naviyatini yuksaltirish; 2) jamiyat axloqiy muhitini sog'lomlashtirish; 3) davlatning ma'naviy siyosatini takomillashtirish.

Birinchidan, shaxs ma'naviyatini yuksaltirish Yangi O'zbekiston islohotlarining markazida turadi. Bu borada ta'lim-tarbiya tizimini insonparvar g'oyalar asosida yangilash, yoshlarda husni-xulq, halollik va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Masalan, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi, "Yangi O'zbekiston yoshlarini ma'naviy barkamol etish" dasturlari, "Oila va ma'naviyat" loyihalari ana shu mezonlarning amaliy ifodasidir.

Ikkinchidan, jamiyat axloqiy muhitini sog'lomlashtirish milliy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Bu jarayonda husni-xulq, odob, bag'rikenglik, adolat, ijtimoiy hamjihatlik kabi tushunchalar ijtimoiy qadriyatlar tizimining barqaror elementiga aylanmoqda. Ayniqsa, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, inson huquqlariga hurmat kabi mezonlar jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar sifatida qaraladi.

Uchinchidan, davlatning ma'naviy siyosatini takomillashtirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi doirasida ma'naviy siyosat davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida olib borilmoqda. Bu siyosatning mohiyati – insonning ichki dunyosini boyitish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va ezgulik g'oyalarini jamiyat hayotining barcha sohalariga singdirishdan iboratdir [10].

Shuningdek, Yangi O'zbekiston davrida ma'naviy mezonlar tizimining konseptual asoslari sifatida quyidagi tamoyillar shakllanmoqda:

"Inson qadri – oliy mezon: inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir shaxsning sha'nini e'zozlash; Adolat va halollik – ijtimoiy tartib mezoni: boshqaruv, ta'lim, sud-huquq tizimlarida shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash; Bag'rikenglik va totuvlik – ma'naviy muvozanat mezoni: diniy, milliy va madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarash; Ma'rifat va bilim – taraqqiyot mezoni: ilmiy tafakkur, innovatsion tafakkur va axloqiy ongni uyg'unlashtirish; Oila – ma'naviyat tayanchi: oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni axloqiy tarbiyalash"[12]. Bu tamoyillar Yangi O'zbekistonning yangi davlatchilik va fuqarolik jamiyati konsepsiyasini falsafiy jihatdan asoslab beradi. Ular orqali shaxsning husni-xulq madaniyati, jamiyatning axloqiy birlik tamoyillari va davlat siyosatining insonparvar yo'nalishi uyg'unlashadi. Shunday qilib, ma'naviy mezonlar tizimi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining aksiologik negizi sifatida namoyon bo'ladi. U insonparvarlik, adolat, bag'rikenglik va halollik kabi fazilatlarni ijtimoiy taraqqiyotning mezoniy qadriyatlariga aylantiradi. Natijada, bu tizim husni-xulq madaniyatini rivojlantiruvchi va bag'rikenglikni barqarorlashtiruvchi ma'naviy-ijtimoiy mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida husni-xulq va bag'rikenglik tushunchalari milliy ma'naviyat tizimining eng muhim falsafiy asosi sifatida qaralmoqda. Ular shaxsning ma'naviy barkamolligi, jamiyatning axloqiy barqarorligi va davlat siyosatining insonparvar yo'nalishini ta'minlovchi asosiy g'oyaviy tayanchlardir. Husni-xulqning falsafiy mohiyati insonning ichki go'zalligi, vijdoni va ongli xulq-atvori bilan belgilanar ekan, u Yangi O'zbekistonning ma'naviy mezonlari tizimida o'ziga xos poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Bag'rikenglik esa bu tizimning ijtimoiy ifodasidir — u turli fikr, din, millat va madaniyat vakillarining o'zaro hurmatda yashashini

ta'minlaydi. Bu jihatdan Yangi O'zbekiston taraqqiyotida bag'rikenglik siyosati nafaqat ijtimoiy totuvlikning kafolati, balki milliy tiklanishning falsafiy mohiyatini belgilovchi tamoyil sifatida shakllanmoqda. Husni-xulq va bag'rikenglik o'rtasidagi uyg'unlik ma'naviy mezonlarning amaliy ifodasiga aylanib, insonparvarlik, halollik, adolat, mehr-shafqat kabi qadriyatlarning ijtimoiy ongda barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekistonning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi aynan shu ma'naviy birlik va axloqiy uyg'unlikka tayanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, husni-xulq va bag'rikenglikni shakllantiruvchi ma'naviy mezonlar tizimi jamiyat taraqqiyotining aksiologik va gumanistik yo'nalishini belgilaydi. U insonni ezgulik sari yo'naltiruvchi ruhiy-axloqiy kuch, millatni birlashtiruvchi ma'naviy poydevor, davlatni mustahkamlaydigan ijtimoiy asos sifatida e'tirof etiladi. Mazkur jarayonning barqaror rivoji esa Yangi O'zbekiston ma'naviy siyosatining muvaffaqiyat kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: "Ma'naviyat", 2008. – B.113.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston", 2021. – B.211.
3. Absattorov B.M. Inson axloqiy kamolotida mezon va me'yor muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili. F.f.b.f.d. (PhD) disser. – Toshkent.: "IMPRESS MEDIA", 2022. – B.134.
4. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yozuvchi, 1993. – B.134.
5. Абу Хомид Ғаззолий. Ихёю улумид дин (Тавба, сўнгги манзил зикри, нафс тарбияст, тил офатлари). Араб тилидан таржимон Рашид Зоҳид. – Тошкент.: "Matbaachi", 2022. – B.327.
6. Hadislar majmuasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
8. Azizxo'jayev A. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2018. – B.114.
9. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. –T.: TIU, 2004.
10. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1983. – B.148.
11. UNESCO. Tolerance: The Threshold of Peace. – Paris: UNESCO Publishing, 1995.
12. O'zbekiston Respublikasida ma'naviyat va ma'rifat sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.

Tashxodjayev Murodjon Valijonovich

Katta o'qituvchi

Andijon davlat texnika instituti

YANGI O'ZBEKISTONDA DUNYOVIYLIK - BAG'RIKENGLIKNING ASOSIDIR

Annotatsiya Maqolada diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi munosabatlarning murakkab, ijtimoiy, siyosiy, hamda madaniy jihatdan dolzarb masalalariga e'tibor qaratilib, diniylik va dunyoviylik tushunchalari, ularning o'zaro uyg'unligi va jamiyatdagi roli ilmiy yondashuv asosida muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: dunyoviylik, bag'rikenglik, diniylik, e'tiqod, davlat, din, konfessiya, dahriy, dunyoviy ta'lim, diniy ta'lim, vijdon erkinligi, diniy tashkilot.



Annotation The article focuses on the complex, social, political, and cultural issues of the relationship between religiosity and secularism, and discusses the concepts of religiosity and secularism, their mutual harmony and role in society based on a scientific approach.

Key words: secularism, tolerance, religiosity, faith, state, religion, confession, tradition, secular education, religious education, freedom of conscience, religious organization.

Kirish. Dunyo jamiyati bugungi kunda juda ko'p o'zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Ayniqsa hozirgi globallashuv va axborotlashuv zamonida dunyo mamlakatlari har birining o'z ichki jamiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar boshqa bir mamlakatlar jamiyati hayotiga ham kirib borib, o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda. Yangi O'zbekistonda "dunyoviylik" tamoyilini to'g'ri anglash, jamiyat, davlat va din orasidagi munosabatlarda muvozanatni saqlash masalasi nihoyatda dolzarb sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq ko'p asrlilik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash maqsadida bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilandi. Ular qatorida "jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish, diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish kabilar ham sohaning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilab olindi.[1. – O'.2] Shuningdek, 2019-yil 4-sentyabrdagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarorida ham yosh avlodning diniy va dunyoviy qarashlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.[2. – O'.3] Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda dunyoviylik asosida jamiyatimizda millatlararo va diniy bag'rikenglikni huquqiy jihatdan ta'minlanishga e'tibor qaratilmoqda.

Tahlil va natijalar. Diniylik va dunyoviylik tushunchalarining mohiyati borasida jamiyatda ko'plab muhokamalar qilinadi. Dunyoviylik tushunchasini diniylik bilan mutlaq qarama-qarshi qo'yib bo'lmaydi. Diniylik va dunyoviylik bir-biriga mutlaq zid tushunchalar emas. Faqat ularning mazmuni dunyo va inson hayotining mohiyatiga turlicha qarashlar bilan farqlanadi. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili muhim ahamiyatga ega. Diniylikda qalbga bog'liq hissiyotlar muhim o'rin tutadi. Diniylikni jamiyatga majburiy singdirish hech qaysi diniy tamoyillarga to'g'ri kelmaydi. Dunyoviy taraqqiyot yo'lini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo'lsada, jamiyatdan ajratilmagan.

Tadqiqotchilarning ba'zilar diniylik va dunyoviylikni tarixiy nuqtai nazardan o'rganishgan bo'lsa, boshqa bir guruhi esa zamonaviy ijtimoiy va siyosiy kontekstda ularni tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Diniy va dunyoviy tushunchalar o'rtasidagi farqli jihatlar tarixiy jarayonlarda yuzaga kelgan. Masalan, o'rta asrlarda diniylik jamiyatni boshqarishning asosiy vositasi bo'lgan, ammo ilm-fanning rivojlanishi bilan dunyoviylik kuchaygan. Turli dinlarda diniy va dunyoviy ijtimoiy tizimlar bir-birini to'ldiruvchi, lekin ba'zan qarama-qarshi bo'lishi mumkin bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Diniylik va dunyoviylikning o'zaro munosabatlari haqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Al-Beruniy diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi aloqalarni chuqur tahlil qilgan. Uning fikrlarida diniy va dunyoviylikning o'zaro munosabatlari, turli madaniyatlarning va dinlarning bir-biriga ta'siri kabi masalalar aks etadi. Ibn Sinoning diniylik va dunyoviylik haqidagi fikrlari uning falsafiy tizimi va ilmiy yondoshuvlarida o'z aksini topgan. Al-Marg'inoniy "Al-Hidoya"da fiqhning asosiy tushunchalarini tahlil qilib, ularni jamiyatdagi diniy va dunyoviy masalalar bilan bog'laydi. Al-



Moturidiy o'zining aqidaviy qarashlarida diniylik va dunyoviylikni ajratib, din ijtimoiy tartibni o'rnatishda muhim rol o'ynasa-da, siyosiy hokimiyat va hukumatning o'zining mustaqil mexanizmi mavjudligini ilgari suradi. Kanadalik olim Charlz Taylor esa o'z asarida, dinning zamonaviy dunyoda o'rnini, dunoviylashtirish jarayonini va uning insoniyat ma'naviy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatganini chuqur tahlil qiladi. [3. – T.6]

O'zbekiston dunyoviy davlat bo'lib, mamlakatimizda din davlatdan alohida bo'lib, bu haqda mamlakatimiz Konstitutsiyasining 75-moddasida shunday deyiladi: “Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”. [4. – O'.4] Bu g'oya “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunning 7-moddasida ham mustahkamlangan bo'lib, unda ham dinning davlatdan ajratilganligi, hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yilgan. [5. – O'.5] Bu esa mamlakatimizda davlatning diniy ishlarga, dinning esa davlat ishlariga (qonun hujjatlarida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno, albatta) aralashmasligini anglatadi.

Davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ta'limga e'tibor alohida masaladir. O'zbekistonda davlat ta'lim tizimi har qanday diniy konfessiyalarning ta'siridan xoli bo'lishligi belgilagan. Davlat ta'lim tizimi (umumiy o'rta maktab)ning har qanday konfessiya yoki diniy e'tiqod ta'siridan xoli bo'lishligi bu uning diniy e'tiqodga qarshiligini anglatmaydi. Bu faqat, davlat ta'lim tizimi (umumiy o'rta maktab)da diniy fanlarning ta'lim dasturlariga kiritilmasligini anglatadi xolos. Bunga O'zbekistonda maktab o'quvchilarning e'tiqodiy qarashlaridan kelib chiqib muayyan toifalarga ajratilmasligi sababini ham keltrish mumkin. Har bir sinfda islom yoki boshqa turli dinlarga e'tiqod qiluvchi o'quvchilar bilan birga ateistik qarashdagi dahriy fuqarolar ham o'qishi mumkinligini inobatga oladigan bo'lsak, bunday vaziyatda diniy fanlarni o'qitish bilan bog'liq o'ziga xos muammolarning kelib chiqishi tabiiy holdir. O'zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlari to'g'risida”gi Qonunning 8-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dunyoviy ta'lim olish huquqi, ularning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar, ta'minlanishi hamda har kim diniy ta'lim muassasalarida professional diniy ta'lim olish huquqiga ega ekanligi kabi qoidalar belgilangan.

Milliy va diniy qadriyatlar jamiyat ma'naviyatining muhim qismlaridan hisoblanadi. Hozirgi davrda diniylik va dunyoviylik tushunchalarining mazmuni noto'g'ri talqin qilinishi natijasida davlat va dunyoviy faoliyatga doir ishlardan dinni ajratish dahriy jamiyat shakllanishiga olib kelishi haqidagi asossiz fikrlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Dunyoviylik — bu din va davlatning ma'lum ma'noda bir biridan ajratilishi hamda diniy va siyosiy tizimlarning bir biridan mustaqilligini ta'minlanishidir. Dunyoviylikda davlatning diniy g'oyalardan, qarashlardan va ta'sirlaridan mustaqil bo'lishini ta'minlashga e'tibor qaratiladi. Bu yondashuv, odamlarning e'tiqod erkinligini himoya qilish va jamiyatda dinni ijtimoiy-siyosiy tizimlardan ajratib turish uchun zarur sanaladi. Dunyoviylikning asosiy maqsadi — barcha fuqarolarning diniy e'tiqodlariga hurmat ko'rsatgan holda diniy qarashlarning davlat siyosatiga ta'sir ko'rsatishini oldini olishdir. Dunyoviylikning asosiy prinsipi, davlat va din o'rtasidagi chegarani belgilashga qaratilgan bo'lib, davlatni diniy nazoratdan mustaqil qilishni nazarda tutadi.

Diniylik - bu insonning diniy e'tiqodlarini va amallarini hayotining asosiy qismiga aylantirishi, shuningdek, diniy qadriyatlarni o'z hayotiga keng tadbiq etishini anglatadi. Diniylik insonning ruhiy va ma'naviy taraqqiyotini shakllantiradi va jamiyatda axloqiy me'yorlarni belgilovchi asoslardan biriga aylanadi. Aslida diniylik bu dunyoviylikning tarkibiy bir qismidir. Din va diniy faoliyat faqatgina davlat va dunyoviy faoliyatga doir barcha umumiy ishlarni turli diniy g'oyalar ta'siridan alohida tarzda olib borish maqsadida ajratiladi. Dinni davlatdan ajratilganligi



uning jamiyatdan, xalqdan ajratilganligini yoki davlatning dindan voz kechganligini anglatmaydi. Aksincha, din jamiyat hayotining tarkibiy muhim qismi sifatida mavjud bo'laveradi. Diniy e'tiqodlar va qadriyatlar insonlarni birlashtiruvchi va ular o'rtasida axloqiy tartibni saqlovchi omillar hisoblanadi. Shuninngdek, diniylik jamiyatda ma'naviyatni yuksaltirishga ham katta xizmat qiladi.

Diniy va dunyoviy qadriyatlar uyg'unligidagi me'yorlarning buzilishi diniy va dunyoviy qadriyatlarning qadsizlanishiga, ya'ni odamlarning axloqiy va aksiologik jihatdan tanazzulga uchrashga olib keladi. Dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi haqida professor Tilab Mahmudning fikrlari ham cguqur ma'noga ega: "Inson ma'naviy olamining yaxlitligi va butunligiga erishmoq ayni saodatdir. Parchalanish, bo'linish-nurash alomatidir. Qayerda uyg'unlik va mutanosiblik bo'lsa, shu yerda ishonchli taraqqiyot va go'zal xulq chechlari gullaydi. Inson dilidagi esankirash, shubha va gumon ma'naviy parokandalikka olib keladi"[6. - M.1]. Shu bilan birga dunyoviy davlat tamoyili asosidagi dunyoviylik zamonaviy islohotlarga va taraqqiyotga yetaklaydi. Ma'rifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur".

Xulosalar. Xulosa qilib aytish lozimki, dunyoviy va diniy qadriyatlar insonlar ruhiyatining ajralmas qismi hisoblanib, mushtarak tarzida insonning hayotga, jamiyatga, jamiyat a'zolariga munosabatini shakllantiradi. Dunyoviy qadriyatlar ijtimoiy-ruhiy hodisa bo'lib, u millatning madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odati, an'alarini, jamiyatning moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha tomonlarini qamrab olsa, diniy qadriyatlar diqqat markazida inson va insoniylik masalasi asosiy o'rin tutadi. Diniy-dunyoviy qadriyatlar uyg'unligida tarbiya topgan shaxs albatta, jamiyat, davlat manfaatlarini yo'lida yangi innovatsion g'oya va texnologiyalarni yaratib, so'nggi ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirib, dunyoga o'z millatining tafakkur salohiyatini namoyon qilishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmud Tilab. Komillik asrorlari: Hayotiy hikmatlar. – Toshkent. "Adolat". 2006. – B 18.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 16-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4436 Qarori, 2019-yil 4-sentyabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi, 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-yil., 03/23/837/0241-son)
5. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2021-yil 5-iyul, O'RQ-699-son (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.07.2021-y., 03/21/699/0635-son)
6. Taylor, C. (2007). A Secular Age. Belknap Press of Harvard University Press.874 pages



Teshaboyev Abbos Xoldorjon o'g'li
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
Namangan davlat universiteti

FUQAROLIK JAMIYATI VA IJTIMOIIY INSTITUTLAR TUSHUNCHASINING IJTIMOIIY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy institutlar jamiyat hayotidagi roli, rivojlanish jarayonlari va jamiyatimizdagi o'rni, uning vakolatlari, odamlar muammolarini hal etish mexanizmlari haqida fikrlari hamda xozirga kunda Fuqarolik jamiyati va ijtimoiy institutlar berilayotgan e'tibor xaqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolik jamiyati, mahalla instituti, qadriyatlar, Sharq allomalari, jamiyat, fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy institutlar, fuqarolik ong, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik mas'uliyati,

Annotation. This article presents views on the role of civil society and social institutions in the life of society, its development processes and place in our society, its powers, mechanisms for solving people's problems, and the attention currently being paid to civil society and social institutions.

Key words: Civil society, neighborhood institution, values, Eastern scholars, society, civic education, social institutions, civic consciousness, civic position, civic responsibility,

Kirish. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, mamlakatimiz tarixida shakllangan fuqarolik jamiyatining milliy unsurlarini demokratlashtirish va ularni xorijiy tajriba bilan uyg'unlashtirish davr talabi sifatida maydonga chiqa boshladi. Fuqarolik jamiyatiga doir nazariy va amaliy bilimlarni yoshlar ongiga singdirish mamlakat kelajagi va istiqbolini belgilovchi omil sifatida paydo bo'ldi. Zero yangi quriladigan jamiyatning belgilari hamda tarixi yoshlar ongi va tasavvurida namoyon bo'lmas ekan, ulug'vor vazifani bajarishga kirishib bo'lmaydi.

Xalq davlat idoralarga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak [1. –B.1] - deydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Mahalla instituti o'zini o'zi boshqarish organi sifatida muayyan hududdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va boshqa masalalarda mustaqil ish olib boruvchi ijtimoiy tuzilmadir. So'nggi yillarda mazkur institutga e'tibor kuchaydi. Aholining barcha muammolari endi mahallaning o'zida hal etiladigan bo'ldi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” tashkil etildi. Aholi bilan ishlashning “mahallabay”, “xonadonbay” tizimi yo'lga qo'yildi [2. –B.1].

Mahalla haqiqatan ham jamiyatimizning eng xalqchil instituti hisoblanadi. Bu maskandagi oila atalmish qo'rg'onlarda mamlakatimiz taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanmish inson zoti shakllanib, katta hayotga qadam qo'yadi. Bu joylarda faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim-tarbiya, shifo muassasalari tobora zamonaviylashib, korxona va tashkilotlar, tadbirkorlik sub'ektlari ko'payib, mahallalarning infratuzilmalari rivojlanib borayotir[3. –B.1].

Maqola yuzasidan yurtimizning faoliyat yuritgan taniqli olimlarining ilmiy tadqiqotlarida Mahalla instituti rivojlanishining ijtimoiy falsafiy tahlili va bu bo'yicha ularning fikrlari, shuningdek, bir qator olimlarning Mahalla instituti rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy tahlili tadqiq etilgan.

Manbalarni o'rganish, tahlil etish jarayonida tug'ilgan mantiqiy xulosaga ko'ra, odamlar ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi ko'chmanchilikdan o'troq hayotga o'tib, jamoa bo'lib yashay boshlaganlarida mahalla tizimining ibtidoiy unsurlari, qadriyatlar, kasb-hunar malakalari, ro'zg'or tebratish, o'zaro mol ayirboshlash, topilgan ne'matlarni o'rtada baham ko'rish asoslari shakllana boshlagan[4. –B. 4-6]. Sharqda Abu Nasr Forobiy, Nizomulmuluk, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida boshqaruv jarayonini amalga oshirishda adolat me'zoniga qat'iy amal qilish va kengash bilan maslahatlashish kerakligi ta'kidlanadi.



Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarining nazariy masalalari mamlakatimizda: Sh.Jalilov, I.Jurayev, Yo.Ollamov, O.Xusanov, D.Bekchanov, Sh.Fayziyev va S.Xidirov kabi olimlarning izlanishlarida keng yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotchilar asarlarida asosiy e'tibor mahalliy hokimiyat faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslariga qaratilgan bo'lib, unda mahalliy boshqaruv me'yoriy jihatdan ko'proq talqin etilgan. Qolaversa, R.Jumayev, A.Japilov, M.Turaqulov, B.Jurayev va X.Jurabekovalarning asarlarida davlat boshqaruvini demokratlashtirish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishda mahalliy davlat hokimiyatining ahamiyati hamda nomarkazlashtirish jarayoniga oid nazariy jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotimiz jarayonida shunga amin bo'ldikki, "Mahalla"ning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashuvi xalqimizning uzoq tarixi, ma'naviyati va turmush kechirish jarayonlari bilan uyg'unlashib ketgan. XX asrning oxirgi o'n yili va XXI asrning boshi mustaqil O'zbekistonda milliy davlatchilikni shakllantirish, demokratik institutlarni rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilgan davr bo'lib tarixda qoladi.

Hozirgi davrda fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirish jarayoni kechayotgan ekan, mamlakatimiz aholisining turli qatlamlari manfaatini ifoda etuvchi nodavlat-notijorat tashkilotlarining faoliyatini takomillashtirish davlat va jamiyat oldidagi muhim vazifa bo'lib qolmoqda.

Jamiyat – bu insonlarning ongli faoliyati natijasida shakllanadigan, tarixiy taraqqiyot davomida rivojlanib boradigan murakkab tizimdir. U o'z tuzilmasida turli sohalarni mujassam etadi va bu sohalar o'zaro bog'liq holda jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. Har qanday jamiyatda insonlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar markaziy o'rinda turadi; bu munosabatlar orqali odamlar bir-biri bilan hamkorlik qiladi, hayot tarzini shakllantiradi va ijtimoiy institutlar orqali o'zaro ta'sirchan tizimga aylanadi. Shu bilan birga, bu jarayonda iqtisodiy omillar asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, chunki jamiyatning taraqqiyoti mehnat faoliyati, ishlab chiqarish, moddiy resurslar taqsimoti va mehnat natijasining iste'moli bilan chambarchas bog'liqdir. Iqtisodiy hayotda yuz beradigan har qanday o'zgarish bevosita siyosiy tuzum va boshqaruv shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Davlat tomonidan olib boriladigan siyosat – jamiyatdagi manfaatlar muvozanatini saqlash, tartib va barqarorlikni ta'minlash, qonun ustuvorligini qaror toptirish orqali iqtisodiy va ijtimoiy hayotning uvofiqligini ko'zlaydi. Bunday siyosiy tartibot esa insonlar ongida ma'naviy qadriyatlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar, milliy urf-odatlar, ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti – bularning barchasi jamiyatning ichki dunyosini boyitadi va uni faqat tashqi tuzilmasi bilan emas, balki ichki ruhiy-ma'naviy qiyofasi bilan ham yuksaltiradi. Bu sohalarning har biri boshqa birini to'ldiradi: ijtimoiy barqarorlik iqtisodiy imkoniyatlardan, iqtisodiy farovonlik siyosiy boshqaruvdan, siyosiy barqarorlik esa ma'naviy qadriyatlardan oziqlanadi. Shu bois, jamiyatni anglashda uni alohida qismlarga ajratmasdan, balki yagona, bir-biriga bog'langan tizim sifatida ko'rish zarur [5. –B. 294-295].

Har bir davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, fuqarolarning ongli ishtiroki va mas'uliyatli pozitsiyasiga bog'liq. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekiston sharoitida fuqarolik tarbiyasi masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Fuqarolik tarbiyasi orqali yosh avlodda Vatanga sadoqat, qonunlarga hurmat, jamoat tartibiga rioya qilish va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlar shakllantiriladi. Fuqarolik tarbiyasi - bu shaxsda o'z Vatani, jamiyati va xalqi oldidagi burchini anglash, davlat qonunlariga hurmat bilan qarash, o'z huquq va majburiyatlarini bilish va ularga amal qilish, shuningdek, faol ijtimoiy hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan tarbiya turidir.

Fuqarolik tarbiyasining nazariy asoslariga to'xtalib o'tsek, fuqarolik tarbiyasi - bu tarixan shakllangan, ijtimoiy, axloqiy, huquqiy va siyosiy omillarni o'z ichiga olgan murakkab pedagogik-



ijtimoiy jarayondir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1. Fuqarolik ong - shaxsning ijtimoiy hodisalarga ongli munosabati, jamiyatdagi o'rnini anglash va faol ishtirok etish istagi. 2. Fuqarolik pozitsiyasi - insonning muayyan ijtimoiy masalalarga bo'lgan mustaqil va faol qarashlari. 3. Fuqarolik mas'uliyati - fuqaroning o'z harakati, qarori va jamiyatdagi tutgan o'rniga nisbatan ijtimoiy javobgarligi[6. –B. 5].

Ijtimoiy institutlar bu — qiymat-meyoriy majmualar (qadriyatlar, qoidalar, meyorlar, munosabatlar, modellar, muayyan vaziyatlardagi xatti-harakatlar standartlari), shuningdek, jamiyat hayotida ularning amalga oshirilishi va tasdiqlanishini ta'minlaydigan organlar va tashkilotlar[7. –B. 26-33].

Ijtimoiy institutlar ijtimoiy hayotni tashkil etish va tartibga solishning barqaror shakllarini ifodalovchi jamiyat elementlaridir. Davlat, ta'lim, oila va boshqalar. Bunday ijtimoiy institutlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, odamlarning faoliyatini va ularning jamiyatdagi xatti-harakatlarini tartibga soladi. "Bu [adolat] mifologik ongning ibtidoiy jamiyatning dastlabki tuzilishi rivojlanishi bilan vujudga kelgan hayot ne'matlarini taqsimlashdagi tengsizlikka munosabati sifatida namoyon bo'ldi"[8. –B. 534-541].

Ijtimoiy institutlarning asosiy maqsadi jamiyat taraqqiyoti davrida barqarorlikka erishishdir. Shu maqsadda institutlarning funksiyalari quyidagilarga bo'linadi:

- jamiyat ehtiyojlarini qondirish
- ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish (odatda bu ehtiyojlar qondiriladi).

Ijtimoiy institutlar tomonidan qondiriladigan ehtiyojlar xilma-xildir. Masalan, jamiyatning xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoji mudofaa instituti, ma'naviy ehtiyojlar cherkov tomonidan, fan esa dunyoni bilish zarurati bilan qo'llab-quvvatlanishi mumkin. Har bir muassasa bir nechta ehtiyojlarni qondirishi mumkin (cherkov diniy, axloqiy, madaniy) va bir xil ehtiyojni turli institutlar (ma'naviy ehtiyojlar san'at, fan, din va boshqalar bilan qondirishi mumkin)[9. –B. 668-676].

Ijtimoiy institutning tuzilishi:

- guruhlar va shaxslarning ehtiyojlarini qondirish uchun mo'ljallangan ijtimoiy
- guruhlar va ijtimoiy tashkilotlar;
- ehtiyojlarni qondirishni ta'minlaydigan meyorlar, ijtimoiy qadriyatlar va xulqatvor shakllari

to'plami;

- Iqtisodiy faoliyat sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi belgilar tizimi

(tovar belgisi, bayroq, brend va boshqalar);

- ijtimoiy institut faoliyatining mafkuraviy asoslari;
- muassasada foydalaniladigan ijtimoiy resurslar.

Ijtimoiy institutning xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- maqsadi jamiyatning muayyan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan institutlar,
- ijtimoiy guruhlar majmui;
- madaniy modellar, normalar, qadriyatlar, ramzlar tizimi;
- ushbu meyor va modellarga muvofiq xulq-atvor tizimi;
- vazifalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan moddiy va inson resurslari;
- jamoatchilik tomonidan tan olingan vazifa, maqsad, mafkura[10. –B. 103].

Zamonaviy talqinda esa bu kategoriya ilk bor XVIII asr boshlarida yevropalik faylasuflar asarlarida ko'zga tashlanadi. O'sha davrda bu tushuncha fuqarolar o'rtasida vujudga keladigan va ijtimoiy zararli bo'lgan ijtimoiy mojarolarni qoidalar vositasida bartaraf etish maqsadida shakllangan siyosiy birlashma sifatida tushunilgan. Qadimda bu konsepsiya fozil jamiyat tushunchasiga mos ravishda, davlatdan ajralmagan holda talqin etilgan. Aflotunga ko'ra davlat adolatli jamiyat qurishni o'z oldiga maqsad qilishi, odamlar esa jamiyat manfaatlari yo'lida, oqillik, jasurlik, bosiqlik hamda



adolat bilan, o'zlariga topshirilgan vazifalarni puxtalik bilan bajarishlari kerak. Jamiyat haqida qayg'urish "dono hukmdor"ning vazifasi sifatida belgilangan[11. –B. 6] deb takidlab o'tgan.

Ijtimoiy soha jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi munosabatlar tizimidir. Bu soha oiladan tortib ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va axborot tizimlarigacha bo'lgan barcha institutlarni o'z ichiga oladi. Falsafiy tahlilga ko'ra, ijtimoiy soha — bu inson shaxsiyatining jamiyat bilan o'zaro munosabati, jamiyatda o'z o'rnini topishi va jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini anglatadi. Shaxs va jamiyatning o'zaro bog'liqligi doimiy harakatda bo'lib, bu harakat ijtimoiy taraqqiyotga olib keladi[12. –B. 293].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining samarasini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o'zini o'zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e'tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda.

Shuningdek, mahallalar mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol qatnashmoqda. Yangi O'zbekistonning yangi bir islohoti amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz hududida mahalla asrlar osha takomillashib, sayqallashib obod maskanlardan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bugungi O'zbekiston. 2022 yil 22 fevral. № 3 (3) –B. 1.
2. Yangi O'zbekiston. № 99 (621), 2022 yil 19 may, –B. 1.
3. Istiqbol yo'li. 2022 yil 28 yanvar № 4 (8401). –B. 1.
4. Раҳмонов Р. Истиқлол ва Маҳалла. -Т.: Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. 2001, №1.- Б. 4-6.
5. Modern education and development. A.Ochilov. Jamiyatning falsafiy tahlili va uning hayotiy sohalari. 2025-yil 4-may. – B. 294-295. <https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/92290>
6. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz May 2025 / Volume 6 Issue 5. File:///C:/Users/admin/Downloads/7718-Article%20Text-14427-1-10-20250525.pdf.
7. Marifovich T. M. historical-conceptual analysis of equality and social justice in islamic teaching //Frontline Social Sciences and History Journal. – 2023. – Т. 3. – №. 07. – С. 26-33.
8. Teshaboev M. M. Prospects for improving the quality of education and Education without corruption in the new uzbekistan //research focus. – 2023. – т. 2. – №. 1. – С. 534-541.
9. Тешабоев М. М. Ижтимоий адолат ва ижтимоий тенглик тушунчаси ҳақида турлича фикрлар //academic research in educational sciences. – 2023. – т. 5. – №. Nuun conference 2. –С. 668-676.
10. Евстратов А.Э. Теория и практика формирования социального государства [Текст] : учебное пособие / А. Э. Евстратов ; Министерство образования и науки Российской Федерации, Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования Омский государственный университет имени Ф. М. Достоевского. - Омск : Изд-во Омского гос. ун-та им. Ф. М. Достоевского, 2018. –С. 103 .
11. Edwards, Michael. Civil Society. Cambridge, England: Polity Press, 2004. -P. 6.
12. Modern education and development. A.Ochilov. Jamiyatning falsafiy tahlili va uning hayotiy sohalari. 2025-yil 4-may. – B. 293. <https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/92290>



Beshimov Xamidjon Sayidovich

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining
Buxoro viloyat Kengashi raisi o'rinbosari, Buxoro, O'zbekiston.

MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH VA INSON QADRINI OSHIRISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda yashayotgan 130 dan ortiq turli millat va elatlar vakillarining huquqiy madaniyatini oshirish, kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish orqali millatlararo totuvlikni ta'minlash, har bir inson qadrini oshirishda kasaba uyushmalarining o'rni va roli to'g'risida Buxoro viloyati kasaba uyushmalarining faoliyati misolida ijtimoiy, falsafiy ahamiyati baholangan.

Kalit so'zlar: Millatlararo totuvlik, kasaba uyushmalari, inson qadri, xalqaro hamkorlik, turizm, huquqiy himoya.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev rahbarligida mamlakatimizda xalqni rozi qilish, har bir insonning qadr-qimmatini yuksaltirish yo'lida olib borilgan tizimli islohotlar natijasida mamlakatimiz dovrug'i Yangi O'zbekiston nomi bilan butun dunyoga taralmoqda.

“O'zbekiston -2030” strategiyasining yuzinchi maqsadi, “Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, ushbu maqsadni amalga oshirish uchun “Yosh kitobxon” tanlovini qo'shimcha ravishda 6 ta tilda o'tkazish, Ta'lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini 2 baravarga oshirish, millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish, Do'stlik jamiyatlari sonini 60 taga yetkazish hamda birodarlashgan shaharlar sonini 2 baravarga oshirish belgilangan.

Yangilanishlar jarayonida mamlakatimizdagi eng yirik jamoat tashkilotlaridan biri bo'lgan kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib kelmoqda. Barcha sohalar kabi “Yangi O'zbekiston”ning “Yangi kasaba uyushmalari” ham shakllandi va islohotlarning faol ishtirokchisi bo'ldi.

“Barcha harakatlarimiz inson qadri uchun” shiori kasaba uyushmalari uchun haqiqiy dasturulamal bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Etnik va madaniy xilma-xillik ham kasaba uyushmalari faoliyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko'zga tashlanadi. Yangi O'zbekistonda turli millat va elat vakillari yashaydi, ularning manfaatlarini uyg'unlashtirish, mehnat munosabatlarida tenglikni ta'minlash kasaba uyushmalari oldidagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu tarzda, Yangi O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini rivojlantirish inson qadrini yuksaltirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning samarali ishlashi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va adolatli mehnat munosabatlarini ta'minlaydi.

Kasaba uyushmalari inson qadrini yuksaltirish jarayonida ijtimoiy sheriklik institutini kuchaytirish orqali ham katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy sheriklik — bu davlat, ish beruvchi va xodimlar manfaatlarini uyg'unlashtirish, o'zaro kelishuv asosida qarorlar qabul qilish tizimi hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda ijtimoiy sheriklik tamoyillari qonunchilikda mustahkamlanib, amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Yangi O'zbekistonda kasaba uyushmalari faoliyatini rivojlantirishda inson qadrini yuksaltirishning ijtimoiy-psixologik jihatlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki xodimning ish unumdorligi, ijtimoiy faolligi va ma'naviy barqarorligi ko'p jihatdan uning ish joyidagi psixologik



muhitga bog'liq. Kasaba uyushmalari bu borada ishchilar o'rtasida ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash, millatidan qat'iy nazar xodimni himoya qilish, ish beruvchi bilan xodimlar o'rtasida ishonchli munosabatlarni yo'lga qo'yish, mehnat jamoalarida ijobiy psixologik muhit yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur.

Inson qadrini yuksaltirishda mehnat jamoalarida tenglik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik masalasi ham alohida ahamiyatga ega. Yangi O'zbekistonda demokratik qadriyatlar qaror topayotgani sababli, kasaba uyushmalari ishchi va xizmatchilarning irqi, millati, tili, jinsi yoki e'tiqodidan qat'i nazar, barcha uchun teng huquqli mehnat sharoitlari ta'minlanishiga e'tibor qaratishi kerak. Bu esa inson qadrini yuksaltirishning universal tamoyili sifatida xizmat qiladi.

Kasaba uyushmalari faoliyatini samarali tashkil etishda ularning huquqiy bilimlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Chunki inson qadrini himoya qilish jarayonida qonunchilik me'yorlaridan to'g'ri foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois kasaba uyushmalari rahbarlari va faollari uchun huquqshunoslar ishtirokida muntazam seminarlar, o'quv kurslari o'tkazilishi talab etiladi. Bu orqali ular mehnat huquqlari, ijtimoiy kafolatlar va xalqaro standartlar borasida bilim va ko'nikmalarini oshirishlari mumkin.

Kasaba uyushmalarining tashkiliy tuzilmasini modernizatsiya qilish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi zamon talablari shundayki, klassik shakldagi uyushmalar yetarli samara bermasligi mumkin. Shuning uchun ham kasaba uyushmalari zamonaviy menejment usullarini joriy etishi, raqamli texnologiyalardan foydalanishi, onlayn platformalar orqali o'z a'zolari bilan samarali muloqot qilishi talab etiladi. Bu esa inson qadrini himoya qilishda zamonaviy, tezkor va samarali mexanizmlarni ishga solish imkonini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. deb ta'kidlangan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 19-moddasida esa, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar, deb belgilangan.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoev 2016-yil 4-dekabrda bo'lib o'tgan Prezidentlik saylovlaridan keyin Oliy Majlis Palatalarida so'zlagan nutqlarida millatlararo totuvlik masalasiga to'xtaldilar.

"Mamlakatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar totuvligi, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini ko'z qorachig'idek saqlash hamda mustahkamlashni o'zimning ustuvor vazifam, deb hisoblayman. Ma'lumki, yurtimizda vijdon va e'tiqod erkinligi, turli millat vakillarining huquqlari keng kafolatlanib, diniy bag'rikenglik muhiti mustahkamlanmoqda. Hozirgi vaqtda diyorimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari o'zaro hamjihat yashamoqda, 16 ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Jamiyatimizda hukm surayotgan o'zaro do'stlik va hamjihatlikni yanada rivojlantirish, qaysi millat, din va e'tiqodga mansubligidan qat'iy nazar, barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni ta'minlash e'tiborimiz markazida bo'ladi. Ularning o'rtasiga nifoq soladigan ekstremistik va radikal g'oyalarni tarqatishga O'zbekistonda mutlaqo yo'l qo'yilmaydi."

Keyingi 5 yilda kasaba uyushmalari faoliyatida turli davlatlarning milliy kasaba uyushmalari bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, millatlar o'rtasida totuvlikni, yaxshi qo'shnichilik, turizm, madaniyat, sportni rivojlantirishda hamkorlik qilish, kasaba uyushmalarining faoliyatida o'zaro tajriba almashinuviga katta e'tibor qaratildi.

Jumladan 2021-yil 10-noyabrda Toshkent shahrida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tashabbusi bilan O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi, Qozog'iston



Respublikasi kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Tojikiston mustaqil kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari Kengashi ta'sis etildi.

O'zbekiston kasaba uyushmalarining Federatsiyasining tashabbusi bilan 2023-yil 22-sentabrda Samarqand shahrida Qozog'iston, Ozarbayjon, Turkiya va O'zbekiston kasaba uyushmalari ishtirokida Turkiy davlatlar kasaba uyushmasi tashkiloti tashkil etildi 2023-yil noyabr oyida Turkiyaning Anqara shahrida o'tkazilgan Tashkilotning 1-Kongressi bo'lib o'tdi.

Xalqaro kasaba uyushmalari Konfederatsiyasining 2024-yil 3-5-dekabrda Braziliya shahrida bo'lib o'tgan Bosh kengashining 35-majlisida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining ushbu Konfederatsiyaga to'laqonli a'zolikka qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnatkashlar faoliyati bo'yicha Byurosi (AKTRAV) o'rtasidagi imzolangan har yili qo'shma tadbirlar rejasi asosida muvofiqlashtirib borilmoqda.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikda 2021-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha mamlakat dasturi amaliyotga tatbiq etilmoqda.

20 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, boshqa davlatlar kasaba uyushmalarining Buxoro viloyatiga tashrifi davomida kasaba uyushmalari faoliyati bo'yicha tajriba almashinildi.

Buxoro viloyatida kasaba uyushmalari tashkilotlarining xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatida ham samarali natijalarga erishildi.

O'tgan besh yilda Rossiya, Qozog'iston, Mo'g'uliston, Tojikiston, Ozarbayjon, Eron, Misr, Bahrayn davlatlari va Xalqaro ta'lim kasaba uyushmalari Yevropa qo'mitasi vakillari qabul qilinib, qator tadbirlar amalga oshirildi.

2024-yilda Rossiyaning Tatariston, Boshqirdiston Respublikalari, Belarus, Turkiya, Ozarbayjon, Gruziya, Qozog'iston, Tojikiston kabi davlatlarning tarmoq kasaba uyushmalari vakillari qabul qilinib, o'zaro tajriba almashinildi.

2023-yil avgust oyida O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan hamkorlik doirasida kelgan Eron kasaba uyushmalari Konfederatsiyasi delegatsiyasi viloyatda munosib kutib olinib, kasaba uyushmalarining kelajakdagi hamkorligi yuzasidan o'zaro fikr almashindi.

2024-yil aprel oyida "Turk metall" kasaba uyushmasi va Jamoat xizmati Internatsionali Yevropa Federatsiyasi (YeFPOO) yoshlar kengashi, may oyida "Boshqirdiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi" Respublika ittifoqi, iyul oyida "Tojikmetall" kasaba uyushmasi, oktabr oyida "Qozoqmetall" tarmoq kasaba uyushmasi delegatsiya a'zolari qabul qilinib, kasaba uyushmalari tashkilotlarining o'zaro hamkorligi natijasida turli millat vakillarining o'zaro totuvligi, mehnat munosabatlarida o'zaro tenglik prinsiplariga amal qilinishi yuzasidan tajriba almashindi.

Shu bilan birga, Buxoro viloyati kasaba uyushma faollari ham hamkorlik dasturlari asosida bir qator davlatlarda bo'lib qaytdilar.

2025-yilning 24-28-fevral kunlari Litva kasaba uyushmasi "Solidarumas" hamda Xalqaro mehnat tashkilotining Mehnatkashlar byurosi (XMT AKTRAV) bilan birgalikda Riga va Vilnyus shaharlarida tashkil etilgan "Litvada migratsiya tizimidagi o'zgarishlar, jumladan O'zbekistondan yuk mashinalarini haydash va boshqa yo'nalishda ishlash istagida kelgan mehnat migrantlarining roli" mavzusidagi seminarlarda, 28-30 aprel kunlari Turkmaniston Betarafligining 30 yilligi hamda Turkmaniston kasaba uyushmalari Milliy markazi tashkil etilganligining 30 yilligi munosabati bilan tashkil etilayotgan "Markaziy Osiyo mamlakatlari kasaba uyushmalari markazlari raislarining uchrashuvi"da O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining delegatsiyasi tarkibida kasaba uyushmalari a'zolari o'rtasida milliy totuvlik, o'zaro hurmat asosida tajriba almashinuv, turizm, sport, madaniyat sohalarini rivojlantirishda hamkorlikni rivojlantirish masalalarida faol ishtirok etildi.



Kasaba uyushmalarining xalqaro darajadagi aloqalari yanada oshirilsa, ko'p sohalarimiz uchun foydadan xoli bo'lmaydi. Masalan, turizmni rivojlantirish, kasaba uyushmalarida sun'iy intellekt, zamonaviy o'qitish tizimlarini qo'llashda yaxshi tajribalarni o'rganish mumkin.

2025-yil 17-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning O'zbekiston kasaba uyushmalari faollari bilan o'tkazgan uchrashuvida, ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiyning "Biz o'z hayotimizni o'zgartirmoqchi bo'lsak, avvalo, odamlarning haq-huquqini tan olishni o'rganishimiz kerak", degan iboralarini eslaganliklari kasaba uyushmalarining kelgusidagi vazifalari uchun katta turtki bo'ldi. "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani amalga oshirib, odamlarning, turli millat vakillarining emin-erkin yashab, mehnat qilib, daromad topadigan mamlakatda davlat, jamiyatni barpo etish g'oyasi, bizni keyingi besh yilda katta marralar uchun dadil qadam bosishimiz lozimligini belgilab berdi. Uchrashuvda Yurtboshimiz tomonidan uyushmagan aholi qatlamlari bilan ishlash, ayniqsa mahallalarda yashayotgan turli millat vakillarining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy manfaatlarini himoya qilish uchun mahallalarda boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotini tuzish g'oyasini ilgari surdilar. Ya'ni bugungi kunda 6 millionga yaqin turli millatlarga mansub bo'lgan aholi o'zini o'zi band qilgan. IT dasturchi, veb-dizayner, hunarmand, taksi haydovchisi, kurer kabi o'nlab kasblarda, ayniqsa, xotin-qizlar masofadan turib mehnat qilyapti. Ko'p yoshlarimiz yakka tartibda xususiy sektorda band. Ularning huquqiy himoyasini ta'minlash uchun mahallalarda boshlang'ich kasaba uyushmasini tuzish masalasini ma'qullayman.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatda millatidan qat'iy nazar har bir fuqaroning manfaatlarini himoya qilish, huquqiy savodxonligini oshirish, qonunchilik ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, pirovard natijada inson qadrini qaror topshirish fuqarolik jamiyati institutlarining asosiy maqsadi hisoblanadi. Qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun har bir korxona, tashkilotda kasaba uyushmasi boshlang'ich tashkilotini tuzish, norasmiy sektorda band bo'lgan xodimlarni rasmiy sektorga o'tkazish, ularning huquqiy savodxonligini oshirish jamiyatdagi ko'pgina muammolarning hal bo'lishiga olib keladi. Inson qadrini yuksaltirish, millatlar o'rtasida totuvlikni yanada mustahkamlash, yagona maqsad atrofida birlashtirish orqali fuqarolik jamiyati institutlarining o'rnini mustahkamlash mumkin. Bu borada kasaba uyushmalari o'ziga xos tajriba maktabi bo'lib, bunday tajribalarni har bir sohada qo'llash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil 30-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmoniga 1-ilova 37-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning "Yangi O'zbekiston" kitobi, 2021-yil, Toshkent.
4. Shavkat Mirziyoev, "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" risolasi. 2016-yil, Toshkent.
5. Q.Rafikovning "Vatan va millat qayg'usi" kitobi 2020-yil, Toshkent.
6. Q.Rafikovning "Mening prezidentim" kitobi 2023-yil, Toshkent
7. O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 6-dekabr.
8. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025-yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
9. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025-yillardagi faoliyati bo'yicha ma'lumotlar.

**Akmal Gadaymurodovich Abdullayev**

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar

Universiteti dotsenti, Sotsiologiya fanlari doktori (DSc)

Email: agabdullayev94@gmail.com

IBN SINONING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIGA DOIR SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLARI

Annotatsiya. Maqolada Sharqning buyuk mutafakkirlari Abu Ali Ibn Sinoning davlat va jamiyat qurish borasidagi sotsiologik ta'limotlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Ibn Sinoning Avitsenizm falsafiy maktabining G'arb renessansini vujudga kelishiga metodologik ta'sir ko'rsatganligi yoritiladi

Kalit so'zlar: Ibn Sino, «Donishnoma», «Kitob ash shifo», «Kitob an najot» “Yo‘nalish va ko‘rsatmalar kitobi” Sharq mutafakkirlari, G'arb sivilizatsion jarayonlari, ilm va fan taraqqiyoti, Avitsenizm, jamiyat va davlat boshqaruvi, jamiyat, inson xulq atvori, sivilizatsiya, sivilizatsion jarayonlar.

G'arbiy Yevropaning uyg'onish davridagi olimlariga “Avitsenna” nomi bilan ma'lum bo'lgan Sharq Mutafakkiri Abu Ali Ibn Sino edi (980-1037). Ibn Sinoning davlat va jamiyat boshqaruviga doir sotsiologik qarashlari va ilmiy asarlari asosan arab tilida ba'zilar fors tilida yozilgan. Uning asarlari ijtimoiy-siyosiy fanlardan tashqari, kimyo, geologiya, grammatika, poetika, tarix, Qur'on tafsiri va tasavvufni ham qamrab olgan. Uning falsafiy qarashlarini shakllanishiga Ibn Sino Aristoteldan keyin o'zining ikkinchi ustoz deb atagan Al-Forobiy asarlari, shuningdek, u g'oyalari bilan asosan “Aristotel ilohiyotshunosligi” orqali tanish bo'lgan neoplatonizm ta'sirida bo'lgan. Ibn Sinoning asosiy ijtimoiy, siyosiy va falsafiy asarlari to'rt bo'limdan iborat bo'lib, unda mantiq, fizika, matematika va metafizikaga doir qarashlari bayon etilib, «Donishnoma», «Kitob ash shifo», «Kitob an najot» “Yo‘nalish va ko‘rsatmalar kitobi” deb nomlangan. Ibn Sinoning shoh asari “Tib qonunlari” asari Sharq va Yevropada tibbiyot fani rivoji uchun asosiy manba hisoblangan.

Ibn Sino “Tib qonunlari” kitobini yozgach, ko'p o'tmay nafaqat musulmon olamida, balki Yevropa ilmiy hamjamiyatlarida ham keng e'tirofga sazovor bo'ldi. Ko'p asrlar davomida davom etgan mashhurligi tufayli Tib qonunlari tibbiyot fanining rivojlanishida, amaliyotchi shifokorlarni tayyorlashda va tibbiy adabiyotlarni yaratishda juda muhim rol o'ynagan. Ko'pgina olimlar tibbiyot fanini rivojlantirishga intilib, “Tib qonunlari”ni mahalliy tillarga tarjima qildilar, uni tibbiyot amaliyotida qo'lladilar va o'quv qo'llanma sifatida moslashtirdilar, shuningdek, o'z tadqiqotlarida unga murojaat qildilar. Bu holat Yevropada XVII asr oxirigacha turli darajada davom etdi.

Abu Ali ibn Sino Forobiyning davlat va jamiyat haqidagi qarashlarni davomchisi sifatida o'zining ham ijtimoiy-siyosiy qarashlarini «Kitob ash-shifo», «Donishnoma» va “An Najot” asarlarida keltirib o'tgan. Ibn Sinoning ijtimoiy qarashlari diqqat markazida jamiyatdagi kishilarning axloqi, uy xo'jaligi, shahar siyosatiga qaratilgan bo'lgan. Shuningdek, Ibn Sino ijtimoiy jarayonlarni tizimlashtirishda sifat o'zgarishlarini kiritib, birinchi navbatda shaharlardagi voqealarni, keyin uy xo'jaligi va axloq fanidagi voqealarni tahlil qilgan.

Ibn Sino aynan shahar siyosatini «Donishnoma» asarida tahlil qilishining sababi u jamiyatni sifat jihatidan yaxshilash va shaharlarni tartibga keltirish haqiqiy ma'rifatli jamiyat barpo qilish imkonini beradi degan g'oyani ilgari surgan. Bu masala bo'yicha Ibn Sino quyidagi fikrni bildirgan: «Shaharlarni isloh qilish uchun avvalo jamiyatda adolatni qat'iy o'rnatish zarur. Hukmdor shaharlarni johil va nopok insonlardan tozalash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shunda shaharlar o'z-o'zidan



nopok va adolatsiz odamlar shahri va ma'rifatli odamlar shahriga ajratiladi. Odamlar ikkala shaharni ham o'zlari ko'rmaganlaricha axloqlarini tuzatmaydilar. Shahar aholisi shaharlar rivojlanishining sabablari va shartlarini, shuningdek, davlatning rivojlanishiga yoki barbod bo'lishiga qanday omillar yordam ta'sir ko'rsatishini bilishlari lozim» [1; 314]. Shuningdek, u odamlarning shariat huquqlari, axloqning me'yoriy hududlari va hukmlariga har bir kishi uchun, dunyo ahli o'rtasida ma'lum bo'lib, haqiqiy payg'ambar bilan yolg'onchi shayton yo'liga kirgan odamlar o'rtasidagi farqlarni atroflicha keltirib o'tgan.

Ibn Sinoning sotsial stratifikatsiyaga doir qarashlarini tahlil qiladigan bo'lsak, mutafakkir barcha jamiyatlarda odamlar o'rtasida tabiiy tengsizlik doim bo'lishi lozim deb hisoblagan. Olim bu fikrni shunday oqilona yo'l bilan tushuntiradiki, agar hamma odamlar boy bo'lsa, odamlar o'rtasida kim o'zarlik ro'y berib, jamiyatda hasad va bir-birini ko'rolmaslik illati ko'payib oxir oqibat butun bir jamiyat vayron bo'ladi, agar jamiyatning barcha a'zolari kambag'al odamlar bo'lsa, ular to'yib ovqatlanmaslik va hayotning boshqa qiyinchiliklariga dosh berolmasdan nobud bo'ladilar, oqibatda jamiyat barbod bo'ladi deydi. Ammo har bir inson o'z ijtimoiy maqomidan mamnun bo'lishi kerak, boylar o'z boyliklarini ko'plab jismoniy ishlarni qilishga ularning idroki yetishmasligi uchun o'z boyliklarini xos odamlarga bajartirish uchun asrashlari kerak. Kambag'allar esa boylarga nisbatan o'z maqomlarini qoniqarli deb hisoblashlari kerak. O'z hunari orqali bir parcha non topgan hunarmand haddan tashqari kuchga ega bo'lgan hukmdorga ham, behisob boylikka ega bo'lgan boy odamga ham hasad qilmasligi kerak deydi [2; 328].

Demak, Ibn Sino qarashlaridan ko'rinib turibdiki, u odamlarni tengsiz deb hisoblaydi, chunki bu odamlarning o'ziga xos tabiatidan kelib chiqadi. Odamlar o'z tabiatiga ko'ra hech qachon teng bo'la olmaydi, lekin odamlarning bu tengsizligi nisbiydir va davrlar o'tishi bilan jamiyatning ijtimoiy strukturasida turli joylarni egallab o'z ijtimoiy maqomlarni o'zgartirib turadilar. Har bir inson o'z ijtimoiy holatidan mamnun bo'lishi kerak, kambag'al odamlar o'zining ilmi va aql-zakovati bilan, boylar esa o'z boyligi bilan. Darhaqiqat, jahonda davlatlar yuqori rivojlanish darajasiga yetganida ham hech bir jamiyatda odamlar uchun tabiiy va iqtisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari teng bo'lmaydi. Agar odamlar ba'zi sohalarida teng bo'lsa, unda ular boshqa sohalarida tengsizdir. Tengsizlik jamiyatning asosiy belgilaridan biri bo'lib qolaveradi. Bu tengsiz o'z navbatida, jamiyatdagi insonlarni ijtimoiy maqom, ijtimoiy tabaqa, ijtimoiy qatlam va ijtimoiy sinflarga ajratish uchun asosiy mezon bo'lib qoladi.

Ibn Sinoning davlat haqidagi qarashlarida davlat rahbarining rollari alohida o'rin tutadi. U ushbu ijtimoiy hodisaning zarurligini qonun ijodkorligi va qonun ijrosini ta'minlashda yaqqol ko'rinadi. Davlat qonunlari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun juda muhimdir. Chunki hamma hukmdor ham mamlakatda qonun va adolatni o'rnatmaydi. Buning uchun hukmdorlar o'z qonunlarini shariat qonunlari bilan sheriklik qilishi darkor. Agar davlat qonunlari shariat qonunlarini inobatga olsa shariat davlat qonunlarini himoya qiladi. Shariat qonunlari va hukmdor qonunlarini himoya qilishda ikkita qonundan kelib chiqadigan ikkita farmonni bajarish bir kishining zimmasida bo'lmasligi kerak deb hisoblaydi [3; 235].

Ibn Sinoning qarashlar tizimini quyidagicha ta'riflash mumkin: odamlarning birgalikda yashashga bo'lgan ehtiyoji va ehtiyojlarni birgalikda qondirish odamlarni birlashtiradi. Odamlarni birlashtirish va jamiyatni tizimlashtirish ular o'rtasidagi hamkorlikka bog'liq. Jamiyatni tizimlashtirish uchun shaharlarni ikkiga, ya'ni Forobiy ta'kidlaganidek, fozila va johil shaharlarga ajratish, davlat qonunlarni shariat qonunlari bilan mutanosib ravishda qabul qilish, jamiyatda adolat tamoyillarini qat'iy o'rnatish, ijtimoiy strukturada odamlar faqat ilm va ma'rifatga erishib egallashi, sotsial stratifikatsiyadagi ijtimoiy maqom egalari o'z maqomlaridan mamnun bo'lishlari lozim, jamiyatda odamlarga adolatni ta'minlab beradigan qonunlarga bo'lgan ehtiyoj qondirilishi lozim. Ibn



Sino o'z davrida davlat vaziri bo'lib ishlagan vaqtlarida bu islohotlarni toki G'aznaviyalar kelib bosib olgunicha Buxoroda joriy qilishga intilgan davlat arbobi bo'lgan.

Ibn Sino ham siyosiy bilimlarning ma'nosini "fozil" va "johil" shaharlarda hokimiyat, yetakchilikni amalga oshirish va ishlarni tashkil etish usullarini o'rganishda, ularning yuksalishi va qulashi sabablarini bilishda aynan mana shunday yondashuvni qo'llab-quvvatlagan. Professor M.Bekmurodov Ibn Sino asarlarini chuqur tahlil qilib, quyidagi fikrlarni bildirgan. Jumladan, «Ulug' mutafakkir Abu Ali Ibn Sinoning sotsiologik qarashlari ham o'zining ilmiy teranligi, voqelikka hushyor baho berish xususiyati bilan ajralib turadi. Ibn Sino olamning barqaror amal qilishi jamiyat va tabiatning sinergetik, ya'ni o'z-o'zini idora qilish, mustaqil boshqarish xususiyatining ishga tushishi va harakatlanishi bilan izohlanadi, deb izohlaydi. Konservativ teologiya nazariyasida mavjud bo'lgan hamma narsalarning yuz berishida taqdiri azalning roli, ilohiy hukmning mutlaqlashuvi g'oyasiga qarshi chiqib, Ibn Sino dunyo kamoloti uchun jamiyat a'zolarining erkin faoliyatiga ham katta ehtiyoj borligini asoslab beradi. Ibn Sino Ollohning aqldan tashqari faoliyatlarga ham qobilligi g'oyasiga qarshi chiqib, Olloh faoliyati aqldan tashqari bo'lishi mumkin emasligi, yaratilgan narsalarning barchasi ratsional ekanligi va insoniy aql tomonidan idrok eta olinishini ham asoslab beradi. Ibn Sino dunyoning abadiyligi har bir yuz beruvchi narsaning yaratilishi mumkinligi bilan izohlanishini, dunyoda g'ayritabiiy narsalarning yo'qligini ta'kidlaydi. Bu fikr bo'lajak sotsiologlarni jamiyat hodisalarini o'rganishda faqat isbot etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy guruhlar muammolarini tadqiq etish maqsadga muvofiqligi g'oyasi bilan ham qurollantiriladi»[4; 18].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'rta asrlar G'arbiy Yevropasida Foma Akvinskiy, Rojer Bekon, Ramon Lulliy, Dante Aligeri, Marsiliy Paduan va Benedikt Spinoza kabi faylasuflar tomonidan ishlab chiqilgan davlat boshqaruviga oid konsepsiyalarni shakllanishiga Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino, Ibn Rushd, Al Farg'oniy va Ibn Arablarning ta'limotlari ta'sir ko'rsatganligini o'rta asrlardagi G'arb faylasuflarining asarlarida Sharq mutafakkirlarining ismlari tilga olinganligi va o'zlarining qarashlari hamda yondashuvlarini aynan Sharq mutafakkirlarining ta'limotlari bilan asoslantirganliklari tasdiqlaydi. O'rta asrlarda Sharq mutafakkirlari tomonidan G'arbiy Yevropaga Ximiya (alximiya), matematika, algebra, astronomiya, geofizika, musiqa, badiiy she'riyatning zajal uslubini, falsafa, mantiq, huquqshunoslik, kartografiya, geografiya, tarixnavislik, pedagogika, manbashunoslik kabi ko'plab fanlarni kiritgan. Shu bilan birga G'arbiy Yevropa falsafasiga Ibn Sinoning «Avitsenizm» va Ibn Ro'shdning «Averoizm» falsafa maktablarini tashkil etgan. «Avitsenizm» va «Averoizm» ta'limotlari G'arbiy Yevropada shakllangan barcha davlatlardagi davlat boshqaruvi tizimiga demokratik ruhni kiritishga katta turtki bo'lgan. Shu sababdan G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasi Sharqdan qarzidor ekanligini ta'kidlash mumkin.

Adabiyotlar.

1. Ибн Сино. Дониш-намэ. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. Душанбе. Ирфон, 1980. – С.314.
2. Ибн Сино. Дониш-намэ. – Абу Али ибн Сино. Избранные произведения. Т.1. Душанбе. Ирфон, 1980. – С.328.
3. Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. Душанбе. Дониш. 1985. – С.235.
4. Бекмuroдов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2020. – Б.18.



Ravshanov Abbosjon Axmat O'g'li
Samarqand shahar 2-son sport maktabi

“JISMONIY TARBIYA KADRLARINING KASBIY VA MILLIY-GUMANITAR SALOHIYATINI OSHIRISH”

Annotatsiya. Jismoniy tarbiyaning sifatini tubdan o'zgartiruvchi yana bir asosiy vazifasi - ta'limni shaxsning jismoniy, axloqiy va aqliy rivojlanishining haqiqiy mexanizmiga aylantirish funksiyasidir. Ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida shaxsning rolini kuchaytirish jismoniy tarbiya tizimini jamiyatning sog'lom inson salohiyatining asosiy manbai sifatida tubdan o'zgartirishning o'ta muhim vazifasidir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori pedagogik va ilmiy-tadqiqot madaniyatiga ega, keng ma'noda kasbiy ijodkorlikka qodir mutaxassislar talab etiladi.

Kalit soʻzlar: kontseptual-nazariy, konstruktiv-texnologik, loyihalash, gumanitar, model, intellektuallik, kognitivlik, kreativlik, kommunikativlik.

Аннотация. Другой основной задачей, принципиально меняющей качество физического воспитания, является функция превращения воспитания в реальный механизм физического, нравственного и психического развития человека [1,3]. Усиление роли личности во всех сферах общественного развития является важнейшей задачей коренного изменения системы физического воспитания как основного источника здорового человеческого потенциала общества. Для выполнения этих задач в области физического воспитания и спорта требуются специалисты с высокой педагогической и научно-исследовательской культурой, способные к профессиональному творчеству в широком смысле. [2,5].

Ключевые слова: концептуально-теоретический, конструктивно технологический, дизайнерский, гуманитарный, модельный, интеллектуальность, познавательный, творческий, коммуникативный.

Abstract. Another main task that fundamentally changes the quality of physical education is the function of turning education into a real mechanism of physical, moral and mental development of a person[1,3]. Strengthening the role of the individual in all areas of social development is a very important task of fundamentally changing the physical education system as the main source of healthy human potential of the society. To carry out these tasks, specialists with a high pedagogical and scientific-research culture, who are capable of professional creativity in the broad sense, are required in the field of physical education and sports. [2,5].

Key words: conceptual-theoretical, constructive-technological, design, humanitarian, model, intellectuality, cognitive, creativity, communicative.

Tadqiqotning dolzarbligi. Oliy ta'limdagi sifat o'zgarishlari oliy ta'lim tizimining maqsadlarini yuqori kasbiy mahorat bilan keng umumiy gumanitar dunyoqarashni uyg'unlashtirgan mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirishda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida integratsion jarayonlarning ustunligi yuzaga keladi, unda gumanitar bilimlar etakchi rollardan biri hisoblanadi.



O'rganilganligi. Mutaxassislar oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida uni modernizatsiya qilish, mazmun-mohiyatini insonparvarlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillari asosida takomillashtirishda ko'rmoqda.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy sotsiotsentrik ta'lim yondashuvidan farqli o'laroq, talabaning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga, kasbiy faoliyatda uning individual xususiyatlarining barcha ko'p qirraliligi va o'ziga xosligini anglashga imkon beradigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda[7,10].

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aslida universitetda jismoniy tarbiyani gumanitarizatsiya qilish printsipini amalga oshirishning ajralmas tavsifini taqdim etadigan, uning mazmunli namoyon bo'lishi va amalga oshirish tartibini ochib beradigan ishlar mavjud emas[6,8,9].

Jismoniy madaniyatdan uning gumanitar salohiyatining xilma-xilligida foydalanish hozirgi kunga qadar mutaxassislarni tayyorlash tizimida to'liq aks ettirilmagan.

Oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotida universitetning ijtimoiy-madaniy makonida gumanitar madaniyat etishmasligini bartaraf etishda jismoniy madaniyatning mazmunli va protsessual imkoniyatlari tushunilmagan va oshkor etilmagan, bu muammoning kontseptual-nazariy, konstruktiv-texnologik va uslubiy-amaliy jihatdan rivojlanmaganligi kuzatilmoqda.

aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda tadqiqot muammosi aniqlandi:

universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishni ta'minlaydigan nazariy va uslubiy qoidalar, etakchi tendentsiyalar, tamoyillar va psixologik-pedagogik sharoitlar to'plami qanday?

aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda tadqiqot muammosi aniqlandi:

universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishni ta'minlaydigan nazariy va uslubiy qoidalar, etakchi tendentsiyalar, tamoyillar va psixologik-pedagogik sharoitlar to'plami qanday?

Tadqiqot maqsadi: universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etish uchun nazariy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish va asoslash.

Tadqiqot ob'ekti: universitetda mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit jarayonida talabalarining jismoniy tarbiyasining mazmuni.

Tadqiqot predmeti: gumanitar fanlar bo'yicha oliy o'quv yurtlarida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning yo'naltirilgan mazmuni.

Muammo, maqsad, ob'ekt va mavzu asosida quyidagi tadqiqot **vazifalari** aniqlanadi:

- Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning yo'naltirilgan mazmuniga oid gumanitar ob'ektlarni loyihalash va tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslarini tashkil etuvchi qoidalar to'plamini asoslash.

- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishning konseptual yondashuvlarini aniqlash;

- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash modelini ishlab chiqish;

- talabalar jismoniy tarbiyasida ta'limni insonparvarlashtirishning yetakchi yo'nalishlari, didaktik tamoyillari va psixologik-pedagogik shartlarini aniqlash;

- o'quvchi shaxsi jismoniy madaniyatini shakllantirish sharoitida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini tajriba-sinov tekshirishni amalga oshirish;

- insonparvarlik yo'nalishidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash shaxs jismoniy madaniyatining mazmunli xususiyatlari bilan jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmuni;



- universitetda jismoniy tarbiya mazmunini insonparvarlashtirish tamoyillari asosida loyihalash va tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot farazi universitetda jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etish jarayoni samarali bo'ladi, agarda:

- uslubiy tamoyil sifatida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish g'oyasiga asoslanadi;

- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishga kontseptual yondashuvni ishlab chiqiladi;

- pedagogik ob'ektlarni tizimli tashkil etish tamoyillariga asoslangan va shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalashning ko'p bosqichli modeli ishlab chiqildi;

Tadqiqot metodlari. Vazifalarni hal qilish va tadqiqot farazsini tekshirish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, universitetlarning jismoniy tarbiya kafedralarining shaxsiyat muammolari bo'yicha tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish. jismoniy tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassisni shakllantirish, talabalar va o'qituvchilaridan so'rovnomma va anketa olish, o'z pedagogik faoliyatini retrospektiv tahlil qilish, modellashtirish, ekspert baholash usuli, gumanitar yo'naltirilgan mazmunning ishlab chiqilgan modelini aprobatsiya qilish va tuzatish bo'yicha pedagogik tajribalar o'tkazildi. Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim, tajriba ishtirokchilarining harakatchanligini nazorat qilish testlari, statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik usullari qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlari dasturining amalga oshirilishi taklif etilayotgan jismoniy madaniyat ta'limining gumanitar-yo'naltirilgan mazmuni modelining samaradorligini tasdiqladi.

Jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunining insonparvarlik ahamiyatini aniqlashda ekspert protsedurasi quyidagilardan iborat edi: talabalar tomonidan o'z-o'zini diagnostika qilish, bu sub'ektivlik printsipligiga va malakali va tajribali universitet o'qituvchilarining ekspert bahosiga mos keladi. Tanlangan mezonlar bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish ko'rsatkichlarini (TMIK) kompleks monitoringi tajriba-sinov va nazorat guruhlarida sezilarli farqlarni qayd etish imkonini berdi (1-rasm q.). Ekspert baholash natijalariga ko'ra, birinchisi barcha sakkizta mezon bo'yicha o'quv manbaalarining insonparvarlik qiymati ko'rsatkichlarini yaxshilashning aniq progressiv xarakterini ko'rsatdi, bu ishlab chiqilgan dasturning samaradorligini ko'rsatadi.

Natijalar tahlili. Tajriba-sinov guruhlarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining qiymat-semantik tashkil etilishining o'sishi TMIK 0,89 (yuqori daraja), nazorat guruhlarida - 0,30 (past daraja) bilan aniqlandi; an'anaviylik mezoniga ko'ra, tajriba-sinov guruhlarida TMIK 0,78 (o'rtachadan yuqori daraja), nazoratda - 0,27 (past daraja); TMIKni amalga oshirish amalga oshirilayotgan ijodiy ta'lim muhiti mezoniga ko'ra, mos ravishda 0,86 (yuqori daraja) va 0,39 (past daraja) ni tashkil etdi; tashqi kontekst mezoniga ko'ra, mos ravishda 0,89 (yuqori daraja) va 0,24 (past daraja); "o'zini o'zi boshqarish" ning namoyon bo'lish mezoniga ko'ra TMIK 0,88 (yuqori daraja) va 0,30 (past daraja) edi.

Agar tajriba boshida solishtirilgan guruhlarida 60,6% dan 80,5% gacha talabalar va ekspertlar "men"ning namoyon bo'lish mezonini "mazmunda ifodalanmagan" deb baholagan bo'lsa, tajriba oxirida talabalarining 74% va o'qituvchilarning 88,9 foizi uning tajriba-sinov mazmundagi ijobiy namoyon bo'lishi haqida o'z fikrlarini o'zgartirdilar. Ayniqsa, o'quvchilarda o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini rivojlantirishga doimiy ehtiyojning namoyon bo'lishidagi progressiv o'zgarishlar sezildi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich deyarli o'zgarishsiz qoldi.

"Jismoniy madaniyat" fanining mazmuni uning gumanitar mohiyatini belgilaydi va talabalarni jismoniy madaniyatning gumanitar qadriyatlari bilan tanishtirishda bir qator umumiy ta'lim va kasbiy



yo'naltirilgan fanlarga kiritadi, ular orasida shaxsning o'zini o'zi o'zgartirish, o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq qadriyatlar mavjud. 1-rasmda jismoniy madaniyatning gumanitar qadriyatlarini pofillash natijasida talabalarning o'zini o'zi o'zgartirish jarayoniga qo'shilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan[7,8,10]. Tajriba-sinov guruh talabalari psixofiziologik qobiliyat va imkoniyatlarni aniqlashda, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega; o'z istagini mukammal o'rganishga intilish ((o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilish qadriyatlari); kognitiv faoliyat, kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirish ,o'z-o'zini o'rganish qobiliyatlari (o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini takomillashtirish qadriyatlari); jismoniy holatni o'z-o'zini boshqarish, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini belgilangan maqsadga muvofiq ravishda tuzatish va qayta tashkil etish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati, psixofiziologik tartibga solish usullarini (o'z-o'zini tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish qadriyatlari) bilish. Talabalarning nazorat guruhlarida esa bu ko'rsatkichlar zaif ifodalangan.

Tadqiqot farazini tasdiqlash uchun muhim masala talabalarning o'zini o'zi o'zgartirish jarayoniga jalb qilishning psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash edi.

1-jadval

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish

No	Mezon asoslari	Asosiy qadriyatlar
1	Qadriyatlar qimmati	1.Insonparvarlik 2.Individuallik 3.Insonparvarlik bilimi
2	Madaniy	1.Intellektuallik 2.Kognitivlik 3. Yaxlitlik
3	Innovatsion	1.Muammoli 2.Kreativlik 3. tanqidiylik
4	Tizimli va izchil faoliyat	1. ma'naviy va jismoniy mohiyatni amaliy o'zgartirish 2.Professionalikka yo`naltirish 3.Faol harakat faoliyati
5	Konventsiyali	1.Variativlilik 2.Bashoratlash 3.Alternativlik
6	Ijodiy bilish muhiti	1.Insonparvarlikning mikrosiyosiy muhiti 2.Kommunikativlik 3.O'qituvchi shaxsining tizimli yaratuvchiik roli
7	Yuqori kontekstlik	1.Universitetdan tashqari kommunikatsiya 2.Bardavomlik 3.Turg'unlik
8	O'z-o'zini namoyon qilish	1.o'z taqdirini o'zi belgilash 2.o'z-o'zini bilish 3.o`z-o`zini o`zgartirish



Tajriba-sinov tadqiqot natijalari ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini o'zlashtirishda tajriba-sinov guruhlarida shaxsning jismoniy madaniyati tarkibiy qismlari (SHJM) rivojlanishining barqarorligini aniqlashga imkon berdi. Ushbu ta'sir diagrammalar tomonidan aniq ko'rsatilgan (3-rasmga q.).

Xulosalar. Jismoniy tarbiya sohasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri uning mazmunini insonparvarlashtirish ekanligi aniqlandi. Uning loyihasi va tashkil etilishi ta'lim amaliyoti talablariga samarali javob beradi. Jismoniy madaniyatning gumanitar ahamiyati mutaxassis shaxsni har tomonlama yetuk rivojlantirishga, talabalarning inson va ularga yo'naltirilgan tizimli bilimlarini shakllantirishga, shaxsning o'zini namoyon qilishi va o'zini anglashi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga, talabalarning o'zlarining muhim kuchlarini sog'lom va samarali hayot tarzida to'liq amalga oshirishga tayyorligini faollashtirishda namoyon bo'ladi.

1. Jismoniy madaniyat ta'limini insonparvarlashtirishning mazmunli jihati murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi: uning mazmunida insonparvarlik qadriyatlarini aniqlash; o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy kuchlari va qobiliyatlarini uyg'unlashtirish; ularni hayotning tabiiy va ijtimoiy sohalarida tashabbuskorlik va mas'uliyatni tarbiyalash; shaxsiy va kasbiy o'sish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini ta'minlash; bo'lajak mutaxassis shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

2. Jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmuni modeli ishlab chiqildi, bu evolyutsion yo'l bilan amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning innovatsion tizimini loyihalash strategiyasini asoslash imkonini beradi; pedagogik loyihani mantiqiy va didaktik loyihalashda amalga oshirish, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etildi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida " PF-5368-son farmoni. 2018 yil 5-mart.
2. 2019-2023 O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 15-fevral.
1. Kholboeva, Gulhayo Kholboevna (2021) "Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes," Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1: Iss. 2, Article 1. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/1>
2. Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojiev X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 **Scopus**. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.
3. Holboeva GH Mechanisms of improving primary gymnastics in increasing the motor activity of preschoolers // Scientific Bulletin of the Samarqand State University 2019, issue 6; 140-144.
4. Xolboyeva G.X. Methods of development of physical qualities in gymnastics for 5-7 years old". // Novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 – 4230 Volume 6, issue 6, june -2020; 743-747.
5. Holboeva G. H. Nazarova D. Mechanisms of increasing the motor activity of children aged 5-6 years on the basis of initial gymnastic exercises. // Scientific theoretical journal "Science to sport". 2020 Year Number 6. ISSN.2181-7804; 72-75.



6. Haydarov B.T., Holboyeva G.H., Theory and methodology of physical education. // Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.

Nasridinov Yigitali Borataliyevich

NamDU, o`qituvchisi

GLOBAL AXBOROT MAKONIDA SEKULYAR MODERNIZATSIYA VA DINIY AN'ANALAR INTEGRATSIYASI

Anotatsiya. Globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylik tendensiyalarining rivojlanishi zamonaviy dunyoning murakkab ijtimoiy, madaniy va siyosiy jarayonlarini tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotda globallashuvning diniy an'analar va sekulyar qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro ta'siri, ularning transformatsiyasi va yangi shakllarining paydo bo'lishi ko'rib chiqiladi. Xalqaro integratsiya, madaniy almashinuv va texnologik taraqqiyot sharoitida diniy identiklikning mustahkamlanishi yoki zaiflashishi, shuningdek, dunyoviy hayot tarzining kengayishi tahlil qilinadi. Tadqiqot globallashuvning ushbu ikki paradigмага qanday ta'sir qilishi, ularning uyg'unligi yoki qarama-qarshiliklarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy jamiyatlarda diniylik va dunyoviylikning kelajakdagi yo'nalishlarini bashorat qilishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar. Globallashuv, diniylik, dunyoviylik, sekulyarizm, diniy identiklik, madaniy almashinuv, xalqaro integratsiya, sekulyar paradigma, diniy an'analar, zamonaviy jamiyat, transformatsiya, texnologik taraqqiyot.

Globallashuv zamonaviy dunyoning eng muhim ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy jarayonlaridan biridir. U davlatlar, xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi chegaralarni yo'qotib, global miqyosda o'zaro ta'sirni kuchaytiradi. Shu bilan birga, globallashuv diniylik va dunyoviylik kabi muhim paradigmalar o'rtasidagi munosabatlarga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqola globallashuv sharoitida diniy an'analar va sekulyar qadriyatlarning rivojlanish tendensiyalarini tahlil qiladi, ularning o'zaro ta'siri, transformatsiyasi va kelajakdagi yo'nalishlarini ko'rib chiqadi.

Globallashuv diniy an'analarga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bir tomondan, global aloqalar va axborot texnologiyalari diniy jamoalarga o'z e'tiqodlarini kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini berdi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalar orqali diniy ta'limotlar global miqyosda tarqalmoqda. Bu, ayniqsa, diasporadagi diniy jamoalar uchun o'z identikliklarini saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.

Boshqa tomondan, globallashuv diniy an'analarga sekulyar qadriyatlarning kirib kelishiga olib kelmoqda. G'arb madaniyatining global ta'siri, shuningdek, urbanizatsiya va modernizatsiya jarayonlari ba'zi jamiyatlarda diniy amaliyotlarning zaiflashishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, yosh avlod orasida diniy marosimlardan ko'ra dunyoviy hayot tarziga intilish tendensiyasi kuchaymoqda.

XX asrning oxirlariga kelib mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga kirgan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O'zbekiston ham "diniy uyg'onish" davrini boshdan kechirdi, jahon tendensiyasi maqomiga erishgan diniy-siyosiy jarayonlar ta'siriga uchradi. Jahonda 1989-yil "Berlin devori" qulashi, ikki Germaniyaning qo'shilishi va "sovuq urush" davrining yakuni va 2001-yilning 11-sentyabirda AQSHda yuz bergan terroristik harakat ta'sirida "dinning "siyosiy subyekt"lik mavqei bilan bog'lash va ifodalash mumkin"[1]. Markaziy Osiyo, xususan, mustaqil O'zbekiston sharoitida esa dinning siyosiy jarayonlarning muhim subyektiga aylanishi "desekulyarizatsiya", ya'ni uni



jamiyat hayotidagi o'zni va rolini ortib borishi milliy mustaqillik va u bilan bog'liq bo'lgan milliy ozodlik, qadriyatlarni tiklash va milliy o'zlikni anglash tendensiyasining shakllanishi bilan bog'liq.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy mustaqillikni barcha sohalarida saqlash, mustahkamlash taniqli faylasuf – siyosatshunos olim S.Otamurodov ta'kidlaganidek, mas'uliyatli vazifaga aylanmoqda[2]. Ushbu vazifa Prezident Sh.Mirziyoyev olg'a surgan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini va unda jamiyat oldiga qo'ygan ustuvor vazifalar, ularni bajarish bilan uyg'un.

Globallashuv ba'zi hollarda diniy identiklikning mustahkamlanishiga olib keldi. Global muhitda o'z madaniy va diniy o'ziga xosligini yo'qotishdan xavotirlangan jamoalar o'z an'alariga yanada qattiq yopishib olishmoqda. Bu jarayon ko'pincha "diniy uyg'onish" yoki "diniy fundamentalizm" sifatida talqin qilinadi. Masalan, islomiy mamlakatlarda globallashuvga javoban mahalliy diniy harakatlarning faollashuvi kuzatilmoqda.

Globallashuv beixtiyor O'zbekistonni xalqaro transmilliy jarayonlar domiga tortadi. O'zbekiston taraqqiyoti xalqaro hamjamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlariga uyg'unlashuviz mumkin emas. Buni O'zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan o'zaro strategik hamkorligining tobora kengayishi, hatto qo'shni Afg'oniston "Tolibon" rahbarlari bilan do'stona munosabatlarining birinchilardan bo'lib yo'lga qo'yilishi, o'zaro manfaatdorlik siyosatini olib borayotganligi globallashuv sharoitida milliy o'zbek davlatining strategiyasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'un ekanligi isbotlab turibdi[3.].

Globallashuv va jamiyat hayotining liberallashuvi va demokratlashuvi sharoitida chuqur o'ylangan sekulyar siyosat o'z tatbiqini turli ijtimoiy texnologiyalar vositasida amalga oshirilishini taqozo qiladi. Buni tasavvur qilish uchun "texnologiya" kategoriyasining mazmun-mohiyatini bilish lozim. O'zbek tilida nashr qilingan va ko'zga ko'ringan jamiyatshunos olimlarimiz tomonidan milliy g'oyaning targ'ibot texnologiyalari masalasiga bag'ishlangan jamoaviy kitobda "texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur uslubi"[4], deb baholanadi.

Bugungi eng samarali ko'rinishi – media makonda fuqarolarga ruhiy-ijtimoiy manipulatsion ta'sir texnologiyalaridir. "Mavjud diniy tashkilotlar internet muhitida amalga oshiradigan kasbiy faoliyatning bir qancha shakllari bo'lib, jumladan, diniy ma'lumotlarni onlayn yig'ish, marosim tafsilotlarini onlayn tarzda o'tkazish, missionerlik va dogma targ'iboti... Internetda turli diniy tashkilotlar faoliyatini tahlil qilganimizda, protestant diniy guruhlar, yangi diniy oqimlar va musulmonlar tomonidan ko'rsatilishini ko'ramiz"[5].

Desekulyarizatsiya ushbu hodisalarda moddiylashdi, g'oya natijaga olib keldi, jamiyat junbushga keldi, ijtimoiy barqarorlikka putur yetdi. Ushbu voqealar shuni tasdiqlaydiki, hech qanday bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik jamiyatga farovonlik, yuksak hayot darajasini ma'naviy aososlarsiz bera olmaydi. Ma'naviy nogiron, pachiq, biroq boy-badavlat, faqat pulni, moddiy boylikni qadrllovchi inson – betayin, e'tiqodini ham boylikka almashib yuboradigan ijtimoiy xavfli, aniqrog'i xiyonatkor shaxs. Shuning uchun "din" atamasi, "e'tiqod", "iymon" kategoriyasi bilan nafaqat sinonim, balki uyg'unidir. E'tiqodi, iymoni butun, sog'lom inson iymoniga, e'tiqodiga xiyonat qila olmaydi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", "Alloh qalbizda, yuragimizdadir!" deb bot-bot takrorlashi ham shu bois yuksak donolik ifodasidir. Iymonli odam pora olmaydi, xalqiga, Vatanga, millatga xiyonat qilmaydi.

Desekulyarizatsiya jahon tendensiyasi sifatida XX asrda ma'naviy inqirozga yetakladi, ma'naviyat tanazzulga duchor bo'ldi. Buni ushbu tadqiqot birinchi bobida F.Nisshe, Z.Freyd, E.Fromm, O.Toftler va boshqa G'arb olimlari ta'limotlari misolida yoritgan edik. F.Nisshe "Antixirist" asarini yozdi, dinga, e'tiqodga K.Marks kabi butunlay qarshi ta'limotni yaratdi.



Bugungi G'arb "ommaviy madaniyati" transseksualizm, bir jinsli nikoh va h.k. g'ayriinsoniy hodisalar xudosi, e'tiqodi yo'q, hayvoniy instinktlar quliga aylangan, inson qiyofasidagi, biroq o'z davlatida fuqarolik legitimligiga ega "erkin" kishilar axloqidir. G'arbda o'rta asrlarda yuzaga kelgan, natijada G'arbn Sharqqa nisbatan fan, texnika va texnologiyasi ilgarilab ketishiga olib kelgan sekulyar siyosatning XX asr boshlariga kelib desekulyarizatsiyalashuvi bunday noxush, hatto G'arb ilg'or ziyolilarini ham tashvishga solayotgani bejiz emas. Desekulyarizatsiya – bu liberal demokratiya, inson huquq va erkinliklariga din omilini hisobga olmay legitimlik huquqini berish demakdir. Bu – ma'n'an nosog'lom, bilimsiz kishiga o'qotar qurolni berishga teng adashishdir. Faqat ma'naviyat, burch, vijdon va h.k. tushunchalar inson faoliyatining yuksak ijtimoiylashuvini ta'minlaydi, jamiyatga xavf tahdidini yuzaga chiqarmaydi. O'zbek siyosatshunos olimlaridan X.Axmedov to'g'ri ta'kidlaganidek, ma'naviy hayot dinamikasini, umumiy qonuniyatlarni hisobga olmasdan bugungi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal etish mumkin emas[6].

Desekulyarizatsiya jahon miqyosida din va davlat, dunyoviylik va diniylik nisbatida bugungi global xavflar (global isish, yadro urushi xavfining kuchayishi, pandemiya, notekis rivojlanish, texnogen xavflar va h.k.) kontekstida ma'naviy-axloqiy jihatlarning inqirozi, axloqiy qoida va normalarni inson gedonistik talablarining oshib borishi sharoitida qadrsizlanayotganligini ifodalaydi. Sodda qilib ifodalansa – bugungi liberal demokratiyaning tobora axloqsizlashayotganligini ifoda etadi. Buni dunyoning yetakchi globalistlari, iqtisodchi, tarixchi, faylasuf, sotsiolog olimlari fahmlay boshladilar, global ma'naviy inqirozdan faqat diniy omil qutqarishi mumkinligini ta'kidlamoqdalar. Bu fikrning o'rinli ekanligini konkret misollarda kuzatamiz.

Olimlarning fikriga ko'ra, ratsional ishonch shaxsning faol harakatiga, yaratuvchiligiga tayanadi. Uning negizida turgan g'oya, ta'limot, ideal to'g'ri yoki xato, hayotiy yoki havoyi, xayoliy bo'lishi mumkin. Lekin shaxs unga sidqidildan ixlos bilan intiladi, erishish yo'llarini izlaydi, ijod qiladi. Natijada u o'sha maqsadga yetolmasa xam, ma'lum samaraga erishadi, faoliyati izsiz ketmaydi.

"Resekulyarizatsiya", ya'ni dinga nisbatan davlat munosabatining "yumshashi", mo'tadillashuvi milliy mustaqillikka erishilgan kundan buyon kuzatildi – Konstitutsiyaning 33-moddasi ayni shu jihatga – diniy e'tiqod erkinligiga, dindor fuqarolarning ham boshqa fuqarolar kabi teng huquqligi kafolatini tasdiqlaydi. Muqaddas kitob Kur'oni Karimning "Kaxf" surasi 29-oyatida: "Ayting: "(Bu Kur'on) Rabbingiz (tomoni)dan (kelgan) Xaqiqatdir. Bas, hohlagan kishi imon keltirsin, hohlagan kimsa kofir bo'lsin"[7], deb marxamat qilinadi.

Albatta, desekulyarizatsiya va resekulyarizatsiya ham muayyan siyosiy me'yorlarni taqozo etadi. Jamiyat demokratiyalashuvi shu o'rinda ham ijobiy va ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunga misol – mustaqillikning dastlabki yillarida diniy fundamentalizm va diniy ekstremizmning ijtimoiy hayot sahnasiga qalqib chiqishi, dinning siyosiylashuvi, ya'ni hokimiyatga da'vogarligining kuchayishi, dunyoviy taraqqiyot yo'lini diniy taraqqiyot yo'liga burib yuborishga urinishlar hisoblanadi.

Resekulyarizatsiya umumjahon tendensiyasi O'zbekistonda ham kuzatildi. "Hizb at-tahrir al-islomiy" tashkiloti, akromiylar, vahhobiylar, nurchilar va boshqa diniy siyosiy partiya va oqimlar din erkinligi konstitutsiyaviy huquq nuqtayi nazaridan kafolatlanganidan unumli foydalanishga urindilar, ushbu tendensiyaning yurtimizda ham qaror toptirishga harakat qildilar. Ular ichida eng ashaddiy va g'oyaviy jihatdan yetakchisi "Hiz ut-tahrir", ya'ni "Ozodlik partiyasi"dir. Tadqiqotimiz siyosiy yo'nalishda bo'lganligi sababli ushbu diniy partiya va uning mafkurasi xususida to'xtaymiz.

"Hizb ut-tahrir" partiyasi va uning buzg'unchi faoliyati xususida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy adabiyotida xo'b va ko'p yozilgan. Ayniqsa 1999-yil 16-fevral voqealaridan so'ng ular "bodroq" kabi ko'paydi, o'nlab dissertatsion tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Ushbu diniy partiya



Falastinda Ikkinchi jahon urushidan keyin paydo bo'ldi. Ushbu partiyaning asoschisi Taqiyud-din Nabahoniy (1909-1979) hisoblanadi[8].

Aslida ushbu partiya arab-isroil ziddiyatlari, Sinay yarim orolida Isroil yahudiy davlatining paydo bo'lishi, muqaddas qadamjoy – Quddus maqomi bilan bog'liq. Xalqaro tashkilot – BMTning tuzilishi, 1947-yil 29-noyabrda uning 181-sonli qarori asosida siyosiy xaritada Isroil davlati paydo bo'lishi, bunga qator arab davlatlarining noroziligi sabab bo'ldi.

Partiya o'ziga xos evolyutsiyani boshdan kechirdi – u dastlab arablar yeri uchun kurashdi, so'ng keyingi rahbarlari Abulkarim Zallum, so'ng Ato Abu Rushta kabi yetakchilar ta'sirida nafaqat kichik arab davlati, balki butun yer yuzida o'rta asr qabilidagi diniy xalifalikni yaratish dasturini ishlab chiqdi. Siyosiy partiya asosan siyosiy hokimiyatga erishish uchun tuziladi, maqsadi ham shu – hokimiyatga da'vogarlik. Resekulyarizatsiya dinning ijtimoiy hayotda kuchayishi, mavqening ko'tarilishi bilan bog'liq.

O'zbekistonda "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunga muvofiq diniy dasturdagi siyosiy partiyalar tuzishga ruxsat berilmaydi. Biroq bugungi media makonda resekulyarizatsiya ta'sirida diniy targ'ibot katta o'rin egallamoqda, diniylik va dunyoviylik nisbatida birinchisining aholi, ayniqsa yoshlar qatlami ichida o'sib borishi xavotirlidir[9].

Hizb ut-tahrir oddiy harakat emas. U aniq siyosiy maqsadlarga qaratilgan. Uning asoschilari Nabahoniy va Abulqosim Zullumlarning dunyoviy demokratik taraqqiyotga G'arb mahsuloti deb qarash, "Demokratiya – kufr nizomi", "Xalifalik" kabi asarlarida Konstitutsiya, saylov kabi institutlar qoralanadi, ular "kufr dunyoqarashi va nizomi" deb baholanadi. "Zero, saylov, referendum, ko'pchilikning xal qiluvchi ovozi, ko'ppartiyaviylik, hurfiylik, muholifat, OAV erkinligi, sudning dahl sirligi kabi demokratiyaning asosiy va ajralmas atributlari - islom ta'lim otlariga zid emas.[10]"

Sekulyarizm garchi umuminsoniy, global miqyosda qaror topayotgan prinsip va qadriyat bo'lishiga qaramay, u turli ijtimoiy-madaniy makonlarda demokratiya, inson huquq va erkinliklari kabi turlicha shaklda qaror topmoqda. Bu – tabiiy hol. Zero, demokratiya kabi sekulyarizmning ham universal, barcha uchun birday amal qiladigan modeli, andozasi mavjud emas. Shu o'rinda taniqli davlat arbobi, buyuk tarixiy shaxs, ser Uinston Cherkhillning demokratiya xususida aytgan fikrlarini sekulyarizm uchun ham o'rinli deyish mumkin: "Demokratiya ... o'zi bemaza narsa. Biroq insoniyat undan ustun bo'lgan g'oyani yarata olmadi..."

Dunyoviylik yoki sekulyarizm globallashuvning eng muhim natijalaridan biridir. Sekulyar qadriyatlar, ayniqsa, G'arb jamiyatlarida dominant bo'lib, ular global miqyosda tarqalmoqda. Urbanizatsiya, ilmiy-texnik taraqqiyot va individual erkinliklarga urg'u berish dunyoviy hayot tarzining ommalashishiga yordam bermoqda.

Masalan, Yevropa mamlakatlarida cherkovga tashrif buyurish va diniy marosimlarda ishtirok etish darajasi sezilarli darajada pasaygan. Bu jarayon globallashuvning ta'siri bilan boshqa mintaqalarga ham tarqalmoqda. Biroq, sekulyarizmning kengayishi har bir jamiyatda bir xil shaklda ro'y bermaydi. Ba'zi mamlakatlarda, masalan, diniy an'analar kuchli bo'lgan joylarda, sekulyarizmga qarshilik ham yuqori bo'lmoqda.

Globallashuv sharoitida diniylik va dunyoviylik o'rtasida nafaqat qarama-qarshilik, balki uyg'unlik ham kuzatilmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda diniy e'tiqodlar sekulyar hayot tarziga moslashmoqda. Masalan, ko'plab diniy jamoalar zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etish orqali o'z ta'sirini kengaytirmoqda.

Bundan tashqari, globallashuv natijasida sinkretik diniy shakllar paydo bo'lmoqda. Turli dinlar va madaniyatlarning aralashuvi yangi diniy harakatlar va e'tiqodlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, ko'p madaniyatli jamiyatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda.



Globallashuv diniylik va dunyoviylikning rivojlanishiga murakkab va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu jarayon bir tomondan diniy identiklikni mustahkamlashga yordam bersa, boshqa tomondan sekulyar qadriyatlarning kengayishiga olib kelmoqda. Zamonaviy jamiyatlarda diniylik va dunyoviylik o'rtasidagi muvozanatni topish global muhitda barqaror rivojlanish uchun muhim shartdir. Kelajakda ushbu ikki paradigmaning o'zaro ta'siri yanada chuqurlashib, yangi ijtimoiy va madaniy shakllarni vujudga keltirishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Журавский А.З., Садов О.В., Фетисов А.В. Субъекты миропорядка XXI века // Глобализация и столкновения идентичностей. Материалы международной интернет конференции 24 февраля – 14 марта 2003 г. Под ред. А.Журавкого, К. Костюкова. – М., 2004.
2. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти (сиёсий фалсафий қирралари). – Т."O'zbekiston", НМИУ, 2018. – 352 б.; Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Т.: "Akademiya", 2008. – 230 б.
3. Адылходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. – Т.: ТГЮИ, 2007ю – 130 с.
4. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар лугати. – Т.: "Akademiya", 2007. – Б. 22.
5. Fedorova M. V. Religious identity in the modern digital world. Sotsiodinamika[Sociodynamics], 2020, no. 6, - p 70. <https://doi.org/10.25136/2409-7144.2020.6.33085>
6. Ахмедов Х. Маънавий ҳаёт динамикаси. Монография. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 210 б.
7. Куръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б.331. (767)
8. Зейего Барат. Хизбуттаҳрир. Политическая родина ислама. – Вашингтон:, 2004.
9. Туленов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар . иккинчи нашр. – Т.: "Sharq", 2013. – 336 б.
10. Юсуф Карзовий. Фатави муасира. Т.II. Мансура: Дар ал-вафо, 1994. - Б. 636-651.

Eraliyev Nodirbek Muhammadjon o'g'li

University of Business and Science magistranti

nodirbekeraliyev07@gmail.com

MINTAQAVIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOTDA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY ROLI

Annotatsiya: Markaziy Osiyo mintaqasida yuz berayotgan geosiyosiy o'zgarishlar fonida O'zbekistonning tashqi siyosiy faolligi, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslari hamda diplomatik yondashuvlari mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, geosiyosat, mintaqaviy barqarorlik, tashqi siyosat, mintaqaviy hamkorlik, diplomatik tashabbuslar, strategik manfaatlar, iqtisodiy integratsiya, xavfsizlik, transport-logistika, Buyuk Ipak yo'li merosi, qo'shnichilik siyosati, xalqaro nufuz, taraqqiyot strategiyasi.



Tahlil va natijalar. Markaziy Osiyo bugungi kunda jahon geosiyosiy xaritasida strategik ahamiyat kasb etayotgan hududlardan biridir. Mintaqaning geoiqtisodiy joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, transport-kommunikatsion yo'laklar chorrahasida joylashgani hamda tarixan sivilizatsiyalar kesishgan makon sifatidagi o'rni global kuchlar e'tiborini doimo o'ziga jalb qilib kelgan. Bunday sharoitda O'zbekistonning mintaqadagi siyosiy faolligi, tashqi siyosatning ochiqqligi va pragmatik yondashuvlar asosida olib borilayotgan mintaqaviy hamkorlik siyosati Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston o'z tashqi siyosat strategiyasini "mintaqa – umumiy uy", "ochiq eshiklar siyosati", "tinchlik, do'stlik va yaxshi qo'shnichilik" tamoyillari asosida shakllantirdi. Ayniqsa, so'nggi yillarda mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, siyosiy ishonchni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish, suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tashabbuslar O'zbekistonning geosiyosiy mavqeini yanada yuksaltirdi.

Bugungi global tahdidlar – xavfsizlikka putur yetkazuvchi ekstremizm va terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, ekologik muammolar, suv tanqisligi va migratsiya jarayonlari – mintaqa davlatlarining bir-biriga nisbatan yanada yaqin, hamkorlikka asoslangan siyosat yuritishini talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotga qo'shayotgan hissasi nafaqat milliy manfaatlar, balki butun Markaziy Osiyo xavfsizligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy roli, uning siyosiy tashabbuslari, diplomatik faoliyati va mintaqaviy integratsiyadagi o'rni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Milliy manfaatlar tushunchasi bilan bir qatorda, zarur holatlarda davlat nomi bilan ifodalangan manfaatlar iborasidan ham foydalanish mumkin. Masalan, "O'zbekistonning milliy manfaatlari" bilan bir qatorda "O'zbekiston manfaatlari" atamasidan foydalanish ham ilmiy-nazariy jihatdan maqbuldir. Bu, avvalo, milliy manfaatlarning mazmuni, ko'lam va talqiniga doir turlicha yondashuvlarni aniqlashtirish imkonini beradi.

Milliy manfaatlarning mohiyati va ularning shakllanish jarayoni murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, ularni to'liq tahlil qilish ushbu tadqiqot doirasidan tashqariga chiqadi. Shunga qaramay, qisqacha ta'kidlash joizki, har bir davlat yoki siyosiy subyekt ma'lum hududiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy makonda o'z manfaatlariga ega bo'ladi hamda ularni ro'yobga chiqarishning o'ziga xos mexanizmlari va vositalaridan foydalanadi.

Mazkur manfaatlarni samarali himoya qilish va amalga oshirish uchun ularni tizimlashtirish zarur. Ya'ni, milliy manfaatlarga tizimli yondashuv ularni aniq belgilash, ustuvor yo'nalishlarga ajratish va amaliy mexanizmlar orqali ta'minlashni osonlashtiradi. Bu jarayonda xalqaro munosabatlar nazariyasidagi siyosiy realizm maktabiga xos bo'lgan obyektiv yondashuv tamoyili alohida ahamiyat kasb etadi. Obyektiv yondashuv milliy manfaatlarni emotsional, mafkuraviy yoki subyektiv talqinlardan xoli holda, real siyosiy, iqtisodiy va geostrategik omillar asosida baholashni taqozo etadi.

O'zbekistonning mintaqadagi milliy manfaatlar tizimini iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy sohadagi manfaatlar doirasida tahlil qilish zarur deb hisoblaymiz. Negaki, birinchidan, milliy manfaatlar iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va ijtimoiy taraqqiyot kabi obyektiv omillar asosida shakllanadi. Ikkinchidan, Falsafa ensiklopedik lug'atida tizimni (sistemani) o'ziga xosligi to'g'ri qayd etilib, "har qanday sistema o'rab turgan muhit bilan birga mavjud, bu esa tartibga solingan



sistema unsurlari yaxlit to'plamining muhit bilan o'zaro ta'sirini namoyon qiladi"[2. – B. 244.], deb yozilgan. Shundan kelib chiqib, ularni kengroq yoritishga o'tsak.

Ijtimoiy nuqtai nazardan ham raqobat taraqqiyot manbaidir. Lekin mavzumiz mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, hamkorlik uchun raqobat va ziddiyat emas, mushtaraklik va to'ldiruvchanlik muhimroq deb hisoblaymiz. Aynan iqtisodiy muhitda manfaatlarning mushtaraklashib borishi hamkorlikni rivojlantiradi. Bundan tashqari bu muhitdagi ziddiyat va raqobat milliy manfaatlarda ham o'z aksini topadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash bilan bog'liq muammolar to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o'tolmaymiz. BMT Bosh kotibining "suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq", degan pozitsiyasini to'la qo'llab-quvvatlaymiz. Ishonchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo'li yo'q[1].

Xavfsizlik milliy manfaatlarining eng asosiy va obyektiv ehtiyojlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Markaziy Osiyo mintaqasida ushbu masala nafaqat alohida davlatlar, balki butun mintaqa miqyosida umumiy ahamiyat kasb etadi. Chunki tashqi geosiyosiy kuchlarning mintaqa ichki jarayonlariga ortiqcha aralashuvi mahalliy davlatlar manfaatlariga mos kelmasligi, aksincha, manfaatlar to'qnashuvini kuchaytirishi mumkin. Mintaqa jahonning boshqa hududlariga nisbatan yetakchi geosiyosiy markazlar – Rossiya, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi va boshqa kuchlarning manfaatleri kesishgan makon sifatida global diqqat markazida turadi.

Bu holatning salbiy jihati shundaki, mintaqadagi geosiyosiy taranglik, noaniqlik va ishonchsizlik muhitini saqlab turadi. Ya'ni, har bir yirik geosiyosiy kuch o'z manfaatleri yo'lida faoliyat yuritar ekan, bunga javoban boshqa davlatlar ham muvofiq tarzda o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga intiladilar. Masalan, Rossiyaning mintaqada harbiy bazalarini joylashtirishi ortidan AQShning ham shunday tashabbuslar bilan chiqishi, yoki O'zbekiston–Xitoy o'rtasidagi gaz quvurlari loyihasi ishga tushirilishi natijasida Rossiyaning Xitoyga gaz yetkazib berish tashabbusini ilgari surishi – manfaatlar raqobatining yaqqol ko'rinishidir. Bu kabi misollar mintaqadagi geosiyosiy murakkablik va manfaatlar kesishuvining real ifodasidir.

Shunday sharoitda qator dolzarb savollar yuzaga chiqadi: bunday murakkab geosiyosiy muhitda qanday tashqi siyosiy yo'l tutish zarur? Qaysi davlatlar bilan, qay darajada va qanday shaklda hamkorlik qilish maqsadga muvofiq? Milliy manfaatlarni manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan sharoitda qanday himoya qilish mumkin? Eng muhimi, mintaqaviy birdamlikni qanday ta'minlash mumkin? Bu savollarning nazariy asoslari to'liq ishlab chiqilmagani sababli, ularga ilmiy yondashuv orqali aniq javoblar ishlab chiqish bugungi tashqi siyosat strategiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi asosiy geosiyosiy manfaatlarini aniqlash, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlarini tahlil qilish va mavjud muammolar yechimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifadir. Zero, bu masala nafaqat milliy xavfsizlik va taraqqiyot bilan bog'liq, balki butun mintaqada hamkorlik jarayonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo O'zbekiston uchun geostrategik makon sifatida davlat manfaatlarining asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi. Shu bois mamlakatning mintaqa doirasidagi geosiyosiy manfaatlarini tahlil qilishda uch asosiy yo'nalat ajratiladi:

Transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish va mintaqaviy tranzit salohiyatini kuchaytirish;

Mintaqa bozorlarida iqtisodiy faollik va raqobatbardoshlikni oshirish, neft-gaz resurslarini jahon bozorlariga olib chiqish imkoniyatlarini kengaytirish;



Afg'onistonda barqarorlikni ta'minlash jarayonida ishtirok etish orqali mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash.

Xulosa. Mintaqaviy hamkorlik sharoitida O'zbekiston manfaatlari, avvalo, Markaziy Osiyoda makrodarajadagi ijtimoiy-siyosiy muhitning uyg'unlashuvi va barqaror rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Mintaqa davlatlari imkoniyatlaridan oqilona foydalanish ish o'rinlarini yaratish, ishsizlikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mintaqa hududlarida mehnat migratsiyasi, savdo, tadbirkorlik va ta'lim sohalarida fuqarolarning erkin harakati uchun huquqiy asoslarni yaratish dolzarbdir. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi, balki millatlararo ishonchni chuqurlashtirish, o'zaro anglashuv va mintaqaviy birdamlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Albatta, bunday tashabbuslarni amalga oshirish jarayonida xavfsizlik, huquqiy tartibga solish, iqtisodiy raqobat va ijtimoiy muvozanat bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi ehtimoldan xoli emas. Biroq mintaqa xalqlari o'rtasida chegaralarning ochiqligi, o'zaro ishonchning ortishi, iqtisodiy integratsiya va ijtimoiy uyg'unlikning kuchayishi kutiladigan xavf va cheklovlardan ko'ra ancha yuqori natija berishi mumkin.

Demak, O'zbekistonning mintaqaviy geosiyosiy manfaatlarini ilgari surishda hamkorlik, ochiqlik va o'zaro manfaatdorlik tamoyillariga asoslangan tashqi siyosiy yondashuv – nafaqat milliy manfaatlarni himoya qilish, balki butun Markaziy Osiyoning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясидаги нутқи. <http://president.uz/uz/lists/view/1063>.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Самарқанд шаҳрида ўтган “Марказий Осиё: ягона тарих ва умумий келажак, барқарор ривожланиш ва тараққиёт йўлидаги ҳамкорлик” мавзусидаги халқаро конференцияда сўзлаган нутқи. <http://www.president.uz/uz/lists/view/1227>.

Oybek Olimjonov
NamDU, magistranti

JADID MEROSIDA MILLIY BIRLIK VA BAG'RIKENG SIYOSIY UYG'UNLIK

Annotatsiya: Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy-ma'naviy yangilanishning yetakchi kuchi bo'lib, milliy birlikni mustahkamlash, adolatli boshqaruvni yo'lga qo'yish va jamiyatni ma'rifat orqali safarbar etishga xizmat qildi. Jadidlar ta'lim, matbuot va jamoatchilik institutlari orqali millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va siyosiy uyg'unlik g'oyalarini ilgari surdi. Ularning qarashlari o'sha davr muammolariga amaliy yechim taklif etgani bilan birga, bugungi kunda ham davlat boshqaruvi, fuqarolik birdamligi va ijtimoiy konsensusni kuchaytirishda dolzarbdir. Mazkur maqola jadidlar merosini milliy birlik hamda totuv jamiyat qurish tajribasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi va zamonaviy O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, milliy birlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, siyosiy uyg'unlik, adolatli boshqaruv, legitimlik, ma'rifat, ta'lim islohotlari, jamoatchilik institutlari,



mahalliy boshqaruv, hamjihatlik, ijtimoiy konsensus, vatanparvarlik, mustaqillik, zamonaviy O'zbekiston, taraqqiyot.

Kirish. Jadidlar milliy birlikni jamiyat taraqqiyoti va modernizatsiyasining asosiy sharti sifatida talqin etdilar. Ularning fikriga ko'ra, milliy birlikning mazmuni etnik yoki diniy bir xillik bilan cheklanmay, balki jamiyat a'zolarining ma'rifat, ta'lim, ijtimoiy mas'uliyat va umumiy maqsadlar asosida birlashuviga tayangan bo'lishi lozim edi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari milliy o'zlikni saqlagan holda, uni zamonaviy ta'lim, ilg'or ilm-fan yutuqlari va demokratik g'oyalar bilan boyitish zarurligini ilgari surdilar.

Jadidchilik tafakkurida milliy birlik tushunchasi ijtimoiy falsafaning asosiy kategoriyalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, u kollektiv ongni shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mustaqil davlat qurish jarayonining ma'naviy-ideaviy poydevorini yaratishga xizmat qildi. Ular milliy birlikni faqat diniy yoki irqiy identifikatsiya doirasida emas, balki umumxalq manfaatlar, adolatli jamiyat va siyosiy suverenitet kabi umumiy maqsadlar atrofida shakllanuvchi ijtimoiy konsensus sifatida talqin etdilar. Mazkur konsepsiya Sharq falsafasidagi, xususan, Abu Nasr Forobiy tomonidan ilgari surilgan "fozil jamiyat" g'oyasi bilan ma'naviy-axloqiy jihatdan uyg'unlik kasb etadi. Chunki ushbu yondashuvda jamiyatning taraqqiyoti umumiy axloqiy qadriyatlar, ilm-ma'rifat va ijtimoiy adolat asosida ta'minlanishi ta'kidlanadi.

Jadidlar milliy birlikni shakllantirishda ta'limning ustuvor o'rnini alohida qayd etdilar. Behbudiy, Avloniy kabi ma'rifatparvarlarning fikriga ko'ra, ta'lim – xalq ma'naviyatini yuksaltirish, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning eng samarali vositasidir. "Usuli jadid" maktablari nafaqat savodxonlikni oshirishga, balki yosh avlodni erkin fikrlashga, ijtimoiy adolat, hamjihatlik va milliy ong ruhida tarbiyalashga xizmat qildi. Bu jarayon ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan jamiyatni "bir butun ijtimoiy organizm" sifatida shakllantirishga zamin yaratdi.

Shuningdek, jadidlarning madaniyat, siyosat, matbuot, urbanizatsiya va xalqaro madaniy integratsiya borasidagi yangicha qarashlari milliy taraqqiyotning intellektual omili sifatida namoyon bo'ldi. Ular tomonidan xorijiy tillarni o'rganishga da'vat etilgan "Lug'oti sitta alsina" tizimi mahalliy madaniyatni global ilm-fan va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishga xizmat qildi. Bu esa jamiyatni ochiq, modern va raqobatbardosh tizim sifatida shakllantirishga turtki berdi.

Umuman olganda, jadidlar merosi o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat tarixiy-ma'rifiy hodisa, balki ijtimoiy tafakkur, ta'lim islohotlari va milliy ong evolyutsiyasining ilmiy-nazariy manbai sifatida bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu bois jadidchilik fenomenini ta'lim tarixi, milliy ideologiya, jamiyatshunoslik va sotsial falsafa kontekstida chuqur tadqiq etish zamonaviy O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun dolzarb ilmiy vazifalardan biridir.

Tahlil va natijalar. Jadid harakatining yetakchisi bo'lgan Gaspirali Bey Turkiston va uning xalqini doimiy tarzda kurashga, milliy uyg'onishga chaqirib, tobelik va qullik zanjiridan ozod bo'lishda uch narsa: "1. Milliy fikr 2. Milliy til 3. Milliy maorif muhimligini ta'kidlaydi. Milliy fikr bu birinchi navbatda, millat birligi fikri hisoblanib u milliy yakdillikni ilgari so'radi. Til yagona adabiy til masalasidir. Milliy maorif ona tilidagi ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yishdir. Fikr va tilni matbuot tarbiya qiladi. Matbuot xodimlarini yetkazuvchi esa maorifdir", – deb izohlagan[11. –B. 186.]. U til va millat masalasiga chuqur e'tibor qaratib, 1881-yil "Rusiya musulmonlari" asarini chop etadi. U asarda milliy va diniy jipslikka alohida e'tibor qaratadi. Ayni zamonda Rossiya imperiyasida olib borilayotgan "ruslashtirish" siyosatiga qarshi fikrlar yuritadi. Shuningdek, u "ruslashtirish" siyosatini ruslar emas, chorizm ma'murlari tomonidan o'ylab topilgan shovinistik g'oya ekanligini ta'kidlab o'tgan[14.– B. 35.]. "Aslida, bu jarayon ilgariroq boshlangan edi. Mustamlakachilar



Turkiston bolalari ongiga o'z g'oyalarini singdirish maqsadida rus-tuzem maktablarini ochdi. Biroq, Rossiyaning o'lkada rus-tuzem maktablarini ochib, rus tilini o'rgatishga bo'lgan sa'y-harakatlari ommaviy tus olmadi. Xatto Samarqand va Farg'ona viloyatlarida bu maktablarni "kofir-tuzem" maktablari deb atay boshladilar. Shu bois 1917-yil 9-maydan 14-maygacha Toshkent shahrida bo'lib o'tgan o'lkada o'qituvchilarining birinchi qurultoyi kun tartibiga Turkiston o'lkasi aholisi uchun muhim bo'lgan rus-tuzem maktablarini tugatish va ular o'rniga milliy maktablar tashkil etish masalasi kiritildi. Qurultoyda eski usul tarafdorlari va jadidlar o'rtasida tortishuv avj oldi. Qizg'in muzokaralardan so'ng, Turkistonda milliy maktablarni tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi"[9.– B. 92-93].

Turkiston jadid taraqqiyparvarlari Gaspirali Beyning g'oya va qarashlarini, millat hamda jamiyat rivojida hissasi katta ekanligini tushunib, o'lkada mahalliy aholisi shuuriga singdirishga harakat qilganlar. Mahmudxo'ja Behbudiy "Tarjimai holi" ga Hoji Muin yozgan "Bosh so'zi" da quyidagi fikrlarni bildirgan: "Biz, Turkiston turklari, bugungi muhtasham... Madaniyatimiz so'ngidan keyin, so'nggi asrlarda har bir jihatdan juda chetda qoldik. Madaniyatimiz va maorifimiz xarob, davlat va hukumatimiz barbod bo'ldi. O'zimiz Yevropa jahongirlarining asoratida qoldik. Lekin so'ng bo'lsa ham gunoh va xatolarimizdan xabardor bo'la boshladik. Biroz uyg'onib ketdik. Bizda intibox davri 1901-yildan boshlandi"[5.– B. 33.].

Jadid harakatining ma'rifatparvarining shaxsiy tashabbuslari milliy siyosiy ong va tafakkurning jiddiy o'sishiga, o'lkada ijtimoiy-siyosiy harakatlar avj olishi bilan an'anaviy qarashlarni inkor etadi. Chunki dehqonlar milliy ozodlik harakatida yetakchi kuch bo'lolmasligi, ular o'z maqsadlarini oxirigacha olib borolmasligi haqidagi bolshevistik qarashlar jadidlar harakatida o'z isbotini topmadi. Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik kurashi Rossiyadagi siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda rivojlangan. Turkiston general-gubernatori A.N. Kuropatkin chorizmni o'zga xalqlarga "katta og'a" nuqtayi nazaridan milliy birlikni tobelikka bo'ysundirmoqchi ham bo'lgan. Biz fikrimizni Rossiya xalqlarining otasi davlatpanoh imperator hazratlari ekanligi, "Bu barcha elatlar ona-buyuk Rossiyaning farzandlaridir. Ammo bu ko'p sonli oilada ruslar boshqalarga nisbatan og'a bo'lishi lozim", – degan iddaolar qilgan[6. –B. 46]. Bu hol milliy birlik va siyosiy hokimiyat masalasini zaruriyatga aylantirdi.

Jadidlar esa Turkiston o'lkasi Rossiya tarkibidagi federativ jumhuriyat g'oyalarini nazariy jihatdan isbotlab, xonlikning tiklanishi ichki xalq qo'zg'oloniga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Milliy birlikni ta'minlashda jadidlar bo'lajak milliy davlat shariat an'analariidagi ijtimoiy boshqaruv tipini yoqladilar[4. – B. 64].

Milliy davlatni barpo etishda "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turk Adami Markaziyati" kabi siyosiy firqaviy tashkilotlar faol ishtirok etdi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida "Turk Adami Markaziyati" partiyasi ommani milliy davlatchilik g'oyasi bilan to'la siyosiy kurashga tayyorlagan. Bu partiya a'zolari 1917-yil 11-sentyabrda Turkistonning milliy davlatchiligining tasavvurlari maromnomasini tayyorlashga erishgan. Ushbu maromnomani tayyorlashda o'lkada jadidlari qatorida farg'onalik jadidlaridan: Mullo Nuriddin A'lam Yo'ldoshxo'ja eshon o'g'li (Andijon), Mullo Muhammadjon Kamoljonboyev (Andijon), Mirzo Abdulqodirbek Qushbegiyev (Andijon), Mullo Boqi Oxund Odilboy o'g'li (Andijon), Mullo Obidjon Mahmudov (Xo'qand), Mullo Kamoliddin qozi Rahmonberdi o'g'li (Xo'qand), Mir Odil Mirzo Ahmad o'g'li (Skobelev) kabi taraqqiyparvarlar o'z hissalarini qo'shdilar[15. –B. 8.]. Shu ma'noda siyosiy harakatda siyosiy birlik bo'lmaganidan maqsadlarda ziddiyatni ham kuzatish mumkin.

Jadid taraqqiyparvarlari bo'lajak milliy muxtoriyatning boshqaruv tizimini demokratik tamoyillariga yondashgan holda asoslashga harakat qilishdi. "Turkiston federatsiyasi loyihasi" ziyoli va ulamolar tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Turkiston musulmonlarining 1917-yil 17-20-



sentyabrda qurultoyida loyiha muhokamasi ba'zi qo'shimcha va o'zgarishlar kiritildi. Loyihaning 26-27-bandlarida o'lka pochta va telegraf ishlari, armiya masalalari Rossiya ixtiyorida bo'lishi va muxtoriyat Ta'sis Majlisi ochilgach, bu mahkamalar o'lka hukumati qo'l ostiga o'tishi bayon etilgan. O'lka musulmonlarining 3-qurultoyida esa milliy muxtoriyat o'zining milliy armiyasi va militsiyasini tuzishi ko'rsatib o'tildi[8]. Qo'qon, Namangan, Andijon, Skobelev, Marg'ilon shaharlarida milliy harakatlarning rivojlanishida milliy davlatchilik g'oyalari olg'a surildi.

Jadid taraqqiyparvarlari Turkistonda milliy muxtoriyatning tashkilida navbatdagi qurultoyini belgilab, 1917-yil 26-noyabrda Qo'qon shahridagi "Sho'roi Islomiya" qarorgohida Butun Turkiston musulmonlarining 4-qurultoyini chaqirdilar. Uning qurultoyida millatlararo munosabatlar ijobiy yo'lga qo'yilib, Qo'qonlik mashhur taraqqiyparvar Obidjon Mahmudov bo'lajak muxtoriyat boshqaruv tizimi bo'yicha fikrini quyidagicha izohladi: "...hay'atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarini tanlash asosida kiritish"[2. – B. 127].

Mazkur siyosiy voqealarning talqinidan xabar topgan Farg'ona vodiysi ulamolari tezlik bilan vaziyatni muhokama qilishdi. Toshkentga Qo'qonlik Mullo Kamol qozi va farg'onalik domullo Qosimxon qozilar vakil qilinib, Umumturkiston milliy ittifoqidan ajralmaslikka chorlovchi murojaatnoma yuborildi. Murojaatnomada "Rus zolimlaridan halos bo'lmak uchun Turkiston ahlining vakillari Muxtoriyat e'lon qildilar. Shunday muhim va mas'uliyatli vaziyatda biz ixtilof holatida bo'lishimiz yaxshi emasdur. Muborak vatanimizning va dinimizning salomatligi ittifoq va ittihoddadir" – mazmunida birdamlik g'oyasi ilgari surilgandi. Farg'ona ulamolari toshkentliklarni Qo'qonda tashkil etilgan Turkiston Muxtoriyatidan ajralmaslikka chorlab, hadisdan misollar keltirib, musulmon ummati birlik mazmunidagi fikrlarini bildirdilar[2. – B. 143].

Turkistonda milliy muxtoriyatning tashkil topishi va uning o'lka aholisi manfaatlariga ma'qul keluvchi siyosatni olib borishi bolsheviklar tomonidan yomon munosabatda kutib olindi. Bolsheviklar o'z maqsadlariga erishish, ya'ni hokimiyatni to'la qo'lga olish uchun o'ta qabih ishlardan ham qaytmadilar. "Turkistonda bolsheviklar qurol kuchi bilan boshqarishni o'z qo'llariga olib barcha ishlarni soldat va ishchilar qo'llariga topshira boshladilar. Turkistondagi barcha milliy mahkamalar tugatildi. Shahar Dumasini tugatib, sud ishlari to'xtatildi. Bularning o'rniga oddiy rus soldat va ishchilaridan "jamoat hukmi" degan "yangi sudlar" tashkil qilinadi, mahalliy aholining yerlarini qurol kuchi bilan tortib olib, bolsheviklar o'zlari yer qo'mitalari tuzib, Turkiston yerlarini yersiz rus krestyanlariga olib bera boshladilar. Bolsheviklarning fikriga qo'shilmagan hukumat muassasalari va boshqa milliy jamoat idoralarining barchasi faoliyati to'xtalib, ularning o'rniga rus soldat, ishchi va krestyanlardan tayinlay boshladilar"[7. – B. 54]. Bolsheviklar qanday yo'l bilan bo'lsa ham, Turkiston Muxtoriyatini tugatishni o'z oldidagi eng asosiy maqsad qilgandi. Shu maqsadda ular Muxtor hukumatga bajarib bo'lmaz shartlarni qo'ygan. 1918-yil 18-fevral kuni muzokaralar paytida Muxtoriyatda siyosiy to'ntarish bo'lib o'tdi.

Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi erksevar jadid taraqqiyparvar va ulamolarining intilgan maqsadlaridan qaytara olmadi. Ular bolsheviklar tazyiqi kuchli bo'lgan sharoitda ham, Farg'ona vodiysidagi istiqlool harakatiga bosh-qosh bo'ldilar. Ularni zolimlarga qarshi kurashda doimiy tarzda ruhlantirib, moddiy va ma'naviy yordamlarini ayamadilar. Farg'ona jadidlarining dastlabki jiddiy harakati 1918-yil mart oyi so'nggi kunlarida Farg'ona jadid taraqqiyparvarlari va ulamolaridan tarkib topgan "Sho'roi Islomiya" va "Sho'roi Ulamo" jamiyatlarining tashabbusi bilan Qo'qonning Bachqir qishlog'iga qo'rboshilar qurultoyini uyushtiradilar. Bu qurultoydan asosiy maqsad Farg'ona vodiysida ozodlik uchun kurash boshlagan istiqloolchilik harakati rahbarlarini yagona ittifoqqa birlashtirish edi. Qurultoy qaroriga ko'ra, Farg'ona vodiysidagi istiqloolchilik harakatining umumiy rahbari etib Katta Ergash saylandi. Madaminbek va Shermuhammadbeklar uning o'rinbosarlari etib



tayinlandilar[13. –B. 111.]. Jadidlar Turkistonda yashovchi barcha millat vakillarini birlashtirish, ularning hamjihatligi g'oyasi tarafdori edi. Bu g'oya meros tarzida “bosmachilik” deb atalgan istiqlolchilik harakatiga o'tib, ularning shiorlaridan biri bo'ldi. Sho'ro hokimiyati siyosatidan xafsalasi pir bo'lgan ko'pgina jadidlar ham bu harakatga qo'shilgan edi[1. – B.-59.].

Farg'ona jadid ziyolilari istiqlolchilik harakati rahbarlari bilan yaqindan aloqa o'rnatdilar. “Turkiston Muxtoriyati hukumatining xalq maorifi vaziri, Namangandagi “Sho'roi Islomiya” tashkilotining rahbari Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, hukumat xazinachisi Saidnosir Mirjalilov, Turkiston Millat Majlisi a'zolaridan Olimxonto'ra Shokirxonto'rayev, Obidxon Umarov va Toshkent muftisi Sadridin Sharifxo'jayev kabilar istiqlolchilar bilan aloqa o'rnatishdi. Ular Farg'ona vodiysidagi aholi orasida va qo'rboshilardan Shermuhammadbek, Rahmonqul, Parpi yigitlari ichida bo'lib, mujohidlarni sovet hokimiyatiga qarshi kurashga safarbar qilishda muhim rol o'ynadilar”[3. –B. 26.]. Shuningdek, Turkistonda, xususan, Farg'ona vodiysi istiqlolchilik harakati namoyandalari tarqoq holda harakat olib borishsa-da, lekin ular yagona maqsad sari, ya'ni islom shariati qonun-qoidalari asosidagi milliy davlatni qaror toptirish, milliy demokratik tartibidagi mustaqil davlat tashkil etish g'oyalarini o'zlariga shior qilgandilar.

Jadidlar siyosiy hokimiyatni xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi institut sifatida talqin qildilar. Ular mustamlaka tazyiqlari ostidagi Turkiston jamiyatida adolatli boshqaruv tizimini joriy etishni orzu qilishdi. Siyosiy hokimiyat masalasida jadidlarning qarashlari G'arb demokratiyasi va Sharq an'analariining sinteziga asoslangan edi. Masalan, Munavvarqori o'z ishlarida konstitutsiyaviy monarxiya va xalq vakillari ishtirokidagi boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatladi.

Xulosa. Jadidlar va diniy ulamolar o'rtasida yuzaga kelgan mafkuraviy tafovutlar, ayniqsa sovet mustamlakachilik siyosatiga qarshi qurolli harakatlar davrida yagona maqsad va strategiyaning shakllanmasligiga olib keldi. Demokratik davlat va konstitutsiyaviy boshqaruvni ilgari surgan jadidchilik g'oyalari bilan diniy asosdagi shariat davlatini tiklashni maqsad qilgan ulamolar pozitsiyasi o'rtasida yuzaga kelgan tafovut qurolli harakatlar ichida siyosiy parokandalikni kuchaytirdi. Harbiy yetakchilar va qo'rboshilar o'rtasida siyosiy yetuklik va mafkuraviy yagonalikning yetishmasligi esa milliy ozodlik kurashining mag'lubiyatga uchrashiga sabab bo'lgan omillardan biri sifatida tarixda qayd etiladi.

Shu bilan birga, jadidlarning milliy birlik, siyosiy hokimiyat, ta'lim va ma'rifatga doir qarashlari o'z davrining eng ilg'or ijtimoiy-siyosiy g'oyalari qatoridan munosib o'rin egalladi. Ularning adolatli boshqaruv, fuqaro mas'uliyati, inson qadr-qimmat, mahalliy o'zini o'zi boshqarish va legitim hokimiyat haqidagi qarashlari nafaqat tarixiy voqelikni baholashda, balki zamonaviy O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda milliy identitetni mustahkamlash, jamiyatda ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlash, diniy bag'rikenglik va fuqarolik totuvligini qaror toptirish jarayonlarida jadidlar merosi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, jadidchilik harakatining g'oyalari – ma'rifat, tafakkur erkinligi, milliy birlik va adolatli boshqaruv tamoyillariga tayanib, jamiyatni yangilashga qaratilgan konseptual dastur sifatida – bugungi kunda ham davlat va jamiyat barqarorligini mustahkamlash jarayonida muhim ilmiy-amaliy manba bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alimova D. Xaqiqatning tutash manzili.T.:Tafakkur. -2000.-№2.-B.-59.
2. A'zamxo'jayev. S. Turkiston Muxtoriyati... -B. 127.
3. Davriy to'plam 1999 175- bet, Rajabov. Q. I. Jadidlar- istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari // Jamiyat va boshqaruv. 2002. -№3. –B. 26.



4. Do'stqorayev B. Turkistonning usuli idorasi qanday bo'lmog'i kerak edi? // Jamiyat va boshqaruv. -1998. -№1. –B 64.
5. Karimov E. Mustaqillik va jadidlar xarakati.T.:Muloqot.-1998.-№4.-B. 33.
6. Majid Xasaniy. Turkiston bosqini. Toshkent: Nur, 1992. –B. 46.
7. Mingnorov. Turkistonda 1917- 1918-yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida)... –B. 54
8. Muxtoriyatli Turkiston muvaqqat xalq sho'rosi // El Bayrog'i. -1917. -22-dekabr.
9. Oripova M .Turkistonliklar savodsizmi. Tafakkur. 2004. – B. 92-93.
10. Qo'qon muvaqqat xalq sho'rosi hay'ati // Ulug' Turkiston. -1917. -8-dekabr.
11. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik... –B. 186.
12. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston uchun mujodalalar // Jamiyat va boshqaruv. 1998. -№4. –B. 60.
13. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi... –B. 111.
14. Turdiyev Sh. Ismoilbek Gaspirali va Turkiston ziyolilari // Jamiyat va boshqaruv. -2001. -№2. –B. 35.
15. Turkistonda xalq jumhuriyati // Fan va turmush. -1990. -№7. –B. 8.
16. Zohiriy A.A. Marhum Ismoilbek qanday ishlar qilgan // Sadoyi Farg'ona. -1917. -17-sentyabr.

Rustamov Rahmonjon

NamDU, magistranti

MADANIYAT TRANSFORMATSIYASI: GLOBALLASHUV, DIN VA DUNYOVIYLIK

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida har bir xalq o'ziga xos an'ana va milliy ong ustunlariga tayangan holda, o'z qiyofasini yo'qotmasdan, o'zining milliy o'zligini aniqlashga, milliy ramzlarini ulug'lashga intiladi. Dindor yoshlarimiz ham dunyoviy davlat tamoyiliga, millatimiz tili va mentalitetiga, tarixiga, an'ana va merosiga hurmat bilan qarashlari kerak. Davlat xizmatchilarining diniy sohadagi dunyoqarashi va axloqiy pozitsiyasida dunyoviy va milliy qadr-qimmat tushunchalariga hurmatni shakllantirish milliy manfaat va fuqarolik burchiga sodiq diniy mutaxassislarini tarbiyalash, mamlakatimizning jadal innovasion va sanoat modernizatsiyasini ta'minlashdan iborat.

Tayanch so'zlar: din, globallashuv, sekulyar siyosat, davlat, diniy tashkilotlar, mafkura, diniy ulamo, terrorizm, masjid, cherkov, yoshlar, separatizm, pravoslav.

Din – shaxsning vijdon erkinligi sifatida davlat e'tiboridan chetda qolishi mumkin bo'lmagan muhim ijtimoiy qadriyatdir. Shu bilan birga, dunyoviylik tamoyili davlat va dinning alohida faoliyat yuritishini belgilab beradi. Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillarida ushbu tamoyilni tatbiq etishdagi tajriba yetishmasligi hamda G'arbning ayrim sekulyar modeliga bevosita tayanish natijasida diniy sekatchilikning kuchayishi kuzatildi.

G'arb mamlakatlarining sekulyarizm tajribasi ularning o'ziga xos tarixiy yo'li – teokratik tuzumlardan ateistik qarashlargacha bo'lgan bosqichlar orqali shakllangan. Shu sababli sekulyarizmning umumiy qoida sifatida ko'chirilishi har doim ham ijobiy natija bermaydi.

Bugungi kunga kelib G'arb dunyoviyligi o'z taraqqiyotida turg'unlik bosqichiga yetgani kuzatilmoqda. Bu holatning asosiy sababi shundaki, sekulyarizm dinni jamiyat hayotining asosiy sohalaridan asta-sekin siqib chiqaruvchi oqim sifatida namoyon bo'lmoqda. Dunyoviylik esa aslida



dinning mavjudligini inkor etmaydi, aksincha, uning jamiyatdagi ma'naviy ahamiyatini hurmat qilgan holda davlat boshqaruvidan ajratishni nazarda tutadi. Shunday ekan, sekulyarizmning haddan tashqari kuchayishi ijtimoiy barqarorlik va ma'naviy muvozanatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

G'arbliklarning cherkovga bormasligi, hattoki, yoshlarni jalb qilish uchun raqs kechalari uyushtirishi ham aholini ushlab turish mexanizmlaridan biridek ko'rinadi. Hozirda O'zbekistonda ikkita xavfli tendentsiya kuzatilmoqda: birinchisi, radikal islomiy oqimlarning kuchayishi, ikkinchisi, neoprotellant oqimlarining kuchayishi. G'arb ommaviy axborot vositalari natijasida biz faqat islomiy terrorizmga e'tibor qaratib, protestant oqimlarini butunlay unutib qo'ydik[2]. Bu davlatchiligimiz uchun asosiy tahdiddir. Chunki ularning dini, tili, mentaliteti, maqsadlari har xil. Ular mamlakatimiz manfaati uchun ishlamayaptilar, ular Iso Masihdan foydalanib, o'z mafkurasini amalga oshirishga harakat qilmoqdalar. Ushbu holatda, Mamlakatimiz dunyoviylik tamoyiliga amal qilish bilan birga, dunyoda dunyoviylik tajribasidan kelib chiqib, o'z manfaatlarimizga mos qurilishni ham amalga oshirishi kerak. Biroq, yangi qonunda Abu Hanafiy mazhabida sunniy islom va pravoslav nasroniylikning aks ettirilishi taraqqiyotdan dalolat beradi. Diniy muammolarni qonun bilan hal qilib bo'lmaydi. Hozirgi jamiyatda qonunni tushunadigan, diniy savodxonlar kam. Ayrimlar dunyoviylikni ateizm bilan aralashtirib yuborishadi. Din va davlat o'rtasidagi munosabatlar vaqt o'tishi bilan o'zgarib turishi tabiiy[3]. Biz esa bu o'zgarishlar jamoatchilik ongiga zarar keltirmasligi uchun uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqishimiz kerak. Biz Islom dinini rivojlantirish uchun uch yoki besh yillik rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqdik. Biroq, bu kam ta'sir qiladi. Agar biz ellik yillik rivojlanish strategiyasini qabul qilmasak, Besh yillik reja bilan biz yangi o'zgarishlar va diniy hodisalarga dosh berolmaymiz. Biz yangi hodisalarni tadqiq qilish uchun vaqt sarflashimiz mumkin. Shuning uchun uzoq muddatli dasturlarga ehtiyoj bor. Shu bilan birga, milliy manfaatdor bo'lgan sohalarga e'tiborni kuchaytirishimiz kerak. Masalan, pravoslavlik bizning ajdodlarimiz dini bo'lmagani uchun uni mamlakatimizda rivojlantirish mumkin, deb ayta olmaymiz. Mamlakatimizni, jamiyatimizni ravnaq toptiradigan din Islom dini ekanligi ayon.

Globallashuv jarayoni insoniyat taraqqiyotida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarni tubdan o'zgartirayotgan omillardan biridir. Xususan, zamonaviy dunyoda diniy va dunyoviy madaniyatlarning o'zaro munosabatlari masalasi dolzarb jihat kasb etmoqda. Har ikkisi o'z funksiyasi, qadriyati va shakllanish manbalariga ko'ra farqlanadi, biroq ular jamiyat hayotida bir-birini to'ldiruvchi ahamiyatga ega.

Diniy madaniyat uzoq tarixiy ildizlarga ega bo'lib, insoniyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Dinning maqsadi – insonlarni ruhiy poklikka, ijtimoiy birdamlikka choralash, an'ana va urf-odatlar orqali barqarorlikni mustahkamlashdir. Diniy madaniyatning uyushtiruvchan kuchi jamiyatda ijtimoiy totuvlikni ta'minlashga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatlidir.

Dunyoviy madaniyat esa ilm-fan, texnologiyalar, san'at va madaniy innovatsiyalar taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga turtki beradi. U insonlarning erkin fikrlashi, ijodkorligi va yangilik yaratish salohiyatini kengaytiradi.

Globallashuv ta'sirida ushbu ikki madaniyat o'rtasidagi munosabatlar murakkablashmoqda. Bir tomondan, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi o'zaro tushunish, bag'rikenglik va hamkorlikni kuchaytiradi. Boshqa tomondan esa, modernizatsiya jarayonlari ayrim hollarda an'anaviy diniy qadriyatlarga bosim o'tkazishi, ularni chekinishga majbur qilishi mumkin. Demak, zamonaviy sharoitda diniy va dunyoviy madaniyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash, har ikkala madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini to'g'ri baholash muhim vazifadir.

O'zbekiston tajribasida mazkur jarayonning uyg'unlashgan modeli kuzatiladi. Mamlakatda diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan birga, ilg'or



dunyoviy bilimlar va innovatsiyalarni qabul qilishga asoslangan siyosat izchil davom ettirilmoqda. Bu yondashuv jamiyatning barqaror rivojlanishi va modernizatsiya jarayonlarining muvaffaqiyatli amalga oshishiga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy madaniyatning o'ziga xosligi ularning moslashuvchanligi, o'zaro ta'siri va birgalikda rivojlanishida namoyon bo'ladi. Bu esa insoniyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik va madaniy xilma-xillikni saqlashning muhim omillaridan biri sanaladi.

Globallashuv jarayoni zamonaviy dunyoning eng muhim omillaridan biri bo'lib, u mamlakatlar va jamiyatlarning turli sohalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir diniy va dunyoviy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yangi shakllarda namoyon qilmoqda. Diniy va dunyoviy tamoyillar insoniyat tarixida doimo o'zaro aloqada bo'lgan va bugungi global o'zgarishlar sharoitida ularning integratsiyasi yanada kuchayib bormoqda.

Diniy madaniyat insonning ma'naviy hayotini, axloqiy mezonlarini va qadriyatlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. An'ana va marosimlar orqali jamiyatda ruhiy birlikni ta'minlab, ijtimoiy totuvlikka xizmat qiladi. Globalizatsiya ta'sirida diniy qadriyatlar saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, ularning talqini va amaliyotida yangicha yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Masalan, raqamli kommunikatsiya vositalarining rivoji dinlararo muloqot uchun keng imkoniyatlar yaratib, turli diniy oqimlar o'rtasida bag'rikenglikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyoviy madaniyat esa ilm-fan, texnologiya, san'at va demokratik qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, global taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sanaladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji, madaniy almashinuvning kuchayishi dunyoviy qadriyatlarning keng tarqalishiga zamin yaratdi. Bu jarayon inson huquqlari, erkinlik, qonun ustuvorligi kabi tushunchalarning global miqyosda umumiy qadriyat sifatida shakllanishiga olib keldi.

Diniy va dunyoviy madaniyatlarning o'zaro ta'siri global o'zgarishlar sharoitida murakkablashib, jamiyatlarda yangicha dunyoqarash shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Ba'zi mamlakatlarda diniy qadriyatlar dunyoviy qonunlar uchun asos bo'lib xizmat qilsa, boshqalarda dunyoviylik diniy amaliyotlarga ta'sir etmoqda. Natijada, turli hududlarda din va dunyoqarash uyg'unlashuvi asosida barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi madaniy modellar shakllanmoqda.

Bugungi sharoitda ushbu ikki madaniyat o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhim strategik vazifalardan biridir. Diniy madaniyat ma'naviy merosni va axloqiy qadriyatlarni saqlashga xizmat qilsa, dunyoviy madaniyat jamiyatning ilmiy va iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Turli madaniyat va din vakillari o'rtasida hurmat va hamjihatlikni mustahkamlash, diniy va dunyoviy bilimlarni ongli ravishda qabul qilish ushbu uyg'unlikning asosiy omillaridir.

Global o'zgarishlar sharoitida diniy va dunyoviy madaniyatning o'ziga xosligi – ularning o'zaro ta'siri orqali yangi davr talablariga moslashishida namoyon bo'ladi. Bu jarayon zamonaviy jamiyatlar uchun barqaror taraqqiyot, ma'naviy yuksalish va madaniy xilma-xillikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy madaniyatlarning o'ziga xosligini saqlab qolish – ularni qarama-qarshi qo'yish emas, balki o'zaro tushunish va hamkorlikni kuchaytirishni talab etadi. Ularning uyg'unlashuvi jamiyat barqarorligi, insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish hamda har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. O'zbekiston misolida bu jarayon milliy an'analar, diniy qadriyatlar va zamonaviy yutuqlarning uyg'unlashuvi orqali muvaffaqiyatli namoyon bo'lmoqda. Natijada diniy qadriyatlar jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlasa, dunyoviy yutuqlar innovatsion taraqqiyotga imkon yaratmoqda.



Global o'zgarishlar dunyoning barcha hududlarida jamiyat hayotini, jumladan diniy va madaniy sohalarni ham tubdan yangilamoqda. Diniy madaniyat asrlar davomida shakllangan bo'lib, insonning ruhiy hayoti va axloqiy mezonlarini belgilaydi. U jamiyatni ijtimoiy birdamlikka undovchi qadriyatlarga tayanadi. Dunyoviy madaniyat esa ilm-fan, san'at, texnologiya hamda ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish orqali jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

Globallashuv ushbu ikki madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirib, madaniyatlararo muloqot imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, u milliy madaniyatlarning yo'qolib ketish xavfini ham yuzaga keltiradi. Shuning uchun har bir xalq o'z madaniy o'ziga xosligini asrash va rivojlantirishga intiladi. Diniy madaniyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari bilan dunyoviy madaniyatning ilmiy-texnologik yutuqlarini uyg'unlashtirish jamiyat barqaror rivojining muhim omilidir. Misol tariqasida, diniy ta'limotlar insoniy fazilatlarni shakllantirishga yordam bersa, texnologik yangiliklar inson hayotini qulayroq va samaraliroq qiladi.

Globallashuv sharoitida diniy va dunyoviy qadriyatlar o'rtasida bag'rikenglik, hurmat va ochiq muloqotni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning muvozanatli rivoji jamiyatda tinchlik, barqarorlik va madaniy xilma-xillikni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, global o'zgarishlar davrida diniy va dunyoviy madaniyatlarning o'ziga xosligini asrab-avaylash va ularning uyg'un rivojlanishini ta'minlash dolzarb masaladir. Madaniyatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bag'rikenglikni rivojlantirish hamda ochiq muloqotni yo'lga qo'yish orqali jamiyatning barqaror va farovon taraqqiyotiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turdimuratova A. GLOBALLASHUV DAVRIDA MA'NAVIY TARBIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – С. 80-84.
2. Doniyorov, Xushvaqt. "DUNYOVIYLIK–O'ZBEKISTONDA DEMOKRATIK TARAQQIYOTNING METODOLOGIK ASOSI." IMRAS 7.2 (2024): 87-96.
3. Muhammadjon Ma'rifjon og, Mamirov. "GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYATNING MAFKURAVIY IMMUNITETI. MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR UYGUNLIGI." Новости образования: исследование в XXI веке 1.3 (2022): 764-772.
4. Avazxonov S. Diniy bag'rikenglik–tinchlik va millatlararo totuvlikning garovi //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 66-70.
5. Noraliyevna X. S. et al. Jamiyat hayoti va uning taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni va roli //International conference on interdisciplinary science. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 190-197.

Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li

Namangan davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

jasurbekmamatov899@gmail.com

YOSH AVLODNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA ZIYORATGOHLAR VA MUQADDAS QADAMJOLARNING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarining o'rni, ularning ijtimoiy, psixologik va ma'naviy ahamiyati tahlil etilgan.



Maqolada ziyoratgohlarning yoshlar tarbiyasidagi samarali omillari, tarixiy xotira bilan milliy o'zlikni anglash munosabati, amaliy tajribalar va istiqbolli takliflar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: milliy tarbiya, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar, ma'naviyat, tarixiy xotira, milliy o'zlik, pedagogik texnologiya, vatanparvarlik, yoshlar tarbiyasi, madaniy meros.

Маматов Жасурбек Кадыркул угли

Студент 2 курса базового докторантуры

Наманганского государственного университета

jasurbekmamatov899@gmail.com

РОЛЬ СВЯТЫХ МЕСТ И ЗИАРАТГОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ В ДУХЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

Аннотация: В данной статье анализируется роль святынь и зияратгогов в воспитании молодёжи в духе национальных ценностей, а также их социальное, психологическое и духовное значение. В работе рассматриваются эффективные факторы влияния зияратгогов на воспитание молодого поколения, взаимосвязь исторической памяти и национального самосознания, практический опыт и перспективные предложения.

Ключевые слова: национальное воспитание, святыни, зияратгоги, духовность, историческая память, национальная самобытность, педагогические технологии, патриотизм, воспитание молодёжи, культурное наследие.

KIRISH. Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Globalizatsiya sharoitida milliy o'zligimizni, an'analarimizni va qadriyatlarimizni saqlab qolish, shu bilan birga yoshlarni zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash murakkab vazifadir. Bu borada ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarining o'rni beqiyos hisoblanadi, chunki ular xalqimizning ming yillik tarixiy xotirasining jonli guvohlaridir. Ushbu maqolaning maqsadi ziyoratgoh va muqaddas joylarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA. Maqola so'rovnoma, kuzatuv, statistik tahlil, siyosiy tahlil, kontent-tahlil metodlaridan foydalanilgan holda, 2024-2025-yillardagi Namangan viloyatidagi olib borilgan tadqiqotlar asosida yozilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA. Hozirgi davrda globallashtirish jarayoni insoniyat hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Ilm-fan, texnologiya va madaniyatlarning o'zaro yaqinlashuvi natijasida taraqqiyot yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon ayrim hollarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va madaniy merosning zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin [1.]. Ayniqsa, yosh avlodning globallashtirish ta'sirida milliy o'ziga xoslikni yo'qotish, an'anaviy qadriyatlardan uzoqlashish xavfi dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, yoshlarni milliy g'urur, qadriyat va an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalash bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Shu o'rinda ziyoratgohlar nafaqat diniy e'tiqod manbai, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va ma'naviy tarbiya maktabi sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida milliy an'ana va qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni zamon talablari asosida rivojlantirish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini e'zozlash va ularga chuqur hurmat bilan yondashish borasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 120-sonli "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish



to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarning tizimli asosda yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Mazkur qaror asosida mamlakat miqyosida ziyoratgohlarning infratuzilmasini yaxshilash, ziyoratchilar uchun qulay sharoit yaratish, ularni madaniy-ma'naviy markazlarga aylantirish bo'yicha samarali tashabbuslar amalga oshirilmoqda [2.].

Buxoro, Samarqand, Xiva va Farg'ona vodiysi shaharlari kabi qadimiy shaharlarimizda joylashgan tarixiy yodgorliklar, avliyolar maqbaralari va ziyoratgohlar yoshlar tarbiyasida beqiyos ahamiyat kasb etadi [3.]. Ushbu muqaddas maskanlar yoshlar uchun "tirik tarix" vazifasini o'taydi, chunki ular bu joylarda tarixni kitoblardan emas, balki bevosita ko'rish, his etish va tafakkur orqali anglaydilar. Tarixiy yodgorliklar bilan tanishish jarayonida yoshlar o'z ajdodlarining buyuk ilmiy, madaniy hamda ma'rifiy merosini idrok etadilar, bu esa ularda milliy g'urur, vatanparvarlik va ma'naviy mustahkamlikni kuchaytiradi. Shu o'rinda ziyoratgohlar ham inson tafakkurini boyituvchi, ruhiy poklanish va ma'naviy yuksalish manbai sifatida shaxs dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ziyoratgohlarda bo'lish jarayoni yoshlar uchun ruhiy va axloqiy tarbiyaning muhim maktabi bo'lib xizmat qiladi. Ular bu muqaddas joylarda zamonaviy hayot shovqinidan chekinib, o'z ichki olamiga nazar tashlash, insoniylik fazilatlarini anglash, tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [4. B-3]. Qadamjolar va ziyoratgohlarning ma'naviy tarbiyadagi asosiy vazifalaridan biri yoshlarda ezgulik, halollik, vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat hissini shakllantirishdan iboratdir.

Qadamjo va ziyoratgohlar o'zbek mentaliteti shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ziyoratgohlar — real manfaat va umumiy e'tiqodni mujassam etgan muqaddas joylar bo'lib, ular asrlar davomida aholining ma'naviy hayoti va maishiy turmushida muhim o'rin tutgan. Shu bilan birga, ziyoratgohlar odamlarni birlashtiruvchi, madaniy muloqotni ta'minlovchi va yosh avlodda ma'naviy tuyg'ularni tarbiyalovchi maskan vazifasini ham bajargan. Tarixan shakllangan qarashlarga ko'ra ziyorat odobi shakllangan bo'lib [5. B.10], bu yosh avlodni tarbiyalash va mentalitni shakllantirishda o'ziga xos o'rin tutadi.

Ziyorat masalasi bevosita din bilan uzviy bog'liq holda ko'zga tashlanadi. Din inson va olam munosabatlarini ilohiy nuqtayi nazardan izohlaydigan, mavjudotning yaratilishi va hayot mohiyatini anglatuvchi dunyoqarash tizimidir. U insonning ma'naviy yetuklikka intilishi, ezgulik va adolat g'oyalariga sadoqatini ta'minlovchi muhim tarbiyaviy omil hisoblanadi.

Barcha dinlar insonni yaxshilik, tinchlik, hamjihatlik va adolat yo'liga da'vat etadi. Din ta'limotlariga ko'ra, inson hayotining asosiy maqsadi — ezgu ishlar orqali ma'naviy yuksalish va oxiratda saodatga erishishdir. Shu nuqtayi nazardan din faqat ibodat tizimi emas, balki axloqiy va ijtimoiy munosabatlarning ham asosiy mezon sifatida namoyon bo'ladi [6. B.138].

Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar insonning dunyoqarashi, e'tiqodi hamda ma'naviy tafakkurini shakllantirishda chuqur tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat diniy e'tiqod manbai, balki inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi, axloqiy me'yorlarni mustahkamlaydigan muhim ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'ladi.

Ziyoratgohlarning tabiiy mavjudligi bilan bir qatorda, ular yoshlar ongida ilohiy qudrat, poklik va muqaddaslik timsoli sifatida qabul qilinadi. Shu bois, ziyorat amali davomida yosh avlod o'zini tutish, odob-axloq va madaniyat masalalariga alohida e'tibor beradi. Masalan, ziyoratgoh hududiga osoyishta kirish, baland ovozda gapirmaslik, kulmaslik, hurmat bilan yurish, kiyinishda soddalik va poklikni saqlash kabi xatti-harakatlar nafaqat diniy talab, balki ma'naviy kamolotga da'vatdir. Ushbu yashirin, ammo qat'iy me'yorlar yoshlarning o'zini tuta bilish, o'zaro hurmat va itoatni qadrlash, muqaddas qadriyatlarga ehtirom bilan munosabatda bo'lish kabi fazilatlarini shakllantiradi [7.].



Bundan tashqari, ziyoratgohlarda o'tkaziladigan marosim va an'analar ham yoshlarning ijtimoiy faolligi hamda ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Jamoaviy duolar, niyatlar, qurbonlik va hayr-sahovat tadbirlari jarayonida insonlarda birdamlik, hamjihatlik, mehr-oqibat va kamsuqumlik kabi ijobiy fazilatlar mustahkamlanadi. Bu jarayonlar yoshlarni o'zgalarga nisbatan hurmatli, sabr-toqatli va mas'uliyatli bo'lishga undaydi. Shunday qilib, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar nafaqat diniy e'tiqod markazlari, balki ma'naviy tarbiya, axloqiy me'yorlarni shakllantirish va jamiyatda bir-birini qadrlash madaniyatini rivojlantiruvchi muhim maktab sifatida e'tirof etilishi lozim [7.].

Tadqiqot natijalari ziyoratgohlarning ijtimoiy va ma'naviy funksiyalarini chuqur yoritib beradi. Ziyorat amaliyoti nafaqat diniy tajriba sifatida, balki yoshlarda madaniy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirishning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, yoshlar tomonidan ziyoratgohlarga tashrif buyurish jarayoni ularning jamoaviy ongini, hamjihatlik tuyg'usini va fuqarolik mas'uliyatini kuchaytiruvchi ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, ziyoratgohlarning tarbiyaviy salohiyati ularning tashkiliy hamda metodik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ziyoratlar yosh avlodning shaxsiy kamoloti va milliy o'zlikni anglash jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning noyob manbai bo'lib, ular orqali yoshlar nafaqat o'z tarixi va madaniyatini o'rganadi, balki milliy kimligini anglash, Vataniga sadoqat va xalqining kelajagi uchun mas'uliyat hissini rivojlantirishi mumkin. Ziyoratgohlarning to'laqonli pedagogik potentsialidan foydalanish orqali biz yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'naviy jihatdan boy, vatanparvar va milliy qadriyatlarga sadoqatli shaxs sifatida tarbiyalashimiz mumkin. Ammo buning uchun ziyoratgohlarning tarbiyaviy faoliyatini tizimli va muntazam ravishda tashkil etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, maxsus kadrlar tayyorlash zarur. Bu nafaqat bugungi kun, balki kelajagimiz uchun ham strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim vazifadir. Kelajakda ziyoratgohlarning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, ularning turli yosh guruhlari va ijtimoiy guruhlar uchun samaradorligini o'rganish, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalari bilan uyg'unlashtirilgan yangi metodikalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ummataliyev S. Globallashuv sharoitida yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash – dolzarb masala / <https://www.iiu.uz/oz/news/3843>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-fevraldagi 120-sonli "Muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, masjidlar va qabristonlarni obodonlashtirish ishlarini samarali tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
3. Odilovich O. Y. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mezonlari. / ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 DOI: 10.24411/2181-1385-2021-01132 Academic Research, Uzbekistan 880 www.ares.uz
4. Mamatov J. Q. Pilgrimage Etiquette In Shrines: Harmony Between Tradition, Faith and Modernity Academicia Globe: Inderscience Research Vol: 5, No 4, 2025, Page: 1-6
5. Мирзо Аҳмад Хушназар. Қабристон зиёрати одоби... –
6. Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари: тар. фан. бўйича фал. док. (PhD) учун дисс. автореф. – Тошкент. – Б. 174.
7. Dala yozuvlari. Namangan viloyati tumanlari. 2024-2025-yillar.



Нуриддинов Абдулвоҳидхон Орифхўжаевич,

Наманган давлат университети “Ижтимоий фанлар” кафедраси доценти,

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD).

abdulvohidjon.nuriddinov@mail.ru

МАХДУМИ АЪЗАМ НИКОҲ ВА ОИЛА ҲАҚИДА

Резюме: А.Нуриддинов. Махдуми Аъзам никоҳ ва оила ҳақида. Ушбу мақолада муаллиф тасаввуф тариқатининг йирик намояндаси Махдуми Аъзамнинг “Асрор-ун-никоҳ” рисоласи мисолида Ислом динидаги оила ва никоҳ масалалари хусусида Қуръони карим ва ҳадиси шарифга асосланган қарашларини таҳлил этган ҳамда бугунги кунда долзарб бўлган баркамол инсонни тарбиялашда оила тузилмасининг аҳамиятини кўрсатиб беришга ҳаракат қилган.

Калит сўзлар: Никоҳ, оила, оят, ҳадис, жамол, жалол, ақим, ибодат, издивож, касрат, таълим, тарбия, баркамол инсон.

МАХДУМИ АЪЗАМ О СЕМЬЕ И БРАКЕ

В данной статье автор на основе анализа трактата “Асрор-ун-никоҳ” (“Тайны брака”) выдающегося представителя суфийского течения Махдуми Аъзама, стремился проанализировать и показать взгляды мыслителя о браке и семье основанные на учении священного Корана и высказывании пророка(сав) и значении семьи в воспитании и формировании зрелого поколения.

Ключевые слова: Брак, семья, оят(божьи чудо), хадис (высказывания пророка), божье красота, могущество, нерожаящая женщина, молитва, женитьба, умножения, учения, воспитания, зрелый человек.

Бугунги янгиланаётган Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ислохотлар ва демократик-фуқаролик жамиятни бунёд этилаётган айни бир замонда, тасаввуф алломаларининг инсонни ҳам руҳан ҳам жисмонан поклянишини тарғиб қилган ғоялари, оилавий ҳаёт таҳлилига бағишланган асарлари маънавий-жисмоний соғлом авлодни тарбиялашдек муҳим вазифаларни амалга оширишда муҳим назарий манба бўлиб хизмат қилади. Шу жиҳатдан олганда Ислом динининг инсонпарварлик, адолатпарварлик моҳияти тарғиботида улкан ҳисса қўшган тасаввуф таълимотининг йирик намояндаси Сайид Аҳмад ибн Мавлоно Жалолиддин Хожагий-Косоний-Махдуми Аъзамнинг умумбашарий қадриятларга асосланган оила ва никоҳ муқаддаслиги, инсон камолоти, жамият барқарорлиги ва тарбиявий аҳамиятга эга ғоялари салмоқли ўрин эгаллайди.

Никоҳ ва оиланинг шаклланиш масаласи, унинг жамиятдаги ўрни ва аҳамияти қадим замонлардан кўплаб файласуф олимлар ва мутафаккирлар, давлат арбоблари ҳамда адиблар диққатини ўзига жалб этиб келган. Биринчи Президентимиз И.Каримов таъбири билан айтганда: “Бу ёруғ оламда ҳаёт бор экан, оила бор. Оила бор экан, фарзанд деб аталмиш бебаҳо неъмат бор. Фарзанд бор экан, одамзот ҳамиша эзгу орзу ва интилишлар билан яшайди”⁶.

⁶ Каримов. И. Юсак маънавият – енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, -Б.56.



Оила ва никоҳ масаласида Куръони Карим оятларида ва муборак ҳадисларда, шариат ва фикҳга оид манбааларда ҳам эътиборли фикрлар баён этилган. Башариятнинг буюк мутафаккири, Ислом пешвоси, пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом уйланишни суннат деб билиб, барча умматларини шунга тарғиб ва ташвиқ этган.

Саҳобалардан Саид Абу Ҳилол (р.а.) пайғамбаримиздан (с.а.в.) шундан ривоят қилади: **Набий алайҳиссалом: “Уйланинглари ва ўз нуфузларингизни зиёда қилинглари, қиёмат куни мен сизларнинг кўплигингиз билан фахрланаман” деганлар**⁷.

Яъни оилали бўлмоқ ва инсоният наслини давом эттирмоқ Оллоҳ томонидан буюрилган ва пайғамбаримиз Муҳаммад алайҳиссалом томонидан суннат қилинган амал бўлиб, у инсоний жамоа ҳаётининг гултожи ҳисобланади.

Нақшбандия тариқатининг йирик намояндаси ва давомчиси, ушбу жараёни илмий жиҳатдан асослаб кўплаб рисолалар ёзган Мавлоно Сайид Аҳмад ибн Сайид Жалолиддин Хожагий Косоний-Маҳдуми Аъзам ҳам никоҳ ва оилага бағишлаб “Асрор-ун-никоҳ” (Никоҳ сирлари) номли рисола ёзган. Зотан, ёш авлодни тарбиялаш ва уларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масаласи ҳамма даврларда жамият диққат марказида бўлиб келган ва шундай бўлиб қолади. Бу борада юртбошимиз Ш.Мирзиёев “Янги Ўзбекистон стратегияси” номли асарида шундай ёзади: “Тарбияга янгича, тизимли ёндашув, болада таянч фазилатларни шакллантиришда оила, мактабгача таълим, умумий таълим, ўрта махсус касб-ҳунар ва олий таълим муассаса-лари, маҳаллаларнинг ижтимоий-педагогик имкониятларини тўлиқ юзага чиқариш ва улар орасида илмий-методик узвийликни янги даражага кўтариш даркор”⁸.

Маҳдуми Аъзамнинг юқоридаги рисоласи муаллифнинг Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик Институтининг кўлёзмалар хазинасида сақланаётган 2352 инвентар рақами остидаги “Мажмуат-ур-расоил” тўпламидаги биринчи асардир.

Рисола анъанавий тарзда буюк Оллоҳ ва унинг суюкли пайғамбари Муҳаммад Мустафо саллаллоҳу алайҳи вассаллам ва ул зоти бобаракотнинг яқинларига саловатлар ва ҳамду санолар билан бошланади.

Шундан сўнг муаллиф ушбу рисоланинг ёзилиш сабаблари ҳақида сўз юритиб, шаръий никоҳ ва оила одамлар ўртасидаги муносабатни Оллоҳ таоло томонидан инсонларга ҳалол ва ҳаромни фарқ этишлари учун ва ушбу амал жаноби пайғамбаримиз (с.а.в.) тарафларидан суннат қилинганини ояти қарималар ва ҳадиси шарифдан намуналар келтириб асослаб берган.

Муқаддимада муаллиф баъзи кишилар, хусусан, баъзи уламолар аксар масала моҳиятини чуқур билмасликлари ва маърифатсизликлари боис никоҳ ва оила тушунчаларини нотўғри талқин этганликлари натижасида кишиларда шубҳали тушунчалар пайдо бўлишига сабаб бўлаётганликларини таъкидлаган. Оқибатда ана шундай олимлар жамиятга маънавий зиён етказибгина қолмасдан ўзларини маломат остига қўйишганини айтиб ўтган.

Фикрини давом эттириб аллома шундай ёзади: “Эй толиби содиқ, билгилким, ушбу иншони мутолаа ва муҳокама этишларидан сўнг бирор мусулмон бандасини, алалхусус бул фақиру заифни маломат қилмасинлар ва ўзларини ҳалокатга дучор этмасинлар. Балки ушбу нусхада бирор иштибоҳ ёхуд хатолик воқеъ бўлгон бўлса шафқат ва мағфират юзасидан бул фақирга эҳтиром бирла нуқсону иштибоҳни ёзма ёхуд лафз бирла баён этсалар бул ожизга кўп илтифот айлаган ва шариат обрўсини сақлаган бўлур эрдилар”. Байт:

Бипўш домони авфе ба зиллати мани маст,

⁷ Абдурауф Фитрат. Оила. Т., “Маънавият”. 2000 й, 14-бет.

⁸ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент. “Ўзбекистон”, -Б.290.



Ки обрўи шариат бад ин қадар наравад.

Мазмуни:

Авф этаги бирла ёпғил гар хатолик ўтган бўлса,

Андоғким шариат обрўсига путур етмасин⁹.

Асар ибтидосида муаллиф Ҳақ субҳона ва таоло дунёни яратишдан сўнг уни обод ва маъмур этиш учун Одам алайҳиссаломни халқ этганини ва дунёни ободлиги бу зотнинг якка ўзи билан бўлмаслиги боис, ҳамда ер юзида одамзот уруғини кўпайтириш учун Момо Ҳаввони яратганини таъкидлаб ёзади: **“Ҳақ Субҳона ва таоло шаръий никоҳ, яъни издивож (уйланиш) йўли бирла уларнинг касрати (кўпайишлари) учун Одам алайҳиссаломга Момо Ҳаввони жуфт айлади. Ва ҳар икковларини никоҳ йўли билан бирлашиб, инсонлар сонини кўпайтиришлари учун уларни дунёга равон этди”¹⁰.**

Алломанинг ёзишича Ҳақ Субҳона ва таолога яқинлашмоқ ва унинг васлига етишмоқнинг осон йўли, бандаларнинг шаръий никоҳ бирла бир-бирларига иттифоқ бўлишлари, шу йўл бирла қалбларига завқ, қувонч ва сурурни бахшида этмоқларидадир. Яъни оилада, жамиятда яқинларига ва барча инсонларга хушнудлик, шодмонлик, яхши кайфият ҳада этмоқ чин мусулмонлик белгисидир. Ушбу фикрини ривожлантириб муаллиф пайғамбаримиз айтган қуйидаги сўзларни келтиради: **“Никоҳ ила турмуш қуриб кўпайинглар, зеро мен қиёмат куни бошқа умматлар олдида сизларнинг кўплигингиз билан фахрланаман”¹¹.** Мазкур фикрни қувватлаб аллома яна пайғамбаримизнинг (с.а.в.) ушбу ҳадисини келтиради: **“Никоҳ менинг суннатимдир, кимдир ундан бошқасини ихтиёр этса у мендан эмас. Сизларнинг яхшиларингиз ўз аҳли аёлига хушмуомалада бўладиганларингиздир”¹².** Бу ерда мутафаккир никоҳ исломдаги энг мўътабар қоида эканлиги, никоҳсиз турмуш ахлоқсизлик, нопок яшаш тарзи эканини таъкидлайди. Кимдаким никоҳсиз ҳаётни ихтиёр этса у пайғамбаримиз умматидан эмаслиги ва унинг ҳаёти ахлоқсизлик ва зинодан иборатлиги таъкидланади.

Махдуми Аъзам ояти карима ва ҳадиси шарифдан кўплаб мисолларни фалсафий таҳлил ва талқин этиб шундай хулосага келадики, инсонни яратишдан Оллоҳ таолонинг мақсади одамзод қалбини ўзига макон айлаб инсон ботини ва зоҳирида ўз жамол ва жалоли, шуқуҳ ва заковатини жилвалантиришдир, деб шундай ёзади: **“Эй толиби содиқ билгилким, бу беш кунлик дунё ўткинчидир, ҳаётлик даврингизда аҳли аёлларингизни, айниқса жуфти ҳалолингизни қадрига етинг, кўнгилларини шод этинг, бахил бўлманг, улардан марҳаматингизни дариг тутманг, имкони борича аҳлу аёлларингизга ва яқинларингизга инъомлар қилинглр”¹³.**

Махдуми Аъзам рисолада никоҳ ва шу йўл бирла инсонлар кўпайишини ибодат деб ҳисоблаб ёзади: **“Инсон зотини кўпайиши ибодатдур ва ушбу амал шариат тақозоси ила никоҳ бирла амалга ошадур. Эркак кишининг ўз жуфти ҳалоли бирла қилган ҳар бир ҳаракати ҳам ибодатдур. Яъни эр киши ўз жуфти ҳалоли қўлларини қўлига олса унга бамисоли Каъба устунларини ушлаб юзига суртганчалик савоб ато этилур. Ва агар у ўз**

⁹ Махдуми Аъзам. “Асрор-ун-никоҳ” қўлёзма. ЎзРФА Шарқшунослик институти қўлёзмалар хазинаси, инв. № 2352 2а-бет

¹⁰ Махдуми Аъзам. “Асрор-ун-никоҳ”. Наманган, “USMON NOSIR MEDIA” нашриёти, 2023, -Б.46.

¹¹ Махдуми Аъзам “Асрор-ун-никоҳ” қўлёзма. ЎзРФАШИ қўлёзмалар хазинаси. “Мажмуат-ур-расоил” тўплами, инв. № 2352, 5а-бет

¹² Махдуми Аъзам “Асрор-ун-никоҳ” қўлёзма. ЎзРФАШИ қўлёзмалар хазинаси. “Мажмуат-ур-расоил” тўплами, инв. № 2352, 6а-бет

¹³ Махдуми Аъзам “Асрор-ун-никоҳ” қўлёзма. ЎзРФАШИ қўлёзмалар хазинаси. “Мажмуат-ур-расоил” тўплами, инв. № 2352, 7а-бет



жуфтини бағрига олса бамисоли Каъба устунларини кучоғига олганчалик ажри азимга эга бўлур. Ва агар эркак бирла аёл меҳр ва муҳаббат ила маҳрамона суҳбат айласалар, уларнинг барча гуноҳлари кечирилгай ва ундан кейин поклансалар ҳар бир қатра сув микдорича девони аъмолларига савоблар ёзиладур”¹⁴. Ва ушбу суҳбатдан ҳосил бўлувчи лаззат ва ҳузур ҳаловат тариқат издошининг Ҳақ Субҳона ва таоло васлига етишмоғидаги лаззат роҳатланиш олдида фоний ва ўткинчидир, деб ёзади аллома.

Махдуми Аъзам фикрича, эр-хотин мушкулотлардан иборат бўлган ҳаёт сафариди бирга ҳамнафас бўлиб, жисмоний ва руҳий осойишталикка шерик, инсоний-оилавий бурчларини бажаришда бир-бирларига дастёр, қайғу ва умидсизлик дамларида ғамхўр, саодат ва бахтиёрлик чоғида бир-бирларига ҳамдам бўлишлари лозим.

Махдуми Аъзамнинг “Асрор-ун-никоҳ” асари фалсафий таҳлилидан қуйидагилар маълум бўлди:

1. Никоҳ ва оила эр-хотиннинг ихтиёрий шаръий йўл билан тузилган иттифоқи-бирлиги бўлиб у ибодатларнинг бир туридир.
2. Никоҳдан мақсад инсон зурриёдини кўпайтириш, ота-онага ва халққа манфаат келтирувчи фарзандларни тарбиялашдир.
3. Никоҳнинг асосий сири-шаръий тузилган йўл билан солиҳ фарзандларни дунёга келтириш ва улар орқали хайрли ишларни амалга ошириш ва шу йўл бирла икки дунё саодатига эришмоқликдир.
4. Шаръий никоҳ билан тузилган оилада эркакларнинг ўз аҳли аёлларига, жуфти ҳалолларига меҳр-муҳаббатли, эҳсонли, илтифотли бўлишлари Ҳақ субҳона таоло васлига етишмоқликнинг йўлларида биридир.

Ҳозирги глобаллашув ва иқтисодий бўҳронлар юз бераётган, оила масласида турли ахлоқсиз қарашлар тарғиб этилаётган бир замонда, оила субъекти инсоният тарихидаги энг қадимий ва энг барқарор ижтимоий бирикмаларнинг бири сифатида эътироф этилмоқда ва унинг жамият тараққиётидаги ўрни ҳамиша муҳим бўлиб келгани таъкидланмоқда. Гарчи турли даврлар, турли мафкуравий шароитлар ва ҳар хил сиёсий тузумлар оиланинг тузилиши ва функцияларига ўз таъсирини ўтказган бўлсада, мазкур тузилманинг энг асосий вазифаси янги- руҳан ва жисмонан соғлом авлодни камол топтириш, авлодлар ўртасида маданий ва маънавий меросни узлуксиз етказиш бўғими ҳамда шахснинг ижтимоийлашуви, жамият мўътадиллиги, тинчлиги ва осойишталигини таъминлашдан иборат бўлиб қолаверади.

Махдуми Аъзам Косонийнинг “Асрор-ун-никоҳ” рисоласи юқоридаги вазифалар билан биргаликда, демократик-фуқаролик жамияти барпо этилаётган мамлакатимизда ёш авлод онгида соғлом турмуш тарзи, оилавий ҳаёт асослари, шарқона ахлоқ-одоб меъёрлари ҳамда инсонпарварлик, ватанпарварлик ва бағрикенглик ғояларини шакллантиришда муҳим аҳамиятга эгадир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каримов. И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. - Тошкент, “Маънавият”, 2008, - Б. 56.
2. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент. “Ўзбекистон”, - Б. 290.
3. Абдурауф Фитрат. Оила. - Тошкент, “Маънавият”. 2000 й, 14-бет.
4. Махдуми Аъзам. “Асрор-ун-никоҳ” қўлёзма. Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институти қўлёзмалар хазинаси, инв. № 2352.

¹⁴ Махдуми Аъзам “Асрор-ун-никоҳ” қўлёзма. ЎЗРФАШИ қўлёзмалар хазинаси. “Мажмуат-у-расоил” тўплами, инв. № 2352, 9а-бет



5. Махдуми Аъзам. "Асрор-ун-никоҳ". Таржимон ва сўзбоши муллифи Абдулвоҳидхон Нуриддинов. Наманган, "USMON NOSIR MEDIA" нашриёти, 2023, -Б. 46.

Mirzaxalov Sardorbek Jamoliddinovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Dotsent
Namangan davlat chet tillar institute

MILLATLARARO TOTUVLIK — O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xalqlarning millatlararo totuvlik, o'zaro bag'rikenglik va hamjihatlikda tinch-totuv, yurt ravnaqi, vatan obodligi yo'lida hanjihat bo'lib yashayotganliklari, buning uchun yurti-mizda huquqiy poydevorning yaratilishi, shu bilan birga, respublikamizda yashayotgan turli millatlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi faol ishtiroki borasidagi fikr-mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: millatlararo totuvlik, bah'rikenglik, ta'lim tizimi, millatlar, maktablar, maktabgacha tarbiya muassasalari, milliy-madaniy markazlar, milliy urf-odatlar, milliy an'analar

Kirish: O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda 130 ortiq millatlarning istiqomat qilishi va hamda ularning millatlararo totuvlik, o'zaro bag'rikenglik va hamjihatlikda tinch-totuv yashashlari uchun barcha imkoniyatlar hamda shart-sahroitlar yaratilganligi, mamlakatimizda buning huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy asoslarining poydevori o'rnatilganligi hech kimga sir emas albatta. Mavzuni yoritishda asosan Prezident Shavkat Mirziyoyev asarlarida ko'plab misollar keltirilib, respublikadagi bugungi kundagi millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilash hamda bag'rikenglikni ta'minlash masalalarida bir muncha mulohazalar keltirilgan, jumladan, "Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi" asarida respublikada turli milliy madaniy markazlar va ular faoliyatni qo'l-lab-quvvatlash kabi masalalar ilgari surilsa, "Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun" deb nomlangan asarida esa O'zbekistonda yasahyot-gan turli-tuman millatlarning ahilligi va ularga yaratilgan shart-sharoitlar va bag'rikenglik hamjihatlikning en yuksak namunasi sifatida e'tirof etilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston bolalarining boshqa millatlarga nisbatan hurmat, bag'rikenglik ruhida tarbiyalangani, bu borada ta'lim-tarbiya muassasalari bo'lmish maktablarda olib borilayotgan ijtimoiy-ma'rifiy siyosatning pirovar maqsadi, ham shunga qara-tilgani millatlararo totuvlik g'oyasini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "ko'p millatli xalqimizning eng katta yutug'i-mustaqillik yillarida yillarida erishgan eng katta boyligi, "Tur-kiston-umumiy uyimiz" degan shior ostida mamlakatimizdagi millatlararo do'stlik va ahillikni saqlay olganimiz, bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat yashab kelayotganligining o'zi xalqimizning eng katta manaviy yutug'idir [1.-B. 25].

Bir necha millat vakillarining bir oila bo'lib, hamjihatlikda yashab kelayot-gani, xususan, Toshkent viloyati, Pskent tumani, "Oqtepa" mahallasida yashab kelayotgan Jonsaidovlar oilasi misolida ko'rishimiz mumkin. Oilaning eng kattasi bo'lmish ota-millati tojik, ona-qozoq, yetti nafar kelini esa, o'zbek, qozoq, rus, uyg'ur, guruzin va chechen millatiga mansubligi yurtimizda "millatlararo totuv-likning yorqin namunasi" sifatida misol qilib keltirish mumkin [2.-B. 330].

Respublikamizda millatlararo totuvlik va o'zaro bag'rikenglikning huquqiy aso-si sifatida, O'zbekiston Respublikasi Konstititsiyasining 4-moddasida "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida



istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi[3.-B.6]" deb yozib qo'yilganligi, jahon hamjamiyatning O'z-bekistonda millatlararo totuvlikning ta'minlash yo'lidagi yuksak e'tirofiga sazovor bo'ldi.

2017 yil 19 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi va ushbu far-mon bu sohadagi islohotlarning yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi [4.-B. 81].

Shuningdek, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan, mamlakati-mizda millatlar hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun, bir muncha chora-tadbirlar va takliflar ilgari surildi. Jumladan, millatlararo munosabatlar sohasida tizimli asosda ilmiy, ijtimoiy tadqiqotlar olib borish, millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqola-lar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materillarini tayyorlash ishlarini kuchaytirish, millat-lararo totuvlikni mustahkamlash, unga xavf soladigan turli muammolarni barvaqt oldini olish, mazkur sohadagi tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo'yicha ta'sir-chan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda amalga oshirishdek muhim maqsad-lar kun tartibiga qo'yildi va davlatimiz ichki siyosatida Prezidentimizning yuqo-ridagi mulohazalari ushbu sohada dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda[5.-B. 281].

Keyingi yillarda ham turli millatlarning farzandlarini ta'lim olishlari, har tomonlama rivojlanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilib, hattoki ota-bobolaridan qolgan milliy urf-odatlarini saqlab qolishga, xalq og'zaki ijodi, milliy raqs va qo'shiqlarini, marosimlari va an'analarini rivojlanishi uchun keng imkoni-yatlar yaratib berildi.

Masalan, Sovet imperiyasi inqirozga uchrab hali parchalanmagan bir sharoit-da O'zbekiston Madaniyat vazirligi qoshida 1989 yilda millatlar Madaniyat mar-kazi tashkil etilib, uning tarkibida 12 ta, jumladan qozoq, koreys, arman, ozarbay-jon, tojik markazlari faoliyat ko'rsata boshladi[6. -B. 272].

O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilib, o'z erkiga ega bo'lgach, yurtimizda yashab, istiqomat qilib kelgan turli tuman millatlarini irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar, O'zbekiston fuqarosi sifatida huquq va erkinliklarini har tomonlama ta'minlash, bag'rikenglik, o'zaro hurmat, ishonch, vatanparvarlik, do'stlik hamda yuksak ehtirom ko'rsatish yo'lida dadil siyosiy tadbirlarni amalga oshirish yo'lidan bordi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ushbu sohada olib borgan izchil siyosati tufayli, 2023 yilga kelib, mamlakatimizda 150 ta milliy ma-daniy markazlar ish yuritayotgani, o'zbek tili bilan birga, qoraqolpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritib kela-yotgani, maktablarimizda ta'lim-tarbiya 7 ta tilda olib borilayotganligi dunyo ama-liyotida noyob tajriba sifatida yuksak darajada e'tirof etildi[7.-B. 231].

Yangi O'zbekistonni barpo etish, turli-tuman millat farzandlarini salohiyati, imkoniyatlarini namoyon etishda, davlatimiz tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlar, yurtimizda millatlararo totuvlikni ta'minlash, farzandlarimizni bag'ri-kenglik va vatanparvarlik kabi fazilatlar bilan tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan say'i-harakatlarimizning mustahkam podevori sifatida muhim ahamiyat kasb eta-di. Zero, respublikamizning eng katta boyligi, aslida mehnatkash, bag'rikeng, ko'p millatli xalqimiz desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar/ Используемая литература / References

1. Mirziyoyev. Sh. Xalqchil islohotlar xalqimiz manfaatlariga xizmat qiladi. 7-jild. Toshkent.:O'zbekiston. 2023.



2. Mirziyoyev. Sh. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun. Toshkent.:O'zbekiston. 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.:O'zbekiston. 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning faoliyati xronikasi. Toshkent.:O'zbekiston. 2022.
5. Mirziyoyev. Sh. Yangi O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.: O'zbekiston. 2023.
6. O'zbekistonning yangi tarixi. "Mustaqil O'zbekiston tarixi". 3-tom. Toshkent.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. 2009.
7. Mirziyoyev. Sh. Yangi O'zbekiston-taraqqiyot strategiyasi asosida demo-kratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. Toshkent.:O'zbekiston. 2023.

To'xtarov Xurshid Ismatullayevich

Mustaqil tadqiqotchi

DINIY BAG'RIKENGLIK VA AQIDAPARASTLIK

Annotatsiya. Maqolada aqidaparastlik tushunchasining moniyati diniy aqidaparastlik tushunchasi bilan taqqoslash asnosida ochib berilgan. Shuningdek, aqidaparastlik ijtimoiy taraqqiyotga katta xavf ekanligi va unga qarshi kurashda mustaqillik yillarida diniy bag'irikenglik g'oyalari targ'ibotiga alohida e'tibor qaratilayotganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: aqidaparastlik, diniy aqidaparastlik, mustaqillik, mafkuraviy kurash, ijtimoiy taraqqiyot, milliy taraqqiyot, diniy qadriyatlar, diniy bag'irikenglik.

Annotation. The article reveals the meaning of the concept of fanaticism by comparing it with the concept of religious fanaticism. It also states that fanaticism is a great threat to social development and that in the fight against it, special attention is paid to the promotion of the ideas of religious tolerance during the years of independence.

Keywords: fanaticism, religious fanaticism, independence, ideological struggle, social development, national development, religious values, religious tolerance.

Kirish. Keyingi o'n yilliklar mobaynida dunyo taraqqiyoti ko'plab evrilishlarni boshdan o'tkazishga majbur bo'lgani va bunda diniy aqidaparastlik hamda ekstremistik ruhda g'oyalarning targ'ibotining kuchaytiriganligi alohida o'rin tutganligi, ta'kidlash lozimki, keng jamoatchilik ongida chuqur iz qoldirdi. Garchi taraqqiyparvar insoniyat bunday aqidaparastlik kayfiyatidagi oqimlarga munosib zarbalar berish orqali jiddiy kurash olib borgan bo'lsa-da, biroq ushbu ekstremistik kuchlarning xalqlar va davlatlar tinchligi va osoyishta hayotiga xavfi va xatari, afsuski, bugungi kunga qadar saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda ham mazkur kuchlar tomonidan o'zlarining yovuz niyatlariga erishish yo'lidagi hatti-harakatlarini amalga oshirish uchun uringanliklari har qanday aqidaparastlik harakatlarini atroflicha o'rganish va ularning oldini olish choralarini ko'rish zarurligidan darak beradi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy manbalarda aqidaparastlik "kishilar ongi va qalbiga ma'lum mafkuraviy tazyiqlar asosida singdirilib, e'tiqod darajasiga ko'talilgan dunyoqarash shakllaridan biri" [1; 130] ekanligi qayd etilgan. Shu ma'noda aqidaparastlik muayyan yunalishdagi biron bir ta'limotga oid fikr va qarashlarni "zamon va makondan ajratgan holda" ularni mutlaq haqiqat



ekanligini da'vo qilish orqali o'zgartirib bo'lmaydigan mohiyat sifatidagi ustivorligi va hukmronligini ta'minlash maqsadidagi mafkuraviy kurashning bir turi, deb atash mumkin.

Biroq shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, keyingi o'n yilliklar mobaynida ijtimoiy ongda ushbu tushuncha aksariyat hollarda, tafakkurning Ayniyat qonuniga zid ravishda, "diniy aqidaparastlik" tushunchasi bilan aynanlashtirilgan mazmunda qo'llanilmoqda. Vaholanki, aqidaparastlik tushunchasi "diniy aqidaparastlik" tushunchasiga nisbatan hajmi ham, mazmuni ham ancha kengdir. Zero, aqidaparastlik faqat dindagina namoyon bo'ladigan hodisa bolib qolmasdan, balki fanda ham, falsafada ham, siyosat va madaniyat kabi ijtimoiy ong shakllarida ham kop uchraydigan hodisadir. Bizningcha, oxirgi paytda "diniy aqidaparastlik" tushunchasining bu qadar ommalashib ketganligining ikki sababi mavjud bo'lib, birinchidan, barcha diniy tashkilotlar va dindorlarning faoliyati diniy aqidalar bilan tarixan uzviy bog'lanib ketganligi tufayli aqidaparastlikning faqat diniy ta'limotlarga xos hodisa sifatida talqin etilishi bolsa[1; 130], ikkinchidan, keyingi o'n yilliklar mobaynida butun dunyo miqyosida siyosiy maqsadlarga erishishning asosiy quroli sifatida dindan unumli foydalanishni maqsad qilib olayotgan ekstremistik kuchlarning ta'sir doirasi juda faollshuvi oqibatida kishilarning tinch-osoyishta hayoti va turmushiga nisbatan xavf-xatarning ancha oshib borayotganligi hamdir.

Istiqlol sharofati bilan O'zbekiston taraqqiyotning yangi bosqichiga erishgach, ijtimoiy hayotimizning barcha sohalari singari ma'naviy hayotda ham katta ijobiy o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Jumladan, ablod-ajdodlarimizning buyuk vakillari bo'lgan olimu-ulamalarimizning ulug' nomlarini qayta tiklash, ularning o'lmas ilmiy-ma'naviy merosini xalqimizga qaytarish, muqaddas dinimiz bolgan Islom qadriyatlariga qaytish, unga nisbatan yo'l qo'yilgan nohaq hujumlar va harakatlarning oldini olish, Islom qadriyatlari va ta'limoti taraqqiyoti uchun beqiyos hissa qo'shgan vatandosh ulamalarimiz hayoti va ijodini keng o'rganishni yo'lga qo'yish singari bunyodkorlik ishlari keng quloch yoydirildi.

Biroq jamiyat taraqqiyotidagi tub burilish pallalari hamma vaqtlarda ham bir tekisda sodir bo'lavermaganligi kabi mustaqillikning dastlabki davrlarida ham ayrim muammolar yuzaga keldi. Jumladan, yangilik bilan eskilik o'rtasidagi qonuniy kurash davrlarida ko'zga tashlanganidek, hayotda ro'y berayotgan yangiliklarning asl mohiyatini anglab yeta olmayotgan, ba'zi hollarda ochiqdan ochiq inkor etadigan eskilik tarafdorlaridan iborat ayrim kuchlar ham paydo bo'ladiki, ular jamiyatdagi yangilanish jarayonlariga jiddiy to'siq bo'b xizmat qiladilar. Shuningdek, bunday pallalarda tomoshabin singari chetdan kuzatib turishni ma'qul ko'radigan guruhlarining paydo bo'lishi ham mumkinligi va ularning jamiyat hayoti va rivoji uchun xavflilik darajasi katta bolishi taraqqiyot yo'lga kirgan omma vakillarini hushyorlikka da'vat etmasdan qolmaydi. Ana shunday yovuz niyat va muddaolarni maqsad etib olgan diniy aqidaparastlik va ekstremizm g'oyalari bilan qurollangan ayrim kuchlarning o'sha yillarda paydo bo'lganligi xalqimizning eng nozik va ayni paytda umidvor qatlami bo'lgan yoshlrimiz ongini egallash uchun astoydil bel bog'laganligi keyingi o'n yilliklar mobaynida kuzatilgan o'ta xatarli muammolrdan biri bo'ldi, deyishimiz mumkin.

Bunga yaqqol misol sifatida o'z aqidalarini yoshlarimizning e'tiqodiga aylantirish uchun astoydil kirishgan Xizbut-Tahrir oqimi haqida qisqacha to'xtalishimiz mumkin. Xususan, xizbchilarning aqidaviy da'volaridan biriga ko'ra "... muqallid (iymoniga dalil keltira olmaydigan kishi)ning iymoni iymon bo'masligi, xizbning fikrati va tariqatiga iymon keltirish zarurligi, shar'iy manbalardan aql va tafakkurni ustun qo'yishi" talab etiladi [2; 236].

Xizbutchilar o'z aqidalarini maslakdoshlari ongiga singdirishning uch bosqichli yo'lini ishlab chiqqanliklari ham ma'lum. Unga ko'ra ana shu yo'l bilan mustahkam e'tiqodni qaror toptirgach, jihod orqali amaldagi hokimiyatni egallash mumkin boladi.



Aqidaparastlikning asosiy niyatiga xos eng dahshatli jihat ertami-kechmi uning yo'li baribir terror yo'li bilan kesishishga olib borishidir. Buni radikal islom oqimlari tomonidan amalga oshirilgan dunyoning ko'pgina davlatlari qatorida O'zbekistonda ham sodir etilgan portlatishlar, suiqasdlar singari qo'poruvchilik va terroristik harakatlar, jihad e'lon qilish va davlat to'ntarishini amalga oshirish uchun urinishlar, fuqarolar urushuni keltirib chiqarish, begunoh insonlarning o'limiga sababchi bo'lish kabi "tajribalarida" yaqqol ko'rdik.

Shuni qayd etishimiz mumkinki, mazkur kuchlar dastlabki pallalarda o'zlarining yot va zararli g'oyalarini faol targ'ib etish orqali yoshlarimizning e'tiqodi sust bo'lgan muayyan bir qismini o'z ta'siriga tushirib olish borasida ayrim muvaffaqiyatlarga erishdilar ham. Ko'plab tashqi dushmanlarimizning qo'llab-quvvatlashi va ko'magi yordamida ushbu oqimlar ta'siriga tushib qolgan ba'zi yurtdoshlarimiz ularning puch va yolg'on va'dalariga uchib mavjud tuzumni o'zgartirish, xalqimizning xohish-istagiga zid ravishda amaldagi konstitutsion tuzum o'rniga islom davlatini o'rnatish va xalifalik tuzumini barpo etish niyatidagi qator xudbinliklarini amalga oshirish uchun urinib ko'rdilar. Tabiiyki, o'sha davrda konstitutsion davlat va hokimiyat tomonidan ko'rilgan o'z vaqtidagi sa'y-harakatlar evaziga bunday harakatlarning oldi olindi va Yangi O'zbekiston jamiyati taraqqiyoti va rivojidagi yangilanish jarayonlari uchun barqarorlik ruhi ta'minlandi.

Mabjud ma'lumotlarni atroflicha o'rganish shundan dalolat beradiki, aqidaparastlik, aslida barcha dinli ta'limotlarda uchraydi. Masalan, XIII asrda katolik cherkovi tomonidan o'rnatilgan inkvizitsiya tufayli uning aqidalarini rad etuvchi kishilar ta'qib ostiga olinishi oqibatida minglab odamlar qurbon bo'lganligini tasdiqlovchi ko'plab tarixiy misollar ekstremizmning o'ziga xos ko'rinishidir. Shuning uchun ushbu holni faqat islomga oid hol sifatida talqin etish noto'g'ri hisoblanadi. Chunki islom dini kishilarning turmush tarzi va muayyan qadriyatlar tizimi sifatida hech qachon ekstremistik tuzilmalarning ma'naviy manbai deb qaralishi, jahonning turli burchaklarida amalga oshirilayotgan terrorchilik xurujlarining sababchisi sifatida qaralishi mumkin emas. Bunday urinishlar mohiyatan voqeilikni ataylab buzib ko'rsatish, musulmonchilik qadriyatlarini obro'sizlantirish, uning insonparvarlik mohiyatiga putur yetkazish negizida jamiyat hayotida qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini izdan chiqarish va turli din vakillari orasidagi hamjihatlik munosabatlari orasida o'zaro nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishga qaratilgan urinishdan boshqa narsa emas.

Ayni paytda ta'kidlash lozimki, islom dinini niqob qilib olgan aqidaparastlik oqimlarining asl maqsadi va muddaosi keng xalq ommasi bilan din o'rtasidagi haqiqiy uzviy birlikni ko'rsatish o'rniga, jamiyatda tartibsizliklar va parokandaliklarni yuzaga keltirish, odamlar ongida tahdid va qo'rquv tuyg'usini uyg'otish orqali ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarish yo'li bilan hokimiyatga erishishdan ham iborat.

Ushbu o'rinda yana bir narsani alohida ta'kidlamaslik mumkin emas, ya'ni aqidaparastlik ruhida hech bir oqim yoki tashkilot o'zlari jar solayotgan yoki intilayotgan jamiyat qurilishining biron bir modelini taklif eta olmaydi. Buning o'rniga hozirgi davrda nasroniylik, islom, yahudiylik singari dinlar ta'limotidan foydalanayotgan ko'plab ekstremistik oqim aqidaparastlari jamiyatning aniq shaklu-shamoyilini taklif etish o'rniga turli xayoliy jamiyat to'g'risidagi qarashlari va tasavvurlarini ilgari surishmoqda. Bunda ular uchun eng muhimi tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqargan holda jamiyatda avvalo diniy bag'rikenglik muhitini izdan chiqarishdir. Shunday ekan, bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri aholining hech bir qatlami vakilini aqidaparastlikning istalgan ko'rinishlari ta'siriga tushib qolishning oldini olishdan iborat.

Xulosalar. Bugungi murakkab zamon va makonda ana shunday yovuz aqidaparast kuchlar hamon hayotimizda yashab qolish uchun choralar izlashayotgan ekan, yangilanish jarayonlari jamiyatimiz taraqqiyotining istiqboldagi marralariga eriishishning asosiy yo'li etib belgilab olingan



hozirga davrda birgalikda qo'ni-qoshni va bahamjihat bo'lib umrguzaronlik qilayotgan turli millat vakillari ortasida diniy bag'rikenglik tamoyilini keng targ'ib etish eng maqbul va oqilona echimlardan biridir. Zero, jamiyatni diniy bag'rikenglik tamoyillari ustuvor bo'lgan ijtimoiy taraqqiyot o'zanida rivijlantirish faqat Yangi O'zbekiston uchungina emas, balki butun jahon taraqqiyoti uchun ham juda muhim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov Q, Jahon falsafasl qomusi. Toshkent. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2023 yil.
2. Тулепов А. Ислом ва ақидапараст оқимлар. Тошкент, "Шарқ" нашриёти. 2013 yil.



3-SHO'BA. GLOBALLASHYOTGAN DUNYONING IJTIMOY MANZARASI

Sodirjonov Muxriddin Mahamadaminovich

Namangan davlat universiteti

Ijtimoiy fanlar kafedrası v.b.professori

JADID MA'RIFATI: BAG'RIKENGLIK VA HAMJIHATLIK TALQINI

Annotatsiya. Bugungi globallashuv sharoitida milliy suverenitet, chegaralar va identitetlar tobora nisbiylik kasb etmoqda; transmilliy axborot oqimlari, iqtisodiy va madaniy almashinuvlar jamiyatlar oldiga yangi savollar qo'ymoqda. Shu makonda ijtimoiy barqarorlikning yadro tamoyillari – bag'rikenglik va hamjihatlik – milliy birdamlikni mustahkamlash, fuqarolik totuvligini kuchaytirish, g'oyaviy integratsiyaga erishishning kalit omillaridan bo'lib qolmoqda. Ushbu maqola jadidchilik harakatining ma'naviy-ma'rifiy konsepsiyalarida mazkur tamoyillarning shakllanishi va tatbiqini tahlil qiladi hamda “Yangi O'zbekiston” strategik yondashuvlari bilan uzviy aloqalarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, bag'rikenglik, hamjihatlik, milliy birdamlik, g'oyaviy integratsiya, ma'rifat, Ibrat, Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Yangi O'zbekiston.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida integratsion jarayonlar jadallashar ekan, milliy suverenitet va chegaralar tushunchasi nisbiylashmoqda. Transmilliy axborot oqimlari, iqtisodiy-madaniy almashinuvlar yangi xavf va imkoniyatlarni yuzaga keltirib, milliy barqarorlik, ideologik yakdillik va fuqarolik birdamligining yangicha mezonlarda baholanishiga olib kelmoqda. Shu zamin muhitida har bir davlat o'z ijtimoiy-siyosiy muvozanatini ta'minlash, fuqarolarni yagona g'oyaviy tamoyillar atrofida birlashtirish zarurati bilan yuzma-yuz turadi.

O'zbekiston ham yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, milliy birlikni mustahkamlash va fuqarolik totuvligini shakllantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni ilgari surmoqda. Bu jarayonda ijtimoiy hamkorlik turli qatlamlar, millat va elatlar o'rtasida o'zaro hurmat va ishonchni kuchaytirish bilan birga, intellektual-madaniy resurslarni safarbar qiladi. Davlat siyosatida ijtimoiy birdamlik va g'oyaviy uyg'unlik asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida ilgari surilib, fuqarolik faolligini oshirish, ziddiyatlar va bo'linishlarning profilaktikasi maqsad qilinadi.

Shunday qilib, zamonaviy davrda **ijtimoiy integratsiya** va **milliy birlashuv** O'zbekiston jamiyatining barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi hal qiluvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi. “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasi ham fuqarolar ishtirokini kengaytirish, moddiy-ma'naviy farovonlikni oshirish hamda umumbashariy qadriyatlar asosida siyosiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan paradigmatic yondashuvni taklif etadi. Maqola vakillik qilayotgan ilmiy pozitsiya – jadid merosidagi bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini ayni jarayonlar bilan **kontinuitet**da ko'rish, ya'ni tarixiy ildizlardan zamonaviy siyosiy-madaniy amaliyotgacha bo'lgan **uzviylikni** ochishdir.

Tahlil va natija. Hamjihatlik – umumiy maqsadlar yo'lida ijtimoiy subyektlarning muvofiqlashtirilgan hamkorligi sifatida, bag'rikenglik esa – ijtimoiy xilma-xillikni tan olish, farqlar bilan konstruktiv yashash hamda nizolarni mo'tadil boshqarish madaniyati sifatida talqin etiladi. Jadidlar mazkur ikki kategoriyani normativ tamoyil darajasida cheklab qo'ymay, balki ularni ta'lim tizimi, matbuot va sahna amaliyoti, til-yozuv islohoti hamda hatto urbanizatsion rivojlanish dasturlarida amaliy mexanizmga aylantirishga muvaffaq bo'lgan. Natijada “g'oyaviy integratsiya”



mavhum konsepsiyadan chiqib, kundalik ijtimoiy institutlarga singdirilgan, barqaror amaliy dasturga aylangan.

Shu nuqtai nazardan, milliy birlashuv va ijtimoiy hamkorlik jamiyatning axloqiy hamda ontologik poydevorini mustahkamlash orqali ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. O'zbekiston singari rivojlanayotgan jamiyatlarda bu g'oya faqat institutsional tuzilmalarni qayta tashkillashtirishni emas, balki qadriyatlar tizimini – falsafiy-axloqiy me'yorlar, ijtimoiy xulq kodekslari va fuqarolik madaniyatini – chuqur rekabratsiya (qayta sozlash) qilishni ham taqozo etadi.

Yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy hamkorlik milliy birlashuv g'oyasi asosida shakllanib, turli ijtimoiy guruhlarni umumiy maqsadlar atrofida birlashtiradi. Bu jarayon nafaqat ijtimoiy barqarorlikni, balki jamiyatning axloqiy asoslarini mustahkamlash orqali falsafiy yaxlitlikni ham ta'minlaydi. Davlatlar o'z milliy o'ziga xosligini saqlab qolish bilan birga, universal axloqiy qadriyatlar (masalan, inson huquqlari, tenglik) asosida ijtimoiy shartnoma tuzishi zarur. O'zbekiston uchun bu jarayon milliy qadriyatlar va global integratsiya o'rtasidagi muvozanatni topish orqali amalga oshiriladi. Natijada, ijtimoiy hamkorlik jamiyatda tinchlik, barqarorlik va yuksak taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili sifatida qoladi. "Har bir avlod madaniy riojlanishni bo'sh joydan emas, balki o'zidan oldingi avlodlar yaratgan qadriyatlarni o'zlashtirishdan boshlaydi. Bu o'zlashtirish o'ziga xos bir xomashyo, yangi qadriyatlar yaratish, madaniyat rivojini yanada yuqoriroq bosqichga ko'tarish yo'lidagi tayanch vazifasini o'taydi"[1. B. 66. (111)]. Yangi O'zbekiston strategiyasining asosiy maqsadi fuqarolarga o'z orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish va mustaqil ravishda farovonlikni oshirish uchun teng imkoniyatlar yaratishdir.

Bugungi islohotlar, modernizatsiya jarayonlari va ijtimoiy strategiyalar mohiyatiga nazar tashlanar ekan, ularning tub zamirida aynan jadidlar ilgari surgan konseptual qarashlar, erkinlik va adolat, ijtimoiy barqarorlik va milliy o'zlikni anglash g'oyalari mujassam ekani ayon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda ham e'tirof etilganidek, "jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qiladi"[2. – B. 3.].

Qadimgi yunon faylasuflarining qarashlari, xususan, Demokritning fikricha, "millat" – bu "har bir yurtdagi yagona haqiqiy sohiblikni ifodalaydigan omil" sifatida tushuniladi[3. – B. 64.]. Bu yerda u xalqqa egalik emas, balki xalq orqali yuritiladigan ijtimoiy adolat va umumiylik g'oyasini nazarda tutadi. Bunday yondashuv "millat" tushunchasining siyosiy-subyektivlik bilan uzviy aloqada ekanligini ko'rsatadi.

Jadidlar faoliyatining markazida hayotda ro'y berayotgan murakkab ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarni teran anglash, ularni tahlil etish va bu asosda xalqni taraqqiyot sari yetaklovchi ma'naviy-madaniy strategiyalarni ishlab chiqish zarurati turardi. Milliy ong va tafakkurni jahon taraqqiyoti jarayonlari bilan uyg'un holda rivojlantirish, g'oyaviy qarashlarda yangilanishga erishish ularning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan. Jadidlarning fikricha, xalqni yangicha dunyoqarash asosida tarbiyalash, uni taraqqiyotga intilishga undash mustamlakachilikdan ozod bo'lishning eng samarali yo'lidir.

Mazkur jarayonning asosiy mafkuraviy-badiiy, siyosiy va ma'naviy ko'rinishi Mahmudxo'ja Behbudiy, Muhammad Sharif So'fizoda, Saidrasul Aziziy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy kabi yirik ma'rifatchi mutafakkirlarning ilmiy, adabiy va siyosiy faoliyatida o'z ifodasini topdi. Ular tomonidan ilgari surilgan fikrlar zamonaviy milliy ongning shakllanishida muhim rol o'ynab, xalqning ijtimoiy-siyosiy o'zligini tiklashga xizmat qildi.



Chorizm mustamlaka siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri Turkistonda ruslashtirish siyosatini amalga oshirish bo'lib, bu jarayonda e'tibor aynan yosh avlodga qaratilganligi bejiz emas edi. Mustamlaka ma'murlari, rus-tuzem maktablarini tashkil etish orqali, mahalliy elitalar safidan imperiyaga sadoqatli gumashtalar tayyorlashni maqsad qilgan edilar. "Ular ana shunday maktablarning bitiruvchilaridan kelajakda Turkistonni idora etishda o'zlariga sodiq bo'lgan gumashtalar tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan edilar"[4. – B. 15.]. Bularning oqibatida, "mahalliy millatlarni davlatni boshqarishdan uzoqlashtirish, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini poymol qilishga intilish holatlari ijtimoiy norozilikning turli-tuman shakllarini keltirib chiqardi"[5. – B. 12.]. Jadidchilik harakati o'z mohiyatiga ko'ra, millatning asl farzandlari tomonidan milliy o'zlikni saqlab qolish, millat hurligini tiklash va istiqbolga erishish yo'lida olib borilgan ongli, tizimli va fidokorona kurash sifatida namoyon bo'ldi. Bu harakat vakillari maktab-maorif, matbuot, badiiy adabiyot, teatr va san'at sohalarida milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surib, xalq tafakkurini yangilashga, uni milliy qadriyatlar, din va ilm uyg'unligida tarbiyalashga harakat qildilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan ushbu harakatning ijtimoiy-siyosiy negizi – o'z davrining inqirozli holatidan chiqish yo'llarini ilm, ma'rifat va milliy o'zlikni uyg'otish orqali izlashga asoslangan edi. Ushbu harakat vakillari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy kabi milliy ziyolilar chorizm istibdodiga qarshi ma'rifat maydonida kurash olib bordilar. Ular o'z ijodiy va tashkilotchilik faoliyatlari bilan zamonasining eng dolzarb masalalariga javob izladilar, xalqda intellektual uyg'onish va tarixiy mas'uliyat tuyg'usini shakllantirdilar. Ular Chorizm hukumati tomonidan tarixiy xizmati tufayli ta'qib etilgan bo'lsa, Sovet tuzumi o'z qatag'oni bilan fojiali tarzda tugatdi. Shu ma'noda, mustaqillik va milliy ma'rifatga bo'lgan ehtiyoj, jadid ma'rifati tarixiy haqiqatining tadqiqi ijtimoiy falsafada muhim masala hisoblanadi. Jadid ma'rifatparvarlarining milliy taraqqiyotga qo'shgan hissasi va qatag'on azoblari tufayli milliy qahramonlik darajasida baholanishi haqidagi fikrlarga qo'shilamiz[6. – B. 3].

Jadidchilik harakati o'z zamonasining ilg'or ijtimoiy tafakkuri vakillari tomonidan tashkil etilgan milliy-ma'naviy uyg'onish harakati bo'lib, u asosan xalqning siyosiy, ma'naviy va madaniy ongini uyg'otishga qaratilgan edi. Jadid ziyolilari jamiyatda mavjud muammolar, mustamlakachilik siyosatining salbiy oqibatlari, xalqning ijtimoiy-ma'naviy zaifliklari va tafakkur tanazzuli sabablarini faqat nazariy risolalar orqali emas, balki **ko'rgazmali chiqishlar**, publitsistik maqolalar, dramaturgiya, adabiyot va sahna orqali keng ommaga yetkazdilar. Ular bu orqali o'z g'oyalarini ommaga samarali va hissiy ta'sirli tarzda singdirishga erishdilar. "Har bir insonning madaniyati uning jamiyat, birinchi galda davr, xalq, sinf, jamoa va boshqalarning madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish orqali yuzaga keladi. Bu jarayon ziddiyatli bo'lib turlicha tarzda kechadi, shunday bo'lishiga qaramasdan, biz hamma vaqt insonda shakllangan umumiy, ijtimoiy sifatlarni uning individual xususiyatlari orqali qarab chiqamiz. Shuning uchun individual estetik madaniyatni u yoki bu jamiyatning estetik boyligi sifatida e'tirof etish lozim bo'ladi"[7. –B. 47. (52)].

Shuningdek, jadidchilik harakati Turkistondagi o'zbek ziyolilarining milliy o'zlikni anglashda **sotsiokultural uyg'onish paradigmasini** yaratishga urinishidir. Bu paradigma xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, diniy-dunyoviy qadriyatlarini saqlab qolgan holda, ularni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan edi. Shunday qilib, jadidlarning faoliyati madaniyat nazariyasida **"aktiv modernizm"** deb ataluvchi ijtimoiy transformatsiya modeliga yaqin turadi.

Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalari ularning badiiy-ijodiy merosida, publitsistikasi, maktabgacha va maktab ta'limi, dramaturgiya, matbuot va ijtimoiy islohotlarga doir tashabbuslarida o'zining keng qamrovli ifodasini topdi. Ularning qarashlari xalqni faollikka undovchi, o'zligini



anglashga va mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi ijtimoiy ongni shakllantirishda hal qiluvchi o'rin tutdi[8. – B.738].

Ma'rifatparvarlik harakati taraqqiyotga intilgan ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini ifodalagan bo'lib, u siyosiy jihatdan zamonaviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan mafkuraviy harakat bo'lib xizmat qilgan. Jadidlik harakatining yetuk namoyandalari – Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida g'oyaviy birdamlik, milliy hamjihatlik, ilmiy-falsafiy tafakkur va ma'naviy yuksalish g'oyalari o'zining o'ziga xos talqinini topgan.

Abdurauf Fitrat o'z asarlarida millat saodati va yuksalishining asosiy omili sifatida **ichki ijtimoiy tartib-intizom** va **oilaviy mustahkamlikni** alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha: “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi.”[9. –B.4].

Bu yondashuvdan ko'rinadiki, Fitrat jamiyat barqarorligi va taraqqiyoti negizida oilaviy qadriyatlar, ichki ijtimoiy birdamlik va tarbiya tizimining mustahkamligi yotishini falsafiy asosda ilgari surgan. U milliy tiklanish va yuksalishning ijtimoiy-psixologik mexanizmini aynan shaxsning ijtimoiylashtiruvchi birinchi instituti – oiladan boshlab izohlaydi.

Mazkur fikr orqali Abdurauf Fitrat inson hayotidagi dastlabki ijtimoiy tajribalar – xususan, oilaviy tarbiya va ota-onaning ta'siri – kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyatlar, shaxsiy erkinlik, ijtimoiy faollik va hatto milliy mustaqillik kabi yuksak maqsadlar bilan bevosita bog'liq ekanligini asoslaydi. Fitrat nazarida, shaxsning milliy ong va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi uning keyingi ijtimoiy-madaniy faoliyatini belgilabgina qolmay, balki jamiyatning kelajagi va taraqqiyot darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Umuman olganda, jadidlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalar Turkiston xalqlarining milliy uyg'onish jarayonini tezlashtirish bilan bir qatorda, jahon taraqqiyoti bilan uyg'un rivojlanish uchun zarur bo'lgan ichki ijtimoiy faollikni uyg'otishga xizmat qilgan. Ular o'z faoliyatida jadidchilikni tarixiy sharoit, zamon talablari va xalq manfaatlariga mos fasllarda shakllantirib, uni mustamlakachilik siyosati va ma'naviy qaramlikka qarshi ruhiy, axloqiy va siyosiy qarshilik kuchiga aylantira oldilar. Bu harakat nafaqat siyosiy mustaqillikni maqsad qilgan, balki milliy o'zlikni tiklash, fikriy erkinlikni qaror toptirish va intellektual madaniyatni rivojlantirishni ham o'zining strategik vazifasi sifatida belgilagan.

Munavvarqori Abdurashidxonov faoliyatida esa jadidchilikning ma'rifat va matbuot orqali zamonaviy ijtimoiy ongni shakllantirish yo'nalishi yorqin ifoda topadi. U milliy matbuotni xalqni uyg'otuvchi, ijtimoiy-siyosiy fikrni shakllantiruvchi va yangicha tafakkurni targ'ib etuvchi muhim vosita sifatida ko'radi. Uning publitsistik va pedagogik qarashlarida ma'rifat, adolat, tanqidiy fikrlash, mushohada madaniyati, yoshlarni sog'lom g'oya asosida tarbiyalash kabi tamoyillar ustuvor o'rinni egallaydi. Abdurashidxonov nazarida, jamiyatni isloh qilish avvalo fikrni isloh qilishdan, fikrni isloh qilish esa matbuot, ta'lim va tarbiya orqali amalga oshirilishidan boshlanadi.

XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati O'zbekiston va umuman Turkiston mintaqasida milliy birlik, g'oyaviy uyg'unlik va ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasining tarixiy-mafkuraviy poydevorini yaratdi. Ularning qarashlari jamiyatni befarqlik va qaramlik uyqusidan uyg'otdi, milliy o'zlikni anglash, intellektual rivojlanish va siyosiy mas'uliyat tuyg'usini kuchaytirdi. Shuning uchun ham jadidlar ilgari surgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, millatlararo totuvlik, g'oyaviy birlashuv va ma'naviy tiklanish jarayonlarida muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.



Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining diniy-ma'rifiy qarashlarida islom dinining ijtimoiy, axloqiy va ma'rifiy jihatlariga alohida urg'u beradi. Uning asarlarida islom dini nafaqat e'tiqod tizimi, balki taraqqiyotga xizmat qiluvchi axloqiy-ruhiy kuch sifatida talqin etiladi. Behbudiy ijtimoiy taraqqiyotning negizida ma'rifat va din uyg'unligini ko'radi. Unga ko'ra, inson diniy e'tiqodsiz yashasa, u hayotining asosiy ma'naviy tayanchidan mahrum bo'ladi. "Dinsiz yashamoq hayvoniylikdur", degan qat'iy ifodasi Behbudiy uchun dinning nafaqat shaxsiy e'tiqod, balki insoniylik mezonini sifatida qaralishini anglatadi[10. – B. 45–47]. Behbudiy o'z ijtimoiy-diniy qarashlarini nafaqat publitsistik maqolalar, balki ilmiy-ma'rifiy asarlar orqali ham asoslab bergan. Jumladan, uning "Muxtasar islom tarixi", "Taraqqiyoti islom" kabi asarlari muallifning diniy bilimlaridan chuqur xabardor ekanligini, bu bilimlarni zamonaviy fikrlar bilan uyg'unlashtirishga intilganini ko'rsatadi. U dinni statik e'tiqod tizimi sifatida emas, balki zamon bilan hamnafas bo'lgan, xalqni uyg'otishga qodir ma'naviy vosita sifatida talqin qiladi. Behbudiy fikricha, agar xalqda o'zligini anglash, taraqqiyotga intilish, milliy va diniy qadriyatlarni himoya qilish irodasi bo'lmasa, u holda na davlat, na din mustahkam bo'la oladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Behbudiy tafakkurida din va millat taraqqiyoti bir-biriga chambarchas bog'liq hodisalar sifatida namoyon bo'ladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijodida "millat" va "milliyat" tushunchalari markaziy g'oya sifatida doimiy ustuvorlikka ega. Uning deyarli barcha publitsistik, adabiy va tanqidiy asarlarida milliy ongning shakllantirish, milliy o'zlikni uyg'otish, millatni uyg'onishga chorlov kabi tamoyillar asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Behbudiyning "Millat vazifasi", "Ehtiyoji millat", "Millatlar qanday taraqqiy etarlar", "Millatga murojaat", "Millat jaridasi", "Millatni kim isloh etar?" kabi maqolalari bu g'oyaning muayyan publitsistik shakllardagi ifodasidir. Ushbu maqolalar zaminida **milliy ong va ijtimoiy mas'uliyatning uyg'unligi** nazariy asosda ilgari suriladi.

Behbudiy faoliyatida millat va milliyat nafaqat tushuncha sifatida, balki **ijtimoiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy, siyosiy-mafkuraviy yo'nalishlarni shakllantiruvchi kuch** sifatida ko'riladi. Jadidlar uchun millat tushunchasi –bu shunchaki etnik yoki lingvistik birlik emas, balki o'zining tarixiy o'tmishini tan olgan, zamonaviylik sari intilgan va mustaqil tafakkurga ega bo'lgan jamoaviy ongning ifodasi sifatida baholanadi.

Xulosa. Jadidlar merosida "bag'rikenglik" (tafovutlar bilan yashash madaniyati) va "hamjihatlik" (kooperatsion birlik) bir-birini to'ldiruvchi ijtimoiy-falsafiy kategoriyalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular jamiyatning axloqiy-ontologik poydevorini mustahkamlash bilan birga, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik birdamligi uchun zarur bo'lgan **g'oyaviy integratsiya** mexanizmini shakllantiradi. Bu mexanizm mavhum shior emas, balki ta'lim, matbuot, san'at, til-yozuv siyosati va hududiy taraqqiyot dasturlarida institutsionallashtirilgan amaliy mezonidir.

Behbudiy, Fitrat, Avloniy, Munavvarqori, Ibrat va boshqa jadidlar ishlab chiqqan ma'rifiy-modernizatsion yondashuvlar mustamlaka sharoitida milliy o'zlikni tiklash, fikriy erkinlikni qaror toptirish va jamiyatni bosqichma-bosqich yangilashning samarali modeli bo'lgan.

Jadidlar modeli plural jamiyat sharoitida **universal axloqiy qadriyatlar** (inson qadr-qimmat, adolat, tenglik) va **milliy o'ziga xoslik** o'rtasida muvozanat topish mumkinligini ko'rsatadi. Bunda bag'rikenglik – farqlarni tan olish va nizolarni konstruktiv boshqarish madaniyati, hamjihatlik esa – umumiy maqsadlar yo'lida resurslarni birlashtirish va mas'uliyatni bo'lishish amaliyotidir.

Jadidlar merosida ilgari surilgan bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillari O'zbekistonda barqaror taraqqiyot, ijtimoiy uyg'unlik hamda g'oyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim konseptual-metodik poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tamoyillar faqat tarixiy meros darajasida emas, balki zamonaviy siyosiy qarorlar va ijtimoiy amaliyotlarni yo'naltiruvchi normativ mezon, ya'ni strategik yo'nalishni belgilovchi kompas sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Абдувохид Очилдиев. Маданият фалсафаси. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – Б. 66. (111)
2. Nazarov Q. Jadid falsafasi. Yangi O'zbekiston. № 11 (1072), 2024-yil 16-yanvar. – B. 3.
3. Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 64.
4. Эргашев Ф. Туркистон мактаблари. – Т.: Жамият ва бошқарув. – 2002. – №1. – Б. – 15.
5. Алимова Д. А., Голованов А. А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 12.
6. Жадид маърифатпарварлик ҳаракатининг ғоявий асослари/ мас.мух.Б. Хасанов. – Тошкент: ТХИУ, 2016. –Б.3
7. Иноят Арзиматова Эстетик маданият (Таҳлили ва структураси) .Илмий-услубий рисола. – Тошкент: Фан, 2007. –Б. 47. (52)
8. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikkinchi jild.- Т.: O'zb.fayl.milliy jam. nashr., 2019. – B.738
9. Фитрат Абдурауф. Оила ёки оила бошқариш тартиблари. –Т.: “Маънавият”, 2000.-Б.4.
10. Bebudiy merosining milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati .- Т.:Mumtoz so'z, 2014. – B. 45–47
11. Бехбудий М. Миллат вазифаси / Улфат. – Тошкент, 1906. №18, – №20.

Yunusov Kamaldin Abzalovich

Siyosiy fanlar doktori(DSc), professor v.b.

Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

YE-mail: kamaliddin57@gmail.com

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMKORLIKNI TA'MINLASHGA ILMIY- INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur ilmiy ma'ruza tezisida, globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo mintaqasida millatlararo totuvlik va hamkorlikni ta'minlashning ilmiy-innovatsion jihatlarini bayon etilgan. Shuningdek, ma'ruza tezisida Markaziy Osiyo mintaqasida yashayotgan xalqlarning barqaror rivojlanishi bo'yicha muallifning shaxsiy fikr va mulohazalari bayon etilgan. Unda mintaqa davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Afg'oniston)da barqaror rivojlanishni ta'minlashda shu mamlakatlar oliy o'quv yurtlari olimlari – professor-o'qituvchilari va talabalari mulohazasini o'zaro muvofiqlashtirib borishning ilmiy amaliy yo'llari bayon qilingan. Maqolada “Ijtimoiy tadqiqotlar markazi” tarkibida Markaziy Osiyo mintaviy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash bo'limi faoliyatini yaratish g'oyasi ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston, millatlararo totuvlik, hamkorlik, barqarorlik, barqaror rivojlanish, mintaviy barqarorlik.

Abstract: This research paper presents the scientific and innovative aspects of ensuring interethnic harmony and cooperation in the Central Asian region in the context of globalization. It also presents the author's personal reflections and observations regarding the sustainable development of peoples living in the Central Asian region. It describes scientific and practical ways to coordinate dialogue among scholars—professors, teachers, and students of higher education institutions—to ensure sustainable development in the region (Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan,



Turkmenistan, and Afghanistan). The article proposes the creation of a department for regional stability and development in Central Asia within the Center for Social Research.

Keywords: Central Asia, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, Afghanistan, interethnic harmony, cooperation, stability, sustainable development, regional stability.

KIRISH

Hozirgi davr global bozor sharoitida Markaziy Osiyoda mintaqasida millatlararo totuvlik va hamkorlikni ta'minlash – o'zining dolzarb ahamiyatiga ega bo'lmoqda. Ayniqsa,

Mintaqada yashayotgan millatlar o'rtasida strategik hamkorlikni ta'minlash, mazkur muammoga ilmiy-innovatsion yondashuv – muhim iqtisodiy-siyosiy, hamda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston davlatlari va shu mintaqada istiqomat qilayotgan xalqlarning hozirgi va kelajakdagi rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan dolzarb (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-turmush, ma'naviy va boshqa) muammolari nafaqat davlat rahbarlari, xukumatlararo darajada balki ilmiy jamoatchilik, ilm ahli, mintaqamiz olimlari hamkorligida ham ilmiy jihatdan o'rganilishi va bu boradi jiddiy ilmiy-amaliy faoliyatni amalga oshirish zarurdir.

Mazkur muammoning dolzarbligi shu qadar muhimki, Afg'oniston va Pokiston davlatlari o'rtasida sodir bo'lgan qurolli to'qnashuvlar, insonlarning qurbon bo'lishi, mintaqadagi aholining kelgusidagi hayoti, ularning tinchlikda yashashi kafolatlarini taqazo etmoqda.

Hozirgi davr globallashuv sharoitida "Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti" — mintaqaviy hukumatlararo tashkilot sifatida, Markaziy Osiyoda mintaqaviy strategik hamkorlikni ta'minlashda, millatlararo munosabatlarning takomillashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tashkilot 1985 yil Tehronda (Eron) tashkil etilgan bo'lib, uning maqsadi – Janubiy va O'rta Osiyo hamda Yaqin Sharq davlatlari o'rtasidagi savdo va investitsiyaviy aloqalarni kengaytirishdan iboratdir. IHT BMT va Islom hamkorlik tashkilotida kuzatuvchi maqomiga ega. IHT hamkorligining asosiy yo'nalishlari a'zo davlatlar rahbarlarining har ikki yilda bir marta o'tkaziladigan sammitlarida belgilanadi. Bugungi kunda IHTga o'nta davlat – Ozarbayjon, Afg'oniston, Eron, Qozog'iston, Qirg'iziston, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya va O'zbekiston a'zo bo'lgan. O'zbekiston IHTga 1992-yilda a'zo bo'lgan. 2017-yildan boshlab davlat rahbarlarining sammiti har ikki yilda muntazam ravishda o'tkazila boshlandi.[1.-V.1.]

Bugungi kunda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga o'nta davlat a'zo[2.] bo'lib, 2025- yilga kelib jami yer maydoni – 8 mln km² ni, aholi soni esa 531 million 300 ming kishini tashkil qilmoqda. O'zbekiston tashqi savdosida IHT ulushi 24,7 foizni tashkil etadi. E'tiborli jihati, **5,75 milliard dollarlik** eksport hajmi 2021-yilga nisbatan 6,3 foiz yuqori. Import esa **6,62 milliard dollar** – 14,3 foiz o'sgan. O'tgan yil umumiy eksportning uchdan bir qismi – 29,8 foizi IHT mamlakatlari hissasiga to'g'ri kelgan.[3.]. 2024-yil 9 oyi ko'rsatkichiga ko'ra, hamkorlik sezilarli darajada faollashgan. Hisobot davrida IHT doirasida tovar aylanmasi 9,2 milliard dollarni, a'zo mamlakatlarning O'zbekiston umumiy tovar aylanmasidagi ulushi 20,5 foizni tashkil etgan. Bunda eksport miqdori 4,2 milliard dollar, import esa 5 milliard (+3,3 foiz) dollarga teng.[4.].

2023-yilning 8-9 noyabr kunlari Toshkent shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 16-sammiti bo'lib o'tdi. 1992 yil noyabridan buyon tashkilotga a'zo bo'lgan O'zbekiston IHTning ko'p tomonlama sammitiga ilk bor mezbonlik qilmoqda. O'zbekiston IHTni Janubiy Osiyo, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharqda rivojlanishni yaxshilash hamda savdo va investitsiyaviy imkoniyatlarni ilgari surish yo'llarini muhokama qilish uchun platforma sifatida qaraydi. Bundan tashqari, O'zbekiston mintaqalararo tranzit tugunlarini yaratish, zamonaviy transport va yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, transport va tranzit tariflarini maqbullashtirish, xalqaro yuklar va yo'lovchi tashish



shartlarini soddalashtirish hamda transport sohasiga raqamlashtirishni joriy etish tarafdori bo'lib maydonga chiqmoqda. Bugungi kunda IHT davlatlari O'zbekistonning eng yirik savdo hamkorlari hisoblanadi.[5. -V.160.].

2024-yil 6-7 may kunlari, Samarqand shahrida, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali tomonidan "Markaziy Osiyoda barqaror mintaqaviy rivojlanish" mavzusida tashkil qilinib o'tkazilgan II-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning asosiy maqsadi ham, yuqori tajribali olimlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Mazkur muammoga ilmiy-innovatsion yondashuvga Turkiya Respublikasida tashkil qilingan Akademik tadqiqotlar guruhi yorqin misol bo'ladi.

Mazkur Akademik tadqiqotlar guruhi 2020-yilda akademik bilim almashishni rag'batlantirish, ilmiy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va akademik hamjamiyat ichida innovatsion g'oyalarni tarqatishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda Turkiyadan 1000 nafar akademik va dunyoning turli davlatlaridan 300 nafar olimlar faol ishtirok etayotgan global akademik platforma sifatida faoliyat yuritmoqda. Chunki bizningcha, Markaziy Osiyoda joylashgan davlatlar va xalqlarning barqaror rivojlanishiga tegishli bo'lgan muammolar (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-turmush, ma'naviy va boshqa) – shu mamlakatlarda ilmiy faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning hamkorlikda olib borayotgan ilmiy izlanishlari natijalari samaraliroq bo'ladi.

Markaziy Osiyoda barqaror mintaqaviy rivojlanish, millatlararo totuvlik va hamkorlikni ta'minlash muammosi, o'zining dolzarbligi bilan bir qatorda, hozirgi globallashuv sharoitida Markaziy Osiyoda barqaror mintaqaviy rivojlanishiga ilmiy-innovatsion yondashuvni ham talab qiladi. Mazkur ilmiy ma'ruza ana shu muammoga bag'ishlanadi.

O'ylaymizki, O'zbekistondagi mavjud ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, qulay iqtisodiy muhit xorijiy ishbilarmonlarni ham qiziqtirishi, o'z navbatida o'zaro foydali iqtisodiy hamkorlik ishlarini yo'lga qo'yish imkonini beradi.

Ma'lumki, XXI asrda, global bozor sharoitida, avvalo, Markaziy Osiyoda mintaqaviy strategik hamkorlikni ta'minlashsiz, millatlararo totuvlik va hamkorlikni ta'minlashsiz, mustahkam iqtisodiy asossiz, jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarsiz, aholining barcha qatlamlari uchun munosib hayot sharoitini yaratib bo'lmaydi. Mazkur tashkilotning asosiy maqsadlaridan biri ham, o'zaro hamkorlik asosida, unga a'zo davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir.

TAHLIL VA NATIJALAR.

1) Akademik tadqiqotlar guruhi orqali Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan: O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, shuningdek, Turkiya, Pokiston va Afg'oniston davlatlari oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan olimlar bilan fundamental ijtimoiy fanlar bo'yicha o'zaro hamkorlik ishlari olib borilmoqda;

2) 2024 yil 20-21 fevral kunlari Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti hamda Tomsk milliy tadqiqotlar davlat universiteti «Rossiya va Markaziy Osiyo: o'tmish merosi va kelajak uchun imkoniyatlar» mavzusida Andijon davlat universiteti va Tomsk milliy tadqiqotlar davlat universitetida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada jahonning 20 dan ortiq mamlakatlari oliy ta'lim muassasalari (AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Belgiya, Rossiyaning o'ndan ortiq oliy o'quv yurtlari (Moskva, Sankt-Peterburg, Tomsk, Novosibirsk, Vladivostok, Ulan-Ude, Samara, Chyelyabinsk shaharlari oliy o'quv yurtlari) olimlari Hindiston, Pokiston, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlari: Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Tojikistonning oliy o'quv yurtlari oflayn va onlayn tarzda olimlari ishtirok etdilar.

3) hozirda Turkiyaning "Akademik tadqiqotlar guruhi" (Akademik chalismlar) bilan hamkorlikda barqaror mintaqaviy rivojlanish bo'yicha olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning mavzusi, uning rejasi va ana shu reja asosida tadqiqot ishlarini olib borilmoqda.



4) 2025 yilning 15-18 may kunlari turkiyaning Gedik universitetida “Akademik tadqiqotlar guruhi” (Akademik çalışmalar)ning IX kongressi bo‘lib o‘tdi. Kongress ishida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi andijon davlat universitetidan 8 nafar professor-o‘qituvchilar “Global bozor sharoitida markaziy osiyoda mintaqaviy strategik hamkorlikni ta’minlashga oid” o‘zlarining ma’ruzalari bilan ishtirok etdilar. Mazkur ma’ruzalar o‘z xarakteriga ko‘ra ilmiy-innovatsion yondashuvga misol bo‘ladi.

XULOSALAR.

Yuqorida bayon qilingan fikr va mulohazalardan quyidagi xulosalarni chiqarish lozim.

1) Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan: O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg‘oniston mustaqil davlatlari oliy ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarni, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha o‘zaro hamkorligini tashkil qilmoq joiz. Bunda Akademik tadqiqotlar guruhi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi;

2) “Akademik tadqiqotlar guruhi” tarkibida, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mintqa oliy o‘quv muassasalarida “Ijtimoiy tadqiqotlar markazi”ni tashkil qilib, markaz tarkibiga kiruvchi “Barqaror mintaqaviy rivojlanish bo‘yicha” maxsus ilmiy bo‘lim faoliyatini olib borish maqsadga muvofiq;

3) “Akademik tadqiqotlar guruhi” - barqaror mintaqaviy rivojlanish, millatlararo totuvlik bo‘yicha hamkorlikda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etuvchi a’zolarining ro‘yxatini yaratishi hamda unga rahbarlik qilish tartibini joriy qilish;

4) “Akademik tadqiqotlar guruhi” - barqaror mintaqaviy rivojlanish bo‘yicha hamkorlikda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarning mavzusi, uning rejasini tuzish va ana shu reja asosida tadqiqot ishlarini olib borish;

5) “Akademik tadqiqotlar guruhi” - barqaror mintaqaviy rivojlanish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarining fundamental loyihasi mavzusini shakllantirish, mazkur tadqiqotlarda faoliyat ko‘rsatuvchi olimlar, ilmiy izlanuvchilar, magistrilar, ishlaydigan oliy o‘quv yurti rahbariyati tomonidan ilmiy loyihani moliyalashtirish;

6) “Akademik tadqiqotlar guruhi” tarkibida tashkil etiladigan “Ijtimoiy tadqiqotlar markazi” doirasida barqaror mintaqaviy rivojlanish bo‘yicha har yili umumiy xisobot yig‘ilishini o‘tkazish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. <https://yuz.uz/news/iht-sammiti--savdo-iqtisodiy-hamkorlikning-rivojlanishi-uchun-platforma>.
2. <https://daryo.uz/2023/11/08/>.
3. <https://daryo.uz/2023/11/08/>.
4. <https://daryo.uz/2023/11/08/>.
5. 2. S.S.Safoyev. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. T.: “Jagon iqtisodioti va diplomatiya universiteti”. 2005. 160 b.
6. <https://asc.academicianstudies.com/en/hakkimizda/>

Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat universiteti

TADBIRKORLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLATLARARO BAG'RIKENGLIKNING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda millatlararo bag'rikenglikning o'rni yoritib berilgan. Muallif maqolani yoritishda mamlakatimizni ko'pmillatli davlat ekanligini yoritib bergan va unda barcha millat – elatlarning teng huquqliligi ta'minlanganligiga alohida e'tibor qaratgan.

Shuningdek, maqolada tadbirkorlik madaniyati tushunchasiga ham ta'rif berilgan bo'lib, millatlararo bag'rikenglikning tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirishdagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik madaniyati, millatlararo bag'rikenglik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, madaniyat.

THE ROLE OF INTERNATIONAL TOLERANCE IN FORMING ENTREPRENEURIAL CULTURE

Abstract: The article highlights the role of interethnic tolerance in the formation of entrepreneurial culture in the context of reforms in Uzbekistan. In highlighting the article, the author highlights the fact that our country is a multinational state and pays special attention to the fact that all nationalities and ethnic groups are guaranteed equal rights in it.

The article also defines the concept of entrepreneurial culture and highlights the role of interethnic tolerance in the development of entrepreneurial culture.

Keywords: entrepreneurship, entrepreneurial culture, interethnic tolerance, localism and tribalism, culture.

Kirish. Millatlararo bag'rikenglik tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u turli madaniyat vakillari o'rtasida hamkorlik qilish uchun qulay muhit yaratadi, g'oyalar va yondashuvlar xilma-xilligi orqali innovatsiyalarni rag'batlantiradi, muvaffaqiyatli tadbirkorlik faoliyati uchun zarur bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi va nizolarni kamaytiradi. Tolerantlik tadbirkorlarga turli hamkorlar, mijozlar va xodimlar bilan samarali ishlash imkonini beradi, bu esa bozorni kengaytirishga va kuchli ishbilarmonlik obro'siga olib keladi.

Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda millatlararo bag'rikenglik muhim rol o'ynaydi, chunki u **xilma-xil g'oyalar va yondashuvlar almashinuvini rag'batlantiradi, ijodkorlikni oshiradi va innovatsiyalarga yo'l ochadi.** Turli millat va madaniyat vakillarining birgalikda ishlashi, o'ziga xos tajribalari va fikrlarini baham ko'rishi, tadbirkorga yangi va samarali yechimlar topishga yordam beradi.

Tahlil va natijalar. Mamlakatimizda tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda millatlararo bag'rikenglik masalalariga O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyev alohida e'tibor qaratib quyidagi so'zlarni aytgan edi: "...mahalliychilik va urug'-aymoqchilik kabi illatlar davlat hokimiyatini obro'sizlantirib, iqtisodiyotning o'sishi va tadbirkorlik rivojiga jiddiy to'siq bo'lmoqda" [1, – B. 46].



Shu o'rinda tadbirkorlik madaniyati tushunchasiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, tadbirkorlik madaniyati barcha davrlarda turlicha ta'rif berilgani bilan uning mazmun mohiyati o'zgarmasdan qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Bu insonning mehnatga munosabati va tadbirkor, ishbilarmon madaniyati hisoblanadi. U tadbirkor muloqot madaniyatini, odamlar faoliyatini tashkil etishni, shuningdek, yuqori umumiy madaniyatni o'z ichiga oladi. Bu erda tashkiliy madaniyatning bir nechta ta'riflari mavjud. Kanadalik psixanalitik E. Jakusning ta'rifiga ko'ra, tadbirkorlik madaniyati an'anaga aylangan, korxonaning barcha xodimlari tomonidan ozmi-ko'pmi umumiy bo'lgan odatiy fikrlash va harakat tarzidir [2]. Tadbirkorlik madaniyati – bu jamiyatda amaldagi huquqiy me'yorlar (qonunlar, nizomlar), ishbilarmonlik odatlari, axloqiy qoidalar va sivilizatsiyalashgan biznesni yuritish standartlariga muvofiq ravishda subyektlar tomonidan tadbirkorlik faoliyatining aniq, belgilangan prinsiplari va usullaridan iboratdir [3].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadbirkorlik madaniyatiga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin: Tadbirkorlik madaniyati bu – shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan huquqiy, axloqiy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar tuzilmasi bilan shakllanadigan va rivojlanadigan faoliyat hisoblanadi [5, - B. 75].

Millatlararo bag'rikenglik tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish uchun ijobiy ta'sir etadi va ular quyidagilardan iborat:

- Hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi: bag'rikenglik turli madaniyatlar vakillari bilan umumiy til topish imkonini beradi, bu esa potentsial hamkorlar, yetkazib beruvchilar va xodimlar doirasini kengaytiradi.
- Innovatsion salohiyatni oshiradi: Madaniy g'oyalar, muammolarni hal qilish yondashuvlari va tadbirkorlik tajribasining xilma-xilligi yangi mahsulotlar, xizmatlar va biznes modellarini yaratishga yordam beradi.
- Ishonchni mustahkamlaydi: Hamkorlar va xodimlarning turli fikrlari, an'analari va e'tiqodlarini hurmat qilish ishonchni mustahkamlaydi, bu uzoq muddatli va muvaffaqiyatli biznes aloqalari uchun asosdir.
- Mojarolar xavfini kamaytiradi: bag'rikenglik madaniyatlararo farqlardan kelib chiqadigan nizolarning oldini olish va hal qilishga yordam beradi, bu esa operatsion xavflarni kamaytiradi va barqaror ish muhitini saqlaydi.
- Global biznesni rag'batlantiradi: Turli madaniy me'yorlar va qadriyatlarni tushunish va hurmat qilish xalqaro bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish, mijozlarni jalb qilish va chet elda biznes yuritish uchun zarurdir.
- Ijobiy obro'ga ega bo'ladi: bag'rikenglik ko'rsatadigan kompaniyalar iste'molchilar va hamkorlar tomonidan ko'proq ishoniladi, bu ularning obro'si va imidjiga ijobiy ta'sir qiladi.

Mana shu omillardan kelib chiqib mamlakatimizda millatlararo bag'rikenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda. Buning natijasida xalqaro hamjamiyat mamlakatimizning millatlararo totuvlikni ta'minlash borasidagi faoliyatini yuqori baholamoqda va O'zbekiston tajribasiga katta qiziqish bilan qaramoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 19- sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklif etilishi va ushbu hujjatning 2018- yil 12- dekabrda qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.



Xulosa. Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda millatlararo bag'rikenglik muhim ahamiyatga ega. Chunki, hozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Bu millat va elatlarning teng huquqli faoliyat yuritishi qonun bilan ta'minlangan bo'lib, ularning tili, qadriyat va urf-odatlarini, dini boshqa millatlar tomonidan hurmat qilinishi ta'minlanmoqda. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik siyosatini oqilona amalga oshirilayotgani sababli tadbirkorlik madaniyatini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanmoqda.

Millatlararo totuvlik nafaqat axloqiy me'yor, balki global iqtisodiyotda muvaffaqiyatli rivojlana oladigan ochiq, innovatsion va raqobatbardosh tadbirkorlik madaniyatini rivojlantiruvchi strategik vositadir.

Millatlararo totuvlik tushunchasi qadriyat o'laroq, eng avvalo, boy tarixiy-ma'naviy meros, milliy qadriyat, urf-odat va an'analar asosida milliy o'zligini anglagan, milliy g'urur - iftixori yuksalgan, umuminsoniy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari asosida dunyoqarashi shakllangan barkamol avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни чуқурлаштириш, барқарор ривожланишни таъминлаш — ҳалқимиз учун муносиб ҳаёт даражасини яратишнинг кафолатидир / Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон, 2018. — Б.46.
2. Jaques E. the changing culture of a factory. Dryden press, 1952. 252 p.
3. Сущность культуры предпринимательства.
<https://works.doklad.ru/view/OYUp81gkbLw/all.html>
4. Qozoqov S.Z. “O'zbekistondagi islohotlar sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy omillari”. Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent-2023.

Norbekov Suhrob Farxod o'g'li

“Jismoni madaniyat va gumanitar fanlar kafedrasi” assistenti
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

SHARQIY SLAVYAN DIASPORASI VA MAHALLIY AHOLI O'RTASIDAGI MADANIY MULOQOT HAMDA INTEGRATSIYA: 1918–1924 YILLARDA MILLATLARARO TOTUVLIKNING TARIXIY MODEL

Annotatsiya Ushbu maqola 1918–1924 yillarda Turkiston ASSR hududida sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasidagi madaniy muloqot va integratsiya jarayonlarini tahlil qiladi. Tadqiqot tarixiy-komparativ metod, sotsiokultural yondashuv, arxiv hujjatlari va og'zaki tarix asosida olib borilgan. Maqolada diasporaning kelib chiqishi, sovet milliy siyosati (korenizatsiya), NEP davrining ijtimoiy-iqtisodiy omillari hamda madaniy-ma'rifiy siyosatning integratsiyadagi roli ko'rib chiqiladi. Kundalik hayot, mehnat jamoalari, ta'lim va madaniyat institutsiyalari orqali yuzaga kelgan o'zaro ta'sirlar millatlararo totuvlikning tarixiy modelini yaratgani ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari millatlararo totuvlikni shakllantirishning uchta asosiy omilini — siyosiy-huquqiy tenglik, iqtisodiy manfaatlarining uyg'unlashuvi va madaniy-ma'rifiy integratsiyani — tasdiqlaydi va bu modelning zamonaviy amaliy siyosat uchun ahamiyatini ta'kidlaydi.



Kalit so'zlar: sharqiy slavyan diasporasi; madaniy muloqot; integratsiya; Turkiston ASSR; 1918–1924; millatlararo totuvlik; NEP; madaniy-ma'rifiy siyosat.

Annonation This article examines the cultural interaction and integration processes between the East Slavic diaspora and the local population in the Turkestan ASSR during 1918–1924. Employing historical-comparative methods, a socio-cultural approach, archival documents and oral histories, the study explores migration drivers, korenizatsiya policy, socio-economic dynamics under the NEP, and the role of cultural and educational institutions. It demonstrates that everyday cooperation, mixed labor groups and shared educational spaces fostered a historical model of interethnic concord. The findings identify three core pillars of this model—political-legal equality, alignment of economic interests, and cultural-educational integration—and discuss their relevance for contemporary policies on interethnic harmony and social cohesion.

Keywords: East Slavic diaspora; cultural interaction; integration; Turkestan ASSR; 1918–1924; interethnic concord; NEP; cultural-educational policy.

Kirish XXI asr sharoitida globallashuv jarayonlari, migratsiya oqimlari va madaniy xilma-xillikning ortib borishi millatlararo totuvlik masalasini nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning hal qiluvchi omiliga aylantirdi. Ayniqsa, ko'p millatli jamiyatlarda turli etnik guruhlarining o'zaro muloqoti, madaniy integratsiyasi va tinch-totuv yashash tajribasini chuqur o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston bugungi kunda millatlararo totuvlikning muvaffaqiyatli modeli sifatida e'tirof etilayotgan bir paytda, bu jarayonning tarixiy ildizlarini aniqlash va tarixiy tajribani ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb vazifadir. Chunki tarixiy xotira asosida barpo etilgan ijtimoiy ong nafaqat o'tmish saboqlarini anglashga, balki zamonaviy millatlararo siyosatni mukammallashtirishga xizmat qiladi.

1918–1924 yillar Turkiston tarixida tub burilishlar davri bo'lib, siyosiy hokimiyatning keskin o'zgarishi, fuqarolar urushi oqibatlari va yangi sovet davlatining millatlar siyosatini shakllantirish jarayoni bilan ajralib turadi. Bu davrda Turor Risqulov, Fayzulla Xo'jayev kabi mahalliy elita vakillari "milliy-davlat qurilishi" g'oyasini ilgari surgan bo'lsa, markaziy sovet rahbariyati Turga "korenizatsiya" siyosati orqali turli millatlar o'rtasida yangi boshqaruv modelini joriy etishga harakat qildi. Mazkur siyosat doirasida nafaqat mahalliy aholi, balki Sharqiy slavyan diasporasi vakillari ham ijtimoiy-siyosiy hayotning faol sub'yektiga aylandi. Aynan shu yillarda ta'lim, yer-suv islohoti, NEP siyosati va madaniy qurilish jarayonlari orqali turli millat vakillarining bir hududda qo'shma faoliyati kuchayib, o'zaro muloqot va madaniy integratsiya uchun tarixiy sharoit yaratildi.

Sharqiy slavyan diasporasi (rus, ukrain, belorus aholisining muayyan qismi) Turkistonga dastlab XIX asr oxiridan boshlab ko'chib kelgan bo'lsa-da, 1918–1924 yillar ularning mahalliy jamiyat bilan munosabatlari yanada faollashgan davr bo'ldi. Fuqarolar urushi va iqtisodiy inqiroz sharoitida ular mahalliy aholi bilan birgalikda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, savdo va ma'muriy boshqaruv sohalarida hamkorlik qilishga majbur bo'ldilar. Bu jarayon natijasida kundalik hayotda til almashinuvi, mehnat kooperatsiyasi va o'zaro yordam tizimi shakllandi. Ayniqsa, madaniy-marosimlar, diniy amaliyot va an'anaviy qadriyatlar darajasida ikki tomonlama ta'sir yuzaga kelib, "madaniy muloqot" Turkiston jamiyatining yangi sotsial realligini vujudga keltirdi. Mazkur muloqot ziddiyatlardan holi bo'lmagan bo'lsa-da, ko'plab holatlarda totuvlik, moslashuv va integratsiyaga asoslangan ijobiy tajriba shakllandi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – 1918–1924 yillarda Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasidagi madaniy muloqot hamda integratsiya jarayonlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qilish va bu jarayonni "millatlararo totuvlikning tarixiy modeli" sifatida ilmiy asoslashdan iboratdir. Tadqiqot obyekti sifatida Turkiston ASSR hududida yashagan rus, ukrain va belorus



jamoalari hamda ular bilan o'zaro aloqada bo'lgan mahalliy etnik guruhlar tanlandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi – Sharqiy slavyan diasporasi faqat siyosiy kuch yoki iqtisodiy omil sifatida emas, balki madaniy integratsiya va millatlararo totuvlikni shakllantiruvchi sub'yekt sifatida qayta talqin qilinayotganidadir. Metodologik asos sifatida tarixiy-komparativ tahlil, sotsiokultural yondashuv, arxiv materiallari, og'zaki tarix va zamonaviy millatlararo munosabatlar nazariyasidan foydalanildi.

Sharqiy slavyanlarning (rus, ukrain, belorus) Turkistonga ko'chib kelishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan bo'lib, dastlab chor hukumati tomonidan harbiy-strategik va iqtisodiy maqsadlarda olib borilgan mustamlakachilik siyosatiga bog'liq edi. Chor Rossiyasi bu hududda tayanch punktlar, harbiy istehkomlar va yangi aholi punktlarini barpo etish orqali o'z ta'sirini kuchaytirishga intildi. 1886-yilgi “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom” asosida rus dehqonlarini yerlarga joylashtirish siyosati boshlab yuborilib, bu jarayon natijasida Farg'ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ko'plab slavyan qishloqlari vujudga keldi.

XX asr boshlarida demografik bosim, yer yetishmasligi va iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ichki guberniyalardan Turkistonga ko'chish yanada kuchaydi. 1917-yildan so'ng esa siyosiy beqarorlik, fuqarolar urushi va iqtisodiy inqiroz ham ko'plab sharqiy slavyanlar uchun Turkistonni nisbatan tinch va iqtisodiy imkoniyatlarga ega hudud sifatida ko'rsatdi. Shu tariqa, 1918–1924 yillarga kelib, diaspora son jihatdan salmoqli kuchga ega bo'lib, ularning jamiyatdagi roli faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy va madaniy sohalarida ham sezila boshladi. Kichik bir xolasa qilsak, Sharqiy slavyan diasporasining shakllanishi tasodifiy migratsiya emas, balki siyosiy, iqtisodiy va demografik omillar ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlangan tarixiy jarayondir.

1918–1924 yillardagi ijtimoiy-siyosiy sharoitda sovet siyosati, NEP, yer islohoti, boshqaruv davrida bu jarayon qanday davom etdi?. 1918–1924 yillar Turkiston jamiyatida tub ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar yuz bergan davr bo'lib, avvalo sovet hokimiyatining o'rnatilishi va yangi boshqaruv tizimining joriy etilishi bilan xarakterlanadi. Fuqarolar urushi davrida Turkiston fronti strategik hudud sifatida alohida nazorat ostiga olinib, markaziy hokimiyat mintaqada mustahkam siyosiy struktura yaratishga intildi. 1918-yilda Turkiston ASSR tashkil etilishi bilan birga, mahalliy va slavyan aholisini qamrab oluvchi “qo'shma boshqaruv” modeli shakllantirila boshlandi.

Sovet rahbariyati millatlar siyosati doirasida “korenizatsiya” tamoyilini ilgari surib, mahalliy kadrlarni davlat boshqaruviga jalb etish bilan birga, slavyan diasporasining ma'muriy va texnik salohiyatidan faol foydalanishga harakat qildi. Bu jarayon siyosiy ishtirokni kengaytirishga xizmat qilgan bo'lsa, biroq ularning jamiyatdagi mavqei turli hududlarda turlicha namoyon bo'ldi: shahar markazlarida slavyanlar ma'muriy va sanoat sohalarida ustunlik qilgan bo'lsa, qishloq hududlarida mahalliy aholi bilan ko'proq iqtisodiy hamkorlik asosida yashadi.

1921-yildan boshlab NEP (Yangi iqtisodiy siyosat) joriy etilishi bilan iqtisodiy hayotda ma'lum darajada bozor munosabatlari qayta tiklanib, xususiy tashabbusga ruxsat berildi. Bu siyosat sharqiy slavyan dehqonlari va hunarmandlari uchun iqtisodiy faoliyatni yanada jonlantirish imkonini yaratdi, natijada ular mahalliy aholi bilan kooperatsiya va savdo aloqalarini kengaytira boshladilar. Yer-suv islohotlari ham diaspora va mahalliy aholi o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatib, resurslar taqsimoti va yangi xo'jalik shakllarini yuzaga keltirdi.

Bundan tashqari, 1918–1924 yillarda madaniy va ma'rifiy siyosatga alohida e'tibor qaratilib, maktablar, klub va kutubxonalar tashkil etildi, bu esa turli millat vakillarini yagona madaniy makonda birlashtirishga xizmat qildi. Sovet hokimiyatining “xalq do'stligi” g'oyasi rasmiy darajada targ'ib etilsa-da, amaliyotda ijtimoiy tengsizlik, resurslar taqsimotidagi farqlar va ba'zi hollarda millatlararo ziddiyatlar ham kuzatildi. Shunga qaramay, aynan shu davrda turli millatlar o'rtasida hamkorlik, o'zaro moslashuv va ijtimoiy integratsiya uchun institutsional asoslar shakllandi. Bu jarayonlar xususida ham qisqa bir xulosa qilsak: 1918–1924 yillardagi siyosiy va iqtisodiy islohotlar qisqa



muddatli beqarorliklarga qaramay, sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasida hamkorlik va totuvlik uchun institutsional sharoitlar yaratdi deyish mumkin.

1918–1924 yillar Turkiston hududi uchun tub burilish davri bo'lib, eski imperiyaviy boshqaruvdan sovet davlat tizimiga o'tish jarayoni kuchli siyosiy silkinishlar, ijtimoiy tanglik va mahalliy jamiyatning yangicha tuzumga moslashuvi bilan kechdi. Turkiston Muxtor Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil topishi Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarga yangi mazmun berdi, chunki sovet hokimiyati millatlararo tenglik va “xalq do'stligi” g'oyasini rasmiy siyosat darajasida ilgari surdi. Biroq amaliyotda bu jarayon bir xil kechmadi: markaz siyosiy nazoratni kuchaytirar ekan, mahalliy elita va slavyan diasporasi o'rtasida manfaatlar ziddiyati yuzaga chiqdi [2. – B. 45].

Mazkur davrda milliy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri korenizatsiya (mahalliyashtirish) bo'lib, u mahalliy kadrlarni davlat boshqaruviga jalb etish, madaniy-ma'rifiy sohada milliy tillarni joriy etish va mahalliy aholi siyosiy faolligini oshirishni maqsad qilgan edi. Bu jarayon Sharqiy slavyan diasporasi uchun muayyan chaqiriqlar tug'dirdi, chunki ular ilgari imtiyozli ijtimoiy qatlam sifatida siyosiy va ma'muriy tizimda ustunlikka ega bo'lgan. Endilikda esa diasporaning jamiyatdagi o'rni qayta belgilandi, bu esa integratsiya va moslashuv mexanizmlarini shakllantirish zaruratini yuzaga chiqardi. Shu bilan birga, sovet hokimiyati slavyan aholisini ham yangi tuzum qurilishining “sotsial tayanchi” sifatida ko'rib, ularning iqtisodiy va siyosiy faoliyatini saqlab qolishga intildi [4. – B. 33].

1918–1924 yillarda boshlangan Basmachilik harakati ham ijtimoiy-siyosiy vaziyatga keskin ta'sir ko'rsatdi. Qurolli qarshilik kuchaygan sharoitda sovet hokimiyati Sharqiy slavyan aholisini himoya qilish uchun harbiy garnizonlar tashkil qildi, ularni strategik hududlarga joylashtirdi va mahalliy aholi bilan hamkorlikni kuchaytirishga harakat qildi. Bunday harbiy-siyosiy sharoit ayrim hollarda diasporani mahalliy aholiga nisbatan “hukmron kuch” sifatida ko'rsatgan bo'lsa-da, boshqa holatlarda esa umumiy xavfga qarshi birgalikdagi harakatlar millatlararo birdamlikni mustahkamladi [6. – B. 41]. Xususan, ko'plab qishloqlarda o'zini o'zi boshqarish organlarida millatlararo vakillik shakllanib, muloqot va hamkorlikning yangi institutlari paydo bo'ldi.

Umuman olganda, 1918–1924 yillardagi ijtimoiy-siyosiy sharoit millatlararo munosabatlar uchun sinov davri bo'lishi bilan birga, madaniy va ijtimoiy integratsiyaning tarixiy modelini shakllantirishga zamin yaratdi. Sovet hokimiyatining milliy siyosati formal tenglik tamoyillarini ilgari surgan bo'lsa-da, uni amalga oshirish jarayonida mahalliy jamiyat va diasporaning real manfaatleri to'qnashdi, natijada murakkab, ammo samarali muloqot shakllari vujudga keldi. Aynan shu davrda Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasida nafaqat siyosiy, balki madaniy va ijtimoiy o'zaro ta'sirning yangi paradigmalari shakllandi, bu esa keyingi yillardagi totuvlik modelining poydevorini tashkil etdi.

1918–1924 yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'ldi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida iqtisodiy inqiroz, urush oqibatlari va transport tizimining izdan chiqishi oziq-ovqat taqchilligi, migratsiya va mulkiy qayta taqsimotlarga olib keldi. Bu jarayon diasporaning iqtisodiy mavqeiga ham ta'sir ko'rsatdi: ba'zi slavyan qishloqlari (masalan, Mirzacho'l – sobiq «G'olodnaya step» koloniyalari) o'z xo'jalik tuzilmasini saqlab qoldi, boshqalari esa yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashishga majbur bo'ldi [2. – B. 52]. Mahalliy aholining agrar xo'jaligi bilan slavyan diasporasining dehqonchilik va hunarmandchilik tajribasi o'zaro aralashgan holda yangi iqtisodiy hamkorlik shakllari yuzaga keldi.

Bu davrda iqtisodiy siyosatning ikki asosiy bosqichi – harbiy kommunizm va NEP (Yangi iqtisodiy siyosat) joriy etildi. Harbiy kommunizm yillarida majburiy rekvizitsiya, xususiy mulkning



cheklanishi va markazlashgan taqsimot tizimi mahalliy aholi bilan bir qatorda Sharqiy slavyan diasporasining ham noroziligiga sabab bo'ldi. Biroq 1921 yildan boshlab NEP siyosati iqtisodiy erkinlikni qisman tiklab, bozorlarga ruxsat berdi va millatlararo iqtisodiy aloqalarni jonlantirdi. Aynan NEP davrida mahalliy bozorlar, qishloq xo'jaligi artellari va kooperatsiyalar faoliyati tiklanib, diasporaning iqtisodiy integratsiyasi tezlashdi. Shu bilan birga, mahalliy tadbirkorlar va slavyan hunarmandlari o'rtasida iqtisodiy sheriklik misollari ko'paydi [1. – B. 42].

Ijtimoiy tabaqalanish ham bu davrda muhim rol o'ynadi. Sovet hokimiyati sinfiy siyosat yuritganligi sababli, boy dehqonlar (kulaklar), savdogarlar va sobiq ma'muriyat vakillari ta'qibga uchradi, bu esa ayrim slavyan va mahalliy qatlamlarning ijtimoiy mavqeini pasaytirdi. Shu bilan birga, mehnatkash dehqon va ishchilar yangi ijtimoiy tayanch sifatida qo'llab-quvvatlandi. Natijada, Sharqiy slavyan diasporasi ichida ijtimoiy tabaqalanish yuzaga kelib, eski imtiyoz egalari zaiflashdi, oddiy dehqon va ishchilar esa yangi siyosiy-iqtisodiy tizimga integratsiyalashdi. Bu esa diasporaning butunlay ajralib qolishining oldini olib, mahalliy aholi bilan teng ijtimoiy pozitsiyada turish imkonini yaratdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar millatlararo totuvlikning amaliy asosini ham shakllantirdi. Qiyin iqtisodiy vaziyatda resurslardan birgalikda foydalanish, qo'shnichilik munosabatlarining mustahkamlanishi, o'zaro yordam an'analari kuchaydi. Ayniqsa, suv taqsimoti, yer egaligi va qishloq xo'jalik ishlari bo'yicha hamkorlik ikki xalq o'rtasida ishonchni oshirdi. Shunday qilib, iqtisodiy manfaatlarining uyg'unlashuvi madaniy muloqotni chuqurlashtirdi, integratsiya jarayonini tezlashtirdi va 1918–1924 yillarda millatlararo totuvlikning real ijtimoiy modeli shakllandi [1. – B. 55].

1918–1924 yillarda Turkiston ASSRda olib borilgan madaniy-ma'rifiy siyosat millatlararo muloqot va totuvlikni shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Sovet hukumatining dastlabki yillarida “savodsizlikni tugatish” (likbez) siyosati e'lon qilinib, barcha millat vakillari uchun bepul ta'lim imkoniyatlari yaratilishi milliy tenglik tamoyilining amaliy ifodasiga aylandi. Bu siyosat natijasida rus va mahalliy aholining bolalari uchun umumiy maktablar ochila boshladi, aralash sinflar tashkil etildi, pedagog kadrlar tayyorlash kurslari yo'lga qo'yildi [2. – B. 40]. Bu jarayon madaniy muloqotni kuchaytirib, ijtimoiy masofani kamaytirdi hamda o'zaro til o'rganish uchun tabiiy sharoit yaratdi.

Madaniy-ma'rifiy siyosatning yana bir muhim jihati teatr, klub, kutubxona va qiroatxonalar kabi jamoat maskanlarining tashkil etilishi bo'ldi. Sovet hukumatining “proletar madaniyati”ni targ'ib qilish siyosati doirasida ochilgan bu muassasalar turli millat vakillari uchun umumiy madaniy maydon yaratdi [3. – B. 27]. Masalan, Farg'ona va Toshkent shaharlarida rus ishchilari uchun tashkil etilgan madaniyat uylari keyinchalik mahalliy aholi uchun ham ochildi, bu esa o'zaro ishtirok va muloqotni kuchaytirdi [4. – B. 74]. Bundan tashqari, folklor kechalari, musiqa va teatr spektakllarida turli millatlar madaniyati birgalikda namoyish etildi, bu esa madaniy stereotiplarning yemirilishiga olib keldi.

Ta'lim tizimida ikki tomonlama madaniy ta'sir mavjud edi: bir tomondan, rus tilida o'qitiladigan maktablar orqali diasporaning madaniy ustunligi sezilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mahalliy millat vakillarining o'z ona tilida ta'lim olish huquqi e'tirof etildi. 1920-yillarda milliy maktablar, pedagogik texnikumlar va tarjima byurolarining tashkil etilishi mahalliy elita va ziyolilar qatlamining shakllanishini tezlashtirdi. Bu esa Sharqiy slavyan diaspora vakillari bilan mahalliy ziyolilar o'rtasida intellektual muloqot uchun zamin yaratdi [6. – B. 55]. Natijada, ta'lim tizimi faqat bilim berish mexanizmi bo'lib qolmay, balki millatlararo integratsiyaning ijtimoiy-madaniy maydoniga aylandi.

Madaniy-ma'rifiy siyosatning yanada chuqurroq natijasi – umumiy ideologik makonning vujudga kelishi bo'ldi. Sovet hokimiyati barcha millatlarni “yangi sotsialistik jamiyat quruvchilari” sifatida talqin qildi va shu orqali umumiy maqsad va qadriyatlarni shakllantirishga harakat qildi [3. –



B. 88]. “Internatsionalizm”, “xalq do‘stligi” va “millatlar tengligi” kabi tushunchalar faqat shior darajasida emas, balki maktab darsliklari, matbuot, teatr pyesalari va siyosiy targ‘ibot materiallarida doimiy takrorlanib bordi. Bu mafkuraviy yondashuv Sharqiy slavyan diasporasi bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi madaniy muloqotni legitimlashtirdi, ularni yagona siyosiy hamjamiyat sifatida ko‘rish imkonini berdi. Bu jarayon madaniy-ma‘rifiy siyosat va ta‘lim tizimi Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o‘rtasida madaniy muloqot, til o‘rganish, birgalikdagi ishtirok va umumiy ideologik makon yaratish orqali millatlararo totuvlikning institutsional asosini shakllantirdi.

1918–1924 yillarda Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o‘rtasida millatlararo muloqot faqat siyosiy hujjatlar yoki rasmiy tashabbuslar doirasida emas, balki kunlik hayot amaliyoti orqali shakllandi. Avvalo, qishloq va shahar hududlarida yashash makonining yaqinligi, bozor, suv taqsimoti, yer ishlari kabi umumiy xo‘jalik ehtiyojlari o‘zaro hamkorlikni tabiiy zaruratga aylantirdi. Birgalikda kanallar qazish, sug‘orish tizimlarini ta‘mirlash, qishloq yo‘llarini saqlash ishlarida hamkorlik madaniy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi. Ayniqsa, Mirzacho‘l (sobiq “G‘olodnaya step”) va Farg‘ona vodiysidagi rus qishloqlari yaqinida yashovchi mahalliy aholi bilan o‘zaro yordam va qo‘shnichilik an‘analari shakllandi.

Millatlararo muloqotning yanada chuqurroq shakli – aralash mehnat jamoalari va kooperatsiyalar edi. NEP davrida xo‘jalik artellari, kooperativlar va kichik hunarmandchilik korxonalari ochildi, ularda turli millat vakillari birgalikda ishladi. Ishlab chiqarish jarayonidagi hamkorlik o‘zaro ishonchni oshirdi, kasbiy tajriba almashinuvi va madaniy moslashuvni tezlashtirdi [4. – B. 90]. Shuningdek, aralash ishchi jamoalarida til o‘rganish tabiiy ravishda sodir bo‘ldi: slavyan ishchilari mahalliy tillarni, mahalliyilar esa rus tilini o‘rgandi. Bu esa ijtimoiy kommunikatsiyani osonlashtirdi va keyinchalik ma‘muriy boshqaruv hamda ta‘lim tizimida samarali aloqa imkonini yaratdi.

Millatlararo muloqotning eng sezilarli ko‘rinishlaridan biri – maishiy hayotdagi integratsiya va urf-odatlar almashinuvi bo‘ldi. Mahalliy aholining to‘y, marosim va bayramlariga slavyanlar ham taklif qilinlar, o‘z navbatida pravoslav diniy bayramlari (Maslenitsa, Rojdestvo) mahalliy aholi ishtirokida nishonlanar edi. Bozorlarda, choyxonalarda, jamoat yig‘inlarida kundalik muloqot ikki jamoa o‘rtasidagi psixologik masofani qisqartirdi. Ayrim hollarda aralash nikohlar ham vujudga keldi, bu esa faqat shaxsiy munosabat emas, balki ijtimoiy-madaniy integratsiyaning eng yuqori bosqichini ifodalardi [5. – B. 34].

Shu bilan birga, mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (qishloq kengashlari, mahalla vakolatxonalari) va Sovet idoralari tarkibida turli millat vakillarining birgalikda faoliyat yuritishi millatlararo hamkorlikning institutsional shaklini yaratdi. Sharqiy slavyan diasporasi vakillarining partiya va sovet organlarida faol ishtiroki ularning ijtimoiy nufuzini oshirdi, mahalliy aholi bilan siyosiy muloqotni kengaytirdi. Boshqaruv tizimidagi bunday integratsiya ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga yordam berdi va totuvlikning tashkiliy modelini shakllantirdi.

Tatqiqot doirasida umumoy bir tahliliy xulosa qilinadigan bo‘lsa, 1918–1924 yillarda Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o‘rtasidagi munosabatlar Turkiston jamiyatida millatlararo totuvlikning o‘ziga xos tarixiy modelini shakllantirdi. Bu jarayon tasodifiy yoki bir yoqlama bo‘lmay, balki siyosiy, iqtisodiy, madaniy va maishiy omillar o‘zaro uzviy bog‘liq holda, evolyutsion tarzda rivojlandi. Sovet hokimiyatining millatlar siyosati diaspora va mahalliy aholi o‘rtasidagi tenglikni huquqiy jihatdan kafolatlashga harakat qildi. “Millatlar do‘stligi”, “internatsionalizm” kabi ideologik tamoyillar deklarativ xarakterda bo‘lsa-da, ular madaniy-ma‘rifiy siyosat, ta‘lim tizimi, mahalliy boshqaruv organlari va ijtimoiy institutlar orqali amaliyotga tatbiq etildi. Bu esa turli millat vakillarining umumiy siyosiy va ijtimoiy makonda birlashuviga zamin yaratdi.



Iqtisodiy omillar integratsiya jarayonining moddiy asosi bo'ldi. Yer egaligi, sug'orish, bozor aloqalari, hunarmandchilik va kooperatsiya asosida yuzaga kelgan hamkorlik madaniy-muloqotni kuchaytirdi. NEP siyosati millatlararo iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirdi, aralash mehnat jamoalari va artellarning paydo bo'lishi til, kasbiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlar almashinuviga olib keldi. Aynan iqtisodiy manfaatlarning uyg'unlashuvi millatlararo totuvlikning eng barqaror omili sifatida namoyon bo'ldi.

Madaniy-ma'rifiy siyosat va ta'lim tizimi esa integratsiyaning ma'naviy-intellektual poydevorini yaratdi. Umumiy maktablar, teatrlar, kutubxonalar, madaniyat uylari va matbuot turli millat vakillarining birgalikda ishtirok etishi uchun yangi ijtimoiy maydonlar yaratdi. Ta'lim tizimida ikki tomonlama madaniy ta'sir – ruslarning mahalliy til va urf-odatlarini o'rganishi, mahalliyliklarning rus tiliga va zamonaviy bilimlarga ega bo'lishi – madaniy muvozanatni ta'minladi. Natijada, Sharqiy slavyan diaspora vakillari Turkiston jamiyatida nafaqat yashovchi, balki faol ilmiy-ma'rifiy va madaniy taraqqiyot ishtirokchisiga aylandi.

Millatlararo muloqotning kundalik hayotdagi ko'rinishlari – qo'shnichilik, marosimlar, savdo, o'zaro yordam, aralash nikohlar – totuvlikning ijtimoiy-psixologik asosini mustahkamladi. Mahalliy boshqaruv organlarida turli millat vakillarining birgalikda faoliyat yuritishi esa totuvlikning institutsional modelini shakllantirdi. Shu tariqa, muloqot va integratsiya faqat “yuqoridan” berilgan siyosiy topshiriq emas, balki “quyi qatlamlardan” boshlangan, real hayot ehtiyojlaridan kelib chiqqan, ikki tomonlama va ixtiyoriy jarayon sifatida rivojlandi.

Umuman olganda, 1918–1924 yillardagi Sharqiy slavyan diasporasi va mahalliy aholi o'rtasidagi madaniy muloqot tajribasi O'rta Osiyoda millatlararo totuvlikning noyob tarixiy modelini namoyon etadi. Bu model uch asosiy ustunga tayanadi: 1) siyosiy-huquqiy tenglik, 2) iqtisodiy manfaatlarning uyg'unlashuvi, 3) madaniy-ma'rifiy integratsiya. Mazkur tajriba nafaqat o'tmish uchun, balki bugungi globallashuv davrida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik siyosati uchun ham dolzarb nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Demak, Turkiston tajribasi – millatlararo totuvlikni sun'iy emas, balki ijtimoiy hayotning tabiiy oqimida shakllantirish mumkinligini isbotlovchi tarixiy laboratoriyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ибраимов, Н. Политика коренизации в Средней Азии. – Ташкент: Янги Аср Авлоди, 2010.
2. Янсон, П. М. От угнетения и бесправия к счастливой жизни: История восточнославянского населения Туркестана. – Ташкент: ФАН, 1972.
3. Martin, T. The Affirmative Action Empire: Nations and Nationalism in the Soviet Union, 1923–1939. – Ithaca: Cornell University Press, 2001.
4. Slezkine, Y. The USSR as a Communal Apartment, or How a Socialist State Promoted Ethnic Particularism. // Slavic Review. – 1994. – Vol. 53, No. 2. – Pp. 414–452.
5. Carrère d'Encausse, H. L'Empire éclaté: La révolte des nations en URSS. – Paris: Flammarion, 1978.
6. Keller, S. To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign against Islam in Central Asia. – Westport: Praeger, 2001.

**Turayev Abrar Saloxiddinovich**

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jizzax davlat pedagogika universiteti

NEOKONSERVATIV YO'NALISHDAGI "AQL MARKAZLAR"NING MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK TAMOIYILLARIGA MUNOSABATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada AQShdagi neokonservativ yo'nalishdagi "aql markazlar" (think tanks) faoliyatining millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqot tamoyillariga nisbatan yondashuvi tahlil qilinadi. Neokonservatizm mafkurasi doirasida bu qadriyatlarining qanday talqin qilinishi va ular tashqi siyosiy strategiyalarda qanday vosita sifatida ishlatilishi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: neokonservatizm, "aql markazlari", diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, mafkura, tashqi siyosat, AQSh, g'oyaviy geosiyosat.

Annotation: This article analyzes the approach of neoconservative think tanks in the United States towards the principles of interethnic harmony, religious tolerance, and intercultural dialogue. It reveals how these values are interpreted within the neoconservative ideology and how they are employed as instruments in foreign policy strategies.

Keywords: neoconservatism, think tanks, religious tolerance, interethnic harmony, ideology, foreign policy, USA, ideological geopolitics.

Kirirsh

Din har doim an'anaviy qadriyatlarining manbai sifatida namoyon bo'lib kelgan. U insoniyat hayot tarzining ajralmas qismi sifatida madaniyat bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Diniy e'tiqodlar va axloqiy me'yorlar orqali shakllangan madaniy an'analar jamiyatning mustahkam ijtimoiy tuzilmasini yaratishda muhim rol o'ynagan.

Konservativ qarashlarga ko'ra, jamiyat axloqiy inqiroz yoqasiga kelgan paytda aynan din va axloqiy tizim mavjud tartibni saqlab qolish, ijtimoiy izchillikni tiklash vositasi sifatida maydonga chiqadi. Shu boisdan, konservatizm doirasida din jamiyatni himoya qiluvchi mafkuraviy qalqon sifatida baholanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan neokonservatizm an'anaviy konservativ qadriyatlarni saqlab qolish bilan birga, ularni global miqyosda targ'ib qilish zaruratini ham ilgari suradi. Neokonservatorlar din va madaniyatni nafaqat ichki ijtimoiy barqarorlik omili, balki tashqi siyosatning mafkuraviy vositasi sifatida ham ko'radilar. Shu bois neokonservatizm doirasida ijtimoiy-madaniy va ma'naviy-axloqiy muammolarga bo'lgan e'tibor tasodifiy emas. Ular bu yo'nalishdagi muammolarni nafaqat ichki siyosatning, balki xalqaro munosabatlarning ham asosiy tarkibiy qismi sifatida tahlil qiladilar.

Agar ilgari madaniyat masalalari asosan falsafa va tarix fanlari doirasida ko'rib chiqilgan bo'lsa, oxirgi bir necha o'n yilliklar davomida ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolar bilan bevosita bog'liqligi tobora yaqqol namoyon bo'lmoqda. Natijada, madaniyat fenomeni hozirgi kunda faqat estetik yoki tarixiy mazmundagi tushuncha emas, balki sotsiologik va siyosiy fanlar doirasida ham tahlil qilinayotgan dolzarb ijtimoiy voqelik sifatida maydonga chiqmoqda.

Tahlil va natijalar

Neokonservatizm AQShning global liderligi, demokratik qadriyatlarni eksport qilish va Amerika modeli asosida "yangi dunyo tartibini" barpo etish g'oyasini ilgari suruvchi mafkura



hisoblanadi. Mazkur mafkura asosida faoliyat yurituvchi “aql markazlari” (masalan, American Enterprise Institute, Project for the New American Century, Heritage Foundation va boshqalar) milliy xavfsizlik, tashqi siyosat va global g‘oyaviy ustunlik masalalarida muhim tashabbuskorlar hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklar mobaynida neokonservativ yo‘nalishdagi “aql markazlar” AQSh tashqi siyosatining mafkuraviy asoslarini shakllantirishda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Ular orqali ilgari surilayotgan qadriyatlar va konseptual yondashuvlar nafaqat siyosiy jarayonlarga, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlarga ham chuqur ta‘sir ko‘rsatmoqda. Jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik tamoyillari bu markazlar faoliyatida alohida o‘rin egallaydi.

Neokonservatorlar ko‘pincha bu qadriyatlarni global miqyosda demokratik erkinliklar targ‘ibotining bir qismi sifatida ilgari suradilar. Biroq, ularning bu boradagi yondashuvi oddiy gumanizm emas, balki geosiyosiy va mafkuraviy manfaatlarga xizmat qiluvchi aralash yondashuvdir.

Neokonservativ “aql markazlar” AQSh tashqi siyosatining shakllanishida mafkuraviy va g‘oyaviy asoslarni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ular, ayniqsa, “sovuq urush”dan keyingi global tartibotda AQShning geosiyosiy yetakchiligini mustahkamlash hamda “liberal demokratiya” va “G‘arb qadriyatlari”ni tashqi siyosat vositasiga aylantirishda faol bo‘lgan[1]. Shu jihatdan, ushbu markazlarning millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikka bo‘lgan yondashuvi ham asosan real siyosiy manfaatlar bilan bog‘liq.

Rasmiy pozitsiyada neokonservatorlar diniy bag‘rikenglikni qadrlaydilar va uni inson huquqlari doirasida muhim omil sifatida ko‘rsatadilar. Neokonservatorlar diniy qadriyatlarga konservativ nuqtai nazardan yondashib, ularni jamiyatdagi axloqiy va madaniy me‘yorlarni mustahkamlovchi kuch sifatida ko‘radi. Ular ko‘pincha diniy erkinliklarni boshqa davlatlarga nisbatan tashqi bosim yoki gumanitar aralashuvlar asosida ilgari suradilar. Biroq amaliyotda diniy bag‘rikenglik ko‘pincha geosiyosiy vositaga aylanadi, ya‘ni muayyan diniy guruhlar (ayniqsa, xristianlik yoki AQShga yaqin diniy harakatlar)ni qo‘llab-quvvatlash orqali boshqa davlatlarning ichki siyosatiga aralashuvga asos yaratiladi.

I.Kristol va D.Bell kabi neokonservatorlar o‘z asarlarida diniy va an‘anaviy qadriyatlarni liberal g‘oyalarning chegarasizligi va axloqiy relativizmiga qarshi zaruriy tamoyil sifatida ta‘kidlagan. Biroq, bu yondashuv ko‘pincha G‘arb jamiyatidagi nasroniy protestant etikasi bilan cheklangan bo‘lib, boshqa dinlarga, xususan islomga nisbatan cheklangan bag‘rikenglikni aks ettiradi[2].

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida musulmon dunyosida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar, xususan, Eron islom inqilobi, Afg‘oniston mojaro, “Musulmon birodarlar” harakati kabi oqimlarning kuchayishi G‘arbda “Islom tahdidi” tushunchasining keng tarqalishiga sabab bo‘ldi[3]. Aynan neokonservativ doiralar, xususan N.Podgorets, R.Kagan va R.Perl tomonidan ishlab chiqilgan bu kontsepsiya AQSh tashqi siyosatida “diniy ekstremizmga qarshi kurash”ni asos qilib, harbiy aralashuvlar va ideologik pozitsiyalarni asosladi[4].

Norman Podhoretz o‘zining “World War IV: The Long Struggle Against Islamofascism” asarida islomiy radikal harakatlarni fashistik mafkura bilan qiyoslab, ularni kommunizm va natsizm bilan teng xavf deb baholaydi. U “Islomofashizm” atamasini ishlatib, bu harakatlarga qarshi “g‘oyaviy salib yurishi” zarurligini ta‘kidlaydi[5]. Bu yondashuvda diniy bag‘rikenglik faqat G‘arbparast islomiy guruhlariga nisbatan qo‘llanilib, siyosiy jihatdan murosasiz yoki tanqidiy pozitsiyadagi musulmon harakatlar radikal deb belgilanishi keng tarqalgan.

Millatlararo totuvlik neokonservatorlar nazarida ijtimoiy barqarorlik vositasi sifatida emas, balki “barqaror bozor tizimi” va AQShga sodiq siyosiy tuzilmalarni rivojlantirish vositasi sifatida talqin qilinadi. Bu tamoyil ko‘pincha boshqa davlatlarda “milliy nizolar”ni bartaraf etish niqobi ostida



ularning siyosiy tuzilmasini o'zgartirish yoki g'oyaviy makonini qayta shakllantirish vositasiga aylanadi.

Neokonservativ “aql markazlari” faoliyatida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik tamoyillari ko'pincha tanlovli (selektiv) tarzda targ'ib qilinadi. Masalan, AQShning geosiyosiy manfaatlariga zid yoki G'arbning liberal qadriyatlarini qabul qilmagan guruhlar ko'pincha “fundamentalistik” yoki “avtoritar” deb belgilab qo'yiladi, bu esa ularga nisbatan muloqot o'rniga bosim siyosatini asoslashga xizmat qiladi.

AQShda faoliyat yuritayotgan Heritage Foundation, American Enterprise Institute (AEI) va Hudson Institute kabi neokonservativ “aql markazlar” diniy bag'rikenglikni targ'ib qilayotganini da'vo qiladi, biroq amaliy siyosatda ular tanlab yondashadilar. Ular “mo'tadil islom” va “radikal islom” o'rtasida aniq chegara chizib, G'arb manfaatlariga mos tushadigan oqimlarni “qabul qilinadigan”, mos kelmaydiganlarini esa “xavfli” deb talqin qiladi. Masalan, Middle East Forum quyidagicha ta'kidlaydi: “Muammo radikal islomda, yechim esa mo'tadil islomda”[6]. Bu yondashuv diniy bag'rikenglikni haqiqatda qadriyat sifatida emas, balki siyosiy vosita sifatida talqin qilinishini anglatadi.

Millatlararo totuvlikka kelganda, neokonservativ “aql markazlar” nazariy jihatdan global barqarorlikni qo'llab-quvvatlasalar ham, bu totuvlik G'arbning geosiyosiy manfaatlari doirasida talqin qilinadi. Diniy va etnik nizolar mavjud hududlarda ular ko'pincha tashqi siyosiy aralashuvni demokratik qadriyatlar, diniy erkinlik va inson huquqlari nomi bilan asoslashadi. Aslida esa bu yondashuv millatlararo totuvlikni mahalliy dinamikalar va madaniy o'ziga xosliklarni hisobga olmasdan, uni ideologik jihatdan standartlashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Neokonservativ “aql markazlar” diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni odatda universal insoniy prinsiplar sifatida emas, balki tashqi siyosiy strategiyalarni amalga oshirishda qulay vosita sifatida talqin qiladi. Bunday yondashuvda bu qadriyatlar gumanistik mazmunda emas, balki geosiyosiy manfaatlar va mafkuraviy ustunlikni ta'minlash maqsadida ishlatiladi. Ya'ni, neokonservativ doiralar uchun “bag'rikenglik” va “totuvlik” tushunchalari real madaniy yoki diniy xilma-xillikni tan olishdan ko'ra, G'arb qadriyatlariga muvofiqlik darajasini o'lchash mezoniga aylangan. Bunday yondashuv doirasida “g'oyaviy dushmanlar” tushunchasi doimiy yangilanib keladi. Jumladan, XX asrda bu rol ni kommunizm bajargan bo'lsa, XXI asrda islomiy fundamentalizm asosiy tahdid sifatida ilgari surilmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, neokonservativ “aql markazlar” tomonidan ilgari surilayotgan diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik konsepsiyalari, aslida, ikki tomonlama standartlarga asoslanadi. Bu holatda bag'rikenglik xilma-xillikni qabul qilish emas, balki G'arb siyosiy va madaniy normalariga moslashishni anglatadi.

Ushbu yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan tashqi siyosiy qarorlar ko'pincha mintaqalardagi real ijtimoiy dinamikani inobatga olmaydi va natijada totuvlikni mustahkamlash emas, balki G'arb geosiyosiy dominatsiyasini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, O'zbekiston kabi ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik masalalariga yondashishda faqat tashqi g'oyalarga suyanmasdan, o'z tarixiy, madaniy va ma'naviy an'analimizga tayanish nihoyatda muhimdir. Chunki mamlakatimizdagi ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va o'zaro hurmat tamoyillari faqat tashqi siyosiy model emas, balki ichki ijtimoiy uyg'unlik va mustahkam ma'naviy zamin asosida barpo etilishi zarur. Shu bois, neokonservativ yondashuvdagi selektiv bag'rikenglikdan farqli o'laroq, O'zbekistonda dinlar va millatlar o'rtasidagi haqiqiy muloqotni mustahkamlashga qaratilgan, o'ziga xos, mustaqil yondashuvni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kristol I. Confessions of a True, Self-Confessed Neoconservative / I. Kristol // The New York Times. — 1979. — Режим доступа: <https://www.nytimes.com> (дата обращения: 18.10.2025).
2. Podhoretz N. World War IV: The Long Struggle Against Islamofascism / N. Podhoretz. — New York : Doubleday, 2007. — 256 с.
3. Fukuyama F. America at the Crossroads: Democracy, Power, and the Neoconservative Legacy / F. Fukuyama. — New Haven : Yale University Press, 2006. — 272 с.
4. Kagan R. The Return of History and the End of Dreams / R. Kagan. — New York : Alfred A. Knopf, 2008. — 310 с.
5. Podhoretz N. World War IV: The Long Struggle Against Islamofascism / N. Podhoretz. — New York : Doubleday, 2007. — 256 с.
6. Middle East Forum. Radical Islam is the problem, moderate Islam is the solution [Elektron resurs]. — Rejim dostupa: <https://www.meforum.org>, erkin. — Murojaat sanasi: 18.10.2025.
7. E-International Relations. The Impact of Neoconservative Think Tanks on American Foreign Policy // E-International Relations. — 2014. — Режим доступа: <https://www.e-ir.info> (дата обращения: 18.10.2025).

Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li

Ijtimoiy fanlar kafedrası tayanch doktoranti

Jizzax davlat pedagogika universiteti

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLATLARARO TOTUVLIK TAMINLASHDA MULOQOT MADANIYATINING AHAMIYATI

Annotatsiya Maqola globallashuv sharoitida millatlararo muloqot madaniyatining ijtimoiy-falsafiy ahamiyatini tahlil qilinadi. Madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasi (MKK) nazariyasi, global miqyosdagi madaniy integratsiya va unifikatsiya jarayonlari qiyosiy o'rganiladi. Shu bilan birga zamonaviy kommunikatsion muhitda shaxslararo va madaniyatlararo muloqotning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyat barqarorligi va totuvligini ta'minlashdagi funksional roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, millatlararo totuvlik, muloqot madaniyati, madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasi, bag'rikenglik, ijtimoiy integratsiya, madaniy xilma-xillik, ijtimoiy tarmoqlar.

Annotation: This article analyzes the socio-philosophical significance of intercultural communication culture in the context of globalization. The theory of Intercultural Communication Competence (ICC), as well as processes of cultural integration and unification on a global scale, are comparatively examined. In addition, the specific features of interpersonal and intercultural communication in the modern communication environment and their functional role in ensuring social stability and harmony are highlighted.

Keywords: globalization, interethnic harmony, communication culture, intercultural communication competence, tolerance, social integration, cultural diversity, social networks.

Kirish Globallashuv hozirgi kunda butunjahon iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida o'z aksini topmoqda. Bu jarayon mamlakatlar o'rtasidagi chegaralarni yuvib, axborot va resurslar almashinuvini jadallashtirsa-da, ayni paytda millatlararo ziddiyatlar va madaniy nizolar xavfini



kuchaytirishi ham mumkin. Ayni shuning uchun ham millatlararo totuvlikni ta'minlashda, turli xalqlar va madaniyat vakillari o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish va muloqotga kirishish juda muhim hisoblanadi. Chunki axborotlashgan jamiyat asrida ma'lumot almashish jarayoni nihoyatda soddalashdi. Turli madaniyatlar bilan tanishuv imkoniyati kengaydi. O'z o'zidan bu jarayonni o'rganishga bo'lgan intilish kuchaydi. Bugungi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki millatlararo muloqot madaniyatining shakllanishi globallashtiruv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi degan fikrga kelishgan. Buning zahirida esa millatlararo totuvlikni ta'minlash yotadi.

Shu o'rinda millatlararo totuvlik deganda jamiyatda mavjud turli millatlar va xalqlar o'rtasida o'zaro hurmat, tenglik va hamkorlikka asoslangan muhitning shakllanishi tushuniladi. Bu jarayon nafaqat siyosiy barqarorlik, balki ijtimoiy birdamlik va umumiy taraqqiyotning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi. Birdamlik mavjud bo'lgan jamiyatda insonlar millati, dini yoki e'tiqodidan qat'i nazar, o'zaro ishonch, adolat va bag'rikenglik tamoyillari asosida yashaydi.

Muloqot madaniyati esa insonlar o'rtasidagi fikr almashinuvi, tushunish va kelishuv jarayonida yuzaga keladigan ma'naviy, axloqiy hamda estetik qadriyatlar majmuasi hisoblanadi. U shaxsning so'zlashuv odobi, fikrni aniq ifoda etish, suhbatdoshni hurmat qilish, tinglay bilish va to'g'ri munosabat o'rnatish qobiliyatini o'zida ifodala etadi. Muloqot madaniyati — bu faqat so'zlashuv uslubi emas, balki insoniylikning ko'zgusi, jamiyat madaniy saviyasini ko'rsatib beruvchi asosiy mezon hamdir.

Tahlil va natijalar: Har bir jamiyat (va ba'zan uning alohida ijtimoiy guruhlar) muloqotning muayyan tartibga soluvchi tamoyillarini ishlab chiqadi, ular nafaqat u tomonidan qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarida mustahkamlanadi, balki ko'proq yoki kamroq ongga ega bo'lgan odamlarda ham tarbiyalanadi. Bu muloqot madaniyatining u yoki bu darajasi mavjudligini ta'kidlashga asos bo'ladi. Bu yerda madaniyat muloqotdan ko'ra kengroq tushuncha ekanligini ta'kidlaymiz, u odamlar to'plagan barcha moddiy va ma'naviy qadriyatlarni o'z ichiga oladi.

Har bir jamiyat, hatto uning tarkibidagi alohida ijtimoiy guruhlar ham, o'ziga xos muloqot me'yorlarini shakllantiradi. Ushbu tamoyillar nafaqat rasmiy qonunlar yoki qoidalar sifatida, balki jamiyat a'zolarining ongida shakllanadigan xulq-atvor normalari asosida mustahkamlanadi. Bu esa kishilarning tarbiyasi, ijtimoiylashuvi va kundalik so'zlashuv orqali avloddan-avlodga o'tib, ma'lum bir madaniy muhitni yuzaga keltiradi.[2] Ayni muloqot vositasida ushbu qadriyatlarning uzatilishi, rivojlanishi va jamiyatdagi insonlarni birlashuvini ta'minlaydi. Hozirgi kunda esa globallashtiruv bu jarayonni nihoyatda tezlashtirdi.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, globallashtiruv tufayli madaniy integratsiya (madaniyatlarning aralashishi va o'zaro ta'siri) va unifikatsiya (madaniyatlarning birlashishi yoki standartlashishi) ni kuchaytib, dunyo hamjamiyatini bir-biriga yaqinlashdi. Bu iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillar orqali sodir bo'lib, savdo, media va migratsiya kabi vositalar yordamida madaniy chegaralar kengaydi. Masalan, transmilliy kompaniyalar va internet orqali g'arb madaniyati (kino, musiqa, ovqatlanish) butun dunyoga keng yoyilib, madaniy transformatsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Natijada, madaniy gibridlik (hybridity) paydo bo'lib, global va mahalliy elementlar yangi shakllarni ya'ni qorishmasi yuzaga keldi.

Bu o'zgarish o'z o'rnida muloqot madaniyatining yangi mezonlarining shakllanishiga xizmat qildi. Bunga moslashish uchun insonlar turli madaniylar, til uslublari va kommunikativ xulq-atvor modellarini bilishi va o'zlashtirishi lozim. Bunda axborot oqimining keskin ortgani va raqamli muloqot shakllarining kengaygani ular uchun qulay imkoniyat taqdim qiladi. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar (social media) muloqot jarayonini yanada soddalashishiga sabab bo'ldi. Masalan, Instagram, Facebook va X (sobiq Twitter) kabi platformalar orqali foydalanuvchilar turli qadriyatlarini, an'alarini va hayot tarzini real vaqt rejimida ko'rish imkoniyati bor. Bu esa geografik



masofalarni yo'q qildi va ma'lumot almashinuvni osonlashtiradi. Biroq, muloqotning bu shakllari yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi: axborot kokonlari (information cocoons) yuzaga kelishi, ya'ni foydalanuvchilar faqat o'z qiziqishlariga mos keladigan kontentni ko'rishlari mumkin, bu esa stereotiplarni kuchaytiradi va ma'lum axborot doirasida qolib ketishga olib keladi.[5.–B.414] Buni oldini olish uchun Maykl Brayn madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasini (MKK) nazariyasini ilgari surdi.[1.–B.13] Bunda insonda shakllanishi lozim bo'lgan ma'lum bir ko'nikmani nazarda tutadi. Bugungi kunda ham bu masala juda dolzarb hisoblanadi. Bizningcha uni rivojlantirish uchun ijtimoiy tarmoqlarda tanqidiy fikrlash va hurmat tamoyillarini qo'llash kerak, bu nafaqat shaxsning dunyoqarashining kengayishiga shu bilan birga millatlar o'rtasidagi ijtimoiy integratsiyaga ham yordam beradi. Masalan, xorijda o'qiyotgan talabalar uchun ijtimoiy tarmoq platformalari mahalliy madaniyatga moslashishda vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali mahalliy yangiliklarni kuzatish, turli elat vakillari bilan fikr almashishi esa o'rtadagi madaniy farqlar bildirmaslikka olib keladi, lekin bu jarayon MKK darajasiga bog'liq bo'lib, bunda yuqori MKK ga ega shaxslar ijtimoiy tarmoqlar yoki kerakli platformalarni (masalan, TED Talks yoki onlayn madaniy almashinuv dasturlari) maqsadli foydalanib, har qanday davlatda o'zlari uchun qulay muhitni yuzaga keltiradi. Natijada, nafaqat millatlar o'rtasidagi qadriyatlar va urf odatlarni o'rganadi undagi ayrim elementlarni ham o'zlashtirishga erishadi.

Biroq, bu jarayon salbiy tomonlarga ham ega bo'lib ba'zi xollarda madaniy gomogenizatsiya (bir xillashish) o'z tili va an'analarni chetga suriladi chunki bu vaziyatlarda dominant madaniyatlar (ko'pincha G'arb) ustunlik qilish ehtimoli ortadi. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarning o'ziga xos qadriyatlar tizimi zaiflashishiga olib keladi. Masalan, xalqaro media va texnologiyalar orqali tarqatilayotgan Golivud filmlari yoki ijtimoiy tarmoqlarning standartlashtirilgan kontent yosh avlodlarni bir xil estetik didning shakllanishiga sabab bo'ladi. Shunga qaramay, globallashuv jarayonidan chetga chiqish undan ajralib yopiq jamiyatga aylanish qarori o'zini oqlamaydi.

Buni isboti sifatida YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995-yil 16-noyabrdagi 28-sessiyasida “Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risida”gi Deklaratsiya qabul qilindi. [3. – B.8] Shundan beri mazkur sana “Xalqaro bag'rikenglik kuni” sifatida nishonlanadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad insoniyatni tinchlik va osoyishtalikni asrab-avaylashga hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishga chorlashdir. Mazkur deklaratsiyada ta'kidlanganidek: “Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi”[4. – B.26] Zero tinchlikka erishishning asosiy vositasi esa bu muloqot hisoblanadi. Munosabatlar ijobiy bo'lsa tinchlik bardavom bo'ladi.

Xulosalar Umuman olganda globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. U mamlakatlar, xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuchaytirar ekan, bir tomondan jahon hamjamiyatini yaqinlashtiradi, ikkinchi tomondan esa madaniy identifikatsiya va milliy qadriyatlarni saqlash masalasini dolzarb muammoga aylantiradi. Shunday sharoitda millatlararo totuvlik va muloqot madaniyatini rivojlantirish — nafaqat ijtimoiy barqarorlikni, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqot madaniyati orqali insonlar o'zaro hurmat, bag'rikenglik, tenglik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan aloqalarni o'rnatadilar. Ayniqsa, axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivoji sharoitida bu jarayon yangi bosqichga ko'tarildi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn muloqot natijasida turli madaniyat vakillari bir-birlari bilan tez-tez aloqada bo'lib, o'z aro ma'lumot almashish imkoniga ega bo'ldilar.

Biroq bu imkoniyatlar bilan birga ayrim xavf-xatarlar ham yuzaga kelmoqda — madaniy bir xillashuv, axborot kokonlari va stereotiplash kabi holatlar millatlararo anglashuvga to'sqinlik qilishi mumkin. Shu sababli, madaniyatlararo kommunikatsiya kompetensiyasi (MKK)ni rivojlantirish,

ya'ni turli madaniyatlar vakillarini anglay olish, ularning qadriyatlariga hurmat bilan yondashish va konstruktiv muloqot olib borish ko'nikmalarini shakllantirish bugungi davrning eng muhim vazifalaridan biridir. Shu bois globallashuv sharoitida har bir inson millatlararo muloqot va totuvlikni saqlash yo'lida faol ishtirok etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Brayn M. Teaching and assessing intercultural communicative competence: Revisited. – Multilingual matters, 2020.p-13
2. Boltaboyev A.A. Muloqot olami: sub'ektlararo munosabatlar muammosi. – T.: O'zMU axborotnomasi, 2019. №2.
3. Tadjibaeva, D. (2017). Ensuring national security in the information sphere. Review of law sciences, 1(1), 8.
4. Таджибаева, Д. (2020). СВОБОДА СОВЕСТИ – ОСНОВА СОЦИАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ. Review of law sciences, 1(Спецвыпуск), 26.
5. Zhang, X.; Cai, Y.; Zhao, M.; Zhou, Y. Generation Mechanism of “Information Cocoons” of Network Users: An Evolutionary Game Approach. Systems 2023, 11, 414. <https://doi.org/10.3390/systems11080414>

Abdullayeva Zarifaxon
NamDU, magistranti

O'ZBEKISTONNING MINTAQAVIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOTDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy barqarorlik, iqtisodiy integratsiya va ijtimoiy totuvlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Mamlakatning “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan tashqi siyosiy yo'nalishlari, milliy manfaatlar tizimi hamda ularning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlardagi o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi. O'zbekiston tashabbuslari – chegaraviy muammolarni hal etish, transport-kommunikatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, ekologik xavfsizlik, madaniy hamkorlik va mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirish orqali Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida tinchlik, barqarorlik va o'zaro ishonchni mustahkamlashga qaratilgan strategik yondashuv sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Markaziy Osiyo, mintaqaviy barqarorlik, milliy manfaatlar, integratsiya, globallashuv, hamkorlik, taraqqiyot strategiyasi, xavfsizlik, bag'rikenglik.

XXI asr boshlarida global siyosiy jarayonlarning murakkablashuvi, iqtisodiy raqobatning keskinlashuvi va yangi geosiyosiy markazlarning shakllanishi mintaqaviy hamkorlikni har bir davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Markaziy Osiyo kabi geostrategik makonlarda barqarorlikni ta'minlash va integratsiya jarayonlarini rivojlantirish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mintaqadagi siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar jarayonida faol tashabbuskor davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. “Yangi O'zbekiston – Yangi hayot” konsepsiyasi doirasida mamlakatning tashqi siyosatida o'zaro ishonch, ochiqlik, pragmatizm va hamkorlik



tamoyillari asos qilib olinmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi o'zni nafaqat milliy manfaatlarini himoya qilish bilan, balki mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash bilan ham belgilanadi.

Milliy manfaatlar konsepsiyasi siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlar nazariyasida davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilovchi eng muhim kategoriya hisoblanadi. U iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarning uyg'unligidan tashkil topadi.

Siyosiy realizm nazariyasi nuqtai nazaridan milliy manfaat – davlatning xavfsizlik, suverenitet, barqarorlik va farovonlikni ta'minlashga qaratilgan ongli ehtiyojlar majmuidir. Shu bilan birga, sotsiologik yondashuvda u millatning ijtimoiy ongida shakllangan qadriyatlar, intilishlar va rivojlanish ehtiyojlari tizimi sifatida talqin qilinadi.

Mitroxin (2002) milliy manfaatlarini "manfaatlar majmuasi" sifatida keng ijtimoiy mazmunda sharhlaydi. Otamuratov (2015) esa uni millatning o'z ehtiyojlarini anglash va ularni ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy faoliyat shakli sifatida ko'radi. Ochilidzev (2014) va Axmedov (2018) yondashuvlarida esa milliy manfaatlar tarixiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy birlikning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu yondashuvlarni umumlashtirgan holda, O'zbekistonning milliy manfaatlarini quyidagicha talqin qilish mumkin:

Milliy manfaatlar – bu shaxs, jamiyat, millat va davlat manfaatlarining uyg'unlashgan tizimi bo'lib, ularning maqsadi mamlakat suvereniteti, iqtisodiy mustaqilligi, ijtimoiy farovonligi va ma'naviy yuksalishini ta'minlashdir.

Milliy manfaatlarini samarali amalga oshirish uchun ularni tizimlashtirish muhimdir. Falsafiy yondashuvga ko'ra, har qanday tizim o'z muhitidan ajralgan holda emas, balki u bilan o'zaro ta'sirda mavjud bo'ladi [2, B. 244]. Shu bois O'zbekistonning mintaqaviy manfaatlari quyidagi to'rtta asosiy yo'nalishda shakllanadi:

Iqtisodiy manfaatlar. O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlari mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va investitsiyalarni jalb etish bilan chambarchas bog'liq. Asosiy yo'nalishlar:

- Markaziy Osiyo bozorida raqobatbardoshlikni oshirish;
- Xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish;
- Transport va logistika tizimini diversifikatsiya qilish;
- Turizm va madaniy almashinuv sohalarini rivojlantirish.

Professor B. Iminov ta'kidlaganidek, "raqobat – taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi", biroq hamkorlik raqobatdan ustun bo'lishi kerak [8, B. 44]. Shu ma'noda, mintaqaviy iqtisodiy manfaatlarining uyg'unlashuvi Markaziy Osiyoda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning asosidir.

Siyosiy manfaatlar. O'zbekistonning siyosiy manfaatlari barqarorlik, xavfsizlik va o'zaro ishonch tamoyillariga asoslanadi. Mamlakat mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, transchegaraviy masalalarni hal etish va ekstremizmga qarshi kurashda faol tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Prezident Sh. Mirziyoyevning ta'kidlashicha: "Markaziy Osiyoda suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o'zaro chambarchas bog'liq. Ularni hal etishda mintaqa davlatlari manfaatlarini teng hisobga olish zarur." [1]

Bu yondashuv mintaqada siyosiy barqarorlikni ta'minlash va xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro ishonch asosida hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Geosiyosiy manfaatlar. Markaziy Osiyo – global manfaatlar kesishgan hudud. AQSh, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Turkiya va Yevropa Ittifoqi bu mintaqada o'z strategik manfaatlarini



ilgari surmoqda. Shu sharoitda O'zbekiston "muvozanatli tashqi siyosat" tamoyiliga amal qilib, mintaqaviy manfaatlar muvozanatini saqlashga intilmoqda.

Geosiyosiy ustuvorliklar quyidagilardir:

- ✓ Transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish;
- ✓ Energetika tarmoqlarini diversifikatsiya qilish;
- ✓ Afg'oniston orqali Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish;
- ✓ Xalqaro tashkilotlarda faol ishtirok etish.

Bu jarayonda "Buyuk Ipak yo'li" konsepsiyasini qayta tiklash, Sharq–G'arb hamda Sharq–Janub yo'nalishlarini integratsiya qilish O'zbekiston uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy va ma'naviy manfaatlar. Globallashuv sharoitida ijtimoiy xavfsizlik, bandlik, sog'liqni saqlash va giyohvandlikka qarshi kurash masalalari mintaqaviy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, ma'naviyat va madaniyat sohalaridagi hamkorlik millatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" tamoyili asosida O'zbekiston mintaqada madaniy integratsiya, ilmiy almashinuv va ma'rifatparvarlikni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynamoqda.

Markaziy Osiyoda transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish O'zbekiston uchun iqtisodiy hamda geosiyosiy ustuvorlikdir.

"Buyuk Ipak yo'li"ning zamonaviy konsepsiyasi. Xitoyning "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi doirasida O'zbekiston mintaqaviy tranzit markazga aylanish yo'lida faol harakat qilmoqda.

- Shimoliy yo'nalish: Sharq (Xitoy, Koreya, Yaponiya) – Rossiya – Yevropa.
- Janubiy yo'nalish: Sharq – Afg'oniston – Eron – Fors ko'rfazi – Hindiston.

Bu ikki yo'nalish O'zbekiston uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni ochadi. Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston temir yo'li loyihasi, Angren–Pop temir yo'li hamda Transafg'on transport koridori bu jarayonning real ko'rinishidir.

Energetika va quvur loyihalari. Qozog'iston–O'zbekiston–Turkmaniston–Afg'oniston–Pokiston–Hindiston (TAPI) gaz quvuri loyihasi O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Bu loyiha:

- mamlakatning eksport salohiyatini oshiradi;
- tranzit daromadlarini ko'paytiradi;
- Rossiya va Xitoyga muqobil yo'l ochadi;
- mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiradi.

Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida madaniy-ma'naviy uyg'unlik tarixan shakllangan. Bugungi kunda bu uyg'unlik ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida yangicha mazmun kasb etmoqda.

O'zbekistonning mintaqaviy tashabbuslari:

- madaniy diplomatiya (festival, ilmiy almashinuv, ta'lim loyihalari);
- yoshlar o'rtasida millatlararo totuvlikni targ'ib etish;
- ekologik xavfsizlik va suv resurslarini boshqarishda o'zaro ishonchni uchaytirish.

Bu tashabbuslar mintaqada barqaror rivojlanish uchun ijtimoiy kapitalni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning mintaqaviy barqarorlikdagi o'rni – bu nafaqat geografik yoki iqtisodiy omillar natijasi, balki mamlakatning strategik tafakkuri, muvozanatli siyosati va ochiq diplomatik yondashuvi mahsulidir.

Mamlakat o'zining milliy manfaatlarini mintaqaviy integratsiya, iqtisodiy islohotlar, madaniy hamkorlik va geosiyosiy muvozanat orqali amalga oshirmoqda.



O'zbekiston tashabbuslari Markaziy Osiyo uchun yangi model – “barqarorlik orqali taraqqiyot” konsepsiyasining amaliy ifodasidir. Bu yondashuv mintqa xalqlari o'rtasida ishonchni mustahkamlab, umumiy farovonlik va tinchlik sari yo'l ochmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev, Sh. M. (2017). Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent: O'zbekiston.
2. Falsafa ensiklopedik lug'ati. (2004). Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
3. Safoev, S. (2019). O'zbekiston tashqi siyosatining yangi bosqichi: geoiqtisodiy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi nashriyoti.
4. Otamuratov, S., & Otamuratov, S. (2015). Milliy manfaat va milliy g'oya nazariy asoslari. Toshkent: Fan.
5. Bartold, V. V. (1963). Sochineniya. Tom II, chast II. Moskva: Izdatel'stvo Vostochnoy Literatury.
6. Bettler, E. (1999). National Interests and Global Policy Formation. London: Routledge.
7. Gadjiyev, K. S. (2000). Vvedeniye v geopolitiku. Moskva: Logos.
8. Iminov, B. (2016). Siyosiy jarayonlar va siyosiy manfaatlar muvozanati. Toshkent: TDIU nashriyoti.
9. Ko'charov, Ch. (2020). Markaziy Osiyo geosiyosatida yangi tendensiyalar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
10. Pozdnyakov, E. G. (2004). Natsionalniye i gosudarstvenniye interesy v sovremennom mire. Moskva: Nauka.
11. Markaziy Osiyo transport-kommunikatsiya integratsiyasi bo'yicha xalqaro tahliliy hisobot. (2021). Toshkent: Iqtisodiy tadqiqotlar markazi.
12. Mitroxin, S. S. (2002). Politologiya: Teoriya i metodologiya. Moskva: Aspekt Press.
13. Ochildiyev, A. (2014). Milliy manfaatlar falsafasi va siyosiy realizm. Toshkent: TDSHI nashriyoti.
14. Safoev, S. (2021). Global integratsiya sharoitida Markaziy Osiyo manfaatlari. Toshkent: “Adolat” nashriyoti.
15. Axmedov, K. (2018). Milliy manfaatlar va ularning geosiyosiy ifodasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
16. Pozdnyakov, E. G. (2003). Metodologicheskiye osnovy issledovaniya natsionalnyx interesov. Moskva: Nauchnaya mysl'.
17. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasi. (2017). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti devoni.
18. Safoev, S. (2019). Geoiqtisodiyot va xalqaro hamkorlik tamoyillari. Toshkent: Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti nashriyoti.
19. Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror taraqqiyot strategiyalari: tahliliy hisobot. (2023). Toshkent: Strategik tadqiqotlar instituti.
20. Ijtimoiy muhit va barqarorlik: zamonaviy yondashuvlar. (2022). Toshkent: Ijtimoiy tadqiqotlar markazi.
21. Mirziyoyev, Sh. M. (2022). Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: O'zbekiston.
22. Rahmonov, A. (2020). Globallashuv sharoitida Markaziy Osiyo integratsiyasi muammolari. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi FA Ijtimoiy fanlar bo'limi nashriyoti.



23. Ismoilov, X. (2021). Mintaqaviy barqarorlik va geosiyosiy xavfsizlik omillari. Toshkent: Tahlil Press.
24. Saidov, A. X. (2018). Xalqaro huquq va milliy manfaatlar uyg'unligi. Toshkent: TDYuU nashriyoti.
25. O'zbekiston tashqi siyosatining ochiqlik va pragmatizm tamoyillari. (2021). Toshkent: Tashqi ishlar vazirligi axborot byulleteni.

Jo'rayev Akbarali
NamDU, magistranti

JAMIYATNING YANGI RIVOJLANISH BOSQICHIDA IJTIMOIIY - MADANIY QADRIYATLAR USTUVORLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy O'zbekiston jamiyatida ijtimoiy - madaniy qadriyatlarning ahamiyati, ularning milliy o'zlikni anglash hamda yosh avlodni axloqan tarbiyalashdagi roli tahlil etilgan. Ayniqsa, globallashuv sharoitida an'anaviy qadriyatlarni asrab - avaylash va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy - madaniy qadriyatlar, jamiyat, an'analar, o'zlikni anglash, axloq, yoshlar, globallashuv, rivojlanish.

Bugungi globallashuv sharoitida har bir mamlakatning barqaror taraqqiyoti, avvalo, jamiyatning ma'naviy - axloqiy poydevoriga, ijtimoiy - madaniy qadriyatlarining yuksakligiga va ularning amaliy hayotda qanday ifodalanishiga chambarchas bog'liq. Chunki ijtimoiy - madaniy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy xotirasi barobarida, uning hozirgi va kelajakdagi taraqqiyot yo'nalishlarini belgilovchi strategik omil xisoblanadi. Shu bois bugungi kunda ya'ni, O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida qadriyatlar masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda.

Ijtimoiy - madaniy qadriyatlar tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u milliy o'zlik, tarixiy xotira, diniy va dunyoviy qarashlar, axloqiy me'yorlar, urf – odat, an'analar, adabiyot hamda san'at kabi ko'plab ijtimoiy institutlar faoliyati bilan uzviy bog'liq. Shuningdek, "Ijtimoiy - madaniy qadriyatlarga oila va nikoh, e'tiqod va din, san'at va madaniyat, ta'lim va fan, ekologiya va barqaror rivojlanish, bag'rikenglik va farqlarga hurmat, sog'liq va farovonlik, ijtimoiy adolat va tenglik, demokratiya va inson huquqlari kabi jihatlar kiradi." [1] Ushbu qadriyatlar jamiyat a'zolarining o'zaro munosabatlarida, ijtimoiy institutlar faoliyatida, shaxsning shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Demakki, ularni chuqur tahlil qilish va yangi davr talablariga mos tarzda rivojlantirish jamiyatning har tomonlama yuksalishi uchun muhim asos hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2022 - yilda qabul qilingan "Yangi O'zbekiston" g'oyasi va 2023-yilda umumxalq referendumida tasdiqlangan yangi Konstitutsiyasida ham inson qadri, ijtimoiy adolat, milliy o'zlik va madaniy meros ustuvor qadriyatlar sifatida belgilab qo'yildi. Bular esa nafaqat huquqiy hujjatlar darajasida, balki ijtimoiy amaliyotda ham tub burilishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy - madaniy hayotni isloh qilish, qadriyatlarni tiklash va ularni zamonaviy hayotga integratsiyalash kabi vazifalar ilgari surilmoqda. Ushbu jarayon jamiyatning ijtimoiy ongida sezilarli o'zgarishlarga, ma'naviy yangilanishga zamin yaratmoqda.

Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ayni vaqtda ijtimoiy - madaniy qadriyatlar rivojlanishi global madaniyat, texnologik taraqqiyot, internet va ommaviy axborot vositalari orqali tarqalayotgan



g'arblashtirish jarayonlari fonida turli xavflar bilan to'qnash kelmoqda. Bugungi kunda O'zbekistonda ham yoshlar ongiga begona g'oyalar, iste'molchilik, individuallik va ma'naviyatsizlik tahdid solayotgan holatlar kuzatilmoqda. Shu bois milliy qadriyatlarni asrash, ularni zamonaviy kontekstda qayta talqin qilish va yoshlar ongiga singdirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanmoqda. Bu borada ijtimoiy institutlar, ayniqsa, ta'lim, madaniyat, san'at, OAV va fuqarolik jamiyati tashkilotlari muhim rol o'ynamoqda.

Ko'p ilmiy adabiyotlar va maqolalarda ijtimoiy - madaniy qadriyatlar jamiyat hayotining turli jabhalarini qamrab oluvchi ko'p qirrali tushuncha sifatida talqin qilinadi. Shulardan J. Madraximovning yondashuvida, ijtimoiy - madaniy qadriyatlar axloqiy normalar, diniy, siyosiy va iqtisodiy e'tiqodlar, oilaviy hamda milliy an'analar bilan chambarchas bog'liqligi ko'zga tashlanadi. Mamlakatimiz Prezidentining qarashlarida esa jamiyat barqarorligini ta'minlash zarurati mahalla hamda oila institutining ijtimoiy kuch sifatidagi o'rniga alohida hamiyat berilganini guvohi bo'lamiz. Shuningdek, J. Madraximov mahalla tizimi milliy qadriyatlarni saqlash va yosh avlod ongiga singdirishdagi asosiy ijtimoiy institutlardan biri hisoblanishini va ta'lim hamda madaniy tadbirlar orqali bu qadriyatlarni mustahkamlash imkoniyati yaratilishini o'z takliflarida bayon etadi.

Shu bilan birga oilaning inson axloqiy tarbiyasidagi roli ham bir qator tadqiqotchilar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Jumladan, Roziya Matibayeva oilani axloqiy qadriyatlar, hurmat, mehr - oqibat, mas'uliyat va an'analarni shakllantiruvchi makon sifatida ta'riflaydi. Bugungi zamonaviy axborot texnologiyalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ma'naviy tarbiya jarayonidagi ahamiyati tobora ortib borayotgan davrda I.Usta-Alimova yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, axloqiy qadriyatlarni singdirish va ilm - fanga qiziqishni oshirishda ushbu vositalardan samarali foydalanishni ilgari suradi.

Melikov O.M. bu borada, raqamli platformalar orqali madaniy xilma - xillikni saqlash va zararli axborotlardan himoya qilish bugungi O'zbekiston sharoitida dolzarb masalalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Mazkur mavzu doirasida B.I. Matchanova ijtimoiy - madaniy qadriyatlarning fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirish, o'zaro ishonch va hurmatni mustahkamlashdagi rolini ta'riflab, ularni jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash va barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida ko'rsatadi.

Ushbu maqolada O'zbekiston jamiyatining yangi rivojlanish bosqichida ijtimoiy - madaniy qadriyatlar tizimining holati, o'zgarish dinamikasi va ustuvorlik darajasini ilmiy asosda o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishi sifatida sotsiologik va madaniyatshunoslik yondashuvlar tanlandi. Shuningdek, tarixiy - tahliliy, taqqoslash, kontent tahlil va empirik ma'lumotlarga asoslangan metodlar integratsiyalashgan holda qo'llandi.

Tadqiqot nazariy jihatdan strukturaviy - funksionalizm, sotsial konstruktivizm va madaniy relativizm nazariyalariga tayanadi. Shuningdek, davlat rahbarlarining nutqlari, OAVda chop etilgan maqolalar, madaniyat sohasiga oid materiallar asosida qadriyatlarning zamonaviy ko'rinishi o'rganildi.

O'zbekiston jamiyatining yangi taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy - madaniy qadriyatlar tizimi tadqiqot obyekti sifatida olindi. Shu bilan birga, tadqiqot predmeti etib, qadriyatlarning zamonaviy jamiyatda aks etishi, ularning yoshlar ongida shakllanishi, institutlar orqali singdirilishi va ustuvorlik omillari belgilandi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan empirik tahlillar, sotsiologik so'rovnomalar va kontent tahlil natijalari quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha ijtimoiy - madaniy qadriyatlarning zamonaviy jamiyatdagi holati va ustuvorligini aniqlashga xizmat qildi.

Dastlabki holatda, qadriyatlar tizimining o'zgarish dinamikasi bo'yicha so'rovnoma o'tkazilganda natijalar shuni ko'stadki, ishtirokchilarning 68 foizi O'zbekistonda so'nggi yillarda



ijtimoiy - madaniy qadriyatlarning yangilanishi va zamon ruhiga moslashuvini ijobiy baholagan. Aholining aksariyati uchun (74%) milliy qadriyatlar – ya'ni oila, mehmondo'stlik, hurmat, mehr - oqibat – asosiy hayotiy mezon bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, 52% respondent zamonaviy qadriyatlar (shaxsiy erkinlik, innovatsion tafakkur, kreativlik)ning ham muhimligini tan olgan.

Bu natijalar qadriyatlar tizimida an'anaviylik va zamonaviylik o'rtasidagi uyg'unlik shakllanayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlarda bu ikki yo'nalish sintez holida namoyon bo'lmoqda.

Yoshlar orasida qadriyatlar transformatsiyasi o'rganilganda: 61% yoshlar "o'zini anglash" va "shaxsiy o'sish"ni ustuvor qadriyat sifatida ko'rsatgan. 58% yoshlar esa milliy o'zlikni saqlab qolish va uni zamonaviy ko'rinishda ifodalash istagi borligini bildirgan. Faqat 12% yoshlar jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlar to'liq eskirgan, deb hisoblagan. Yuqoridagi holat yoshlar ongida qadriyatlar evolyutsiyasi emas, balki moslashuvi yuz berayotganini anglatadi. Shuningdek, yosh avlod milliy merosga befarq emas, balki uni yangi ko'rinishda davom ettirish tarafdori ekanligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari ijtimoiy - madaniy qadriyatlarning jamiyat rivojida hal qiluvchi rol o'ynashini yana bir bor tasdiqladi. Jamiyat yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'yar ekan, qadriyatlar tizimi ham muayyan darajada transformatsiyalanmoqda. Natijalardan ko'rinib turibdiki, bugungi O'zbekiston jamiyatida qadriyatlar tizimi ikki asosiy yo'nalishda – an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar sintezida shakllanmoqda. Bunga quyidagi fikrni keltiradigan bo'lsak, u buni to'ldiradi deb o'ylaymiz. "Ijtimoiy - madaniy qadriyatlar hayotning turli jihatlarini, jumladan, axloq, diniy e'tiqodlar, siyosiy va iqtisodiy e'tiqodlar, oilaviy va gender rollari, milliy va madaniy an'analar va boshqalarni qamrab oladi. Ular turli xil ijtimoiy - madaniy guruhlar va shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi va o'zgaradi." [2]

Bu holat turli davrlar olimlari tomonidan ilgari surilgan "qadriyatlar moslashuvi" konsepsiyasiga mos keladi. Ayniqsa, Ronald Inglehart tomonidan ilgari surilgan "postmaterialistik qadriyatlar evolyutsiyasi" nazariyasi yoshlar orasida kuzatilgan o'zgarishlarni tushuntirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yoshlarning shaxsiy o'sishi, mustaqil fikrlashi va ijodkorlik kabi qadriyatlarga intili, ularning bu harakatlari milliylikdan uzilmagan holda sodir bo'lyotganiga guvoh bo'lamiz.

Shuningdek, bugungi kunda ijtimoiy institutlarga ham qadriyatlar barqarorligini ta'minlovchi sifatida qaraydigan bo'lsak, unda mahalla va oilaning rolini beqiyos ekanligini ko'rishimiz mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Oila – muqaddas" degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmaydi. Buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir, – deb takidlagan. [3]

Darhaqiqat, qadriyatlar targ'iboti va ularni mustahkamlashdagi roli, ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda yanada dolzarb tus oldi. Bu institutlarning ahamiyati sotsiolog A. Etzioni tomonidan ilgari surilgan "kommunitarizm" g'oyasi bilan uyg'unlashadi. Ya'ni, jamoa ichida umumiy qadriyatlar asosida yashash tartibining shakllanishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. "Mahalla tizimi milliy qadriyatlarni asrab - avaylash va rivojlantirishda muhim o'ringa ega. Ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari va mahalla oqsoqollari tomonidan o'tkaziladigan ta'limiy va madaniy tadbirlar milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishga katta hissa qo'shadi. Kelgusida bu yo'nalishda yana chuqurroq ilmiy tadqiqotlar o'tkazilishi zarur." [4] Shuningdek, bu jarayonda hukumat tomonidan qadriyatlarga asoslangan siyosiy diskursning kuchaytirilishi – davlat boshqaruvida "ma'naviy siyosat" elementining mavjudligidan dalolat beradi.



Mahalla bilan birga jamiyat taraqqiyoti uchun hissa qo'shadigan institut sifatida oilani ham yuqorida qayd ettik, bu borada Roziya Matibayeva shunday deydi - "Oila insonga axloqiy qadriyatlarni o'rgatuvchi makon bo'lib, unda kattalarga hurmat, kichiklarga mehribonlik, mas'uliyatlilik va an'analariga rioya qilish kabi fazilatlar shakllanadi." [5] Haqiqatda oila bu muqaddas dargoh va bizni mustaqil hayotga tayorlovchi muhim ilk bosqichdir. Bu yerda yaxshi va to'g'ri shakllangan axloq bilan biz jamiyatimizni yanada rivojlangan, taraqqiy etgan jamiyatlar qatoriga qo'shishimiz mumkin.

"Zamonaviy targ'ibot texnologiyalarining ma'naviy tarbiya jarayonida qo'llanilishi yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarni axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va ilm-fan bilan shug'ullanishga undash mumkin. I.Usta - Alimova" [6] tadqiqotida yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan faoliyatlarni ta'kidlab o'tadi. Shu bilan birga, bugungi kunda turli ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ilmiy, madaniy va axloqiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu orqali shuni aytish mumkinki, yoshlar raqamli texnologiyalar yordamida o'z bilim darajalarini oshirishi, shuningdek, milliy qadriyatlarni o'rganishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlar raqamli texnologiya hamda zamonaviy media – ikki tomonlama effektga ega kuch sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Bunda bir tomondan, milliy o'zlikka tahdid, ikkinchi tomondan esa uni mustahkamlash vositasi. Shu nuqtai nazardan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Madaniy xilma - xillikni saqlashda raqamli platformalarning roli" g'oyasi O'zbekiston sharoitida ham dolzarb hisoblanadi. Bundan kelib chiqqan holda tadqiqotchi O. Melikovning qarashlarini ham o'rinli deb hisoblaymiz "Zamonaviy targ'ibot texnologiyalaridan oqilona foydalanish yosh avlodning sog'lom dunyoqarashini shakllantirish va ularni zararli axborotdan himoya qilishga xizmat qiladi". [7] Darhaqiqat bugungi kunda raqamli texnologiyalardan yuqori darajada jamiyatimiz taraqqiyoti uchun foydalanishimiz maqsadga muvofiq.

Zamonaviy jamiyatda ijtimoiy – madaniy qadriyatlar nafaqat madaniy yoki ma'naviy fenomen sifatida, balki jamiyatning ijtimoiy boshqaruv resursi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qadriyatlar orqali aholini birlashtirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va ziddiyatlarni bartaraf etish mumkinligi nazariy jihatdan ham, amaliy misollarda ham o'z isbotini topmoqda.

Matchanova Barno Irkinovna o'zining qadriyatlarning jamiyatni rivojlantirish omili sifatidagi jihatiga ahamiyat bergan holda o'zining maqolasida "Ular odamlar o'rtasida o'zaro xurmat va ishonchni kuchaytirib, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirib, jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi turishda muhim omil bo'lmoqda. Bu qadriyatlar, shuningdek, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va atrof - muhitni muhofaza qilishni rag'batlantirish orqali jamiyatning umumiy barqarorligiga hissa qo'shadi." [8]

Bunday yondashuv Talcott Parsonsning ijtimoiy tizimlar nazariyasida bayon qilingan qadriyatlar – tizimni barqarorlashtiruvchi vosita sifatidagi rolini eslatadi. Bu borada milliy qadriyatlar, ayniqsa, oila, mahalla, urf - odat va madaniy an'analar orqali jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni shakllantirib, ularni ijro etish mexanizmlarini ta'minlashini alohida e'tirof etish lozim.

Shuningdek, davlat siyosatida ham qadriyatlarning ustuvorligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida qadriyatlar masalasiga alohida urg'u berilmoqda. "Inson qadri" tushunchasi bu siyosatning g'oyaviy asosiga aylangan. Bu yondashuv qadriyatlar va davlat siyosati o'rtasida bevosita aloqaning mavjudligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar



1. Социокультурные ценности: воздействие и влияние на общество. Источник: <https://obzorposudy.ru/polezno/sociokulturnye-cennosti-znachenie-i-vliyanie-na-bshhestvo> 25.01.2019
2. Социокультурные ценности: воздействие и влияние на общество. Источник: <https://obzorposudy.ru/polezno/sociokulturnye-cennosti-znachenie-i-vliyanie-na-bshhestvo> 25.01.2019
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/oz/3351>
4. Madraximov Jahongir. Mahalla ma'naviy qadriyatlarni asrab avaylash va rivojlanish maskani <https://doi.org/10.5281/zenodo.13253319> Central asian journal of academic research volume 2, issue 2, february 2024. 67 – 73 – b.
5. Roziya Matibayeva. Oilaviy qadriyatlar – mustahkam oila poydevori. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi. "Arab tili va adabiyoti al-Azhar" kafedrası mudiri. <https://iaau.uz/oz/news/3509>
6. <https://juyborikalon.uz/uz/news/203>
7. Melikov O.M. Zamonaviy targ'ibot texnologiyalari va yoshlar tarbiyasi. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 3 / UIF:8.2 / MODERN. ISSN: 2181-3906 2025. 227 – 233 – b.
8. Matchanova Barno Irkinovna. Ma'naviy – axloqiy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy barqarorligidagi roli. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 4 (10), Now., 2024 [www. Oriens.uz](http://www.Oriens.uz) 392 -397 – b.

Nuriddinov Manasbek Nasriddin o'g'li

Namangan Davlat universiteti

tadqiqotchisi

CHEGARA SIYOSATIDAN STRATEGIK HAMKORLIK SARI: O'ZBEKISTON– QIRG'IZISTON MUNOSABATLARINING ZAMONAVIY BOSQICH

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan O'zbekiston – Qirg'iziston munosabatlarining yangi bosqichi tahlil qilinadi. Ayniqsa, delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlari, chegara hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik, savdo va transport-kommunikatsiya aloqalari, hududlararo ishonchni mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilgan strategik o'zgarishlar yoritiladi. 2016 yildan keyin olib borilgan ochiq, pragmatik va amaliy diplomatiya siyosati natijasida ikki davlat o'rtasida ko'p yillar davomida muzokaralarga sabab bo'lgan chegaraga oid masalalar tinch yo'l bilan hal etila boshladi. Chegara siyosatidan boshlab strategik sheriklik darajasiga ko'tarilgan bu munosabatlar Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani bilan ahamiyatlidir. Maqola doirasida ushbu jarayonlarning ijtimoiy, siyosiy, diplomatik va geosiyosiy omillar bilan bog'liq jihatlari ilmiy tahlil qilinadi hamda ularning istiqbollari asoslab beriladi.



Kalit so'zlar: O'zbekiston–Qirg'iziston munosabatlari, chegara siyosati, strategik hamkorlik, delimitatsiya, demarkatsiya, Yangi O'zbekiston diplomatiyasi, transchegaraviy hamkorlik, mintaqaviy barqarorlik, integratsiya, xavfsizlik.

Yangi O'zbekiston davrida O'zbekiston–Qirg'iziston o'rtasidagi chegara siyosati sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. “Yangi O'zbekiston orzusi va uning asosida ishlab chiqilgan strategiya, avvalo, ochiqlik va hamkorlik tamoyillariga tayanadi. Unda Markaziy Osiyodagi qo'shnilarimiz, uzoq-yaqindagi davlatlar, butun jahon hamjamiyati bilan o'zaro manfaatli hamkorlik, tobora globallashib borayotgan bugungi dunyodagi muammolarni birgalikda hal qilish, rivojlangan mamlakatlar safiga kirishdek amaliy sa'y-harakatlar mujassam”[1] deya e'tirof etishi kelajak uchun salmoqli xarakterli samarasidir. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov ham bu masala bo'yicha shunday degan edi, “Turkiston - umumiy uyimiz” g'oyasiga asoslangan o'zaro munosabatlar kontseptsiyasini ilgari surar ekanmiz mintaqada ham, unga kiradigan ayrim davlatlarda ham insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tartibiga solinishini istaymiz” [2], deb bejizga ta'kidlamagan edi.

“1996-yil 24-dekabrdagi “Abadiy do'stlik to'g'risida shartnoma” hamda 2017-yil 5-oktabrdagi “Strategik sheriklik, do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlash to'g'risidagi deklaratsiya” qonunlararo munosabatlarni yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor bo'lgan asosiy hujjatlar hisoblanadi”[3]. Bu boradagi amaliy ishlar to'xtamay qolmadi. 2016 yildan keyin esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan “Qo'shnilar bilan do'stlik va hamkorlik” tamoyiliga asoslangan yangi diplomatik siyosat yo'lga qo'yildi.

“2017 yil sentyabr oyida O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev va Qirg'iziston Respublikasi Prezidentlari o'rtasida ikki davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilishga qaratilgan shartnoma imzolandi. 2016 yilning oxiridan 2020 yilning oktyabrigacha ikki davlat o'rtasida hamkorlikning chegara, ikki tomonlama savdo-sotiqni kengaytirish, irrigatsiya va suv manbalaridan oqilona foydalanish, tranzit imkoniyatlar, kooperatsiya va banklararo aloqalarga qaratilgan 30 ta rasmiy hujjat imzolandi” [4]. Chegara masalalari bo'yicha yangi bosqichga qadam qo'yildi. O'sha davrdagi Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Soorunbay Jeenbekov ushbu so'zlari “Siz mamlakatlarimiz o'rtasidagi davlat chegaralarini do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik chegarasiga aylantirdingiz”[5] degan tom ma'nodagi teran fikrlari ikki xalq uchun ham berilgan yaxshi g'oya samarasi desak bo'ladi”. Bugungi kunda O'zbekistonda 300 mingdan ortiq qirg'iz millatiga mansub fuqaro, Qirg'izistonda esa 900 mingdan ortiq o'zbek istiqomat qiladi. Chegara hududlarda istiqomat qilayotgan aholining aksariyati qarindosh-urug'lik rishtalariga ega bo'lib, bu ikki davlat o'rtasidagi muhim rishta, xalqlarimizni bir-biriga bog'lovchi asosiy omil hisoblanadi” [6]. Bu siyosat natijasida ikki davlat o'rtasida chegara chizig'ining katta qismi delimitatsiya qilindi va demarkatsiya ishlari bosqichma-bosqich yakunlanmoqda. Eng murakkab hisoblangan So'x, Chashma va G'ava kabi uchastkalar bo'yicha ham o'zaro kelishuvlarga erishildi. Mazkur kelishuvlar xalqaro huquq normalariga asoslangan holda, suverenitet va hududiy yaxlitlik tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston–Qirg'iziston chegarasining 1378 kilometrdan ortiq qismi to'liq huquqiy jihatdan belgilandi. Bu jarayon ikki tomonlama delimitatsiya komissiyasi, demarkatsiya qo'mitasi va qo'shma ishchi guruhlar faoliyati orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, “Chegaradosh hududlar hamkorligi to'g'risidagi bitim”, “Chegara postlarining faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risidagi memorandum” kabi hujjatlar ikki tomonlama aloqalarni yanada mustahkamladi.

**Qirg'iziston tarafga qayerlar berildi ?** Umumiy berilgan yerlar maydoni haqida -

Gavasoy, 12849 ga, Kempirobod chap qirg'oq kanali qurilmagani uchun O'zbekiston SSR;

Ko'k-Serek, 105 gektar, shu jumladan qirg'iz fuqarolari yashaydigan qishloq;

Bayaston, 212 gektar;

Ungar-Too, 35 gektarda uyali aloqa kompaniyalari va davlat televideniesi antennalari joylashgan;

Oq-Tosh, 100 gektar – Qora-Suv shahrini kengaytirish va oqova suvlarni tozalash inshootini qurish maqsadida;

Qora-Beles, 25 gektar;

O'zgan va Suzoq tumanlari uchun 1000 gektar; [7].

“O'zbekistonga 4957 gektardagi Andijon suv ombori hududi hamda to'g'onga xizmat ko'rsatish va uni muhofaza qilish uchun qo'shimcha 19,5 gektar yer maydoni o'tkaziladi”[8]. Andijon suv ombori bizga juda samarali iqtisodiy rivojlanish uchun, dehqonchilik va agrar sohani rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. “2,5 million tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va 500 million dollar miqdoridagi mahsulotlarni eksport qilish uchun 8 mingga yaqin fermer xo'jaliklarini suv bilan uzluksiz ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi” [9]. Chegara siyosatining yangi bosqichi faqat siyosiy kelishuvlar bilan emas, balki amaliy natijalar bilan ham ifodalanmoqda. Masalan, chegara punktlarining ochilishi, bojxona va transport tizimining integratsiyalashuvi, savdo-sotiq hajmining oshishi ham bu yo'nalishdagi o'zgarishlarning natijasidir. 2023 yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 1 milliard AQSh dollaridan oshgani qayd etilgan. Bu esa chegara infratuzilmasining yangilanishi, o'zaro ishonch va transport logistikasi rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Chegara siyosatining yangi bosqichi faqat siyosiy kelishuvlar bilan emas, balki amaliy natijalar bilan ham ifodalanmoqda. Masalan, chegara punktlarining ochilishi, bojxona va transport tizimining integratsiyalashuvi, savdo-sotiq hajmining oshishi ham bu yo'nalishdagi o'zgarishlarning natijasidir. 2023 yilda ikki davlat o'rtasidagi savdo hajmi 1 milliard AQSh dollaridan oshgani qayd etilgan. Bu esa chegara infratuzilmasining yangilanishi, o'zaro ishonch va transport logistikasi rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi chegara o'tkazish punktlari ushbu ilovada berilgan [10].

Bundan tashqari, chegara hududlarida yashovchi aholining ijtimoiy hayoti ham ijobiy tomonga o'zgarmoqda. Qo'shni qishloqlar o'rtasida transport yo'llari qayta ochildi, o'zaro savdo bozorlari tiklandi, madaniy almashinuv dasturlari yo'lga qo'yildi. Bu jarayon mintaqaviy integratsiya, inson xavfsizligi, va barqarorlik diplomatiyasi tamoyillariga to'la mos keladi.

Eng yaxshi yutuqlardan biri ikki xalq uchun chegara o'tkazish punktlaridan fuqarolarni ID karta orqali kirib chiqishi yo'lga qo'yildi. 3-may kuni Jogorku Kenesh 2006-yil 3-oktyabrdagi, 2023-yil 27-yanvarda Bishkek shahrida imzolangan “Qirg'iziston hukumati va O'zbekiston hukumati o'rtasida fuqarolarning o'zaro sayohati to'g'risida Bitimga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida”gi bayonnomani ratifikatsiya qilish haqida”gi qonun loyihasini uch o'qishda qabul qildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27-aprel kuni Qirg'iziston bilan chegarani ID-karta orqali kesib o'tish to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjatni imzoladi [11]. Bu hujjatlar o'z tasdig'ini topdi. Ikki qardosh xalqlar o'rtasida do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlashga oid bir omil bo'ldi. Yangi O'zbekistonning chegara siyosati o'zining konstruktiv, diplomatik va insonparvar mohiyati bilan ajralib turadi. U mintaqaviy nizolardan voz kechib, o'zaro manfaatli hamkorlik asosida tinchlikni mustahkamlashga qaratilgan. Shu bois O'zbekiston–Qirg'iziston o'rtasidagi chegara masalasining hal etilishi butun Markaziy Osiyo uchun xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik modeli sifatida qaralmoqda.



Xulosa. Yangi O'zbekiston davrida O'zbekiston–Qirg'iziston munosabatlari, xususan, chegara siyosati o'zining tubdan yangi bosqichiga kirdi. Avvalgi yillarda uzoq vaqt davom etgan delimitatsiya va demarkatsiya jarayonlari muloqot va o'zaro ishonch asosidagi diplomatik yondashuv orqali samarali hal etila boshlandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev va Prezident Sadyr Japarov rahbarligida olib borilgan siyosiy muloqot ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlab, chegara masalalarining ko'pchiligi tarixan ilk bor huquqiy jihatdan rasmiylashtirildi. Mazkur jarayon Yangi O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari – ochiqlik, qo'shnichilik va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash prinsiplariga mos holda amalga oshirildi. Chegara masalalarining tinch yo'l bilan hal qilinishi nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka ham zamin yaratdi. Bu esa ikki davlat o'rtasidagi savdo, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarida yangi imkoniyatlar ochilishiga sabab bo'ldi.

Demak, Yangi O'zbekiston davrida chegara siyosati o'z mohiyatiga ko'ra hamkorlik va barqarorlikka yo'naltirilgan yangi model sifatida shakllandi. Ushbu siyosat natijasida O'zbekiston – Qirg'iziston munosabatlari strategik hamkorlik darajasiga ko'tarilib, Markaziy Osiyoda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashning muhim omiliga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent. - O'zbekiston. 2023. B - 18,19.
2. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. - Toshkent. - O'zbekiston. 1997. B - 84.
3. Новые подходы в отношениях между Узбекистаном и Кыргызстаном. Интервью. www.cabar.asia.ru. 24.05.2021. URL: <https://cabar.asia.ru/novye-proekty-i-podhody-v-otnosheniyah-mezhdu-uzbekistanom-i-kyrgyzstanom-intervyu>
4. Shodmon Ahmadovich Hayitov, Baxtiyor Nazarboevich Rizaev. Hozirgi bosqichda O'zbekistonning hududiy muammolari. www.scientificprogress. 2021. B - 597.
5. O'zbekiston va Qirg'iziston munosabatlari rivojida tarixiy yil. www.uzdon.uz . 14.12.2017
URL: <https://www.uzdon.uz/news/info/uzbekistan/712>
6. Развитие культурно-гуманитарных связей – важный фактор укрепления отношений между Узбекистаном и Кыргызстаном. www.isrs.uz , 07.02.2023
URL: <https://isrs.uz/ru/smti-ekspertlari-sharhlari/razvitie-kulturno-gumanitarnyh-svazey-vaznyj-faktor-ukreplenia-otnosenij-mezdu-uzbekistanom-i-kyrgyzstanom>
7. Жогорку Кеңеш кыргыз-өзбек чек ара макулдашуусун үч окууда ратификациялады. www.ky.kloop.asia , 17.11.2022
URL: <https://ky.kloop.asia/2022/11/17/zhogorku-ke-esh-kyrgyz-zbek-chek-ara-makuldashuusun-ch-okuada-ratifikatsiyalady/>
8. O'zbekiston Prezidenti Qirg'iziston bilan chegara va Andijon suv omboriga oid qonunlarni imzoladi. www.president.uz , 30.11.2022.
URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5745>
9. O'zbekiston Prezidentini Qirg'iziston bilan chegara va Andijon suv omboriga oid qonunlarni imzoladi. www.yuz.uz , 30.11.2022.
URL: <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-prezidenti-qirgiziston-bilan-chegara-va-andijon-suv-omboriga-oid-qonunlarni-imzoladi>



10. O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida bitim, Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari to'g'risida. 2004-yil 24-iyul, Bishkek. www.lex.uz, 08.11.2007. URL: <https://lex.uz/mact/-1317634>

11. Qirg'iziston parlamenti O'zbekiston ID - karta bilan o'tishga ruxsat beruvchi qonunni ma'qulladi. www.yuz.uz, 04.05.2023,

URL: <https://yuz.uz/uz/news/qirgiziston-ozbekiston-chegarasidan-id-karta-orqali-otishga-ruxsat-berildi2>

Xolmatov G'ayratjon Muxtoraliyevich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat pedagogik instituti

Tojiboyeva Fotimaxon Akmalxon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti magistri

JADIDLARNING YOSHLAR TARBIYADAGI O'RNI VA PEDAGOGIK QARASHLARI.

Annotatsiya Ushbu maqolada jadidchilik harakatining yoshlar tarbiyasi bo'lgan munosabatlari, shuningdek pedagogik qarashlari tahlil qilingan. Jadidlarning millat kelajagi bo'lgan yoshlarning ma'rifatli, vatanparvar va tafakkurli bo'lib yetishishlari uchun amalga oshirgan faoliyatlari, yoshlarning ta'lim sohasidagi faoliyati milliy o'zlikni saqlash, ilm va ma'rifat orqali taraqqiyotga erishish g'oyalari ochib berilgan. Shuningdek, jaded namoyandalarining pedagogik qarashlari o'z davrida ijtimoiy ongini yangilash, zamonaviy tafakkurni shakllantirish va milliy uyg'onishni ta'minlash uchun nuhim islohatlar ekanligi to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jadidlar, ta'lim, ma'rifatparvar, ruslashtirish, tarbiya, millat, mustaqillik, Abdullo Avloniy, kelajak.

Аннотация В данной статье анализируются связи джадидистского движения с образованием молодежи, а также его педагогические взгляды. Раскрыта деятельность, проводимая джадидами по развитию просвещенной, патриотичной и мыслящей молодежи, которая является будущим нации, деятельность молодежи в сфере образования, идеи сохранения национальной идентичности, достижения прогресса посредством науки и просвещения. Также констатируется, что педагогические взгляды измученных представителей являются важными реформами для обновления общественного сознания, формирования современного мышления и обеспечения национального возрождения.

Ключевые слова: джадиды, образование, просветитель, русификация, воспитание, нация, независимость, Абдулла Авлони, будущее.

Abstract This article analyzes the relations of the Jadidist movement with youth education, as well as its pedagogical views. The activities carried out by Jadids for the development of enlightened, patriotic and thoughtful young people, who are the future of the nation, the activities of young people in the field of education, the ideas of preserving national identity, and achieving progress through science and enlightenment have been revealed. It is also stated that the pedagogical views of jaded representatives are important reforms for renewing social consciousness, forming modern thinking and ensuring national revival.



Key words: jadids, education, enlightener, russification, upbringing, nation, independence, Abdulla Avloni, future.

O'zbekistonda ijtimoiy davlat qurilishida "inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng va keng imkoniyatlarni yaratish, odamlarning munosib turmush kechirishini ta'minlash, kambag'allik va qashshoqlikni bartaraf etish" kabi vazifalar yoshlarning bilim va tarbiyasiga bevosita bog'liq bo'lib qolmoqda. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, O'rta Osiyo Chor imperiyasining mustamlakasiga aylanishi – Buxoro amirligi va Xiva, Qo'qon xonliklarining tobeligi tufayli xonliklarda milliy ozodlik harakati, ziyolilar mustaqillik g'oyalarining mustamlakachilik siyosati tizimiga qarshi kurashi tinmagan, chunki o'lkada kapitalistik manfaatning mustamlakachilik siyosati mahalliy aholi boshiga bitmas-tuganmas fojialar solgan bo'lib, ular najot istab ilmga intilishgan.

O'zbekiston tarixida jadidchilik harakati o'zining chuqur ma'rifatparvarlik ruhi, millatni uyg'otish va yosh avlodni zamonaviy bilimlar asosida tarbiyalashga bo'lgan intilishi bilan ajralib turadi. Jadidlar o'z davrida yoshlar shaxsining shakllanishi, ma'naviy kamoloti va milliy ongini yuksaltirishni ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim omili deb bilganlar. Mazkur maqolaning maqsadi – jadidlarning yoshlar tarbiyasiga oid pedagogik qarashlarini tahlil qilish hamda ularning bugungi kunda ham dolzarbligini ochib berishdan iborat.

Jadidlarni ilmiy meros, ulardagi pedagogik faoliyatlari hamda yoshlar masalalariga doir qarashlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini Z.Axrorova, D.N.Rajabova, D.T.Amriddinova, U.Dolimov [1] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida shuningdek, Abdulla Avloniy va Mahmudxo'ja Behbudiy asarlari bu yo'nalishdagi asosiy manbalar hisoblanadi [2]. Ularning ilmiy merosi jadidlarning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni va g'oyalarini chuqur o'rganishga imkon beradi.

Mustamlaka ma'murlari Turkistonda ruslashtirish siyosatini amalga oshirar ekan, e'tiborni aynan yoshlarga qaratishi tasodifiy hol emas. "Ular ana shunday maktablarning bitiruvchilaridan kelajakda Turkistonni idora etishda o'zlariga sodiq bo'lgan gumashtalar tayyorlashni maqsad qilib qo'ygan edilar"[3]. Bularning oqibatida, "mahalliy millatlarni davlatni boshqarishdan uzoqlashtirish, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini poymol qilishga intilish holatlari ijtimoiy norozilikning turli-tuman shakllarini keltirib chiqardi"[4]. Shu ma'noda jadidchilik harakati millat asl farzandlarining milliy o'zlikni saqlash, millatning hurligi va erkinligini qaytarish kabi ustuvor istiqlool harakati sifatida shakllandi.

Jadidlar uchun yoshlar tarbiyasi jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim masalalardan biri edi. Ular eski maktab va madrasalarda faqat diniy ta'lim berilishini tanqid qilib, yangi usuldagi maktablarni tashkil etganlar. Bu maktablarda o'quvchilarga matematika, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, rus tili kabi dunyoviy fanlar o'qitilgan.

Jadid bobolarimizdan biri Abdullo Avloniyning yoshlarimiz tarbiyasi xaqidagi quyidagi so'zlari e'tiborga molikdir: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamoq, vujudimizni quvvatlantirmoq, fikrlarimizni nurlantirmoq, axloqimizni go'zallantirmoq, zexnimizni ravshanlantirmoq lozim ekan. Tarbiyani kim qiladi? Qayerda qiladi?degan savol keladi. Bu savolga: Birinchi uy tarbiyasi, bu ona vazifasidir. Ikkinchi maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir... Hulosa shuki, tarbiya biz uchun yo xayot, yo mamot, yo najot, yo xalokat, yo saodat-yo falokat masalasidir", degan so'zlari bugungi globallashu jarayonida naqadar ahamiyatlidir [5]. Shuning uchun jadidlar yoshlarni nafaqat bilimli, balki axloqan yetuk, vatanparvar, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga e'tibor qaratganlar.

Shuningdek, Farg'onga vodiysi jadidchilik harakatining birinchi bosqichi Chor Rossiyasi kolonial siyosati ostida bo'lganidan o'z-o'zidan rus tilini mahalliy aholi tomonidan egallanishi, "Lisoniy madaniyat" shaxsning dunyoqarashiga ta'sirini yaxshi tushungan Is'hoqxon Ibrat "Lug'ati



sitati alsina” asarini nashr qildi. Mazkur qo‘llanmaning muhim ilmiy qimmatini olti tilli izohli lug‘at ekanligida bo‘lib, o‘quvchi foydalanishida qulay mutolaa uchun ishlab chiqilgan. Ushbu asarning ijtimoiy qimmatini o‘lkaning rus millatiga mansub ahli bilan hamkorlik, mahalliy millat yoshlarining dunyo hamjamiyatiga chiqish imkoni, o‘lkada ochilgan “usuli savtiya” maktablarida rus tili ham o‘qitilishi kabi omillar bilan izohlash mumkin. Boz ustiga milliy malakali kadrlar tayyorlash uchun xorijiy tillarni bilish, ular bilan muloqot qilish orqali madaniy taraqqiyotga erishish zamonning o‘ta dolzarb muammosi edi. “Lug‘ati sitati alsina” olti tilni o‘rganish imkoniyati bilan yoshlarda geopolitik dunyoqarashni shakllantirardi va buning natijasida jahon xalqlari madaniyatiga keng yo‘l ochilardi. Natijada shaxsning milliy madaniyat, umuminsoniy madaniyat ila uyg‘un shakllanishi uchun ruhiy-psixologik kayfiyat va mo‘ljallarida ijtimoiy o‘shishga olib kelgan. Mahalliy aholining rus maktabi va ta‘limiga qiziqishi ortsa-da, lekin til o‘rganish uchun manbaga bo‘lgan ehtiyojning qondirilishini ma‘naviy-madaniy hodisa, deb hisoblash mumkin. Yerli sart aholisining til o‘rganishga qiziqishi va qobiliyati yuqoriligidan Toshkentdagi kitob do‘konlarida bu kitob tez sotilganligi manbalarda keltirilgan [6].

Yoshlarning til o‘rganishi, dunyoning axborot maydoniga kirishi va yuz berayotgan voqealardan xabardor bo‘lishi ilmiy-dunyoviy dunyoqarashni shakllantirardi edi. Bu hol aholining umuminsoniy va milliy tafakkurida uyg‘unlashuv asosida ijtimoiy ilg‘or fikr va qarashlariga madaniy omil bo‘lishi tabiiy jarayondir, buni Chor hukumati istibdodi sharoitida milliy davlatchilik taraqqiyotining evolyutsion yo‘lidagi muhim omil, deb hisoblaymiz.

Jadid ma‘rifatparvarlar barkamol yoshlarni tarbiyalash uchun o‘qib-o‘rganib ilmiy, ma‘rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o‘z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta‘kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov farzandning ta‘lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so‘z yuritib, “o‘z farzandining ma‘rifatli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini” ta‘kidlagan [7]. Jadidlar ota-onalar o‘z farzandlarining tarbiyasi bilan shug‘ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta‘kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o‘qib, ularni tugatib, yoshlar tarqiy etgan mamlakatlarning o‘quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari kerakligini tushuntirib o‘tganlar.

Jadidshunos olim R.Sharipovning fikricha, “Jadid ziyolilari o‘z oldida turgan asosiy vazifa kelajakda o‘zbek xalqini fojiali oqibatlariga olib borishi mumkin bo‘lgan ruslashtirish siyosatiga qarshi kurashish, yosh avlodda milliy til, tarix va madaniyatga hurmat tuyg‘usini tarbiyalash, milliy urf – odatlar va san‘at turlarini saqlab qolish va yaqin kelajakda amalga oshishi lozim bo‘lgan mustaqillik haqidagi orzularni yoshlar shuuriga singdirish edi”[8]. Ularning asosiy maqsadi – xalqni jaholat, qoloqlik va mustamlakachilik siyosati ta‘siridan ozod etish edi. Sharipov ta‘kidlaganidek, jadidlar ruslashtirish siyosatiga qarshi mafkuraviy kurash olib borib, milliy o‘zlikni saqlashni, yosh avlodda o‘z tili, tarixi va madaniyatiga hurmat tuyg‘usini shakllantirishni eng muhim vazifa deb bildilar. Ular ta‘lim-tarbiya, matbuot, teatr, adabiyot va san‘at vositasida milliy g‘urur va mustaqillik g‘oyalarini xalq ongiga singdirishga harakat qildilar. Shu jihatdan, jadidchilik harakati nafaqat ma‘rifiy, balki siyosiy-ruhiy uyg‘onish harakati ham bo‘lgan. Ularning faoliyati keyinchalik o‘zbek xalqining milliy mustaqillik orzulariga zamin yaratdi. Ma‘rifatparvarlarning qarashlarida milliy o‘zlikni anglash, ma‘rifat bilan ozodlikka erishish va mustaqil tafakkurli avlodni tarbiyalash yo‘lidagi fidokorona kurash sifatida ifodalaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston ta‘lim siyosatida jadidlarning pedagogik g‘oyalari, xususan, barkamol avlodni tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish tamoyillari o‘z ifodasini topmoqda. Bu esa jadid merosining zamonaviy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

Jadidlar yoshlar tarbiyasiga katta e‘tibor qaratib, ularni millatning kelajagi sifatida ko‘rganlar. Ularning pedagogik qarashlari o‘z davrida ijtimoiy ongni yangilash, zamonaviy



tafakkurni shakllantirish va milliy uyg'onishni ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Hozirgi kunda ham jadidlarning yoshlar haqidagi g'oyalari ta'lim tizimining ma'naviy asosini tashkil etadi. Shu sababli, jadid merosini chuqur o'rganish va uni amaliyotga tatbiq etish barkamol avlodni voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахророва З. Махмудхўжа Бехбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий-амалий фаолияти. Пед. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1997.; Ражабова Д.Н. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2003.; Амридинова Д. Т. “Жадидчилик таълимотида комил инсон концепциясининг фалсафий-ижтимоий моҳияти”. фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарканд, 2021; Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
2. Komilova H.N. Jadidlar faoliyatida ma'rifatparvarlik va barkamol avlod tarbiyasi masalalari. – Toshkent: Fan, 2022., Qo'shjonov M. Jadidchilik harakati va milliy uyg'onish. – Toshkent: O'zbekiston, 2019.
3. Эргашев Ф. Туркистон мактаблари. – Т.: Жамият ва бошқарув. – 2002. – №1. – Б. – 15.
4. Алимова Д. А., Голованов А. А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 12.
5. Abdulla Avloniy. Jadidlar to'plami kitobi. - Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2022, - B. 84-85.
6. Дўкондорнинг шикоят// Туркестанские ведомости. –1900. – № 98. 7 декабрь.
7. Ahmedov A., Sherqoziyev Z. Jadid ma'rifatparvarlarining pedagogic qarashlari. – T: Ozbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2003. –B. -434.
8. Шарипов Р. Жадид адабиётида янгиланиш, ислохот ва мустақиллик учун кураш ғояларининг акс этиши. Т.: 2023. –Б.30.

Abduvaliyeva Jasmina

Namangan davlat universiteti
ijtimoi fanlar fakulteti sotsiologiya
yo'nalishi Sog au-23-guruh talabasi
abduvaliyevajasmina505@gmail.com

DINIY BAG'RIKENGLIK – TINCHLIK VA TOTUVLIK GAROVI

Annotatsiya Mazkur maqolada diniy bag'rikenglik tushunchasining mazmuni, tarixiy ildizlari hamda uning zamonaviy jamiyatdagi o'rni tahlil qilinadi. Unda O'zbekiston Respublikasida diniy erkinlikni ta'minlash, millatlararo va dinlararo totuvlikni mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan siyosatning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bag'rikenglikning insonlar o'rtasida tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashdagi roli ham tahlil etiladi. Maqolada diniy bag'rikenglik g'oyasining yoshlar tarbiyasidagi o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, tinchlik, totuvlik, madaniyat, dinlararo muloqot, e'tiqod.

Annotation This article analyzes the content, historical roots and role of the concept of religious tolerance in modern society. It highlights the importance of the policy being pursued in the



Republic of Uzbekistan to ensure religious freedom and strengthen interethnic and interreligious harmony. It also analyzes the role of tolerance in ensuring peace and harmony between people. The article specifically highlights the role of the idea of religious tolerance in the education of young people.

Keywords: religious tolerance, freedom of conscience, peace, harmony, culture, interreligious dialogue, faith.

Kirish

Bugungi globallashuv davrida insoniyat turli madaniyat, din va e'tiqod vakillaridan tashkil topgan murakkab ijtimoiy tuzilma bo'lib, unda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni saqlash eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Diniy bag'rikenglik – bu turli dinlarga mansub insonlarning bir-birining e'tiqodini hurmat qilishi, tinch-totuv yashashga intilishidir. Ushbu qadriyat tinchlikni, barqarorlikni va ijtimoiy birdamlikni ta'minlovchi eng muhim omillardandir.

Asosiy qism

1. Diniy bag'rikenglik tushunchasi va mohiyati

Diniy bag'rikenglik — bu boshqa insonlarning e'tiqodini hurmat qilish, ularning diniy qarashlariga aralashmaslik, o'zaro hurmat va tinchlik asosida yashash tamoyilidir. Bag'rikenglik insonparvarlik va adolatning eng yuksak ifodasi bo'lib, u diniy ekstremizm va radikalizmga qarshi eng kuchli qalqondir.

2. Diniy bag'rikenglikning tarixiy ildizlari

Bag'rikenglik qadimdan Sharq xalqlarining, xususan, O'zbekiston hududida yashagan ajdodlarimizning madaniyatida muhim o'rin egallagan. Islom dinida “Dinda zo'rlik yo'q” (Baqara surasi, 256-oyat)¹⁵ degan oyat bag'rikenglik g'oyasining asosi hisoblanadi.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi tarixiy shaxslar ham turli e'tiqod vakillariga nisbatan adolatli siyosat yuritganlar. Ular dinlararo totuvlikni mustahkamlash orqali davlatda barqarorlik va taraqqiyotga erishganlar.

3. Zamonaviy O'zbekistonda diniy bag'rikenglik

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida: “Har kim vijdon erkinligi huquqiga ega” deb belgilangan. Bu norma mamlakatda diniy erkinlik va bag'rikenglikni huquqiy asosda ta'minlaydi.¹⁶

Bugungi kunda yurtimizda islom, pravoslav, katolik, protestant, yahudiy kabi konfessiyalar vakillari o'zaro totuvlikda faoliyat yuritmoqda. Hukumat tomonidan diniy erkinlikni kafolatlovchi qonunlar, ta'lim dasturlari va xalqaro hamkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda.

4. Diniy bag'rikenglikning yoshlar tarbiyasidagi o'рни

Yoshlar ongida bag'rikenglikni shakllantirish ularni diniy mutaassiblik va ekstremistik g'oyalardan himoya qilishning muhim vositasidir. Ta'lim tizimida “Ma'naviyat”, “Millatlararo totuvlik” va “Vijdon erkinligi” kabi fanlar orqali bu qadriyatlar targ'ib qilinmoqda. Yoshlar bir-birining diniga hurmat bilan qarasa, jamiyatda do'stlik, tinchlik va hamjihatlik mustahkamlanadi.

Xulosa

Diniy bag'rikenglik — bu insoniyatni birlashtiruvchi, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi yuksak qadriyatdir. U faqat sabr va toqat emas, balki insonparvarlik, madaniy yetuklik va o'zaro ishonch ifodasidir. Har bir inson o'z e'tiqodiga sodiq qolgan holda, boshqalarning diniga

¹⁵ Qur'oni karim, Baqara surasi, 256-oyat.

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.



nisbatan hurmat bilan qarashi zarur. Shundagina biz totuv, farovon va ma'naviy barkamol jamiyatni barpo eta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Islom Karimov nomidagi Ma'naviyat markazi materiallari.
4. Qur'oni karim, Baqara surasi, 256-oyat.
5. "O'zbekiston – bag'rikenglik va totuvlik yurti" maqolalar to'plami. – Toshkent, 2022

Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti
stajyor-o'qituvchisi
muazzamaxmadjanova70@gmail.com

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSH AVLODNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya: Maqolada globallashuv sharoitida yosh avlodni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning falsafiy, ijtimoiy va madaniy asoslari tahlil qilinadi. Muallif globallashuv jarayonining inson ongiga ta'siri, madaniy identitet va tolerantlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Xalqaro mutafakkirlar — J. Habermas, A. Sen, E. Morin, M. Nussbaum va S. Huntington g'oyalari asosida totuvlik madaniyatining zamonaviy talqini yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonning millatlararo totuvlik siyosati va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, yosh avlod, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, tolerantlik, madaniy identitet, axloqiy ong, falsafa.

Abstract: The article analyzes the philosophical, social and cultural foundations of educating the young generation in the spirit of inter-ethnic harmony in the conditions of globalization. The author reveals the influence of the process of globalization on human consciousness, the interrelationship between cultural identity and tolerance. Based on the ideas of international thinkers - J. Habermas, A. Sen, E. Morin, M. Nussbaum and S. Huntington, the modern interpretation of the culture of harmony is highlighted. Also, the policy of inter-ethnic harmony of Uzbekistan and its importance in youth education are analyzed.

Key words: globalization, young generation, international harmony, tolerance, tolerance, cultural identity, moral consciousness, philosophy.

Абстрактный: В статье анализируются философские, социальные и культурные основы воспитания молодого поколения в духе межэтнического согласия в условиях глобализации. Автор раскрывает влияние процесса глобализации на человеческое сознание, взаимосвязь культурной идентичности и толерантности. На основе идей мыслителей-международников - Ж. Хабермаса, А. Сена, Э. Морена, М. Нуссбаума и С. Хантингтона



выделена современная интерпретация культуры гармонии. Также анализируется политика межэтнического согласия Узбекистана и ее значение в образовании молодежи.

Ключевые слова: глобализация, молодое поколение, межнациональное согласие, толерантность, толерантность, культурная идентичность, нравственное сознание, философия.

Bugungi kunda globallashuv insoniyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishiga aylangan. U iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy aloqalarning cheksiz darajada kengayishini ifodalaydi. Shu bilan birga, bu jarayon millatlararo aloqalarning yangi bosqichini yuzaga keltirib, insoniyat oldiga — o'zligini yo'qotmasdan, boshqani tushunish degan falsafiy muammoni qo'yadi. Insoniyat taraqqiyoti globallashuv deb ataluvchi murakkab, ziddiyatli, bir tomondan imkoniyatlarga, ikkinchi tomondan xavflarga boy jarayon davrida kechmoqda. Har bir xalq, ayniqsa, yosh avlod uchun bu jarayon — milliy o'zlikni saqlab qolish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur anglash zaruratini yuzaga keltiradi.

Falsafa nuqtayi nazaridan, globallashuv — bu insoniyat taqdirining yagona makonda bir-biriga bog'lanib borish jarayoni, unda inson o'zini nafaqat milliy, balki global mavjudot sifatida anglay boshlaydi. Shu jarayonda yosh avlodning ongida millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, hamkorlik kabi fazilatlarni shakllantirish — kelajak jamiyatning barqarorligi uchun falsafiy zaruratdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan buyon millatlararo totuvlikni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashamoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning kuchimiz — millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikda, o'zaro hurmat va ishonch muhitidadir." Bu g'oya ta'lim tizimi, yoshlar siyosati va madaniy hayotda izchil amalga oshirilmoqda. "Yoshlar ittifoqi", "Mahalla" fondi, "Do'stlik haftaliklari" kabi dasturlar yoshlar orasida millatlararo muloqotni rivojlantirmoqda.[1]

Globallashuv inson tafakkurini o'zgartiradi. U millatlar chegarasini shunchaki geografik emas, balki ma'naviy hodisaga aylantiradi. Inson endi o'zining madaniyatini boshqalar madaniyati orqali ko'ra boshlaydi. Bu esa o'zaro anglashuv, bag'rikenglik, totuvlikni talab qiladi.

Falsafa doktori A. To'rayev ta'kidlaganidek:

"Globallashuv — bu faqat iqtisodiy yoki siyosiy integratsiya emas, u eng avvalo ongning yangi shakliga, insonni boshqa inson bilan umumiy qadriyatlar asosida birlashtiruvchi madaniy jarayondir".[2]

Demak, yosh avlodni tarbiyalashda millatlararo totuvlik g'oyasini singdirish — globallashuvning madaniy va ma'naviy chaqirig'iga javobdir.

Totuvlik — bu shunchaki tinch yashash emas. U insonning boshqa insonni tug'ilgan joyi, tili yoki dini uchun emas, balki insonligi uchun qadrlash darajasiga yetganligining belgisi. Falsafiy jihatdan totuvlik — bu ontologik birlikning ijtimoiy shakli, ya'ni insoniyatning yagona mohiyatini anglashdan tug'iladigan ma'naviy holatdir.

Buyuk faylasuf Jaloliddin Rumiy shunday degan edi: "Rang-barang gullar bir bog'da o'sadi, lekin ularning hidi yagona — go'zallik hidi."

Bu hikmat aslida millatlararo totuvlikning eng chuqur falsafiy mohiyatini ifodalaydi: turli millatlar, dinlar, madaniyatlar xilma-xilligi insoniyatning yagona go'zalligidir.

Globallashuv sharoitida yosh avlod ko'plab madaniy, diniy va mafkuraviy oqimlar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli, ularning ongida millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, hamkorlik kabi fazilatlarni singdirish — nafaqat pedagogik, balki falsafiy zaruratdir.



Akademik Sh. Yusupov bu borada ta'kidlaydi: "Millatlararo totuvlikni ta'minlashning eng muhim sharti — yosh ongda o'zlikni anglash va boshqani tushunishning muvozanatini topishdir." [3]

Globalashuvning falsafiy mohiyati — insoniyatni yagona axloqiy maydonga birlashtirishdir. Jurgen Habermas bu jarayonni "kommunikativ aql" nazariyasi orqali izohlaydi. Unga ko'ra, insonlar o'zaro muloqot orqali umumiy qadriyatlar tizimini shakllantiradi. "Haqiqiy totuvlik – bu zo'rlik bilan emas, muloqot orqali yaratilgan ijtimoiy kelishuvdir." [4]

Shunday qilib, yoshlar orasida totuvlikni rivojlantirish, avvalo, muloqot madaniyatini shakllantirishdan boshlanadi.

Hind faylasufi va Nobel mukofoti sovrindori Amartya Sen esa "Identity and Violence" asarida shunday yozadi: "Insonning yagona identitetga qamab qo'yilishi – zo'ravonlikning eng xavfli ildizidir." Bu fikr yoshlar tarbiyasida muhim: ular o'z milliy o'zligini anglagan holda, boshqa madaniyatlarning qadriyatini ham tan olishi zarur. [5]

Fransuz faylasufi Edgar Morin "kompleks tafakkur" nazariyasida inson ongini o'zaro bog'liq tizim sifatida ko'radi. U shunday yozadi: "Har bir madaniyat boshqa madaniyatlar bilan muloqot qilmas ekan, u o'z mohiyatini boyitmaydi." Demak, millatlararo totuvlik – bu inson tafakkurining kengayish shaklidir. [6]

Amerikalik faylasuf Martha Nussbaum esa kosmopolit ta'lim konsepsiyasida ta'kidlaydi: "Yosh avlod o'z milliy chegaralari ichida emas, balki insoniyat doirasida fikrlashni o'rganishi kerak." Bu g'oya yoshlar tarbiyasida universal qadriyatlar — adolat, hurmat, inson qadrini anglashga asoslanishni talab qiladi. [7]

Amerikalik siyosatshunos Samuel Huntington o'zining mashhur "Sivilizatsiyalar to'qnashuvi" nazariyasida madaniyatlar o'rtasidagi ziddiyatlar xavfini ta'kidlagan edi. Biroq bugungi falsafiy tafakkur buni rad etmoqda: zamonaviy yondashuv "madaniyatlar to'qnashuvi" emas, balki "madaniyatlar muloqoti" konsepsiyasiga asoslanadi. [8]

Globalashuvning keyingi bosqichida totuvlik — insoniyatning strategik qadriyatiga aylanmoqda. Shuning uchun yosh avlod tarbiyasida Habermasning muloqot falsafasi, Senning identitet nazariyasi va Nussbaumning kosmopolit etikasini uyg'un qo'llash — zamonaviy pedagogikaning konseptual yo'nalishidir.

Xulosa qilib aytganda globalashuv jarayonida yosh avlodni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash — bu faqat ta'lim masalasi emas, balki insoniyatning ma'naviy kelajagini shakllantiruvchi falsafiy jarayondir. Yoshlar o'z milliy o'zligini asrab, shu bilan birga, insoniyatga ochiq, tolerant va axloqan mas'ul bo'lishi zarur.

Falsafiy jihatdan aytganda, millatlararo totuvlik — insonning o'zligidan butun insoniyat sari yurish yo'lidir. Shu yo'l bilan barqaror tinchlik, madaniy uyg'unlik va umuminsoniy taraqqiyotga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik — xalqimizning bebaho boyligi. – Toshkent, 2023.
2. To'rayev A. Ma'naviyat va globalashuv muammolari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. Yusupov Sh. Yoshlik falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Cambridge: MIT Press, 1984.
5. Sen A. Identity and Violence: The Illusion of Destiny. – New York: Norton, 2006.
6. Morin E. La Méthode: La Nature de la Nature. – Paris: Seuil, 2001.
7. Nussbaum M. Cultivating Humanity: A Classical Defense of Reform in Liberal Education. – Harvard University Press, 1997.



8. Huntington S. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996.
9. Yusupov Sh. Yoshlik falsafasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

Nabiyeva Maftuna Abduraximovna

Namangan davlat universiteti
tarix yo'nalishi 1-kurs magistri

KONSTITUTSIYADA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK SIYOSATI

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosatining konstitutsiyaviy asoslari hamda jamiyatdagi ahamiyati yoritilgan. Unda Konstitutsiyaning 8-, 19 va 35-moddalarida fuqarolarning teng huquqliligi va vijdon erkinligi kafolatlangani ta'kidlanadi. Shuningdek, mamlakatda faoliyat yuritayotgan milliy madaniy markazlar va diniy konfessiyalar tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynayotgani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, Konstitutsiya, vijdon erkinligi.

Bugungi globallashuv jarayonida davlatlarning tinchligi va barqaror taraqqiyoti uchun millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning o'rni juda katta. Boshqa din, madaniyat va millat vakillarining o'zaro ahil-inoq va hurmatda yashashi jamiyatda tinchlik va taraqqiyotning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Shu boisdan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik mavzusi diniy-ijtimoiy balki siyosiy ahamiyatga ega muhim mavzudir.

Millatlararo totuvlik-bu turli millat, elat va xalqlar o'rtasida hamjihatlikda tinch-totuv va o'zaro hurmatda yashash madaniyatidir. Bir millat atrofidagi boshqa millatlar bilan hamjihatlikda yashab, rivojlanib boradi. Jamiyat hayoti va taraqqiyotida barcha millatlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlar va o'zaro hamjihatlik doimo kata rol o'ynab kelgan. Diniy bag'rikenglik esa- turli e'tiqod va din vakillarining bir-biriga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi, diniy erkinlikni tan olishidir. Bu ikki tushuncha doimo yonma-yon kelib, tinchlik, ezgulik, insoniylik va o'zaro hurmat kabi umuminsoniy qadriyatlarining ifodasidir.

O'zbekiston qadimdan ko'p millatli va ko'p konfessiyali mamlakat sifatida tanilgan. Bugungi kunda yurtimizda 130dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashab kelmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalasi yurtimizda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lib, Konstitutsiya va qonunlarimiz bilan mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri 8-moddasida: “O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etadi”[1. –B. 2]

19-moddasida esa : “O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar qonun oldida tengdir” deb yozilgan. [2. –B. 3] Bu moddalar millatlararo totuvlik va diniy



bag'rikenglik siyosatining konstitutsiyaviy asoslaridan biri hisoblanib, mamlakat tinchligi va taraqqiyoti uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik-bu bizning milliy qadriyatimiz, tarixiy boyligimiz va mustahkam tinchligimizning asosi."

Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda 140ga yaqin milliy madaniy markazlar yetakchi rol o'ynamoqda. Ular orasida rus, koreys, qozoq, tojik, tatar, arman, ukrain, yahudiy, turkman, qirg'iz, nemis va boshqa millatlar markazlari faol ishlamoqda. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf – odatlarini saqlashga, ularni har tomonlama rivojlantirishga yurtimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan va kelajakda ular faoliyatini amaliy jihatdan qo'llab quvvatlash bo'yicha zarur barcha chora - tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Bu sharoitlarga javoban ular turli madaniyatlarning bir birini o'zaro boyitishga va har birimizda ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga munosib hissa qo'shmoqda.

Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik hukm surgan mamlakatda:

- tinchlik va barqarorlik mustahkamlanadi;
- iqtisodiy, madaniy va ilmiy tarqiyot uchun qulqy muhit yaratiladi;
- yoshlar o'rtasida o'zaro ishonch, hamkorlik va do'stlik kuchayadi;
- xalqaro maydondagi obro'si ortadi.

Tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, vatanimiz azaldan turli madaniyatlar, tillar va dinlar chorrahasi bo'lgan yurt sifatida tanilgan. Bu yerda islom, xristianlik, yahudiylik va boshqa konfessiya vakillari o'zaro hurmat va totuvlikda yashab kelgan. Bu borada buyuk ajdodlarimizning diniy-ilmiy asarlarida ham ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Abu Muin Nasafiy, Zamaxshariy, Sayido Nasafiy singari ulug' allomalarimizning ma'naviy merosi bugungi kunda ham bebaho manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Diniy bag'rikenglik-bu faqatgina boshqa din vakillarini toqat bilan qabul qilish emas, balki ularning e'tiqod erkinligini hurmat qilish, turmush tarzi, qadriyatlarini anglash va ular bilan muloqotda ochiqlikni saqlashdir. Turli din va e'tiqod odamlarining tinch- totuv yashashi, o'zaro hurmatda bo'lishi jamiyat barqarorligining asosiy shartidir

Diniy erkinlik va bag'rikenglik tamoyili bosh qomusimiz Konstitutsiyada ham mustahkamlangan. Xususan, 35-moddasida: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi." [3. –B . 6]

Bu modda O'zbekistonda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligini konstitutsiyaviy kafolatini belgilaydi. E'tiqod erkinligining kafolatlanishi diniy ma'rifiy ilm eshiklarini ochdi. Bu yo'lda davlatimiz tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy –huquqiy shart –sharoitlar va xalqimizga xos bag'rikenglik madaniyati, konfessiyalararo sog'lom muloqotni rivojlantirishga mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 16ta konfessiyaga mansub diniy tashkilotlar erkin faoliyat yuritmoqda. Ular orasida islom, provaslav, katolik, protestant, yahudiy, buddist diniy jamoalari tinchlikda, hamkorlikda yashab kelmoqda. Bu esa yurtimizdagi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning amaliy ifodasidir.

Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Bularning bari Yangi O'zbekistonni qurish yo'lidagi dastlabki ishlardir. Prezidentimiz kelgusida bu ishlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun quyidagi maqsadlarni amalga oshirish kerakligini ta'kidladilar:

- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy va ijtimoiy tadqiqotlar olib boorish,



- millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy maqolalar, kitoblar, ilmiy-tadqiqot materiallarini tayyorlash
- xorijiy olim va ekspertlar bilan davra suhbatlari, seminarlar, anjumanlar va boshqa tadbirlarni tashkil qilish
- millatlararo munosabatlar sohasidagi muammolarni o'rganish va hal etishda xorijiy tajribalardan foydalanish
- millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish, mamlakatimizdagi turli millat va elat vakillarining tili, madaniyatini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish

Xulosa o'rnida shuni yozishimiz mumkinki, bugungi tinch hayotimizda, jamiyatimizda hukm surayotgan turli millat va elatlar, diniy konfessiyalar o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat muhiti butun dunyo e'tiborini tortmoqda. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik O'zbekiston jamiyatining barqaror taraqqiyoti, tinchlik va osoyishtaligining muhim poydevoridir. Konstitutsiyada barcha fuqarolarning teng huquqliligi, vijdon va e'tiqod erkinligi kafolatlanganligi bu mamlakatda millatlar va dinlar o'rtasida o'zaro hurmat, hamjihatlik va do'stlik muhitini mustahkamlamoqda. Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ushbu yo'nalish Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o'rin egallab, kelgusida ham millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2021.
3. Mirziyoyev Sh. Millatlararo do'stlik va hamkorlik- xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omili. “Ma'rifat” gaz., 2017 yil 25 yanvar.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston – inson qadri ulug'langan yurt. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
5. Ibragimov S, Ibragimov J. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir. “Scientific Journal Impact factor”, 2021. 8-bet www.oriens.uz
6. BMT “Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”, 1995.
7. Internet manbalari: www.religions.uz, www.gov.uz

Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi

Lecturer of the Department of "Social and Humanities"
of Karshi State Technical University
gulizaripova0757@gmail.ru

THE ROLE OF HUMANITARIAN SCIENCES IN EDUCATING RESPONSIBLE PERSONS IN SOCIETY

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning rivojlanishi, taraqqiy topishida mas'uliyatli shaxslarning o'rnini muhimligi va manashunday mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalash uchun gumanitar fanlarning ahamiyati o'rganilgan va mas'uliyat tushinchasi borasida faylasuflar fikrlari tadqiqotga tortilgan.



Kalit soʻz: Masʼuliyat, jamiyat, shaxs, gumanitar fanlar, sotsial nasʼuliyat, masʼuliyatli shaxs, taʼlim.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность роли ответственных лиц в развитии и прогрессе общества, а также значение гуманитарных наук в воспитании таких ответственных личностей, и рассматриваются взгляды философов на понятие ответственности.

Ключевое слово: Ответственность, общество, личность, гуманитарные науки, социальная ответственность, ответственный человек, образование.

Abstract: This article examines the importance of responsible individuals in the development and progress of society and the importance of humanities in educating such responsible individuals, and explores philosophers' views on the concept of responsibility.

Keywords: Responsibility, society, individual, humanities, social responsibility, responsible person, education.

Introduction. The role of the humanities in the upbringing of a responsible person is very important. The humanities study human values, moral norms, culture, and relationships between people. Through these subjects, students develop the ability to communicate with others, feel social responsibility, and freely express their thoughts. It should also be noted that there is a concept of human freedoms and responsibilities in society, and responsibility is the attention of each individual to their own life and the lives, problems, and prospects of others, and a sense of responsibility for their actions. Responsibility in society gives people a sense of responsibility for their actions before others. This sense can be developed, especially through the humanities, as these sciences study human nature, its moral and social values. The humanities are an important tool for understanding and accepting responsibility.

Literature review. Our great ancestor Abu Nasir Farabi writes in his book "Views of the People of the Virtuous City": "By nature, every person is structured in such a way that they need many things to ensure their existence and achieve perfect status. He cannot create these things alone and needs a certain team of people to achieve them. This creates an opportunity for each member of the community to fully satisfy the needs of someone who is necessary for themselves and others"[1]. In the research of D. A. Durlak and M. E. Wells: "The Importance of Creative Education in the Development of Social Responsibility," the humanities demonstrate the possibility of increasing the sense of responsibility in children to a greater extent by stimulating creative thinking in education. They studied programs that fostered social responsibility and community service.

Another philosopher, T. M. Allen, confirmed in his research that students can be formed as responsible citizens through group work. He shows that teaching students to make decisions as a team and express their opinions helps develop responsibility.

Discussion. Taking a more complete approach to the concept of responsibility, responsibility is an important component of a person's spirituality, consisting in maintaining practical loyalty to the truth of the Universe, which they understand and consider correct, and taking steps considering the consequences of each action. "The word responsibility comes from the Arabic word kalam - meaning responsibility, accountability"[2]. Although we use this word often, we usually don't pay attention to its essence, we don't often feel the weight of this word. At a deeper level, responsibility seems to extend to all of existence. The whole world seems to obey the law of responsibility. The sun is responsible for the day, the moon for the night. They keep their responsibilities balanced and always create opportunities with submission. This is the great mystery of the Creator and the immortal law of nature. When a person wants to reach high peaks for some goal, despite being free, he acts according



to the needs of his life, family, and society, and he considers himself responsible for them. Responsibility establishes control over a person's behavior, inner world, and character. From this point of view, responsibility leads to changes in the spirituality of the individual. Responsibility is understood as a relationship, a person's dependence on something or someone, an obligation to someone, to care for someone, a duty, that is, something accepted as the basis for decisions or actions towards others." The broader meaning of the word "responsibility" is related to free will with unwanted or unexpected consequences of an action. Responsibility - clarity, reliability, honesty; awareness and the desire to recognize oneself as the cause of one's actions; readiness to act rationally for the well-being of people. From these definitions, we can conclude that a person raised with responsibility and responsibility is an important factor for society and its development.

For the development of spirituality in society, freedom must grow. Without freedom, spirituality cannot develop. If people live in a political totalitarian system or a society based on religious fanaticism and fear free thinking, science, literature, art, and culture cannot develop freely; backward rules and customs prevail. In such a society, a person thinks only one-sidedly, and everyone's opinion is dependent and subservient. A person begins to be limited in thinking. For example, if we take Stalin's or Hitler's policies, free-thinking people were imprisoned, repressed, or punished with exile. People who saw such a policy were afraid of free thinking. People's consciousness, spirituality, and knowledge did not grow, and development in certain spheres of society's life stopped for a certain period. Responsibility is, first and foremost, understanding the necessity. Responsibility requires activity from a person. If citizens living in society do not properly understand the freedoms given by society, if they abuse their capabilities, if they do not take responsibility for the freedoms created by society, society begins to decline. If teachers do not teach students, do not feel the responsibility to impart knowledge, and do not conduct lessons well, then the knowledge and spiritual development of students will decline. Let us give another simple example of this. The student who came to the lesson said "I am a free person, I will go to the lesson whenever I want" and did not attend the lesson. The teacher didn't ask if this student wasn't coming to class. The parents did not take into account when their child went to school, when he came home, what work he was doing. As a result, one illiterate citizen increased in society. Who is to blame for this? A student who hasn't properly understood their freedom? Is it a teacher who is irresponsible for their work, or a parent who leaves their child unattended, not thinking about their future? Such irresponsibility ultimately leads the development of society to the brink of collapse. Humanities, such as literature, philosophy, and history, shape moral values among people. They help a person understand themselves and others, develop a sense of empathy. At the same time, it helps to understand values and, in addition, explains how responsibility can be developed in society through historical events. Historical examples, based on the lessons and mistakes of humanity, show ways to solve modern problems. Results. Every science and science leads a person to perfection, develops their thinking, and ensures their freedom. Various methods can be used to develop responsibility. Deepening the inclusion of humanities in the curricula with an emphasis on the humanities in the education system and connecting them with literary works. To educate students as responsible individuals by studying human values and teaching them values such as empathy, solidarity, and mutual respect.

In conclusion, we can say that the humanities not only form knowledge, but also play an important role in the development of a sense of responsibility in society. By strengthening mutual understanding and solidarity between people, it prepares the ground for living in society as a truly responsible citizen. The opinions and research of scientists show that the humanities, educational methods, and social relations are of great importance in the formation of responsibility.



This is an important factor in increasing the spirit of responsibility in society through unity and mutual understanding. Teachers and educational institutions should ensure the need to instill in students a sense of responsibility through these subjects, involving them in public and state affairs. The process of forming responsibility contributes to the active participation of people in solving social problems and the further development of society.

References:

1. Al-Farabi. Philosophical Treatises. Alma-Ata, p. 303 (the same chapter and a number of other chapters in the Uzbek edition)
2. Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. p. 145.
3. Abdurahim Erkeyev. "Spirituality and Development" T; 2009, p. 388.
4. Odilkoriev.Kh.T.Constitution and Civil Society.-T:2002
5. Sharifkhodzhaev.M. Formation of open civil society in Uzbekistan.-T:2003
6. Leibniz G. Two Attributes to Freedom. World of Philosophy. M." "Public Literature." 1991. p. 181.
7. T. Hobbes. Leviathan. World of Philosophy. M., "Political Literature," 1991, p. 176.
8. D. Locke. Essays in three volumes. T. 1, M. 1985, p. 286.

O'razova Muxlisa
NamDU, magistranti

AN'ANAVIY QADRIYATLAR VA TARIXIY XOTIRANING BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston tarixiy-madaniy merosining inson kamoloti, milliy o'zlikni anglash va bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlashdagi o'rni falsafiy hamda ijtimoiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tarixiy yodgorliklar, yozma manbalar, xalq og'zaki ijodi va moddiy boyliklar ajdodlar tafakkurining mahsuli sifatida xalqning milliy qadriyatlari va ijtimoiy xotirasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: madaniy meros, tarixiy xotira, inson qadri, milliy o'zlik, ma'naviyat, Shavkat Mirziyoyev, totuvlik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, madaniyat falsafasi, milliy qadriyatlar.

Bugungi globallashuv davrida insoniyat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – millatlar va dinlar o'rtasida o'zaro tushunish, hamjihatlik hamda bag'rikenglik muhitini mustahkamlashdir. Bu jarayonda an'anaviy qadriyatlar hamda tarixiy xotiraning o'rni beqiyosdir. Chunki har bir xalqning ma'naviy yuksalishi, madaniy taraqqiyoti va insoniy munosabatlar tizimi, avvalo, o'z ildizlari – an'analari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Tarixiy xotira xalqning o'tmishiga bo'lgan munosabatini, uning ma'naviy tajribasini va ijtimoiy ongini ifoda etadi. U millatning o'ziga xosligini, birligi va totuvlik g'oyalarini asrab qolishda muhim vosita hisoblanadi. Shu ma'noda, tarixiy xotira va an'anaviy qadriyatlar jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning falsafiy hamda ijtimoiy asosini tashkil etadi.

Milliy qadriyatlar tizimida bag'rikenglik – bu nafaqat diniy yoki etnik totuvlikni, balki insonning insonga bo'lgan hurmatini, madaniyatlar va millatlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni ham



anglatadi. Shu bois, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy xotirani chuqur anglash orqali inson ongida bag'rikenglik, hamjihatlik va muloqot madaniyatini mustahkamlash mumkin.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yangi tafakkur" g'oyasi zahirida ham milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash va jamiyatda bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan chuqur ma'naviy mazmun mujassamdir.

Shu sababli, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy xotira zamonaviy fuqarolik jamiyatining ma'naviy poydevori sifatida nafaqat millatlararo totuvlikni, balki insoniyatning umumiy ma'naviy uyg'unligini ham ta'minlashga xizmat qiladi.

Tarixiy-madaniy merosni o'rganish nafaqat ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, balki ajdodlarimiz yaratgan buyuk ma'naviy xazinadan bahramand bo'lish, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etish hamda barkamol insonni tarbiyalash jarayonida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Vatan tarixi"ni o'rganishda madaniy merosimizni chuqur va tizimli tahlil qilish komil insonni voyaga yetkazishning ishonchli kafolatidir.

Tarixiy yodgorliklardan samarali foydalanish o'quvchi-yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, shuningdek, kelajakda O'zbekiston fuqarosining faol hayotiy qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev o'zining Oliy Majlisga Murojaatnomasida bu masalaga alohida e'tibor qaratib, shunday degan edi:

"Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar olimlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim" [1]. Haqiqatan ham, har bir xalq va millatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotini uning tarixi, an'analari va qadriyatlaridan ajratib tasavvur etib bo'lmaydi. Shu nuqtada madaniy meros va tarixiy yodgorliklar insoniyat tafakkurining uzviy qismi, jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Madaniy meros tushunchasiga bir qator olimlar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan. Xususan, M. Xayrullaev va D. Shorahmedovlar quyidagicha ta'riflaydilar:

"Madaniy meros deb o'tgan davrlardan insoniyatga qolgan va tanqidiy yondashilgan, ijodiy qayta ko'rib chiqilishi, zamonning aniq tarixiy vazifalari hamda ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv mezonlari asosida rivojlantirilishi va foydalanilishi lozim bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasini tushunmoq lozim" [2, 17–18].

Bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda madaniy-ma'naviy soha jamiyatning asosiy taraqqiyot omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu jarayon "ma'naviy-madaniy hayot ta'lim-tarbiya, madaniy meros, tarixiy tajriba, diniy, axloqiy, ma'rifiy qarashlar, turmush tarzi, san'at, adabiyot, xalq an'analari va ilm-fan kabi sohalarni o'z ichiga oladi. Millatning o'ziga xosligi, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi ana shu madaniy va ma'naviy qadriyatlar bilan belgilanadi" [3, 119].

Ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan moddiy va ma'naviy boyliklar bugungi kunda jahon miqyosida ham e'tirof etilmoqda. Qadimiy diyorumiz nafaqat Sharq, balki butun insoniyat sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lib, bu yurt zahirida yetishgan allomalar, mutafakkirlar, sarkardalar va olimlar umumbashariy tafakkur rivojiga beqiyos hissa qo'shganlar. Ayniqsa, islom sivilizatsiyasi kirib kelgan davrda ilm-fan, falsafa, adabiyot, me'morchilik, dehqonchilik kabi sohalar yuksak darajada rivojlangan.

Mamlakatimiz hududida qadim zamonlardan buyon barpo etilgan murakkab suv inshootlari, me'moriy obidalar va shaharsozlik yodgorliklari bu o'lkada madaniyat, ilm-fan va mehnatsevarlik qadimdan yuksak darajada bo'lganini tasdiqlaydi. Bugungi kunda 4 mingdan ortiq moddiy va



ma'naviy yodgorliklar YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Bu esa O'zbekiston xalqining boy tarixiy merosi jahon madaniyati bilan uyg'un holda rivojlanganini ko'rsatadi.

Ajdodlar tafakkuri mahsuli bo'lgan qadimiy yozuvlar, tosh bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, qo'lyozmalar, tarix, falsafa, adabiyot va me'morchilikka oid asarlar – bularning barchasi milliy o'zlik va ma'naviy xotiraning beqiyos boyligi hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Yurtimizda sakkiz ming ikki yuzdan ortiq madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, YUNESKOning moddiy va nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga O'zbekistondagi yangi obyektlarni kiritish jarayonini jadallashtirish lozim” [4, 171]. Demak, bunday ulkan madaniy merosga ega bo'lgan xalq o'z tarixidan faxrlanishga haqli. Shu bilan birga, madaniy merosni o'rganish va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yoshlar ongida ijtimoiy va tarixiy xotirani mustahkamlash, vatanparvarlik va daxldorlik hissini shakllantirishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatda, ayniqsa, yoshlar ongida o'z o'tmishini anglash, tarixiy-madaniy merosni asrab-avaylash va uni kelajak avlodlarga yetkazish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki o'tmishni anglash orqali inson o'zining tarixiy ildizlarini, madaniy qadriyatlarini va ma'naviy o'zligini qayta kashf etadi. Shu yo'l bilan jamiyatda tarixiy tafakkur shakllanadi, ijtimoiy xotira mustahkamlanadi va ma'naviy barqarorlik ta'minlanadi.

Tarixiy xotira inson shaxsida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik hodisa bo'lib, uning shakllanish va rivojlanish jarayoni ko'plab ijtimoiy-madaniy omillarga tayanadi. Tarixiy xotira yoshlarning o'zligini anglash, milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarash hamda milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil odimlash jarayonida muhim o'rin tutadi.

Masalan, o'zbek xalqining moddiy-madaniy merosida alohida o'rin tutgan me'morchilik san'ati ming yillik tarixga ega bo'lib, u xalq tafakkurining, estetik dunyoqarashining va ma'naviy barkamolligining yaqqol ifodasidir. Shu jihatdan, tarixiy merosni o'rganish yosh avlodda nafaqat g'urur, balki ijodiy fikrlash va estetik didni ham shakllantiradi.

Prezident Sh. Mirziyoyev bu masalaga alohida e'tibor qaratib, shunday degan edi: “Yoshlarni zamonaviy bilim va tajriba, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz” [5, 11]. Bugungi kunda butunlay yangi tarixiy sharoitlarda, zamonaviy sivilizatsiyaning insonparvar g'oyalari asosida milliy uyg'onish va o'zlikni anglashning yangi davri boshlandi. Aynan o'zligini anglash jarayoni O'zbekistonning ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotida tub o'zgarishlar bosqichini belgilab bermoqda.

Shu bois, Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining merosi – Beruniy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug'bek kabi buyuk allomalar faoliyatining tarixiy ahamiyatini yoshlar ongiga chuqur singdirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Chunki jamiyatning har tomonlama taraqqiy etishi faqat siyosiy yoki iqtisodiy mustaqillik bilangina emas, balki madaniy-ma'naviy uyg'onish va eng avvalo g'oyaviy mustaqillikni tiklash bilan chambarchas bog'liqdir.

Bu esa, o'z tarixiy ildizlarimizga, qadimiy qadriyatlarimizga, buyuk ajdodlarimiz – To'maris, Spitamen, Shiroq singari jasoratli siymolarga nisbatan faxr va iftixor tuyg'usini qayta uyg'otishni taqozo etadi. Shu yo'l bilan biz ilgari e'tibordan chetda qolgan yoki unutilgan madaniy, ma'naviy va g'oyaviy qarashlarimizni qayta tiklash, ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish orqali taraqqiyotning uzluksiz, yaxlit jarayonini ta'minlashimiz mumkin.

Shu o'rinda quyidagi fikr o'z dolzarbligini yo'qotmagan: “Boshqa xalqlarning hozirgi zamon madaniyatiga kirishlari uchun o'z o'tmishlaridan uzoqlashish majburiy bo'lsa, turkiy xalqlarning hozirgi zamon madaniyatiga kirishlari uchun faqat o'zlarining eski o'tmishlarini chuqur tushunib yetish kifoyadir” [6, 42].



Bu fikrga qo'shimcha tarzda shuni aytish joizki, o'tmish merosimizni faqat o'rganish emas, balki uni zamonaviy tafakkur va yoshlar ongiga mos shaklda talqin etish zarur. Chunki milliy merosni anglash jarayoni tarixni o'rganish bilan cheklanmaydi – u hozirgi zamon ruhiga uyg'un, istiqbolga yo'naltirilgan ma'naviy yangilanishning asosi bo'lishi kerak.

Shunday qilib, tarixiy-madaniy obidalar nafaqat o'tgan asrlarning sukunatli guvohi yoki qadimiy inshoot sifatida, balki xalqning milliy g'ururi, tarixiy xotirasi va ma'naviy o'zligining ramzi sifatida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ular insonlarda o'z o'tmishiga hurmat, ajdodlar yaratgan boy madaniyatdan faxrlanish, milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini uyg'otuvchi, jamiyatda tarixiy tafakkur va tarixiy madaniyatni shakllantiruvchi muhim vositadir.

O'tgan avlodlardan qolgan qadimiy yodgorliklarga bo'lgan e'tibor xalqimiz uchun oddiy qiziqish emas, balki ota makon va ona Vatanga bo'lgan sadoqat va mehrning ifodasidir. Tarixiy obidalar jamiyatning ma'naviy hayotini boyitadi, ajdodlarimiz xotirasiga hurmat, millat va Vatanga ehtirom hissini kuchaytiradi. Ular milliy o'zlikni anglash, tarixiy merosni qadrlash va yoshlar ongida ijtimoiy-madaniy daxldorlik tuyg'usini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy tarixni tiklash, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, tarixiy-madaniy obidalarni asrab-avaylash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki istiqlolning dastlabki yillaridanoq xalqaro miqyosda O'zbekiston o'zining boy tarixi, madaniy merosi va milliy qadriyatlarini dunyo afkor ommasiga namoyon etish zarur edi. Shu sababli madaniy merosni saqlash, restavratsiya qilish va ilmiy asosda o'rganish borasida strategik dasturlar va davlat siyosati shakllantirildi.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududida sakkiz mingdan ortiq tarixiy-madaniy obidalar saqlanib qolgan bo'lib, ularning ko'pchiligi davlat himoyasiga olingan. Shulardan uch mingdan ortig'i me'moriy obidalar, ikki ming yetti yuzdan ortig'i arxeologik yodgorliklar, mingdan ortig'i san'at namunalari sifatida e'tirof etilgan.

Eng ko'p tarixiy yodgorliklar jamlangan shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Shahrisabz, Qarshi, Toshkent – nafaqat tarixiy merosning markazlari, balki yosh avlodda milliy tarixiy xotirani mustahkamlash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishning tirik maktablardir.

Shu jihatdan, tarixiy-madaniy obidalarni asrash va ularni zamonaviy ta'lim, turizm hamda madaniyat siyosatiga integratsiya qilish nafaqat madaniy boyliklarni saqlash, balki jamiyatning tarixiy o'zligini mustahkamlash yo'lida strategik ahamiyat kasb etadi. Chunki tarixiy obidalar – bu xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini bog'lovchi ma'naviy ko'pri, u orqali milliy qadriyatlar avloddan avlodga uzluksiz o'tib boradi.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy xotira har qanday jamiyatning ma'naviy poydevorini tashkil etadi. Ular xalqning o'zligini anglash, tarixiy tajribasini asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish jarayonida hal qiluvchi o'rin tutadi. Aynan tarixiy xotira va qadriyatlarni chuqur anglash orqali inson o'z millatiga, Vataniga va butun insoniyatga bo'lgan mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Bugungi globallashuv sharoitida bag'rikenglik madaniyati millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlovchi eng muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu bois, bag'rikenglikni rivojlantirish, uni yoshlar ongiga singdirish va uni ijtimoiy hayotda barqaror qadriyatga aylantirishda an'anaviy qadriyatlar hamda tarixiy xotira tayanch manba vazifasini bajaradi.

Tarixiy merosga, ajdodlar yaratgan ma'naviy va moddiy boyliklarga ehtirom bilan qarash – bu nafaqat o'tmishga hurmat, balki kelajakni barpo etishning ham ishonchli kafolatidir. Shu jihatdan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, xususan, milliy qadriyatlarni tiklash, tarixiy xotirani mustahkamlash va bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan siyosat jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Demak, an'anaviy qadriyatlar va tarixiy xotira insoniyatning umumiy madaniy hazinasining ajralmas qismi bo'lib, ular asosida bag'rikenglik, totuvlik va insonparvarlikka asoslangan yangi ijtimoiy ongni shakllantirish – kelajak taraqqiyotining eng ishonchli yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев, Ш. (2018). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – “Халқ сўзи” газетаси, 29 декабрь, № 271–272 (7229–7230).
2. Хайруллаев, М., & Шорахмедов, Д. (1973). Маданият ва мерос. – Тошкент: Фан. – Б. 17–18.
3. Мусаев, Ф. (2007). Демократик давлат қуришнинг фалсафий-ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Ўзбекистон. – Б. 119.
4. Мирзиёев, Ш. (2021). Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O'zbekiston” нашриёти. – Б. 171.
5. Мирзиёев, Ш. (2021). Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси ҳамда Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нуткидан иқтибослар. – Тошкент: “Тасвир” нашриёт уйи. – Б. 11.
6. Ашур, Ш. (1994). Фарб ва Шарқ. – “Мулоқот” журнали, № 1–2. – Б. 42.

To'xtarov Ismatullo

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent
Farg'ona davlat texnika universiteti

O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARINING TOLERANTLIK TAMOYILI

Annotatsiya. Maqolada mustaqillik yillarida davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni qaror toptirishda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan fuqarolar qatori turli din vakillari hamda diniy rashkilotlarning ham manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshirilayotgan tadbirlarining tolerantlik mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, din va davlat, diniy e'tiqod, diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, missionerlik, prozelitizm, diniy tashkilot, tolerantlik muhiti, dinlararo totuvlik, diniy qadriyat.

Annotation. The article reveals the tolerant nature of the measures taken to resolve the relationship between the state and religion during the years of independence to protect the interests of citizens living in our country, as well as representatives of various religions and religious organizations.

Keywords: independence, religion, religion and state, religious belief, religious tolerance, freedom of conscience, missionary work, proselytism, religious organization, environment of tolerance, interfaith harmony, religious values.

Kirish. Ma'lumki, din inson paydo bo'lishi bilan bevosita uzviy va chambarchas bog'liq bolgan ijtimoiy ongning eng muhim shakllaridan biri sifatida butun bashariyat va jamiyat hayotida favqulodda katta ahamiyat kasb etgan hodisadir. Zero, butun bashariyatning uzoq tarixiy taraqqiyoti mobaynida unga hamrohlik qilib kelgan diniy e'tiqod yordamida kishilar o'zlarini qiziqtirgan turli xil



ijtimoiy-ma'naviy masalalarga javob izlaganlar. Oqibatda har bir diniy e'tiqod shakli muayyan xalq uchun xos bo'lgan diniy qadriyatlar tizimimni yuzaga keltirgan. Ushbu qadriyatlar, albatta, eng avvalo kishilar o'rtasida qaror topadigan munosabatlarga asoslangan holda ularni umumiy bo'lgan diniy maskan atrofida birlashtirish uchun xizmat qilgan. Bu esa, o'z navbatida, davlat va din munosablari doirasida faoliyat ko'rsatadigan dinning bag'rikenglik mohiyatini aks ettiradi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi davrda ma'rifatli dunyo davlatlari taraqqiyotiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlardan biri ularda din o'z yo'lida, davlat o'z yo'lida barqaror rivojlanayotganligidir. Ya'ni mazkur muhitda din bilan davlat o'rtasida mustahkam ittifoq tuzilgan bo'lib, din davlat taraqqiyotiga, osoyishtalikka, fuqarolarni vatanga fidoyilik, Tangriga ishonch, iymon-e'tiqodli, rostgo'y, halol mehnat bilan kun ko'radigan, haromdan hazar qiladigan, bironing haqidan qo'rqadigan, adolatli, o'z huquqini taniydigan, o'zgalarni hurmat qiladigan, mamlakatda mavjud qonunlar asosida ish yuritadigan ruhda tarbiyalashga ko'maklashmoqda.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalari singari ma'naviy hayotida ham yangilanish va tub o'zgarishlar ko'zga yaqqol tashlana boshladi. Jumladan, dinga bo'lgan munosabat ham ijobiy tomonga o'zgardi: sobiq sovet tuzumining dinga nisbatan ateistik ruhdagi hujumkorlik siyosatiga barham berilib, vijdon erkinligi qonun orqali amalda har tomonlama kafolatlandi.

Ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z yechimini topib, uning maxsus moddasida mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarning vijdon erkinligi, har bir kishi xohlagan diniga e'tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga egaligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi kafolatlanishi va ayni paytda O'zbekistonda diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmasligi ham mustahkamlab qo'yildi[1; 24].

Bunda har qanday ma'rifatli jamiyatda dunyoviy davlatning dinga munosabatini belgilovchi:

- dunyoga kelgan har bir inson yashash erkinligi singari e'tiqod erkinligiga ham egaligi;
- har bir inson diniy marosimlarni o'tkazish va ularda ishtirok etish huquqiga egaligi;
- boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan aholini turli yo'llar bilan o'z diniga og'dirib olishga yo'l qo'yilmasligi va ushbu maqsaddagi missionerlik harakati hamda prozelitizm holatlarining ta'qiqlanishi tamoyillariga tayanildi.

Ma'lumki, davlatning dinga munosabatidagi eng muhim xususiyat dinning siyosatga aralashmasligidir. Har qanday din o'z faoliyatida, birinchi navbatda, ma'naviy-axloqiy tarbiyani asosiy deb biladi.

Hech qaysi din o'zida butun xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti sohalariga oid jihatlarining barchasini qamrab olishga da'vogarlik qilolmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi. Xuddi shu asosda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida mamlakatimizda diniy siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishganidan so'ng butun jamiyatimiz taraqqiyotining barcha sohalari qatorida diniy sohada ham keskin ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xususan, 1991 yil 14 iyun kuni hukumatimiz tomonidan din va dindorlarga nisbatan alohida e'tiborni anglatuvchi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risiga"gi Qonun qabul qilindi. Biroz muddat o'tgach, 1998 yil 1 may kuni mazkur qonun yangicha tahrirda qaytadan qabul qilingaligi ham yuqoridagi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Muhimi, ushbu huquqiy hujjat mamlakatimizdagi barcha dindorlar va diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish bilan birga boshqa dindagilarga nisbatan ham bag'rikenglik munosabatida bo'lish zaruriyligini kafolatlab berdi. Oqibatda bir necha bor tahrirlash tufayli "qiyomiga" yetkazilgan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risiga"gi Qonunning kuchga kirishi va ijrosini ta'minlash maqsadida o'tgan davr ichida respublikamiz bo'yicha turli



dinlarga oid jami 2200 dan ziyod diniy tashkilotlar ro'yxatga olindi. Holbuki, 1990 yilda ularning soni bor-yo'g'i 119 tani tashkil etgan edi. Bugungi kunda respublikamizda faoliyat ko'rsarayotgan diniy tashkilotlarning 2000 dan ortig'i islomiy diniy tashkilotlar bo'lsa, 200 dan ziyodini esa noislomiy diniy tashkilotlar tashkil etadi. Agar mustaqillikka erishilgan dastlabki yillarda mamlakatimizda atigi 2 ta diniy ta'lim muassasasi mavjud bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda O'zbekistonda Toshkent islom universiteti, Toshkent islom instituti, 10 ta o'rta maxsus diniy oquv muassasalari, pravoslav va protestant seminariyalari, 2250 ga yaqin masjid va 180 dan ortiq cherkov, sinagog, 16 ta diniy konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda yaratilgan bunday diniy bag'rikenglik muhiti, albatta, diniy ta'lim olayotganlar sonida ham aks etmoqda, ya'ni 1990 yilda yurtimizda diniy o'quv yurtlarini bitiruvchilar soni 425 kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib har yili 6 mingga yaqin yoshlar mazkur toifadagi ta'lim muassaslarida tahsil olib, tugatib chiqmoqdalar.

Mamlakatimizda tolerantlik muhitining yaratilishida diniy tashkilotlarning faoliyatiga davlatning aralashmasligi haqidagi huquqiy moddaning kiritilganligi ham juda muhim ahamiyat kasb etdi, Unga ko'ra "Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatiga aralashmaydi.

Davlat qonunda belgilab qoyilgan tartibda faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlar faoliyatining erkinligini kafolatlaydi" [1; 44]. Biroq ushbu o'rinda shuni ham alohida ta'kidlash joizki, O'zbekistonda dinning davlatdan ajratilganligi diniy tashkilotlar va dindorlar xohlagan ishlarini amalga oshirishlari mumkinligini anglatmaydi va xuddi shu bois davlatning dinga nisbatan bunday munosabatini ana shu tarzda tushunish yoki talqin qilish noo'rindir. Bu haqda "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risiga"gi Qonunning 3-moddasida ham alohida uqtirilganki, unga ko'ra, "Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin".

Ma'lumki, barcha dinlar insonlarni doimo yaxshilikka, jamiyat manfaatlari uchun xizmat qilishga, axloqli bo'lishga chaqiradi. Ammo muayyan kishilar va guruhlarining dinni noto'g'ri tushunishi yoki bila turib dindan g'arazli maqsadlarda foydalanishi natijasida jamiyatda tartibsizliklar kelib chiqqanligi tarixda ko'plab kuzatilgan. Aslida, dinning davlatdan ajratilganligi to'g'risidagi qonunni noto'g'ri talqin qilib, uni "kufr davlati" deb jar solayotgan ayrim kimsalarning asosiy muddaolari din orqali amaldagi qonunlarga zid ravishda hokimiyat boshqaruviga erishishdan iboratdir.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda barcha sohalar singari dindorlarning huquqlarini himoya qilish, diniy tashkilotlarning erkin faoliyat olib borishlari, diniy ta'lim olish uchun barcha imkoniyatlarning yaratib berilganligi yurtimizda istiqomat qilib kelayotgan barcha millat vakillari hamda e'tiqod egalaridan iborat fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab tashlangan juda muhim qadamdir.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni yo'lga qo'yish tufayli barpo etilgan dinlararo totuvlik va tolerantlik muhiti keyingi yillar mobaynida dunyo hamjamiyatining taraqqiyparvar vakillari tomonidan keng e'tirof etilayotgan ibratli ishlardan biridir. Ushbu hol diyorumizda o'tkazilayotgan "Jahon dinlari tinchlik yo'lida" mavzusidagi xalqaro anjumanlarda yakdillik bilan e'tirof etilayotganligi ham fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Zero, yurtimizda musulmonlar bilan birga boshqa barcha din vakillarining manfaatlarini to'liq ta'minlangan, ularning o'z ibodatlarini bajo keltirish, diniy marosim va bayramlarini munosib nishonlash, urf-odatlariga rioya qilishlari uchun tegishli bo'lgan barcha sharoitlar yaratib berilgan. Oqibatda turli din va e'tiqod vakillari bir-birlari bilan do'st-birodar holda har birlarining ishonch-



e'tiqodlariga nisbatan hurmat, o'zaro toqat va chidamlilik ruhida umrguzaronlik qilishmoqda. Davlatimiz esa ularning diniy hayoti va munosabatlariga aralashmaslikdan iborat tamoyiliga sodiq qolmoqda. Bu to'g'rida Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev ham alohida ta'kidlashganidek, "Mamlakatimizda millatlar va konfessiyalararo hamjihatlikni saqlash va mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati izchil amalga oshirilmoqda" [2; 294].

Xulosalar. O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlat bo'lgani uchun ham diniy bag'rikenglik yurtdoshlarimiz ongida ustivor bo'lishi va amaliy faoliyatlarida ro'yobga chiqishini ta'minlash asosiy vazifalardan biridir. Shunday ekan, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning bugungi kundagi muqaddas burchi va vazifasi diniy qadriyatlarga nisbatan shakllantirilgan umuminsoniy munosabatlarning qadriga yetish, ularning mohiyatini chuqur anglash, bu borada hech qanday befarqlik va loqaydlik hollariga yo'l qo'ymasdan uning oldini olish maqsadidagi barcha ishlarda faol ishtirok etish, ana shu barqarorlik muhitini saqlab qolish va uni yanada mustahkamlash uchun kurashish dan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, "O'zbekiston". 2023 yil.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, "O'zbekiston". 2022 yi

Nurmuxamadova Dilobar Muhammadrasul qizi

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi magistri

Namangan davlat universiteti

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARINING IJTIMOIIY-MADANIY TALQINI

Annotatsiya: Globallashuv jarayonining kuchayishi millatlararo munosabatlarda yangi qirralarni ochib bermoqda. Ushbu maqola globallashuv sharoitida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tamoyillarining ijtimoiy-madaniy talqiniga bag'ishlanadi. Tadqiqot globallashuv davrida madaniyatlar yaqinlashuviga olib kelishi mumkinligini, milliy o'ziga xoslikni saqlab qolgan holda madaniyatlararo hamkorlik va hamjihatlikni ta'minlash zarurligini asoslaydi. Maqolada bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlashning ijtimoiy-madaniy omillarini tahlil qilindi. Bu borada ta'lim va madaniyatning o'rni alohida ta'kidlanadi. Bir so'z bilan aytganda globallashuvning murakkab sharoitida barqaror va totuv jamiyatni barpo etish yo'llari haqida to'xtalib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Globallashuv, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, madaniyatlararo muloqot, ijtimoiy-madaniy integratsiya, milliy o'ziga xoslik, ko'pmillatlilik.

Kirish.

Zamonaviy dunyo globallashuv ta'sirida tobora rivojlanmoqda. Bu esa turli millat, din va madaniyatga mansub insonlarning o'zaro munosabatlarini yanada murakkablashtirmoqda. Millionlab odamlarning bir-biriga ta'sir etishi, g'oyalar, mafkuralar xilma-hilligi millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni yanada rivojlantirmoqda. Jahonda turli millat vakillarining bir mamlakatda tinch-totuv yashashlari, umuminsoniy bag'rikenglik tamoyillarining rivojlantirishga intilishlari yangi asrga xos xususiyat hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyotida turli millat va elatlar huquqlari manfaatlari



ta'minlanishi, ularning tili, madaniyatiga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'linishi demokratik islohotlar jarayonida muhim jihatlardandir.

Tahlil va nazariya: Globallashuv, bir tomondan, madaniyatlararo almashinuvni va o'zaro boyishni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, ba'zi madaniyatlarning ustunlik qilishi, milliy o'ziga xoslikning yo'qolishi xavfini tug'diradi. Shu bois, millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tamoyillarini globallashuvning ijtimoiy-madaniy jarayonlarini talqin qilishga yordam beradi.

Asosiy qism: Globallashuv XXI asrda va undan oldin ham ro'y berib kelayotgan hodisa. Ammo bu hodisa tarixning turli vaqtlarida turlicha namoyon bo'lib kelgan. Aslida "Globallashuv" tushunchasi ilmiy ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarga o'tgan asrning 80-yillarida kirib kelgan edi. Uning qo'llanilishiga jahon mamlakatlari iqtisodiy hayotining o'zaro bog'liqligining shiddat bilan kuchayib borganligi asosiy sabab bo'lgan edi.

Tarixning turli tahlilali davrida yurtimiz boshiga qiyin kunlar tushdi. Ma'lumki XX asrning 30- yillarida mustamlaka tuzumining qatag'on siyosati va ikkinchi jahon urushi davrida o'z yurtidan majburan ko'chirilgan, badarg'a qilingan millat va elatlarga xalqimiz bag'rini ochdi. Eng og'ir damda ularga yordam qo'lini cho'zdi, bir burda nonni baham ko'rdi. Koreyslar, nemislar, turklar, polyaklar, greklar, qrim-tatarlar bizning yurtimizda o'zlarining ikkinchi uylarini topdilar. [1.- B 116]

O'zbekiston zaminida istiqomat qilayotgan millat va elatlar soni muntazam o'sib bordi. Agar 1897-yilda hozirgi O'zbekiston hududlarida 70ga yaqin millat va elatlar istiqomat qilgan bo'lsa, 1926-yilga kelib 91 ta, 1959- yilda 113 ta hamda 1989-yilga kelib 136 taga yetdi. [2. –B 32] Bugungi kunda O'zbekistonda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Shu sababli so'nggi yillarda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash do'stlik muhitini va ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy -ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi. Bunga yorqin misol sifatida O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasidagi moddalarda ham alohida ta'rif berilgan. Konstitutsiyamizning 4-moddasida O'zbekiston respublikasining davlat tili o'zbek tili ekani mustahkamlangani barobarida, O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari an'analarini hurmat qilinishini ta'minlash maqsadida konstitutsiyamizning 8-moddasida " O'zbekiston xalqini millatidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Albatta bu kabi ishlar yurtimizning naqadar bag'rikeng xalq ekanligining yorqin misolidir [3.-B]. Xususan davlatimiz rahbari 2017-yil 19-mayda " Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi va 2019- yil 15-noyabrda " Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida "gi farmonlari qabul qilgani bu borada ijobiy natijalarga olib keldi. Millat va unda yashaydigan boshqa xalqlar o'rtasida hamjihatlik bo'lishi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhi m omillaridan biridir. Aksincha milliy g'oyaning ahamiyatini tushunib yetmaslik, jamiyat hayotini tinchlik va barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin. Mamlakatimizda statistik ma'lumotlarga ko'ra, 136 ta millat, elat xalq va etnik guruhlarining vakillari yashaydi. O'zbekistonda barcha millat vakillariga teng huquqli munosabat davlatimiz qonuni bilan mustahkamlangan. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktablarning 7ta milliy tilda o'qitish ishlari qolaversa ommaviy axborot vositalarining 20 ta tilda ommaviy -axborot nashrlari faoliyat ko'rsatayotganligida ham ko'rishimiz mumkin. Millatlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida milliy madaniy markazlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Dastlabki milliy madaniy markazlari koreyslar, qozoqlar, yaxudiylar, armanlar tomonidan Respublikamiz viloyatlarida 1989- yilda tuzilgan. O'sha paytda ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turish maqsadida hukumatimizning qaroriga binoan, madaniyat ishlari vazirligi huzurida Respublika millatlararo madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo bu markazning rivojlanib ravnaq topishi 1991-yildan mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng



boshlandi. Millatlararo munosabatlarni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarning o'zni ham beqiyos sababi insonlar bugungi kunda jamiyat hayotiga oid ko'plab yangiliklarni ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali oladi. Ommaviy axborot vositalari bugungi kunda jamiyatning eng asosiy qudratli va ta'sirchan mafkura vositasi hisoblanadi. O'zbekiston -ko'p millatli davlat bo'lib bu yerda koreyslar, tatarlar, ruslar, va boshqa millatlar birga yashaydi va o'z milliy bayramlarini nishonlaydilar. Masalan bunga birgina misol tariqasida koreyslarning O'zbekiston hududida nishonlanadigan Solnal -fevral oyida, Oy taqvimini bo'yicha yangi yil bayrami sifatida nishonlanadi. Chusok-Hosil bayrami sentabr oyining oxiri oktabr oyining boshida o'tkazilib bu koreys Navro'zi deb ataladi.[4. –B 575] O'zbekistonda koreys diasporasi tashkilotlari (Kore sinmun) gazetasi, koreys madaniyati markazlari bilan har yili madaniyat festivallari o'tkaziladi. Bundan tashqari Rossiya Federatsiyasining O'zbekistondagi elchixonasi –“Rossiya kuni “va “Maslenitsa”kabi tadbirlarini O'zbekistonda o'tkazish haqidagi press-realizlari e'lon qilinadi.

Xulosa qilib aytganda globallashuv sharoitida totuv va bag'rikeng jamiyat qurish o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayondir. Globallashuv davrida dunyo xalqlari o'zaro yaqinlashib, madaniyatlar va tillar bevosita bir-biriga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayon millatlararo totuvlik va o'zaro hurmatni yanada mustahkamlashni talab qiladi. O'zbekiston misolida aytganda, mamlakatda yuzdan ortiq millat va elat vakillari yagona Vatan -O'zbekiston nomi ostida tinch-totuv yashab, umumiy taraqqiyotga o'z hissasini qo'shmoqda. Bunga asosiy sabab, davlat siyosati "Millatlararo-totuvlik va diniy bag'rikenglik " tamoyiliga asoslanganligida.[5. –B35 Globallashuv jarayonida bu yondashuv xalqimizni yanada birlashtirdi, biz yosh avlodlarni millatlararo hurmat ,insonparvarlik ruhida tarbiyaladi. Millatlararo totuvlik -bu nafaqat ijtimoiy barqarorlik garovi , balki taraqqiyot, madaniy boylik va tinchlikning eng muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1 Xudoybergenova F.T. Millatlararo totuvlik - taraqqiyotning muhim omili. "O'zbekistonda millatlararo totuvlik, milliy, diniy va siyosiy bag'rikenglikni yanada rivojlantirishning ijtimoiy, falsafiy masalalari" Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to'plami 2020. –B. 116.
2. O'zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo'lishi. -Toshkent, O'zbekiston, 1992.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent, O'zbekiston, 2023.
4. Mustafayev u. U. Yangi o'zbekiston: qadriyatlar va falsafiy Fanlarning dolzarb muammolari bo'yicha ayrim Mulohazalar //oriental renaissance: innovative, educational, natural and social Sciences. – 2021. – t. 1. – №. 10. – c. 568-577.
5. Jalilov .M.B. Qalandarov.R.B. Mahammatova Sh.Q. "O'zbekistonda milliy qadriyatlar va millatlararo totuvlik". 2021.

Xolmirzayev Xayrullo Lutfillojon o'g'li,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: xayrullohxolmirzayev93@gmail.com

ORCID ID 0009-0005-6672-425X

MULLA SHAMSIDDIN SHAVQIY MEROSIDA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon tarixchisi Shamsiddin Shavqiy (1805-1889)ning "Riyozul muslimiyn" dostonida keltirilgan Valiboy Yo'ldashev timsolida millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, xalqparvarlik, o'z xalqi taqdiri haqida qayg'urish kabi hozirgi kundagi dolzarb masalarning qisqacha tahlili berilgan.

Kalit so'z va iboralar: Shamsiddin Shavqiy, Riyozul muslimiyn, Valiboy Yo'ldashev, xalqparvarlik, Jarkent, masjid.

Abstract: This article provides a brief analysis of current issues such as interethnic harmony, religious tolerance, patriotism, and concern for the fate of one's own people, as depicted by Valiboy Yu'ldashev in the epic poem "Riyozul Muslimin" by the Kokand historian Shamsiddin Shavkiy (1805-1889).

Keywords and phrases: Shamsiddin Shavkiy, Riyozul Muslimin, Valiboy Yu'ldashev, patriotism, Zharkent, mosque.

Kirish

Millatlararo totuvlik va do'stona munosabatlar bevosita millatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilaydi. Aynan shu munosabatlar davlat va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston tarixiy jarayonlarda, mashhur ma'rifatparvar ajdodlarimizning ilmiy-badiiy merosida millatlararo totuvlikning o'ziga xos ko'rinishlari aks etgan. Shunday allomalardan biri, XIX asrda yashagan tarixchi, ijodkor shoir Mulla Shamsiddin Shavqiy (1830-1887)ning nazmiy usulda yozilgan tarixiy asarlarida millatlar o'rtasidagi o'zaro totuvlik, do'stlik ko'proq tarannum qilingan. Turkiston xalqlarining turli xalqlar, urug' yoki elatlarning o'zaro bir maqsad yo'lida istiqlool uchun kurashganligini uning "Tarixi Shavqiy" asari mazmunidan bilish mumkin. O'zbek, qipchoq, qirg'iz, qozoq, tojik xalqlarining Rossiya imperiyasi bosqiniga qarshi ko'rsatgan kurashlari, qahramonliklari sheriy tarzda bayon qilingan. U o'zbek va fors-tojik tillarida ijod qilgan bo'lib, tojik shoirlaridan bo'lgan Abdurahmon Jomiy, Muslim Xo'jandiy sherlariga muhammaslar bog'lagan. O'sha davrdagi sherxonlik kechalarida tojik tilida sherlar bitib barcha shoirlarga o'qib bergan.

Tahlil va natija

Shamsiddin Shavqiyning asarlarida marifatparvarlik, ilmu-tarbiya masalalari ham keng o'rin olgan. Uning bir qancha g'azallarida kishilarni mehr-oqibatga, vafodorlikka, rostgo'ylikka, fikr-mulohaza bilan ish ko'rishga, dilozor bo'lmaslikka, dil va tilni bir tutishga targ'ib qilgan. Bu jihatdan bugungi kun uchun ham uning asarlari katta ahamiyatga ega.

U Qo'qon xonligidagi faoliyati bilan birga haj ziyorati orqali ko'p o'lkalarni ko'rdi. Musulmon dunyosidagi o'zgarishlar bilan tanishdi. "Tazkirai Qayyumiy" asarida: "... shoir Shavqiy Xijoz safarida Makka shahrida ko'rdiki "hajar-ul asvad" nomli muborak toshni ziyorat etgan va uning tarixi to'g'risida biz uzun 10 bandli bir muxammas yozmishdir" [3. – B.269-270], deb yozadi. U haj safari sayohatidagi yangiliklar va Turkistonda bo'layotgan Rossiya imperiyasidan keyingi o'zgarishlarga befarq bo'lmagan. Turmush hayoti uchun bo'zchilik va dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lishi bilan



birga zamonasi yoshlarining ilmi, mahrifatli bo'lishi uchun Kalvakdagi masjidlardan birida maktabdorlikni davom ettirgan. U zamon siyosatini yaxshi tushungan, ma'rifatli insonlarsiz Turkiston xalqlarini kelajagi fojiali bo'lishini anglagan. Asarlarida ham ilm-ma'rifatni targ'ib qilgan. Rus sharqshunosi V. P. Nalivkin (1852-1918) Namangan uezdi mahkamasida xizmat qilib, etnografik tadqiqotlar o'tkazgan vaqtlarda Shavqiy va uning asarlari bilan tanishib “o'z davrining peshqadam kishisi” [1. – B.48] deb baho berishi ham bejizga emas. Chunki Rossiya imperiyasi Turkistonda mustamlakachilik siyosatini olib borayotgan bir davrda mahalliy aholiga past nazar bilan boqish, ularni “qoloq” xalq sifatida ko'rganliklari ko'pchilikka mahlum. Ana shu davrda Shamsiddin Shavqiy o'zining teran fikrlari va ijodi bilan rus sharqshunosini ehtiboriga tushgani Turkiston xalqining “qoloq” emasligiga yana bir isbot bo'la oladi.

XIX asr oxirlariga kelib Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakatining rivojlanishida Shamsiddin Shavqiy kabi ma'rifatparvarlar g'oyalari amaliy islohotlarga aylanib uning davomchilari Ibrat, So'fizoda, Nosirxon To'ra, Dadamirzaqori, Lutfulla Olimiy kabi namanganlik ko'plab jadidlar o'lkadagi taraqqiyotga o'z xissalarini qo'shdilar. Ular dunyo bilan hamnafas bo'lib yashash, Turkiston taraqqiyoti uchun zamonaviy ilmlarni egallash lozimligini yaxshi anglagan holda o'z bilimlarini xorij mamlakatlarida yanada mustahkamladilar. XX asr boshlarida Istanbulda ta'lim olgan namanganlik Botirxo'ja o'g'li Muhammadxo'ja: “Butun millatlarning tarixlarini mutoala qilsak taraqqiy va taolilarini maktab ibtidoi ila boshlagonligini ko'ramiz” [2], deb yozganidek, ular ham yurtga qaytib yoshlarga ta'lim berdilar. Zamonasiga mos ravishda milliy matbuotni rivojlantirdilar. Xalqni: “Ey Turkistonning olimlari ila boylari! Ijtihod qilingizlar, juda ko'b yillardan beri g'aflat uyqusida yotub zamonag'a muvofiq bo'lg'on ilm va fanlarga nafrat ko'zi ila qaradingizlar. Loaqal bundan keyin ko'zlaringizni ochub usuli jadidning keragligini xalqg'a fahmlatub, ibtidoi maktablar ochmoqqa targ'ib va tashviq qilingizlar! Ulamo olimi ila va ag'niyomili ila xidmat qilur bo'lsa biz turkistonliklar ham madaniy insonlar qatoriga kira olurmiz” [2.], deya xitob bilan ilmga, ittifoqlikka chorlaganlar. Shavqiy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar jadidlar tomonidan amalga oshirila boshlagan edi.

1884-yilda yozilgan “Riyoziy musulimiyn” asari uyg'ur tadbirkori, taniqli ishbilarmon Valiboy Yo'ldoshev (1839-1916) ning hayoti va faoliyati, ota-onasi, xalqparvarlik ishlari haqida yozilgan. Uning homiyligida bu asar yozilgan va ko'chirilgan. Ushbu doston hozirgi kunda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti H.Sulaymonov nomli qo'lyozmalar fondida, “Devoni Shavqiy” deb nomlangan qo'lyozma tarkibida saqlanib qolgan [4. –B.133].

Shuningdek Valiboy Yo'ldoshev o'z qavmdoshlari uchun o'zidan yodgorlik qoldirishni niyat qiladi va bu istagini yangi qurilgan Jarkent shahrida o'ziga xos masjid qurdirish orqali amalga oshiradi. Ushbu masjid qurilishi haqidagi mahlumot N.Abdulhatov, Sh.Qo'ldoshevlar hammuallifligidagi “Mulla Shamsiddin Shavqiy” deb nomlangan kitobda masjid qurilishiga oid quyidagi ma'lumotlar keltirilgan: “1886 yilda Valiboy qurdirgan masjid hozir ham saqlanadi. Bu ajoyib masjidni Valiboy birorta mix ishlatmasdan bunyod etishga qaror qilgan. Shu bois, mix ishlatmasdan imorat ko'taradigan ustani qidiradi. Biroq, yaqin orada bunday ustani topa olmaydi. Bir savdogardan Shanxayda yashaydigan Xung' Pit (XonPik) ismli xitoy ustasining ishlarini eshitadi. O'z maqsadini amalga oshirish uchun Valiboy Shanxayga boradi va o'sha ustani topadi. Valiboyning maqsadini eshitgan xitoylik usta ham qiziqib qoladi va u bilan birga Yorkatga kelgan. Ushbu masjidni qurilishiga Xun Pit o'n yil vaqt sarflaydi va xech qanaqa mablag' olmaydi. Haqiqatdan ham, masjid birorta mix ishlatilmasdan quriladi. Xitoylik usta bilan birga, Xasan Imanov, Toir Ismoilov, Nasriddin qori, Abdulqodir, Ushurboqi, Zaynutdin ismli mahalliy ustalar ham birga ishlashgan. Xun Pit bu masjidni 1892 yilda qurib tugatib, Xitoyga qaytgan. Biroq, xitoylar hukumati uni masjid qurgani uchun qatl qilgan. Sobiq sovet davrida bu bino omborxona,



choyxona, hatto barak sifatida ishlatilgan. 1969-yilda bino qayta tahrirlangan” [1. – B. 63]. Valiboy Yo'ldoshevning masjid va tegirmon qurdirgani haqidagi ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxivi fondlarida ham saqlanib qolgan [5. – B.10-11].

Uning avlodlari hozir ham Jarkent, Bishkek, Alma-Ota, Toshkentda istiqomat qiladi. Jarkent aholisi hozir ham uning eslab, xudoyilar o'tkazib turishadi.

Xulosa

Yuqoridagilardan kurinib turibdiki Markaziy Osiyo hududida turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek, teng huquqlilik hamda o'zaro hamjihatlik sharoitida yashab, yurtimiz rivojlanishiga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. Ularning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishlari, o'z qiziqish hamda layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyatlari, urf-odatlarini, an'analarini saqlash va rivojlantirishlari uchun zarur imkoniyatlar, shart – sharoitlar yaratib berilgan. Bunday yuksak darajadagi e'tibor natijasida ko'p millatli xalqimizning boy tarixiy madaniy merosi qayta tiklandi, qadr topdi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi globallashuv jarayonlari kechayotgan davrda o'z xalqini, yaqinlarini farovonligi, yurtini ruvoji uchun ohz hissasini qo'shayotgan insonlar oramizda ko'plab topiladi. Ana shunday insonlar sharofati tufayli jamiyatda insoniylik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi tamoyillar hanuzgacha yo'q bo'lib ketmadi. Yurtimizda asrlar osha milliy qadriyatlar o'zaro hamjihatlikda va hamohanglikda, tinchlik-totuvlik, barqaror rivojlanish va inson qadri yo'lida xizmat qilib kelgan hamda bugungi kunda har kunlik amallarimizga aylangan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.

1. Абдулахатов Н., Қо'лдошев Ш. Мулла Шамсиддин Шавқий. Тошкент, 2021.
2. Наманганлик: Муҳаммадхўжа бин Ботирхўжа. Истанбулдан мактуб // Садои Туркистон 1914 йил 17 октябрь.
3. Пўлотжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. Тошкент, 1998.
4. Devoni Shavqiy. O'zFA Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872.
5. O'z.MA. I-1.18-ro'yxat.44-ish.10-11- varag'.

Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li

Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi magistri

Namangan davlat universiteti

MARKAZIY OSIYODA BIRLIK MASALASI VA UNING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro aloqalaridagi yutuq va kamchiliklar, muammolar hamda yechimlar, XXI asrning global muammolari qarshisida Markaziy Osiyo uchun birlikning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston. Qirg'iziston, Tojikiston, integratsiya, savdo, moliya, terrorizm, narkotrafik.

Kirish: O'tgan asrning 90-yillarida SSSR parchalanishi natijasida yuzaga kelgan 15 ta davlat birlashmasi qatorida Markaziy Osiyoning 5 ta davlati ham bor edi. Mustaqillik davrining ilk yillari



va XXI asr bo'sag'asida yuz bergan jarayonlar hamda XXI asrning ikkinchi dekadasi boshlab Rossiya Federatsiyasining agressiyaga moyil siyosati tarixiy ildizlari bir bo'lgan Markaziy Osiyo davlatlari uchun birdamlik, birodarlik, mustahkam ittifoq va qardoshlik masalalarining ahamiyatini yanada orttirib yubordi. Ushbu maqolada birlik masalasining asosiy jihatlarini tahlil etamiz.

Tahlil va natija: Markaziy Osiyo o'lkasi tarixiy va madaniy jihatdan yagona makon hisoblangani uchun o'lkada siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy integratsiyani kuchaytirish davr talabi deb aytish mumkin. SSSR parchalangan ilk yillardayoq bu borada ilk qadamlar tashlandi. Bu borada 1994-yil qabul qilingan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida yagona iqtisodiy makon yaratish va 1995-yilda qabul qilingan O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning 2000-yilgacha bo'lgan muddatga mo'ljallangan iqtisodiy integratsiyasi bo'yicha dasturlarni muhim qadam sifatida keltirish mumkin [1. –B. 18]. 1998-yilda bu struktura “Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati” deb nomlandi. 2002-yil fevralda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston prezidentlari uchrashuvida esa rasmiy ravishda **Markaziy Osiyo Hamkorligi tashkiloti** tuzildi.

So'nggi 10 yillikdagi jarayonlarga e'tibor beradigan bo'lsak, O'zbekistonning xalqaro maydondagi tashabbuslari orqali Markaziy Osiyo bo'yicha qator global rezolutsiyalar qabul qilindi: 2018-yilda BMT Bosh Assambleyasida “Markaziy Osiyo- tinchlik va taraqqiyot hududi” rezolutsiyasi tasdiqlandi [2. –B. 137-138]. Ushbu rezolutsiya o'zaro munosabatlar masalasida oldinga katta qadam tashlash imkonini berdi. Bunga yaqqol misol sifatida qo'shni mamlakatlar bilan chegaralar masalasidagi qator muammolarni bosqichma-bosqich, tinchlik yo'li bilan hal etilishini keltirishimiz mumkin. Markaziy Osiyo o'lkasida manfaatlar mushtarakligi va o'zaro manfaatdorlik jarayonining mustahkamlanishi kelajak uchun kutilayotgan birdamlikning asosiy tayanchi hisoblanadi.

Fikrimizning isboti sifatida byudjet masalasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hozirda tabiiy ravishda 5 ta davlatning har biri o'z byudjetini alohida shakllantiradi va alohida idora etadi. 2023-yil misolida byudjet daromadlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich O'zbekistonda 254 trln so'm, Qozog'istonda 17,8 trln tenge, Qirg'izistonda 398 mlrd som, Tojikistonda 32 mlrd somonni tashkil etgan, ushbu daromadlarni ijtimoiy sohaga yo'naltirish foizi O'zbekistonda 54%, Qozog'istonda 49%, Qirg'izistonda 62%, Tojikistonda esa 58% ni tashkil etgan [3. –B.1680]. Bu jarayon shuni ifoda etadiki, 5 ta qardosh davlatning har biri alohida byudjetga, alohida pul birligi va uning alohida qiymatiga ega hamda daromadlarini turli shaklda yo'naltiradi. Bu huquqiy va suveren jihatdan to'g'ri, lekin Markaziy Osiyo yagona bir makon sifatida jadal rivojlanishi uchun yagona pul birligi va agar imkon bo'lsa yagona byudjet tizimiga o'tishi zaruriyat hisoblanadi. Ana shunda rivojlanish tendensiyalari ham o'zaro muvofiqlashishiga erishish mumkin.

Shuningdek, birlik va hamjihatlikni ta'minlovchi omillardan yana biri bu savdo va bojxona to'siqlarini yo'qotish choralarini ko'rish hamda o'zaro savdo-sotiq aylanmasini jadallashtirishdan iboratdir. Buni O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, 2022-yil yanvar-avgust holatiga ko'ra yurtimizning Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 15,6% ga o'sib, 4,6 mlrd dollarni tashkil etgan. Bu umumiy savdo hajmining 14,2%ini tashkil etadi. Jumladan, eksportdagi o'sish 18,2%, importda esa 13,8%ni tashkil etadi [4. –B. 337]. Markaziy Osiyoning qolgan mamlakatlari ham o'zaro savdoning rivoji uchun O'zbekiston kabi tashabbuskorlik ko'rsatishi kerak. Chunki rivojlanishning ma'lum bosqichiga kelganda bu jarayonni sekinlashtirish uchun gigant davlatlar va ayrim xalqaro tashkilotlar tomonidan sanksiyalarga duch kelish xavfi doimo mavjud. Ushbu ehtimol sodir bo'lgan taqdirda milliy iqtisodiyotlardagi talafotni minimallashtirish uchun Markaziy Osiyoning o'zaro savdo aloqalari yechim bo'lib xizmat qiladi.

Birlik yo'lida asosiy tashabbuskorlardan bo'lgan yurtimiz bu borada 2018-yil 15-martdagi Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining 1-maslahat uchrashuvida oldinga yana bir qadam tashladi:



Qirg'iziston bilan chegaralarning 85%i bo'yicha kelishuvga erishildi. Shuningdek, Qozog'iston va Turkmaniston bilan chegaralarimizning tutashgan nuqtasi hududida shartnoma imzolandi.

Birlikni ta'minlovchi yana bir jihat resurslar xilma-xilligidir. Ya'ni Qozog'iston neft, gaz va rangli metallar eksporti bo'yicha yetakchi bo'lsa, O'zbekiston mehnat resurslari, sanoat va qishloq xo'jaligida salohiyatga ega. Tojikiston va Qirg'iziston suv-energetika resurslariga boy, Turkmaniston esa gaz eksporti hisobiga asosiy daromad topadi [5. –B. 256]. Bu xilma-xillik strategik ravishda, uzoqni ko'zlab uyg'unlashtirilsa, Markaziy Osiyoda resurslar masalasida hech bir davlatga qaram bo'lmagan qudratli birlashma vujudga keladi.

Energetika sohasidagi imkoniyatlarga nazar tashlasak, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston tabiiy gaz va neftni eksport qiluvchi davlatlar sanalsa, Qirg'iziston va Tojikiston gidroenergetika salohiyatiga ega [6. –B. 257]. Ekologik muammolar avj olib borayotgan, yoqilg'i resurslarining zaxiralari kamayib borayotgan bir davrda Qirg'iziston va Tojikistonning gidroenergetika salohiyatidan unumli foydalanish butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

O'zaro hamkorlik yo'lga qo'yilgan sohalardan yana biri xavfsizlikdir. Bu sohadagi hamkorlik asosan terrorizm, narkotrafik va chegaraviy xavfsizlik masalalarida amalga oshirilmoqda. Yaqin o'tmishda ham jiddiy muammo sanalgan Afg'oniston masalasi barcha Markaziy Osiyo davlatlarini xavfsizlik masalasidagi barqaror hamkorlikni amalga oshirishga undagan. Jumladan, Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida maxsus amaliyotlar o'tkazilmoqda va 2023-yilda "Issiq-Ko'l-Antiterror-2023" mashqlari Qirg'izistonda o'tkazildi [7. –B. 317].

Markaziy Osiyoda birlik g'oyasi xali hech bir harakat amalga oshirilmagan, yangi g'oya hisoblanmaydi, u tarixiy ildizlarga ega. Shu bilan birga to'liq tugallangan jarayon ham emas, bu borada ko'p ishlar qilishga to'g'ri keladi.

Xulosa: Yuqorida Markaziy Osiyoda birlikka asos, poydevor bo'lishi mumkin bo'lgan turli sohalarga e'tibor qaratdik. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, birdamlik masalasi allaqachon ko'tarilgan va ayrim qadamlar ham tashlangan. Lekin bu xali yetarli emas va qilinishi kerak bo'lgan ko'p ishlar bor. Agar biz Markaziy Osiyoning yagona birlik sifatida namoyon bo'lishini xohlasak, bunga erishish yo'lida qator murakkab bosqichlardan o'tishimizga to'g'ri keladi. Bu yuqorida ta'kidlanganidek, avvalo, gigant davlatlarning turli darajadagi va turli usullardagi siyosiy bosimlarida namoyon bo'lish ehtimoli bor. Bunday jarayonlarga qarshi mardonavor kurasha olish uchun 5 ta respublika orasida o'zaro mas'uliyatlilik xissi bo'lishi kerak. Agar Markaziy Osiyo yagona bozor, yagona pul birlik, yagona moliya va yagona xavfsizlik tizimlariga birlasha olsa, mintaq har qanday tashqi ta'sirlardan o'zini himoya qila oladi. Birdamlik kelajak uchun ham muhim. Chunki agar 5 ta davlatning har biri alohida rivojlanish yo'lidan ketadigan bo'lsa, ma'lum bosqichga yetganda u yoki bu resurslar yetishmovchiligi vujudga keladi, bu esa rivojlanish tendensiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birlik esa, aksincha, xilma-xil resurslarning birlashishi va umumiy rivojlanishning jadallashishiga olib keladi.

Shunday ekan, Markaziy Osiyoda birlik masalasi bugun har qachongidan ham ahamiyatlidir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdimuminov O. Markaziy Osiyoda ko'p tomonlama munosabatlar: tarixiy yondashuvlar, siyosiy va iqtisodiy integratsiya // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari. -2025. -№5. –B. 18.
2. Eshmaxmatov U. Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida mintaqaviy iqtisodiy integratsiya imkoniyatlari // Ilm-fan xabarnomasi. -2025. №10. –B. 256, 257.
3. Fozilov S. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik: imkoniyatlar va cheklovlar // Ilm-fan xabarnomasi. -2025. -№9. –B. 317.

4. Ismoilova M. Mintaqaviy integratsiya Markaziy Osiyo davlatlarining birgalikdagi rivojlanishi uchun kuchli poydevordir // Journal of innovations scientific and educational research. -2025. -№6. –B. 337.
5. Турсунбоева Н. Марказий Осиёнинг бирдамлиги сиёсати: минтақада барқарорликни таъминлашда Ўзбекистон омили // Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. -2025. –B. 137-138.
6. Sharoxmatov A. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. -2025. -№4. –B. 1680.

Rafiqova Gulnoza Valijonovna

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) katta o'qituvchi
Namangan davlat pedagogika instituti

O‘ZBEKISTON VA TURKMANISTON MUNOSABATLARINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston va Turkmaniston o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning siyosiy-huquqiy asoslari tahlil qilingan. Maqolada mustaqillik yillaridan buyon ikki davlat o‘rtasida shakllangan huquqiy bazaning mazmun-mohiyati, o‘zaro do‘stlik, hamkorlik va strategik sheriklikka oid shartnomalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, 1993–2025 yillar davomida amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar, imzolangan 300 dan ortiq davlatlararo, hukumatlararo va idoralararo hujjatlar tahlil etilib, ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirishdagi roli ochib berilgan. 2020–2025 yillardagi yangi bosqich — erkin savdo, energetika xavfsizligi, transport va tranzit yo‘nalishlaridagi hamkorlikning kuchayishi maqolada alohida ta’kidlangan. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston–Turkmaniston munosabatlarining huquqiy asoslarini chuqur o‘rganish hamda ularning mintaqaviy barqarorlik va integratsiyadagi o‘rnini belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Turkmaniston, siyosiy-huquqiy asoslar, ikki tomonlama hamkorlik, strategik sheriklik, xalqaro shartnoma, do‘stlik munosabatlari, erkin savdo, transport va tranzit, energetika xavfsizligi, mintaqaviy barqarorlik.

Abstract: The article provides a scholarly analysis of the political and legal foundations of bilateral relations between Uzbekistan and Turkmenistan. The author examines the legal framework established since the early years of independence, as well as the content and significance of international treaties that have strengthened strategic partnership and friendly relations between the two countries. In particular, the study analyzes over 300 intergovernmental, interagency, and interstate agreements signed between 1993 and 2025, as well as high-level visits that have contributed to cooperation in political, economic, and cultural-humanitarian spheres. The period of 2020–2025 is highlighted as a new stage marked by the intensification of collaboration in free trade, energy security, and transport and transit connectivity. The findings of the research contribute to a deeper understanding of the legal foundations of Uzbekistan–Turkmenistan relations and determine their role in promoting regional stability and integration.

Keywords: Uzbekistan, Turkmenistan, political and legal foundations, bilateral cooperation, strategic partnership, international treaty, friendly relations, free trade, transport and transit, energy security, regional stability.



Kirish: Mustaqillik yillaridan keyin Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar o'rtasida yangi siyosiy va huquqiy munosabatlar tizimi shakllandi. Shu jarayonda O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari o'zaro do'stlik va yaxshi qo'shniçilik tamoyillariga asoslangan hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Ikki mamlakat munosabatlari umumiy tarixiy, madaniy va ma'naviy ildizlarga tayanadi hamda mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbuslari bilan Turkmaniston bilan munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilib, strategik sheriklik darajasiga yetdi. Bu jarayonda ikki tomonlama huquqiy baza shakllanishi, davlatlararo va hukumatlararo shartnomalarning mazmun-mohiyatini o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar: O'zbekiston va Turkmanistonning ikki tomonlama munosabatlarining huquqiy asoslari BMT, MDH, YEXHT kabi xalqaro tashkilotlarning hujjatlari, xalqaro huquq va umume'tirof etilgan meyorlar hamda ikki va ko'p tomonlama imzolangan hujjatlarga asoslanadi. Bugungi kunga kelib, dunyo tartibotining yangidan shakllanishi sharoitida ikkala davlat tashqi siyosiy manfaatlari, ularning ustuvor yo'nalishlari borasidagi hamkorlik aloqalari mustahkamlanib bormoqda. Mustahkam va uzoq davom etadigan hamkorlik avvalo ularni tartibga solib turuvchi huquqiy asos bo'lishini taqozo etadi. 1993 yil 7 yanvarda o'zaro diplomatik munosabatlar o'rnatilganidan buyon o'tgan davr mobaynida ikki davlat rahbarlari tomonidan 25 ta oliy darajadagi o'zaro tashriflar amalga oshirilgan bo'lib, shundan Turkmaniston prezidentining O'zbekistonga 17 ta tashrifi: -1996, 2004, 2008 (2 ta tashrif), 2009, 2010, 2011, 2013 2015 yillarda (2 ta tashrif), 2016 va 2018 yillarda (2 ta tashrif), 2019, 2021, 2022, 2023, 2025 yil 3 aprelda (5 ta tashrif) O'zbekiston Prezidentining Turkmanistonga 17 ta tashrifi: - 1996, 2000, 2007, 2009, 2010, (2 ta tashrif) 2012 2014, 2015 va 2017, 2018 yillarda (3 ta tashrif), 2019, 2021, 2022, 2023 yillarda (4 ta tashrif) amalga oshirilgan. Ushbu tashriflar davomida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy bazasini tashkil etuvchi 300 dan ortiq hujjatlar davlatlararo va xukumatlararo, idoralararo xarakterdagi, siyosiy sohada, savdoiqtisodiy sohada, ijtimoiy va ilmiy-texnikaviy sohalarda, transport sohasida, harbiy-texnika sohasida, soliq qonunchiligi va huquqiy munosabatlarga oid va boshqa sohalar bo'yicha hamkorlikka oid – 50 dan ortiq shartnomalar qamrab oladi[1]. Ushbu meyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi natijasida ikki tomonlama munosabatlarning siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, moliya-kredit va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik ko'lami tobora kengayib bormoqda. Yuqorida keltirilgan hujjatlar orasida ikki tomonlama aloqalarda fundamental ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillarni belgilab beruvchi va tartibga soluvchi quyidagi hujjatlarni alohida qayd etish mumkin: - 1996 yil 16 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnoma; - 2004 yil 19 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida do'stlik, ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida shartnoma; - 2007 yil 18 oktabrdagi Do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risida shartnoma; - 2012 yil 2 oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi bilan Turkmaniston o'rtasida 2013-2017 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnoma; - 2017 yil mart oyida imzolangan "Strategik sherikçilik to'g'risidagi" shartnoma; - 2018-2020 yillarga mo'ljallangan transport sohasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum; - 2019-2021 yillarga mo'ljallangan ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risida hukumatlararo dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi[2]. Jumladan, ikki davlat munosabatlarini huquqiy asosini belgilovchi "Do'stlik, ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish to'g'risida"gi Shartnomaning 1-moddasida: "Yuqori shartlashuvchi tomonlar suverenitetni, mustaqillikni va hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, ichki ishlarga aralashmaslik, o'zaro ishonç va ochiqlik, teng huquqlilik va birbirining manfaatlarini hisobga olish, o'zaro manfaatli hamkorlik va davlatlararo munosabatlarni XXI asrda rivojlantirish uchun asos bo'lishiga



kelishib olindi. Bu kontekstda tomonlar o'z munosabatlarini do'stona davlatlardek rivojlantiradi"-deya qayd etilgan. Shartnomaning 1-moddasida keltirilgan fikrlar, ikki davlatni o'zaro munosabatlarga kirishishda ma'lum majburiyatlarni bajarishi va bunga ikki tomon ham huquqiy hujjat asosida kelishib olganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, shartnomaning 8-moddasida: "Yuqori ahdlashuvchi tomonlar ikki tomonlama aloqalarda ko'ptomonlama hamkorlik va o'zaro munosabatlarni yangi sifatli bosqichga ko'tarish maqsadida, uzoq muddatli siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy, hamda ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytiradilar [3]" – deya ta'kidlangan. Yuqorida keltirilgan fikrlar tahlil qilinadigan bo'lsa, ushbu shartnomalar, hamkorlikdagi dasturlar, memorandumlar shaklida O'zbekiston-Turkmaniston o'rtasida turli sohalaridagi hamkorlikni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. 2007 yilda G.Berdimuhamedovning Turkmaniston Respublikasi prezidenti etib saylanishi bilan birga o'zbek-turman aloqalarida sezilarli ijobiy o'zgarishlar ham kuzatiladi. 2007 yil 18-19 oktabr kunlari O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimovning Turkmanistonga davlat tashrifi davomida ikki davlat rahbarlari "Iqtisodiy hamkorlik to'g'risida"gi davlatlararo shartnomani, "Do'stona munosabatlar va har tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash to'g'risida"gi davlatlararo shartnomani, "O'zbekiston-Turkmaniston qo'shma bayonoti"ni imzolashgan. Bundan tashqari 2011 yilda "Savdo vakolatxonalarini o'zaro ta'sis etish to'g'risida"gi hukumatlararo bitimning imzolangani mintaqaviy sheriklikning rivojlanishida juda muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, 2013 yilning 11 noyabr kuni Ashxobod shahrida ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari delegatsiyalarining siyosiy maslahatlashuvi bo'lib o'tdi. Turkmaniston Vazirlar mahkamasi raisi o'rinbosari va Tashqi ishlar vaziri bilan bo'lib o'tgan muzokarada o'zbek-turkman munosabatlarining o'sha paytdagi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, xalqaro hamda mintaqaviy masalalar atroflicha muhokama qilindi.

Bundan tashqari, mazkur uchrashuv chog'ida O'zbekiston, Turkmaniston, Eron, Omon va Qatar o'rtasida transport-tranzit yo'lagini shakllantirish loyihasini amalga oshirish masalalari ham ko'rib chiqilgan. 2013 yil 26 noyabrida Turkmaniston prezidenti G.Berdimuhamedovning O'zbekiston Respublikasiga amalga oshirilgan rasmiy tashrifi davomida mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy gumanitar, transport-kommunikatsiya sohalarida izchil rivojlanib borayotganligi alohida qayd etildi. Turkmaniston rahbarining ushbu tashrifi o'zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlik, yaxshi qo'shnichilik tamoyillariga asoslangan ikki tomonlama munosabatlarga yangi sur'at baxsh etishi ta'kidlandi[4]. Shu bilan birgalikda, transchegaraviy daryolarda gidroenergetika inshootlari qurish masalalariga BMTning transchegaraviy daryolardan foydalanishga oid konvensiyalari talablariga rioya qilgan holda yondashish lozimligi qayd etildi. Muzokaralarda ikki davlat rahbarlarining Qo'shma bayonotni imzolandi. Bundan tashqari ushbu uchrashuvda ikki davlat hukumatlari o'rtasida Madaniy-gumanitar sohada 2014-2016 yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, Jinoiy yo'l bilan ortirilgan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, ikki mamlakatning kimyo sanoati va turizm kompaniyalari, axborot agentliklari, tovar-xomashyo birjalari o'rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan qator hujjatlar imzolangan[5]. 2018 yili bosh vazir o'rinbosarlari darajasidagi 10 ta tashriflar bo'lib o'tgan, Hukumatlararo komissiya va Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2018 yilning 11 noyabr kuni Ashxobodda O'zbekiston-Turkmaniston milliy sanoat ko'rgazmalarining ikkinchi yig'ilishi va ikki marotaba Ommaviy axborot vositalari o'rtasida konsultatsiyalar tashkil kilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Buxoro va Xorazm viloyatlari rahbarlari Turkmanistonning Dashovuz va Lebop viloyatlariga ikki marotaba tashrif buyurishdi. Hukumat a'zolari Turkmaniston va xorijiy kompaniyalarning turli tuzilmalari bilan



birgalikda 72 ta uchrashuvlar tashkil etildi. O'zbekistondan Turkmanistonga 55 ta delegatsiya tashkil etildi. Ikki davlat vakillari tomonidan 22 ta tadbir, xususan, brifinglar, taqdimotlar, ko'rgazmalar tashkil kilindi. Shuningdek, 2018 yil 9-10 aprel kunlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining o'rinbosari A.Abduvohitov boshchiligidagi O'zbekiston delegatsiyasi Ashhabodda tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar o'tkazdi. Ushbu tadbir davomida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va o'zaro manfaatli boshqa sohalarida ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirishning bugungi holati va istiqbollarini tahlil qildilar. O'z navbatida 2017-18 yillar davomida Turkmaniston davlatining 48 ta delegatsiyasi O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdi. Mazkur uchrashuvlar va muzokaralar chog'ida tomonlar O'zbekiston bilan Turkmaniston o'rtasidagi barcha sohalarida hamkorlik darajasini sifat jixatidan yangi bosqichga chiqarish va xalqaro tashkilotlar doirasida bir-birlarining tashabbuslarini qo'llab kuvvatlash borasida kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va Turkmaniston Respublikasining Medjlisi o'rtasida Parlamentlararo do'stlik guruhining tarkibi shakllantirildi. Shuningdek, Ashxobod va Toshkent Afg'onistondagi nobarqaror vaziyatni barqarorlashtirish, transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, transchegaraviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish uchun kuchlarni birlashtirish va Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish masallari bo'yicha qarashlarining bir-xil ekanligini ta'kidlab kelmoqdalar. 2017 yil sentabrida BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan va 2018 yil 12 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ma'qullangan "Ma'naviyat va diniy bag'rikenglik", rezolyutsiyasini Turkmaniston tomoni ham qo'llab-kuvvatlagan edi. 2018 yilda O'zbekiston va Turkmanistonning qo'shni viloyatlari o'rtasida mintaqaviy hamkorlik yanada kuchayib, 14-16 avgust kunlari Xorazm va Buxoro viloyatlarining xokimlari F.Ermanov va O'.Barnoyev boshchiligidagi Turkmanistonning Lebop va Dashovuz viloyatlarida o'zaro ikki tomonning qo'shni viloyat xokimlari o'rtasida ishchi uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Ushbu tashrif davomida ikki mamlakat tadbirkorlarining ko'rgazmasini tashkil etish va O'zbekiston hamda Turkmanistondagi san'at ustalari ishtirokida tor doiradagi va kengaytirilgan formatda o'zbek-turkman mintaqaviy biznesforumlari bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, Davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha komissiyaning faol ishi davom ettirildi, unda davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo'yicha O'zbekiston-Turkmaniston hukumatlararo qo'shma komissiyasining ishchi guruhlarining 8 ta yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yuqoridagilardan tashqari, ikki davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi uchrashuvlar tashkil qilindi. Jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 6-7 mart kunlari ilk xorijiy davlat tashrifi bilan Turkmanistonda bo'ldi. 2018 yil 23-24 aprel kunlari Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga tashrif buyurdi. Oliy darajada bo'lib o'tgan mazkur uchrashuvlarda o'zbek-turkman hamkorligi rivojiga alohida urg'u berildi va barcha sohada uzoq muddatli strategik istiqbol uchun yangi konstruktiv asoslar yaratildi. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi yaxshi qo'shnihilik aloqalarining mustahkamlanishi strategik ahamiyat kasb etadi. Turkmaniston rahbarining ta'kidlaganidek, "Do'stlik, yaxshi qo'shnihilik, yaqin savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlik, tashqi siyosiy masalalarda o'zaro anglashuv nafaqat xalqlarimiz manfaatlariga xizmat qiladi, balki Markaziy Osiyo va uning tashqarisida ham xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda asosiy omil bo'ladi"[6]. Mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash o'zbek-turkman hamkorligida alohida ahamiyat kasb etib, mazkur masalada mamlakatlarimizning yondashuvi o'zgaras va izchildir. O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini yanada mustahkamlash, o'zaro mafaatlarni e'tiborga olgan holda Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorligini ta'minlash hamda rivojlanishning shaffof va samarali mexanizmlarini



yaratish zarur. Bu borada qo'shni Afg'onistondagi muammolarni bartaraf etishda ikki davlatning ham yondashuvi bir xil bo'lib, vaziyatni barqarorlashtirishning birdan bir yo'li tinch, siyosiy vositalar asosida umummilliy muloqot o'tkazishdan iborat. Tinchlik va xavfsizlik masalalaridan tashqari mamlakatlarimiz kun tartibidagi muhim masalalar – barqaror taraqqiyot, uning tarkibiy qismi bo'lmish energetika xavfsizligi, halqaro transport-tranzit aloqalari, ekologiya va atrof-muhit muhofazasida ham hamkorlik qilishga e'tibor qaratildi. Transport sohasi ham ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. O'zbekiston hududi orqali Turkmanistonga, Turkmaniston hududi orqali O'zbekistonga yuk tashiladi. Mamlakatlarimizning o'zaro integratsiyalashgan avtomobil va temir yo'llari uchinchi davlatlar uchun ham tranzit vazifasini o'tamoqda. Transport sohasida Markaziy Osiyo, Yevropa, Yaqin Sharq transport tizimini birlashtirishni ta'minlovchi kuchli va zamonaviy infratuzilma yaratish ustida hamkorlik davom etmoqda. Shuningdek, ikki davlat rahbarlari Afg'onistonda harbiy kuch ishlatish yo'li bilan tinchlik o'rnatib bo'lmashligini yana bir bor ta'kidladilar. Qayd etish joizki, o'zaro ikki tomonlama do'stona muloqot davomida O'zbekiston va Turkmaniston mintaqaviy xavfsizlik hamda barqarorlikni mustahkamlash, terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, transmilliy uyushgan jinoyatchilik hamda xalqaro havfsizlikka tahdid soladigan boshqa xavf-xatarlarga qarshi kurashishdagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurligi qayd etildi. Ikki mamlakat oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida imzolangan kelishuvlarga muvofiq, o'zaro savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va sarmoyaviy hamkorlikni izchil rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi.

Shuningdek, ushbu rasmiy tashrif davomida ikki tomonlama hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transportkommunikatsiya, ta'lim va sport sohalarida yanada mustahkamlashga va o'zaro aloqalarni izchil rivojlantirishga doir 17 ta xujjat imzolangan. Xususan, “2018-2020 yillarga mo'ljallangan transport sohasidagi hamkorlik to'g'risi”da hamda “2019-2021 yillarga mo'ljallangan ilmiytexnikaviy hamkorlik to'g'risi”da hukumatlararo dasturlar, “O'zbekiston va Turkmanistonda savdo uylarini tashkil etish, ikki mamlakat Savdo-sanoat palatalari o'rtasida ishbilarmonlar kengashi tashkil etish to'g'risi”da bitimlar hamda O'zbekiston va Turkmaniston Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida “2019 yilga mo'ljallangan hamkorlik dasturi” imzolandi. Bundan tashqari, ikki tomonlama hamkorlikni qishloq xo'jaligi, yoshlar, xotin-qizlar masalalari, fan-texnika, kasaba uyushmalari va boshqa sohalarida yanada mustahkamlashga oid hujjatlar qabul qilindi. O'simliklar karantini sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, ikki davlat kasaba uyushmalari va xotin-qizlar qo'mitasi o'rtasida Anglashuv memorandumini shular jumlasidandir[7]. Shuningdek, tashrif doirasida oliy o'quv yurtlari o'rtasida va axborotkommunikatsiya sohalariga oid 15 ta hujjat imzolandi.

Bugungi kunda, ikki davlat o'rtasida hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun davlat rahbarlari va hukumatlararo tashriflarni amalga oshirish keng yo'lga qo'yilgan. Ushbu tashriflar davomida siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalaridagi aloqalarni kengaytirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. Shu jihatdan, istiqbolda O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro manfaatli davom etishi uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjud. 2020–2025 yillar mobaynida O'zbekiston va Turkmaniston siyosiy aloqalarni faollashtirib, savdo-iqtisodiy va transport-energetika sohalarida qat'iy cheklardan o'tgan va bir qator strategik tadbirlar, gaz shartnomalari, yo'l xaritalari va erkin savdo rejimiga qadar yutuqlarga erishdi (keyinchalik ular 2025 yilda amalga kirdi). 2021 yil eng katta voqealardan biri Turkmaniston prezidenti Gurbanguli Berdimuxamedov va O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev uchrashuvi, Toshkentda bir nechta muhim hujjatlarni imzolash (jami 23 ta hujjat) transport, energetika, suvni tejash texnologiyalari, savdo va boshqa sohalarini qamrab oldi. Bu tashabbuslar ikki davlat munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi.



2022 yil iyulda Turkmaniston prezidentining O'zbekistonga tashrifi va siyosiy-huquqiy deklaratsiyalar; strategik sheriklik haqidagi bayonotlar imzolandi. Shu bilan bir qatorda energetika va mintaqaviy logistika mavzulari ustuvor bo'ldi. 2023 yili o'zaro hamkorlik yo'l xaritasi (road map) tuzildi — 2023–2024 yillar uchun amaliy rejalar, hududiy savdo-logistika va investitsiya kabi masalalarni qamrab oldi. Bu muhim — rejalar amalga oshirilganda savdo va tranzitni osonlashtiradi.

2024 yilda yuksak darajadagi muzokaralar davom etdi; 16 iyul 2024 da Toshkentda quyidagi yangi shartnomalar imzolandi. Bu davrda kelgusi yillarga mos ravishda erkin savdo va tariflar to'g'risidagi kelishuvlar muhokama qilindi. 2024 — 2025 eng muhim natijalar Turkmanistondan O'zbekistonga gaz ta'minoti bo'yicha shartnomalar: 2022 dekabrda to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzilishi boshlandi, Energetika maqsadlari va tranzit liniyalari siyosatning markazida turdi. 2025 boshida tashqi ishlar vazirliklari yoki rahbariyatlar tomonidan yangi Hamkorlik dasturi Cooperation Program ishlab chiqildi va imzolandi, bu ikki tomonlama siyosatni ancha tizimlashtirdi. 2025 yilning boshidan mart-aprel oylarigacha yangi erkin savdo rejimi free trade protokol hayotga kirishi yoki unga tayyorgarlik ko'rilishi haqida rasmiy xabarlar paydo bo'ldi - bu ikki tomonlama savdo trafigini sezilarli oshirish imkonini beradi. Muhim yo'nalishlar Energetika gaz va energetik xavfsizlik — Turkmaniston tabiiy gaz manbalari, O'zbekiston esa bu resursga yondosh, shu bois fikrlashuvlar va shartnomalar siyosiy-iqtisodiy munosabatlarda markaziy o'ringa aylandi. Transport va tranzit (koridorlar, temir yo'l, avto yo'l va portlar hamkorligi) -mintaqaviy tranzitni rivojlantirish, yo'l xaritalari va logistika dasturlari e'lon qilindi. Savdo-iqtisodiy integratsiya - erkin savdo protokollari 2024–2025 - bu tovarlarning kundalik harakatini yengillashtiradi va ikki tomonlama tovar aylanmasini oshiradi.

2020–2025 davrida ikki mamlakat munosabatlari «konstruktiv tizimlashuv» bosqichiga o'tdi: shunchaki bir martagi tashriflar emas, balki yilma-yil amaliy hujjatlar, yo'l xaritalari va energetika savdo shartnomalariga erishildi. Bu - mintaqaviy barqarorlik va hamkorlik uchun ushbu ikki davlatning o'zaro manfaatlarga asoslangan strategiyasini ko'rsatadi.

Xulosa: O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi o'ttiz yil ichida uzluksiz rivojlanib, strategik sheriklik darajasiga yetdi. Huquqiy baza va siyosiy muloqotning izchilligi, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi hamkorlikning kengayishi ikki davlat manfaatlariga xizmat qilmoqda. 2020–2025 yillardagi yangi bosqichda erkin savdo, energetika xavfsizligi, transport va tranzit yo'nalishlaridagi hamkorlik mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan, O'zbekiston–Turkmaniston munosabatlarning siyosiy-huquqiy asoslarini chuqur o'rganish nafaqat ikki davlat uchun, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun ham integratsiya va barqaror taraqqiyotni ta'minlashning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi rasmiy saytining hamkorlik bo'limi. 2015 yil fevral. // <http://www.mfa.uz>.
2. Сотрудничество Республики Узбекистан со странами СНГ // <http://www.mfa.uz/ru/>
3. 2004 yil 19 noyabrda imzolangan Ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish, do'stlik haqidagi shartnoma matni
4. O'zbekiston-Turkmaniston: Yaxshi qo'shnihilik munosabatlari ko'lami kengaymoqda // <http://www.oldxs.uz/jahon>
5. Turkmaniston betaraflik kuni. munosabat/item2013.12.10/485- <http://sharh.uz/>



6. Turkmaniston Respublikasi Prezidenti Gurbanguli Berdimuxamedovning 2017 yil 6-7 mart kunlari O'zbekiston va Turkmaniston Respublikasi Prezidentlarining Ashxoboddagi rasmiy uchrashuvida so'zlagan nutqidan. //www.mfa.uz.
7. O'zbekiston-Turkmaniston: Hamkorligining yangi bosqichi //http://www.ddsmfa.uz.



4-SHO'BA. RAQAMLI JAMIYATDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATI TRANSFORMATSIYASI

Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Namangan davlat universitet dotsenti

ORCID ID: 0000-0001-6026-2262

Scopus ID: 58408135100

TOLERANTLIK QADRIYATI TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: Globallashayotgan jamiyat taraqqiyotida yoshlar fe'l-atvori, maqsad-mo'ljali va ehtiyojlarini transformatsiya predmetiga aylanayotgani xaqida muallif ifodalagan. Maqolada istemolchilik jamiyati yoshlarida musiqa, kino, teatr, opera, balet, muzey, galereya, hazil-mutoiba, askiya san'ati, mutolaa, kiyinish, so'zlashish, yozish, axborot madaniyati, milliy an'anaviy o'yin va sportni transformatsiya jarayonlarini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, tolerantlik, globallashuv, qadriyatlar, transformatsiya, ta'lim-tarbiya, tahdid.

Abstract: The author expresses the fact that in the development of a globalizing society, the character, goals and needs of young people are becoming the subject of transformation. The article cites the transformation processes of music, cinema, theater, opera, ballet, museums, galleries, humor, art of asking, reading, dressing, speaking, writing, information culture, national traditional games and sports among the youth of a consumer society.

Keywords: Youth, tolerance, globalization, values, transformation, education, threat.

Kirish

Bugun dunyoning larzaga solib islohiy o'zgarayotgan pandemiya davrida mamlakatimiz hayotiga barqarorlik va xalqning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan yoshlar orasida turli xil yangi tahdid va xavflar ijtimoiylashayotgani bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhim ekanligi ko'rsatmoqda. Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immun muhitini shakllantirish masalani muximligini ko'rsatadi.

Shu boisdan O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoev yoshlarning tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, "Bugungi globallashuv sharoitida har qanday davlat va jamiyatning asosini tashkil etadigan asl va fundamental qadriyatlarni unutmasligimiz lozim. O'sib kelayotgan avlod aynan oilada ma'naviy-axloqiy tarbiya oladi, mas'uliyatli bo'lishni va loqayd bo'lmaslikni o'rganadi"- takidlagan edi [1, B. 331].

Ma'naviy hayotda aksiologik ong inson tajribasi, muayyan voqea, jarayon va hodisalarni baholash asosida shakllanadi. Muayyan madaniyat tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar ijtimoiylashuv jarayonida bevosita o'zlashtiriladi [2. C.86].

Jamiyati taraqqiyotida yoshlar ehtiyojini ortib, globallashayotgan jamiyatda predmeti sifatida yoshlar extiyoji biznesning alohida shakliga aylandi. Istemolchilik jamiyatida yoshlar extiyoji



iste'mol qilishga, boylikka, pulga bo'lgan extiyojni ortishi bugungi tal'im-tarbiyaga extiyojmand bo'lib turgan jamiyatni transformatsiyalashuvini kuzatishimiz mumkin.

Mamlakatimiz aholisining salmog'ida yoshlar ulushining yuqoriligi ta'lim-tarbiyadagi davlat siyosati xar qachongidan ham muhimligini ko'rsatadi. Globallashuv «Ommaviy madaniyat» niqobi ostida ommaviy tarbiya ko'rinishidagi turli xil tahdidlarni yoshlar fe'l-atvori va tabiatida yangi qadriyatlar sifatida shakllanishini ko'rishimiz mumkin.

Shaxs xayotida qadriyatlar muhim bo'g'inlaridan birini tashkil etib, shaxsni ma'naviy rivoj yo'nalishini belgilab beradi. Qadriyatlar o'z tabiatiga ko'ra ob'ektiv-subektiv bo'lib, bir tomondan, qadriyat tizimlari muayyan sotsium, jamiyat sharoitida shakllanadi, ikkinchi tomondan, shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida qadriyatlarning o'zlashtirilishi uni insonga aylantiradi [3, C. 166].

Yoshlarda axborotga bo'lgan munosabatni shiddatkorligi ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizga sadoqat, o'zligimizni saqlab qolishga ehtiyojni ikki barobar ortirmoqda. Yoshlarni extiyojlarini orasida internetni faollashib ketishi onlaynlashuv predmetini keltirib chiqardi. Ijtimoiy tajriba onlaynlashuv yoshlar fel-atvorida milliy qadriyatlarga nisbatan begonalashuv, xudbinlashuv jarayonini o'sish ko'rsatkichlarini tasdiqlamoqda. Begonalashuv - shaxsning ijtimoiy – iqtisodiy hayotini qulaylashtirishga intilish natijasida o'zi uchun qadrli bo'lgan narsa-buyum, jarayon, kimsalarga munosabatida ma'naviy qiymatning ruhiy o'zgalashuvi holatini sodir bo'lishidir.

Tahlil va natijalar

«Tolarantlik transformatsiyasi» - shaxs yoki ijtimoiy guruhning tolarantlik haqidagi qarashlari, qadriyatlari va xulq-atvor me'yorlarining zamonaviy iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy va raqamli axborot muhiti ta'sirida yangicha shakllanishi va rivojlanish jarayonidir.

«Yoshlarda tolerantlik transformatsiyasi» - Yoshlarning raqamli murakkab axborot muhitda iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy xilma-xillik sharoitida sabr-toqatlik, chidamlilik, bosiqlik, bag'rikeng munosabatlarni qayta anglashi va hayotga tatbiq etishi jarayonidir.

«Qadriyat transformatsiya» - halq ma'naviyatida yashab kelayotgan necha ming yillik qadriyatlarni o'rniga zamonaviy, zarracha badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan «Ommaviy qadriyat»ni ko'chirib o'tkazishdir.

Yoshlarda axborotga bo'lgan munosabatning shiddatkorligi ma'naviy-madaniy qadriyatlarga sadoqat, qadriyatlarimizni saqlab qolish ehtiyojini bugungi kunda ikki barobar ortirmoqda. O'zbek halqining boy madaniy merosi unutilib, engil-elpi, mazmunsiz, soxtalashgan sanat mahsulotlari yoshlar orasida "urf" bo'lishi ilmiy jamoatchilikni xavotirga solmoqda. Istemolchilar jamiyatida yoshlar tomonidan har qanday axborotni video-rolik shaklida YouTube, Tik-Tok, Instagram, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi bilan shaxs daxlsizligi, inson, oila, jamiyat, davlat sha'ni va qadr-qimmatiga jiddiy salbiy ta'sirini ko'rish mumkin.

Sotsiologik tahlillarimizda, yoshlar hayotidagi transformatsiya bo'layotgan qadriyatlarni ustuvorligi bo'yicha ierarxik aniqladik:

- oila
- ish
- do'stlar, tanishlar
- bo'sh vaqt
- din
- siyosat

Globallashuv, axborot texnologiyalarining beqiyos o'sishi sharoitida yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ma'rifatining ortda qolishi tufayli ijtimoiy munosabatlarda qadriyatlarning qadrsizlanishi, odat va ananalarning o'zgarishi bilan tarbiyani samarasiga ijtimoiy muhitning salbiy ta'siri



kuzatilmogda. Moziyga qaytib ish ko'rishning zaruriyati tarix saboqlari, milliy qadriyat va an'analarda jamiyat taraqqiyotining muhim elementlarini ko'rishga imkon beradi [4, B.284].

Yoshlarni xayotida oiladan tashqari o'tkinchi tarbiyaviy jarayonlarni qadriyatga aylanishi va ana shu qadriyat bilan ko'p vaqtini o'tkazish natijasida oilaviy qadriyatlarni ahamiyatini tushishi, oila qadriyatiga begonalashuv jarayoni ommaviy tarbiyani keltirib chiqardi. Shu o'rinda, yoshlar fe'l-atvorida yangi «Ommaviy tarbiya*» shakllanib, zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyotining ijtimoiy-ruhiy muhitiga globallashuv ta'sirining ifodasi deb hisoblaymiz.

OAV orasida Internet va mobil aloqalardagi yangi imkoniyatlar yoshlar ma'naviyatida qadriyat transformatsiyasiga keltirib chiqarmoda. Axborot resurslaridagi «**ommaviy qadriyatlar***» ko'p hollarda yoshlarimiz o'zligining milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirib, yoshlarda vulgar modalashgan kiyinish, insonni kuchli emotsiyaga olib boruvchi jarayonlar maylning ortishi hayot mazmuniga aylanishi tufayli bo'sh vaqtni mazmunsizligi, nafis didni dag'allashuvi ostida **kitch-did***ning shakllanishi yoshlarda milliy qadriyatlarga munosabatni o'zgarishi bilan dalillaymiz. Bu hol behayolik va zo'ravonlik, notabiiylik, andozasizlik, madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik, millat va uning ma'naviy qadriyatlariga bepisandlik bilan ijtimoiy manfaatlarga daxl qiluvchi holatni tug'diradi. Yoshlarda ijtimoiy-madaniy ornament – belgilarini transformatsiyasi ma'naviyat, qadriyatlariga nisbatan begonalashtirmokda.

Biz, yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha transformatsiya jarayonining shartli ravishda quyidagicha ijtimoiy tahlillashtirish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Jamiyat hayotini laxzada o'zgarish inson extiyojlariga ham ta'sirini chetlab o'tgani yo'q, yoshlarni musiqaga bo'lgan extiyojini transformatsiya jarayonlarida kuzatishimiz mumkin. Zamondan-zamonga o'tib insonlarni ruhan-ma'nan ozuqa berib kelayotgan milliy-klassik musiqa janrlarimizni yoshlar tomonidan murojaatlari jiddiy qisqarishini g'arb mamlakatlarida yaratilgan quloqni qomatga keltiruvchi rok yoki asl san'at asarini qayta buzib kuylangan Cover version [5] janrlariga murojaatlarini ortishi bilan dalillaymiz.
2. Dunyoda texnika taraqqiyoti inson omiliga engillik va qullaylik berdi. Ammo kino san'ati transformatsiyasi yoshlar fe'l-atvorida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sabrlik, do'stlik, kechirimlilik, bag'rikenglik kabi sifatlarni yaratishga xizmat qiluvchi janrlardan jizzakilik, qo'pollik, sabrsizlik, dangasalik, xiyonatkorlik uyatsizlik kabi sifatlarni rivojlantiruvchi kino janrlariga murojaatini kuzatishimiz mumkin.
3. Bugungi zamonaviy yoshlarni teatr, opera, balet, muzey va galereyadan kompyuter-video o'yin va tungi klublarga oshno bo'lishi orqali badiiy-estetik dunyoqarash transformatsiyasini kuzatmishimiz mumkin.
4. Azal-azaldan mamlakatimiz xayotidagi milliy bayramlarimiz, xirmon sayllarimiz, badiiy kechalarimiz va turli xil tadbirlarimizda inson fe'l-atvorida ijobiy sifatlarini shakllantiruvchi milliy askiya sayllaridan axloqsiz, davlat, jamiyat va inson sha'niga qaratilgan turli xil jamoalarni kontserti hazil-mutoiba, askiya transformatsiyasini ijtimoiylashuvini dalillaymiz.
5. XX asr kompyuter texnologiyasini yaratilish XXI asr uchun ham xalokatli ham taraqqiyot omili bo'ldi. Yoshlarda kitob, jurnal va gazetaga nisbatan kitobxonlik va mutolaa madaniyati susayib

*«**Ommaviy tarbiya**» – Shaxs shakllanishida zarracha badiiy-estetik qiymatga ega bo'lmagan engil-elpi xususiyatlarga moyil turli xil jarayon va predmetlarni tarbiya sifatida o'zlashtirish

*«**Ommaviy qadriyatlar**» - Zarracha badiiy-estetik qimmatga ega bo'lmagan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish jarayondir.

*«**Kitch-did**» – (nem. Kitsch - sifatsiz, arzon, engil-elpi, saviyasi past) Estetik saviyasi past, arzon va jo'n, bo'sh yaratilgan narsa va buyumlarga yuksak andoza tusini berish orqali paydo bo'ladigan jarayondir.



- ketishini bugungi ijtimoiy tarmog' kanallaridagi turli xil engil elpi kundalik axborot kanal va guruxlarni ko'pligi mutolaa transformatsiyasini isbotlaydi.
6. Geosiyosiy jihatidan bir millatni ma'naviy qul qilishni ilk "Ommaviy madaniyat" importi inson organizmi uchun foydali milliy taomlarni o'rniga inson organizmida psixo-biologik mutelikni keltirib chiqaruvchi fast-fud mahsulotlarini yoshlar is'temolidagi oziq – ovqat transformatsiyasi hisoblandi.
 7. Insoniyat taraqqiyotida yoshlar ijtimoiy-xayotiy imidji uni fe'l-atvori, axloqi, ijtimoiy maqomini anlatuvchi omilga aylandi. Ammo globallashuv yoshlar xayotiga "ommaviy madaniyat" niqobi ostida didsizlik va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi milltari, sport, oversayz, granj, eklektik, ich-keyim, kejual uslublari orqali kiyinish madaniyatida transformatsiya jarayoni sodir bo'lmoqda.
 8. Insoniyatni xayvonot olamidan farqlab turuvchi belgi so'zlashuv madaniyati bo'lib, so'zlashuv madaniyati kishilarda ilq ta'ssurot qoldirishning eng muhim omili hisoblandi. Kishilar bilan muloqot qilish jarayonida xushmuomala bo'lish esa so'z san'ati hisoblandi. Ammo texnika taraqqiyoti yoshlar so'zlashish tiliga yangi so'z va birikmalarni olib kirib mavjud adabiy so'zlashuvda turli tildan olingan axloqsiz, qo'pol so'zlar, ITdan kelib chiqqan yangi qisqartma so'zlar asosidagi so'zlashish madaniyati transformatsiyasiga fundament qo'ydi.
 9. Yoshlarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini susayib ketishi, ularni ongidagi fikr-mulohazalarini oq qog'ozga tushirish madaniyatini mo'rtlashishga olib keldi. Yoshlarni sabrsizligi, shoshqoloqligi milliy-tabiiy yozma shakldan qog'ozga xunuk va xato bilan yozish, ijtimoiy tarmog' va elektron xatlarda esa misol: *Sh-W*, *Ch-4* harf va belgilarni almashtirgan holatda yozish madaniyati transformatsiyasini kuzatishimiz mumkin.
 10. Emo (ing. emo - hissiy-emotsional) submadaniyat bo'lib, tushkun kayfiyatdagi musiqiy janr orqali g'arb jamiyatida shakllangan [6]. Bu submadaniyat vakillari jamiyat manfaatlariga zid milliy anana va odatlar, umuminsoniy qadriyat, axloqiy madaniyat normalarini mensimaslik, shaxsiy manfaatlariga berilib, sub'ektiv ehtirolarni namoyish qilishga intilishdir. Mazkur harakatning yurtimizga kirib kelishi inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi erishilgan yutuqlar tufayli tadbirkorlikdagi yangi qatlamning shakllanishi, ayniqsa sanatkorlarning yosh estrada yulduzlarining milliy ma'naviyatga salbiy ta'sir etuvchi ommaviy chiqishlari, bahs-munozaralari, ko'p holatlarda sanat asarlarini engil-elpi, past saviyada ommaga havola etishi nafaqat sanatni, balki millatni milliy ideal va nafosatiga tahdid soladi. Shu ma'noda yoshlar ijtimoiy ruhiyatida tolarantlilik, qanoatlilik, sabrlilik, toqatlilik, chidamlilik, bag'rikenglilik, yumshoqlilik, ishonchlilik, sahiylik, irodalilik, muruvvatlilik, xursandlilik, intizomlilik, aybdorlilik, kechirimlilik, uyatlilik, tavba qilish, rashqlilik, xushyoqishlilik, minnatdorlilik kabi ijobiy ruhiy-hislatlardan jizzalik, qaxrlilik, g'azablilik, nafrat, qayg'u, g'am, qo'rquv, isyonkorlik, depressiya, xasadlilik, qanoatsizlik, befarqlik, loqaydlik, umidsizlik, bezovtalik, qo'pollik, ajablanish kabi salbiy ijtimoiy-ruhiy holatlarga transformatsiyasi tabiiylashayotgani xususida ma'lumotlar bazasi hosil bo'lmoqda [4, B. 285].
 11. Xar bir millat o'z o'zligini saqlab qolish uchun urf-odat va an'analarini davomiy va merosiy shaklda milliy bayramlar, xirmon sayllar va turli xil tadbirlarda erkaku-ayolni fe'l-atvorida ijobiy sifatlarni rivojlantiruvchi milliy an'anaviy o'yinlarni zamonaviy yoshlarimiz xayotida kompyuter video o'yinlarga transformatsiyasini ko'rishimiz mumkin.
 12. Sport davlatni va xalqni dunyoga tez mashhur qiluvchi soha bo'lib, mamlakatimizda sportni rivojlantirish va yoshlar hayotida sportga jalb uchun davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy muammo sifatida sport bilan shug'ullanadiganlardan sportni tomosha qiladiganlarga auditoriyasini oshayotgani sportni transformatsiyasini isbotlab beradi.



13. Yoshlarda axborotga nisbatan bo'lgan munosabatining shiddatkorligi va istemolchilar jamiyatida yoshlar tomonidan har qanday axborotni video-rolik shaklida YouTube, Tik-Tok, Instagram, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi bilan shaxs daxlsizligi, inson, oila, jamiyat, davlat sha'ni va qadr-qimmatiga jiddiy salbiy ta'siri axborot madaniyatida transformatsiya jarayonini ko'rish mumkin.

Takliflar

Sotsiologik tadqiqotimizdan kelib chiqib yoshlarda milliy ma'naviyat va qadriyatlardan uzoqlashish, begonalashishni oldin olish maqsadidagi ijtimoiy - amaliy takliflar:

- yoshlarda (onlayn) kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirish kerak;
- yoshlarda sportni tomosha qilishdan ko'ra sport bilan shug'llanish madaniyatini rivojlantirish zarur;
- yoshlar mobil qurilmasida milliy, ta'lim va tarbiyaviy dasturlarni shakllantirish va rivojlantirish kerak;
- mutolaa madaniyatni rivojlantirish uchun umumiy o'rta maktablarda adabiyot, tarbiya, tarix kabi fan dasturlariga eshitishga mo'ljallangan audio dars programmasini shakllantirish zarur;
- o'quvchi-talabalarni ta'lim muassasasidagi dars jadvali va o'quvchi-talabalar ijtimoiy-ta'limiy maqomini bildirib turuvchi mobil qurilmasiga dastur yaratish kerak. Dastur orqali dars jadvalidan o'quvchi-talaba va ota-ona xabardorligi, ijtimoiy-ta'limiy maqomi bo'yicha dasturida ota-ona o'z farzandini ta'lim muassasasida qanday ta'lim olayotgani xaqida onlayn xabar olib turadi;
- umumiy o'rta maktablarda milliy etnografik an'ana, qadriyat va o'yinlarni amaliy darslashtirish kerak;
- yoshlarni ijtimoiy tarmog'dagi faoliyatini "Ommaviy madaniyat"ga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, vandalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish lozim;
- o'quvchi-talabalar uchun internet: ijtimoiy tarmog'da fan-manbaa, audio-teatr, audio-kitob kanallarini tashkili bilan ijtimoiy tarmog'lardagi yoshlar faoliyatini unumli qilish lozim;
- onlayn maktab va onlayn universitetlarning tashkil etish orqali ziyoli qatlamini demografiyasini o'sishiga olib keladi;
- yoshlarda onlayn-tadbirkorlikni shakllantirish kerak;
- bola-ona-vatanparvalik programmasini rivojlantirish lozim.

Xulosalar

Xulosa qilib, yuqoridagi muammolar tahlil va talqinlari yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar osnosida sog'lom his-tuyg'u, maqsad-mo'ljallar aniq estetik tarbiyasini tashkili o'ta muhim milliy vazifaga aylanishini guvohi bo'ldik. Bugungi kelajagimizni belgilab beruvchi yoshlarimiz orqali milliy mentalitetimiz qaratilgan "Ommaviy madaniyat", "Ommaviy qadriyat", "Ommaviy tarbiya" kabi mavjud tahdidlardan himoyalash immuniteti har qachongidan ham muhimdir. Milliy manfaat va maqsad, ezgu niyatlarimizni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlodni tarbiyalash masalasini muhim printsiplial darajaga ko'tarilganligini etiborga olib, Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish zarurlini ko'rsatadi. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi milliy ruhni uyg'otish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarda shakllantirish ijtimoiy taraqqiyotning yuksak darajasining shartidir.

Globalashuv sharoitida axborot texnologiyalarining ijtimoiy madaniyat, yani yoshlarning mediamadaniyat sifatida shakllanishi ta'lim va tarbiya sohasida ahloqiy tarbiyaga e'tiborni talab etadi. Yoshlar o'zaro bevosita munosabatida nafosat va farosat qanchalik muhim bo'lsa, aloqalarning



onlayn odob, onlayn ahloq, onlayn fazilat shaklida yoshlarning ma'naviyatida madia tarbiyasini talab etmoqda. Bu masala onlayn qaramlik, onlayn qullikni (sindromi) oldini olish uchun onlayn fe'l-atvorda milliy an'ana, onlayn til kabi savodxonlik ma'rifatini shakllantirishga chaqiradi.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvorligida yoshlarning axborotning zararli ta'sirlaridan asrash, ularni har tomonlama xalqimizning munosib farzandi bo'lib, yurtimiz dovrug'ini yana dunyoga tanitishi uchun ta'lim sohasi vakillarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar hal qiluvchi hayot-momot omiliga aylanmoqda [7, B. 229].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoev, Sh.M. Xalkimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. - T.: O'zbekiston NMIU, 2018. - 508 b.
2. Шаров А.В. Трансформация ценностей в меняющемся мире \\\ Вызовы современности и ответственность философа. Материалы «Круглого стола», посвященного всемирному Дню философии. Кыргызско-Российский Славянский университет. Под обх.ред. И.И. Ивановой Бишкек: 2003. С.85-88
3. Романова К.С. Трансформация ценностей как индикатор изменения обхества и личности Научнўй ежегодник Института философии и права. Уралского отделения Российской академии наук. 2008. Вўп. 8, С. 166.
4. Mirzaxmedov X.A., Emotsionallashayotgan yoshlar. // Sotsiologiyani o'qitish va sotsial tadqiqotlarni tashkil etishning dolzarb masalalari. Respublika ilmiy – amaliy konferentsiyasi maqolalari to'plami. – Toshkent, 2020. – B. 284-288.
5. Kaver-versiya. URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Kaver-versiya>
6. Emo (subkultura) URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Emo_\(subkultura\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Emo_(subkultura))
7. Mirziyoev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2- jild, T.: «O'zbekiston» NMIU, 2018. - B. 229.

I.A.Ikramov

Namangan davlat universiteti
e-mail: maxkamov_82@mail.ru

MILLIY IJTIMOIIY XOTIRANI SHAKLLANTIRISH: TARIXIY MEROS, MADANIY UZVIYLIK VA ZAMONAVIY JARAYONLAR

Annotatsiya Maqolada jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy o'zgarishlarning sotsial hayotidagi o'rni milliy ijtimoiy xotiraga ta'siri, ijtimoiy xotiraning shakllanish va rivojlanish jarayonlari ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy xotira faqat o'tmish haqidagi bilimlar yoki umum g'oyalar asosida shakllanmay balki, kundalik turmushdagi ijtimoiy tajriba natijasida vujudga kelishi, zamonaviy dunyoda ijtimoiy xotira institutlaridan jamiyat xtrasini rivojlantirishda foydalanish, ushbu institutlar faoliyatini faollashtirishga doir masalalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tarix, xotira, globallashuv, tarixiy ong, ijtimoiy xotira, global tarix, fenomen, taraqqiyot.

Аннотация В статье описывается роль социальных изменений, происходящих в обществе, в общественной жизни, влияние на национальную социальную память, процессы



формирования и развития социальной памяти. Также социальная память формируется не только на основе знаний о прошлом или общих представлений, но и в результате социального опыта в повседневной жизни, использования институтов социальной памяти в развитии творчества общества в современном мире, вопросы, связанные с активизацией деятельности этих учреждений.

Ключевые слова: история, память, глобализация, историческое сознание, социальная память, глобальная история, явление, развитие.

Annotation The article describes the role of social changes occurring in society, in public life, the impact on national social memory, the processes of formation and development of social memory. Also, social memory is formed not only on the basis of knowledge about the past or general ideas, but also as a result of social experience in everyday life, the use of institutions of social memory in the development of social creativity in the modern world, issues related to the activation of the activities of these institutions.

Key words: history, memory, globalization, historical consciousness, social memory, global history, phenomenon, development.

Jamiyatda milliy ijtimoiy xotirani shakllantirib borish, rivojlanish jarayonlarini sotsiologik tadqiq etish bugungi kunda mamlakatlar va davlatlarning o'z-o'zini identifikatsiya qilish ham milliy kodni yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda sodir blayotgan milliy-ma'naviy o'zgarishlar xalqlarni milliy o'zligini saqlab qolish hamda milliy ijtimoiy xotirani rivojlantirish orqali avlodlar davomiyligini ta'minlash muammolari tobora dolzarblashib, turli mintaqalarni qamrab olgan globallashuv jarayonlari xalqlarning o'z tarixiy ildizlariga tayanish, milliy va tarixiy o'zilikni saqlab qolish tendensiyalari tobora yaqqol tus olayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqaro maydonda sodir bo'layotgan turli jarayonlarni boshqarishda axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari kishilar milliy ijtimoiy xotirasini o'zgartirib, ularning tarixiy ongi va xotirasini sohtalashtirishga bo'lgan harakatlar avj olmoqda.

Dunyoda miliy ijtimoiy xotira fenomenini ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar asosida o'rganish, uni rivojlantirib borishga bo'lgan ehtiyoj ortib, milliy mansublik tuyg'usini rivojlantirishda asos vazifasini bajaruvchi milliy ijtimoiy xotiraning ustuvor ahamiyatini aniqlash (University of Brighton), kishilar tarixiy tafakkurini yangi innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish usullarini ishlab chiqish, ijtimoiy xotira taraqqiyotini belgilaydigan ijtimoiy-madaniy jihatlar (tarixiy narrativlik, madaniy meros)ni tadqiq etish muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida mamlakat milliy tarixiga bo'lgan ijtimoiy munosabat so'ngi yillarda tubdan o'zgaradi. O'zbekistonda milliy tarixni o'rganish borasidagi ishlar samaradorligini oshirishga e'tibor kuchayib borayotganligi, buyuk mutafakkirlar ilmiy ijodini tadqiq etuvchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini tuzish to'g'risidagi qarorlar, shuningdek, har tomonlama yetuk, vatanparvar avlodni tarbiyalash maqsadiga qaratilgandir. "Xususan, milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash"[1] muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Inson xotirasi haqidagi dastlab qarashlar Sharq mutafakkirlari va Yunon faylasuflari ta'limotlarida uchraydi. Xususan, Forobiy xotirani bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, uning faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini"[2,611] ta'kidlaydi. Psixologiyada xotira "atrof muhitdagi voqelikni bevosita va bilvosita, ixtiyorsiz va ixtiyoriy ravishda, passiv va aktiv holda, reproduktiv va produktiv tarzda, verbal va noverbal shaklda, mantiqiy va



mexanik yul bilanaks ettirgan holda esda olib qolish, esga tushirish, unutish xamda tanish, eslashdan iborat ruhiy jarayon"[2,612] sifatida talqin qilinadi. Manbalarda ijtimoiy xotiraga ko'plab ta'riflar berilgan. Masalan, "ijtimoiy xotira – to'plangan ijtimoiy tajriba" ni yangi avlodlarga o'tkazish uchun hozirgi paytda muhim bo'lgan ijtimoiy bilimlarni boshqaradigan va o'tmish haqidagi ma'lumotlarga aylantiradigan ijtimoiy-madaniy usullar va institutlar tizimi sifatida tushuniladi." [3] Ushbu ta'rifda ijtimoiy xotira sotsial institut sifatida baholanadi. Ammo u to'plangan ijtimoiy tajriba bilan cheklanib qolmay balki, bir vaqtini o'zida o'tmish tajribalari bilan ham uzviy aloqani davom ettirib ham yangilanib turadi. Sotsiolog olim Sergey Kravchenko "ijtimoiy xotira - ijtimoiy amaliyotlar, qadriyat yo'nalishlarining avloddan-avlodga o'tishi, bu ijtimoiy ongni rivojlantirishda uzluksizlikni, odamlarning xatti-harakatlaridagi qonuniyatlarni ta'minlaydi" [4,274] deb hisoblaydi. Bu ta'rifda esa, ijtimoiy xotiraning faoliyat turi sifatida qaralmoqda. Aslida, "biz xotirlash deganda katta ma'noni tushunamiz. Avvalo xotirasiz kelajak yo'q. O'zingiz o'ylang, insonning xotirasi bo'lmasa, u o'z kelajagini qanday tasavvur qiladi? Agar xotira bo'lmasa, ota-bobolarimiz to'plagan kerakli bilim va tajribalarni bilmasdan, xar kuni, har qadamda yangi-yangi muammo va g'ov-to'siqlarga duchor bo'lar edik... Odamzod o'zining kechagi kunini xotirlay olsagina, o'tmishdan zarur saboq va xulosalar chiqarib, ongli hayot kechirishi mumkin." [5, 291-292]

Shuningdek, "ijtimoiy xotira o'tmish haqidagi umumiy g'oyalar, guruh a'zolarining tarix haqidagi bilimlari uchun asos yaratadi va qat'iy sxematik tasvirlarda (ob'ektiv xotira) ham, ijtimoiy amaliyotda ham o'z ifodasini topadi, yoki jamoaviy harakatlar"[6] deb tushuntirilgan. Aslida ijtimoiy xotira faqat o'tmish haqidagi bilimlar yoki umum g'oyalar asosida shakllanmayd balki, kundalik turmushdagi ijtimoiy tajriba natijasida vujudga keladi. "Zamonaviy dunyoda ijtimoiy xotira institutlaridan, birinchi navbatda, siyosat va davlat arboblari ham jamiyat ichida, ham xalqaro maydonda sodir bo'layotgan turli jarayonlarni boshqarishda faol foydalanmoqda.

Jamiyatda milliy ijtimoiy xotiraning shakllanishi mexanizmlari uch bosqichni tashkil etadi. Bular, **birinchi bosqichida** asosiy rolni urug', qabila, jamoa bajaradi va u jamoaning umum xotirasini shakllantirilib jamoalar, urug'lar va qabilalarni birlashtirgan bosqichdir, ammo bu xotiraning dastlabki mukammallashtirmagan shakli hisoblanadi; **ikkinchi bosqich**, urug' jamoalarning kattalashishi va jamiyat hamda davlat tuzulmalarini vujudga kelishi. Bunda ma'lumotlar manbasi ko'payib jamiyat a'zolarini tarbiyaviy, ahloqiy, g'oyaviy, voqea va hodisalarni saqlash va orttirib borishini ta'minlaydi; **uchinchi bosqich**, bunda ijtimoiy xotira jamiyatning maqsadiga qaratiladi hamda jamiyat a'zolarida tarixiy madaniyat shakllanadi, axborot manbalari yaratiladi, bunda kutubxona, arxiv, muzeylar muhim o'rin egallaydi.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida milliy ijtimoiy xotirani shakllantirish uni rivojlantirib borish jarayonlari, ijtimoiy-falsafiy, tarixiy, sotsiologik yondashuvlarni takomillashtirish masalalari jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Boisi, jamiyat birdamligi uning ijtimoiy taraqqiyoti jamiyat a'zolarining o'z o'tmishiga bo'lgan munosabati bilan uzviy holda rivojlanadi. Bugungi axbarotlashgan jamiyat rivoj topayotgan bir davrda milliy o'zlikni anglash kishilarda tarixiy ong va xotira tushunchalarini mustahkamlash, yoshlarda ongida milliy ijtimoiy xotirani shakllantirish masalasi qaysiki jamiyat bo'lmasin kunning ustivor muammosi sifatida qaralmoqda. Boisi, global axborot oqimining ko'payishi, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli kosmopolit g'oya va mafkuralar, diniy radikal va ekstramistik qarashlar, ijtimoiy ahloq mezonlarini a'anaviy qadriyatlardan ajratib tashlashga qaratilgan xatti-harakatlar avj olmoqda. Bir so'z bilan ayganda zamonaviy jamiyatlarda tarixiy yashash kayfiyati kuchayib bormoqda. Inson qaerda yashasa o'sha yerda baxtli bo'lsa shuni o'zi yetarli degan fikrlar kishilar ongini egallab, dunyoda bo'ylab migratsiya harakatini tezlashtirmoqda. Natijada kishilar milliy xotirasiga putur yetib ijtimoiy xotira transformatsiyaga



uchramoqda. Jamiyatlararo mirgatsiya va marginallik xodisalari, millatlarning assimliyatsiya bo'lishi jamiyatlarda o'ziga xoslikni yo'qotilishiga olib kelmoqda.

Globalashuv sharoitida ijtimoiy-ma'naviy hayot dinamikasida kuzatilayotan o'zgarishlar milliy qadriyatlarning ijtimoiy o'ziga xos institutsional (jamoaviylik, jamoatchilik nazorati, fuqaroviy burch, ijtimoiy birdamlik) xususiyatlarining relyatsion ta'siri orqali, jamiyat milliy o'zligini identifikatsiyalaydi. Shu bois, jamiyatni anglash insonda yetuk ongni talab etadi. Falsafada ijtimoiy ong shakllari ijtimoiy munosabatlar negizida va jarayonida vujudga keladi hamda rivojlanadi deb izohlanadi. Chunonchi, uning milliy ijtimoiy xotirani shakllantirish bilan bog'liq shakli tarixiy ong bo'lib, u dastlab o'tmish ajdodlari tomonidan yaratilgan merosning haqidagi ayrim bilimlar, sodda tasavvur va baholar, an'ana va urf-odatlarining qorishig'idan shakllanadi. Tarixiy ong insonning yer yuzida yashay boshlagan davrlaridanoq vujudga kelib, rivojlanib borgan va doim o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'lgan. U shunday tuzilganki, har qanday yangilik unda aks etadi. Tarixiy ongning mukammal bo'lishida uning barcha elementlarining faolligi juda muhim. Xususan, tarixiy qarash bilan birga tarixiy idrok va tarixiy tasavvurning ishtirokisiz tarixiy ong shakllanishi mumkin emas.

O'zbekistonning milliy-madaniy yuksalishida milliy ijtimoiy xotiraning bir qator shakllari bilan bir qatorda hamda yoshlarda tarixiy tafakkurini mustahkamlash, ularda milliy g'urur va milliy ornomus hissini rivojlantirishda, vatanimiz tarixini haqqoniy yoritish, uni yoshlar ongiga singdirish muhim. Har qanday milliy g'urur, vatanparvarlik tarixni o'rganishdan boshlanadi. Bu haqda I. Karimov "...jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi" [7,9] degan fikrni ilgari surgan edi. Shuning uchun jamiyatda milliy ijtimoiy xotirani rivojlantirish, insonning tarixiy vaqt va makondagi dunyoqarash paradigmasida tarixning sotsiallasuvi orqali unda deklarativ xotirani rivojlantiradi hamda ma'rifatli fuqarolik jamiyatining yaxlitligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 28.12.2018. <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Маънавият: асосий тушунчалар изохли луғати. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010. –Б. 611.
3. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%98%D1%81%D1%82%D0%BE%D1>
4. Кравченко С.А. Социологический энциклопедический русско-английский словарь. Москва: Астрель, 2004. –С.274.
5. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. 13-жилд. Тошкент: Ўзбекистон, 2005. –Б.291-292.
6. <https://bigenc.ru/c/sotsial-naia-pamiat-fd180a>
7. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.-Тошкент: Маънавият, 1998.-Б.9.

**Akramova Gulrux Alihanovna**

Yunusobod tumani 98-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi

MMIBDO' va O'zMPU mustaqil izlanuvchisi

EMOTSIOANL-PSIXOLOGIK BARQARORLIK TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada emotsional-psixologik barqarorlik tushunchasi, uning mazmuni va shaxs rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada barqaror shaxsiyat shakllanishiga ta'sir qiluvchi psixologik, ijtimoiy va individual omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, emotsional-psixologik barqarorlikning pedagogik jarayonlarda va kundalik hayotdagi ahamiyati, uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy nazariyalar asosida fikr yuritiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, emotsional barqarorlik shaxsning stressga chidamliligi, hissiy boshqaruv qobiliyati va ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.

Kalit so'zlar: emotsional barqarorlik, psixologik barqarorlik, hissiy boshqaruv, shaxsiy rivojlanish, stressga chidamlilik, ijtimoiy moslashuvchanlik, psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the concept of emotional-psychological resilience, its content, and its role in personal development. The study examines psychological, social, and individual factors influencing the formation of a stable personality. Additionally, the article discusses the significance of emotional-psychological resilience in educational processes and everyday life, as well as the stages of its formation and development, based on scientific theories. The research demonstrates that emotional resilience enhances an individual's stress tolerance, emotional regulation abilities, and social adaptability.

Keywords: emotional resilience, psychological stability, emotional regulation, personal development, stress tolerance, social adaptability, psychological factors.

Kirish. Psixologik barqarorlik, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir va shaxsiyat tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Psixologik barqarorlik — bu shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyati bo'lib, favqulodda vaziyatlarni o'ziga zarar yetkazmasdan yengib o'tish va ularning oqibatlarini shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi, moslashuvchanlikni va ijtimoiy yetuklikni oshiruvchi usullar yordamida yengish qobiliyatini bildiradi. Aslida, psixologik barqarorlik shaxsning adaptiv salohiyatini aks ettiradi va u qiyin vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengish imkoniyatlarini belgilaydi.

Zamonaviy psixologiyada shaxsning murakkab hayotiy vaziyatlarga moslashishi va ularni yengishida javobgar bo'lgan xususiyatlarni tizimli ravishda tushunishga urinishlar mavjud. Shu bilan birga, tadqiqotchilar psixologik barqarorlikning asosiy komponenti bo'yicha yakdil fikrga ega emas. Ba'zi mualliflar kognitiv komponentni yetakchi deb hisoblaydi, boshqalari esa emotsional va irodaviy komponentlar (stressga chidamlilik, emotsional-irodaviy barqarorlik) yoki motivatsion komponentlarni asosiy deb biladi. Ba'zi olimlar esa shaxsning ekstremal omillarga bardoshlilikini ta'minlovchi sifatlar majmuasini ko'rib chiqishni tavsiya qiladi. Shu murakkab xususiyatni integrativ yondashuv bilan o'rganish eng istiqbolli hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. A.Maklakov "shaxsiy adaptiv salohiyat" tushunchasini ilgari surgan bo'lib, u shaxsning ekstremal omillarga bardoshlilikini belgilaydi. Bu salohiyat quyidagi tarkibiy xususiyatlarni o'z ichiga oladi:

Nerv-psixik barqarorlik, ya'ni stressga chidamlilikni ta'minlovchi xususiyat;



Shaxsning o'zini baholashi, ya'ni faoliyat sharoitlarini va o'z imkoniyatlarini adekvat qabul qilish darajasi;

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni his qilish, shaxsning boshqalarga nisbatan o'z qadrini sezishi;

Shaxsning mojaroga moyilligi;

Ijtimoiy muloqot tajribasi[3; –B. 25].

Maklakov barcha ushbu xususiyatlarni qiyin va ekstremal vaziyatlarga muvaffaqiyatli moslashishni baholash va prognozlashda, shuningdek psixik muvozanatni tiklash tezligini aniqlashda muhim deb hisoblaydi. G.S. Nikiforov psixologik barqarorlikni murakkab shaxsiy sifat sifatida ko'rib, uning darajasi professional faoliyat va ishchining ishonchliligida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, psixologik barqarorlik — alohida xususiyatlar va qobiliyatlarning sintezi bo'lib, unda muvozanat, chidamlilik, barqarorlik va qarshilik birlashadi[4; –B. 141].

- Muvozanat- shaxsning zo'riqish darajasini qabul qilinadigan chegaralarda ushlab turish qobiliyati, halokatli stressga yetkazmasdan;

- Chidamlilik-qiyinchiliklarga qarshi turish va frustratsiya holatlarida ishonchni saqlash qobiliyati;

- Barqarorlik - doimiy kayfiyat darajasi;

- Qarshilik - xulq-atvori va turmush tarzini tanlash erkinligi, shuningdek har qanday qaramliklardan ozod bo'lish qobiliyati.

Psixologik barqarorlikning turli jihatlarini xalqaro tadqiqotlarda ham aks etgan. Masalan, S. Kobasa rahbarlar sog'lig'iga stressli hayotiy vaziyatlarning turli ta'sirini o'rganib, Hardiness tushunchasini taklif qilgan. Bu shaxsiy xususiyat rus adabiyotida chidamlilik, bardoshlilik, jasorat, qat'iyat deb tarjima qilinadi. Keyinchalik S. Maddi Hardiness'ni shaxsiyatning integrativ xususiyati sifatida rivojlantirgan va u shaxsning psixologik sog'lig'i ko'rsatkichi sifatida qabul qilingan[2; –B. 30].

Hardiness uch komponentdan iborat: majburiyat, nazorat va chaqiriq.

Majburiyat - shaxsning faoliyatga to'liq jalb bo'lish tendensiyasi, ya'ni ma'noli va maqsadga yo'naltirilgan fokus. Bu komponent shaxs va atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirini belgilaydi, insonni harakatga, yetakchilikka va sog'lom turmush tarziga motivatsiya qiladi, shuningdek stress omillariga qaramay masalalarni hal qilishga to'liq jalb bo'lish imkonini beradi.

Nazorat - voqealarning rivojiga ta'sir qilish mumkinligiga ishonish tendensiyasi. Bu sifat stress omillari natijalarini boshqarish yo'llarini qidirishga motivatsiya beradi va shaxsning bevosita yordamga umidsizlanmasligini ta'minlaydi. Nazoratga ega bo'lgan inson har qanday qiyin vaziyatni o'z hayot rejalariga moslashtira oladi va uni foydali deb hisoblaydi. Hatto fojiali voqealarni baholashda ham u ularning ahamiyatini kamaytiradi va shu bilan psixologik travma ta'sirini pasaytiradi.

Chaqiriq -xavfni murakkab vazifa sifatida qabul qilish, shaxsni shaxsiy o'sishga undash. Bu komponent shaxsni atrof-muhitga va jamiyatga ochiq bo'lishga rag'batlantiradi va hayotiy voqealarni shaxsiy imkoniyatlarni rivojlantirish stimulyatori sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Shunday qilib, ekstremal vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengishga xizmat qiluvchi shaxsiy sifatlar majmuasi mavjud bo'lib, uni integrativ shaxsiy xususiyat – ekstremal vaziyatlarga psixologik bardoshlilik deb ta'riflash mumkin. Vaziyat murakkablashgani sayin professional faoliyat samaradorligi ko'proq mutaxassisning psixologik barqarorligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu barqarorlik nafaqat professional mahoratni, balki ekstremal vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani ham o'z ichiga oladi va ekstremal profil mutaxassisining faoliyat samaradorligi va ishonchliligini belgilaydi.



Psixologik barqarorlik - shaxsning umumiy faoliyat rejimi bo'lib, unda kognitiv, emotsional va xulqiy komponentlar mavjud. Psixolog S.Kuzentsov yong'in o'chirish xodimlarining professional vazifalarni bajarish jarayonining barcha bosqichlarida namoyon bo'lishi lozim. Ushbu bosqichlarni shartli ravishda uch qismga ajratish mumkin: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy bosqichlar deb qayd etadi va har birini alohida omillar va darajalar asosida birlashtiradi[1].

Tayyorgarlik bosqichi yong'in signalini qabul qilish va favqulodda vaziyat joyiga yetib borishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning o'ziga xosligi ma'lumotning to'satdan kelishi va noaniqligidir. Mutaxassisning asosiy vazifasi -xavotir holatini oldini olish va nerv-psixik taranglik darajasini optimal — jangovar tayyorgarlik holatiga olib kelishdir.

Asosiy bosqich insonlarni va moddiy ob'ektlarni qutqarishga qaratilgan bevosita professional harakatlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqich xavf, vaziyatning noaniqligi va vaqtning qattiq yetishmasligi bilan tavsiflanadi. Sharoit mutaxassisning kognitiv qobiliyatlariga yuqori talab qo'yadi: vaziyatni obyektiv baholash va tahlil qilish, noma'lum yoki ziddiyatli ma'lumotni izlash va qarorlar qabul qilish. Xulqiy sohada psixologik barqarorlik faol harakatlar bilan namoyon bo'ladi, ular vaziyatni o'zgartirishga qaratilgan bo'lib, nostandart harakat shakllari orqali maksimal samarali natijaga erishish va vazifalar o'rtasida tezkor va moslashuvchan o'tishni ta'minlaydi. Shu bois, asosiy vazifa mutaxassisning mavjud resurslarini professional burchini bajarishga safarbar qilishdan iborat.

Yakuniy bosqich emotsional muvozanatni tiklashni o'z ichiga oladi. Bu bosqichda o'z-o'zini tartibga solish va konstruktiv strategiyalar yordamida vaziyatni yengish metodlari qo'llaniladi.

Shunday qilib, psixologik barqarorlik mutaxassisning shaxsiy xususiyati bo'lib, vaziyatning salbiy ta'siriga berilmaslik va professional harakatlar sifatini pasaytirmaslik qobiliyatini bildiradi. Mutaxassisning psixologik barqarorligi bir tomondan professional faoliyatning ishonchliligida namoyon bo'ladi, boshqa tomondan esa muvaffaqiyatli professional faoliyat ko'plab shaxslar uchun o'zini amalga oshirish va hayotdan qoniqish olishning asosiy manbai bo'lib, bu esa o'z navbatida psixologik barqarorlik darajasini oshiradi.

Psixologik barqarorlikni ongli oshirish bo'yicha tavsiyalar:

Qiyin vaziyatni tinch ong bilan baholash — sodir bo'layotgan narsani tinch tahlil qilish, global muammolar bilan solishtirish va vaziyatning ijobiy tomonlarini aniqlash: sog'liq, oila, do'stlar. Agar hissiyotsiz fikrlash qiyin bo'lsa, o'zingizni psixolog sifatida tasavvur qiling: do'stingizga maslahat berishingizni yoki advokat rolida qanday maslahat berishingizni o'ylang.

Faqat bugungi kun bilan yashash — psixologlar "bir kunlik sektor"da yashashni tavsiya qiladi, ya'ni kelajakni rejalashtirish mumkin, lekin hali sodir bo'lmagan voqealar haqida ortiqcha tashvishlanish zararli.

Noyob vaziyatni qabul qilishni o'rganish — voqea allaqachon sodir bo'lgan bo'lsa, vaziyatni yaxshilashning qanday usullari mavjudligini aniqlash va unga ta'sir qilish mumkinligini baholang. Agar vaziyat sizning nazoratingizda bo'lmasa, unga munosabatni o'zgartirish va hayotni davom ettirish mumkin. Hatto nogiron shaxslar ham faol hayot kechiradi va o'zini amalga oshirishni topadi.

Stressli vaziyatlarda salbiy fikrlarga berilmaslik — umidsizlik holatida salbiy fikrlarning ongni egallashiga yo'l qo'ymang, kuchingizni foydali faoliyatga yo'naltiring. Mehnat mantiqiy fikrlashni rag'batlantiradi. Shu holatda "Men juda bandman, tashvishga vaqt yo'q" degan fikrni ishlatish tavsiya etiladi.

Katta sonlar qonunini qo'llash — kelajakdagi xavotirlarni boshqarishda voqealarning sodir bo'lish ehtimolini aniqlang va uni oldini olish choralari ko'ring. Yo'qotishlar cheklovchisini o'rnatish — hech qanday voqea inson hayotini barbod qilmasligi kerak. Ichki qadriyatlar shkalasi hayotiy voqealarni aniq baholash va tinchlik bilan tahlil qilishga yordam beradi. Salbiy hissiyotlar va



tashvishlar cheklovchisini qo'llash orqali vaziyat va atrofdagi odamlar bilan munosabatlarning yomonlashishining oldini olish mumkin.

Vaqt boshqarishni o'rganish (time-management) — vaqt va kuchlarni to'g'ri taqsimlash vazifalarni tezroq bajarishga, stress va ortiqcha yuklamalardan saqlanishga yordam beradi. Shu bilan birga, ongli bo'lish, o'z hayotingiz va harakatlaringiz uchun mas'uliyatni his qilish, faol va jalb qilingan bo'lish, hayotiy maqsadlar va sevimli mashg'ulotlarga ega bo'lish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, inson o'zini amalga oshirish jarayonida “vaziyat egasi” bo'lishi va o'zining psixologik xususiyatlari va imkoniyatlarini bilish orqali vaziyatni boshqarishi mumkin. Bunday shaxsning barqarorligi va xavfli xatti-harakatlarda muvaffaqiyati uning psixik tuzilmasining afzalliklarini maksimal darajada ishlatishi va kamchiliklarini neytrallashtirishiga bog'liq bo'lib, natijada psixik va somatik salomatligi saqlanadi.

Adabiyotlar

1. Kuzentsov S. https://provizor24.ru/blog/psychologicheskaja_i_emocionalnaja_ustojchivost Murojaat etgan sana 14.10.2025.
2. Maddi S.R. Hardiness: An operationalization of existential courage. *Journal of Humanistic Psychology*, 42(2). 2002. –P. 30
3. Maklakov A. G. Personality adaptive potential and professional activity. –M.: Smysl. 2004. –P.25
4. Nikiforov G. S. Psychological stability of a specialist in extreme conditions. –M.: Academia. 2007. –P.141.

Dilfuza Sharifovna Egamova

Andijon davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

RAQAMLI SIVILIZATSIYA KONTEKSTIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING O'ZGARISH DINAMIKASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli sivilizatsiya sharoitida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik madaniyatining transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari millatlararo muloqotning yangi shakllarini yaratib, tolerantlik tamoyillarining mazmunini o'zgartirmoqda. Tadqiqotda raqamli muhitning axloqiy, madaniy va ijtimoiy ta'siri sinergetik hamda aksiologik yondashuvlar asosida baholanadi.

Kalit so'zlar: raqamli sivilizatsiya, tolerantlik, totuvlik madaniyati, virtual muloqot, ijtimoiy transformatsiya.

Annatation: This article analyzes the transformation processes of the culture of interethnic harmony and tolerance in the context of digital civilization. The Internet, social networks, and digital means of communication create new forms of interethnic communication and change the content of the principles of tolerance. In the study, the moral, cultural, and social impact of the digital environment is assessed based on synergetic and axiological approaches.

Keywords: digital civilization, tolerance, culture of harmony, virtual communication, social transformation.

KIRISH. Raqamli sivilizatsiya davrida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik madaniyati yangi ijtimoiy-sivilizatsion mazmun kasb etmoqda. Globallashuv, internet tarmoqlarining kengayishi va raqamli kommunikatsiya vositalarining ommalashuvi millatlararo muloqotning shakl va mazmunini tubdan o'zgartirdi. Endilikda tolerantlik faqat real hayotdagi ijtimoiy munosabatlarda emas, balki virtual muhitda ham namoyon bo'lishi zarur bo'lgan qadriyatlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, raqamli makonda turli madaniyat va millatlar vakillari o'rtasidagi axborot almashinuvi yangi imkoniyatlar bilan birga, ma'naviy ziddiyatlar, stereotiplar va ksenofobik holatlarning ham kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur maqolada raqamli sivilizatsiya kontekstida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik madaniyatining o'zgarish dinamikasi, uning ijtimoiy-falsafiy asoslari hamda raqamli tolerantlik fenomeni tahlil etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Globallashuv jarayonlari insoniyat tarixida millatlararo muloqot, hamkorlik va o'zaro tushunishning yangi ufqlarini ochib berdi. Shu bilan birga, raqamli sivilizatsiya bu jarayonni tezlashtirib, madaniy aloqalarni virtual maydonga ko'chirdi. Endilikda millatlararo totuvlik nafaqat siyosiy yoki ijtimoiy fenomen sifatida, balki axborot oqimi va raqamli madaniyat dinamikasi doirasida talqin etilmoqda. Manuel Castells ta'biri bilan aytganda, "axborot davrida ijtimoiy munosabatlar tarmoq ko'rinishini oladi, unda madaniy identikliklar global kommunikatsiya tizimi orqali o'zaro ta'sirga kirishadi"[1.–P.128]. Raqamli sivilizatsiyada millatlararo totuvlik g'oyasi ko'p qatlamli mazmunga ega bo'lib, u "raqamli tolerantlik", "virtual hamjihatlik" va "madaniy dialog axloqi" kabi yangi tushunchalar orqali namoyon bo'lmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi masofani qisqartirib, global miqyosdagi empatiya va madaniy uyg'unlikni shakllantirish imkonini berib ulgurdi. Shu bilan birga, algoritmik segmentatsiya, dezinformatsiya va madaniy stereotiplar kuchayishi kabi salbiy oqibatlar ham millatlararo totuvlikka tahdid solish xavfi ortib boraveradi.

Shunday sharoitda raqamli madaniyatni boshqarish, raqamli axloqni shakllantirish va madaniyatlararo muloqotni ongli ravishda rivojlantirish zaruriyati paydo bo'lib, Zigmund Bauman ta'kidlaganidek, "global dunyoda barqarorlikni saqlashning yagona yo'li – xilma-xillikni qadrlashni o'rganishdir"[2]. Demak, raqamli sivilizatsiyada millatlararo totuvlikning yangi talqini – bu insoniyatning axborot asrida bir-birini anglash, qadrlash va madaniy jihatdan uyg'un yashash san'atidir.

Raqamli davrda bag'rikenglik madaniyati insoniyat ongida chuqur ijtimoiy va axloqiy transformatsiyani boshdan kechirmoqda. Internetning paydo bo'lishi global muloqot imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, bu jarayon bir vaqtning o'zida yangi turdagi madaniy to'qnashuvlar va kiberxulqiy muammolarni ham yuzaga chiqardi. Yurgen Habermas o'zining "Kommunikativ harakat nazariyasi" asarida zamonaviy jamiyatning barqarorligi "ochiq, muloqotga asoslangan jamoaviy aql"[3.–P.73]ga tayanishini ta'kidlaydi¹. Shu nuqtai nazardan, Internet tarmog'i millatlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasidagi bag'rikenglikni shakllantirish uchun yangi platformaga aylandi. Biroq global media maydoni axborot oqimining erkinligiga qaramay, ijtimoiy ongda selektivlikni kuchaytirmoqda. **Noam Xomskiy** "Manufacturing Consent" asarida media tizimining ongni shakllantirishdagi nazorat mexanizmlarini tahlil qilib, ommaviy axborot vositalari ko'pincha "tasavvur doirasini chegaralab qo'yadi"[4], deya ta'kidlaydi. Bu holat raqamli makonda bag'rikenglikni sun'iy tarzda toraytiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Sun'iy intellektning kirib kelishi esa bu jarayonni yanada murakkablashtirdi. **Luchano Floridi** "The Ethics of Information" asarida raqamli axloqni "axborot muhitida insoniyatning o'zini qayta kashf etish jarayoni"[5. – P.23] sifatida izohlaydi. AI algoritmlari foydalanuvchilarning axborot muhitini individuallashtirar ekan, bu holat tolerantlik doirasini toraytirishi yoki aksincha, empatiyani



kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, Internet, media va sun'iy intellekt ta'sirida bag'rikenglik madaniyati passiv qadriyatdan faol ijtimoiy-amaliy fazilatga aylanmoqda. Endilikda raqamli bag'rikenglik nafaqat turli madaniyat vakillarini qabul qilishni, balki axborot etikasi va raqamli mas'uliyatni chuqur anglashni ham talab etadi.

Sun'iy intellekt esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Algoritmlar foydalanuvchilarga ma'lumotni individual tarzda filtrlab taqdim etar ekan, bu holat "axborot pufakchasi"ni yaratib, turli qarashlar o'rtasida sun'iy devorlar hosil qiladi. Shu bilan birga, AI texnologiyalari to'g'ri yo'naltirilsa, madaniyatlararo tushunishni rivojlantiruvchi, nafrat nutqini kamaytiruvchi va empatiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Demak, Internet, media va sun'iy intellektning ta'siri ostida bag'rikenglik madaniyati "raqamli tolerantlik" bosqichiga o'tmoqda. Bu bosqichda inson faqat muloqot ishtirokchisi emas, balki axborot etikasi va empatiya amaliyotining faol subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

XXI asr ijtimoiy-falsafiy tafakkurida "axborot makoni", "kiberjamiyat" va "virtual madaniyat" tushunchalari insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini ifodalovchi asosiy kategoriyalarga aylandi. Axborot makoni – bu texnologik vositalar orqali yaratilgan global kommunikatsiya muhitidir. U inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab olgan bo'lib, axborot ishlab chiqarish, tarqatish va iste'mol qilishning o'zaro bog'liq tizimini tashkil etadi. Marshal Makluyen o'zining mashhur g'oyasida "dunyo endilikda global qishloqqa aylandi"[6.–P.126], deya ta'kidlab, axborot makonini madaniy birlikni ta'minlovchi asosiy platforma sifatida talqin qilgan. Axborot makoni inson tafakkurining raqamli shaklini yaratib, yangi axloqiy va ma'naviy mezonlarni shakllantirmoqda.

Kiberjamiyat esa ushbu axborot makonida mavjud bo'lgan ijtimoiy birlikdir. U jismoniy chegaralarga ega emas, lekin virtual aloqalar va raqamli identifikatsiyalar asosida faoliyat yuritadi. Levi P'iyer fikricha, "kiberjamiyat – bu bilish va tajriba almashinuvi asosida birlashgan insonlarning kollektiv intellekti"[7.–P.19]. Shu bois, kiberjamiyatda insonlar o'zaro muloqotda bo'libgina qolmay, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy qadriyatlarni birgalikda qayta ishlab chiqadi. Virtual madaniyat esa kiberjamiyat faoliyatining mahsulidir. U madaniy an'analar, ramzlar, timsollar va ma'naviy qadriyatlarining raqamli shaklda namoyon bo'lishini anglatadi. Sherri Terkl o'zining "Life on the Screen" asarida "virtual madaniyat shaxsning ko'p qirrali identifikatsiyasi va o'zini qayta yaratish jarayoni"[8.–P.216], deb yozadi. Demak, virtual madaniyat insonni nafaqat axborot iste'molchisi, balki raqamli ijodkor sifatida ham shakllantiradi. Axborot makoni – texnologik asos, kiberjamiyat – ijtimoiy tuzilma, virtual madaniyat esa, ma'naviy mahsuldir. Ularning o'zaro ta'siri zamonaviy jamiyatda "raqamli sivilizatsiya" deb ataluvchi yangi ijtimoiy voqelikni yuzaga keltirdi.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik siyosati va ma'naviy tamoyillarining shakllanishi mustaqillikdan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonning asosi, avvalo, mamlakatning tarixiy tajribasi, ko'p millatli jamiyat sifatida o'zaro hurmat va hamjihatlik an'analarga tayanadi. Mustaqillik yillarida millatlararo munosabatlar siyosiy emas, balki ma'naviy-axloqiy birlik tamoyiliga asoslangan holda shakllandi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "O'zbekiston xalqi o'z tarixida millatlararo totuvlikni eng oliy insoniy qadriyat sifatida qadrlab kelgan"[9.–B.33] O'zbekistonda millatlararo totuvlik siyosati va ma'naviy tamoyillarining shakllanishini shartli ravishda uch bosqichga bo'lish mumkin: **Birinchi bosqich** (1991–2000 yillar)da millatlararo totuvlik siyosati milliy mustaqillik mafkurasi doirasida milliy o'zlikni anglash va millatlararo tenglik tamoyillarini mustahkamlashga qaratildi. Shu davrda Konstitutsiyada barcha fuqarolarning tili, dini, millatidan qat'i nazar, teng huquqliligi kafolatlandi.

Ikkinchi bosqich (2000–2016 yillar)da madaniyatlararo muloqotni kengaytirish, xalq diplomatiyasini rivojlantirish, milliy madaniyat markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat



siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu davrda totuvlikni saqlashda "O'zbekiston – umumiy uyimiz" konsepsiyasi ma'naviy tamoyil sifatida shakllandi. **Uchinchi bosqich** (2017 yildan hozirgacha) esa "Yangi O'zbekiston" davri sifatida millatlararo totuvlikni raqamli jamiyat qurilishi bilan uyg'unlashtirish bosqichidir. "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi" faoliyati takomillashtirildi, raqamli madaniyat, ta'lim va axborot siyosati orqali bag'rikenglikni mustahkamlash strategiyasi ishlab chiqildi. Natijada O'zbekiston modelida millatlararo totuvlik siyosati ma'naviy birlik, ijtimoiy barqarorlik va madaniyatlararo muloqot tamoyillariga tayanib, milliy va global qadriyatlar sintezida rivojlanadi.

Millatlararo muloqotda "virtual identiklik" va "raqamli tolerantlik" fenomenlari raqamli sivilizatsiya sharoitida insonning o'zini anglash, boshqalar bilan muloqot qilish va ijtimoiy o'rnini belgilash jarayonlarida yangi sifat bosqichini belgilab bermoqda. Virtual muhitda shaxsning identikligi nafaqat milliy yoki dini mansublik orqali, balki raqamli o'zini ifoda etish (digital self-expression) va madaniy ko'rinishlarning onlayn tarmoqlardagi aks etishi orqali shakllanadi. Shunday qilib, "virtual identiklik" – bu insonning raqamli makondagi o'zini namoyon etish strategiyasi bo'lib, u real dunyodagi ijtimoiy identifikatsiya bilan o'zaro aloqador[8.–P.16], ammo undan mustaqil dinamikaga ega.

Raqamli tarmoqlar kengaygani sari millatlararo muloqotda madaniy farqlarni tushunish va hurmat qilishning yangi shakli – **"raqamli tolerantlik"** shakllanmoqda. Bu hodisa o'zaro fikr almashish, madaniyatlararo o'zaro ta'sir, hamda onlayn etikani shakllantirish orqali rivojlanadi. Shaxs yoki guruhlarning turli madaniy kontekstlarda o'zaro muloqoti virtual muhitda "madaniyatlar kesishuvi"ni keltirib chiqaradi, bu esa bag'rikenglikning yangi raqamli qirralarini ochadi.

Shu bilan birga, "virtual identiklik" millatlararo muloqotda stereotiplarni yengish, o'zini va boshqani anglash, madaniyatlararo integratsiyani kuchaytirish vositasiga aylanmoqda. "Raqamli tolerantlik" esa nafaqat individual darajada, balki jamiyatning raqamli etikasi va global kommunikatsiya madaniyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida qaralmoqda. Demak, raqamli muhitda millatlararo totuvlikni saqlashning muhim sharti – virtual identiklikni madaniy mas'uliyat bilan boshqarish va raqamli tolerantlikni ijtimoiy-axloqiy norma sifatida qaror toptirishdir.

Zamonaviy jamiyatda millatlararo totuvlik madaniyatini barqaror shakllantirish jarayoni murakkab tizimli xususiyatga ega bo'lib, uni tushuntirishda sinergetik va aksiologik yondashuvlar alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki totuvlik madaniyati – bu nafaqat siyosiy yoki ijtimoiy mexanizm, balki o'zaro ta'sir, o'zgaruvchanlik va qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan ijtimoiy tizimdir.

Sinergetik yondashuv nazariyasiga ko'ra (I. Prigojin, H. Haken), har qanday ijtimoiy tizim muvozanat holatini o'zaro ta'sir, tartibsizlik va o'z-o'zini tashkil etish jarayonlari orqali saqlab turadi. Shu ma'noda, millatlararo totuvlik ham "tashqi beqarorlik" – ya'ni madaniy xilma-xillik, iqtisodiy tafovutlar va siyosiy bosimlar sharoitida o'zini qayta tiklay oluvchi ochiq tizim sifatida namoyon bo'ladi. Totuvlik madaniyatining sinergetik modeli – bu tartib va xaos o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm bo'lib, u bag'rikenglik, muloqot va hamkorlik orqali o'zini yangilab boradi.

Mazkur yondashuvda muhim jihat – totuvlikni "tayyor holat" emas, balki jarayon sifatida ko'rishdir. Jamiyatdagi har bir madaniy yoki etnik guruh bu tizimning faol ishtirokchisiga aylanadi. Sinergetik yondashuv totuvlikni yuqoridan pastga yo'naltirilgan siyosat emas, balki ijtimoiy o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan o'z-o'zini tartibga solish sifatida talqin etadi. Shu tarzda, millatlararo totuvlik dinamik tizim sifatida doimiy dialog, tolerantlik va o'zaro ishonch muvozanatini yaratadi.



Aksiologik yondashuv esa bu tizimning qadriyatlar asosini ochib beradi. Unga ko'ra, totuvlik madaniyati millatlararo muloqotda nafaqat manfaatlar muvozanati, balki axloqiy me'yorlar, insonparvarlik va madaniy hurmat tamoyillariga tayanadi. Qadriyatlar tizimi jamiyatdagi bag'rikenglikni ijtimoiy ongning barqaror tarkibiy qismiga aylantiradi. Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Millatlararo totuvlik – bu xalqimizning ma'naviy yutug'i, kelajak taraqqiyotining kafolatidir"[9.–B.36]. Aksiologik yondashuv totuvlikni ma'naviy qadriyat sifatida baholaydi va uni shaxsning ichki dunyosiga singdirishga qaratilgan ta'lim, madaniyat, axloqiy tarbiya tizimlarini zarur deb biladi. Bu modelda totuvlikni mustahkamlovchi asosiy qadriyatlar – adolat, hurmat, bag'rikenglik, hamjihatlik va o'zaro mas'uliyat tamoyillaridir.

Shunday qilib, sinergetik va aksiologik yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi ikki ilmiy asos sifatida totuvlik madaniyatining integral modelini shakllantiradi. Sinergetik jihatdan bu model jamiyatdagi ijtimoiy energiyani tartibga solish mexanizmini izohlaydi, aksiologik jihatdan esa uni ma'naviy mazmun bilan to'ldiradi. Natijada, totuvlik madaniyati – bu o'zaro ta'sirlar muvozanati, qadriyatlar uyg'unligi va ijtimoiy barqarorlikning sintezidir. Shu model asosida millatlararo hamjihatlik nafaqat siyosiy zarurat, balki insoniyatning ma'naviy taraqqiyot yo'lidagi muhim qadriyat sifatida qaraladi.

XULOSA. Raqamli sivilizatsiya kontekstida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik madaniyatining o'zgarish dinamikasi xulosa qilib aytganda birinchidan, raqamli sivilizatsiya sharoitida millatlararo totuvlik madaniyati yangi kommunikativ maydonga – virtual muloqot muhitiga ko'chdi. Bu jarayon insonlar o'rtasidagi madaniy almashinuvni tezlashtirgan bo'lsa-da, ijtimoiy identifikatsiyaning noaniqlashuviga ham sabab bo'lmoqda.

Ikkinchidan, bag'rikenglikning raqamli shakli – "virtual tolerantlik" fenomeni sifatida shakllanib, onlayn muhitda hurmat, hamjihatlik va o'zaro anglashuvni yangi etik me'yorlar asosida ifodalaydi.

Uchinchidan, raqamli platformalarda axborot oqimining kuchayishi stereotiplar va milliy ziddiyatlarni kuchaytirishi mumkin, shu bois raqamli axloq madaniyatini rivojlantirish totuvlikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi.

To'rtinchidan, sinergetik yondashuv asosida raqamli makon millatlararo totuvlikning murakkab tizimi sifatida talqin etilib, unda o'zaro ta'sir, uyg'unlik va o'zgarish jarayonlari dinamik holatda kechadi.

Beshinchidan, aksiologik jihatdan, raqamli tolerantlik insoniyatni umumiy qadriyatlar – hurmat, adolat va bag'rikenglik asosida birlashtiruvchi global madaniy hodisaga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Castells, M. The Information Age: Economy, Society, and Culture. Volume №.1. – Oxford.: "Blackwell", 1996. – P.128.
2. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge.: "Polity Press", 2000. – P.13.
3. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Boston: Beacon Press, 1984.
4. Chomsky, N., & Herman, E. Manufacturing Consent: The Political Economy of the Mass Media. – New-York.: "Pantheon Books", 1988. – P.73.
5. Floridi, L. The Ethics of Information. – London.: "Oxford University Press", 2013. – P.23.
6. McLuhan, M. Understanding Media: The Extensions of Man. – New-York.: "McGraw-Hill", 1964. – P.126.
7. Lévy P. Cyberculture. – Paris.: "Odile Jacob", 1997. – P.19.



8. Turkle, S. Life on the Screen: Identity in the Age of the Internet. – New-York.: “Simon Schuster”, 1995. – P.216.

9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2021. – B.33.

Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat universiteti

MILLATLARARO BAG'RIKENGLIKNI TADBIRKORLIK AXLOQIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Maqolada millatlararo bag'rikenglik tadbirkorlik axloqiga ijobiy ta'siri yoritilgan bo'lib, mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat vakillari teng huquqli ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Muallif maqolani yoritishda mamlakatimizni ko'pmillatli davlat ekanligini yoritib bergan va millatlararo bag'rikenglikning tadbirkorlik axloqiga ijobiy ta'siriga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, millatlararo bag'rikenglik, tadbirkorlik, tadbirkorlik axloqi, mehnat unumdorligi.

THE IMPACT OF INTERNATIONAL TOLERANCE ON ENTREPRENEURIAL ETHICS

Annotation: The article highlights the positive impact of interethnic tolerance on entrepreneurial ethics, and shows that all nationalities and ethnic groups living in our country have equal rights. In highlighting the article, the author highlights the fact that our country is a multinational state and draws attention to the positive impact of interethnic tolerance on entrepreneurial ethics.

Keywords: New Uzbekistan, interethnic tolerance, entrepreneurship, entrepreneurial ethics, labor productivity.

Kirish. Millatlararo bag'rikenglik tadbirkorlik axloqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa bu Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Chunki, millatlararo bag'rikenglik xilma-xillik qadrlanadi va xalqlar o'rtasidagi amal qilayotgan qadriyat, urf-odat va an'analardagi farqlar hurmat qilinadigan muhitini yaratadi. Bu mehnat unumdorligini oshirishga, turli millat vakillari bo'lgan xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga va nizolarning oldini olishga olib keladi. Bag'rikenglik tamoyillari o'zaro tushunish va barcha tomonlarning manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan yanada ochiq, samarali va axloqiy tadbirkorlik munosabatlarini o'rnatishga yordam beradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakatda istiqomat qiluvchi barcha millat va elat vakillari teng huquqli ekanligi belgilab qo'yilgan. Ya'ni, Konstitutsiyasining 4-moddasida millatlararo masalalarga to'xtalib o'tilgan bo'lib, unda “O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi” [1. – B. 6] deb ta'kidlanadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining teng huquqli ekanligi ta'kidlanib, ular faoliyat yuritishi uchun qulay sharoit yaratib berilayotgani belgilab qo'yilgan. Bu jamiyatning stratifikatsion jarayonlarini adolatli bo'lishini



ta'minlaydi, unda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining O'zbekiston Respublikasining teng huquqli fuqarosi ekanligini anglatadi.

Tahlil va natijalar. Bozor munosabatlari insonni tartibli hayotga undab, mushohada asosida ish tutish, tadbirkorlik, hamma narsaga ongli yondashuv va oqillik bilan ish yuritishni talab etadi. Me'yorsiz ravishdagi bag'rikenglik, hotamtoylik saxovatpeshalik, agar kerak bo'lsa serchiqimlilik, hisobsiz sarf-xarajat qilishga moyillik singari holatlar shu yo'nalishdagi faoliyatimizni ma'lum darajada cheklaydi.

Hozirgi kunda millatlararo bag'rikenglik masalalarining dolzarbligi yanada oshib borayotganligini teran anglagan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev "...bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi taxdid va xatarlar tobora ortmoqda" [2], deb alohida ta'kidlagan edi.

Millatlararo bag'rikenglikning tadbirkorlik axloqiga ijobiy ta'siri quyidagi yo'nalishlarda ko'zga tashlanmoqda:

- Ijobiy ish muhitini yaratadi: Bag'rikenglik xodimlar millatidan qat'i nazar, o'zlarini qulay va xavfsiz his qiladigan o'zaro hurmat muhitini yaratadi.

- O'zaro ta'sir va hamkorlikni yaxshilaydi: Boshqa madaniyat vakillari bilan tushunish va hamkorlik qilishga tayyorlik samarali jamoaviy ishni o'rnatishga va milliy farqlarga asoslangan nizolarning oldini olishga yordam beradi.

- Mehnat unumdorligini oshiradi: Bag'rikenglik muhitida turli madaniyatlardan bo'lgan xodimlar o'zlarining noyob hissalarini qo'shishlari mumkin, bu esa innovatsiyalarni rag'batlantiradi va kompaniyaning umumiy unumdorligini oshiradi.

- Tadbirkorlik obro'sini mustahkamlaydi: Millatlararo bag'rikenglikni namoyish etadigan kompaniya axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatliroq deb qabul qilinadi, bu uning obro'siga ijobiy ta'sir qiladi.

- Shaxsiy o'sishni rag'batlantiradi: Turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish xodimlarning tajribasini boyitadi, ularning dunyoqarashini kengaytiradi va shaxsiy o'sishni rag'batlantiradi.

- Mojarolarni hal qilishga yordam beradi: Bag'rikenglik barcha tomonlarning manfaatlarini hisobga olgan holda murosaga kelish va yechimlarni topishga imkon beradi, bu esa tadbirkorlik axloqining asosiy elementidir.

Bag'rikenglik boshqalarni ular kabi qabul qilishga va ular bilan rozilik asosida muloqot qilishga tayyorlikni nazarda tutadi. Bu befarqlik, konformizm yoki o'z manfaatlarini buzishga aylantirilmasligi kerak. Eng muhimi, bag'rikenglik barcha manfaatdor tomonlarning o'zaro bog'liqligi va faol pozitsiyasini nazarda tutadi. Bag'rikenglik o'z qadriyatlariga ega bo'lgan va zarur bo'lganda ularni himoya qilishga tayyor bo'lgan, shu bilan birga boshqalarning pozitsiyalari va qadriyatlarini hurmat qilgan yetuk shaxsning hayotiy pozitsiyasining muhim tarkibiy qismidir. "Bag'rikenglik" tushunchasining mohiyati insoniyat birligi va har bir shaxsning o'zaro bog'liqligini intuitiv idrok etishni aks ettiradi. U boshqalarning huquqlarini (shu jumladan, boshqacha bo'lish huquqini) hurmat qilish va zarar yetkazmaslikdan iborat, chunki boshqaga zarar yetkazish hammaga va o'ziga zarar yetkazishni anglatadi..

Bag'rikenglik ko'p millatli tadbirkorlik faoliyatlarida xulq-atvor normalari va qoidalarini shakllantirish, madaniyatlararo o'zaro ta'sirni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun sharoit yaratish va nizolarning oldini olish orqali tadbirkorlik axloqiga ta'sir qiladi. Bu madaniy farqlarni hurmat qilishga asoslangan yanada moslashuvchan va axloqiy tadbirkorlik faoliyati amaliyotlarini



rivojlantirishga yordam beradi, bu esa samaradorlikni oshirishga va xavflarni kamaytirishga olib keladi.

Bag'rikenglik tadbirkorlik axloqiga quyidagi omillar orqali ta'sir qiladi:

- Tadbirkorlik faoliyatining odob-axloq qoidalarini rivojlantirish: Bag'rikenglik tadbirkorlik muloqotida xulq-atvor qoidalarini ishlab chiqishning asosidir. Bu madaniyatlar, an'analar va tadbirkorlik faoliyati amaliyotlaridagi farqlarni hisobga oladigan normalarni o'rnatishga yordam beradi.

- Mojarolarning oldini olish: Turli dunyoqarashlar va urf-odatlariga bag'rikenglik madaniy farqlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklar va nizolarning oldini olishga yordam beradi va yanada uyg'unlashgan tadbirkorlik muhitini yaratishga hissa qo'shadi.

- Samaradorlikni oshirish: Turli mamlakatlar va madaniyatlardan kelgan xorijiy investorlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ishonchni mustahkamlaydi, bu esa o'z navbatida muzokaralar natijalariga va umumiy biznes muvaffaqiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Axloqiy standartlarni ishlab chiqish: bag'rikenglik kompaniyalarni o'z xodimlari, sheriklari va mijozlarining xilma-xilligini hisobga oladigan axloqiy standartlarni ishlab chiqishga undaydi. Bu global muhitda yuqori axloqiy tamoyillarni saqlashga yordam beradi.

- Tadbirkorlik moslashuvchanligini rivojlantirish: Ko'p madaniyatli muhitda bag'rikenglik kompaniyalarga yanada moslashuvchan bo'lish va o'z strategiyalari va yondashuvlarini mahalliy voqelikka moslashtirish imkonini beradi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Xulosa. So'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarda yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. Mazkur tizimning muvaffaqiyati esa yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

Adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. 120 b.
2. III. Мирзиёев: Жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир. <https://president.uz/uz/lists/view/4089>

Safarova Jasmina Alisher qizi

Mustaqil tadqiqotchi

Jasminasafarova91@gmail.com

OILAVIY NIZOLAR TURLARI VA VUJUDGA KELISH SABABLARI

Annotatsiya: Har qanday oila o'z hayoti davomida muammoli vaziyatlarga duch keladi, ularni hal qilish qarama-qarshi individual ehtiyojlar, motivlar va manfaatlar sharoitida amalga oshiriladi. Ziddiyat qarama-qarshi maqsadlar, manfaatlar, pozitsiyalar, fikrlarning to'qnashuvi sifatida tavsiflanadi. Oilaviy mojarolar nizolarga bo'linadi: turmush o'rtoqlar, ota-onalar va bolalar, har bir turmush o'rtog'ining turmush o'rtog'i va ota-onasi, buvisi va buvisi. Oilaviy munosabatlarda oilaviy nizolar asosiy rol o'ynaydi. Ular, ehtimol, turmush o'rtoqlarning ehtiyojlarini qondirmaslikdan kelib



chiqadi. Tashqi omillar oilaviy nizolarning paydo bo'lishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda: ko'p oilalarning moddiy ahvolining yomonlashishi; turmush o'rtoqlardan birining (yoki ikkalasining) ish joyida ortiqcha ish bilan ta'minlanishi; turmush o'rtoqlardan birini normal ish bilan ta'minlashning iloji yo'qligi; ularining uzoq vaqt yo'qligi; bolalarni uyushtirish uchun imkoniyat yo'qligi bolalar muassasasi va boshqalar. Ko'pchilik uchun ajralish dushmanlikdan, yoqtirmaslikdan, aldashdan va ularning hayotini qoraytirgan narsalardan xalos qiladi. Albatta, bu ham salbiy oqibatlarga olib keladi. Ular ajralishlar, bolalar va jamiyat uchun har xil. Ajralishda eng zaif tomon odatda bolalari bo'lgan ayodir. U ko'proq asab-psixiatrik kasalliklarga moyil odam.

Kalit so'zlar: oila, muammoli vaziyatlar, mojaro, pozitsiya, er-xotin, bolalar, ajralish, jamiyat, salbiy oqibatlar, kontrast, ota-ona, qiyinchilik.

ABSTRACT: Any family faces problematic situations throughout their life, their solution is carried out in conditions of anti-dependence individual needs, motives and interests. Conflict is defined as a conflict of views of opposing goals, interests, positions, thoughts. Family conflicts are divided into conflicts: spouses, parents and children, spouses and parents of each spouse, grandmother and grandmother. In family relations, family conflicts play a key role. They probably come from the fact that they do not meet the needs of the. External factors significantly affect the emergence of family conflicts: deterioration of the material condition of many families; excessive employment of one of the spouses in the workplace; inability to provide one of the spouses with normal employment; long absence of their homes; lack of opportunities to organize children children's institutions, etc. For many, divorce is free from enmity, dislike, deception and what has darkened their lives. Of course, this also has negative consequences. They are different for divorces, children and society. The weakest side in divorce is usually the woman with children. He is more nervous-a person prone to psychiatric disorders.

Keywords: family, problematic situations, conflict, positions, spouses, children, divorce, society, negative consequences, contrast, parents, difficulty.

KIRISH

V.G.Belinskiy shunday degan “Shunga qat’iy imonim komilki, er-xotin ittifoqi tevarakatrofdagilarning aralashuvidan xoli bo’lmog’i kerak, binobarin, bu ikki kishidan boshqa hyech kimning ishi emas”. Oila insonlarni birlashtirib turuvchi eng kichik ijtimoiy birlik bo’lib, uning tinchligi, ravnaqi va barqarorligi jamiyat tinchligi va barqarorligi hisoblanadi. Yana olim J.Santayana oilaga ta’rif bera turib, “Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir”, deydi. Oiladagi nizolar - bu juftlarni psixologga davolanishning eng keng tarqalgan sababi. Oiladagi nizolarni hal qilish usullari asosan jamiyatning muayyan hujayrasi doirasida qanday janjal yuzaga kelganiga bog’liq. Ota-ona munosabatlari va nikoh tushunchalari bolalarda bo’lgan oiladagi nizolar juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki kishining fikrlari yoki istaklari bilan to'qnashganda, natijada ular umumiy yo'nalishni topishni istashganida, oiladagi nizolarni tabiiy jarayon deb biladi. Hatto janjallar janjal paytida janjallashishlariga qaramay, janjallar er-xotinning birligini anglatadi, deyish mumkin. Birinchidan, agar er-xotinlar janjallashayotgan bo'lsa, demak, ular bilan baham ko'radigan narsa bor. Va odamlar har doim ham umumiy mulkni emas, balki erkinlikni, shaxsiy hududni, bolalarni va boshqalarni baham ko'rishadi. Boshqacha qilib aytganda, er-xotinlar janjal mavzusi ular uchun muhim bo'lgan taqdirdagina janjallashadilar. Bundan tashqari, qarama-qarshi tomon bilan janjallashishni istamagan odam mojaro yuzaga keladi. Bunday paradoks: odamlar o'zlariga zarar etkazmasdan, bir-birlarini xafa qilishni istamasliklari sababli janjal qilishadi. Ikkinchidan, mojaro shuni ko'rsatadiki, er-xotinlar hali ham o'sha yo'lda harakat qilishmoqda. Mojaro - bu ikki kishi borishga tayyor bo'lgan yo'lning yo'qligi.



Aynan janjal paytida ular uni topishga harakat qilishdi. Bu shuni anglatadiki, odamlar birgalikda harakat qilishni istaydilar, shuning uchun ular hozirgacha eng yaxshi variant deb o'ylagan narsani bir-birlariga majbur qilish uchun juda ko'p harakat qilishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, tarixiylik, izchillik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Yoshlarda ijtimoiy faollik holati va amalga oshirish shakllari haqida tahlil olib borildi. Tursunova N.ning “Yoshlarning ijtimoiy faolligi: tushuncha va fazilatlar” nomli o'quv qo'llanmasi metodologik manba bo'lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Psixologlar oilaviy janjallarni normal holat deb bilishadi. Qarama-qarshiliklar tufayli er-xotinlar bir-birlarini yomon ko'rishni boshlaydilar, hatto undan ham ko'proq ajralishadi. Shuning uchun har doim paydo bo'ladigan oiladagi nizolarni qanday hal qilish masalasi juda muhim bo'lib qoladi. Odamlar janjallashishi tabiiy, ayniqsa bu odamlar turmush o'rtog'i va mehribon sherik bo'lsa. Sizning munosabatlaringizda hech qachon janjal bo'lmaydi deb umid qilish ahmoqlikdir, chunki dunyoda bir xil ikkita odam yo'q. Siz qanchalik yaqin va sevikli bo'lishingizdan qat'iy nazar, har doim sizning fikringiz sherikingiz bilan mos kelmaydigan savollar mavjud. Odamlar odatda bahsli masalalarni qanday hal qilishadi? Ular qichqiradi, tanqid qiladi, qoralaydi, janjal qiladi, hatto idishlarni sindirib, yugurib keladi. Hech kimga sir emaski, muammolarni hal qilishning bunday usullari nafaqat sevuvchilarning munosabatlarida iz qoldiradi. Biroq, odamlar ba'zi bir tushunchalar bo'yicha kelisha olmasalar, hamma qichqiradi va qichqiradi. Ammo bitta haqiqatni yodda tutish kerak: qichqirganni eshitish mumkin emas! Shuning uchun janjal va qichqiriqdan so'ng, sheriklar bir-birlari bilan tinch ohangda muloqot qilishni boshlamaguncha, muammo hal qilinmaydi.

Oiladagi nizolarning turlari. Nizolarning eng keng tarqalgan tasnifi:

Konstruktiv to'qnashuvlar. Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud, ammo ularning yechimi ikkala uzumchiga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo'ladimi, natijasi doimo gullab yashnaydi.

Yomon nizolar. Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hisini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin. Oilaviy mojaro yuzaga kelishining sabablari bor ko'p miqdorda, chunki nikoh nafaqat qo'shma uyni saqlash va farzand ko'rish, balki ularning istaklarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish va baxtli yashash istagini ham o'z ichiga oladi. Erkak va ayol turmush qurishni davom ettirish orqali hayotlarini yaxshilashni xohlaydigan odamlar bo'lib qolmoqdalar. Biroq, nizolar, turmush o'rtog'i qarama-qarshi yoki turli xil qarashlarga, istaklarga, manfaatlarga, ehtiyojlarga va boshqalarga qarshi to'qnashuv yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Er-xotin o'rtasidagi janjallarning tez-tez sabablari quyidagilardir:

Turmush o'rtoqlardan birining mastligi.

Oilaviy hayotni o'tkazish bo'yicha qarashlarning farqi.

Zino.

Turmush o'rtoqlarning xudbinligi.

Haddan tashqari rashk.

Sheriklarga nisbatan hurmatsizlik.

Qondirilmagan ehtiyojlar.

Turmush o'rtoqlardan birining bolalarni tarbiyalashda yoki hayotni boshqarishda ishtirok etmasligi. Ma'lumki yuqoridagi sabablarning qaysi biridir ko'proq foizni qaysi biridir kamroq foizni



tashkil etadi, lekin baribir o'z o'rnida oilaviy konfliktlarni vujudga keltirmoqda. Oila nizolarini hal qilish usullari. Oiladagi nizolarni hal etishning ko'pgina samarasiz usullari mavjud, ulardan foydalanish nafaqat sizning qimmatbaho vaqtni olib tashlashi mumkin, balki oiladagi mojaroni yanada kuchaytirishi mumkin. Oilangizdagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun oilaviy psixologlardan yordam so'rang va oilangizga qo'shnilar, tanishlar yoki ota-onalarning maslahatini tekshirmang. Oilada hech qanday qarama-qarshiliklar mavjud emas, chunki oila munosabatlarining o'ziga xos jihati shundaki, qarama-qarshi jinsdagi odamlar butunlay boshqacha hayotiy hikoyalar va turli xil tarbiya bilan uyulanadi va ayni paytda ular bir-birlari bilan bir-birining tagida bo'lishlari kerak. Bu holatda bajarilishi mumkin bo'lgan barcha narsalar oiladagi nizolarning oldini olishdir.

Oiladagi nizolarni hal qilish uchun siz tushunishga intilishingiz kerak. Agar ikkala turmush o'rtog'i bir-birlarini eshitishga harakat qilsalar, unda murosaga kelish mumkin. Bu erda g'alaba qozonishning hojati yo'q, chunki g'alaba yutqazishni taxmin qiladi. Ittifoq - bu qul va xo'jayin emas, ikki teng sherikning birlashmasi. Ikki turmush o'rtoq o'zaro munosabatlarda qulay bo'lishi kerak, natijada kimdirning xohish-istaklari amalga oshmagan sababli nikoh ittifoqi buzilmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo'lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o'z-o'zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo'rqinchli bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. Muammoni hal qilish, g'alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni yechimi bo'lib qolmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. D. Levinson. "Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik". Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (1989)
2. H. Makkubbin, S. Figli, "Stress va oila: Normativ o'tishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983).
3. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiysiyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
4. Po'latov, Sh.N., Rabindranat Tagorning Hindiston ilm-ma'rifatga qo'shgan xissasi.// "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 136-144 P.
5. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020 21-27 P.
6. Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.
7. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.

**Xodjayev Dilshod Xamidxonovich**

Namangan Davlat Universiteti doktoranti

E-mail: kosonsoydilshod@gmail.com

CHET TILI O'RGANISH MAQSADIDA MUTOLAA QILINADIGAN XORIJIY BADIY ADABIYOTLARNING O'QUVCHINING KOMILLIGIGA TA'SIRI

Anotatsiya: ushbu maqolada chet tillarini o'rganish jarayonida, o'rganilayotgan chet tilida yozilgan badiiy asarlar o'qish orqali o'quvchilarning til kompetensiyasining rivojlanish bilan bir qatorda badiiy asarlarning mazmun mohiyati o'quvchining axloqiy va psixologik tarbiyasiga ta'sir o'tkazishi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: kontsepsiya, madaniy savodxonlik, madaniyatlararo ta'lim, geym pedagogik kontsepsiya, adekvat idrok, bimadaniy ta'lim, substantiv, protsessual, semantik, pertseptiv, vizual, romantizm, realizm, naturalizm, neoromantizm, estetika.

Annotation: This article describes the development of students' linguistic competence in the process of learning foreign languages by reading literary works written in a foreign language, the development of students' linguistic competence, as well as the influence of the content of works of art on the moral and psychological education of students.

Key words: concept, cultural literacy, intercultural education, game pedagogical concept, adequate perception, bicultural education, content, procedural, semantic, perceptual, visual, romanticism, realism, naturalism, neo-romanticism, aesthetics.

Kirish

XX-asr oxiri va XXI-asr boshida O'zbekistonda xalqaro muloqot tillari turkumiga kiritilgan chet tillarini o'rganishning ijtimoiy-madaniy konteksti sezilarli darajada o'zgara boshladi. O'zbekistonning bosqichma-bosqich yopiq jamiyat siyosatidan ochiq jamiyat siyosatiga o'tishi, xalqaro hamkorlikning nafaqat davlat darajasidan, shaxsiy miqyosda ham rivojlanishiga turtki bo'ldi, bu esa chet tilining o'quv predmeti sifatidagi ijtimoiy mavqeiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston fuqarolariga xalqaro muloqot tillaridan birini zudlik bilan o'zlashtirish maqsadi qo'yildi, chunki chet tilida erkin so'zlasha olish ko'nikmasini mavjud emasligi ochiq jamiyatning axborot va boshqa afzalliklaridan to'liq foydalana olish imkoniyatidan cheklab qo'ygan edi. O'zbekistonning barcha jabhalarida, jumladan, ta'lim sohasida ham tub islohotlarni amalga oshirish, ta'lim institutlari oldiga chet tillarini o'qitish mazmuni va uslublarini sezilarli darajada yangilash vazifasi qo'yildi. Hozirgi vaqtda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida chet tillarini o'qitish nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan geym pedagogik kontsepsiyalari jadal rivojlanmoqda. Mohiyati o'xshash bo'lgan bu tushunchalarda o'quvchilarni tili o'rganilayotgan mamlakatlar va xalqlar madaniyati bilan yaqindan tanishtirish asosida tarbiyalash g'oyasi ko'zda tutilgan. Masalan, "madaniy savodxonlik" tushunchasi (Cultural Literacy), "madaniyatlararo ta'lim" (Interkulturelles Konzept, interkultureller Ansatz), tilshunoslik va mintaqashunoslik yo'nalishi, ushbu til o'rganish prinsiplari turli tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan. Chet tillarini o'qitishning maqsadlari "ko'p funktsiyali ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish va keyinchalik dinamik rivojlantirish" ni o'z ichiga oladi [V. V. Safonova 1998:29], shaxsga turli xil madaniyatlar va sivilizatsiyalar va ular bilan bog'liq muloqotning kommunikativ normalarida muloqot olib borish, madaniyat faktlari (shu jumladan nutq madaniyatini) shaxsiy va kasbiy ahamiyatiga ega bo'lgan tilning vazifalaridan foydalangan holda uni ko'nikmaga aylantirish vazifasi turadi. Chet tilini o'qitishga madaniy yondashuv ushbu o'quv fanining ta'lim ahamiyati ni sezilarli darajada oshirishi mumkin.



O'rganilayotgan chet tiliga mansub bo'lgan madaniyatga tug'ridan tug'ri aloqada bo'lish imkoni bo'lmagan holda o'sha chet tilida yozilgan asarlarning mutoalasi maqsad qilingan madaniyatni o'rganishga eng maqbul usuldir. Axborotni adekvat idrok etish va tushunish nutq faoliyatining retseptiv turlari bo'yicha yuqori rivojlangan ko'nikmalar mavjudligini nazarda tutadi, shu bilan birga, barcha maktab bitiruvchilari kelajakda o'zlari o'rganayotgan til mamlakatlariga tashrif buyurish imkoniyatiga ega bo'lmasligi aniq. Shuning uchun o'qishni o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llarini izlash dolzarbdir.

Tahlil va natijalar

Zamonaviy dunyoda madaniyatlararo muloqot doimiy ravishda kengayishi va chuqurlashish sharoitida chet tilini o'rganish orqali bimadaniy ta'limning globallasuvi keng islohotni talab qiladi. YuNESKO tavsiyalari va o'rganilayotgan tilning ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda, madaniyatlar o'rtasidagi muloqot tinchlik, inson huquqlarini hurmat qilish, insonparvarlik ruhida olib borilishi lozim.

Ko'plab metodistlar (J.L. Vitlin 1993, 1996, E.I. Passov 1991, 1993, V.V. Safonova, N.G. Solovyova 1997, V.P. Furmanova 1992, 1994, I.I. Xaleeva 1989 va boshqalar)ning fikriga ko'ra quydagi aspektlar: tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiyistik, kommunikativ-pragmatik XXI-asrda til o'rgatishning majburiy tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida kitobxonlikning ahamiyati ortib bormoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va xalqaro aloqalarning kengayishi tufayli turli tillardagi ma'lumotlar miqdori tobora kengaymoqda, uni qanday qabul qilishni va turli maqsadlarda foydalanishni biladigan mutaxassislariga bo'lgan talab ortmoqda va shuning uchun ko'proq maqsadli ma'lumotlarni egallashga bo'lgan ehtiyojga talab oshmoqda. O'quvchilarni asarlarni o'qishga qiziktirish umumiy, ommabop asarlardan boshlash lozim, kitob o'qish ko'nikmasi hosil bo'lgandan so'ngina tanlangan kasb yoki ilmiy yo'nalishga doir asarlar o'qishni tavsiya beriladi.

Shuni takidlash joizki, chet tilini o'rgatishda badiiy asarlardan foydalanish texnikasi azaldan mavjud bo'lsada hozirgi pedagoglar tomonidan qo'llanilmayapti, asosan turli nashriyotlar tomonidan ishlab chiqilgan qo'llanmalardan intensiv foydalanilmoqda. To'g'ri bu intensiv darsliklar tilni o'rgatishni jadallik bilan olib boradi, biroq biz pedagoglar o'quvchini nafaqat bilimi balki uning dunyo qarashi, psixologik mustahkam xarakterga ega bo'lishi, estetik qarashlarini rivojlanishiga ham mas'uldirmiz. Yuqorida sanab o'tilgan barcha ijobiy xislatlarni o'quvchilar o'zlariga ideal qilib olgan qahramonlardan taqlid qilish orqali ega bo'lishadi. Bunday qahramonlarni badiiy asarlar orqali bolaga tanishtirish ikki hissa ijobiy bo'ladi. Birinchidan, bolada kitob o'qish madaniyati shakillanadi, asardagi voqeyilikni o'quvchi o'z dunyo qarashi orqali tahlil qiladi va unga munosabat bildirish ko'nikmasi shakillanadi va eng oliy maqsad til ko'nikmalari rivojlanadi. Afsuski, o'qituvchilar, psixologlar va metodistlarning takidlashicha badiiy asarlarni o'qish yuqori sinf o'quvchilari orasida tobora kamayib bormoqda.

Ayni paytda O'zbekiston maktablarida ingliz tilini o'qitish uchun tanlangan "Guess What" va "Prepare" darsliklarida mutloqo badiiy asarlar yoki biron bir taniqli ingliz yozuvchisi haqida matnlar berilmagan, balkim bu darsliklar ishlab chiqilgan mamlakatlarda allohida adabiyot darslari ham o'tilar, shu sababli ushbu darsliklarda adabiyotga urg'u berilmagandir. Biroq har qanday chet tilini o'rgatishda usha xalqning og'zaki ijodi, xalq ertaklari va ko'zga ko'ringan badiiy asarlaridan foydalanilsa o'quvchilarda nafaqat muloqot ko'nikmasi balki o'sha tilda fikrlash, mulohaza yuritish, halqning estetik va his tuyg'ularini anglash kabi ko'nikmalar hosil bo'ladi. Afsuski hozirgi kunda badiiy adabiyot chet tilini o'rgatish jarayonida muhim o'ringa ega emas. Umumta'lim maktablarida ham, chet tilini chuqur o'rganadigan o'quv kurslarida ham darslarda yoshlar adabiyotining asl badiiy matnlaridan cheklangan miqdorda foydalanilmoqda. Bundan tashqari, ko'pincha adabiy matnlarning



mazmuni o'quvchilarning yosh qiziqishlariga ham, dars mavzulariga ham moslashtirilmagan. Hozirgi vaqtda mahalliy o'quv-uslubiy to'plamlar (UMK) yoshlar uchun zamonaviy ingliz fantastik asarlaridan ko'proq parchalarni taklif qilsa yoshlarni badiiy asarlarga qiziqishi ortib boradi, ammo ularni o'zlarining til bilimdonligi, qiziqishlariga mos keluvchi asarlarga yo'naltiruvchi manbaalar bizning yoshlarga yetib kelmagan yoki keng qamrovda tadbiq etilmagan. Shu sababli ular mustaqil mutoala qilish uchun kitob tanlashga qiynalishadi va notug'ri tanlangan asar o'quvchini kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. O'quvchi mustaqil tarzda badiiy adabiyotda o'rgangan lug'atlari, fraziologik iboralari, gap tuzulish shakllari o'quv muassasa dars jarayonlarida qo'llanilmayda yoki qayta ishlanmaydi, natijada o'quvchilarda shakllangan madaniy-lingvistik shaxs darajasi kelajakda chet tilidagi badiiy adabiyotni mustaqil o'qishga bo'lgan ishtiyoq, qobiliyat va ko'nikmaning rivojlanishiga xizmat qilmaydi. Shaxsiy til kompetensiyasiga ega bo'lish darajalari muammolari bilan G. I. Bogin (1984) Yu. N. Karaulov (1987), I. I. Xaleeva (1989). V. P. Furmanova (1994) kabi olimlar o'zlarining ilmiy asarlarida yozishgan va "madaniy va lingvistik shaxs" darajalarini chet tili fan ustozlariga belgilashgan. Biroq na mahalliy va na xorijiy ilmiy adabiyotlarda biz o'rta maktab o'quvchilarining (10-11-sinflar) chet tilidagi badiiy adabiyotlarni o'qishni o'rganish jarayonida madaniy va lingvistik shaxsini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarni uchratmadik. Shu munosabat bilan o'quvchi chet tilidagi badiiy adabiyotini mustaqil o'qiy olishi uchun o'quvchi madaniy va lingvistik shaxs rivojlanishining qaysi darajasiga erishishi kerak va buning uchun qanday kompetensiyalarni shakllantirish kerakligi haqida savol tug'uladi. Chet tilini mukammal o'rganishni maqsad qilganlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan. Ijtimoiy-madaniy va madaniyatlararo kompetentsiyalar badiiy asarlarni o'qish orqali che tillarni o'rganish jarayonida o'quvchilarining madaniy va lingvistik shaxsini rivojlantirish darajalarini maqsadli oshirishni ta'minlamaydi.

Badiiy asar mutoala qilish jarayonida ikki daraja mavjud: substantiv (faoliyat mazmunining mazmuniy tarkibiy qismlari) va protsessual (faoliyat jarayonining elementlari). Faoliyat mazmuni: maqsadga erishish tomon qaratilgan natija kiradi. Bu maqsad semantik aloqalarni ochib berish - yozma shaklda taqdim etilgan nutq asarini tushunishdir. O'qish jarayonining mazmuni o'qish maqsadi ta'sirida o'zgaradi. Har bir aniq holatda o'quvchi ma'lum bir tarzda idrok etilgan materialni semantik va pertseptiv qayta ishlash bilan bog'liq turli xil operatsiyalar va harakatlarni birlashtiradi (ularni o'qish vazifasi bilan bog'laydi). Mutoala jarayoni har doim o'ziga xos ko'rinishlaridan birida amalga oshiriladi, bu (tajribali o'quvchi uchun) vizual ravishda idrok etilgan materialni semantik va pertseptiv qayta ishlash operatsiyalarining eng oqilona kombinatsiyasini ifodalaydi. S.K. Folomkina ta'rifiga ko'ra [1982:26] "o'qish maqsadi bilan belgilanadigan operatsiyalar majmuasining varianti o'qish turlari deb ataladi".

Kitobxonga badiiy asar o'qish jarayonida tarbiyaviy emas, balki real hayotda uchraydigan kommunikativ kompetensiyalar turlari qiziqtiradi, biroq ko'pchilik pedagoglarning asl maqsadi asar orqali o'quvchini tarbiyaviy jarayoniga tasir o'tkazishdir. Shu maqsadda ingliz tilida chop etilgan ko'plab asarlar mavjud. Xozirgi yoshlarga yaxshi tarbiyaviy ta'sir o'tkazuvchi, o'zining syujetlari va voqeyliklari bilan o'quvchini o'ziga jalb qila oladigan ko'plab asarlar XIX va XX-asrlarda yashab o'tgan mualliflar tomonidan yozilgan: Jorj Gordon Bayron, Valter Skott, Charlz Dikkens, opa-singillar Bronte, Elizabet Gaskell, Jorj Eliot, Robert Luis Stivenson, Artur Konan Doyl, Oskar Uayld, Rudyard Kipling, Uilyam Morris, Mark Tven, Djek London, Teador Drayzer, O. Genri, JK Rouling, Jen Tolkin, Agata Kristi, Artur Konan Doyl, Ernest Xemingvey va boshqalar. Yuqoridagi mualliflar ingliz adabiyoti rivojlanishining ko'plab yo'nalishlarini o'z ichiga oldi: romantizm, realizm, naturalizm, neoromantizm, estetika.

Yuqorida sanab o'tilgan yozuvchilarning ijodida hozirgi yoshlarni psixikasi va qiziqishiga mos keladigan asarlari mavjud bo'lib, ushbu asarlarda foydalanilgan fraziologik birikmalar,



darsliklarda uchramaydigan atama va predmet nomlari hozirgi kunda ingliz tilida so'zlashuvchilar tomonidan foydalanib kelinmoqda. Badiiy adabiyotning har tomonlama barkamol shaxs shakllanishidagi o'rni filolog va metodistlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Badiiy matnlarni o'qish insonni ma'naviy jihatdan boyitadi, uning atrofidagi olamni yaxshiroq idrok etish imkonini beradi. Chet tilidagi adabiy matnlar til o'rgatish vositasi bo'lib, shu bilan birga o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularga boshqa xalq madaniyati haqida tushuncha beradi. Til orqali boshqa xalq madaniyatini o'rganish zamonaviy dunyoda madaniyatlar muloqotining eng muhim jihatlaridan biridir. "Madaniy" o'quvchi degani bu odobli, yaxshi xulqli boshqalarni his tuyg'ularini tushunib qabul qiladigan va har tomonlama suhbat olib boraoladigan shaxsga aytiladi. O'quvchilarning mustaqil mutoalasi uchun badiiy asarlar tanlashda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini, til bilish darajasini va qiziqishlarini hisobga olish kerak. XIX va XX asrlarda ijod qilingan asarlarning o'qish orqali o'quvchilar o'sha davrlardagi qahramonlarning jasurligi, taqdir tomonidan yo'llangan sinovlarni jasorat bilan yengib o'tishlari, keljakga umid bilan boqishlari, sodda dilligini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Yani bir muhim jihati shuki o'sha davrda yozilingan asarlarning aksariyatida hozirgi to'qchilikni aksi ifoda etilgan, buni o'qish orqali o'quvchilarda shukronalik hissi, bugungi kundagi tinch xotirjam va mo'l-ko'lchilikga shukrona hissini o'zlarida his qilishadi. Bunga ko'plab asarlardan misol keltirishimiz mumkin.

Ko'plab kitob sevarlar mehriga sazovor bo'lgan asarlardan biri Ernest Hemingveyning "The Old Man and The Sea" asari nafaqat maktab yoshidagi, balkim katta yoshdagi kitobxonlarga ham hayotdagi bir qator sinovlarni yengib o'tish uchun o'rnak bo'la oladigan asardir. Asardagi bir nechta jumalarni olib ularning tarbiyaga qanday tasir o'tkazishini tahlil qilib chiqamiz.

1. "No one should be alone in their old age, he thought." Ushbu satr orqali yozuvchi keksalikda yolg'iz qolish inson umridagi falokatli hodisa sifatida keltirgan.
2. "Everything about him was old except his eyes, and they were the same color as the sea and were cheerful and undefeated." Quidagi satrda yozuvchi asar bosh qahramonini hayoti mobaynida og'ir sinovlarni boshidan o'tkazganligiga qaramay uning ko'zlarida hali ham umid uchquni va ushbu sinovlar ustidan g'alabaga umidi ifodalangan.
3. "Most people were heartless about turtles because a turtle's heart will beat for hours after it has been cut up and butchered. But the old man thought, I have such a heart too." Bu jumalar orqali yozuvchi bosh qahramonni chidamliligini va osonlikcha jon bermasligini toshbaqa yuragi misolida tasvirlagan.
4. "You did not kill the fish only to keep alive and to sell for food, he thought. You killed him for pride and because you are a fisherman. You loved him when he was alive and you loved him after. If you love him, it is not a sin to kill him. Or is it more?" Bu satrlarda inson o'z kasbiga bo'lgan muhabbati, sodiqligi va tirikchilik sababchisi bo'lgan baliqlarga mehri ifodalangan.
5. "I may not be as strong as I think, but I know many tricks and I have resolution." Ushbu satrlarni o'qigan o'quvchining xayoliga o'zbek maqoli keladi, "gap kuchda emas balki aqildadir". Shu maqol orqali gapning asl mohiyati nimada ekanligini anglab olish mumkin.
6. "But man is not made for defeat. A man can be destroyed but not defeated." Insonni g'ururini kuchliligini, uni tanasini chopib tashlash mumkin, ammo uning ruhini so'ngdirib bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Ushbu asarni o'qib chiqqan o'quvchida asarning bosh qahramoniga achinish hissi, hayot uchun kurashishda har qanday qiynchiliklarni yengib o'ta olishdagi matonati hayratga soladi. Eng muhim tarbiyaviy jihati shundaki, asarda yolg'izlik inson insonga uchun har qanday dardan ham qiyinligi ko'rsatib o'tilgan.

Xulosalar



Xulosa qilib shuni ta'kidlamoqchimanki har qanday yoshda mutoala uchun to'g'ri tanlangan asar o'quvchining nafaqat fan yoki til bilish ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki uning atrofdagi voqeylikga munosabatini, dunyoqarashini, ota-onasi, yaqinlari sinfdoshlari bilan kechadigan muloqotlarning mazmun mohiyatiga ham o'z tasirini o'tkazadi. Badiiy asarlar o'qish orqali ortirilgan lug'at boyliklari xotirada mustahkam ravishda saqlanadi, chunki u so'z yoki iboralar asardagi qahramon tomonidan aytilgan, bironbir voqeylikni, predmetni yoki qahramonni tariflashda foydalanilgan bo'ladi.

Kelgusida maktab o'quvchilar uchun yaratiladigan chet tili darsliklariga o'quvchilarni ham bilim hamda tarbiyaviy jihatdan rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi badiiy asarlardan olingan parchalar foydalanilsa kelgusida o'quvchilarni o'sha asarlarga qiziqishini ortiradi. Hozirgi kunda maktablarda badiiy asarlarni che tilida o'qish to'garaklarini shakllantirish va maktab kutubhonalarni maktab yoshidagi o'quvchilarga mos keladigan badiiy asarlarni A2, B1, B2 darajalaridagi kitoblar bilan boyitish lozim.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. V. V. Safonova, научная статья “Соизучение языков и культур в зеркале мировых тенденций развития современного языкового образования”-1998 г.
2. Прохорец, Елена Константиновна, диссертация “Обучение чтению современной немецкой художественной литературы для юношества: Старшие классы школ с углубленным изучением иностранного языка”-2001 г.
3. С.К.Фоломкина. Обучение чтению на иностранном языке. – Москва, 1998 г.
4. С.К.Фоломкина. Учебный предмет «иностраннй язык» как объект изучения методики: история и современность. – Москва, 1982 г.
5. Караулов, Юрий Николаевич. Русский язык и языковая личность. -1990 г.
6. Ernest Hemingway. The Old Man and the Sea. Paperback, 1995.
7. Quydagı havoladan: <https://bookroo.com/quotes/the-old-man-and-the-sea>

Nematova Orzigul Axmedovna

Namangan davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi.

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA HUSNI-XULQ BAG'RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI MA'NAVIY MEZON

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotida husni-xulq va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirishda ma'naviy mezonlarning o'rni va ahamiyati falsafiy tahlil etilgan. Shaxs axloqiy kamolotining asosini tashkil etuvchi husni-xulq qadriyatları bilan bag'rikenglik tamoyillari o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqilib, ularning jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatidagi mohiyati yoritiladi. Shuningdek, Yangi O'zbekiston strategiyasida ma'naviy mezonlar tizimini mustahkamlash, yoshlar tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish yo'nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, husni-xulq, bag'rikenglik, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, milliy g'oya, ijtimoiy barqarorlik.



Abstract: This article philosophically analyzes the role and importance of spiritual criteria in the formation of virtues of good character and tolerance in the development of New Uzbekistan. The principles of tolerance and moral values, which form the basis of the moral perfection of the individual, are considered in harmony, and their essence as a factor ensuring social stability in society is highlighted. Also, in the New Uzbekistan Strategy, the directions of strengthening the system of spiritual criteria, harmonizing national and universal values in the upbringing of youth are analyzed.

Keywords: New Uzbekistan, good character, tolerance, spirituality, moral values, national idea, social stability.

Kirish. Yangi O'zbekistonda jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida insonning ma'naviy kamoloti, husni-xulqi va bag'rikenglik fazilatlarini rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. "Bugungi globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, turli madaniy ta'sirlarning o'sishi sharoitida insonning axloqiy immunitetini mustahkamlash, uni sog'lom ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Chunki jamiyat taraqqiyotining eng muhim sharti – insonning ma'naviy-axloqiy pishganligi, ya'ni uning husni-xulqi va bag'rikenglik darajasidir"[1]. Globallashuv sharoitida insonning axloqiy immuniteti kuchli bo'lishi zarur. Chunki husni-xulq va bag'rikenglik jamiyat barqarorligi hamda ma'naviy taraqqiyotning asosiy tayanchidir.

Husni-xulq – bu inson shaxsiyati, uning ichki olami va ijtimoiy xulq-atvorining uyg'un ifodasi bo'lib, ma'naviyatning markaziy kategoriyalaridan biridir. Bag'rikenglik esa, shu husni-xulqning ijtimoiy ko'rinishi, ya'ni boshqalarni hurmat qilish, fikr xilma-xilligiga ochiqlik va murosaga tayyorlik sifatida namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining falsafiy asoslari – "inson qadri, adolat, totuvlik, hamjihatlik g'oyalariga tayanadi. Shu bois, husni-xulq va bag'rikenglikning uyg'unlashuvi jamiyat ma'naviy yuksalishining muhim mezoniga aylanib ulgurdi"[2]. Yangi O'zbekiston taraqqiyoti inson qadri va adolat g'oyalariga tayanar ekan, husni-xulq va bag'rikenglikning uyg'unlashuvi milliy ma'naviyatning poydevorini mustahkamlaydi. Bu uyg'unlik jamiyatda totuvlik, hamjihatlik va axloqiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy falsafiy mezon sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natija. "Husni-xulq" tushunchasi o'zbek va islom falsafiy tafakkurida insonning eng oliy ma'naviy sifatlaridan biri sifatida talqin qilinadi. "Husn" – arabcha so'z bo'lib, "go'zallik", "yaxshilik", "fazilat" ma'nolarini anglatadi; "xulq" esa "xatti-harakat", "axloq" degan mazmunga ega. Shu boisdan, "husni-xulq deganda nafaqat odobli, balki ichki dunyosi, niyati, so'zi va amali uyg'un bo'lgan inson fazilatlarini tushuniladi"[3]. Husni-xulq insonning faqat tashqi odobida emas, balki ichki ma'naviy uyg'unligida namoyon bo'ladi. Ya'ni insonning niyati, so'zi va amali bir-biriga mos bo'lsa, u chin insoniy fazilatga ega bo'ladi. Bu holat axloqiy komillikning yuksak darajasidir. Sharq falsafasida husni-xulq axloqiy go'zallik mezonini sifatida e'tirof etiladi. Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "shaxsning fazilatli bo'lishi uning xulq-atvoridagi uyg'unlik va adolatga bog'liq ekanini ta'kidlaydi"[4]. Husni-xulq, Farobiyning fikricha, insonni jamiyat bilan bir butun qiladi, chunki axloqiy go'zallik – bu shaxsning o'zini jamiyatdagi umumiy qadriyatlarga moslashtirish jarayonidir.

Imom G'azzoliy esa "Ihyo ulumid-din" asarida husni-xulqni "qalbning halovati va niyat pokligi bilan yuzaga keladigan odob" sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, "insonning xulqi uning ichki ruhiy olamiga bog'liq: agar niyat pok, e'tiqod mustahkam bo'lsa, xulq ham go'zal bo'ladi"[5]. Bu nuqtai nazar, zamonaviy psixologiya va ijtimoiy falsafa bilan hamohang, chunki har qanday axloqiy xatti-harakatning ildizi insonning ichki ruhiyatida yotadi. Tasavvuf ta'limotida ham husni-xulq – komil insonning asosiy belgisi sifatida talqin qilinadi. Bahouddin Naqshband "Dil ba yoru, dast ba kor" shiorida tashqi faoliyat (amaliy xatti-harakat) va ichki poklik (ma'naviyat)ning birligiga



urg'u beradi. Demak, husni-xulq nafaqat axloqiy go'zallik, balki ijtimoiy mas'uliyatning ifodasidir: inson o'zini, boshqalarni va jamiyatni yaxshilik sari yo'naltirish orqali ma'naviy barkamollikka erishadi.

Zamonaviy o'zbek falsafasida husni-xulq tushunchasi milliy qadriyatlar, odob-axloq, insonparvarlik va vatanparvarlik bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilinadi. "Husni-xulq bu – shaxsning o'zligini anglash, o'ziga va boshqalarga nisbatan mas'uliyatni his etish, bag'rikenglik, halollik, sabr, va shukr fazilatlarini amalda namoyon etishdir"[6]. Husni-xulq insonning ichki ma'naviy olamini aks ettiruvchi, hayotga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni talab etuvchi fazilatdir. U o'zini anglash, boshqalarga hurmat bilan qarash, sabr va shukrni hayotiy prinsip sifatida qabul qilish orqali namoyon bo'ladi. Shu tariqa husni-xulq inson kamolotining mezoniga aylanadi.

Husni-xulqning ma'naviy mohiyati shundaki, u insonni faqat axloqiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham kamolga yetkazadi. U shaxsning o'zini boshqarish qobiliyatini, irodasini, adolat va murosaga tayyorligini shakllantiradi. Shu sababli, Yangi O'zbekistonning ma'naviy siyosatida "husni-xulq masalasi inson omilini rivojlantirish, barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyatda totuvlikni mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir" [7]. Husni-xulq insonning nafaqat shaxsiy kamolotini, balki jamiyatdagi ijtimoiy uyg'unlikni ham ta'minlaydi. Bu fazilat bag'rikenglik, sabr, murosaliq, xayrixohlik kabi ijobiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan u Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevori – insonparvarlik va totuvlik g'oyalarining falsafiy asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Bag'rikenglik (arabcha "tasomuh", inglizcha tolerance) tushunchasi insoniyat tarixida uzoq davrlardan buyon jamiyat barqarorligi va tinchlikni ta'minlovchi eng muhim ma'naviy qadriyat sifatida shakllanib kelgan. Bu tushuncha insonning boshqalar fikri, dini, madaniyati, urf-odati va turmush tarziga hurmat bilan munosabatda bo'lishini anglatadi. Falsafiy nuqtai nazardan "bag'rikenglik – bu inson ongi va irodasining yuksak bosqichi, ya'ni "boshqani o'zidan farqli deb bilgan holda uni qabul qilish" qobiliyatidir[8]. Bag'rikenglik inson tafakkuri va ma'naviy yetukligining ifodasidir. U boshqacha fikrlovchi, e'tiqod qiluvchi yoki yashovchi insonni inkor etmasdan, aksincha, uni inson sifatida qabul qilish madaniyatini bildiradi. Bu fazilat ijtimoiy totuvlik, hamjihatlik va madaniyatlararo muloqotning muhim falsafiy asosi hisoblanadi.

Bag'rikenglik insoniyat taraqqiyotida ijtimoiy muvozanat, adolat, tinchlik va hamjihatlikni ta'minlovchi asosiy omil bo'lib kelgan. Tarixiy manbalarda bag'rikenglik g'oyasi ilk bor diniy-madaniy qarama-qarshiliklar davrida ijtimoiy zarurat sifatida paydo bo'lgan. Masalan, Qur'oni karimda "Dinda majburlash yo'q" (Baqara, 256-oyat) deb ta'kidlanadi. Bu oyat inson erkinligi va bag'rikenglikning eng qadimgi ma'naviy-huquqiy ifodasidir[9]. Sharq mutafakkirlari, xususan, Imom Moturidiy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviylarning asarlarida bag'rikenglik g'oyasi insoniylik, sabr, murosaliq, mehr-oqibat, adolat bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan. Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida "insoniy kamolotga erishish uchun "boshqalarni kechira bilish"ni eng oliy fazilat deb biladi. Unga ko'ra, insonning buyukligi – nafaqat bilim va amalida, balki boshqalar fikriga bag'rikeng munosabatda bo'la olishidadir"[10]. Navoiy ta'kidlagan "boshqalarni kechira bilish" g'oyasi insoniy komillikning cho'qqisidir. Bu fazilat inson qalbida mehr, sabr va bag'rikenglikni uyg'otadi. Navoiyning nazarida, haqiqiy buyuklik insonning boshqalar fikrini hurmat qilish, kechirimli bo'lish va adolatni hayot mezoniga aylantirishidadir.

Bag'rikenglik g'oyasi Yangi davr falsafasida ham keng o'rganilgan. Masalan, Volter va Jon Lokk bag'rikenglikni siyosiy erkinlikning sharti, Immanuel Kant esa "inson qadr-qimmatini e'tirof etish" tamoyili bilan bog'lagan. Kantning axloqiy kategorik imperativi – "insonni hech qachon vosita sifatida emas, maqsad sifatida ko'r" degan g'oyasi bag'rikenglikning falsafiy mohiyatini chuqur ifodalaydi.



Bugungi kunda bag'rikenglik ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida inson huquqlari, demokratiya, erkin fikrlash va ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida qaraladi. 1995-yilda UNESCO tomonidan qabul qilingan “Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da bu qadriyat “insonning tabiiy huquqlaridan biri bo'lib, tinchlik va taraqqiyotning asosi” sifatida belgilandi [11]. Mazkur hujjatga ko'ra, bag'rikenglik – faqat sabr-toqat yoki murosa emas, balki faol ijtimoiy xulq bo'lib, unda inson boshqani tushunishga va hamkorlik qilishga intiladi.

Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida bag'rikenglikni rivojlantirish – milliy qadriyatlarni saqlagan holda, zamonaviy fuqarolik ongini shakllantirish demakdir. Bu jarayon oiladan boshlanadi, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik institutlari orqali davom etadi. Har bir insonning husni-xulqi, odobi, murosasi – bu jamiyatdagi bag'rikenglik darajasining ko'zgusidir. Demak, bag'rikenglikning ijtimoiy-falsafiy mazmuni – inson va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni, turli qarashlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan ma'naviy-mezoniy tizimdir. Husni-xulq va bag'rikenglik tushunchalari bir-biridan ajralmas ma'naviy kategoriyalar bo'lib, inson kamolotining ikki qutbi sifatida namoyon bo'ladi. Husni-xulq – shaxsning ichki ruhiy pokligi, axloqiy mukammalligi, bag'rikenglik esa – bu mukammallikning ijtimoiy hayotdagi ifodasidir. Boshqacha aytganda, husni-xulq insonning ichki dunyosini tarbiyalasa, bag'rikenglik uning tashqi munosabatlarida aks etadi. Bu ikki fazilat uyg'unlashgan jamiyatda adolat, tinchlik, hamjihatlik va insonparvarlik g'oyalari mustahkam qaror topadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida bu uyg'unlikning amaliy ko'rinishlari ham mavjud. Millatlararo totuvlik, dinlararo muloqot, “Mahalla” tizimi orqali ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, “Inson qadri uchun” dasturi doirasida ma'naviy tarbiya ishlari olib borilishi – bularning barchasi husni-xulq va bag'rikenglik uyg'unligining real ifodalaridir. Bu jarayon ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi, ma'naviy sog'lom muhit yaratadi va insonparvar jamiyat barpo etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, husni-xulq va bag'rikenglikning uyg'unligi shaxsiy fazilat bilan ijtimoiy qadriyat o'rtasidagi uzviy aloqani ifodalaydi. Ularning birligi inson ma'naviyatining yuksak bosqichini tashkil etadi va Yangi O'zbekiston taraqqiyotining ma'naviy-falsafiy asosini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev o'z nutqlarida “Ma'naviyat – bu jamiyatni birlashtiruvchi eng muhim omil” ekanini ta'kidlab, har bir islohotning poydevorida inson qadri, vijdon erkinligi va adolat mezonlari yotishini qayd etadi. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot modelining ma'naviy poydevorini tashkil etuvchi uch asosiy yo'nalishni ajratish mumkin: 1) shaxs ma'naviyatini yuksaltirish; 2) jamiyat axloqiy muhitini sog'lomlashtirish; 3) davlatning ma'naviy siyosatini takomillashtirish.

Birinchidan, shaxs ma'naviyatini yuksaltirish Yangi O'zbekiston islohotlarining markazida turadi. Bu borada ta'lim-tarbiya tizimini insonparvar g'oyalar asosida yangilash, yoshlarda husni-xulq, halollik va bag'rikenglik fazilatlarini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoldi. Masalan, “Ma'naviyat va ma'rifat” markazi, “Yangi O'zbekiston yoshlarini ma'naviy barkamol etish” dasturlari, “Oila va ma'naviyat” loyihalari ana shu mezonlarning amaliy ifodasidir.

Ikkinchidan, jamiyat axloqiy muhitini sog'lomlashtirish milliy qadriyatlar va umuminsoniy fazilatlarining uyg'unligini ta'minlaydi. Bu jarayonda husni-xulq, odob, bag'rikenglik, adolat, ijtimoiy hamjihatlik kabi tushunchalar ijtimoiy qadriyatlar tizimining barqaror elementiga aylanmoqda. Ayniqsa, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, inson huquqlariga hurmat kabi mezonlar jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar sifatida qaraladi.

Uchinchidan, davlatning ma'naviy siyosatini takomillashtirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasi doirasida ma'naviy siyosat davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligida olib borilmoqda. Bu



siyosatning mohiyati – insonning ichki dunyosini boyitish, ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va ezgulik g'oyalari jamiyat hayotining barcha sohalariga singdirishdan iboratdir [10].

Shuningdek, Yangi O'zbekiston davrida ma'naviy mezonlar tizimining konseptual asoslari sifatida quyidagi tamoyillar shakllanmoqda:

“Inson qadri – oliy mezon: inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, har bir shaxsning sha'nini e'zozlash; Adolat va halollik – ijtimoiy tartib mezoni: boshqaruv, ta'lim, sud-huquq tizimlarida shaffoflik va javobgarlikni ta'minlash; Bag'rikenglik va totuvlik – ma'naviy muvozanat mezoni: diniy, milliy va madaniy xilma-xillikka hurmat bilan qarash; Ma'rifat va bilim – taraqqiyot mezoni: ilmiy tafakkur, innovatsion tafakkur va axloqiy ongni uyg'unlashtirish; Oila – ma'naviyat tayanchi: oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, yoshlarni axloqiy tarbiyalash”[12]. Bu tamoyillar Yangi O'zbekistonning yangi davlatchilik va fuqarolik jamiyati konsepsiyasini falsafiy jihatdan asoslab beradi. Ular orqali shaxsning husni-xulq madaniyati, jamiyatning axloqiy birlik tamoyillari va davlat siyosatining insonparvar yo'nalishi uyg'unlashadi. Shunday qilib, ma'naviy mezonlar tizimi Yangi O'zbekiston taraqqiyotining aksiologik negizi sifatida namoyon bo'ladi. U insonparvarlik, adolat, bag'rikenglik va halollik kabi fazilatlarni ijtimoiy taraqqiyotning mezoniy qadriyatlariga aylantiradi. Natijada, bu tizim husni-xulq madaniyatini rivojlantiruvchi va bag'rikenglikni barqarorlashtiruvchi ma'naviy-ijtimoiy mexanizm sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida husni-xulq va bag'rikenglik tushunchalari milliy ma'naviyat tizimining eng muhim falsafiy asosi sifatida qaralmoqda. Ular shaxsning ma'naviy barkamolligi, jamiyatning axloqiy barqarorligi va davlat siyosatining insonparvar yo'nalishini ta'minlovchi asosiy g'oyaviy tayanchlardir. Husni-xulqning falsafiy mohiyati insonning ichki go'zalligi, vijdoni va ongli xulq-atvori bilan belgilanar ekan, u Yangi O'zbekistonning ma'naviy mezonlari tizimida o'ziga xos poydevor sifatida namoyon bo'ladi. Bag'rikenglik esa bu tizimning ijtimoiy ifodasidir — u turli fikr, din, millat va madaniyat vakillarining o'zaro hurmatda yashashini ta'minlaydi. Bu jihatdan Yangi O'zbekiston taraqqiyotida bag'rikenglik siyosati nafaqat ijtimoiy totuvlikning kafolati, balki milliy tiklanishning falsafiy mohiyatini belgilovchi tamoyil sifatida shakllanmoqda. Husni-xulq va bag'rikenglik o'rtasidagi uyg'unlik ma'naviy mezonlarning amaliy ifodasiga aylanib, insonparvarlik, halollik, adolat, mehr-shafqat kabi qadriyatlarning ijtimoiy ongda barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Yangi O'zbekistonning “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasi aynan shu ma'naviy birlik va axloqiy uyg'unlikka tayanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, husni-xulq va bag'rikenglikni shakllantiruvchi ma'naviy mezonlar tizimi jamiyat taraqqiyotining aksiologik va gumanistik yo'nalishini belgilaydi. U insonni ezgulik sari yo'naltiruvchi ruhiy-axloqiy kuch, millatni birlashtiruvchi ma'naviy poydevor, davlatni mustahkamlaydigan ijtimoiy asos sifatida e'tirof etiladi. Mazkur jarayonning barqaror rivoji esa Yangi O'zbekiston ma'naviy siyosatining muvaffaqiyat kalitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: “Ma'naviyat”, 2008. – B.113.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent.: “O'zbekiston”, 2021. – B.211.
3. Absattorov B.M. Inson axloqiy kamolotida mezon va me'yor muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili. F.f.b.f.d. (PhD) disser. – Toshkent.: “IMPRESS MEDIA”, 2022. – B.134.
4. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yozuvchi, 1993. – B.134.



5. Абу Ҳомид Ғаззолий. Ихйоу улумид дин (Тавба, сўнгги манзил зикри, нафс тарбияст, тил офатлари). Араб тилидан таржимон Рашид Зоҳид. – Тошкент.: “Matbaachi”, 2022. – Б.327.
6. Hadislar majmuasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
8. Azizxo‘jayev A. Ma’naviyat asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari jamiyati, 2018. – B.114.
9. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur. –T.: TIU, 2004.
10. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1983. – B.148.
11. UNESCO. Tolerance: The Threshold of Peace. – Paris: UNESCO Publishing, 1995.
12. O‘zbekiston Respublikasida ma’naviyat va ma’rifat sohasini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.

Qosimova Nigina
NamDU, magistranti

RAQAMLI JAMIYATDA INSON QADRI, TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida inson qadri, totuvlik va bag'rikenglik tushunchalarining yangicha mazmun kasb etishi falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari insonning ijtimoiy ongi, qadriyatlar tizimi va madaniy identifikatsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada raqamli texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan yangi ijtimoiy aloqalar, kommunikatsiya madaniyati va global axborot makonining insonparvarlik tamoyillariga ta'siri ochib beriladi. Shu bilan birga, raqamli sivilizatsiya davrida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikning yangi falsafiy konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Tadqiqotda inson qadri, ma'naviyat va axborot madaniyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Muallif raqamli muhitda bag'rikenglikni saqlash, millatlararo totuvlikni mustahkamlash va inson qadrini himoya qilish zamonaviy jamiyat barqarorligining asosiy omili ekanini asoslaydi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, inson qadri, totuvlik, bag'rikenglik, raqamli madaniyat, axborot makoni, ma'naviyat, falsafiy tahlil, global sivilizatsiya, axborot etikasi.

Bugungi kunda eng yangi texnologiyalar, jumladan, sun'iy intellekt tizimlari yordamida o'z-o'zidan faoliyat yurituvchi “raqamli dunyo” shakllanmoqda. Ushbu jarayon ko'plab antropologik, ijtimoiy va ekzistensial xavf va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Sun'iy intellekt inqilobi insonning tabiiy mohiyati, shaxsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy maqomini tubdan o'zgartirishi mumkinligi haqidagi taxminlar bugun tobora haqiqatga yaqinlashmoqda.

Sun'iy intellektidan ijobiy maqsadlarda foydalanish zamonaviy jamiyatda “inson” va “shaxs” tushunchalarining yangi mazmun bilan boyishiga, texnologiyalardan gumanitar o'lchovda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv hayotni tasdiqlovchi ssenariy sifatida qaraladi.

Aksincha, salbiy ssenariyda esa insonning axloqiy, ma'naviy va shaxsiy chegaralari yo'qoladi, natijada insoniy bo'lmagan ijtimoiy agentlar – ya'ni sun'iy intellekt tizimlari jamiyatda



o'z ta'sir doirasini kengaytiradi. Bu holat inson va texnologiya o'rtasidagi tafovutni yanada chuqurlashtiradi.

Raqamli dunyo haqida yozilgan ilmiy maqolalar va tadqiqotlar ko'pincha qisqa vaqt ichida "eskirib" qoladi. Buning sababi — texnologik o'zgarishlarning nihoyatda yuqori sur'atda kechayotganidir. Shu sababli, raqamli texnologiyalar haqidagi har qanday g'oya yoki nazariy qarash tez orada o'z dolzarbligini yo'qotishi mumkin. Shunga qaramay, insoniyat texnologik taraqqiyotdan ortda qolmasligi, balki u bilan hamqadam rivojlanishi zarur. Rus yozuvchisi Maksim Gorkiyning "O'tgan zamon aravasida uzoqqa borib bo'lmaydi" degan so'zlari ayni jarayon mohiyatini ifodalaydi.

Shu bois, fuqarolarning raqamli savodxonligi va raqamli muhitda faol ishtiroki jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida qaralmoqda. Bu esa raqamli tenglikni ta'minlash, ya'ni texnologik imkoniyatlardan barcha ijtimoiy guruhlarining teng darajada foydalanishiga erishish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

"Tahlillar ko'rsatmoqdaki, gegemonlik xohishidan voz kecha olmayotgan ayrim davlatlar hali-hanuz rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z ta'siriga olishga urinmoqda, imperiyachilik kayfiyatidagi arboblarning demokratik g'oyalar eksporti zavqiga berilib ketib, ba'zida davr sinovidan omon chiqqan milliy qadriyatlarga nopisandlik qilmoqda. Geosiyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirayotgan axborot xurujlari ijtimoiy tarmoqlarga ko'chmoqda" [1. — B. 21.].

Mazkur fikr bugungi globalashuv jarayonlarida axborot maydonining siyosiyashtirilgan tus olayotganini ochiq ko'rsatadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun axborot oqimlarining bir qutbli manbalardan shakllanishi, ularning madaniy mustaqilligi va ijtimoiy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, raqamli texnologiyalarni faqat texnik taraqqiyot vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy ongning shakllantiruvchi strategik kuch sifatida ham baholash lozim.

Hozirgi kunda jamiyatda internetga ega bo'lganlar va ega bo'lmaganlar o'rtasidagi tafovut chuqurlashib bormoqda. Internetdan foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarga tezkor kirish, global muloqotda ishtirok etish, ish topish yoki o'qish imkoniyatlari ancha kengaygan. Bunday imkoniyatlarning mavjudligi ular uchun ijtimoiy kapitalning o'sishiga xizmat qilmoqda. Agar internetdan foydalanish imkoniyati barcha fuqarolar uchun teng yaratilsa, bu holat nafaqat ta'lim tizimi, balki madaniy va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun ham muhim afzallik bo'ladi.

Raqamli tafovut yoki axborot tengsizligi tushunchasi elektron iste'molchilarning raqamli muhitdan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlarni anglatadi. Bu farq mamlakatlar o'rtasida, shuningdek, poytaxt va tumanlar, shahar va qishloq hududlari o'rtasida ham yaqqol seziladi. Shunday qilib, raqamli tafovut — bu ijtimoiy va hududiy tengsizlikning yangi shakli, u iqtisodiy va madaniy rivojlanish ko'rsatkichlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Axborotlashgan jamiyat yoki bilimlar jamiyati — bu shunchaki orzudagi ideal konsepsiya emas, balki insoniyat rivojlanishining yangi bosqichidir. Uning asosiy elementlari allaqachon shakllangan bo'lib, ular kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan. Shu sababli, bugungi kunda har bir davlat o'z manfaatlari doirasida raqobatbardoshlikni ta'minlovchi omil sifatida axborot texnologiyalarini rivojlantirishga intilmoqda.

"Endilikda milliy iqtisodlar axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to'la foydalanmay turib raqobatbardosh bo'la olmaydilar. Dunyoning ko'plab mamlakatlari o'z kelajagini axborot texnologiyalarini izchil rivojlantirish vositasida ta'minlashga harakat qilishmoqda" [2. — B. 84.].

Bu fikr raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishning ham markaziy omiliga aylanganini ko'rsatadi. Raqamli iqtisodiyot va raqamli madaniyat inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab olmoqda, bu esa raqamli tafakkur va yangi ijtimoiy identifikatsiya shakllarining vujudga kelishiga olib kelmoqda.



Raqamli dunyo o'zida ijobiy imkoniyatlar bilan birga ma'naviy va axloqiy sinovlarni ham mujassamlashtiradi. Bugun inson sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar orqali o'zining ong, xulq-atvor, ijtimoiy mavqe va kommunikatsiya shakllarini qayta kashf etmoqda. Shu bilan birga, bu jarayonda inson mohiyatini texnologik vositalar bilan o'lchash xavfi ham ortib bormoqda.

Demak, insonni raqamli olamdagi mavjudot sifatida anglash uchun biz nafaqat texnologiyaning imkoniyatlariga, balki uning ijtimoiy-axloqiy oqibatlariga ham e'tibor qaratishimiz zarur. Chunki inson o'zligini faqat texnologiya orqali emas, balki ma'naviyat, ong va qadriyatlar tizimi orqali ham namoyon etadi. Shu jihatdan, raqamli tafovutni kamaytirish, raqamli madaniyatni shakllantirish va axborot sohasida milliy manfaatlarini himoya qilish bugungi kunning eng muhim strategik vazifalaridandir.

Hozirgi kunda jamiyatda internetga ega bo'lganlar va ega bo'lmaganlar o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Internetdan foydalanuvchi shaxslar uchun axborotlarga erkin kirish, global miqyosda muloqot qilish, ilmiy, kasbiy va madaniy sohalarida imkoniyatlarni kengaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Bular orasida ma'lumot almashish tezligi, ish qidirish, ta'lim olish yoki hatto kundalik hayotiy ehtiyojlarni qondirish kabi omillar ham kiradi. Shubhasiz, bu imkoniyatlar insonning yangi hayotiy strategiyalarini belgilaydi va uning ijtimoiy faolligini oshiradi.

Agar internetdan foydalanish imkoniyati barcha fuqarolar uchun teng darajada ta'minlansa, bu nafaqat ta'lim tizimi, balki madaniy taraqqiyot va fuqarolik jamiyatining mustahkamlanishi uchun ham muhim omil bo'ladi. Zero, raqamli resurslardan foydalanish imkoniyati teng bo'lmagan jamiyatda madaniy tabaqalanish va ijtimoiy izolyatsiya xavfi kuchayadi.

Internetning madaniyat va ta'lim sohalariga ta'sirini chuqur anglash uchun uni global sivilizatsion hodisa sifatida ko'rib chiqish zarur. Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli vositalar, masofaviy o'qitish platformalari va virtual o'quv muhitlari madaniyatning uzviy qismi sifatida shakllanmoqda. Shu bois, "ta'lingasiz madaniyat bo'lmaydi" degan fikr bugungi raqamli davrda yanada dolzarbroq ma'no kasb etmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimi yangi pedagogik texnologiyalarni o'z ichiga olib, ko'p hollarda "qadoqlangan madaniyat"ni o'zgartirmoqda – ya'ni, bilimlarni sun'iy kontekstda, virtual muhitda uzatish orqali madaniyatning tabiiy shakllanish jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bu holatda, raqamli madaniyat nafaqat ma'lumotni, balki ijtimoiy qadriyatlarni ham o'zgartiruvchi omilga aylanmoqda.

F. Madrahimovanning fikricha:

"Axborotlashgan davrda mamlakat taraqqiyoti uchun salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborotlar kirib kelishiga oid xavfsizlik ta'minlanmasa, "ommaviy madaniyat" niqobidagi va shunga o'xshash boshqa mafkuraviy tahdidlar kuchayib boraveradi. Bu esa millatning milliy taraqqiyotini ichidan yemiruvchi tahdidlardan biridir" [5. – C. 146]. Ushbu fikr bugungi kunda axborot xavfsizligi va madaniy immunitet masalasining naqadar muhimligini ko'rsatadi. Internet orqali kirib kelayotgan ommaviy madaniyat oqimlari milliy qadriyatlar tizimini o'zgartirishi, natijada madaniy assimilyatsiya jarayonlarini kuchaytirishi mumkin. Shu bois, raqamli muhitda milliy axborot siyosatini shakllantirish va yoshlar ongida media-madaniy immunitetni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Raqamli muhitdagi haqiqat esa ko'pincha real voqelikni to'liq aks ettirmaydi. Bu hodisani falsafiy jihatdan tahlil etgan M. Xaydegger quyidagicha ta'kidlaydi:

"...bugungi kunda hodisalarning o'z-o'zidan gapirishga imkon berish, axborot ortidan quvmaslik naqadar qiyin, uning o'ziga xos xususiyati aynan shaklga kirishni tubdan blokirovka qilishdir. Bu geshtalt mavjudotlarning mavjudligiga xos bo'lgan narsa. Axborot ko'z shaklini ko'ra olmaydi." Xaydeggerning ushbu fikridan kelib chiqib aytish mumkinki, raqamli muhit insonni real



voqelikdan uzoqlashtiradi, axborotning shakli va mazmuni o'rtasidagi tafovutni kuchaytiradi. Natijada inson virtual haqiqat bilan real borliq o'rtasida o'zini yo'qotishi xavfiga duch keladi.

Demak, raqamli transformatsiya jarayonida madaniy va ma'naviy barqarorlikni saqlash, axborot madaniyatini rivojlantirish va ta'lim sohasida axborot texnologiyalarining gumanitar o'lchovini mustahkamlash inson kapitalining asosiy sharti bo'lib qoladi.

Raqamli xavf dunyosida inson o'z mohiyatini aniqlashda ham ontologik, ham epistemologik muammolarga duch keladi. Bir tomondan, inson "raqamli shaxs" sifatida hayotining deyarli barcha sohalarini keng miqyosdagi texnologik jarayonlarga integratsiya qilgan holda yashaydi. Bu holat uni axborot almashinuvi, muloqot, mehnat va o'qish jarayonlarida global tizimlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

Biroq, boshqa tomondan, inson tafakkurining refleksiv (aks ettiruvchi) tabiati bu jarayonlarda ko'plab muammoli sohaga, halokatli oqibatlariga olib keladigan cheklovlarni ochib beradi. Raqamli texnologiyalarning inson idroki va bilish chegaralariga sun'iy aralashuvi, tabiat ustidan mutlaq nazorat o'rnatish intilishi insoniyatning gumanitar o'lchovda xavfli yo'nalishlarga kirib borayotganini ko'rsatadi.

Natijada, zamonaviy jamiyatda begonalik, yolg'izlik, bo'sh vaqtning mazmunsizligi, biotexnologiyalarga haddan ortiq bog'liqlik, sog'liqning raqamli degradatsiyasi va "kiberkasalliklar" kabi ijtimoiy-psixologik muammolar kengaymoqda. Bu holatlar insonning yangi turdagi xavf-xatarlarni majburiy tarzda qabul qilishga moslashayotganini, ya'ni raqamli xavf sotsiologiyasining shakllanayotganini ko'rsatadi.

Bugungi kunda qator falsafiy va ilmiy sabablarga ko'ra, sun'iy intellektga antropomorfik maqom berish (ya'ni uni insondek ongli mavjudot sifatida qabul qilish) nojoiz deb qaraladi. Chunki tabiiy va sun'iy intellekt o'rtasida sifat jihatdan tub farq mavjud. Insonning ruhiy va jismoniy yaxlitligini, gomeostazini, miya faoliyatining murakkab funksiyalarini yoki tirik mavjudotlarning prototipdan odamgacha evolyutsiyasini to'liq modellashtirish – bu metafizik darajadagi murakkab jarayondir.

Shu nuqtai nazardan, insonparvarlik (gumanizm) inson mavjudligining o'ziga xos mezon sifatida namoyon bo'ladi. U raqamli texnologiyalar yordamida inson tabiatiga "eksperiment sifatida" aralashishning ijobiy va salbiy oqibatlarini tanqidiy baholovchi falsafiy filtrlovchi mexanizm vazifasini bajaradi.

Zamonaviy sharoitda inson ongi va shaxsiy taqdirini shakllantiruvchi xavfli aloqalar jamiyatdagi me'yorlar, qadriyatlar va axloqiy standartlarni belgilash bilan bog'liq bo'lib, ularning kundalik amaliyotdagi ifodasi turli ijtimoiy to'qnashuvlar manbaiga aylanmoqda. Shu ma'noda, raqamli kommunikatsiya inson faoliyatini yengillashtirish bilan birga, ma'no, axborot va haqiqat o'rtasidagi munosabatni tubdan o'zgartirmoqda.

Raqamli aloqalar natijasida inson o'zini ikki xil olamda topadi – haqiqiy va virtual. Bu ikki olam o'rtasidagi tafovut esa asl nusxa va buzilgan nusxa o'rtasidagi dialektik ziddiyat sifatida namoyon bo'ladi. Natijada, inson o'z tajribasining haqiqiyligini shubha ostiga oluvchi "raqamli ekzistensiya" holatiga tushib qoladi.

Demak, raqamli transformatsiya insoniyatning faqat texnik imkoniyatlarini kengaytirish bilan cheklanmay, balki ontologik o'zlikni, bilishning chegaralarini va insonning o'z tabiatini anglash darajasini qayta belgilamoqda. Shu bois, raqamli xavf makonida insonparvarlik, etik ong va madaniy mas'uliyat tushunchalari yangi sivilizatsion filtrlovchi tamoyillar sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. Раҳматов, А. (2021). Глобал ахборот маконида миллий манфаатлар ва ахборот хавфсизлиги муаммолари. Тошкент: Фан.
2. Мадраҳимова, Ф. (2019). Ахборотлашган жамиятда миллий маданиятни муҳофаза қилиш муаммолари. Тошкент: Академнашр. – С. 146.
3. Хайдеггер, М. (2009). Вопрос о технике // Избранные работы по философии. Москва: Республика.
4. Кастельс, М. (2010). Информационная эпоха: экономика, общество и культура. Москва: ГУ ВШЭ.
5. Тўхтаева, Н. (2020). Рақамли жамият ва инсон капиталини ривожлантириш тенденциялари. Тошкент: Университет нашриёти.
6. Нуриддинов, Ж. (2022). Сунъий интеллект ва инсон онги трансформацияси: ижтимоий-фалсафий таҳлил. Тошкент: Фан ва технология.
7. Bauman, Z. (2007). Consuming Life. Cambridge: Polity Press.
8. Harari, Y. N. (2018). Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. London: Vintage.
9. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere Is Reshaping Human Reality. Oxford: Oxford University Press.
10. Rifkin, J. (2011). The Third Industrial Revolution: How Lateral Power Is Transforming Energy, the Economy, and the World. New York: Palgrave Macmillan.

Qurbonova Komila

NamDU, magistranti

MILLIY O'ZLIK VA MA'NAVIY MEROSNING GLOBALLASHUV DAVRIDAGI TRANSFORMATSION TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida milliy o'zlik va ma'naviy merosning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi masalasi tahlil qilinadi. Maqolada madaniy merosning mazmun-mohiyati, uning tarixiy, ma'naviy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, milliy qadriyatlar tizimining zamonaviy jamiyat hayotidagi o'rni chuqur yoritilgan. Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash, yosh avlodda tarixiy xotira va madaniy ongni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni global ijtimoiy-madaniy muhit bilan uyg'unlashtirish zarurati ilmiy asosda asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada madaniy meros va diniy qadriyatlarning o'zaro aloqadorligi, ularning insonparvarlik, vatanparvarlik va bag'rikenglik g'oyalari bilan uyg'unligi tahlil etiladi. Muallif zamonaviy O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarni asrash, ularni yoshlar ongiga singdirish va globallashuv davrida ma'naviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlariga e'tibor qaratadi.

Kalit so'zlar. Milliy o'zlik, ma'naviy meros, globallashuv, tarixiy ong, milliy qadriyatlar, madaniy identifikatsiya, yoshlar tarbiyasi, ijtimoiy transformatsiya, ma'naviy barqarorlik, insonparvarlik, diniy qadriyatlar, milliy g'urur, o'zlikni anglash.

Globallashuv davrida insoniyat sivilizatsiyasi tub ijtimoiy, madaniy va axborot jarayonlarining kesishgan nuqtasida turibdi. Dunyo miqyosida yuz berayotgan texnologik taraqqiyot, iqtisodiy integratsiya va axborot oqimlarining keskin ortishi milliy madaniyatlar o'rtasidagi chegaralarni tobora noaniq holatga keltirmoqda. Shu bilan birga, har bir xalq uchun o'zining tarixiy ildizlarini, ma'naviy merosini va milliy o'zligini asrab-avaylash masalasi strategik dolzarblik kasb



etmoqda. Chunki milliy o'zlik va ma'naviy meros — jamiyatning ma'naviy barqarorligini, ijtimoiy birdamligini va madaniy izchilligini ta'minlovchi asosiy tayanch omillardandir.

Globalashuv jarayonlari natijasida jamiyatlarda qadriyatlar tizimi transformatsiyaga uchramoqda: milliy qadriyatlar universal madaniy standartlar bilan to'qnash kelmoqda, an'anaviy urf-odat va ma'naviy me'yorlar yangi talqinlarda shakllanmoqda. Bunday sharoitda milliy o'zlikni yo'qotmasdan, balki uni zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tarixiy xotira va madaniy merosni yoshlar ongiga chuqur singdirish dolzarb vazifadir.

O'zbekiston tajribasida milliy o'zlikni saqlash bilan bir qatorda uni yangilanish va taraqqiyot jarayonlariga moslashtirish siyosati izchil amalga oshirilmoqda. Ma'naviy merosni asrash, tarixiy qadriyatlarni chuqur o'rganish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta'minlayotgan asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois mazkur maqolada globalashuv sharoitida milliy o'zlik va ma'naviy merosning transformatsion jarayonlari, ularning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni va zamonaviy talqinlari ilmiy tahlil qilinadi.

Zamonaviy jamiyat hayotida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar xalqni nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni, balki uning yeng muhim ma'naviy boyligi – milliy meros va qadriyatlarini mustahkamlashni ham taqozo yetmoqda.

“Ma'naviy meros keng qamrovli tushuncha bo'lib, insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ilg'or g'oyalar, axloq, urf-odat, an'ana, qadriyat, ulkan kashfiyotlar, fan yutuqlari, tasviriy san'at asarlari, diniy hamda dunyoviy asarlar va boshqalarni o'z ichiga oladi” [4, B.32]. Tarixiy-madaniy merosni o'rganish jarayoni faqat ilmiy tadqiqot faoliyati bilan cheklanmaydi. U ajdodlar yaratgan bebaho ma'naviy xazina, ijtimoiy taraqqiyotning poydevori va insonning har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllanishida muhim omil sanaladi. Shu jihatdan, madaniy merosni chuqur o'rganish va tahlil qilish milliy g'urur va o'zlikni anglashni mustahkamlovchi ishonchli kafolatdir.

Mamlakatimizda mavjud tarixiy yodgorliklardan samarali foydalanish, ularni ilmiy asosda saqlash va amaliyotga tatbiq yetish bo'yicha tizimli yondashuv shakllanmoqda. Bu jarayon O'zbekistonning infratuzilmasini rivojlantirish, ziyorat turizmini kengaytirish, madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, yosh avlodga ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda ularga ajdodlar yaratgan buyuk tarixni yetkazish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining 2018-yil Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida shunday ta'kidlaydi: “Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash lozim” [3].

Darhaqiqat, har bir xalqning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti uning tarixiy xotirasi, an'analari, hayotiy qadriyatlari va urf-odatlaridan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi. “Shu o'rinda urf-odatlar to'g'risida to'xtalib o'tish joiz. Chunki odatlarning estetik didni shakllantirishdagi roli katta. Ijobiy nuqtai nazardan olib qaraganda, odatlanish shunday bir qudratli kuchki, u muntazam ravishda insonning qoniga, vujudiga, qalbiga singib boradi va bora-bora inson ichki ma'naviy olamining ajralmas qismiga aylanadi” [5, B.31].

Madaniy meros va tarixiy yodgorliklar mazmuniga oid ko'plab ilmiy ta'riflar mavjud. Jumladan, tadqiqotchilar ta'kidlaganidek: “Madaniy meros deb o'tmish davrlaridan insoniyatga qolgan va tanqidiy yondashilgan, ijodiy qayta ko'rib chiqilishi, zamonning konkret tarixiy vazifalari hamda ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv kriteriylari asosida rivojlantirilishi va foydalanishi lozim bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuini tushunmoq lozim” [6, S.17–18].



O'zbekiston hududida qadimdan bunyod yetilgan suv inshootlari, monumental me'moriy obidalar, osori-atiqalar — bu yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik, me'morchilik va shaharsozlik madaniyatining yuqori darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Ushbu meros xalqimiz tafakkurining, ijodiy salohiyatining va tarixiy tajribasining yorqin ifodasidir.

Bugungi globallashuv davrida bu qadriyatlarni ilmiy asosda qayta tadqiq yetish, ularning zamonaviy ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini belgilash hamda yosh avlod ongida tarixiy xotirani mustahkamlash – milliy o'zlikni saqlab qolishning yeng muhim ijtimoiy kafolatlaridan biridir.

Globallashuv sharoitida tarixiy ongning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish, ushbu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda ularni yoshlar ongiga mos ilmiy-tarbiyaviy shaklda tatbiq etish jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlovchi strategik vazifalardan biridir. XX asrning oxirlariga kelib, milliy mustaqilligimizga tahdid soluvchi eng xavfli jarayonlardan biri – O'zbekiston xalqi tarixini soxtalashtirishga qaratilgan mafkuraviy harakatlar paydo bo'ldi.

Ayniqsa, ayrim xorijiy ideologlar tomonidan ilgari surilgan “yagona turkiy millat” to'g'risidagi g'oya, ya'ni o'zbek, qozoq, turkman, boshqird, uyg'ur kabi millatlarning bo'linishini “noto'g'ri” deb talqin etish, o'zbek xalqining alohida millat sifatidagi o'zligini inkor etish xavfli va zararli mafkuraviy yo'nalish sifatida namoyon bo'ldi. Bu hodisa, aslida, o'zbek xalqining tarixini, madaniy ildizlarini, hatto kelajagini shubha ostiga qo'yish, turkiy xalqlarning umumiylikni mutlaq darajaga ko'tarish va milliy o'ziga xoslikni inkor etish bilan bog'liq mafkuraviy tahdiddir.

O'zbekiston tarixida ma'naviy va diniy qadriyatlar doimo uzviy aloqada, uyg'unlikda rivojlanib kelgan. Ayniqsa, an'anaviy islom ta'limoti bu qadriyatlarning shakllanishida alohida o'rin tutadi. Millatimizning ma'naviy merosi haqida so'z borganda, asrlar davomida xalqimiz tafakkurida mustahkam o'rnatilgan vatanparvarlik, tinchliksevarlik, do'stlik, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik, murosasozlik, or-nomus, halollik, mehr-oqibat va qo'shnichilik qadriyatlarini alohida ta'kidlash zarur.

Islom dini, xususan hanafiylik va moturudiylik ta'limotlari ushbu qadriyatlarni boyitib, ularni xalqimiz ma'naviy madaniyatining asosi sifatida mustahkamlab kelgan. “Жамият тараққиёти жараёнида шаклланган ҳар қандай ҳодиса ўтмишда ижобий аҳамият касб этгани учун эмас, балки келажак истиқболи учун янги имкониятлар яратиб беришга қодир бўлганлиги сабабли ҳам қадрият деб аталади” [7]. Shu bois O'zbekistonda buyuk allomalarimiz — Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi ajdodlarimizning ilmiy merosini o'rganish, ularning insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish, hanafiy va moturidiy aqidaviy maktablarini chuqur o'rganish maqsadida maxsus ilmiy markazlar faoliyat yuritmoqda. Bu nafaqat diniy-ma'rifiy, balki ma'naviy barqarorlikni ta'minlovchi, yosh avlodni ekstremizm va mutaassiblikdan himoya qiluvchi muhim ijtimoiy institut sifatida qoraladi.

Bugungi globallashuv davrida ma'naviy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir. Madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash, uni targ'ib qilish jamiyat taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Shu bilan birga, ayrim salbiy ijtimoiy holatlarning “o'zbekchilik” deb talqin qilinishi mutlaqo noo'rin. Dabdababozlik, riyo, manmanlik, manfaatparastlik, tanish-bilishchilik, korrupsiya, xushomadgo'ylik kabi illatlar milliy qadriyatlarga zid bo'lib, ular jamiyatning ijtimoiy-axloqiy muvozanatini buzadi va millatni tanazzul sari yetaklaydi.

Yosh avlodni turli xil mafkuraviy va ma'naviy tahdidlardan himoya qilish uchun ularning qalbi va ongiga sog'lom hayot tarzini singdirish, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtiromni bolalikdan shakllantirish zarur. Shu jarayonda yoshlar ongida milliy qadriyatlar va madaniy merosga ilmiy asosda to'g'ri yondashuvni shakllantirish, ularni insonparvarlik, vatanparvarlik, taraqqiyparvarlik mezonlari asosida anglashga o'rgatish muhim.



Bu esa, o'z navbatida, jamiyat oldidagi burch va mas'uliyatni, shuningdek, zamonaviy taraqqiyot talablariga mos milliy o'zlikni saqlab qolish tamoyilini mustahkamlaydi. Milliylik va tarixiylikni uyg'unlashtirgan holda yoshlarni globallashuv sharoitida ma'naviy jihatdan barqaror, tanqidiy fikrlay oladigan, tarixiy ildizlarini anglagan shaxslar sifatida tarbiyalash bugungi kunning eng muhim vazifalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси.-Тошкент: O'zbekiston, 2021. - Б.171.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси./ “Халқ сўзи”,2018 йил.29 декабрь,№271-272.(7229-7230).
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси ҳамда Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқидан иқтибослар. – Тошкент, Тасвир нашриёт уйи, 2021. - Б. 16.
4. З.Хайитов., Д.Шукурова. Ўтмиш ва келajak ўртасидаги кўприк. Жамият ва бошқарув. №2. 2011. –Б.32.
5. Б.Холматова. Шахс эҳтиёжларининг маънавий мезонлари. Жамият ва бошқарув. №2. 2011. –Б.31.
6. Хайруллаев М. Шорахмедов Д. Маданият ва мерос.-Т.: 1973.-С.17-18.
7. Фалсафа. Олий ўқув юртлари учун қўлланма. Тўлдирилган 2-нашр. Тошкент: Ўқитувчи, 2005. –Б.229.(304)

A. A. Turaqulov

Namangan davlat universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD

XXI ASR: FUTBOL VA DINIY BAG'RIKENGLIK

Annotatsiya: Ushbu maqola XXI asrda futbolning diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishdagi roli va ahamiyatini o'rganadi. Futbol jamoalari va futbolchilar turli din vakillaridan iborat bo'lib, diniy tafovutlarni yengib o'tishda ijtimoiy ko'priq vazifasini bajaradi. Maqolada FIFA va UEFA siyosati, musulmon futbolchilarning tajribalari, futbol orqali dinlararo muloqot va global bag'rikenglikning zamonaviy misollari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: futbol, diniy bag'rikenglik, FIFA, tolerantlik, tinchlik, global sport, dinlararo muloqot.

Аннотация: Статья посвящена роли футбола в XXI веке в продвижении религиозной терпимости. Команды и игроки состоят из представителей различных религий, что способствует преодолению религиозных различий и выполняет социальную функцию объединения. В статье анализируются политика FIFA и UEFA, опыт мусульманских футболистов, межрелигиозный диалог через футбол и примеры глобальной толерантности.

Ключевые слова: футбол, религиозная терпимость, FIFA, толерантность, мир, глобальный спорт, межрелигиозный диалог.

Abstract: This article examines the role and significance of football in promoting religious tolerance in the 21st century. Football teams and players consist of representatives from various



religions, bridging religious differences and fostering social unity. The study analyzes FIFA and UEFA policies, experiences of Muslim footballers, interfaith dialogue through football, and modern examples of global tolerance.

Keywords: football, religious tolerance, FIFA, tolerance, peace, global sport, interfaith dialogue.

XXI asrda futbol nafaqat sport turi, balki insoniyatni birlashtiruvchi madaniy hodisaga aylandi. Dunyo bo'ylab 200 dan ortiq mamlakatlarda o'ynalayotgan bu o'yin bugungi kunda turli din, irq va madaniyat vakillarini yagona maydonda jamlayapti. "Futbol o'yini orqali diniy bag'rikenglik, tinchlik, hamjihatlik va insonparvarlik qadriyatlari targ'ib qilinmoqda".¹⁷ Shu bois futbolni zamonaviy davrda diniy tolerantlikning eng kuchli ijtimoiy maydoni sifatida baholash mumkin.

"Futbol jamoalari ko'pincha turli e'tiqod va millat vakillaridan tashkil topadi. Masalan, "Liverpool", "Real Madrid", "Manchester City", "Bayern Munich" kabi klublarda nasroniy, musulmon, yahudiy va boshqa din vakillari bir jamoa uchun ter to'kadi".¹⁸ Ularning maqsadi bitta — g'alaba. Bu esa diniy tafovutlardan ko'ra insoniy birlik ustuvorligini namoyon etadi. Shu jihatdan futbol global miqyosda diniy chegaralarni yengib o'tuvchi madaniy vositaga aylangan.

Masalan, "Liverpool" jamoasining yulduzi Muhammad Saloh musulmon bo'lishiga qaramay, Angliyadagi muxlislar orasida katta hurmatga sazovor bo'lgan. Hatto ingliz muxlislari o'z qo'shiqlarida "Agar Saloh gol ura, men ham musulmon bo'laman!" degan so'zlarni kuylaydilar. Bu hodisa diniy bag'rikenglikning sport orqali ifodasidir.

FIFA tashkiloti o'z nizomida "diniy, irqiy yoki siyosiy asosda kamsitishga qarshi kurashish"ni asosiy prinsip sifatida belgilagan. 2013 yildan boshlab FIFA barcha xalqaro musobaqalarda futbolchilarga o'z e'tiqodini erkin ifoda etish, lekin diniy targ'ibotdan tiyilish huquqini kafolatlagan. Masalan, futbolchilarning gol urganidan so'ng sajda qilishi (islomiy odat), yoki xoch belgisini qo'yishi (nasroniylar an'anasi) — bu e'tiqod erkinligi sifatida qabul qilinadi. FIFA bu kabi ifodalarni hurmat bilan qarshi oladi, biroq diniy raqobat yoki da'vatga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan shiorlarni man etadi.

Shuningdek, FIFAning "Football for Hope" dasturi diniy va madaniy to'siqlarni yengib o'tishda sportning o'rni katta ekanini ko'rsatdi. Ushbu dastur orqali Afrikada, Yaqin Sharqda va Osiyoda diniy bag'rikenglikni targ'ib etuvchi yuzlab loyihalar amalga oshirilgan.

"Bugungi futbol olamida musulmon futbolchilarning o'rni tobora ortib bormoqda. Ularning aksariyati o'z diniy qadriyatlariga sodiq qolgan holda professional sportda muvaffaqiyat qozonmoqda. Misol uchun:

Karim Benzema (Fransiya) — Ramazon oyida ro'za tutgan holda mashg'ulotlarda qatnashib, bu holni tabiiy hayot tarzi sifatida qabul qildirgan.

Sadio Mane (Senegal) — o'z jamoasidagi nasroniy futbolchilar bilan hurmat va do'stlik asosida munosabat yuritib, Senegal va Yevropada diniy totuvlik timsoliga aylangan.

Pol Pogba (Fransiya) esa "Islom menga tinchlik va sabrni o'rgatgan" deb ta'kidlaydi"¹⁹.

"Bu futbolchilar diniy qadriyatlarini nafaqat saqlab qolishadi, balki sport orqali dunyoga tinchlik va bag'rikenglik g'oyasini yoymoqdalar".²⁰

Biroq, futbol maydoni har doim ham to'liq tolerantlik maydoni emas. Ayrim holatlarda diniy yoki irqiy kamsitish holatlari uchrab turadi. Masalan, Isroil va Falastin o'yinchilari o'rtasidagi siyosiy

¹⁷ FIFA Statutes: Regulations Governing the Application of the Statutes and Standing Orders of the Congress. Zürich: Fédération Internationale de Football Association. 2013. —B. 371.

¹⁸ Human Rights Policy and Anti-Discrimination Framework. Zürich: FIFA Publications. FIFA 2022. —B. 32.

¹⁹ No Discrimination Campaign Report. Nyon: Union of European Football Associations. UEFA 2021. —B.

²⁰ "Faith, Football and Freedom: How Players Express Their Religion on the Pitch." *BBC Sport Features*. 2022. —B. 98.



ziddiyatlar, yoki Yevropa ligalarida musulmon futbolchilarning Ramazon paytida kamsitilishi bunga misol bo'la oladi.

Shu bois FIFA va UEFA so'nggi yillarda “No Discrimination”, “Respect”, “Say No to Racism” kabi kampaniyalarni nafaqat irq, balki din bo'yicha kamsitishlarga qarshi ham yo'naltirdi. Endilikda futbol maydoni — diniy tinchlikni saqlash mas'uliyatini ham o'z zimmasiga olgan global makondir. Futbolning kuchi shundaki, u siyosiy yoki diniy diplomatiyadan ko'ra kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun:

““Peace Match” (Tinchlik o'yini) — 2014 yilda Papa Fransisk tashabbusi bilan o'tkazilgan bo'lib, musulmon, nasroniy va yahudiy futbolchilar bir jamoada maydonga tushgan.

Qatar 2022 jahon chempionati — musulmon mamlakatida ilk marta o'tkazilgan mundial bo'lib, u diniy bag'rikenglik, ayollarning sportdagi roli va madaniy hurmatni targ'ib qildi.

Interfaith Football Cup — turli din vakillari ishtirokidagi turnir bo'lib, diniy birdamlikni sport orqali mustahkamlashni maqsad qiladi”.²¹

Bunday tadbirlar futbolning nafaqat o'yin, balki diniy diplomatiya vositasi sifatida ham o'z o'rnini topganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, XXI asrda futbol diniy bag'rikenglik, tinchlik va insoniyat birligini mustahkamlovchi ijtimoiy kuchga aylangan. U dinlar o'rtasida to'siq emas, balki muloqot ko'prigi vazifasini bajarmoqda. Futbolchilarning o'z e'tiqodini hurmat bilan ifoda etishi, jamoalarning diniy xilma-xillikka ochiqligi va FIFAning tolerantlik siyosati — bularning barchasi sportning ma'naviy ahamiyatini yuksaltiradi.

Shunday ekan, futbol XXI asrda nafaqat musobaqa, balki dinlararo totuvlik va insonparvarlik madaniyatining eng yorqin timsoli bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Regulations Governing the Application of the Statutes and Standing Orders of the Congress. Zürich: Fédération Internationale de Football Association. FIFA 2013.
2. Human Rights Policy and Anti-Discrimination Framework. Zürich: FIFA Publications. FIFA 2022
3. No Discrimination Campaign Report. Nyon: Union of European Football Associations. UEFA 2021.
4. “How Mohamed Salah Made People Love Islam in England.” *The Guardian*, May 27, 2018.
5. “Faith, Football and Freedom: How Players Express Their Religion on the Pitch.” *BBC Sport Features*. 2022.

²¹ How Mohamed Salah Made People Love Islam in England.” *The Guardian*, May 27, 2018. –B. 79.

**Hamdamov Jamshid**

Namangan davlat universiteti

Falsafa mutaxassisligi magistranti

hamdamovjamshid@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Jamiyat va davlat hayotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida bag'rikenglik (tolerantlik) shaxs ma'naviy kamolotining muhim omillaridan biri sanaladi. Bag'rikenglik – bu faqat nazariy tushuncha emas, balki har qanday madaniyat va sivilizatsiyaning ajralmas elementi sifatida insoniyat taraqqiyotining asosiy ma'naviy tayanchlaridan biridir. Chunki madaniyat — jamiyatning tarixan shakllangan qadriyatlar, an'analari va normalarining majmuasi bo'lib, uning poydevorida tolerantlik g'oyasi yotadi. Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” rezolyutsiyasini ilgari surib, jaholat va savodsizlikka qarshi ma'rifat orqali kurashish, diniy erkinlikni ta'minlash va e'tiqod qiluvchilarning huquqlarini himoya qilish zarurligini ta'kidlagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017- yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida: “Bugungi sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilmoqchiman. Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan” [6], deb ta'kidladi.

Mavzuning nazariy jihatlarini ochib berishda, g'arb va sharq olimlarining qarashlari va yondashuvlarini o'rganish va tahlil qilish muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda tolerantlik tushunchasini ijtimoiy, siyosiy-falsafiy, diniy, tarixiy va zamonaviy fanlar kesimida tadqiq etayotgan chet el tadqiqotchilari jumlasiga L.V.Bayeva, L.K.Mullagaliva, M.T.Majid, N.S.Menshikova va boshqalarning ilmiy izlanishlarini kiritish mumkin. Shuningdek, mahalliy olimlardan R.X.Murtazayeva, M.S.Xajiyeva, D.Ernazarov, O.Musayev, U.R.Qushayev va boshqalar ham mazkur mavzuda ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

Shu bilan birga, tolerantlik tamoyilining siyosiy-huquqiy asoslarini o'rganish va tahlil qilishda BMT tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatlar, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948-yil), Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi (1995-yil) va boshqalarni tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu mavzuni tahlil qilishda umumilmiy uslublar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya va boshqalar), normativ-huquqiy tahlil (xalqaro huquqiy hujjatlar tahlili), taqqoslash usuli (turli xil siyosiy-huquqiy mexanizmlarni solishtirish va samaradorligini aniqlash) va tizimli tahlil uslublaridan foydalanilgan. Shuningdek, tarixiylik, xolislik va izchillik tamoyillariga tayanilgan.

Bag'rikenglik kategoriyasi turli kontekstlarda qo'llanilishiga qaramay, haligacha uning to'liq mazmuni mavhumligicha qolmoqda. Zamonaviy paradigmada tolerantlik demokratik qadriyat va axloq kodeksi sifatida ko'rsatilmoqda. Diniy nuqtayi nazardan tolerantlik bu – boshqalarning e'tiqodiga nisbatan bag'rikeng va hurmat bilan munosabatda bo'lish va asosiy e'tibor dogmatizmga



qaratiladi. Siyosiy kontekstda esa asosiy e'tibor boshqalarning nimaga ishonishi yoki o'ylashiga emas, balki odamlar nima qilayotganidan iborat [3:49].

Bag'rikenglikning birinchi tarixiy-siyosiy shakli diniy bag'rikenglik bo'lib, uning tamoyili Vestfaliya shartnomasida (1648-yil) bayon qilingan. Bu shartnoma butun Germaniya bo'ylab lyuteranlar, kalvinistlar va katoliklar huquqlarini tenglashtirish ma'nosida dinlarning tengligi uchun asos yaratdi [2:10].

Tolerantlik kategoriyasini nazariy va amaliy qo'llashda 1995-yil 16-noyabrda Parijda YUNESKO Bosh Konferensiyasining 28-sessiyasida e'lon qilingan "Tolerantlik tamoyillari deklaratsiyasi"da berilgan ta'rifga tayanilmoqda. Ushbu hujjatda tolerantlikka quyidagicha ta'rif berilgan:

Tolerantlik – bizning dunyomizdagi turli boy madaniyatlarni, o'zini ifodalashning va insonning alohidaligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini hurmat qilish, qabul qilish va to'g'ri tushunishni anglatadi. Uni bilim, samimiyat, ochiq muloqot, hurfiy, vijdon va e'tiqod vujudga keltiradi.

Tolerantlikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni, o'z imon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, har kim o'z e'tiqodiga amal qilishda erkindir va har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanini tan olmog'i lozim. U yana shuni anglatadiki, odamlar o'z tabiatiga ko'ra, tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi, xulqi va qadriyatlari jihatidan farqlanishi e'tirofqa loyiq barobarida, ular dunyoda yashashga va o'zining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas [8]. Har bir mamlakat taraqqiyoti unda barqaror, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va yaxshi qo'shniçilik muhitining saqlanishiga uzviy bog'liq. Shu bois O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va dinidan qat'i nazar teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Yangi O'zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo'lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyatning o'zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to'la javob beradigan obyektiv zaruratdir [1:4]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil amalga oshirilayotgan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu sohada yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur davlat dasturida O'zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilg'or demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib o'rin egallashi asosiy maqsad etib belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekistonni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan Taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish va mamlakatimizda yangi islohotlarni boshlab berish borasida: "Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelini qat'iy amalga oshirishdan iborat"[7], deb ta'kidlagan edi.

Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi yo'nalishi "Ma'naviy-ma'rifiy sohani yuksaltirish va milliy g'oyani mustahkamlash"deb nomlangan bo'lib, mazkur yo'nalish 5 ta bandni o'z ichiga oladi [4:10].

Diniy ekstremizm va missionerlik faoliyatiga qarshi kurashish, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.



Shuningdek, 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [9] Farmoni, 2018-yil 4-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e'tiqod erkinligini ta'minlash bo'yicha “Yo'l xaritasi” [5] va 2018-yil 16-apreldagi “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [12] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 16-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qaroriga muvofiq Din ishlari bo'yicha qo'mita huzuridagi Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 nafardan 17 nafar a'zoga – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi [11].

Muhim jihati shundaki, kengash a'zolariga a'zolari oz sonli diniy tashkilotlar rahbarlari ham kiritildi. Jamoatchilik maslahatlashuv organi hisoblangan mazkur kengashning asosiy maqsadi O'zbekistondagi mavjud diniy-ijtimoiy jarayonlarni muhokama qilish va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va sivilizatsion merosi, ma'naviy-falsafiy ahamiyatini chuqur o'rganish bo'yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad – fundamental ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag'rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish hamda uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat. Bu borada Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etildi. Shu bilan birga, tegishli oliy ta'lim muassasalarida sifatli diniy ta'lim olish imkoniyati kengaymoqda. O'rta, oliy diniy ta'lim, magistratura, boshlang'ich doktorantura va doktoranturani o'z ichiga olgan diniy ta'limning besh bosqichli tizimi shakllantirildi. Islomiy ta'lim muassasalariga talabalarni qabul qilish kvotasi ikki baravar oshirildi. Shuningdek, Toshkent pravoslav seminariyasi va Toshkent xristian seminariyasi o'quv dargohlari ham o'z faoliyatini davom ettirmoqda.

Millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida muhim o'rin egallay boshladi. Hukumat xalqaro tashkilotlar hamda ushbu sohada mutaxassislar bilan konstruktiv muloqot va hamkorlik o'rnatishga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Zeyd Raad Al-Huseyn hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Milliy ozchiliklar bo'yicha Oliy komissari Lamberto Zaniyerning mamlakatimizga tashrifi chog'ida mazkur sohada olib borilayotgan islohotlar muhokama qilindi va xalqaro mutaxassislar tomonidan bu boradagi o'zgarishlarga yuqori baho berildi. E'tiborli jihati, 2017-yilda mustaqil O'zbekiston tarixida ilk bora mamlakatimizga BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining din va e'tiqod erkinligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Ahmad Shahid tashrif buyurdi. Uning tavsiyalari asosida 2018-yil 4-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi din va e'tiqod erkinligini ta'minlash bo'yicha “Yo'l xaritasi”ni tasdiqladi.

Umuman olganda, O'zbekistonning millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi faoliyati xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholanmoqda hamda mamlakat tajribasiga katta qiziqish bildirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan “Ma'rifat va diniy bag'rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishning taklif etilishi va mazkur hujjatning 2018-yil 12-dekabrda qabul qilinishi buning yorqin misoli bo'la oladi.



Ma'rifat va diniy bag'rikenglik to'g'risidagi rezolyutsiyaning BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi shuni anglatadiki, 51 ta davlat O'zbekiston tomonidan ilgari surilgan konstruktiv taklif, ya'ni dunyodagi mavjud barcha dinlarga nisbatan ma'naviy bag'rikenglik madaniyatini kuchaytirishga doir g'oyani qo'llab-quvvatladilar. Chunki ushbu rezolyutsiya bag'rikenglik bilan birga madaniy va diniy bilimlarni kuchaytirish tamoyilini ham olg'a surgan holda global tinchlik va farovonlik uchun muhim ustuvor yo'nalish sifatida xizmat qiladi. Ushbu rezolyutsiya nafaqat BMTga a'zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangani, balki Shimoliy Amerika va Lotin Amerikasi, Osiyo, Afrika va boshqa qit'alarining 50 dan ziyod mamlakatlari bilan hammualliflikda qabul qilingani e'tiborga molik. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan O'zbekiston Prezidenti tashabbusining dolzarbligi va o'z vaqtida ilgari surilgan taklif ekanining yuksak e'tirofidir.

O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha olib borilgan islohotlar doirasida erishilgan muhim natijalardan yana biri sifatida 2018-yilda Amerika Qo'shma Shtatlari Davlat departamenti O'zbekistonni diniy erkinlik borasida "alohida tashvish uyg'otuvchi mamlakatlar" ro'yxatidan chiqarganini ko'rsatish mumkin. E'tiborli jihati shundaki, 2020-yil 13-oktyabr kuni BMT Bosh Assambleyasi sessiyasida bo'lib o'tgan saylovlarda O'zbekiston milliy davlatchiligi tarixida birinchi marotaba BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi a'ziligiga uch yil muddatga (2021-2023-yillarga) saylandi. O'zbekiston uchun BMTga a'zo 193 ta davlatdan 169 tasi ovoz berdi. Ushbu saylovda eng ko'p ovoz to'plagan davlat O'zbekiston bo'ldi. Bu ham mamlakatda millati va dinidan qat'i nazar inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan, shu jumladan, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida olib borilayotgan siyosatning e'tirofi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari, xalqaro me'yorlar asosida qayta ishlangan va 2021-yil 5-iyulda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi [10] O'zbekiston Respublikasi qonuni muhim ahamiyatga egadir. Bularning barchasi O'zbekistonning xalqaro munosabatlarda ishonchli va mas'uliyatli subyekt sifatidagi roli mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni mustahkamlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratildi. Yangi modelning o'ziga xosligi shundaki, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka tahdid soluvchi turli xavflarga, jumladan, axborot ko'rinishdagi kiberxavflarga qarshi kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, mazkur model turli millat va din vakillari o'rtasidagi millatlararo va dinlararo muloqot, konstruktiv yondashuv va barcha fuqarolarning qonun oldida tengligiga asoslanadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglik sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarida yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasida so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham yuksak e'tirof etilmoqda. Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan ilgari surilgan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasining BMT tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mamlakatimizning bu boradagi tashabbuskor va ishonchli hamkor sifatidagi rolini mustahkamladi.

O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash siyosati Harakatlar strategiyasining beshinchi yo'nalishida, shuningdek, "Millatlararo munosabatlar va do'stlik aloqalarini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident farmonlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar orqali izchil amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatda millatlararo muloqotning yangi, insonparvarlikka asoslangan modeli shakllandi. Bu model fuqarolarning millati va e'tiqodidan qat'i



nazar teng huquq va imkoniyatlarini kafolatlaydi, diniy ekstremizmga qarshi kurashning huquqiy va ma'rifiy asoslarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy nomidagi xalqaro markazlar, diniy ta'lim tizimining besh bosqichli modeli O'zbekistonda diniy-ma'naviy sohaga ilmiy yondashuvni kuchaytirib, diniy bag'rikenglikning madaniy asoslarini yanada boyitdi. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik tamoyillari Yangi O'zbekiston taraqqiyotining poydevori, jamiyat barqarorligi va davlat suverenitetining kafolatidir. Ushbu tamoyillarni chuqur anglash va amaliyotga joriy etish nafaqat ichki ijtimoiy barqarorlikni, balki xalqaro maydonda O'zbekistonning ijobiy imijini yanada mustahkamlaydi. Shu bois, tolerantlik madaniyatini rivojlantirish O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy modernizatsiyasida strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston, 2022.
2. Муллағалиева Л.К. Язык толерантности. Доктор педагогических наук. Монографии. – Уфа, 2012.
3. Tomas Saulius. What is “tolerance” and “tolerance education”? philosophical perspectives. // Ugdymas kuno cultura sportas Nr. № 2(89). – Litva, 2013.
4. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari. –T.: G'afur G'ulom, 2017.
5. <http://nhrc.uz/oz/news/uzbekistanom-uspeshno-realizuetsja-dorozhnaja-karta-po-obespecheniju-svobody-religii-i-ubezhdenij>.
6. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>.
7. <https://uzbekistan.org.ua/uz/157-siyosat/4194-shavkat-mirziyoyevning-o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-lavozimiga-kirishish-tantanali-marosimiga-bag-ishlangan-oliy-majlis-palatalarining-qo-shma-majlisidagi-nutqi.html>.
8. <https://www.oas.org/dil/1995%20Declaration%20of%20Principles%20on%20Tolerance%20UNESCO.pdf>.
9. <https://lex.uz/acts/-3210345>.
10. <https://lex.uz/docs/-5491534>.
11. <https://lex.uz/ru/docs/-3685963>.
12. <https://lex.uz/ru/docs/-3686277>.

А. Абдуллазизов

к.с.н. доцент НамГУ.

abdulazizov60@mail.ru

ПРОБЛЕМЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация В статье рассматривается толерантность как социокультурная норма в условиях цифровизации, с акцентом на особенности ее проявления в полиэтнических и многоконфессиональных обществах Евразийского региона. На основе теоретических подходов (социализации, стигматизации, конфликта, «информационных пузырей») и эмпирических данных анализируются изменения в механизмах социализации,



распространении стереотипов, цифровом неравенстве и уровне межгрупповой интолерантности. Особое внимание уделено странам Центральной Азии, России, Кавказа, Турции и Ирана. Выявлены ключевые социологические проблемы, такие как рост hate speech, поляризация, институциональный дефицит регулирования и культурное цифровое неравенство. Предложены возможные решения с позиции социологического подхода: развитие цифровой гражданственности, мониторинг онлайн-дискурса, поддержка диалоговых платформ и инклюзивной цифровой инфраструктуры. Делается вывод о необходимости формирования цифровой среды как пространства культурного диалога и социальной устойчивости.

Ключевые слова: толерантность, цифровизация, Евразия, социологический анализ, межкультурное взаимодействие, цифровое неравенство, hate speech, идентичность, информационные пузыри, онлайн-социализация, ксенофобия, цифровая гражданственность.

А.Абдуллазизов.

с.ф.н. НамДУ доценти,

e-mail: abdulazizov60@mail.ru

RAQAMLI ASRDA BAG'RIKENGLIK MUAMMOLARI: SOTSIOLOGIK TAHLIL

Annotatsiya Maqolada tolerantlik sotsiomadaniy norma sifatida raqamlashtirish sharoitida, xususan, Evroosiyo mintaqasining ko'p millatli va ko'p konfessiyali jamiyatlarida qanday namoyon bo'layotgani tahlil qilinadi. Sotsiologik nazariyalar (sotsializatsiya, stigmatizatsiya, ijtimoiy ziddiyat, "axborot pufakchalari") va empirik ma'lumotlar asosida ijtimoiylashuv mexanizmlari, stereotiplar tarqalishi, raqamli tengsizlik va guruhlararo intolerantlikning o'sishi o'rganiladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Kavkaz, Turkiya va Eronda kuzatilayotgan holatlarga alohida e'tibor qaratilgan. Hate speech (nafrat so'zlari), polarizatsiya, institutsional nazoratning zaifligi va madaniy raqamli tengsizlik asosiy sotsiologik muammo sifatida ko'rsatiladi. Maqolada tolerant raqamli muhitni shakllantirish yo'llari — raqamli fuqarolik madaniyatini rivojlantirish, onlayn-diskurs monitoringi, madaniyatlararo muloqot maydonlarini yaratish va inklyuziv raqamli infratuzilmani qo'llab-quvvatlash zarurligi ta'kidlanadi. Raqamlashtirish nafaqat ijtimoiy o'zaro ta'sir shakllarini, balki tolerantlik va intolerantlik munosabatlarini ham o'zgartirayotganini ko'rsatuvchi xulosa beriladi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, raqamlashtirish, Evroosiyo, sotsiologik tahlil, madaniyatlararo muloqot, raqamli tengsizlik, nafrat so'zlari, identiklik, axborot pufakchalari, onlayn sotsializatsiya, ksenofobiya, raqamli fuqarolik.

Введение Толерантность как социокультурная норма представляет собой важнейшую составляющую устойчивого общественного развития, особенно в полиэтнических и многоконфессиональных обществах Евразии. В условиях цифровизации изменяются формы коммуникации, каналы социализации, механизмы формирования идентичности и распространения информации, что оказывает прямое влияние на межгрупповое взаимодействие. Цифровая среда становится новым пространством, где репродуцируются или трансформируются социальные стереотипы, нормы и конфликты.



Цель статьи — осуществить социологический анализ ключевых проблем, связанных с толерантностью в эпоху цифровизации в странах Евразийского региона, на основе теоретических подходов и эмпирических исследований.

Обзор литературы и методы. В методике обучения чтению существуют разнообразные классификации видов чтения. По данным О.Д. Кузьменко и Г.В. Роговой одни авторы подчеркивают психологические факторы процесса чтения. В этом случае в основу выделения вида чтения кладутся особенности психических процессов, его сопровождающих: аналитическое, синтетическое чтение (Грузинская И.А., Карпов И.В., Миролюбова А.А., Рахманова И.В., Цетлин В.С.), чтение с первичным и вторичным синтезированием (Бородулина М.К.), импрессивное, экспрессивное чтение (Любарская А.А.). Другие больше обращают внимание на организационную сторону учебного процесса: классное, лабораторное, программированное (Брейнбридж Р.), домашнее (Рабунский Е.С., Гурвич П.Б., Шрамова А.П.), индивидуально-групповое (Пол Увити, Патрик Гроф). Третьи учитывают собственно методические факторы, делая акцент на условия, определяющие учебную деятельность. Сюда относятся: а) характер материала для чтения: подготовленное – не подготовленное (Розов О.А.);

Способ работы с текстом: интенсивно-экстенсивное (Хэгболдт П, Гандшин С.Х., Коулман А.); беспереводное -- переводное (Розанов Е.Д., Курина Л.Л.). И, наконец, существуют классификации, подчеркивающие характер процесса чтения, обусловленный установкой читающего: чтение-поиск, чтение-обзор, детальное чтение, критическое чтение, чтение для удовольствия (Увест М, Янг М, Янг Ч.). С.К. Фоломкина выделяет ознакомительное, поисковое, просмотровое, изучающее чтение. В этом отношении художественные произведения играют важную роль в процессе межкультурной коммуникации, так как именно они напрямую связаны с культурой, хранят информацию об истории, национальной психологии, национальном поведении, то есть обо всех составляющих культуры. С этой позиции произведение рассматривается как «набор специфических сигналов, которые автоматически вызывают у читателя, воспитанного в традициях данной культуры, не только непосредственные ассоциации, но и большое число косвенных.

1. Теория социализации (G. Mead, P. Berger, T. Luckmann)

Социализация в цифровой эпохе всё больше смещается в онлайн-пространство, где происходят первичное и вторичное усвоение норм. Это меняет вектор воздействия агентов социализации — цифровые сообщества, инфлюенсеры, платформы всё чаще заменяют школу, семью и традиционные СМИ.

2. Теория стигматизации и девиантного поведения (E. Goffman, H. Becker)

В цифровой среде ярлыки, стереотипы и предрассудки распространяются быстрее, а анонимность и безнаказанность способствуют формированию агрессивной и нетолерантной риторики.

3. Теория конфликта (L. Coser, R. Dahrendorf)

Увеличение цифрового неравенства, различие в доступе к ресурсам и возможностям — это фактор социальной напряжённости. Толерантность часто становится жертвой цифровых конфликтов, в которых сталкиваются интересы различных социальных групп.

4. Теория «эхо-камер» и «информационных пузырей» (E. Pariser)

Формирование закрытых сообществ на основе схожих взглядов в цифровой среде ведёт к росту интолерантности к иным мнениям, культурным и этническим отличиям.

Обсуждения и результаты. Эмпирический анализ: Евразийский регион

1. Страны Центральной Азии (Казахстан, Кыргызстан, Узбекистан)



- Цифровизация в этих странах идёт быстрыми темпами, при этом сохраняется сильная зависимость от этноконфессиональных идентичностей.

- Исследование Института социологии Казахстана (2023) показывает, что среди молодежи снижается уровень этнической дистанции, но в интернете усиливаются конфликты на религиозной и культурной почве в комментариях и сообществах, особенно во время политических или религиозных кризисов [1].

2. Россия

- По данным Левада-Центра (2021), около 42% опрошенных молодых пользователей интернета сталкивались с дискриминационным контентом.

- Распространение националистических и ксенофобских сообществ в социальных сетях продолжает оставаться вызовом для толерантности, несмотря на существующую юридическую базу по борьбе с экстремизмом [2].

3. Кавказские республики

- Высокая религиозная идентичность и традиционные ценности влияют на восприятие свободы слова и границ допустимого в онлайн-коммуникации.

- В то же время, исследование Кабардино-Балкарского госуниверситета (2022) показало рост интереса у молодёжи к межкультурному диалогу через Tik Tok и YouTube, особенно в многоязычных форматах [3].

4. Турция и Иран

- В странах с государственным контролем интернета отмечается высокая степень самоцензуры, при этом парадоксально усиливается интерес к иным культурам и мировоззрениям (через VPN и альтернативные каналы).

- Это формирует «двойную реальность» — в реальной жизни человек конформен, в цифровом пространстве может быть более открытым к иному опыту [4].

Основные социологические проблемы

1. Цифровое неравенство

- **Классическое цифровое неравенство:** доступ к интернету и технике.
- **Культурное цифровое неравенство:** владение цифровыми компетенциями, критическим мышлением.

- Это формирует новые линии стратификации: «включённые» и «исключённые» из цифровой коммуникации.

2. Рост ксенофобии и hate speech в сети

- Наблюдается увеличение количества hate speech (разжигание ненависти) - выражений по этническому, гендерному и религиозному признаку.

- Анонимность снижает барьеры к агрессивному поведению.

3. Поляризация и «цифровые войны»

- Социальные сети становятся ареной «символических конфликтов» (Bourdieu), где сталкиваются нарративы.

- Примеры: конфликт вокруг LGBTQ+ в Казахстане; споры о роли ислама в публичной сфере в Кыргызстане; восприятие мигрантов в российских городах.

4. Институциональный дефицит регулирования

- Во многих странах отсутствует эффективная система мониторинга ксенофобских проявлений в интернете.

- Законы об экстремизме часто применяются выборочно, что подрывает доверие к институтам.



Возможные решения (социологическая перспектива)

1. **Формирование культуры цифровой гражданственности**

- Через образовательные инициативы, вовлечение молодежи в проекты по цифровому этикету и инклюзивному общению.

2. **Социальные исследования и мониторинг онлайн-репрезентаций**

- Регулярные опросы, анализ дискурса, этнографические исследования цифровых сообществ.

3. **Диалоговые площадки и «цифровые мосты»**

- Создание платформ для межкультурного общения, блог-проектов, влогов с участием разных этнических и религиозных групп.

4. **Участие гражданского общества в регулировании цифровой среды**

- НКО и общественные организации должны быть включены в процесс разработки политик регулирования hate speech.

5. **Инклюзивность цифровой инфраструктуры**

- Поддержка локальных языков и культур в интерфейсах, алгоритмах, контенте.

Заключение

Социологический анализ показывает, что цифровизация не только изменяет формы взаимодействия, но и трансформирует структуру социальных отношений, включая отношения толерантности и интолерантности. Для стран Евразии важно не только догонять цифровое развитие, но и выстраивать цифровую среду как пространство уважения, равноправия и культурного диалога. Это требует системной социологической работы — от изучения реальных практик цифрового общения до институциональной поддержки инклюзивности.

Список источников

1. Султанова Д.К. Молодёжь и толерантность в цифровую эпоху: данные социологических исследований в Казахстане. — Алматы: Институт социологии, 2023.
2. Левада-Центр. Молодёжь, интернет и восприятие иного. — Москва, 2021. <https://www.levada.ru>
3. Казаков И.А., Ахматова З.М. Медиаобразование в многоэтническом регионе: кейс Кавказа. — Нальчик, КБГУ, 2022.
4. Gökhan Yilmaz. Digital Censorship and Identity in Authoritarian States: Turkey and Iran. — Journal of Digital Society, 2024.
5. Pariser, Eli. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. — Penguin Books, 2011.
6. Bourdieu, Pierre. Language and Symbolic Power. — Harvard University Press, 1991.

Бахром Джамолович Джалолов

Наманган давлат чет тиллари институти ўқитувчиси

ЎЗБЕКИСТОНДА ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ МАСАЛАСИ: КЕЧА ВА БУГУН

Аннотация: Ушбу мақолада истиклол йилларида миллий ва диний қадриятларни янада ривожлантириш, ёшлар орасида қадриятларга бўлган хурматни ошириш, ўтмишдан хулоса чиқариш каби долзарб масалалар кўтарилиб, яқин ўтмишда, айни шўролар даврида диний урф-одатларимизни камситиш, динсизликни тарғиб қилиш ва унинг салбий оқибатлари танқидий



таҳлил қилиб берилади. Халқимиз орасида “совет мафкураси ва ғоялари”ни тарғиб қилиш ва сингдириш йўлида йўл қўйилган хатолар ҳамда камчиликлар баён қилиб берилади.

Калит сўзлар: Конституция, виждон эркинлиги, қадриятлар, урф-одатлар, намоз, рўза, палов, хатна, маросимлар, анъаналар, пахта йиғим-терими, исмлар, диний бағрикенглик, дин, ислом.

Бахром Джамолович Джалолов

Преподаватель Наманганского государственного института иностранных языков

ПРОБЛЕМА СВОБОДЫ СОВЕСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЧЕРА И СЕГОДНЯ

Аннотация: В данной статье поднимаются такие актуальные вопросы, как дальнейшее развитие национальных и религиозных ценностей в годы независимости, повышение уважения к ценностям среди молодежи, а также извлечение выводов из прошлого в недавнем прошлом, в период шуры, критически анализируются дискриминация наших религиозных традиций, пропаганда безверия и ее негативные последствия. Описаны ошибки и недостатки, допущенные в деле пропаганды и внедрения в жизнь нашего народа “советской идеологии и идей”.

Ключевые слова: Конституция, свобода совести, ценности, традиции, молитва, пост, плов, обрезание, обряды, традиции, сбор хлопка, имена, религиозная толерантность, религия, ислам.

Bahrom Dzhamolovich Dzhalolov

Teacher of the Namangan State Institute of Foreign Languages

THE ISSUE OF FREEDOM OF CONSCIENCE IN UZBEKISTAN: YESTERDAY AND TODAY

Abstract: This article raises pressing issues such as the further development of national and religious values during the years of independence, increasing respect for values among young people, and drawing conclusions from the past. In the recent past, in the period of the Shuras, the discrimination of our religious traditions, the propagation of irreligion and its negative consequences are critically analyzed. The mistakes and shortcomings made in the way of promoting and inculcating "Soviet ideology and ideas" among our people are described.

Key words: Constitution, freedom of conscience, values, traditions, prayer, fasting, pilaf, circumcision, rituals, traditions, cotton harvest, names, religious tolerance, religion, Islam.

Кириш: Ўзбекистон Республикасида истиқлол йилларида аҳоли орасида ўзаро ҳамжиҳат-ликни, миллатлараро муносабатни мустаҳкамлаш ва виждон эркинлигини таъминлаш ва мустаҳкамлаш йўлида бир қанча чора-тадбирлар амалга оширилди. Кўп миллатли Республикада барча миллат ва элатларнинг урф-одат ва анъаналарини сақлаш ҳамда ривожлантиришга алоҳида аҳамият берилиб келинмоқда. Айниқса, диний бағри-кенгликни давлатимиз томонидан қўллаб-қувватланиши ва 2023 йил 30 апрелда қабул қилинган янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 35-моддасида “Ҳамма учун виждон эркинлиги кафолатланади. Ҳар бир инсон хоҳлаган динга эътиқод қилиш ёки ҳеч қайси динга эътиқод қилмаслик ҳуқуқига эга” деб белгилаб қўйилиши бу борадаги амалий ишларнинг ҳуқуқий кафолати сифатида муҳим аҳамият касб этди.



Президентимиз Ш. Мирзиёев таъкидлаганларидек “Ўзбекистонда сўнгги йилларда миллий-диний қадриятларимизни тиклаш ва ривожлантириш, эътиқод эркинлигини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда, турли миллат ва элатлар ўртасида тотувлик, аҳиллик ва ҳамжиҳатлик муҳити тобра юксалиб бормоқда”[1.:338]. Бу ютуқлар халқимиз, айниқса ёшларимиз орасида бугунги кунга шукроналик, ватанга бўлган муҳаббат ва эртанги кунга ишонч каби фазилатларни шаклланишида хизмат қилмоқда. Зеро

ўтмишда, айниқса совет мустабид ҳукмронлиги йилларида Ўзбекистонда динга қарши кураш, динсизликни тарғиб қилиш, ёшлар онгини даҳрийлик ғоялари билан қуроллантириш, диний баҳрикенгликни ва эркинликни чеклаш ва бу йўлда олиб борилган зўравонлик сиёсати “тарихнинг қора саҳифалари” сифатида муҳрланганлиги ва уни бу-гунги кун авлодларига ҳолисона етказиб бериш бугунги кун зиёлиларининг муҳим вазифаларидан бири десак адашмаган бўламиз.

Таҳлил ва натижалар: Айниқса, иккинчи жаҳон уруши йилларида (1941-1945 йй) вазият тақозоси билан диний бағрикенглик масаласида муроса йўлига кирган совет ҳукумати урушда қўлга кири-тилган “ғалаба” туфайли ўз қарашларидан воз чекина бошлади ва динга қарши сиёсатни кучайтирди.

Ғарбдаги айрим совет ғояларини қўллаб-қувватловчи шахслар томо-нидан совет тузумининг динга нисбатан олиб борган сиёсати бошқача талқин қилинган. Бунга мисол сифатида, Совет Иттифоқида сафарда бўлган француз журналисти Жанна Марбиннинг 1969 йил май ойида Франциянинг “Монд” газетасида мақоласи эълон қилиниб, унда “Со-вет халқи ҳеч қандай ғалабасиз бир неча йил ичида Совет Шарқида жойлашган 5 та рес-публикада 30 миллион мусулмонни бирлаштирди” деб ёзган эди[2.:59].

Жанна Марбин Ўзбекистонга ташриф буюрган ва сафар тассуротларидан таъсир-ланиб, ёзган ушбу мақоласида совет ҳукуматининг мусулмонларни бирлаштириш тўғ-рисидаги фикрлари нечоғлиқ ҳақиқатга яқин эканлигини, буни тарихий далилларни тан-кидий-таҳлилий кўриб чиқиб, хулоса чиқаришга тўғри келади.

Ўрта Осиёдаги мусулмонларни ҳаммасини “ягона совет халқи” сифатида бирлаш-тириш, совет мафкураси ғояларини сингдириш, бу йўлда мусулмонларнинг минг йиллик тажрибага эга бўлган урф-одатлар, маросимлар ва қадриятларни инкор этиш сиёсатини олиб борди.

Жумладан, Ислом дини мусулмонларга таъқиқланган одатларни совет ҳукумати оқлашга уриниб, дин талабларига қарама-қарши сиёсат олиб борди, масалан, мусулмон-ларни чўчка боқишга мажбурлаш ва бунга мажбурлаш сиёсати бўлиб, Ўзбекистон халқининг диний-маиший турмуш тарзига салбий таъсирини кўрсатди. Маҳаллий халқ солиқ ва бошқа мажбуриятлардан қутилиш учун чўчка боқишга киришди. Бу масала юзасидан ўз даврининг тараққийпарварларидан бири Мустафо Чўқай “бу ишни севгани-миз, шунга муҳтожлигимиз учун эмас, мутлоқо, фақат мажбур қилинганимиз учун чўчка боқдик” деб изоҳлашга мажбур бўлган эди[5.:102].

Совет ҳукумати раҳбари Сталин гарчи дастлабки йилларда “мусулмонлардан чўчка боқишни талаб этиш аҳмоқлик” деб, бунга қарши бўлсада, кейинги тарихий манбаларда Сталиннинг ўзи ҳам бу беъмани одатни рағбатлантириб борганини тасдиқлади[6.:103].

Хусусан, 1946 йил 2 февралда СССР Халқ Комиссарлари Советининг “Давлатга гўшт топшириш тўғрисида қарори қабул қилиниб, унга кўра 1946 йилда Ўзбекистон жамоа хўжаликлари республика миқёсида, жами 160 тонна чўчка топшириш режаси тас-диқланиб, вилоят ва туманлар ижроия қўмиталарига гўшт топшириш ҳисобига чўчка топ-шириш режасини 3 кунда туманларга, туманлар эса колхозларга тақсимлаш мажбурий ра-вишда белгилаб қўйилди[7.:84].



Қарорда кўрсатилган талаб бўйича, маҳаллий аҳолига имконият бериш мақсадида, чорва гўшти ўрнига чўчка гўшти топширишлари мумкинлигига урғу берилгани, мусулмонларни иқтисодий аҳволи яхшиланиши учун нажот йўли, давлатга чўчка бокиб бериш-лари кераклиги ҳақида йўл кўрсатишга уриниш деб хулоса қилиш мумкин. Бундан ташқари, пахтаёққаҳокмлиги ўрнатилган Ўзбекистонда диний одатлар меҳнат интизомини бузилишига олиб келувчи ҳолат деб қаралди. Ўзбек халқи ҳаттоки пахта ишлари мав-сумида ибодат, яъни намоз билан машғул бўлиб қолмаслиги, шунинг учун ислом динида ҳар бир мусулмонга белгиланган намоз ўқиш, руза тутиш каби диний маросимларга ҳам қарши чора-тадбирлари ишлаб чиқилди.

Жумладан, пахта йиғим-теримида, мусулмонларни ибодатга чалғиб қолмаслиги учун 1944 йилдаёқ совет ҳукумати босими остида Ўрта Осиё ва Қозоғистон мусулмонлари диний назоратининг “Эҳтиёти пешин намозини тарк этув ҳақида фатвоси чиқартирилиб, намоз ўқишни ихчамлаштириш, бу соҳада, гўёки, совет ҳукумати “ғамхўрлиги сифати”да мусулмонларга “енгиликлар” бериш, намози жумаларга қатнашишлари шарт эмаслик-лари таъкидланган[8.:55].

Чунки мусулмонларнинг ибодатидан кўра, динга қарши сиёсатга асосланган совет жамиятида, пахта ҳосилини йиғиб олиш ўта муҳим масала эдики, урушдан (1941-1945 йй) кейинги йилларда, оммавий пахта йиғими даврида намозларни 5 вақт эмас, балки 3 маҳал ўқиса ҳам бўлиши, ибодатни колхозларнинг иш вақти ва шароитига мослаштириб, ҳатто қарияларни ҳам кучи етгунча, пахта йиғим-теримида қатнашишларини талаб қилишга ўт-ган эди [9.:56].

Совет ҳукуватининг эътиборидан, ҳар йили бир марта келадиган мусулмонларнинг муқаддас рамазон ойи ва унда фарз қилинган 30 кунлик рўза ҳам четда қолмади ва ўз тарғибот-ташвиқотларида жиддий қоралашга ўтиб, улар фикрича “рўза мусулмонларнинг бошига битган балодир, рўза одамнинг соғлигига ва фикрнинг ишлашига жуда салбий таъсир кўртиб, унинг жисмоний ва ақлий меҳнатининг маҳсулдорлигини жуда ҳам озайтиради” деб иддао қилишган эди[10.:47].

Шунингдек, даврий матбуотда “Рўза халқ соғлигига жуда катта зарар етказиши билан бирга, халқ хўжалигини ривожланишига жуда катта зарба бериши, рўза тутган одамнинг иш қобилиятини мутлоқо йўқотади” деган даъволарни қилиб, рўзага қарши кураш ҳар бир компартия аъзоси, совет зиёлисининг жанговор вазифаси” деб таъкид-ланди[11]. Совет ҳукумати тлалаби бўйича намоз ва рўза Совет Иттифоқининг пахтага бўлган эҳтиёжини қондириш сиёсатига ҳалақит бермаслиги, меҳнат интизо-мини бузилишига маҳаллий раҳбарлар томонидан йўл қўймасликларини талаб қилган эди. Масалан, мусулмонлар учун 1954 йил 4 майдан бошланган рўза ойи олдида, 20 апрелда ҳукуматнинг махсус кўрсатмаси жойларга жўнатилиб, жойларда жамоат бўлиб, намоз ташкил қилмаслик, рўза тутиш билан меҳнат интизомини бузиб, ишдан қолиш йўл бермаслик учун, динга қарши меҳнаткашлари ўртасида маърузалар уюштириши белги-ланган эди[12.:96].

Намоз ўқиш, рўза тутиш каби диний расм-русумларни инкор қилган совет ҳукумати ҳам диний қадриятлар билан бирга миллий урф-одатларга аралашиб, ҳар қандай миллий хусусиятларга эга бўлган қарашларни тугатмоқчи бўлиб, мусулмонларни совет маданияти, совет мафкураси асосида тарбиялашга уринилган. Пахта йиғими мавсумида жойларда гўдакларга хатна тўйи қилиш тақиқланди, тўйларга совет мафкурасини тикиштириш, тўй-томошаларни коммунистик тузум ғояларига бўйсундириш каби мақсадлар намоён бўлган эди. Энг оддий одатлар ҳам танқидий муҳокамаларга сабаб бўлганлиги, масалан, маҳал-лий аҳоли ва фаолларининг паловни қўлда ейишлари, битта товоққа ҳамманинг барабар қўл тикиши



сингари ҳолатлар “маданиятсизлик, санитария-гигиена қоидаларини қўлламас-лик ҳамда ярамас одат” деб баҳоланди[13.:107].

Ушбу ҳолат шуни кўрсатадики, совет ҳукумати бир неча асрлардан бери, ўзбек халқининг миллий таоми бўлмиш паловни, совет ҳукумати қандай ейишни ҳам ўргатмоқчи бўлганлиги ва бунинг оқибатлари кейинги авлодларга ҳам ўз таъсирини кўрсатмай қолмади, ҳозирги даврга келиб, кўплаб совет мустамлакачилиги таъсири остида бўлган мусулмон ва туркий халқларнинг болалари паловни қўлда ейиш одати йўқолиб, “қошиқсиз паловни ейишни билмайдиган” авлод шаклланиб бораётганлиги ҳеч кимга сир эмас албатта.

Мусулмон халқларда ўғил болаларни хатна қилиш маросими минг йилдан ошиқ тарихга эга бўлиб келиб, бу маросимни ўтказиш мусулмонларни қон-қонига сингиб кет-ган, бунинг амалга оширмаслик, ислом ва шариат қоидаларга зид деб ҳисобланган бўлсада, совет ҳукумати бу одатни ҳам жиддий танқид остига олиб, гўёки “гўдакларни хатна қилиш ваҳшийлик давридан қолган ярамас одат, советлар даврида ҳукм суриб келаётган-лиги, бунда ота-оналар тўй-томоша қилиб юборишлари қораланган[14.:106].

Совет ҳукуматининг яна бир тушуниб бўлмас таклифларидан бири шарқона қадриятлар билан тарбияланиб келинган мусулмон оилаларга туғилган болалари учун исм қўйиб бериш каби беъмани таклифлар билан чиқдики, унда диний-миллий мазмунаги исмлардан кўра замонавий, “социалистик тузум”ни тарғиб этувчи исмларни кўпроқ қўйиш мақсага мувофиқ эканлиги уқтирилди. Жумладан, болаларга исм қўйишда фуқаролар ҳолати далолатномаларини ёзиш идораларида болаларга қўйилувчи, коммунистк мада-ниятни тарғиб қилувчи исмлар рўйхати рўйхати (масалан, иш, ҳунар, предметлар, ҳайвон номлари ёки совет тузуми дохийлари билан боғлиқ исмлар, Тоштемир, Ўроқвой, Бек-темир, Болтавой, Тешавой, Дехқонвой, Қўчқорвой, Қўзивой, Бўривой ёки Владлен, Маркс, Клара каби) деворларга осиб қўйилиши, гувоҳнома олишга келган ота-оналар рўй-хатдан муносиб исмни танлаб қўйиб кетишларига амалий ёрдам кўрсатиш, Шамсиддин, Қамариддин, Тожиддин каби динни тарғиб қилувчи исмларни олдини олиш каби масала-лар илгари сурилди[15.:23].

Хулоса: Шуни айтиш мумкинки, совет ҳукумати ташкил топган пайтидаёқ ўз йўли-ни худосизликка, динсизликка, зўравонликка асослаб қуришга уриниб, ўз халқининг иж-тимоий иқтисодий таназзулига учрашига, мамлакат миқёсида жиноятчилик, гиёҳвандлик, арақхўрлик каби иллатларни ортиб кетишига сабаб бўлди. Болаларни тузум мафкуриси йўлида тарбиялашга бўлган уринишлар, бу йўлда минг йиллик тажрибага эга бўлган ди-ний, миллий ва анъанавий қадриятларни поймол этилиши, фуқаролар ўртасида тушкун-лик, эртанги кунга нисбатан “ишончсизлик” каби кайфиятларни юзага келишига сабаб бўлди.

Бу омиллар совет салтанатининг инқирозига ва мустамлака таъсири остида яшаб келган ўзбек халқини мустақилик сари интилишларига замин ҳозирлаб берди. Келажак авлод учун ўтмишни ўрганиш бугунги кун тарбияси, маънавияти учун ҳам муҳим омил-дир десак адашмаган бўламиз.

Манбалар ва адабиётлар/Источники ва литература/References

1. Мирзиёев. Ш. Миллий тикланишдан-миллий юксалиш сари. Тошкент.:Ўзбекистон. 2020.
2. Наманган вилояти давлат архиви. 275-жамғарма, 6-рўйхат, 2538-иш.
3. Абдурахмонов. А. Кремл салтанати. Тошкент.:Чўлпон. 1993.
4. Сталин ҳақиқати. //1950 йил 18 июл.
5. Тохир Қаххор. Хур Туркистон учун. Чўлпон. 1994.
6. Тохир Қаххор. Хур Туркистон учун...
7. НВДА, 275-жамғарма, 1-рўйхат, 84-иш.



8. Алимухаммедов. А. Ислом динидаги мароимчилик ва урф-одатлар. Тошкент.: Ўзбекистон. 1969.
9. Алимухаммедов. А. Ислом динидаги маросимчилик ва урф-одатлар...
10. Воҳидов. З. Даврим доврўғи. Тошкент.: Ёш гвардия. 1965.
11. Сталин ҳақиқати. //1949 йил 9 июль.
12. НВДА, 275-жамғарма, 1-рўйхат, 361-иш.
13. НВДА, 275-жамғарма, 1-рўйхат, 580-иш.
14. НВДА, 275-жамғарма, 1-рўйхат, 580-иш.
15. Ўзбекистон хотин-қизларига. // 1965. №12.

Qoraboyev Sherzodbek Raximovich

Farg'ona viloyati pedagogik mahorat markazi o'qituvchisi

MASJIDLAR FAOLIYATI VA DINIY BAG'RIKENGLIK MASALASI

Annotatsiya: Mazkur maqolada Farg'ona vodiysi misolida masjidlar faoliyatining mustaqillik yillaridagi tiklanishi, ularning diniy-ma'naviy hayotdagi o'rni va jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalari tahlil qilingan. Ayniqsa, masjidlarning diniy bag'rikenglikni shakllantirish va mustahkamlashdagi roli yoritilgan. Mavzuda diniy tashkilotlarning o'zaro murosalik munosabatlari, davlat siyosatining bu boradagi ta'siri va mahalliy darajadagi amaliy tajribalar asosida tahliliy fikrlar bildirilgan. Farg'ona vodiysida turli diniy konfessiyalarning tinch-totuv faoliyat yuritishi mintaqaning bag'rikenglik madaniyati shakllangan hudud sifatida namoyon bo'lishiga dalildir. Maqolada masjidlar orqali yosh avlodga sog'lom e'tiqod, o'zaro hurmat, millatlararo va dinlararo totuvlik ruhida tarbiya berishning dolzarb jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Masjid, diniy bag'rikenglik, Farg'ona vodiysi, diniy erkinlik, diniy tashkilotlar, jamiyat, murosalik munosabat, diniy-ma'rifiy ishlar, ekstremizmga qarshi kurash.

Qoraboyev Sherzodbek Raximovich

Teacher of the Fergana Regional Pedagogical Skills Center

ACTIVITY OF MOSQUES AND THE ISSUE OF RELIGIOUS TOLERANCE

Annotation: This article analyzes the revival of mosque activity during the years of independence, their role in religious and spiritual life, and social functions in society using the example of the Fergana Valley. In particular, the role of mosques in the formation and strengthening of religious tolerance is highlighted. The topic presents analytical views on the mutual relations of religious organizations, the influence of state policy in this regard, and practical experiences at the local level. The peaceful functioning of various religious denominations in the Fergana Valley is evidence of the region's manifestation as a territory with a formed culture of tolerance. The article reveals the current aspects of educating the younger generation through mosques in the spirit of healthy faith, mutual respect, and interethnic and interreligious harmony.

Keywords: Mosque, religious tolerance, Fergana Valley, religious freedom, religious organizations, society, tolerant attitude, religious and educational work, fight against extremism.



Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, din sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. Xususan, masjidlarning erkin faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Bu jarayon Farg'ona vodiysi misolida alohida e'tiborga loyiq, chunki mazkur hudud tarixan diniy bilim va ma'naviyat markazi bo'lib kelgan. Shu bilan birga, diniy bag'rikenglik tamoyillari jamiyatda barqarorlik va totuvlikni ta'minlashda muhim o'rin tutmoqda. Masjidlar faoliyati va diniy bag'rikenglik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik Farg'ona vodiysi misolida ilmiy asosda yoritiladi. 1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston o'z mustaqilligini e'lon qilgach, mamlakat hayotining barcha sohalarida, jumladan, diniy-ma'naviy sohada ham tub o'zgarishlar boshlandi. Diniy e'tiqod erkinligi ta'minlandi, xalq asrlar davomida amal qilib kelgan islom qadriyatlarini erkin ravishda tiklash imkoniyatiga ega bo'ldi. Mustaqillikdan oldingi davrda diniy hayot cheklangan, masjidlar soni juda oz bo'lgan. Ammo mustaqillik yillarida diniy maskanlar qayta tiklandi, yangi masjidlar bunyod etildi, bu esa xalqning ma'naviy uyg'onishiga zamin yaratdi.

Tahlil va natijalar

Farg'ona vodiysi – Markaziy Osiyodagi eng qadimiy va sarmahsul hududlardan biri bo'lib, uning ijtimoiy, madaniy va diniy hayoti tarixan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu zamin qadimdan turli dinlar, madaniyatlar va xalqlarning chorrahasi sifatida ajralib turgan. Xususan, Islom dini bu hududga 8-asrda kirib kelgan bo'lib, qisqa vaqt ichida aholining dunyoqarashi, urf-odatlar va ijtimoiy tuzumiga katta ta'sir ko'rsatdi. Farg'ona vodiysining diniy tarixi bu yerda shakllangan ilohiyot maktablari, masjidlar, madrasalar va ulamolarning faoliyati orqali boyib bordi. Mazkur maqolada Farg'ona vodiysining diniy tarixiga qisqacha nazar tashlanadi hamda bu hududning diniy merosi tahlil qilinadi.

Farg'ona vodiysida Islomdan avval buddaviylik, zardushtiylik, shamanlik va mahalliy e'tiqodlar mavjud bo'lgan. Arxeologik topilmalar, xususan, Qo'qon va Marg'ilon yaqinidagi qadimiy yodgorliklar bu dinlarning izlarini aks ettiradi. Diniy e'tiqod jamiyatning turmush tarzida muhim o'rin tutgan. Islom dini 8-asrda arab lashkarlarining Movarounnahrda yurishi natijasida Farg'ona vodiysiga kirib kelgan. Dastlabki qarshiliklarga qaramay, vaqt o'tishi bilan Islom dini aholining turmush tarziga singib ketdi. Masjidlar qurildi, Islom ilmlari o'rganila boshlandi. Farg'ona vodiysi islomiy ilmlarning markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda fiqh, tafsir, hadis, tasavvuf kabi sohalarida yirik allomalar yetishib chiqqan. Xususan, Marg'ilon, Qo'qon, Andijon va Namanganda faoliyat yuritgan ulamolar diniy-ma'rifiy hayotni rivojlantirishda katta hissa qo'shganlar. O'rta asrlarda Farg'ona vodiysida yuzlab masjid va madrasalar faoliyat yuritgan. Ular nafaqat diniy ta'lim, balki ijtimoiy-tarbiyaviy markazlar vazifasini bajargan. Ko'plab tarixiy masjidlar hanuzgacha saqlanib qolgan (masalan, Qo'qondagi Jome masjidi). 1920–1991 yillarda Sovet tuzumi davrida masjidlar yopildi, ulamolar ta'qib qilindi, diniy ta'lim taqiqlab qo'yildi. Farg'ona vodiysida ham diniy hayot keskin cheklovlar uchradi, ammo e'tiqodlar sirtidan yashirin tarzda saqlanib qoldi. 1991-yildan so'ng Farg'ona vodiysida diniy hayot qayta jonlandi. Yangi masjidlar qurildi, mavjudlari ta'mirlandi, diniy ta'lim muassasalari ochildi. Aholining din bilan bog'liq ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlari kengaydi.

Farg'ona vodiysi diniy tarixining boyligi va rang-barangligi ushbu hududda dinning jamiyat hayotidagi o'rnini chuqurroq anglash imkonini beradi. Islom dini kirib kelgach, vodiyning madaniy va axloqiy hayotida katta burilishlar sodir bo'ldi. Tarixiy jarayonlar davomida diniy qadriyatlar har xil bosqichlardan o'tgan bo'lsa-da, ularning jamiyat ongidagi izi yo'qolmadi. Bugungi kunda Farg'ona vodiysi diniy-ma'naviy tiklanish yo'lida faol harakat qilmoqda va bu tarixiy merosni asrash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jamiyat hayotining barcha sohalarida chuqur islohotlar boshlandi. Diniy erkinlik, vijdon erkinligi tamoyillarini ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Ayniqsa, diniy-ma'rifiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar, xususan, masjidlar faoliyatining tiklanishi va rivojlanishi mustaqillik davrining eng muhim yutuqlaridan biridir. Ma'furaviy tazyiqlar natijasida yopilgan va yaroqsiz holga kelgan ko'plab masjidlar qayta ta'mirlandi, yangi masjidlar barpo etildi, diniy ta'lim va tarbiya yo'lga qo'yildi. Mazkur mavzuda mustaqillik yillarida masjidlar faoliyatining tiklanishi, ularning jamiyatdagi roli va davlat tomonidan ko'rsatilgan e'tibor masalalari yoritiladi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda, xususan Farg'ona vodiysida masjidlar faoliyati tubdan tiklandi va yangi bosqichga ko'tarildi. Diniy erkinlik, qonuniy asoslar va davlat tomonidan ko'rsatilgan ko'maklar tufayli masjidlar nafaqat ibodat, balki ma'rifat va tarbiya maskanlariga aylanishdi. Ularning jamiyatdagi roli oshib bormoqda. Masjidlar faoliyatining yanada takomillashuvi yosh avlodni sog'lom e'tiqod asosida tarbiyalash, diniy bag'rikenglik va totuvlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv davrida turli din va konfessiyalarga mansub xalqlar tinch-totuv yashashi, o'zaro hurmat va bag'rikenglik ruhida yashashlari tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, din va e'tiqod sohasida bag'rikenglikni ta'minlash har bir jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. O'zbekistonda mustaqillik yillarida diniy bag'rikenglik siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllandi. Bu jarayonda qonunchilik, ta'lim, ommaviy axborot vositalari, masjid va diniy tashkilotlarning o'rni muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada diniy bag'rikenglik tushunchasi, uning tarixiy va zamonaviy talqini hamda uni jamiyatda targ'ib etish yo'llari yoritiladi.

Diniy bag'rikenglik – bu boshqa dinlarga, e'tiqodlarga hurmat bilan qarash, ularni to'liq qabul qilish emas, balki ularga to'squinlik qilmaslik va ular bilan tinch-totuv yashash prinsipidir. Bu tushuncha inson huquqlari, vijdon erkinligi va ijtimoiy barqarorlikning asosi sifatida qoraladi. Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududida qadimdan turli dinlar va madaniyatlar yonma-yon yashab kelgan. Zardushtiylik, buddaviylik, nasroniylik, islom dini bu hududda muayyan davrlarda mavjud bo'lgan va ularning o'rtasida murosali munosabatlar shakllangan. Islom dini ham bag'rikenglikni targ'ib etgan. **O'zbekistonda diniy bag'rikenglik siyosatining asoslari** 1992-yilda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi tegishli moddalar (26-27-moddalar) diniy bag'rikenglikning huquqiy asoslarini yaratdi. Barcha fuqarolarga e'tiqod erkinligi ta'minlangan. Masjidlar, cherkovlar, boshqa diniy tashkilotlar o'z faoliyatlarida o'zaro hurmat, tinchlik va totuvlikni saqlash, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashish yo'lida faoliyat yuritmoqda. Imomlar va diniy arboblarning orqali bag'rikenglik targ'ib qilinmoqda. Diniy-ma'rifiy televidion ko'rsatuvlar, matbuot nashrlari, ilmiy va badiiy adabiyotlarda bag'rikenglik g'oyalari keng yoritilmoqda. Shu bilan birga, maktab va oliy ta'lim muassasalarida ham bu tushuncha yoshlarga singdirilmoqda. Diniy ekstremizm, radikalizm, missionerlik va boshqa zararli oqimlar fonida jamiyatda bag'rikenglik g'oyasini mustahkamlash – bu nafaqat diniy, balki siyosiy va ijtimoiy barqarorlik uchun ham zaruriydir. Shu bois bu yo'nalishdagi targ'ibot doimiy davom ettirilishi kerak.

Diniy bag'rikenglik – har bir demokratik va barqaror jamiyatning ajralmas qismidir. O'zbekistonda bu sohada amalga oshirilayotgan siyosat, qonunchilik asoslari va amaliy ishlar diniy totuvlik va millatlararo barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bag'rikenglikni shakllantirishda masjidlar, ta'lim muassasalari, diniy ulamolar, OAV va har bir fuqaroning roli beqiyosdir. Bu qadriyatni mustahkamlash orqali biz tinchlik, baraka va taraqqiyot sari dadil odimlaymiz.



Farg'ona vodiysi — O'zbekistonning eng zich aholi yashaydigan va madaniyati boy mintaqalaridan biri bo'lib, bu yerda qadimdan turli millat va e'tiqod vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Bu hududda diniy bag'rikenglikning tarixiy ildizlari chuqur bo'lib, hozirgi zamonda ham mazkur an'ana davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining diniy bag'rikenglik siyosati Farg'ona vodiysida ham amalda o'z ifodasini topmoqda. Mintaqada islom dini bilan bir qatorda boshqa konfessiya vakillarining ham e'tiqod erkinligi ta'minlangan, diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda, dinlararo totuvlikka oid turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Ushbu maqolada Farg'ona vodiysida diniy bag'rikenglikning amaliy tajribalari, ularning mazmun-mohiyati va samaradorligi tahlil qilinadi.

Farg'ona vodiysi (Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari) aholisi asosan islom diniga e'tiqod qiladi. Shuningdek, bu yerda nasroniy (pravoslav, katolik), protestant, yahudiy va boshqa e'tiqod vakillari ham istiqomat qiladi. Ularning diniy erkinligi qonun bilan kafolatlangan. Mintaqada minglab masjidlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, Farg'ona, Andijon va Namangan shaharlarida pravoslav cherkovlari, protestant jamoalari va boshqa diniy tashkilotlar ham qonuniy asosda faoliyat yuritmoqda. Ular o'z ibodatlarini erkin amalga oshiradilar, diniy bayramlarni nishonlaydilar. Hududda turli diniy tashkilotlar o'rtasida ixtiloflar emas, balki o'zaro hurmat, bag'rikenglik muhitida faoliyat yuritish kuzatiladi. Masalan, diniy bayramlar vaqtida mahalliy hokimiyatlar tomonidan umumxalq tadbirlari tashkil etiladi, turli e'tiqod vakillariga e'tibor qaratiladi. Maktablar, litseylar va kollejlarda hamda oliy ta'lim muassasalarida "ma'naviyat darslari" orqali o'quvchilarga diniy bag'rikenglik, vijdon erkinligi, boshqa dinlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish g'oyalari singdirilmoqda. Farg'ona vodiysi ekstremizm xavfi yuqori bo'lgan hududlar qatoriga kiradi. Shu bois diniy bag'rikenglikni targ'ib etish, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitet hosil qilish maqsadida diniy-ma'rifiy suhbatlar, seminarlar, targ'ibot ishlari faol olib borilmoqda. Prezident Farmonlari, O'zbekiston musulmonlari idorasi, Din ishlari bo'yicha qo'mita ko'magida Farg'ona vodiysida diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish, diniy tinchlikni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xulosalar

Farg'ona vodiysida diniy bag'rikenglikka oid amaliy tajriba — O'zbekistonning umumiy diniy siyosatining yorqin namunalaridan biridir. Bu hududda turli konfessiyalar tinch-totuv yashamoqda, diniy erkinlik ta'minlanmoqda, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlik asosida diniy barqarorlik mustahkamlanmoqda. Mazkur tajribani tahlil qilish diniy totuvlikni saqlash, radikalizmga qarshi kurashish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg'ona vodiysi masjidlarining faoliyati nafaqat diniy ehtiyojlarni qondirish, balki diniy bag'rikenglik, totuvlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin egallaydi. Ular jamiyatda ijobiy mafkuraviy muhitni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda faol ishtirok etmoqda. Ushbu tajriba boshqa hududlar uchun ham namuna bo'la oladi. Shu sababli, masjidlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy rolini kuchaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 1992-yil 8-dekabr (2023-yilgi tahrirda)
2. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston — inson qadrini ulug'lash va erkin yashash jamiyati. — Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2021.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik — har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.



5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Bobojonov R. Diniy bag'rikenglik tamoyillari va fuqarolik jamiyati. – T.: O'zbekiston, 2016.
7. Mannonov A. Farg'ona vodiysida islom tarixi. – Farg'ona, 2005.
8. Saidov A. Inson huquqlari va diniy bag'rikenglik. – T.: Adolat, 2017.
9. Yusupov A. Masjidlar va mahalla: hamkorlik tajribalari. – T.: Ma'rifat, 2020.
10. Diniy erkinlik va bag'rikenglik: xalqaro tajriba va O'zbekiston yo'li. – T.: TDYMI nashriyoti, 2022.

Choriyev Jo'raqul Gafforovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

MILLATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Annotatsiya Maqolada millatlararo kommunikativ kompetensiya fenomeni talaba shaxsini shakllantirish nuqtai nazaridan qayta oydinlashtiriladi. Muallif bu kompetensiyani faqat til bilish darajasi emas, balki idrok, qadriyat, emosional hozirjavoblik va javobgarlikni qamrab oluvchi kompleks holat sifatida talqin qiladi. Oliy ta'lim muhitida talabaning boshqa madaniyat vakillari bilan konstruktiv muloqotga kirishishi, kelishmovchilikni muzokara orqali hal etishi va polimadaniy jamoada hamkorlik qilishini ta'minlovchi omillar tahlil etiladi. Millatlararo kompetensiyaning tarbiya, ta'lim va shaxsiy o'zini anglash jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi nazariy yo'sinda asoslanadi. Maqolada talaba shaxsining ochiq dunyoqarashga ega, madaniy hassos va ijtimoiy faol subyekt sifatida yetishishi uchun o'quv jarayonida qanday pedagogik shart sharoitlar talab etilishi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: millatlararo kommunikativ kompetensiya; talaba shaxsi; shaxsiy rivojlanish; madaniy hassoslik; ijtimoiy javobgarlik; polimadaniy jamoa; oliy ta'lim muhiti.

Annotation The article revisits the notion of intercultural communicative competence from the perspective of student personality formation. The author conceptualises this competence as a multidimensional construct that includes not only language proficiency but also cognition value orientations emotional responsiveness and social responsibility. Factors enabling students to engage in constructive interaction with representatives of other cultures to resolve disagreements through negotiation and to cooperate in multicultural groups are examined. The close relationship between intercultural competence and processes of education upbringing and self awareness is theoretically substantiated. The paper also outlines pedagogical conditions that support the development of an open culturally sensitive and socially active student personality within higher education.

Keywords: intercultural communicative; competence; student personality; personal development; cultural sensitivity; social responsibility; multicultural group; higher education context.

Kirish. Global jarayonlarning jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kirib borishi va xalqaro ta'lim hamkorligining kengayishi natijasida oliy ta'lim muassasalari oldida



talaba shaxsini yangicha modelda shakllantirish vazifasi dolzarb bo'lib bormoqda. Bugungi kunda talaba faqat o'z mutaxassisligi doirasida bilim oluvchi destinatordan iborat emas, balki turli madaniy muhitlar kesishgan ijtimoiy makonda muloqot olib boradigan, qarama-qarshi qadriyatlar va pozitsiyalar o'rtasida vositachilik qila oladigan subyekt sifatida talqin etilmoqda. Muallif madaniyatlararo kompetensiyani oliy ta'lim jarayonining markaziga qo'yib, bu jarayonni "o'quv jarayonida madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani kengaytirishning dolzarb muammosi ko'rib chiqiladi" deya ta'riflaydi, ya'ni talaba shaxsini shakllantirishda tasodifiy emas, balki hal qiluvchi omil sifatida tushuniladi [1. – B.17]. Shuning uchun ham millatlararo kommunikativ kompetensiya tushunchasi talaba shaxsini shakllantirish nazariyasi va amaliyotida markaziy kategoriya darajasiga ko'tarilmoqda.

Millatlararo kommunikativ kompetensiya ko'pincha chet tilini bilish yoki "xalqaro muloqot madaniyati" bilan cheklanib tushuniladi. Aslida esa u til, madaniyat va shaxsiyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni mujassam etuvchi ko'p o'lchamli tuzilma bo'lib, unda bir qator o'zaro bog'liq komponentlar uyg'unlashadi. Kognitiv komponent boshqa madaniyatlar, ijtimoiy stereotiplar va madaniyatlararo farqlar haqidagi tizimli bilimlarni, aksiologik komponent esa bag'rikenglik, hurmat, hamkorlik, mas'uliyat kabi qadriyatlarga nisbatan ichki tayyorgarlikni ifodalaydi. M.Quronovning ta'kidlanishicha, "milliy va internatsional ong rivojlanishidagi uyg'unlik har doim ham boshqa odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lib muloqot qila olish ko'nikmalariga mos kelavermaydi" [9.– B.10], ya'ni talabaning millatlararo kommunikativ kompetensiyasi faqat g'oyaviy qarashlar emas, balki real muloqot madaniyatini egallashini ham talab qiladi. Affektiv komponent empatiya, boshqacha fikrni qabul qilishga ochiqlik, hissiy barqarorlikni o'z ichiga oladi, xulqiy-amaliy komponent esa real muloqot vaziyatlarida o'z nutqini moslashtirish, nizolarni konstruktiv muzokara orqali bartaraf etish, polimadaniy jamoada samimiy hamkorlikni tashkil etish ko'nikmalarida namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur kompetensiya talabaning nafaqat "bilimi", balki uning dunyoni idrok etish usuli, o'zini va boshqalarni baholash mezonlari hamda kundalik xatti-harakatlarida ko'rinadigan ichki madaniy pozitsiyasidir. Shuningdek, interkultural kompetensiya faqat til bilish emas, balki "bo'lajak mutaxassislar shaxsining kognitiv, ijtimoiy, hissiy va madaniy xususiyatlarini rivojlantirish" bilan uzviy bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu yerda talabaning ilmiy tafakkuri, ijtimoiy faolligi va madaniy sezgirligi yagona tizim sifatida ko'riladi [1. – B.17].

Ko'p millatli va ko'p tilli O'zbekiston sharoitida talabaning millatlararo kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik totuvligining muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu fikrga qo'shimcha ravishda Azimova chet tili darsining vazifasini faqat grammatikani o'rgatish bilan chegaralamay, uni "ingliz tilini o'qitishda talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish muhim masalalardan biri sifatida ilgari suriladi" degan yondashuv asosida talaba shaxsining madaniyatlararo ochiqligini tarbiyalovchi maydon sifatida ko'rsatadi [2. – B.3]. Polimadaniy ijtimoiy muhitda tasodifiy, refleksiyadan xoli muloqot shakllari ziddiyatlar chuqurlashishi, "begonalik" hissining kuchayishi va ijtimoiy masofaning ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Aksincha, shakllangan millatlararo kommunikativ kompetensiyaga ega talaba o'zaro hurmat, ishonch va hamkorlikka tayangan muloqotni yo'lga qo'ra oladi, madaniy farqlarni ziddiyat manbai emas, balki o'zaro boyitish va ijodiy hamkorlik resursi sifatida qabul qiladi. Karimova muloqotning shaxs rivojlanishidagi murakkab tabiatini ochib, uni "muloqot va muloqot jarayoni uzoq muddat davom etadigan, ko'p qirrali jarayon hisoblanishi" bilan izohlaydi; bu talaba shaxsida millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish uzluksiz, bosqichma-bosqich kechadigan tarbiyaviy jarayon ekanini ko'rsatadi [4. – B.11]. Shu ma'noda mazkur kompetensiya kasbiy muvaffaqiyatdan tashqari, jamiyatda ijtimoiy integratsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi, umuminsoniy qadriyatlarni real amaliyotga tatbiq etuvchi zarur shart sifatida baholanishi lozim.



Biroq amaldagi ta'lim me'yoriy hujjatlarida "millatlararo muloqot", "interkultural kompetensiya", "kommunikativ kompetensiya" tushunchalari tez-tez uchrashiga qaramay, ularning mazmuni, tarkibiy qismlari va talaba shaxsini shakllantirishdagi o'rni hamisha yetarli darajada aniqlashtirilgan emas. Shuningdek, muallif boshqa bir maqolasida interkultural tarbiyani zamonaviy globallashuv va davlat siyosati bilan bog'lab, maqola doirasida "talabalarni millatlararo muloqotga tayyorlashning pedagogik xususiyatlari, globallashuv jarayonlari va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida o'ziga xos xususiyatlari" yoritilishini ko'rsatadi. Bu bilan talaba shaxsi milliy va global kontekst kesishmasida shakllanishi zarurligi asoslanadi. [5. – B.1]. Ko'plab hollarda bu tushunchalar turlicha talqin qilinadi, natijada talabalarda millatlararo kommunikativ kompetensiyani maqsadli shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik texnologiyalar, baholash mezonlari va refleksiv mexanizmlar tizimi to'liq ishlab chiqilmaganligicha qolmoqda. Muallif tarbiyaviy maqsadning mazmunini aniqlab, millatlararo muloqot madaniyatining markaziy vazifalaridan biri sifatida "talabalarda bag'rikenglik, tolerantlikni rivojlantirish, ularni o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash"ni ko'rsatadi; bu talaba shaxsini turli millat, din va madaniyat vakillariga nisbatan hurmat va hamjihatlik ruhida kamol toptirishni nazarda tutadi [5. – B.1].

Shu sharoitda mazkur tadqiqotning dolzarbligi millatlararo kommunikativ kompetensiya fenomenini aynan talaba shaxsi nuqtai nazaridan konseptual jihatdan qayta ko'rib chiqish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda ushbu kompetensiyaning mazmun va tuzilmasi aniqlanadi, uning talabaning axloqiy-aksiologik yo'nalishi, ijtimoiy faolligi va kasbiy o'zini anglashiga ta'siri tahlil qilinadi hamda oliy ta'lim muhitida millatlararo kommunikativ kompetensiyani samarali rivojlantirishga ko'maklashuvchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar nazariy asoslanadi. Shu tariqa ish polimadaniy jamiyatda ochiq dunyoqarashga ega, madaniy jihatdan hassos va ijtimoiy mas'ul talaba shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Millatlararo kommunikativ kompetensiya fenomenini talaba shaxsini shakllantirish nuqtai nazaridan o'rganish, avvalo, mavjud nazariy manbalar, davlat ta'lim standartlari va oliy ta'limdagi amaliy tajribani qiyosiy tahlil qilishni talab etdi. Manbalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ko'plab tadqiqotlarda mazkur kompetensiya ko'proq chet tilini egallash darajasi yoki "xalqaro muloqot madaniyati" bilan tenglashtiriladi, talabaning ichki qadriyat yo'nalishi, refleksiv qobiliyati va madaniyatlararo empatiyasi esa ikkinchi planga surib qo'yiladi. Bu esa millatlararo kommunikativ kompetensiyaning haqiqiy ko'p komponentli tabiatini to'liq ochib berishga to'sqinlik qiladi.

Pedagogik adabiyotlar va amaliy tajriba materiallari tahlili natijasida talaba shaxsida millatlararo kommunikativ kompetensiyaning namoyon bo'lishi shartli ravishda uch darajaga ajratildi. Birinchi, "informatsion" darajada talaba boshqa madaniyatlar haqida alohida, parchalangan bilimlarga ega bo'lib, ularni kundalik muloqot tajribasi bilan bog'lay olmaydi; stereotip va xurofotlarni tanqidiy qayta ishlash mexanizmi nochor qoladi. Ikkinchi, "moslashuvchan-amaliy" darajada talaba turli madaniyat vakillari bilan muloqotda bo'lishga intiladi, nutq va xatti-harakatini yuzaki moslashtira oladi, biroq farqlarni chuqur anglashdan ko'ra, "moslashib ketish"ni maqsad sifatida ko'radi. Uchinchi, "refleksiv-integrativ" darajada esa talaba o'z madaniy identifikatsiyasini saqlagan holda, boshqa madaniyatni ham subyekt sifatida qabul qiladi, ziddiyatli vaziyatlarni muzokara orqali hal etishga moyil bo'ladi va polimadaniy hamkorlikni qadriyat darajasida e'tirof etadi.

Oliy ta'lim muhitining turli jihatlari tahlili shuni ko'rsatdiki, talaba shaxsida millatlararo kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga ikki toifali omillar ta'sir ko'rsatadi: normativ-ma'naviy omillar va didaktik-pedagogik omillar. Normativ-ma'naviy omillar qatoriga ta'lim konsepsiyalarida e'lon qilingan insonparvarlik, bag'rikenglik, fuqarolik birdamligi kabi tamoyillar kiradi, ammo ular ko'pincha deklarativ darajada qolib, auditoriyadagi real muloqot madaniyatida



to'liq mujassam bo'lmaydi. Didaktik-pedagogik omillar esa dars mazmunining tanlanishi, o'qitish metodlari, baholash mezonlari, guruh ichidagi kommunikativ muhit va o'qituvchining shaxsiy pozitsiyasi bilan bevosita bog'liq. Aynan shu omillar talabaning "men – boshqa madaniyat vakillariga nisbatan" ichki pozitsiyasini shakllantiruvchi asosiy maydon bo'lib chiqadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, an'anaviy ma'ruza markazli, monologik ta'lim modeli talabalarda millatlararo kommunikativ kompetensiyaning yuqori bosqichiga chiqish uchun yetarli sharoit yaratmaydi. Bunday modelda talaba ko'proq passiv qabul qiluvchi, tayyor bilimlar "iste'molchisi" sifatida shakllanadi, muloqot esa "o'qituvchi – auditoriya" chizig'i doirasidan chiqmaydi. Dialogik o'qitish, interfaol metodlar, madaniyatlararo vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan case-study, loyiha ishlari, rol o'yinlari va talabalarning turli madaniy tajribalarini muhokama qilishga yo'naltirilgan seminar shakllari qo'llanilganda, millatlararo kommunikativ kompetensiyaning komponentlari faolroq namoyon bo'lishi kuzatiladi. Muallif shuningdek qayd etadiki, "turli-tuman samarali kompleks tarbiyaviy shakllar boshqa millat vakillariga nisbatan chuqur hamdardlik va hamkorlik tuyg'ularini uyg'otishi mumkin" [9. – B.10], bu esa talaba shaxsida empatiya, hamkorlikka tayyorlik va konstruktiv millatlararo muloqot madaniyatining shakllanishiga asos bo'ladi. Talabalar o'z qarashlarini asoslash, boshqacha pozitsiyani tinglash, undan ta'sirlanmasdan turib, mulohaza yuritish va kontekstni hisobga olib qaror qabul qilishni o'rganadilar.

Olingan natijalar talaba shaxsining millatlararo kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish jarayonida uchta asosiy pedagogik yo'nalishning alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Birinchidan, bu – kognitiv darajada madaniyatlararo bilimlarni tizimlashtirish, stereotip va xurofotlarni ilmiy asosda tahlil qilishga o'rgatishdir. Ikkinchidan, aksiologik-hissiy darajada talabaning empatiya, bag'rikenglik, hamkorlikka ochiqlik kabi sifatlarini mustahkamlovchi psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish zarur; bunda xavfsiz muloqot maydoni, hurmat tamoyiliga asoslangan muhokama madaniyati va bahsni "g'oliblik" emas, "o'zaro tushunish"ga yo'naltirish muhim rol o'ynaydi. Uchinchidan, xulqiy-amaliy darajada turli madaniyat vakillari bilan real yoki modellashtirilgan muloqot vaziyatlarini tashkil etish, talabani mas'ul subyekt sifatida ushbu vaziyatlarga jalb etish lozim.

Shu tariqa, tahlil shuni ko'rsatdiki, millatlararo kommunikativ kompetensiya talaba shaxsining cheklangan "qo'shimcha ko'nikmasi" emas, balki uning dunyoni ko'rish manzarasi, ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasi, axloqiy tanlovlari va muloqot uslubini belgilovchi integrativ sifatidir. Muallif maqolaning diqqat markazini axloqiy-ma'naviy yo'nalishga qaratib, unda "millatlararo bag'rikenglik tarbiyasiga oid muammolar va tavsiyalar o'rin olgan"ligini ta'kidlaydi, ya'ni talaba shaxsini shakllantirishda tolerantlik, bag'rikenglik va tinch-totuv hamkorlik qadriyat sifatida markazga qo'yiladi [4. – B.11]. Oliy ta'lim muhitida mazkur kompetensiyani maqsadli va tizimli ravishda shakllantirish, talabaning o'zini polimadaniy jamiyatning mas'ul a'zosi sifatida anglashiga, ijtimoiy ziddiyatlarga refleksiv va konstruktiv munosabat bildirishiga hamda professional faoliyatida madaniyatlararo hamkorlikni tabiiy ehtiyoj sifatida qabul qilishiga xizmat qiladi. Natijada talaba shaxsi nafaqat kasbiy jihatdan raqobatbardosh, balki madaniy jihatdan hassos, ijtimoiy mas'ul va dialogga tayyor subyekt sifatida shakllanadi.

Xulosalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, millatlararo kommunikativ kompetensiya talaba shaxsining oddiy "qo'shimcha ko'nikmasi" emas, balki uning dunyoni idrok etish usuli, o'zini va boshqa madaniyat vakillarini baholash mezonlari, muloqot olib borish va qaror qabul qilish uslubini belgilaydigan murakkab, integrativ sifatidir. Shu bois bu kompetensiyani shakllantirish vazifasi ta'lim jarayonining chekka yo'nalishi yoki epizodik tarbiyaviy tadbirlar bilan chegaralanmasligi, balki oliy ta'lim strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi zarur.



Millatlararo kommunikativ kompetensiya o'z ichiga bir-biriga chambarchas bog'langan kognitiv, aksiologik, affektiv va xulqiy-amaliy komponentlarni oladi. Madaniyatlararo bilimlarni tizimli shaklda egallash, stereotip va xurofotlarni tanqidiy tahlil qilish, bag'rikenglik, hurmat va hamkorlik kabi qadriyatlarga ichki tayyorgarlik, empatiya va boshqacha fikrga ochiqlik, real muloqot vaziyatlarida nutq va xatti-harakatni moslashtira bilish kabi jihatlar yaxlit holda namoyon bo'lganidagina mazkur kompetensiya yetuk darajaga ko'tariladi. Komponentlardan birortasini e'tiborsiz qoldirish yoki faqat til bilimiga urg'u berish kompetensiyaning umumiy samaradorligini sezilarli darajada pasaytirishi aniqlangan.

Talabalarda millatlararo kommunikativ kompetensiyaning shakllanish jarayoni izchil rivojlanadigan bosqichlardan iborat ekani kuzatildi. Informatsion bosqichda talaba parchalangan bilimlarga ega bo'lib, ularni shaxsiy tajribasi bilan bog'lashga qiynaladi; moslashuvchan-amaliy bosqichda esa u turli madaniyat vakillari bilan muloqotga kirishadi, lekin farqlarni chuqur anglashdan ko'ra "moslashib ketish"ni maqsad darajasida qabul qiladi. Faqat reflektiv-integrativ bosqichda talaba o'z madaniy identitetini saqlagan holda, boshqa madaniyatni ham to'liq huquqli subyekt sifatida qabul qiladi, madaniy farqlarni ziddiyat manbai emas, balki ijodiy o'zaro boyitish resursi sifatida ko'ra boshlaydi. Oliy ta'lim siyosati aynan shu yuqori bosqichga olib chiquvchi sharoitlarni yaratishga yo'naltirilishi lozim.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, an'anaviy monologik, ma'ruza markazli o'qitish modeli millatlararo kommunikativ kompetensiyani chuqur shakllantirish uchun yetarli imkoniyat bermaydi. Bunday model talabaning faol subyekt sifatida shakllanishini cheklaydi, muloqotni "o'qituvchi – auditoriya" chizig'iga qisib qo'yadi. Dialogik o'qitish, interfaol metodlardan foydalanish, madaniyatlararo vaziyatlarni tahlil etishga asoslangan case-study, loyihaviy ishlar, rol o'yinlari va talabalarning shaxsiy madaniy tajribalarini muhokama markaziga chiqarish esa mazkur kompetensiyaning rivojlanishiga sezilarli turtki berishi aniqlangan.

Shuningdek, oliy ta'lim muhitida normativ-ma'naviy va didaktik-pedagogik omillar uyg'unlashgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkinligi ma'lum bo'ldi. Huquqiy-me'yoriy hujjatlarda e'lon qilingan insonparvarlik, bag'rikenglik, fuqarolik totuvligi kabi tamoyillar auditoriyada real muloqot madaniyati, bahs yuritish uslubi, baholash mezonlari va o'qituvchining shaxsiy namunasida amaliy ifodasini topishi zarur; aks holda ular deklarativ shior darajasida qolib ketadi.

Umuman olganda, millatlararo kommunikativ kompetensiyani maqsadli rivojlantirish talabaning nafaqat mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishini, balki polimadaniy jamiyatda mas'ul fuqarolik pozitsiyasini egallashini, ziddiyatli vaziyatlarga reflektiv va konstruktiv munosabat bildirishini ham ta'minlaydi. Mazkur kompetensiya talaba shaxsini ochiq dunyoqarashga ega, madaniy jihatdan hassos, ijtimoiy mas'ul va dialogga tayyor subyekt sifatida shakllantirishning poydevori sifatida namoyon bo'lib, oliy ta'lim tizimining barqaror va insonparvar rivojlanishi uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alimjanova M. Pedagogical Methods and Ways of Development of Students of Intercultural Communicative Competence in the System of Higher Education [Elektron resurs] // journal.fdu.uz. – 2023. – URL: <https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/1703> (ФДУ Журнали)
2. Azimova M. H. Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish (ingliz tili misolida) // Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2021. – № 4 (128/2). – B. 3–7. – DOI: 10.59251/2181-1296.v4.1282.632. (ResearchGate)



3. Ismailova Sh. F. Development of Students' Intercultural Competence in the Process of Learning a Foreign Language // Oriental Journal of Philology. – 2022. (КиберЛенинка)
4. Karimova N. M. Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3, № 4. – B. 11–15. – DOI: 10.5281/zenodo.15347515. (grafiati.com)
5. Choriev J. G. Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari [Elektron resurs] // Scienceweb.uz. – 2022. – URL: https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/2747/6630/63e77128672e4____%D0%9C%D0%B0%D2%9B%D0%BE%D0%BB%D0%B0_%D0%A7_%D0%96_%D2%92_%D0%8E%D0%B7%D0%B1_%D0%9E%D0%90%D0%9A_%D0%B6%D1%83%D1%80%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B3%D0%B0_3_2_2.pdf (ScienceWeb)
6. Soatmurodova D. Developing Intercultural Communication Competencies – Lifelong Learning and Cultural Exploration: A Framework for Language Education in Uzbekistan [Elektron resurs] // Inlibrary.uz. – 2024. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/issues-language-training/article/view/33196> (inlibrary.uz)
7. Shonazarov M. E. Developing Intercultural Competence in Teaching Foreign Languages // Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry. – 2021. – Vol. 12, № 8. – P. 2363–2370. (ScienceWeb)
8. Gutiérrez-Santiuste E., Ritacco-Real M. Intercultural Communicative Competence in Higher Education through Telecollaboration: Typology and Development // Education and Information Technologies. – 2023. – Vol. 28, № 11. – P. 13885–13912. – DOI: 10.1007/s10639-023-11751-3. (link.springer.com)
9. Куранов М. Воспитание культуры межнационального общения подростков в художественных кружках внешкольных учреждений: автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01. – Москва, 1991. – 20 с.

Мухиддинова Шахноза Анваровна,

Научный сотрудник Наманганского государственного университета

muhitdinovashahnoza1@gmail.com

РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030»

Аннотация: Статья посвящена анализу промежуточных итогов реализации Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030», принятой в рамках государственной политики цифровизации экономики и общественного управления. Реализация «Цифровой Узбекистан-2030» сосредоточена на цифровизации госуправления, экономики и социальной сферы, что предполагает перевод услуг в онлайн-формат, внедрение облачных технологий и развитие цифровых навыков у населения. Результаты включают рост доли пользователей мобильного интернета LTE и внедрение новых систем обучения востребованным профессиям. Перспективы связаны с дальнейшей цифровой трансформацией, достижением целевых показателей по ВВП и инфляции, а также улучшением качества госуслуг и укреплением кибербезопасности.



Ключевые слова: модернизация, цифровизация, цифровая трансформация, электронное правительство, цифровые навыки, человеческий капитал, цифровизация государственного управления, цифровая инфраструктура

Muxiddinova Shaxnoza Anvarovna

Namangan davlat universiteti ilmiy xodimi
muhitdinovashahnoza1@gmail.com

RAQAMLI O‘ZBEKISTON 2030 STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH NATIJALARI VA ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Maqola iqtisodiyot va davlat boshqaruvini raqamlashtirish davlat siyosati doirasida qabul qilingan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishning oraliq natijalari tahliliga bag‘ishlangan. “Raqamli O‘zbekiston 2030” dasturini amalga oshirishda asosiy e’tibor davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani raqamlashtirishga qaratilgan bo‘lib, xizmatlarni onlayn formatga o‘tkazish, bulutli texnologiyalarni joriy etish, aholi o‘rtasida raqamli ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Natijalar LTE mobil internet foydalanuvchilari ulushining ortishi va talab yuqori bo‘lgan kasblar uchun yangi o‘quv tizimlarining joriy etilishini o‘z ichiga oladi. Istiqbollar keyingi raqamli transformatsiya, yalpi ichki mahsulot va inflyatsiya ko‘rsatkichlariga erishish, davlat xizmatlari sifatini oshirish va kiberxavfsizlikni mustahkamlashdan iborat.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, elektron hukumat, raqamli ko‘nikmalar, inson kapitali, davlat boshqaruvini raqamlashtirish, raqamli infratuzilma

Mukhiddinova Shakhnoza Anvarovna

Researcher at Namangan State University
muhitdinovashahnoza1@gmail.com

RESULTS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF THE DIGITAL UZBEKISTAN 2030 STRATEGY

Annotation: The article is devoted to the analysis of the interim results of the implementation of the Strategy "Digital Uzbekistan-2030", adopted within the framework of the state policy of digitalization of the economy and public administration. The implementation of "Digital Uzbekistan 2030" focuses on the digitalization of public administration, the economy, and the social sphere, which includes the transition of services to an online format, the introduction of cloud technologies, and the development of digital skills among the population. Results include an increase in the share of LTE mobile internet users and the introduction of new training systems for in-demand professions. Prospects lie in further digital transformation, achieving GDP and inflation targets, improving the quality of public services, and strengthening cybersecurity

Key words: modernization, digitalization, digital transformation, e-government, digital skills, human capital, digitalization of public administration, digital infrastructure

Сегодня цифровые технологии стремительно проникают во все сферы человеческой жизни. В свою очередь своевременно вставшие на путь такого развития государства достигают успехов. А те страны, которые работают по-старому, отстают от прогресса. В этом контексте в рамках проводимых реформ, а также Стратегии развития Нового Узбекистана на



ближайшие пять лет особое внимание уделяется цифровизации основных сфер деятельности и построению в стране подлинного информационного общества.

Стратегия «Цифровой Узбекистан-2030» нацелена на масштабную цифровую трансформацию страны, результаты которой включают увеличение проникновения мобильного интернета, и перспективы связаны с дальнейшим развитием цифровой экономики, государственного управления и сферы услуг. Несмотря на то, что конкретные результаты этой стратегии не всегда выделены отдельно от других реформ, ее реализация способствует экономическому росту и повышению качества жизни, например, через автоматизацию бизнес-процессов и улучшение предоставления государственных услуг.

Цифровая трансформация, основанная на эффективном управлении данными, может положительно влиять на экономический рост, создание новых рабочих мест и социальную инклюзивность. Сегодня многие страны, которые вложили средства в национальную широкополосную инфраструктуру, и чьи люди и бизнес связаны с помощью цифровых платформ, добиваются большего, чем другие; учащиеся могут извлечь пользу из онлайн-обучения, компании перешли на работу в режиме онлайн, государственные услуги доступны через правительственные онлайн-порталы.

На данный момент время стремительно меняется. Сама жизнь требует от всех нас решительных действий, инициативности, честного и справедливого отношения к своему делу в любой сфере. Как отметил президент Шавкат Мирзиёев: «Сегодня без широкого развития информационно-коммуникационных технологий, Интернета не может идти речь о модернизации и обновлении страны, достижении устойчивого развития» [1; С.71]. Действительно, вопросы создания высоких технологий и научных разработок для важнейших сфер нашей жизни, подготовки высококвалифицированных специалистов, обретения достойного места на мировом рынке информационных технологий рассматривается в качестве задачи, имеющей приоритетное значение.

Цифровизация положительно влияет на здравоохранение и образование, сельское хозяйство, финансы, торговлю и туризм. Стратегия «Цифровой Узбекистан-2030» является амбициозной по своему видению и будет служить постоянно обновляемым документом для отражения меняющихся потребностей. При её реализации важно сочетать долгосрочную перспективу с гибкими структурами, уделяя особое внимание портфелю приоритетных проектов и дорожной карте реализации. Дорожной карте реализации, подчеркивающей быстрые достижения и проекты с быстрым результатом в краткосрочной перспективе с переходом к более стратегическим проектам при укреплении критических элементов, таких как региональное управление и институты, партнёрства, навыки лидерства и потенциал выполнения.

Национальная концепция цифровой экономики, предусматривает обновление всех сфер экономики на базе цифровых технологий, и на этой основе внедряется программа «Цифровой Узбекистан – 2030». Она направлена на ускоренное развитие цифровой индустрии в стране и повышение конкурентоспособности национальной экономики и включает в себя программы цифровой трансформации регионов и отраслей [2]. Данный документ определяет четыре стратегические цели:

- обеспечение доступности цифровой инфраструктуры;
- трансформацию государственного управления;
- цифровизацию отраслей экономики;
- развитие человеческого капитала.



К 2030 году планируется достичь доли цифровых технологий в ВВП не менее 30%, охвата широкополосным интернетом 80% населения и цифровизации 90% государственных услуг. Реализация стратегии осуществляется через утверждение программ цифровизации регионов и отраслей, а также «дорожную карту» на 2020-2022 годы с последующим расширением. На начало 2025 года прогресс в ее воплощении демонстрирует значительные достижения, подкрепленные международным партнерством и инвестициями, но также выявляет вызовы, требующие дальнейшей оптимизации.

В частности, начата реализация свыше 220 приоритетных проектов, предусматривающих совершенствование системы электронного правительства, дальнейшее развитие отечественного рынка программных продуктов и информационных технологий, организацию во всех регионах республики IT-парков, обеспечение данной сферы квалифицированными кадрами.

Кроме того, реализуется комплексная программа «Цифровой Ташкент», предусматривающая запуск геопортала, интегрированного с более 40 информационными системами, создание информационной системы управления общественным транспортом и коммунальной инфраструктурой, цифровизацию социальной сферы с последующим распространением данного опыта на другие регионы [3].

Огромное влияние акцентировано на развитии ИКТ-инфраструктуры, электронного правительства, искусственного интеллекта (ИИ), умных городов и цифровизации ключевых отраслей (здравоохранение, образование, финансы, транспорт). Цели стратегии – не только экономический рост, но и повышение качества жизни, что делает её объектом социально-философского осмысления.

В контексте глобальной цифровизации, где технологии перестраивают социальные связи и ценности, реализация стратегии в Узбекистане поднимает вопросы о балансе между модернизацией и сохранением культурной идентичности, равенстве и этике цифрового прогресса. Стратегия предусматривает утверждение двух программ: цифровизация регионов и цифровизация отраслей. Тем самым предусмотрены два подхода - территориальный и отраслевой. Несомненно, это обеспечит наиболее полный охват и эффективную реализацию документа.

За пять лет с момента утверждения стратегии Узбекистан достиг значительных успехов в цифровизации, что подтверждается как внутренними показателями, так и международными рейтингами. Реализация осуществлялась в рамках «Дорожной карты» на 2020-2022 годы, дополненной трехлетними программами по цифровой трансформации отраслей и регионов, в результате чего было запущено свыше 460 проектов.

Была создана электронная платформа отечественных программных продуктов и IT-услуг, которая с 1 января 2021 года позволила сформировать единую базу данных отечественных IT-компаний и разработчиков программных продуктов, их продукции и услуг, содействовать им в продвижении своей продукции на внутреннем и внешнем рынках;

наладился эффективный и открытый диалог в процессе решения практических вопросов развития цифровой экономики в стране и совершенствования законодательства в сфере информационных технологий.

Одним из приоритетов стратегии стало снижение цифрового разрыва между городом и селом, обеспечение высокоскоростного и доступного интернета. Узбекистан поднялся на 17 позицию в Индексе готовности к искусственному интеллекту, заняв первое место в Центральной Азии. Стратегия акцентирует переход к «Сервисному государству», где все

госуслуги доступны онлайн. К 2025 году на Едином портале интерактивных госуслуг реализовано более 400 электронных сервисов, включая платежи за штрафы и налоги.

За январь-май 2025 года объём услуг связи и информатизации вырос на 123,5%. Число самозанятых граждан в сфере информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) превысило 100 тысяч человек, что свидетельствует о росте интереса и участия в этой сфере. Экспорт IT и удалённых услуг охватывает более 90 стран. Кроме того, на Едином интерактивном портале государственных услуг в 2025 году было внедрено 54 новых электронных услуги, доведя их общее количество до 761 [4].

Таким образом, принятие Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и «дорожной карты» по ее реализации в 2020-2022 годах создает прежде всего правовую базу для перехода на цифровую экономику. Документ включает такие приоритетные направления, как развитие цифровой инфраструктуры, электронного правительства, национального рынка цифровых технологий, образования и повышения квалификации в сфере информационных технологий.

Следует особо отметить, что в пункте 2.5 Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030», принятой Указом Главы государства «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации, учтен ряд предложений, разработанных Центром «Стратегия развития»:

- внедрение и развитие технологий дистанционного, онлайн и виртуального обучения в сфере информационных технологий, разработка платформы для онлайн-курсов;
- создание механизмов государственно-частного партнерства с привлечением крупных IT-предприятий в сфере развития цифровых навыков среди населения;
- реализация проекта «один миллион программистов» для подготовки высококвалифицированных специалистов среди населения;
- развитие и постоянное совершенствование механизма повышения навыков и квалификации государственных служащих в сфере информационно-коммуникационных технологий;
- разработка механизмов оценки навыков использования цифровых технологий с учетом следующих аспектов: информационная грамотность (способность находить информацию, необходимую для принятия решений); компьютерная грамотность (умение работать с цифровыми устройствами); медиа грамотность (возможность критического изучения средств массовой информации); коммуникативная грамотность (умение пользоваться современными цифровыми средствами связи); формирование положительного отношения к технологическим инновациям (новым технологиям).
- внесение изменений в основные учебные программы общеобразовательных школ в целях повышения общего уровня использования цифровых технологий для учащихся;
- проведение республиканских конкурсов и мероприятий (хакатоны, конкурсы, олимпиады и др.), способствующих появлению идей и новых технологий;
- развитие человеческого капитала, в том числе развитие специализированного образования и популяризация IT-профессий, улучшение институциональных условий для IT-предприятий и снижение административных барьеров [5].

Реализация Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» демонстрирует эффективность государственной политики в области цифровизации, подтвержденную ростом ключевых индикаторов и международным признанием. Достигнутые результаты – от улучшения инфраструктуры до экспорта IT-услуг – закладывают основу для устойчивого развития. Перспективы связаны с дальнейшей интеграцией ИИ, зеленых технологий и регионального сотрудничества, что позволит Узбекистану стать лидером цифровой трансформации в



Центральной Азии. Успех требует продолжения инвестиций в кадры и инфраструктуру, а также усиления общественного контроля для минимизации рисков. В итоге, стратегия не только модернизирует экономику, но и повышает качество жизни граждан, способствуя формированию инновационного общества.

Литература:

1. Шавкат Мирзиёев. Уверенно продолжим путь национального развития на новом этапе. Т.И. Ташкент. 2020.
2. <https://www.gazeta.uz/ru/2023/08/16/usaiddigital-uzbekistan-2030/>
3. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 05 октября 2020 г.
4. Обсуждены работы в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан 2030». <https://e-gov.uz/ru/news/obsuzhdeny-raboty-v-ramkah-strategii-cifrovoj-uzbekistan-2030-1817>
5. Утверждение Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» обещает прорыв в цифровом развитии. 2020. <https://strategy.uz/index.php?news=1106&lang=ru>

Habibjonova Nodira Shavkat qizi,

NamDPI ilmiy xodimi

habibjonovanodira@gmail.com

OILAVIY MUNOSABATLARNING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI IJTIMOIIY FALSAFIY AHAMIYATI

Annotatsiya Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarning yosh avlodni tarbiyalashdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati tahlil qilinadi. Oila jamiyatning eng kichik ijtimoiy instituti sifatida insonning ma'naviy shakllanishi, axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishi va ijtimoiy mas'uliyatni his etishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Maqolada oiladagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, bag'rikenglik va mas'uliyat kabi qadriyatlarning yosh avlod dunyoqarashi hamda shaxs sifatida kamol topish jarayoniga ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oila, nikoh, ajrim, munosabat, tarbiya, yosh avlod, ijtimoiy qadriyatlar, ma'naviyat, falsafa, jamiyat barqarorligi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ВОСПИТАНИИ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ

Аннотация: В статье анализируется социально-философское значение семейных отношений в воспитании подрастающего поколения. Семья, как наименьший социальный институт общества, играет решающую роль в духовном становлении личности, усвоении нравственных ценностей и чувства социальной ответственности. В статье рассматривается влияние таких ценностей, как взаимоуважение, доброта, толерантность и ответственность в семье, на мировоззрение подрастающего поколения и процесс личностного роста с социально-философской точки зрения.



Ключевые слова: Семья, брак, развод, отношения, воспитание, подрастающее поколение, социальные ценности, духовность, философия, социальная стабильность.

THE SOCIO-PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE OF FAMILY RELATIONS IN THE UPBRINGING OF THE YOUNGER GENERATION

Annotation This article analyzes the socio-philosophical significance of family relations in the upbringing of the younger generation. The family, as the smallest social institution of society, plays a decisive role in the spiritual formation of a person, the assimilation of moral values, and the feeling of social responsibility. The article examines the impact of values such as mutual respect, kindness, tolerance, and responsibility in the family on the worldview of the younger generation and the process of personal growth from a socio-philosophical perspective.

Keywords: Family, marriage, divorce, relationship, upbringing, young generation, social values, spirituality, philosophy, social stability.

KIRISH

Oilaviy munosabatlar — jamiyatning eng muhim tayanchi, insonning shaxs sifatida shakllanishi va barkamollikka erishishida beqiyos ahamiyat kasb etadi. Aynan oila muhitida yosh avlod mehr, ehtirom, mas'uliyat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi insoniy fazilatlarini o'zlashtiradi. Shu boisdan oilaviy munosabatlarning sog'lom, barqaror va mehr-oqibatga asoslangan bo'lishi nafaqat ayrim shaxslarning, balki butun jamiyatning ma'naviy barqarorligiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yevropa falsafasida oila mavzusida qilingan izlanishlar F.Bekon, T.Gobbs, I. Kant, J. J.Russo, G.Gegel, I.Y. Baxofen, L.G. Morgan, M.M. Kovalevskiy, K. Marks, F. Engels kabi tadqiqotchilarning faoliyatida kuzatilsa, yurtimizda M. Jo'rayev, N. Ergasheva, M. Matjonova, G. Abdurahmonova kabi oilalarning faoliyatida kuzatiladi. Mavzuni o'rganishda manbalarni o'rganish asosida va ijtimoiy falsafiy tajribalari bilan kuzatish, analiz, tizimli tahlil metodlaridan foydalanib mavzu tadqiq etildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

“Eng katta baxt, men buni ming marta qaytarishdan charchamayman, oilamiz tinch bo'lsin! Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi. O'sha baxtli kunlarni, vatanimizning, yoshlarimizning kamolini hozir niyat qilayotganimiz kabi ko'rish hammamizga nasib etsin!”[1] Bundan tashqari, oila tinchligi masalasi psixologik va ma'naviy jihatdan ham muhimdir. O'zaro tushunish, mehr, e'tibor va bag'rikenglik kabi hissiy qadriyatlar oilada shakllansa, bu nafaqat a'zolarining ruhiy salomatligini, balki jamiyatdagi ijobiy ijtimoiy muhitni ham ta'minlaydi. Shu ma'noda, muallifning fikri oila tinchligining ko'p qirrali mohiyatini ochib beradi — u shaxsiy, ijtimoiy va milliy darajada uyg'unlik va barqarorlikni ifodalovchi konsept sifatida qaraladi.

Oila har bir jamiyatda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishida markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosiy elementi bo'lmish nikoh esa, shaxslar o'rtasidagi munosabatni huquqiy va ma'naviy jihatdan mustahkamlovchi ijtimoiy institut sifatida qadrlanadi. Nikoh faqat ikki insonning o'zaro roziligi asosida tuzilgan shaxsiy ittifoq bo'lib qolmay, balki jamiyat tomonidan tan olingan va ijtimoiy nazorat ostida bo'lgan muhim institutdir. Shu sababli, oila va nikohdagi barqarorlik jamiyatning ijtimoiy sog'lomligi, avlodlar davomiyligi, madaniyat va ma'naviyatning uzviyligini belgilab beradi.


Nikohning ijtimoiy-ma'naviy jihatlari asrlar davomida madaniyat, diniy qarashlar, milliy qadriyatlar va ijtimoiy tuzumlar bilan chambarchas bog'liq holda shakllanib kelgan. O'zbek



jamiyatida nikoh nafaqat shaxsiy hayotning bir bosqichi, balki oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy tartib-intizom, urf-odatlar, ota-ona roziligi, mas'uliyat, sabr-toqat va vafodorlik kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'langan. Bu qadriyatlar asosida shakllangan nikoh ijtimoiy institut sifatida barqaror oilani yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Biroq, globallashtiruv, axborot oqimining tezlashuvi, gender rollarining o'zgarishi, shaxsiy erkinlik va iste'mol madaniyatining kuchayishi natijasida zamonaviy jamiyatda nikohga bo'lgan munosabat sezilarli darajada o'zgarib bormoqda. Aksariyat hollarda nikohga yengil qarash, ma'naviy tayyorgarlikning yetishmasligi, psixologik moslikning inobatga olinmasligi, iqtisodiy sharoitlarning beqarorligi ajrimga olib keluvchi omillarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Ajrim esa, oila va nikoh institutining barqarorligiga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida talqin etiladi. Uning sabablari nafaqat shaxslararo ziddiyatlar, balki jamiyatdagi ma'naviy qadriyatlar tanazzuli, tarbiyaning zaiflashuvi, yoshlar orasida mas'uliyat hissining sustligi, shuningdek, oilaviy hayotga tayyorgarlikning pastligi bilan izohlanadi. Ayni paytda ajrim faqat ikki shaxs o'rtasidagi aloqaning uzilishi emas, balki farzandlar, avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikning, ijtimoiy muvozanatning, shaxsiy hayot barqarorligining ham izdan chiqishi demakdir.



Ajrimlarning ijtimoiy-ma'naviy oqibatlari quyidagicha ifodalanadi:

— *Bolalarning ijtimoiylashuvdagi qiyinchiliklari:* ota-onasiz yoki nomutasib muhitda ulg'aygan bolalarda o'z-o'zini anglash, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy mas'uliyatda muammolar paydo bo'ladi.

— *Jamiyatda beqaror oila modeling kengayishi:* yosh avlod oilani muqaddas qadriyat sifatida emas, vaqtinchalik aloqa sifatida qabul qilishi xavfi ortadi.



— *Ma'naviy bo'shliqlar va qadriyatlar inqirozi: ajrimlar ortidan shaxsiy manfaatlar ustun qo'yilib, insonlar orasidagi ishonch, sabr, kechirimlilik kabi fazilatlar zaiflashadi.*

Islom dini, o'zbek xalq og'zaki ijodi va falsafiy qarashlarida nikoh muqaddas, ajrim esa og'ir va mas'uliyatli qaror sifatida ko'rilgan. Hadislarda “Halol narsalarning eng yomonrog'i — taloq (ajrim)” deb aytilgani bejiz emas. Bu esa har qanday nikoh muammosini ajrim orqali emas, balki murosali yo'l bilan hal qilishga undaydi.

Zamonaviy jamiyatda esa nikoh va ajrim o'rtasidagi chegara tobora noaniq tus olmoqda. Bu holatda ijtimoiy institutlar – ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, diniy va mahalla institutlari o'z funksiyalarini qayta ko'rib chiqib, nikohga tayyorgarlik, oilaviy qadriyatlar va mas'uliyat hissini mustahkamlovchi ijtimoiy-ma'naviy faoliyatlarni kuchaytirishi zarur. Maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'limgacha oilaviy hayotga tayyorgarlik komponentlarini integratsiyalash, yoshlarni nikoh institutining mazmuni va ijtimoiy ahamiyatiga ongli yondashishga o'rgatish dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

Oila va nikoh — bu shunchaki huquqiy bitim emas, balki insoniyat taraqqiyotining asosi bo'lgan ijtimoiy-ma'naviy institutdir. Nikoh barqarorligining zaiflashuvi va ajrimlar sonining ortib borishi jamiyatda chuqur ijtimoiy va axloqiy inqirozga sabab bo'ladi. Shu bois, ajrim muammosiga faqat statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida qarash, uni bartaraf etishda madaniy, diniy, pedagogik va psixologik mexanizmlarni uyg'unlashtirish ilmiy va amaliy zarurat sifatida namoyon bo'lmoqda [2].

Mahalla va jamoat tashkilotlari ishtiroki-Oila va yoshlar tarbiyasi jarayoniga bevosita ko'mak beruvchi yana bir muhim institut – mahalla bo'lib, uning yoshlar ta'lim-tarbiyasidagi roli hozirgi davrda tobora oshib bormoqda [3]. Mahalla jamiyatning asosiy birligi sifatida oilalar hayotiga eng yaqin turadi va ulardagi tarbiyaviy jarayon, ma'naviy muhit, nizolarni barvaqt aniqlash singari masalalarda amaliy yordam ko'rsatadi [4]. Misol uchun, notinch oilalarni ro'yxatga olish, ular bilan alohida ishlash, yoshlarni ijtimoiy, psixologik va huquqiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha mahalla qoshida turli komissiya va kengashlar tuzilgan. Bu esa oiladagi tarbiyaviy muammolarni erta bosqichdayoq bartaraf etish imkonini beradi. Bundan tashqari, nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, bolalar va yoshlar tashkilotlari (masalan, Yoshlar ittifoqi, turli ixtisoslashgan jamoatlar) ham yoshlar tarbiyasida oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish, oilaviy nizolarni oldini olish, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash bo'yicha dasturlar ishlab chiqib, ularni amaliyotga tadbiiq etishga hissa qo'shmoqda. Jumladan, “Oila” markazlari, “Psixologik maslahat xonalari”, “Mediation” (mediatsiya) markazlari kabi tuzilmalar oilaviy tarbiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirib, yoshlarning turmushga tayyorgarlik masalalarida amaliy yordamini kuchaytirmoqda [5].

XULOSA

Xulosa qilib, bugungi kunda kuzatilayotgan ajrimlar sonining ortishi jamiyat uchun jiddiy ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ajrim — bu nafaqat ikki insonning ajralishi, balki farzandlarning ruhiy olamida bo'shliq, ishonchsizlik va ijtimoiy moslashuvda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday holat yosh avlodning axloqiy, ma'naviy va psixologik shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, oilaviy barqarorlikni mustahkamlash, o'zaro hurmat va mas'uliyatni kuchaytirish, ajrimlarning oldini olish — bu faqat ijtimoiy yoki huquqiy masala emas, balki falsafiy va ma'naviy burch hamdir. Chunki sog'lom oila — bu sog'lom jamiyatning asosi, tinchlik va totuvlikning garovidir.

Demak, oilaviy munosabatlarning yosh avlodni tarbiyalashdagi ijtimoiy-falsafiy ahamiyati shundaki, u insoniyatning ma'naviy merosini avloddan avlodga yetkazuvchi, shaxsni komillikka

yetaklovchi, jamiyatni barqaror va uyg'un rivojlantiruvchi eng muhim ijtimoiy institutdir. Oila mustahkam bo'lsa — millat mustahkam bo'ladi

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES).

1. Prezident: «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi» // <https://www.xabar.uz/uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan> [Murojaat qilingan sana: 29.10.2025]
2. Tursunova, M. Oila va axloqiy qadriyatlar: zamonaviy yondashuvlar. Toshkent: Ma'naviyat.2021-B 33.
3. Raximova, D. Oila va tarbiyada ijtimoiy muhitning roli. Toshkent: Ma'naviyat.2020-B 76.
4. Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi. *Mahallalarda oilaviy muhitni sog'lomlashtirish choralari*. Toshkent: Rasmiy nashr.2022.
5. Qodirova, G. *Notinch oilalar bilan ishlash tizimi: yondashuv va tahlil*. // *Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali*, №2, 2021-B 91–95.

Mavludaxon Jo'raboy qizi Jo'rayeva

The masters' student of Namangan State University

THE TRANSFORMATION OF THE TOLERANCE IN DIGITAL SOCIETY

Annotation: The article analyzes the transformation of the culture of tolerance in digital society. Information technologies and global communication systems are meant to be major factors affecting human values. It is proved by the sources of scholars that the traditional forms of tolerance acquire new meanings in digital era. Furthermore, the harmony between national and global values, the effects of algorithmic filtering, digital ethics and the role of education also are explored in this paper.

Key words: digital society, culture of tolerance, digital ethics, communication, globalization, cultural transformation, national values.

Mavludaxon Jo'raboy qizi Jo'rayeva

Namangan davlat universiteti magistranti

RAQAMLI JAMIYATDA TOLERANTLIK TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqola raqamli jamiyatdagi beg'rikenglik madaniyatining transformatsiyasini tahlil qiladi. Information texnologiyaar va global aloqa tizimlari insoniy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy factor hisoblanadi. Bag'rikenglikning an'anaviy shakllari raqamli erada yangicha mazmun kasb etayotganligini ilmiy manbalar orqali asoslanadi. Shuningdek, milliy va global qadriyatlar uyg'uligi, algoritmik filtrlash, raqamli etika va ta'limning o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, bag'rikenglik madaniyati, raqamli etika, kommunikatsiya, globalizatsiya, madaniyat transformatsiyasi, milliy qadriyatlar.

Introduction

The XXI century has brought humans life to “digital society” level. In this level, it is seen that information technologies, social media and artificial intelligence (AI) have been become one of the crucial parts of modern society. They are influencing not only economics but also cultural aspects of the society. In this process of transformation the culture of tolerance is also shaping its new



communicative forms in different nations, religions, beliefs and the way people live by providing deep respect and admire. The tolerance should be boosted in the culture of digital communication. In the western countries the digital tolerance is seen in inclusivity, gender equals, racism and cultural diversity. As for Uzbekistan, this term harmonizes with the national aspects of compassion, solidarity and brotherhood.

The culture of tolerance itself is shaped as an essential ethical value in accepting different cultures, religions and opinions from an early past. But in digital era these values are expressed by virtual communication, algorithmic control and social media[1, P.12]. Therefore, digital tolerance is a new view of harmony of humanism and technology.

Analyses and results

The speed of communication, the mass volume and emotional expression in digital society has been changed. As Castells proves in his works, the communication becomes “information stream” in digital society [2, P. 576]. At the same time, this flow deepens speed instead of the depth in people’s communication. In the work of Lipovetsky “L’Ère du vide: Essais sur l’individualisme contemporain” modern human individualism and digital isolation tendencies are analyzed, and showed the weakening of tolerance [3, P.256]. This opinion can be seen in the example of modern social media: “cancel culture”, “trolling” or “hate speech” incidents destruct standards of tolerance.

The algorithms of digital platforms commonly offer their users the similar contents they liked before. This condition creates “filter bubble” which means mass bubble in their recommendations [4, P. 294]. An individual prefers only those views that are suitable with his, which occasionally faces the loss of different thoughts and the transformation of tolerance. Moreover, aspects of anonymousness also weakens ethical responsibility in digital surrounding. Since, it was written in Karimova’s work, “digital ethics is not only technical literacy, but individual’s digital ethical immunity also.” From this point of view, ethical literacy should be evaluated in order to keep tolerance in digital society.

In the culture of Uzbekistan the tolerance is closely related with “solidarity”, “brotherhood” and “compassion”. In Turdiboyev’s opinion, shaping digital culture requires integration of national values with global communication[5, P. 312]. That’s why the policy of digital tolerance should rely on local culture besides foreign experience.

Online identity sometimes is capable of hiding who is the user, where he or she is from, what kind of opinion he or she is in. This, occasionally, concludes with creation irresponsible, negative or dangerous expressions as trolling or cyber bullying. Online user has to communicate with others in a constructive way by keeping in mind deep respect and having inclusivity. For example, emphasizing digital literacy at educational places, providing courses from media ethics and teaching the user to feel responsibility for his or her acts – all of these are one of the ways to encourage tolerance in digital format.

The education plays a crucial role in the development of tolerance. In the digital world this role emphasizes: represents of various cultures may work together with the help of online courses, interactive platforms, global cooperation, virtual dialogues. In the example of an article named: “Building Bridges: Exploring Digital Strategies for Promoting Tolerance and Global Citizenship” the connection between global citizenship and Tolerance is analyzed by digital strategies[6, P.248].

The development of the culture of tolerance gives provides great opportunities, but there are still some disadvantages:

- Online hater language, cyber-aggression: digital world is commonly under no control, it exacerbates incidents against tolerance.

- Digital division: all the user have no equal chances, and it lessens diversity and inclusivity.
- Monopolization and algorithms of platforms: Platforms have chance to choose a content, filter and post it - it may directly harm the tolerance.
- Identity and anonymousness: sometimes there are anonymous users, who disrespect and harm the content with comments and hates.

In terms of development, people should:

- Emphasize digital literacy – users should be taught media ethics and to think critically
- Implement inclusive design – support the variety of algorithms, decreasing “filter bubble”
- Activate international dialogues and global cooperation – online teams, virtual symposiums, exchanging with different culture representatives
- Harmonizing local and global values.

Conclusion

In the digital society the tolerance is not only good behavior, but a new look of humanism. The digital society is now reshaping the culture of tolerance in anew condition. For now the tolerance is not only social relationship, but inseparable part of the culture of digital communication. The digital society gives the chance for the culture of tolerance to broaden its borders, however, there will arise new social challenges. That’s why the digital tolerance needs to be seen as modern individual’s one of the major digital competences.

In order to reach the progress of the tolerance in digital atmosphere, we should: strengthen digital ethics and media literacy; provide algorithmic objectivity, and promote cultural diversity and online empathy. Thus, the real tolerance in digital society is keeping humanism with being able to use technology wisely. If we use internet to percept insights, only then digital space becomes a global field of kindness. People should always keep in mind that: “Tolerance is not inborn feature. It is learnable and should be practiced in real day-to-day life.”

References:

1. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance / UNESCO. — Paris : UNESCO Publishing, 1995. — 12 s.
2. Castells M. The Rise of the Network Society / M. Castells. — Oxford : Blackwell, 1996. — 576 s.
3. Lipovetsky G. L’Ère du vide: Essais sur l’individualisme contemporain / G. Lipovetsky. — Paris : Gallimard, 1983. — 256 s.
4. Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You / E. Pariser. — London : Penguin Books, 2011. — 294 s.
5. Turdiboev A. Raqamli madaniyat va ijtimoiy ong evolyutsiyasi / A. Turdiboev. — Toshkent : O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2021. — 312 s.
6. Karimova S. Axborot etikasi va zamonaviy muloqot madaniyati / S. Karimova. — Toshkent : Fan nashriyoti, 2022. — 248 s.

RAQAMLI JAMIYATDA AYOL SHAXSINING TRANSFORMATSIYALASHUVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida ayol shaxsining transformatsiyalashuvi, uning ijtimoiy roli, identiteti va madaniy-ma'naviy o'zini anglash jarayonidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi. Raqamli kommunikatsiya, onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli iqtisodiyotning kengayishi ayolning iqtisodiy faolligi, o'zini ifoda etish imkoniyatlari hamda ijtimoiy mavqeini qayta shakllantirayotgan omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli makondagi gender stereotiplari, kiberzo'ravonlik, raqamli tafovut kabi xavf va cheklovlar ham o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ayol shaxsining raqamli transformatsiyasi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u ijobiy imkoniyatlar bilan birga yangi ijtimoiy-psixologik ehtiyoj va chaqiriqlarni yuzaga keltirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, ayol shaxsi, gender transformatsiyasi, raqamli identitet, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli iqtisodiyot, kiberzo'ravonlik, raqamli madaniyat, ijtimoiy rol, zamonaviy kommunikatsiya.

Annonation. This article analyzes the transformation of the female personality, its social role, identity and cultural and spiritual self-awareness in the digital society. Digital communication, online platforms, social networks and the expansion of the digital economy are considered as factors that are reshaping women's economic activity, opportunities for self-expression and social status. Also, risks and limitations such as gender stereotypes in the digital space, cyberbullying, digital divide are studied. The results of the study show that the digital transformation of the female personality is a multifaceted process that, along with positive opportunities, creates new socio-psychological needs and challenges.

Keywords: digital society, female personality, gender transformation, digital identity, social networks, digital economy, cyberbullying, digital culture, social role, modern communication.

Kirish. XXI asrning asosiy belgilaridan biri bo'lgan raqamli transformatsiya jamiyatning barcha sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internetning ommalashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning keng miqyosda qo'llanilishi va raqamli iqtisodiyotning shakllanishi inson hayotining deyarli barcha jihatlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Mazkur o'zgarishlar jarayonida ayol shaxsi, uning ijtimoiy mavqe, o'zini anglash darajasi va jamiyatdagi roli ham sezilarli transformatsiyaga uchramoqda.

Bugungi kunda jahonda postindustrial yoki supermadernistik jamiyatning axborot kommunikatsion texnologiyalardan tizimli foydalanishga asoslangan yoki «raqamli jamiyat» deb nomlanuvchi shakliga transformatsiyalashuv jarayonlari jadallashmoqda. Raqamli jamiyat muayyan mamlakat uchun Raqamli ijtimoiy tizimning, evolyutsion rivojlanishining mantiqiy davomi hamda davlat, korxonalar va aholini to'liq qamrab olgan innovatsion jamiyatni shakllantirish imkoniyatiga aylanmoqda.[1]

Raqamli jamiyat ayollarga yangi imkoniyatlar — masofaviy ta'lim olish, onlayn mehnat bozorida ishtirok etish, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z fikri va qobiliyatlarini erkin namoyon etish kabi yo'nalishlarda keng maydon ochdi. Ayniqsa, ayollarning iqtisodiy faolligi va o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlarining ortishi zamonaviy gender



jarayonlarining yangi bosqichini boshlab berdi. Shu bilan birga, raqamli makonda ayollarga nisbatan kiberzo'ravonlik, internetdagi stereotiplashgan ayol obrazi, onlayn bosim va psixologik ta'sirlar ham kuchayib borayotgani ushbu jarayonning murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Raqamli texnologiyalar madaniyatning global miqyosda tarqalishiga va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Internet va raqamli ilovalar orqali madaniyatlar o'z chegaralaridan chiqib, butun dunyo bo'ylab keng tarqalmoqda.[2]

Bugungi kunda ayol identiteti bir vaqtning o'zida an'anaviy ijtimoiy rollarni saqlab qolish hamda zamonaviy raqamli madaniyat talablari asosida qayta shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda. Bu esa ayolning ijtimoiy o'rni, ma'naviy-ruhiy holati, o'zini anglash mexanizmlari va jamiyat bilan o'zaro munosabatlarini chuqur tahlil qilishni zarur qiladi.

O'zbekiston jamiyatida ham raqamli sohaning faol rivojlanishi ayollar hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu borada prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "So'nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash, ularning qadr-qimmatini ulug'lash Yangi O'zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o'ringa qo'yilmoqda" [3]. Davlat tomonidan raqamlashtirish siyosati, ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, IT ta'lim tizimining rivoji kabi jarayonlar ayollar uchun yangi ijtimoiy-iqtisodiy maydon yaratmoqda. Shu bilan birga, milliy mentalitet va patriarxal qadriyatlarning saqlanib qolishi ayollar raqamli faolligining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Ushbu maqolada raqamli jamiyatda ayol shaxsining transformatsiyalashuv jarayoni ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik omillar orqali tahlil qilinadi. Ayolning raqamli identiteti, onlayn kommunikatsiya madaniyati, yangi gender rollar, shuningdek, raqamli makonda uchraydigan xavf va cheklovlar ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot mazkur masalaning nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlarini ko'rsatib, ayol shaxsining zamonaviy jamiyatdagi o'rni va rolini yangicha talqinda ochib berishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar Raqamli jamiyatda ayol shaxsining transformatsiyalashuvi kompleks, o'zaro bog'liq ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik omillar orqali kechadi. Tadqiqot jarayonida ushbu omillar tizimli ravishda o'rganilib, quyidagi asosiy natijalar aniqlandi.

1. Ayollarning raqamli identiteti shakllanishi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli maydon ayollarning o'zini ifoda etishi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy brend yaratish, professional platformalarda faol bo'lish, masofaviy o'qish va o'zini rivojlantirish ayollar identitetining ko'p qatlamli bo'lishiga olib kelmoqda.

Natija: Ayol shaxsi an'anaviy ijtimoiy roldan tashqariga chiqa boshlagan, o'zini namoyon qilishning yangi shakllari paydo bo'lgan. Shu bilan birga, "ideal ayol obrazi"ning raqamli talqini ma'lum darajada psixologik bosim yaratishi ham qayd etildi.

2. Raqamli iqtisodiyotda ayollarning faolligi oshmoqda. O'rganishlar natijasiga ko'ra, ayollar frilanserlik, onlayn tadbirkorlik, kontent yaratuvchilik va masofaviy ish shakllarida sezilarli darajada faollashmoqda. Raqamli iqtisodiyot ularga: ish vaqtini moslashtirish, oilaviy mas'uliyatlarni va ish jarayonini muvozanatlash, iqtisodiy mustaqillikni oshirish imkonini bermoqda.

Natija: Ayollarning iqtisodiy faolligi oshgan bo'lsa-da, "ikki tomonlama yuklama" — uy ishlari va raqamli mehnatning birga kelishi ularda charchoq va vaqt taqsimoti muammolarini kuchaytirayotgani aniqlandi.

3. Raqamli makonda gender stereotiplari va xavflar. Tadqiqotlar raqamli makonda genderga oid stereotiplar hali ham mavjudligini ko'rsatdi. Ayollarga nisbatan kiberzo'ravonlik, haqoratli fikrlar, tashqi ko'rinish bilan bog'liq bosimlar yuqori darajada kuzatilmoqda. Bunga qo'shimcha ravishda



internetdagi yolg'on ma'lumotlar, manipulyativ kontent ayollarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Natija: Ayollarning raqamli makonda faol bo'lishi imkoniyat bilan birga xavf ham tug'diradi. Kiberxavfsizlik bo'yicha bilim yetishmasligi bu xavflarni yanada kuchaytiradi.

4. Madaniy transformatsiya va ayol ovozinig kuchayishi. Ijtimoiy tarmoqlar ayollarga o'z fikrini ommaga yetkazish, ijtimoiy muammolarni yoritish, tenglik masalalarini ko'tarish imkonini berdi. O'zbek jamiyati misolida ayniqsa: ma'rifatparvar bloger ayollar (masalan: 1.Mehrinoz Abbosova she'riyat bilan shug'ullanganidan tashqari, yoshlar siyosati va axborot maydonida faoliyat yuritmoqda. Uning faoliyati "yoshlar", "til va madaniyat", "raqamli kontent" kabi mavzularni o'z ichiga oladi — bu marifatparvarlik tamonidan ahamiyatli. 2. Aqida Mokhirova Toshkentdagi ilmiy tayyorgarlikka ega, tuproqshunoslik sohasida ishlagan hamda bloger-aktivistga aylangan ayol. Blogi orqali jinsga asoslangan zo'ravonlik, gender tengligi kabi masalalarni ko'taradi va onlayn platformalarda bu borada faollik ko'rsatadi) onlayn ayollar harakati (1.UNDPning «Gender Digital Divide Assessment: Uzbekistan» hisobi. [4] Ushbu tahliliy hisobot O'zbekistonda internet va raqamli texnologiyalarga ayollar kirishidagi tafovutlarni o'rganadi. Masalan, hisobotda "ayollar va erkaklar internetdan foydalanish foizi" hamda raqamli qurilmalarga kirishdagi farqlar ko'rsatilgan. Bu onlayn ayollar faolligi uchun to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash, shuningdek, raqamli makonda ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim manba bo'ladi, 2. Onlayn kompaniyalar orqali jinsga asoslangan zo'ravonlikka qarshi kurash, UN Women va boshqa xalqaro hamkorlik tashkilotlari[5] O'zbekistonda jinsga asoslangan zo'ravonlik (GBV)ga qarshi onlayn kompaniyalar o'tkazmoqda. Ayollar onlayn foydalanuvchilarga murojaat qilib, axborot tarqatish, yordam izlash hamda tajribalarini baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu raqamli maydonda gender adolati va ayollarning huquqlarini ilgari surishga xizmat qiladi) gender tenglik tashabbuslari kuchayib borayotgani kuzatildi.

Natija: Raqamli makon ayollarning ijtimoiy mavqeini oshirishda muhim vosita sifatida shakllanmoqda. Ayol ovozi yanada eshitilmoqda va jamoatchilik fikriga ta'sirchan bo'layapti.

5. Oila instituti va ayol rolining qayta shakllanishi. Raqamli vositalar ayollarning oilaviy vazifalariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Ayollar: onlayn ta'lim orqali bolalar o'qishini nazorat qilish, uy xo'jaligini raqamli ilovalar yordamida boshqarish, sog'liq, xarid, muloqot jarayonlarini raqamlashtirish kabi faoliyatlarda yetakchi rolga ega bo'lishmoqda.

Natija: Ayolning oiladagi informatsion yuklamasi ortgan. Bu esa uning psixologik holatiga sezilarli ta'sir qilyotgan omil sifatida qayd etildi.

6. O'zbekiston kontekstidagi xususiyatlar. Mahalliy sharoitda raqamli transformatsiya ikki yo'nalishda namoyon bo'lmoqda:

1. Modernizatsiyalashgan imkoniyatlar: IT markazlarining ochilishi, ayol tadbirkorlar uchun grantlar, masofaviy ishning ommalashuvi.

2. An'anaviy cheklovlar: patriarxal qadriyatlar, jinsiy rollarga oid ijtimoiy bosim, raqamli madaniyatning turlicha qabul qilinishi.

Natija: Raqamli jamiyat O'zbekistonda ayol shaxsini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda, biroq madaniy an'analar bu jarayonning sur'atiga va yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Xulosa. Ushbu maqolada raqamli jamiyat sharoitida ayol shaxsining transformatsiyalashuvi ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik jihatlar orqali tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ayollarga yangi imkoniyatlar yaratib, ularning iqtisodiy faolligi, onlayn identiteti va ijtimoiy mavqeini sezilarli darajada oshirmoqda. Onlayn platformalar ayollarning o'z



fikrini erkin ifoda etish, professional va shaxsiy brend yaratish, shuningdek, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shu bilan birga, raqamli maydon ayollar uchun psixologik bosim, kiberzo'ravonlik va gender stereotiplari kabi yangi xavf-xatarlar ham keltirib chiqaradi. Oila va ijtimoiy institutlar bilan o'zaro ta'sir jarayonida ayollar yangi raqamli rollarni qabul qilish bilan birga, an'anaviy vazifalarni ham bajarishda davom etmoqda, bu esa "ikki tomonlama yuklama" va vaqtni muvozanatlashtirish masalalarini yuzaga chiqaradi.

O'zbekiston kontekstida raqamli transformatsiya ayollarga ta'lim, tadbirkorlik va ijtimoiy faollik imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, patriarxal qadriyatlar va madaniy stereotiplar bu jarayonni cheklashga ham harakat qilmoqda. Shu sababli, ayol shaxsining raqamli transformatsiyasini yanada samarali amalga oshirish uchun gender masalalarini e'tiborga olgan holda raqamli bilim va xavfsizlikni oshirish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, raqamli jamiyat ayol shaxsining identitetini, ijtimoiy rolini va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirayotgan bir vaqtning o'zida, yangi chaqiriqlar va ehtiyojlarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois, raqamli transformatsiya jarayoni ko'p qirrali va kompleks hodisa sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Raqamli jamiyatda transformatsion jarayonlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari Teshayeva Gulchehra Murodovna maqolasidan B-2
2. Erkaboev U.I., Rakhimov R.G., Negmatov U.M., Sayidov N.A., Mirzaev J.I. Romanian B-2 Journal of Physics. 2023. Vol.68, Iss.5-6, pp.614-1-614-14. (№3, Scopus. IF: 0.7, Q2; <https://www.scopus.com/sourceid/11500153309>). B-2
3. President.uz Manba: Prezidentning rasman e'lon qilingan nutq sahifasi. B-2
4. UNDP Uzbekistan. (2023). Gender Digital Divide Assessment: Uzbekistan. United Nations Development Programme. <https://www.undp.org/uzbekistan/press-releases/gender-digital-divide-solutions-and-opportunities-bridge-gap> B-3
5. UN Women. (2022). Preventing Violence Against Women in Uzbekistan: Online Campaigns and Initiatives. <https://www.unwomen.org/en/news/stories/2022/07/we-cannot-turn-blind-eye-violence> B-4

G'ofurov Nizomjon Oktyabrovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Namangan davlar universiteti

BAG'RIKENGLIK – IJTIMOIIY-MADANIY BARQARORLIK KAFOLATI

Annotatsiya. Maqolada globallashuv davrida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik tamoyillarining ijtimoiy-madaniy mazmuni, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi asosida millatlararo hamjihatlikni mustahkamlashning samarali yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, ijtimoiy-madaniy jarayon, milliy o'zlik, integratsiya.

Abstract. The article analyzes the socio-cultural content of the principles of interethnic harmony and tolerance in the era of globalization, their role and significance in the development of



society. Also, effective ways to strengthen interethnic harmony based on the experience of Uzbekistan are highlighted.

Keywords: globalization, interethnic harmony, tolerance, socio-cultural process, national identity, integration.

Kirish

Globallashuv — bu nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayon, balki ijtimoiy-madaniy hayotning ham tubdan o'zgarishiga sabab bo'luvchi murakkab hodisadir. U insoniyatni bir-biriga yaqinlashtirsa-da, madaniy identifikatsiya, milliy qadriyatlar va bag'rikenglik masalalarini yangi bosqichga olib chiqmoqda [1]. Shu sababli, bugungi kunda millatlararo totuvlikni saqlash, o'zaro hurmat va bag'rikenglikni rivojlantirish har bir davlatning strategik vazifasiga aylangan.

Tahlil va natija

Millatlararo totuvlik — bu turli millat, elat va diniy guruhlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hurmat va hamkorlikni ifodalovchi ijtimoiy hodisadir. Uning asosi madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillaridir [2].

Globallashuv sharoitida millatlararo totuvlik tushunchasi yangi mazmun kasb etmoqda. Chunki global axborot oqimlari, migratsiya va madaniy integratsiya jarayonlari turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sirni kuchaytirmoqda [3]. Shu bois, jamiyatda tolerantlikni mustahkamlash, milliy va diniy bag'rikenglik madaniyatini shakllantirish muhim ijtimoiy zaruratga aylanmoqda.

Bag'rikenglik (tolerantlik) insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimiy va eng dolzarb tamoyillaridan biridir. UNESCO tomonidan berilgan ta'rifda bag'rikenglik “insonning o'zgalarning qarashlariga, e'tiqodlariga va turmush tarziga hurmat bilan qarash qobiliyati” sifatida talqin qilinadi [4].

Xalqimizga azaldan xos bo'lgan xislat-bag'rikenglik biz uchun an'anaviydir. IX asrdan boshlab hozirgi O'zbekiston hududida islom dini sunna yo'nalishining hanafiy (Imom A'zam) mazhabi qaror topdi. Bu ham bejiz bo'lmasa kerak, zero Imom A'zam mazhabi o'zga dinlar va mahalliy urf-odatlariga nisbatan erkinlik berish bilan boshqa mazhablardan ajralib turadi. Hanafiylik ta'limotini takomulga yetkazgan vatandoshlarimiz - al-Moturidiy, Abul Mu'in Nasafiy va al-Marg'inoniy kabi allomalar musulmonlar orasidagi g'oyaviy tarfakashlikka barham berish, islom dinining “ahli sunna va jamoa” yo'li barqaror bo'lib qolishiga katta hissa qo'shdilar. Nafaqat buyuk allomalar, balki O'rta Osiyo hukmdorlari ham bu yo'lda kurashdilar. Masalan, X asr o'rtalarida musulmon dunyosida shia yo'nalishi (Shimoliy Afrika, Misr, Suriya, Hijozda - fotimiylar, Yamanda-zaydiylar va hatto abbosiylar poytaxti Bag'dodda-buvayhiylar) ustunlikka erishgan bir paytda o'rtaosiyolik tohiriylar, somoniylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar hokimlar “ahli sunna va jamoa”ni qattiq turib himoya qildilar.

Buyuk bobomiz Amir Temur “ahli sunna va jamoa”ga doim sodiq, diniy aqidaparastlikka qat'iy qarshi bo'lgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, sobiq “qizil imperiya” tarkibiga majburan kiritilgan O'zbekiston fuqarolarining aksariyatida “sovet kishisi”dan tashqari yana bir “narsa” bor edi. Bu “narsa” - etnik, til va irqiy mansublikdan qat'i nazar musulmonchilik edi. Jahondagi barcha musulmonlar hech bo'lmaganda ikki madaniy muhitda yashaydilar. Biri - ona Vatanning etnik tarkibi bilan bog'liq mahalliy madaniyati, ikkinchisi - islomga kirgach shakllangan musulmon madaniyati. Uzoq tarixga ega bo'lgan musulmon jamoalarida mazkur ikkala muhit bir-birlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

O'zbekiston misolida bag'rikenglik siyosati davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashamoqda, 16 ta diniy



konfessiya faoliyat yuritadi [5]. Bu esa mamlakatda ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik birdamligini ta'minlovchi muhim omildir.

Globallashuv jarayonlari madaniy xilma-xillikka ikki tomonlama ta'sir ko'rsatmoqda: bir tomondan, madaniyatlararo muloqot va hamkorlikni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, milliy madaniyatlarning yo'qolib borish xavfini keltirib chiqarmoqda [6]. Shu sababli, har bir jamiyat global madaniyat bilan o'z milliy qadriyatlarini uyg'unlashtira olish ko'nikmasini shakllantirishi lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda "Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash" g'oyasi asosida millatlararo totuvlik va bag'rikenglik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [7]. Ta'lim tizimida, OAVda va madaniy siyosatda tolerantlikni targ'ib etuvchi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xulosa

Millatlararo totuvlik va bag'rikenglik – zamonaviy globallashuv sharoitida ijtimoiy barqarorlikning, milliy taraqqiyotning va madaniy uyg'unlikning kafolatidir. Bu tamoyillarni chuqur anglash va hayotga tatbiq etish har bir fuqaroning madaniy saviyasi va ijtimoiy mas'uliyati bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, millatlararo totuvlik faqat siyosiy barqarorlik omili emas, balki milliy madaniyatlar o'zaro boyishining, insonparvarlik qadriyatlarining namoyonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bauman Z. Globalization: The Human Consequences. Cambridge: Polity Press, 1998.
2. Giddens A. The Consequences of Modernity. Stanford University Press, 1990.
3. Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. SAGE Publications, 1992.
4. UNESCO. Declaration of Principles on Tolerance. Paris, 1995.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi ma'lumotlari. — Toshkent, 2023.
6. Held D., McGrew A. Global Transformations: Politics, Economics and Culture. Stanford University Press, 1999.
7. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2021.

Dexkanov Narimon Burxanjanovich
Siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

JADIDLAR QARASHLARIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA SIYOSIY UYG'ONISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI

Annotatsiya: Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'rta Osiyo, xususan, Turkiston hududida ijtimoiy, ma'naviy va siyosiy islohotlarning muhim harakatkor kuchi sifatida maydonga chiqdi. Jadidlar milliy birlik va siyosiy hokimiyat masalalariga o'ziga xos yondashuvlari bilan jamiyatning ma'rifiy va ijtimoiy-falsafiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Ularning qarashlari nafaqat o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy muammolariga javob berishga xizmat qilgan, balki hozirgi kunda ham milliy birlik va davlat boshqaruvi masalalarida dolzarb sanaladi. Ushbu maqola jadidlarning milliy birlik va siyosiy hokimiyatga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlanadi.



Kalit soʻzlar: Jadidchilik, milliy birlik, siyosiy hokimiyat, ijtimoiy-falsafiy ahamiyat, maʼrifat, taʼlim, adolatli boshqaruv, ijtimoiy uygʻunlik, legitimlik, insonparvarlik, axloqiy qadriyatlar, mahalliy boshqaruv, taraqqiyot, zamonaviy Oʻzbekiston, ijtimoiy konsensus, vatanparvarlik, mustaqillik.

KIRISH. Jadidlar milliy birlikni jamiyatning taraqqiyoti uchun asosiy omil sifatida koʻrdilar. Ularning fikricha, milliy birlik maʼrifat, taʼlim va umumiy maqsadlar atrofida birlashish orqali amalga oshirilishi mumkin edi. Mahmudxoʻja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi jadidlar oʻzbek xalqining oʻziga xos milliy oʻzligini saqlagan holda, uni zamonaviy bilim va gʻoyalar bilan boyitishga intildilar.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, jadidlarning milliy birlik tushunchasi kollektiv ongni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni taʼminlashga xizmat qildi. Ular milliy birlashuvni faqat etnik yoki diniy asosda emas, balki umumiy ijtimoiy-siyosiy maqsadlar, xususan, mustaqillik va adolatli jamiyat qurish gʻoyasi atrofida koʻrdilar. Bu qarashlar Abu Nasr Forobiy kabi sharq faylasuflarining “fozil odamlar shahri” konsepsiyasi bilan oʻzaro uygʻunlik kasb etadi, unda jamiyatning uygʻunligi umumiy axloqiy va maʼnaviy qadriyatlar asosida taʼminlanadi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Jadid harakatining yetakchisi boʻlgan Gaspirali Bey Turkiston va uning xalqini doimiy tarzda kurashga, milliy uygʻonishga chaqirib, tobelik va qullik zanjiridan ozod boʻlishda uch narsa: “1. Milliy fikr 2. Milliy til 3. Milliy maorif muhimligini taʼkidlaydi. Milliy fikr bu birinchi navbatda, millat birligi fikri hisoblanib u milliy yakdillikni ilgari soʻradi. Til yagona adabiy til masalasidir. Milliy maorif ona tilidagi taʼlim-tarbiyani yoʻlga qoʻyishdir. Fikr va tilni matbuot tarbiya qiladi. Matbuot xodimlarini yetkazuvchi esa maorifdir”, — deb izohlagan[11. –B. 186.]. U til va millat masalasiga chuqur eʼtibor qaratib, 1881-yil “Rusiya musulmonlari” asarini chop etadi. U asarda milliy va diniy jipslikka alohida eʼtibor qaratadi. Ayni zamonda Rossiya imperiyasida olib borilayotgan “ruslashtirish” siyosatiga qarshi fikrlar yuritadi. Shuningdek, u “ruslashtirish” siyosatini ruslar emas, chorizm maʼmurlari tomonidan oʻylab topilgan shovinistik gʻoya ekanligini taʼkidlab oʻtgan[14.– B. 35.]. “Aslida, bu jarayon ilgariroq boshlangan edi. Mustamlakachilar Turkiston bolalari ongiga oʻz gʻoyalarini singdirish maqsadida rus-tuzem maktablarini ochdi. Biroq, Rossiyaning oʻlkada rus-tuzem maktablarini ochib, rus tilini oʻrgatishga boʻlgan saʼy-harakatlari ommaviy tus olmadi. Xatto Samarqand va Fargʻona viloyatlarida bu maktablarni “kofir-tuzem” maktablari deb atay boshladilar. Shu bois 1917-yil 9-maydan 14-maygacha Toshkent shahrida boʻlib oʻtgan oʻlka oʻqituvchilarining birinchi qurultoyi kun tartibiga Turkiston oʻlkasi aholisi uchun muhim boʻlgan rus-tuzem maktablarini tugatish va ular oʻrniga milliy maktablar tashkil etish masalasi kiritildi. Qurultoyda eski usul tarafdorlari va jadidlar oʻrtasida tortishuv avj oldi. Qizgʻin muzokaralardan soʻng, Turkistonda milliy maktablarni tashkil etish toʻgʻrisida qaror qabul qilindi”[9.– B. 92-93].

Turkiston jadid taraqqiyparvarlari Gaspirali Beyning gʻoya va qarashlarini, millat hamda jamiyat rivojida hissasi katta ekanligini tushunib, oʻlka mahalliy aholisi shuuriga singdirishga harakat qilganlar. Mahmudxoʻja Behbudiy “Tarjimai holi” ga Hoji Muin yozgan “Bosh soʻzi” da quyidagi fikrlarni bildirgan: “Biz, Turkiston turklari, bugungi muhtasham... Madaniyatimiz soʻngidan keyin, soʻnggi asrlarda har bir jihatdan juda chetda qoldik. Madaniyatimiz va maorifimiz xarob, davlat va hukumatimiz barbod boʻldi. Oʻzimiz Yevropa jahongirlarining asoratida qoldik. Lekin soʻng boʻlsa ham gunoh va xatolarimizdan xabardor boʻla boshladik. Biroz uygʻonib ketdik. Bizda intibox davri 1901-yildan boshlandi”[5.– B. 33.].



Jadid harakatining ma'rifatparvarining shaxsiy tashabbuslari milliy siyosiy ong va tafakkurning jiddiy o'sishiga, o'lkada ijtimoiy-siyosiy harakatlar avj olishi bilan an'anaviy qarashlarni inkor etadi. Chunki dehqonlar milliy ozodlik harakatida yetakchi kuch bo'lolmasligi, ular o'z maqsadlarini oxirigacha olib borolmasligi haqidagi bolshevistik qarashlar jadidlar harakatida o'z isbotini topmadi. Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik kurashi Rossiyadagi siyosiy jarayonlar bilan bog'liq holda rivojlangan. Turkiston general-gubernatori A.N. Kuropatkin chorizmni o'zga xalqlarga "katta og'a" nuqtayi nazaridan milliy birlikni tobelikka bo'ysundirmoqchi ham bo'lgan. Biz fikrimizni Rossiya xalqlarining otasi davlatpanoh imperator hazratlari ekanligi, "Bu barcha elatlar ona-buyuk Rossiyaning farzandlaridir. Ammo bu ko'p sonli oilada ruslar boshqalarga nisbatan og'a bo'lishi lozim", — degan iddaolar qilgan[6. –B. 46]. Bu hol milliy birlik va siyosiy hokimiyat masalasini zaruriyatga aylantirdi.

Jadidlar esa Turkiston o'lkasi Rossiya tarkibidagi federativ jumhuriyat g'oyalarini nazariy jihatdan isbotlab, xonlikning tiklanishi ichki xalq qo'zg'oloniga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Milliy birlikni ta'minlashda jadidlar bo'lajak milliy davlat shariat an'analariidagi ijtimoiy boshqaruv tipini yoqladilar[4. – B. 64].

Milliy davlatni barpo etishda "Sho'roi Islomiya", "Sho'roi Ulamo", "Turk Adami Markaziyati" kabi siyosiy firqaviy tashkilotlar faol ishtirok etdi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi Skobelev (hozirgi Farg'ona) shahrida "Turk Adami Markaziyati" partiyasi ommani milliy davlatchilik g'oyasi bilan to'la siyosiy kurashga tayyorlagan. Bu partiya a'zolari 1917-yil 11-sentyabrda Turkistonning milliy davlatchiligining tasavvurlari maromnomasini tayyorlashga erishgan. Ushbu maromnomani tayyorlashda o'lka jadidlari qatorida farg'onalik jadidlaridan: Mullo Nuriddin A'lam Yo'ldoshxo'ja eshon o'g'li (Andijon), Mullo Muhammadjon Kamoljonboyev (Andijon), Mirzo Abdulqodirbek Qushbegiyev (Andijon), Mullo Boqi Oxund Odilboy o'g'li (Andijon), Mullo Obidjon Mahmudov (Xo'qand), Mullo Kamoliddin qozi Rahmonberdi o'g'li (Xo'qand), Mir Odil Mirzo Ahmad o'g'li (Skobelev) kabi taraqqiyparvarlar o'z hissalarini qo'shdilar[15. –B. 8.]. Shu ma'noda siyosiy harakatda siyosiy birlik bo'lmaganidan maqsadlarda ziddiyatni ham kuzatish mumkin.

Jadid taraqqiyparvarlari Turkistonda milliy muxtoriyatning tashkilida navbatdagi qurultoyini belgilab, 1917-yil 26-noyabrda Qo'qon shahridagi "Sho'roi Islomiya" qarorgohida Butun Turkiston musulmonlarining 4-qurultoyini chaqirdilar. Uning qurultoyida millatlararo munosabatlar ijobiy yo'lga qo'yilib, Qo'qonlik mashhur taraqqiyparvar Obidjon Mahmudov bo'lajak muxtoriyat boshqaruv tizimi bo'yicha fikrini quyidagicha izohladi: "...hay'atga saylovlarda viloyat va ayrim diniy hamda milliy guruhlar bo'yicha emas, balki bilimdon va ishchan kishilarini tanlash asosida kiritish"[2. B. 127].

Ular Muxtoriyatning siyosiy tuzilmasini qurultoy ishtirokchilari fikr-mulohazalarini 27-noyabr kuni qurultoy hay'atiga ochiq ovoz berish yo'li bilan 13 kishi saylandi. So'ng Muxtoriyat kelajagini bayon etuvchi "Yashasin, Turkiston Muxtoriyati" g'oyasidagi deklaratsiya qabul qilindi. Unga ko'ra, Turkiston Muxtoriyati demokratik Rossiya jumhuriyati tarkibidagi hududiy avtonomiya deb e'lon qilindi. 28-noyabr kuni yangi milliy davlat "Turkiston Muxtoriyati" deb e'lon qilindi.

Turkiston Muxtoriyati Xalq Majlisi tarkibi 54 kishidan: musulmonlardan 32 kishi, shahar va mahalliy boshqarmalardan 4 kishi, yevropalik tashkilot a'zolari uchdan bir o'rin, ya'ni 18 kishidan tarkib topdi. Xalq Majlisiga saylangan musulmon vakillari tarkibi quyidagicha belgilangandi: "Ubaydulla Xo'jayev, Mustafo Cho'qayev, Obidjon Mahmudov, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Sadriddinxon Sharifxo'jayev, Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, Islom Shagiahmedov, Yurali Agayev, Abdurahmonbek O'razayev, Qo'ng'irxo'ja Xo'jaqulov, Sherali Lapin, Ismatulla Ubaydulin, SaidJa'farboy Saidov, Mirodil Mirzoahmedov, Toshxo'ja Ashurxo'jayev, Abdulqodirbek Qo'shbekov, Jamshidboy Qoraboyev, Gersfeld Solomon Abramovich, Abdusamad Abdusalimov,



Abaydulla Darbisalin, Muso Aqchurin, Mustafo Mansurov, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ibrohim Davletshin, Muhammadjon Tanishboyev, Xalil Shirinskiy, Tolibjon Musaboyev, Alixonto'ra Shokirxonto'rayev, Sobirjon Yusupov, Komil Rahmonberdiyev, Odiljon Umarov kabilar edi"[10].

Mazkur siyosiy voqealarning talqinidan xabar topgan Farg'ona vodiysi ulamolari tezlik bilan vaziyatni muhokama qilishdi. Toshkentga Qo'qonlik Mullo Kamol qozi va farg'onalik domullo Qosimxon qozilar vakil qilinib, Umumturkiston milliy ittifoqidan ajralmaslikka chorlovchi murojaatnoma yuborildi. Murojaatnomada "Rus zolimlaridan halos bo'lmak uchun Turkiston ahlining vakillari Muxtoriyat e'lon qildilar. Shunday muhim va mas'uliyatli vaziyatda biz ixtilof holatida bo'lishimiz yaxshi emasdur. Muborak vatanimizning va dinimizning salomatligi ittifoq va ittihoddadir" — mazmunida birdamlik g'oyasi ilgari surilgandi. Farg'ona ulamolari toshkentliklarni Qo'qonda tashkil etilgan Turkiston Muxtoriyatidan ajralmaslikka chorlab, hadisdan misollar keltirib, musulmon ummati birlik mazmunidagi fikrlarini bildirdilar[2. –B. 143].

Turkistonda milliy muxtoriyatning tashkil topishi va uning o'lka aholisi manfaatlariga ma'qul keluvchi siyosatni olib borishi bolsheviklar tomonidan yomon munosabatda kutib olindi. Bolsheviklar o'z maqsadlariga erishish, ya'ni hokimiyatni to'la qo'lga olish uchun o'ta qabih ishlardan ham qaytmadilar. "Turkistonda bolsheviklar qurol kuchi bilan boshqarishni o'z qo'llariga olib barcha ishlarni soldat va ishchilar qo'llariga topshira boshladilar. Turkistondagi barcha milliy mahkamalar tugatildi. Shahar Dumasini tugatib, sud ishlari to'xtatildi. Bularning o'rniga oddiy rus soldat va ishchilaridan "jamoat hukmi" degan "yangi sudlar" tashkil qilinadi, mahalliy aholining yerlarini qurol kuchi bilan tortib olib, bolsheviklar o'zlari yer qo'mitalari tuzib, Turkiston yerlarini yersiz rus krestyanlariga olib bera boshladilar. Bolsheviklarning fikriga qo'shilmagan hukumat muassasalari va boshqa milliy jamoat idoralarining barchasi faoliyati to'xtalib, ularning o'rniga rus soldat, ishchi va krestyanlardan tayinlay boshladilar"[7. –B. 54]. Bolsheviklar qanday yo'l bilan bo'lsa ham, Turkiston Muxtoriyatini tugatishni o'z oldidagi eng asosiy maqsad qilgandi. Shu maqsadda ular Muxtor hukumatga bajarib bo'lmas shartlarni qo'ygan. 1918-yil 18-fevral kuni muzokaralar paytida Muxtoriyatda siyosiy to'ntarish bo'lib o'tdi.

Turkiston Muxtoriyatining tugatilishi erksevar jadid taraqqiyparvar va ulamolarining intilgan maqsadlaridan qaytara olmadi. Ular bolsheviklar tazyiqi kuchli bo'lgan sharoitda ham, Farg'ona vodiysidagi istiqlol harakatiga bosh-qosh bo'ldilar. Ularni zolimlarga qarshi kurashda doimiy tarzda ruhlantirib, moddiy va ma'naviy yordamlarini ayamadilar. Farg'ona jadidlarining dastlabki jiddiy harakati 1918-yil mart oyi so'nggi kunlarida Farg'ona jadid taraqqiyparvarlari va ulamolaridan tarkib topgan "Sho'roi Islomiya" va "Sho'roi Ulamo" jamiyatlarining tashabbusi bilan Qo'qonning Bachqir qishlog'iga qo'rboshilar qurultoyini uyushtiradilar. Bu qurultoydan asosiy maqsad Farg'ona vodiysida ozodlik uchun kurash boshlagan istiqlolchilik harakati rahbarlarini yagona ittifoqqa birlashtirish edi. Qurultoy qaroriga ko'ra, Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatining umumiy rahbari etib Katta Ergash saylandi. Madaminbek va Shermuhammadbeklar uning o'rinbosarlari etib tayinlandilar[13. –B. 111.]. Jadidlar Turkistonda yashovchi barcha millat vakillarini birlashtirish, ularning hamjihatligi g'oyasi tarafdori edi. Bu g'oya meros tarzida "bosmachilik" deb atalgan istiqlolchilik harakatiga o'tib, ularning shiorlaridan biri bo'ldi. Sho'ro hokimiyati siyosatidan xafsalasi pir bo'lgan ko'pgina jadidlar ham bu harakatga qo'shilgan edi[1. –B. 59.].

Farg'ona jadid ziyolilari istiqlolchilik harakati rahbarlari bilan yaqindan aloqa o'rnatdilar. "Turkiston Muxtoriyati hukumatining xalq maorifi vaziri, Namangandagi "Sho'roi Islomiya" tashkilotining rahbari Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayev, hukumat xazinachisi Saidnosir Mirjalilov, Turkiston Millat Majlisi a'zolaridan Olimxonto'ra Shokirxonto'rayev, Obidxon Umarov va Toshkent muftisi Sadridin Sharifxo'jayev kabilar istiqlolchilar bilan aloqa o'rnatishdi. Ular Farg'ona vodiysidagi aholi orasida va qo'rboshilardan Shermuhammadbek, Rahmonqul, Parpi yigitlari ichida



bo'lib, mujohidlarni sovet hokimiyatiga qarshi kurashga safarbar qilishda muhim rol o'ynadilar"[3. –B. 26.]. Shuningdek, Turkistonda, xususan, Farg'ona vodiysi istiqlolchilik harakati namoyandalari tarqoq holda harakat olib borishsa-da, lekin ular yagona maqsad sari, ya'ni islom shariati qonun-qoidalari asosidagi milliy davlatni qaror toptirish, milliy demokratik tartibidagi mustaqil davlat tashkil etish g'oyalarini o'zlariga shior qilgandilar.

Farg'ona vodiysida o'zining milliy davlatini tuza olgan yirik istiqlolchilardan biri Shermuhammadbek edi. Shermuhammadbek ayni damda bolsheviklarga qarshi kurashda jadid taraqqiyparvarlari bilan keng hamkorlikni yo'lga qo'ygan edi. Farg'ona istiqlolchilar harakatining yo'l boshchisi Namanganlik Nosirxonto'ra Kamolxonto'rayevni o'ziga pir deb e'lon qilib, 1919-yil oxirlari Nosirxonto'ra bolsheviklar tomonidan qamoqqa olingunga qadar, sovet qo'shinlari haqida doimiy ma'lumot va maslahatlar olib turgan. Shermuhammadbek 1920-yil 3-mayda Farg'ona vodiysidagi barcha istiqlolchilik harakati rahbarlari o'rtasida qurultoy o'tkazib, Turkiston Islom Muvaqqat hukumatini tuzadi. Hukumat tarkibi 6 kishidan iborat qilib belgilanadi. Shuningdek, Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatini rivojlantirish masalalari bo'yicha 14 kishidan iborat harbiy maslahat mahkamasini joriy etadi[1. –B. 60.].

Xulosa. Jadidchilar fevral inqilobidan keyin, mahalliy aholini o'lkadagi saylovlarda faol ishtirok etishga chaqirdi. Chunki ular Turkistonni uning xalqisiz mustaqil qilib bo'lmashligiga ishonardi. Shu sababli, taraqqiyparvarlar keng ko'lamli tushuntiruv va chorlov ishlarini, saylov paytida, xalq orasida olib borishdi;

Bolsheviklarning jadidchilar, aholining qonunlari va talablari bilan hisoblashmasdan, ish olib borganliklari sabab, sobiq sovet tuzumiga qarshi kuchlarni birlashishiga va Farg'ona vodiysida umumxalqning talabi, orzu intilishlari bilan Turkiston Muxtoriyati vujudga keldi;

Milliy Muxtoriyatning Farg'ona vodiysida tashkil topishida, birinchidan, bolsheviklarning Toshkentda jadid ziyolilariga siyosiy tazyiqi bo'lsa, ikkinchidan, farg'onalik jadidlarning harakatlari va maqsadlari Turkiston jadidlari o'rtasida muhim o'rin tutardi. Uchinchidan, Farg'ona vodiysi strategik jihatdan qulay hududda joylashgan bo'lib, uning aholisi o'lkaning boshqa hududlariga nisbatan siyosiy jihatdan milliy davlatni vujudga keltirishga tayyor edi;

O'lkaga mustahkam o'rnatib olgan bolsheviklarning tajovuzkorlik siyosati oqibatida, himoyasiz Turkiston Muxtoriyati barbod etildi. Bu esa ularga qarshi o'lkada qurolli ozodlik uchun kurashni vujudga keltirdi. Jadid taraqqiyparvarlari milliy ozodlik kurashida muhim o'rin tutib, uzoq va ta'sirli kurash izlarini qoldirishga erishdilar.

Jadidlar va ulamochilar o'rtasidagi o'zaro raqobat va kelishmovchilik holatlari sovet rejimiga qarshi qurolli kurashning yagona mafkurasini ishlab chiqishga halal berdi. Jadidlarning demokratik davlat qurish g'oyalari bilan ko'plab ulamolarning islom davlatini qayta tiklash haqidagi da'vatlari qo'rboshilar o'rtasida ham kuchli tortishuvlar, hatto ayrim ziddiyatlarga sabab bo'ldi. Qurolli kurash harbiy rahbarlarining siyosiy ongi ham bir xil darajada bo'lmaganligini unutmaslik lozim. Pirovardida, bu salbiy holatlar harakatning mag'lubiyatga uchrashiga olib kelgan omillar sirasiga ham kirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

17. Alimova D. Xaqiqatning tutash manzili.T.:Tafakkur. -2000.-№2.-B.-59.
18. A'zamxo'jayev. S. Turkiston Muxtoriyati... -B. 127.
19. Davriy to'plam 1999 175- bet, Rajabov. Q. I. Jadidlar- istiqlolchilik harakatining g'oyaviy rahnamolari // Jamiyat va boshqaruv. 2002. -№3. –B. 26.
20. Do'stqorayev B. Turkistonning usuli idorasi qanday bo'lmog'i kerak edi? // Jamiyat va boshqaruv. -1998. -№1. –B 64.
21. Karimov E. Mustaqillik va jadidlar xarakati.T.:Muloqot.-1998.-№4.-B. 33.



22. Majid Xasaniy. Turkiston bosqini. Toshkent: Nur, 1992. –B. 46.
23. Mingnorov. Turkistonda 1917- 1918-yillardagi milliy siyosiy tashkilotlar (Milliy matbuot materiallari asosida)... –B. 54
24. Muxtoriyatli Turkiston muvaqqat xalq sho'rosi // El Bayrog'i. -1917. -22-dekabr.
25. Oripova M. Turkistonliklar savodsizmi. Tafakkur. 2004. — B. 92-93.
26. Qo'qon muvaqqat xalq sho'rosi hay'ati // Ulug' Turkiston. -1917. -8-dekabr.
27. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylilik... –B. 186.
28. Rajabov Q. Mustaqil Turkiston uchun mujodalalar // Jamiyat va boshqaruv. 1998. -№4. –B. 60.
29. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi... –B. 111.
30. Turdiyev Sh. Ismoilbek Gaspirali va Turkiston ziyolilari // Jamiyat va boshqaruv. -2001. -№2. – B. 35.

Қўзиев Ғайрат Собитович

Наманган давлат университети

Таянч докторанти

ЭТНОСОЦИАЛ ОМИЛЛАР ВА ИНСОН КАПИТАЛИ РИВОЖИ

Аннотация: Мақолада инсон салоҳиятини тавсифлашда “фаолият” ёндашуви ва шунинг асосида шахс ҳамда жамоаларнинг эҳтиёж, қобилият каби ижтимоий роль ва функцияларни бажаришга тайёрлик тизими таҳлил этилади. Инсон салоҳиятининг асосини “қобилият”, қобилиятнинг асосини эса “эҳтиёж”лар ташкил этар экан, унда капитал категорияси “ихтиёр этиш”, яъни эҳтиёж ва қобилиятни ҳаракатга келтирувчи механизм сифатида гавдаланади. Шунингдек, ҳозирги даврда инсоний ва жамоавий хусусиятларнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатларини изоҳлашда уларнинг эҳтиёжлар капиталини асоси бўлган “сотиб олиш” (моддий жамғарма, билим, ижтимоий алоқалар, нуфуз) функцияси, ҳамда иқтисодий ресурс (манба)лар, яъни кўчмас мулк, акция, хусусий бизнес кабиларнинг нимага ёки қайси томонларга йўналтирилганлиги замонавий тенденцияларни ўзида ифодалаган социологик таснифлар билан тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: глобаллашув, инсон капитали, пандемия, қобилият, инвестиция, урбанизация, трансформция, компонент, меҳнат, ижтимоий алоқа, ижтимоий салоҳият, касбий маҳорат, стереотип, ижтимоий ҳаракат.

Кириш. Бугунги глобал интеграция ва рақамли трансформация шароитида дунёда кечаётган глобаллашув жараёнлари, шу билан бирга, этник ва демографик мувозанатдаги ўзгаришлар ижтимоий фанлар учун долзарб тадқиқот йўналишларидан бирига айланмоқда.

Халқаро миқёсда урбанизация ва миграция жараёнларининг кучайиши халқлар ўртасидаги маданий интеграция билан бир қаторда ассимиляция жараёнларини тезлаштирмоқда, натижада этник хилма-хиллик, демографик маргиналлик ва ижтимоий тенгсизлик каби янги ижтимоий муаммолар вужудга келмоқда. Шу шароитда миллий ва этносоциал хусусиятлар асосида инсон капитали моҳиятини, унинг ривожланиш тенденциялари ва ижтимоий барқарорлик билан боғлиқ омилларини ўрганиш долзарб аҳамият касб этмоқда.



Жаҳоннинг етакчи тадқиқот марказлари ва университетларида “инсон капитали” муаммоси этносоциал ва миллий идентиклик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда илмий изланишларнинг марказий объектига айланмоқда. Халқаро миқёсда инсон капиталини такомиллаштиришга доир меҳнат бозорининг самарали ишлаш механизмларини жорий этиш, демографик ва этник омилларнинг урбанизация жараёнларига таъсири, аҳоли зичлиги ва ҳудудий хусусиятлар билан боғлиқ ижтимоий муаммоларни таҳлил қилиш каби тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ижтимоий-иқтисодий ҳодисаларни таҳлил қилишда функционал ёндашув муҳим аҳамиятга эга бўлиб, бу нуқтаи назардан инсон капитали турмуш шароитини яхшилашга жалб этилган инвестициялар натижасида шаклланидиган, инсон тажрибаси орқали тўпланидиган ва жамият эҳтиёжларига йўналтирилган соғлиқ, билим, кўникма, қобилият ҳамда мотивлар тизими сифатида намоён бўлади. Шу жиҳатдан, айниқса 2020 йилдан бошлаб бутун инсоният дуч келган пандемия шароитида инсон капитали тушунчасига бўлган қизиқиш янада ортиб, унинг аҳамияти янги босқичга кўтарилди.

Ҳар қандай имконият ва салоҳият муайян эҳтиёжни қондиришга қаратилган фаолиятда ўз аксини топади. Шу боис инсон фаолиятининг барча соҳаларида **инсон капитали асосий ресурс сифатида** намоён бўлади. У ўз таркибида қатор ижтимоий-биологик яхлитлик компонентларини камраб олади: **демографик, соғлиқни сақлаш, таълим, меҳнат, маданий, фуқаролик, маънавий-ахлоқий ҳамда ахборот салоҳияти компонентлари** шулар жумласидандир.

Ҳар бир компонент муайян ижтимоий фаолият турига мос келади. Масалан, демографик компонент янги авлод учун ижтимоий капитал шаклланишида муҳим рол ўйнаса, соғлиқни сақлаш компоненти жамиятнинг жисмоний ва руҳий саломатлигини таъминлашга қаратилган тизимни белгилайди. Таълим компоненти эса билим ва тажриба орқали жамият тараққиётини таъминлайди, меҳнат компоненти моддий неъматлар ишлаб чиқариш ва ижтимоий хизматлар кўрсатишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга бўлади.

Инсон капитали ривожига муҳим омиллардан бири – демографик асос билан боғлиқ ижтимоий муҳитдир. Бу муҳит шахс ва жамоаларнинг ҳудудий элементларини, авлоддан авлодга ўтадиган ворисийлик тизимини белгилайди. **Соғлиқни сақлаш компоненти** эса узок йиллар давомида сифатли тиббий хизмат ва саломатлик маданиятини шакллантириш орқали инсоннинг жисмоний ва маънавий имкониятларини оширишга хизмат қилмоқда. Айниқса 2020 йилда COVID-19 пандемияси даврида соғлом турмуш тарзи ва саломатлик **инсон капиталидаги энг муҳим қадрият** сифатида намоён бўлди.

XX асрнинг 80-йилларидан бошлаб таълим ижтимоий капиталнинг асосий бўғини сифатида эътироф этилди. Таълимга катта сармоя йўналтирган мамлакатлар бугунги кунда илмий-инновацион тараққиётда етакчи ўринни эгалламоқда. Социологик нуқтаи назардан таҳлил этилганда, таълим капитали юқори бўлган ҳудудлар ижтимоий ривожланишда илгарилаб кетгани кузатилади. Бу ҳолатни Ўзбекистон мисолида ҳам яққол кўриш мумкин: айрим ҳудудларда турмуш даражасининг юқорилиги айнан таълим капиталига қаратилган сармоя ва эътибор даражаси билан белгиланади.

Шу тариқа, **инсон капитали – жамият тараққиётининг бош мезони**, унинг ижтимоий барқарорлиги ва иқтисодий ўсишининг асосий омили ҳисобланади. Этносоциал жараёнларда инсон капитали ривожланишини ўрганиш, унинг ижтимоий мониторингини амалга ошириш ва тенденцияларини таҳлил қилиш келгусида барқарор ривожланиш сиёсатини белгилашда муҳим илмий аҳамият касб этади.



Демографик сакрашга туртки берадиган яна бир омил “меҳнат” компоненти ҳисобланади. Меҳнат – бу шахслар ва жамоаларнинг индивидуал, ижтимоий аҳамиятга эга бўлган маҳсулот ва хизматларни яратадиган фаолият тури саналади.[4. 10] У инсонларда нафақат бандлик масалаларини, шунингдек онг ва тафаккурдаги ривожланишни, янгича дунёқарашлар шаклланишини ҳам таъминлайди. Меҳнат салоҳияти нафақат инсонлар ва жамоаларнинг ихтиёрий соҳаларга ихтисослашувини, шунингдек ижтимоий-маданий муҳитни ҳам белгилаб беради. Меҳнат компоненти шахснинг хулқ-атвор ва фикрлаш доирасини, моддий ва маънавий қадриятлар дунёсини такомиллаштириб боради.

Инсон капиталини шакллантириш ва уни амалга оширишда муҳим аҳамиятга эга бўлган омиллардан бири – **фуқаролик компоненти** ҳисобланади. Бу компонент шахснинг ўз мамлакати фуқароси сифатидаги бурчи, жавобгарлик ҳисси, ижтимоий муҳитдаги фаоллиги ва сиёсий-ҳуқуқий муносабатлардаги иштироки орқали намоён бўлади. Фуқаролик позициясини фаол ифода эта олиш, Ватан манфаатларини ҳимоя қилиш, хавфсизликни таъминлаш, белгиланган ахлоқ қоидаларига амал қилиш ҳамда социумдаги ижтимоий ва маънавий муаммоларни таҳлил этиш фуқаролик салоҳиятининг асосий кўрсаткичларидандир.

Фуқароларнинг маънавий-ахлоқий салоҳияти ҳақида фикр юритилганда, жамиятда қабул қилинган меъёрлар, қадриятлар ва инсонлараро муносабатларни тартибга солиб турувчи қоидалар тизимининг уйғунлигига алоҳида эътибор қаратиш зарур. Шу нуқтаи назардан, инсон капиталининг самарали фаолият кўрсатиши учун уч асосий салоҳият тури ажратилади:

а) шахс ва жамоанинг эҳтиёжлар, қобилиятлар ва ижтимоий ҳаётни қўллаб-қувватлаш тизими;

б) эҳтиёж, малака ва салоҳият мажмуаси;

в) одатий ҳаёт фаолияти тизими.

Турли ижтимоий шароитларда шахс ёки жамоалар ўз эҳтиёжлари ва имкониятларига таянади, мавжуд заҳиралардан унумли фойдаланишга интилади. Инсон ҳаёт тарзидаги ҳар бир ўзгариш, унинг эҳтиёжлари ва қобилиятларига таъсир этади. Шу сабабли инсон доимо турли ҳолатларга мослаша олиш қобилиятини ривожлантириши зарур. Бизнинг фикримизча, инсон салоҳиятидаги ўзгаришларнинг асосий механизми – бу **ўзаро муносабатлар тизимидаги алоқалар ва реал ижтимоий жараёнлардаги фаол иштирок** билан белгиланади.

Афсуски, анъанавийлик билан замонавийлик кесишувида турган жамиятларда ўзгаришлар тез содир бўлади ва бу ҳолат нафақат руҳий муҳитга, балки инсон капиталининг ижтимоий тузилмасига ҳам таъсир кўрсатади. **Ижтимоий капитал**нинг шаклланиш жараёнида эҳтиёжлар, қобилиятлар ва муносабатлар ўртасидаги боғлиқликнинг заифлашиши инсон салоҳиятининг сусайишига, баъзан эса деформацияга олиб келиши мумкин. Шу боис, капитал шаклланишига хизмат қилувчи тизимларни мустаҳкамлаш, уларнинг барқарорлигини таъминлаш жамиятнинг ижтимоий бойишида ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Ҳар қандай жамиятдаги капитал тизимлари ва қуйи тармоқлар **иқтисодий барқарорлик** билан чамбарчас боғлиқ бўлади. Иқтисодий ўсиш жамиятнинг ижтимоий-биологик муҳитини белгилайди, унинг фаоллигини оширади ва инсон салоҳиятининг ривожланиши учун зарур шарт-шароит яратади.

Эндиликда эътиборни инсон капиталининг яна бир муҳим таркибий қисми – **ижтимоий компонентга** қаратамиз. Тадқиқотчилар жамоа, аҳоли, этник гуруҳ ёки миллат тушунчаларини таҳлил этар эканлар, уларнинг инсон ва шахс билан ўзаро муносабатларига эътибор қаратадилар. Бироқ бу муносабатларни инсон капитали билан боғлаб турувчи ижтимоий механизм масаласи кўп ҳолларда етарлича ўрганилмаган.



Бизнинг фикримизча, ҳар қандай жамиятда инсон капиталининг барқарорлиги ва ривожланиши унинг ички ижтимоий муносабатлар тизимида намоён бўлади. Масалан, маълум бир маҳаллада инсон капитали қай тарзда бирлашади? Бу, аввало, унинг ички барқарорлигига, ташқи салбий таъсирларга қарши тура олиш қобилиятига, ўзини ўзи бошқариш ва ривожлантириш имкониятига, ҳамда фуқароларнинг жипслигига боғлиқ.

Ижтимоий муносабатларнинг ушбу компонентлари жамоада инсон капиталини белгилайдиган ва уни ривожлантирувчи омиллар ҳисобланади. Инсон капиталининг ҳар бир қисми ижтимоий муҳит билан ўзаро боғлиқ ҳолда шаклланади ва уни қўллаб-қувватловчи механизмлар орқали намоён бўлади. Бу жараёнда эҳтиёж ва салоҳият каби омилларни бирлаштирувчи **“ижтимоий алоқа маркази”** муҳим ўрин тутати. У инсон капиталининг таркибий қисмларини боғловчи, мувофиқлаштирувчи ва жамият барқарорлигига хизмат қилувчи асосий тизим сифатида фаолият юритади.

Ижтимоий алоқалар турли хил ижтимоий субъектлар, ташкилотлар, муассасалар ўртасида стандартлаштирилган муносабат ва боғлиқликларни қайд этади. Замонавий социологиянинг “ижтимоий драматургия” йўналиши вакили Ирвинг Гофман инсонларнинг кундалик ҳаётидаги реал воқелик ва ҳаракатларни театрга қиёслар экан, ундаги ҳулқ атвор меъёрлари ижтимоий алоқалар таъсирида роллар ижро этишини таъкидлайди. Жамият фаолияти уни ташкил этувчи элементларнинг ўзаро алоқалари билан белгиланади. “Ижтимоий алоқалар – бу ижтимоий субъектларнинг ўзаро бажарган, амалга оширган ва яна англаган ёки англамаган, режалаштирилган ёки тасодифий, тақрорий ёки бир маротабалик алоқадорлигидир”.[10.327] Бир қатор омилларнинг ўзаро йиғиндиси таъсирида ижтимоий алоқалар индивидларнинг социал бирликлардаги ўзаро фаолиятини таъминлаб, уларнинг ўзаро биргаликдаги ҳаракатлари давомийлигини таъминлайди ва ривожлантиради.

Инсон капитали бевосита ўзаро алоқалар таъсирида шаклланиб борар экан, инсоний муносабатлардаги турларига эътибор қаратмоқчимиз. Демак, булар: а) ижтимоий ҳаракат; б) ижтимоий ўзаро ҳаракат; в) ижтимоий муносабатлар; г) ижтимоий назорат; д) ижтимоий ташкилот; е) ижтимоий институтлар.[3.402] Бу турлар бир томондан ижтимоий алоқаларнинг таркибий компонентлари сифатида намоён бўлса, иккинчи томондан инсон капиталига ўзаро алоқаларга киришиш орқали имконият яратади. Умумлаштирилган тарзда ижтимоий алоқалар социумда яна бошқа, ўзига хос кўринишларни келтириб чиқаради. Булар: а) ҳаётий кенгликдаги алоқалар; б) психологик алоқалар; в) ижтимоий (социал) алоқалар.

Юқоридаги фикр-мулоҳазалардан келиб чиқиб, инсон капиталига оид таркибий қисмнинг тўртта даражасини фарқлаб кўрсатиш мумкин: булар, а) шахслар; б) ижтимоий гуруҳлар; в) социум (йирик ижтимоий жамоаларнинг инсон салоҳияти орқали шаклланган тармоқ компоненти); г) давлат (мамлакат)нинг жами аҳоли бирлиги.[12.28] Танлаб олинган жамият ёки давлатнинг салоҳият бирлиги ва яхлитлиги биринчи навбатда унинг этник-ва миллий-маданий таркиби билан шаклланади, ҳаёт мазмуни таъминланади. Бунда яна бир муҳим компонент – профессионал, яъни касбий маҳорат қўллаб-қувватланиши лозим.

“Касбий маҳорат” компоненти биринчи навбатда ҳудуднинг ривожига муносиб ҳисса қўшса, унинг имконият ва салоҳияти мамлакатнинг тараққиётида ҳам ижтимоий-иқтисодий ўсишнинг тармоқ таркибий қисми сифатида қўллаб-қувватланади. Инсон капитали географик ва ижтимоий маконда ўз-ўзидан мавжуд бўшлиқда ўзгаришлар пайдо бўлишига сабаб бўлади. Заиф имкониятларни кучайтириш, тезлаштириш қобилиятини юзага келтиради. Мисол тариқасида биз Риштон кулолчилик мактаби ва унинг салоҳияти натижасида вужудга келган имкониятларни айтиб ўтишимиз мумкин. Собик иттифоқ пайтида бутунлай йўқ бўлиб кетиш арафасида турган ушбу касбий маҳорат маконининг қўллаб-қувватланиши нафақат одамларни



иш билан таъминлади, балки у туфали мамлакатнинг улкан туризм салоҳияти кенгайди. Сўнгги йилларда ҳукумат томонидан яратилаётган имкониятлар кучли инсон капитали омилини вужудга келтирди.

Касбий маҳорат мактабининг парчаланиши, эътибордан четга чиқиши табиий равишда ҳудуд имкониятларида бўшлиқни пайдо қилади. Бу эса мавжуд имкониятларнинг заифлашиши, социумдаги ижтимоий ролларнинг бузилишига олиб келади. Капитални яратувчи актор (иштирокчи) ва агент (ташувчи)лари фаолиятида деградация (парчаланиш)лар вужудга келиши ижтимоий ҳаракатсизлик билан боғлиқ бўлиб қолади. Энди фаолиятни тезлаштирувчи “ижтимоий ҳаракат” омилига тўхталиб ўтсак.

Ижтимоий ҳаракат – бу мавжуд индивид ёки гуруҳнинг ўзга индивидлар ёки гуруҳлар ҳаракатлари, қарашлари, фикрларини ўзгартиришга қаратилган хатти-ҳаракат ва воситалар тизими.[7.214] Ижтимоий ҳаракат асосини ижтимоий адолат ташкил этади. Адолатга эҳтиёж сезилган жой (ҳудуд)да маълум индивид ёки гуруҳ томонидан бошқа бир индивидлар ёки гуруҳларнинг ҳаракатлари, фикри ва қарашларини ўзгартиришга майллар пайдо бўлади. Мумтоз социология асосчиларидан бири М.Вебер, “инсон томонидан амалга оширилган барча ҳаракатларнинг мақсади бирор гуруҳ ёки индивиддаги ҳолатни ўзгартиришга қаратилган бўлмайди. Ижтимоий ҳаракат “ўзга”ларнинг ўтмиши, бугуни ва истикболдаги хатти-ҳаракатига йўналтирилган бўлади. У ўтмишдаги адоват учун қасос, бугуннинг мавжудлиги мумкин бўлган таҳдиддан ҳимояланиш, келажак учун кузатилаётган ҳавф-хатардан огоҳ бўлиб яшаш ҳаракатларини намоён қилиб умр ўтказди. “Ўзга” сифатида маълум бўлган бир инсон, бошқалар учун таниш ёки умуман нотаниш бўлган инсон сифатида намоён бўлиши мумкин”,[1.68] деб ёзади.

Ҳар қандай ҳаракат тизим сифатида бир қатор элементлардан ташкил топади. Ва булар қуйидагилардан иборат: а) ҳаракат субъекти (ҳаракатни амалга оширишга таъсир қилувчи индивид ёки гуруҳ); б) ҳаракат объекти (ҳаракатга йўналтирилган индивид ёки гуруҳ); в) ҳаракатга келтирувчи восита ва усуллар (ўзгартиришлар амалга оширилади); г) ҳаракат натижаси (ҳаракатга йўналтирилган гуруҳ ёки индивиднинг жавоб реакцияси).[5.40] Мазкур тузилма асосида тадқиқотчи ҳаракат ва ҳулқ-атвор ўртасидаги фарқни ажратиб олиши лозим бўлади. Ҳулқ-атворни ўрганишнинг ички ва ташқи омиллари мавжуд бўлиб, унда рефлексив хусусиятлар, жумладан англолмаган, режали жиҳатлар тез-тез учрайди. “Социология – деб ёзган эди М.Вебер, – бу ижтимоий ҳаракатларни тушуниш учун ижтимоий ҳаракат жараёнларини, унинг ўзаро таъсирини каузал (сабабий, сабаблар асосида) тушунтиришга интилади”. Буюк мутафаккир ижтимоий ҳаракатнинг англолганлик ва рационаллик даражасига кўра: а) мақсадли-рационал; б) қадриятли-рационал; в) аффеktiv ва г) анъанавий[1.71] турларга ажратиб кўрсатади.

Мақсадли рационал ҳаракат жараёнида мавжуд ҳаракатни амалга оширмоқчи бўлган шахс (гуруҳ, жамоа) томонидан ҳар бир ҳаракат жараёни аниқ белгилаб олинган бўлади. Мақсадга эришиш йўлида энг самарали воситаларга таянилади. “Ҳулқ-атворли мақсад ва воситаларнинг кутилиши мумкин бўлган салбий оқибатларига йўналтирилган оқибатларга бўлган муносабатларни рационал баҳолайдиган индивиднинг ҳаракати мақсадли-рационал ҳисобланади”.[8.24-25]

Инсон капитали инсон салоҳиятининг таркибий бир қисми сифатида эътироф қилинар экан, унда ижтимоий стереотипларнинг оммавий коммуникацион жараён сифатидаги ўрни сифатидаги аҳамияти алоҳида ўрин тутади. Ижтимоий стереотип – бу ижтимоий объект ёки ҳодисаларнинг жамоатчилик орасида кенг тарқалган ва нисбатан ўзгармас, ёки мустаҳкам хусусиятларга эга бўлган намунаси ҳисобланади.[7.381] Инсон, жамоа, гуруҳ ва ҳатто



социумда стереотипларнинг ўзгармаслик хусусияти жамият ҳаётида анъанавий қабул қилишлиликини, онг ва тафаккурдаги жипс ҳолатда сақланиб келаётган одатларнинг ҳаракатланишига боғлиқ бўлади. Айниқса жамоавийликка асосланган социумда инсонлар тафаккурининг ажралмас қисмига айланиб қолган ижтимоий стереотипларда ўзгалар устидан ҳукмронлик қилиш, уларни қаттиқ босим остида ушлаб туришга қаратилган одатлар устуворлик қилади. Бу эса табиийки, инсон капиталининг шаклланиши ва айниқса ривожланишида маълум даражада тўсиқ бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Вебер, Макс. Хозяйство и общество: очерки понимающей социологии [Текст]: в 4 т. / Макс Вебер; [пер. с нем.]; сост., общ. ред. и предисл. Л. Г. Ионина; Нац. исслед.ун-т «Высшая школа экономики». – М.: Изд. дом Высшей школы экономики, 2016 – С. 68-71
2. Докторович А. Б. Человеческий потенциал // Социальная политика: энциклопедия / под ред. Н. А. Волгина и Т. С. Сулимовой. М.: Альфа-Пресс, 2006. - С. 402
3. Заславская Т.Н. Человеческий потенциал в современном трансформационном процессе // Общественные науки и современность. 2005. № 3. С. 10
4. Ильин Е. Мотивация и мотивы. СПб.: Питер, 2003. – С. 40
5. Коулман Дж. Капитал социальный и человеческий // Общественные науки и современность. 2001. № 3. С. 122–139.
6. Новейший словарь иностранных слов и выражений. Минск: Современный литератор, - С. 214
7. Психология. Словарь. 2-е изд., испр. и доп. / под общей ред. А. В. Петровского, М. Г. Ярошевского. М., 1990. С. 381.
8. Социальное действие / Под.ред. Ю.А. Харина. – Минск: «Наука и техника», 1999. – С. 24-25
9. Социологический словарь. / [Сост.: А.Н.Елсуков, К.В.Шульга; науч.ред. Г.Н.Соколова, И.Я.Писаренко; ред.кол.: Г.П.Давидюк (отв.ред.) и др.]. – 2-е изд., перераб. и доп. – Минск: Университетское, 1997. – С. 327
10. Хилгартнер Стивен, Боск Чарльз Л. Рост и упадок социальных проблем: концепция публичных арен // Средства массовой коммуникации и социальные проблемы. Хрестоматия / сост. И. Г. Ясавеев. Изд. Казан. ун. Казань: 2000. С. 18–53.
11. Ходжсон Дж. Экономическая теория и институты. М., 2003. С. 345-359.
12. Sodirjonov M. M. Ethnosociological factors of social transformation in modern uzbekistan //актуальные вопросы формирования и развития научного пространства. – 2020. – С. 27-34.
13. Makhamadaminovich S. M. Ethnic Factors And Attitudes Towards Human Capital Development //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 118-130.
14. Sodirjonov M. M. On the coverage of ethnic processes in the information space //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 6. – С. 165-171.
15. Содиржонов М. М. БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ЭТНИК МУҲИТГА ТАЪСИРИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР //Ижтимоий фанлар. – 2020. – Т. 6. – №. 3.

**Mavlanov Xusanboy Abdurohim o'g'li**

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Tarix yo'nalishi 1- kurs magistri

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLAR VA INTELLEKTUAL SALOHİYAT UYG'UNLIG

Annotatsiya: Taraqqiyotning hozirgi bosqichi ijtimoiy, iqtisodiy jarayonlarning murakkab uzviy aloqadorligi asosida yuz bermoqda, buning oqibatida jamiyatda ijodiy fikrlovchi, intellektual rivojlangan shaxslarga nisbatan ehtiyoj ortib bormoqda. Ushbu maqolada intellektual salohiyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarning ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: salohiyat, intellectual salohiyat, inson kapitali, mentalitet, ma'naviyat, qadriyat, tarbiya, ta'lim, madaniyat, madaniy meros.

Kirish. Jahon intellektual imkoniyatlarini birlashtirish, inqiroziy hodisalar yechimini topish va bu jarayondan muvaffaqiyatli chiqishga yo'naltirishni taqozo qiladi. Biroq hozirgi zamon jahon hamjamiyatining eng tahlikali muammosi bu-insoniyatning bugungi tamadduni muhitida kechayotgan ijtimoiy, oilaviy, turmush tarzi shart-sharoiti va ahvoli hisoblanadi. Binobarin, ijodkor - insonning borgan sari iste'molchi - insonga aylanib borayotganligi tashvishlidir. Tabiiyki, global inqirozni bartaraf etish global xarakterga egadir. Bugungi lokal muammolarning jahon hamjamiyati bilan bog'lanib murakkablashib ketganligini to'g'ri tushunib va anglagan holda ularni hal qilish imkoniyatlarini topishimiz mumkin. Binobarin, jamiyatni o'zgartirish uchun yuksak intellektual salohiyatli insonlar zarurligini e'tirof etish, insonni tarbiyalamoq uchun esa jamiyatni o'zgartirish taqozo qilinadi.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy globallashuv davrida har bir jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, ilmiy-texnik salohiyati va ma'naviy barqarorligi, avvalo, uning intellektual resurslari bilan belgilanadi. Intellektual salohiyat – bu insonning bilim, tafakkur, ixtirochilik va ijodkorlik imkoniyatlarini o'zida mujassam etuvchi ijtimoiy hodisa bo'lib, u millatning ma'naviy kuchini, ma'rifat darajasini va taraqqiyot yo'nalishini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu ma'noda, intellektual salohiyatni shakllantirish jarayoni jamiyatning milliy qadriyatlari, ma'naviy an'analari va tarixiy tajribasi bilan uzviy bog'liqdir.

Milliy qadriyatlar inson tafakkurining, ijtimoiy ongning va ma'naviy madaniyatning poydevorini tashkil etadi. Ular xalqning tarixiy xotirasi, urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlari hamda axloqiy me'yorlarini o'zida aks ettiradi. Milliy qadriyatlar nafaqat ijtimoiy birlashuvning asosi, balki intellektual rivojlanish uchun zarur motivatsion manbadir. Inson o'z milliy ildizlari, madaniy merosi, tili va diniga nisbatan g'urur hissi bilan yashar ekan, u o'z bilim va salohiyatini jamiyat farovonligi yo'lida safarbar etishga intiladi.

O'zbekiston misolida intellektual salohiyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarga tayanish jarayoni mustaqillik yillarida yangi mazmun kasb etdi. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati kabi qadriyatlar davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi. Bunda milliy qadriyatlarning zamonaviy ta'lim tizimi, innovatsion tafakkur va intellektual iqtisodiyot bilan uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat intellektual salohiyatining indeksi turmush sifatining muhim indikatorini xisoblanadi. Jamiyatning intellektual salohiyati aholi ma'lumotining darajasi va mamlakatdagi fanning rivojlanishini aks ettiradi. Intellektual salohiyat indeksini hisoblab chiqishda katta yoshdagi aholi



ma'lumoti darajasi, aholi umumiy sonida studentlarning salmog'i, yalpi ichki maxsulot hajmida ta'lim uchun xarajatlarning ulushi, ish bilan bandlar umumiy sonida fan bilan shug'ullanayotganlar va fanga xizmat ko'rsatayotganlar salmog'i, yalpi ichki mahsulot hajmida fanga xarajatalar salmog'i hisobga olinadi[5. –246 B.].

Qadriyatlar jamiyat rivojining negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga o'tkazuvchi qudratli omildir. Tarixiy taraqqiyot bosqichlariga nazar tashlar ekanmiz, har bir jamiyat, davlat o'zining milliy qadriyatlarini rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib taraqqiy etmagan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 19-yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat", – deb e'tirof etdilar. "Bugungi kunda dunyoda innovatsion g'oyasiz, ilm fan yutuqlarisiz birona sohaning rivojlanishi mumkin emas" [1. – B.85]. Shu nuqtayi nazardan shaxsda innovatsion intellektual salohiyatni shakllantirish va rivojlantirish usullarini ijtimoiy falsafiy jihatdan tadqiq etish hamda ilmiy nazariy ahamiyatga ega bo'lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ma'naviy madaniyat tushunchasi ancha keng bo'lib, ong, tarbiya, maorif, etika va estetik sohalarini qamrab oladi. Mafkura, fan, axloq, adabiyot va san'at tadriji rivojlanuvchan hodisaning turli shakllarini tashkil qiladi. Tafakkur esa ma'naviy madaniyat tarkibiy qismlaridan biri, lekin unga teng emas, albatta.

Shu bois bu yerda Intellektual salohiyatasosini tashkil qiluvchi omil sifatida intellektni tahlil qilishga ehtiyoj sezamiz. Bunda intellekt Intellektual salohiyatfenomeni sifatida muayyanlik kasb etishini tavsiflashga yordam beradi.

Intellekt o'z mazmuni bilan tafakkurdan farq qiladi. Agar biz intellekt so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda bilishning faol momenti, ijodiy, yaratuvchanlik, noma'lum narsalar mohiyatiga kirish momenti ham mavjudligini ko'ramiz. Intellekt nafaqat bilish faoliyati natijalarini o'z ichiga oladi, shu bilan birga, bu faoliyatning o'ziga xos insoniy usullarini ham gavdalantiradi. Bunda bevosita intellektning bilish faoliyatiga bog'liq holda amal qilishi eng muhim narsa hisoblanadi. Bunday e'tirof uni tushunish imkoniyatlarini cheklamaydi, albatta. Binobarin, intellekt bilish faoliyati bilan bog'liq, shu tufayli amal qiladi, bu tushunchalarni o'zaro aynanlashtirish yoki aralashtirib yuborish mumkin emas. Holbuki, intellekt tafakkurga jarayon tarzida yondashganimizdagina uning o'ziga xos sifat holati bo'lib ko'zga tashlanadi.

Intellektni tadqiq etishda rang-barang yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning har biri turli nuqtai nazarlarni anglatishga xizmat qiladi.

Intellektual salohiyat – mamlakat, tarmoq va shaxsning intellektual imkoniyatlari, resurslari rivojlanishi darajasining majmuaviy tavsifidir. Uni o'rganishga ikki tomonlama yondashish mumkin:

- bilimlarga ega bo'lgan, faoliyatlari bilish va o'zgartirishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kishilar yig'indisi sifatida;
- jamiyat maqsadlariga erishish vositasi bo'lgan, moddiytexnik shakllar va belgilar tizimlarida moddiylashgan ilmiy, texnik, ijtimoiy, madaniy bilimlarning jamlamasi sifatida.

Hozirgi sharoitda intellektning 70 ortiq ta'rifi mavjud bo'lib, unga xos ko'plab madaniy-tarixiy qatlamlarni aks ettiradi, shu boisdan ulardan birortasi rang-barang munosabat va aloqalarni ifoda eta



olmaydi. Shu ma'noda intellekt tushunchasi o'zgarib turadi, mazmuni qo'yilgan vazifalarga bog'liq bo'ladi.

Intellektual madaniyatning mohiyat-mazmunini tushunmoq uchun uning intellekt rivoji bilan uzviy bog'liq shakllanish jarayonini ko'zdan kechirish lozim.

Har bir tarixiy davr, har qanday jamiyat o'ziga xos taraqqiyot darajasiga mos intellektga ega bo'ladi. Buni biz tarixiy taraqqiyot jarayonida bevosita tafakkurda yuz bergan o'zgarishlar misolida ko'rishimiz mumkin. Binobarin, har bir davrning tarixiy hodisa sifatidagi nazariy tafakkuri zamonga bog'liq holda turlicha shakl va ma'no kasb etadi. Nafaqat ijtimoiy va madaniy taraqqiyotdagi sifat o'zgarishlari, shu bilan birga, tafakkurning ijtimoiy tabiati ham e'tirof etilsa, bunda intellekt va intellektual madaniyatning tarixiy, sifatiiy o'zgarishlari ham hisobga olinishi lozim. Turli tarixiy davrlarda Intellektual salohiyattaraqqiyotining o'ziga xosligi kishilarning nazariy va amaliy faoliyatidagi o'zgarishlarga ham be-vosita bog'liq bo'ladi. Rus ruhshunosi L.S.Vigotskiyning oliy ruhiy funksiyalar shakllanishiga nisbatan madaniy-tarixiy yondashuvi intellektni sotsiomadaniy hodisa sifatida qarab chiqishga imkon beradi. Bu yondashuvda Intellektual salohiyatfenomeni tajribalarni ratsional bilish, nazorat qilish va o'zlashtirish oqibati sifatida tarkib topadi. Insoniyat taraqqiyotining ilk davrlarida intellekt rivojlanmaganligi ma'lum. Uning yuzaga kelishi haqida tilning bilimlarning moddiy tashuvchisi sifatida paydo bo'lish va rivojlanishi bilan bog'liq holda so'z yuritish mumkin. Binobarin, intellekt u paytda kishilarning moddiy faoliyati va moddiy muloqoti, real hayot ruhiga singib ketgan edi.

Intellektual salohiyat taraqqiyoti insoniyat rivojlanishi, ijtimoiy (ilmiy-texnikaviy) ravnaq ta'sirida yuz beradi, konkretlashadi. Intellektual salohiyatyangi shakllarining yuzaga kelishi uning taraqqiyotidagi uzilish, oldingi shakllar barxam topishi va madaniy merosni inkor etish degani emas, albatta. Har bir keyingi bosqich uning amaliyot, hayot sinovidan tasdig'idan o'tgan asl jihatlarini o'zida gavdalandiradi. Antik zamonda fikrlashning aporiya, mayevtika (lug'aviy ma'nosi: "doyalik san'ati") kabi shakllari rivoj topgan. Ayniqsa, Suqrotning inson bilimlarini qo'shimcha sun'iy savollar orqali aniqlash sohasidagi san'ati, ya'ni dialog, sofizm kabi usullar Intellektual salohiyattaraqqiyotiga jiddiy ta'sir ko'rsatganligi ma'lum. Ularning umumiy xususiyati muammo qo'yish va uning yechimini topishdan iborat bo'lgan.

Suqrot metodlari hozir ham faylasuf va psixologlarni qiziqtirib keladi. Suqrotning suhbat-bahslarida aql ilohiy kuch deb e'tirof qilinadi, ilohiy haqiqat bilan inson bilimini bog'lovchi yo'l, deb baholanadi. U haqiqatni bilish, haqiqiy bilim hammaga emas, balki ayrim kishilar, ya'ni donishmand yoki faylasuflarga nasib bo'ladi, deb hisoblaydi. Biroq ular ham bor haqiqatni bila olmaydilar. Odam, - deydi Suqrot, - hamma narsada oqil, donishmand bo'la olmaydi, demak, kim nimani bilsa, shu sohada oqil, donishmanddir"[2. – B. 68.].

Intellekt asosida nafaqat ilmiy, shu bilan birga, kundalik bilimlar ham yotadi. Kundalik bilimlar intelet mohiyatiga zid kelmaydi, negaki, nazariy asoslangan bilimlarning doirasi ancha keng bo'ladi, ma'lum darajada shularga asoslanadi, muayyan darajada ob'ektiv haqiqatni aks ettiradi. Biroq eng umumiy qonunlarni aks ettiruvchi ilmiy bilimlarning intellekt tarkibidan o'rin olishi Intellektual salohiyatdarajasining yuqori ekanligini anglatadi. Aniqroq aytganda, bunday bilimlar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmga intilish garchand yoshidan qat'i nazar barcha insonlarga xos bo'lsada, lekin yoshlik davrida bilim olmoqlikning ijtimoiy xususiyati ko'proqdir. Avvalo, yoshlarda hali hayotiy tajriba bo'lmaganligi uchun tabiiy ravishda bilishga intilish bo'ladi. Ikkinchidan, yoshlarning ongi toza bo'lganligi, hali yaxshilik yomonlik haqida tushunchalar kam bo'lganligi uchun bilimlarni qabul qilish darajasi yuqori bo'ladi. Shu o'rinda xaqimizning "yoshlikda olgan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir" iborasini, shuningdek, Alisher Navoiyning "Yigitlikda yig' ilmning mag'zini Qarilik chog'i



xarj qilgil oni” iborasini ishlatishi o‘rinli. Uchinchidan, hali yoshlarda turmush tashvishlari bo‘lmaganligi uchun, ilm olishga shart-sharoit bo‘ladi.

Ma'naviy madaniyat, ma'naviyat yutuqlari aksari madaniy yuksalish jarayonida vujudga keluvchi va uni ifodalovchi olim-fozil, donishmand, adib, din arboblari va ular faoliyati, yozib qoldirgan merosi kabilarda aks etib, muhrlanib qoladi. Shuning uchun o‘tmishdagi buyuk siymolar, allomalar, adiblarning faoliyati, asarlarini o‘rganish, ularni hozirda nashr etish, targ‘ib qilish, yubileylarini o‘tkazish, madaniyat tarixini – ma'naviy boyligimizni chuqur bilish ishida nihoyatda muhimdir. Ma'naviyat – ajdodlarni avlodlarga, o‘tmishni bugunga, bugunni esa kelajakka bog‘lovchi ko‘prikdir. U ota-bobolarimiz to‘plagan jamiki yaxshi fazilatlar va xislatlar, qadriyatlar va an'analarning majmui, qolaversa, ajdodlarimiz to‘plagan tarixiy-ijtimoiy tajriba va barcha qarashlarni o‘zida mujassam etadi.

Hozirda mustaqillikka erishgan O‘zbekiston o‘z milliy madaniyatini yuksak darajada rivojlantirishning eng muhim shartini, omilini qo‘lga kiritdi. Bu omil milliy madaniyatimiz rivoji, davrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, ma'naviy boyliklarni yaratgan yirik siymolar, donishmand adiblarning merosini o‘zlashtirish bilan bog‘liqdir.

Jahon sivilizatsiyasining bugungi taraqqiyotiga tamal toshini qo‘ygan buyuk Sharq yuzlab, minglab daholarni yetishtirgani hech kimga sir emas. Xalqimiz tarixining buyukligi, avvalo, ma'naviyati va ma'rifatining yuksakligi bilan belgilanadi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abduxoliq G‘ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyotiga, xususan, ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning yuksalishiga ulkan hissa qo‘shgan.

IX – XII asr uyg‘onish davrida yurtimizdan ko‘plab buyuk zotlar yetishib chiqdi. Ular o‘z ilmi va iste'dodi bilan xalqimizni dunyoga tanitdi. Bu davr madaniyati, ma'naviy hayotida juda katta ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdiki, ular nafaqat Movarounnahr, balki butun musulmon Sharqi tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Bu davrda ma'naviyatda hurfikrlilik, har qanday bilim, ilm-fanga hurmat, diniy oqimlar erkinligi ustunlik qildi. Diniy va dunyoviy ilmlar uzviy bog‘liq holda rivoj topdi. Qadimgi yunon, hind va boshqa ilmiy an'analardan ham keng foydalanildi. Arab xalifaligi poytaxti Bag‘doddagi “Bayt ul-Hikma” ilmiy markazining dovruq‘ini ko‘tarishda O‘rta Osiyodan borgan Xorazmiy, Farg‘oniy, Javhariy, Abu Mansur, at-Turkiy, Marvaziy kabi yosh olimlarning aniq va tabiiy fanlar sohasidagi faol xizmatlari ulkan ahamiyatga ega bo‘ldi.

Bizningcha, Yangi O‘zbekiston barpo etilayotgan hozirgi sharoitda milliy oilaviy qadriyatlarning o‘rni har qachongidan ham ortib bormoqda. Xulosa qilib aytganda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar jamiyat rivojiga va uning negizi, millatning tarixiy taraqqiyotida erishilgan muvaffaqiyatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi qudratli omildir. Shunday ekan, oilada farzandlarimiz bolalik, o‘smirlik, balog‘at sari borishlarida ibratli dovondan o‘tishi uchun farzandlarimizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatguvchi bir mayoq bo‘laylik.

So‘nggi ilmiy tadqiqotlar olimning Sharq adabiyotiga ham ta'sir ko‘rsatganligini, chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiy va falsafiy qissalar janrining taraqqiyotiga turtki berganligini ko‘rsatadi. Yuqorida nomlari va xizmatlari tilga olingan allomalarimiz bilan bir davrda yana yuzlab buyuk ajdodlarimiz ham ilm-fan ravnaqiga hissa qo‘shdilarki, ularning xizmatlarini bugun ham dunyo ahli tan olmoqda.

Islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur'onning aksariyat suralari va oyatlarida insonlarning bilim olishi, ma'rifatli bo‘lishi qayta-qayta uqtirilgan, bilimlilar bilan bilimsizlarni tenglashtirib bo‘lmasligi aytilgan. Quronda ilk nozil bo‘lgan oyat ham “Iqro” yani “O‘qi” so‘zidir. “Alaq” surasining uchinchi, beshinchi oyatlarida “O‘qing! Sizning parvardigoringiz



(insoniyatga)qalamni (ya'ni qalamni, xatni) o'rgatgan o'ta karamli zotdir. U zot insonga bilmagan narsalarini o'rgatadi", deyilgan. Quronda "ilm" so'zi turli hollarda bir necha marotaba qaytarilgan.

Rasululloh s.a.v aytganlar: -Mo'min olim mo'min ibodatxondan 70 daraja ortiqdir. Bir daraja bilan ikkinchi daraja orasida esa yer bilan osmoncha masofa bor. Har narsanig o'z yo'li bor. Jannatning yo'li bilimdir[3. –B. 25.].

Shaxsning intellektual madaniyati uning aqliy qobiliyatiga asoslangan gnoseologik faoliyatining maqsad va vazifalarini belgilash, rejalashtirish, rang-barang intellektual qadriyatlar yaratish malakalari, bilish manbalari hamda informatsion-texnikaviy vositalar bilan ishlay olish qobiliyatini anglatadi.

Insoniyat sivilizatsiyasi tarixi shundan dalolat beradiki, jamiyat hamma zamonlarda intellektual va ijodiy potensialni yuksak darajada o'zida mujassamlashtirgan, buyuk iste'dod va qobiliyat egalariga ehtiyoj sezib kelgan. Jamiyatning ideali sifatida oliy ibrat namunasi bo'lgan kishilar va ularning sermazmun faoliyati hamma vaqt ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. O'zbekiston xalqlari tarixida uzoq davr mobaynida ta'lim-tarbiya, intellektual va madaniy qadriyatlarning ehtiyotkorona saqlanib, e'zozlanib, doimo muhofaza qilinib, ko'paytirilib kishilarni tarbiyalashda yuksak ma'naviy omil bo'lib kelganligi va kelinayotganligining boisi ana shunda.

Sivilizatsiya taraqqiyotida intellektual sohada olimlar- intellektual salohiyatli kishilar, ta'lim va kutubxonalar uchta muhim manbani tashkil qiladi. Turli ob'ektiv va sub'ektiv sabablarga ko'ra insoniyat tarixida ziyolilarning kamayishi, ta'lim darajasining pasayishi, kutubxonalarning berkitilishi jamiyatda turg'unlik, buzilishni keltirib chiqargan va rivoj-lanishga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Modomiki, shunday ekan, intellektual taraqqiyot tizimining bu komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik sotsiumning barqaror rivojlanishi, yangi nazariyalar, bilimlar, innovatsiya va texnologiyalar amal qilishi, intellektual tajribalarning o'zaro olma-shinuvi uchun o'ta zarurdir.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, intellektual salohiyatni shakllantirish jarayoni nafaqat zamonaviy bilim, texnologiya va innovatsion yondashuvlarga, balki milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarning barqaror tizimiga tayanmog'i zarur. Milliy qadriyatlar inson tafakkurining yo'nalishini belgilovchi, uning ma'naviy immunitetini mustahkamlovchi, ilmiy-intellektual izlanishlarga ma'no beruvchi asosiy ijtimoiy kuchdir.

O'zbekiston sharoitida bu jarayon Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida yangi mazmun kasb etib, milliy qadriyatlar bilan ilm, innovatsiya va raqamli transformatsiya o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlamoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida milliy g'oya va ma'naviy merosga asoslangan intellektual avlodni tarbiyalash jamiyatning barqaror kelajagini kafolatlaydi.

Milliy qadriyatlar – bu xalq tafakkurining tarixiy xotirasi, intellektual salohiyat esa shu xotiraning zamonaviy shakli sifatida namoyon bo'ladi. Ularning o'zaro uyg'unligi jamiyatda ma'naviy uyg'unish, ijodkorlik va yangilikka intilish madaniyatini shakllantiradi. Shu bois, milliy qadriyatlarni asrash va ularni intellektual taraqqiyot jarayoniga faol integratsiya qilish bugungi kunning strategik ehtiyoji hisoblanadi.

Natijada, milliy qadriyatlarga tayangan intellektual salohiyat – bu nafaqat ilmiy-texnik yutuqlarni egallash vositasi, balki **milliy g'urur, ma'naviy barqarorlik va madaniy suverenitetni ta'minlovchi ijtimoiy kuch** sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз 1 том – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ2017 . – Б.85
2. Ғарб фалсафаси.-Тошкент: Шарқ,2004. – Б. 68.



3. Imom G'azzoliy. Bilim- imon chirog'i.- Toshkent: Toshkent Islom Universiteti, 2000. –B. 25.
2. Инсон тараққиёти. Дарслик. И.ф.д., проф. Қ.Х. Абдурахмонов таҳрири остида . – Т.: Иқтисодиёт, 2013. – 246-б.

Севара Пардаева

Жиззах давлат педагогика университети таянч докторанти

Сурайё Дехқонова

Наманган давлат техника университети катта ўқитувчиси

ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРИДА САБР-ТОҚАТ ФАЛСАФАСИНИНГ ИЖТИМОЙ АСОСЛАРИ

Аннотация. Толерантликнинг ижтимоий-иқтисодий негизида миллий жамоавийлик муҳим аҳамият касб этади. Ўзбек халқи ижтимоий-маданий ҳаётида жамоавийлик руҳи моддий ишлаб чиқариш муносабатлари асосида шаклланган маънавий жисобланади. Толерантлик ижтимоий ҳодиса бўлиб, ижтимоий-маданий турмуш тарзи, сиёсий давлатчилик мўлжалларида ижтимоий гуруҳ ва табақаларнинг ҳамкорлигини таъминлаш сиёсатидир. Жамият этноконфессионал ҳаётида жамоавийлик оила ва никоҳ, серфарзандлилик билан белгиланиб, фарзандсизлик оиланинг инқироzi ҳисобланган. Мақола замонавий бозор муносабатларида миллий жамоавийлик руҳининг деградацияси индивидуализмнинг оммалашувида толерантликка бўлган эҳтиёжнинг ижтимоий таҳлилларига бағишланган.

Калит сўзлар. Ижтимоий толерантлик, жамоавий бағрикенглик, оила ва никоҳ, серфарзандлилик, мурсаю мадора.

Аннотация. В социально-экономическом основе толерантности приобретает большое значение национальный коллективизм. В социально-культурной жизни узбекского народа дух коллективизма рассматривается как духовность, сформированная на основе материально производственных отношений. Толерантность – это социальное явление, социально-культурный образ жизни, политика обеспечения сотрудничества социальных групп и классов в целях политической государственности. В этноконфессиональной жизни общества коллективизм характеризуется семьей и браком, а бездетность рассматривается как кризис семьи. Статья посвящена социальному анализу необходимости толерантности в контексте деградации духа национального коллективизма в современных рыночных отношениях и распространения индивидуализма.

Ключевые слова: Социальная толерантность, коллективная толерантность, семья и брак, многодетность, примирение и терпение.

Abstract. National collectivism plays a significant role in the socio-economic foundation of tolerance. In the socio-cultural life of the Uzbek people, the spirit of collectivism is viewed as a spirituality formed on the basis of material production relations. Tolerance is a social phenomenon, a socio-cultural way of life, a policy of ensuring cooperation between social groups and classes for the purposes of political statehood. In the ethno-confessional life of society, collectivism is characterized by family and marriage, while childlessness is viewed as a family crisis. This article is devoted to a



social analysis of the need for tolerance in the context of the degradation of the spirit of national collectivism in modern market relations and the spread of individualism.

Keywords: Social tolerance, collective tolerance, family and marriage, having many children, reconciliation and patience.

Ўзбек халқининг ижтимоий ҳаётида жамоавийлик одоби ёзувгача даврдан шаклланган ўлканинг табиати, ҳосилдор ер-сувларида ўтроқ деҳқончилик, чорвачилик, хунармандчилик ва савдо-сотик ривож билан боғлиқдир. Ўзбек халқ ижтимоий ҳаёти миллий халқ оғзаки ижоди, фолкълорида ташқи оламни ўзлаштириш, объектив оламни англашда халқнинг донолиги, нафосат ва фаросат фалсафасида ўз ифодасини топади. Ўзбекистон ҳукумати аждодларнинг мероси «...тарихий ва маданий тажрибаси жамият аъзоларининг индивидуал ва умумий ривожланиши учун зарур шарт эканлигини жамоатчилик онгига сингдириш, бу борада жамоатчилик ташаббусларини қўллаб-қувватлаш» орқали ижтимоий ҳамкорлик ва бирлик мустаҳкамланмоқда [12].

Ўзбек халқи оилавий турмушида “Осиёча” ишлаб чиқариш деҳқончилик ва чорвачиликка асосланиши жамоавий ҳамкорликни негизидир. Аҳолининг қишлоқ хўжалигида юқори ҳосил учун экинни ўз вақтида экиш, ишлов бериш, ҳосилни ёғингарчиликка қолдирмай йиғиш жамоавий меҳнат, ўзаро ижтимоий ҳамкорликни (ҳашар) талаб этган. Биз миллий бағрикенглик фазилатларининг илдизларини проф. Софии Рошнинг ўлкамизда оилавий ижтимоий-психологик ва маданий жиҳатларининг ўзига хослиги, деҳқон оиласининг этномаданиятида сабр-тоқат, мураса одобининг «оилавий антропология модаси»га қўшиламыз [10, 8 б].

Замонавий ўзбек оиласининг «қариндошлик» тизимлари анъанавийлик ва замонавийлик тамойилларида ўзбек аёлининг гендер тенглиги оила, маҳалла ва жамиятга муносабатда феминистик рейтинг даражаларида ўсиши миллий маданиятнинг «Оммавий маданият»га трансформациялашмоқда. Тадқиқотчи З. Расулова ўзбек халқи ҳаётида жамоавийлик психологияси «Худудий-қўшничилик жамоаси бўлмиш маҳалла инсоннинг кайси ижтимоий катламга мансублигидан қатъий назар, қўни-қўшнилар ўзаро ҳамжихатлик, миллий анъаналарга содиқликда бирлашган жамоавий бирикувининг анъанавий тузилмасидир. Маҳалла нафақат ўзаро иқтисодий ҳамкорлик, балки одат ва анъана, маросимлар ўтказиш, ўз худудини батартиб сақлаш ва ободонлаштириш, ёш авлодни ижтимоий руҳда тарбиялаш» билан изоҳлаган [8, 69 б]. Дарҳақиқат, ўзбек оиласи маҳалла билан демографик бирликда ўзига хос ижтимоий маданият сабр-тоқат, муросанинг этноконфессионал қадриятларини шакллантирган. Биз ўзбек халқи ижтимоий тажрибасини аждодлардан авлодларга етказишда анъанавий патриархал оилавий муҳити ворисийликдаги толерантлик тарбияси, деб ҳисоблаймиз.

Ўлкамиз халқлари бир-бирига яқин этник деҳқончилик маданияти маънавий-ахлоқий тамойилларда Кушон, Эфталлий, Турк ҳоконлиги, сўнгра араб ҳалифалигида ижтимоий бошқарувда кучли давлатчиликка ижтимоий-сиёсий замин ҳозирлаган. Жамият тараққиётда оила ва никоҳ халқларнинг этномаданий трансформацияси аждодларнинг бой маданий мероси урф-одат ва маросимлари, маънавий-ахлоқий қадриятларга садоқат ила миллий ўзлиқни сақлаб қолган. Ўзбек халқининг ҳаётида ҳуқуқийликдан кўра ахлоқийлик устувор бўлиб, миллий ўзлиқни англаш «...миллатнинг ижтимоий-сиёсий жараёнларга, жамият ва давлатни бошқаришга қаратилган ислохотлар, тараққиёт моделларига, жамиятнинг келажагига муносабат... сабр-тоқат, мураса билан бирга ижтимоий фаолликка таяниши» ҳақидаги фикрларга қўшиламыз [7, 6 б]. Ёшларнинг миллий идентиклиги миллий маданиятли шахс



сифатида тил ва дин, маданиятнинг яхлитлигини англашда меҳнатсеварлик билан бирга бағрикенглик, меҳмондўстлик, хайр саховатлилик фазилатларини тиклаш заруриятида мужассамдир. Ўзбек халқи бағрикенглигида катталарга хурмат, ёшларга нисбатан меҳр-шафқат туйғулари ҳам ижтимоий ҳамкорлик маданиятидир.

Оила ва никоҳнинг модернизацияси рус мустамлакасидан бошланиб, маҳаллий аҳолининг турмуш тарзига саноат ишлаб чиқариши, “иш вақти ва иш ҳақи” каби капиталистик муносабатлар анъанавий турмуш тарзини жиддий янгилади. Бу ҳол аҳолининг турмуш тарзидаги жамоавийликдан “индивидуалликка” ўтиш индустриаллашув ва шаҳар турмуш тарзи оила ва никоҳни янги ижтимоий қолипга солади [4]. Индустриаллик феодализм ишлаб чиқаришнинг ижтимоий тарзига алоҳидалик, умумийликдан индивидуалликка ўтишни белгилаб берган. Ўлкамизда Россиянинг саноат ишлаб чиқаришида ҳам ашёни қайта ишлаш, саноатини кенгайтириш, маҳаллий ишчи ва муҳандисларнинг иштироки аҳоли турмушида индустриаллашув ва урбанизация юз берган. Натижада, ўлка аҳолисининг турмуши янги одат ва анъаналар, яъни оила ва никоҳ муносабатларида меҳнат тақсимоли, аёлларнинг саноат ишлаб чиқаришига тортилиши анъанавий уй-хўжалик юретишда жиддий ўзгариш ясади. Патриархал анъанавий эркак “кўчани одами, аёлга уй юмушлари, бола тарбияси” тамойили аёллар фойдасига ислоҳ қилинди. Этномаданий жараёнларнинг турли туманлиги ёшларнинг билим ва кўникмаларини юксалишида ҳиссий мақсадга мўлжал олиши, одамларнинг умумий фаровонлик йўлида ижтимоий фаоллигининг илмий тадқиқот таҳлилларида кузатилмоқда [6, 97 б].

Жамиятнинг ижтимоий тажрибаси тарихий, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш оила ва никоҳда турли табиий-географик шароитлар таъсирида халқларнинг ўзига хос ва мос маънавий-психологик этнологик мақомини ҳосил қилиши билан бирга миллатлараро яқинлик ва умумийликни оила ва никоҳ вужудга келтиради. Зеро, ҳар бир халқнинг оила ва никоҳ муносабатлари миллийлик ва динийликнинг ўчоғи, ижтимоий функционал таълим ва тарбия маскани сифатида келгуси авлодларга меросийлик ташувчиси бўлиши табиийдир. Бизнинг илмий таҳлилларимизда Рус босқини давридаги оила ва никоҳ муносабатларида оиланинг асосий боқувчиси эркак бўлиши, аёлнинг уй хўжалик ишлари билан бандлиги туфайли анъанавий оилада миллий-диний сабр-тоқат сақланишини кузатилди.

Ҳар бир халқнинг оила ва никоҳида этник урф-одат ва анъаналар, турмуш тарзи хўжалик юретиш тартибида этномаданият маънавий ахлоқий қадриятлашуви юз беради. Бу ҳол ўзбек халқи турмушида оила ва никоҳнинг ижтимоий тизимдаги мавқеи ва функционаллигини таҳлили орқали миллий сабр тоқат ва муросанинг жамоавийлиги маданият сифатида қарор топади. Жамиятнинг миллий ўзлиги ижтимоий тажриба ва оиланинг кўп авлодли шаклининг трансформациясида муросаю мадора иммунитет бўлиб қолган.

Толерантлик халқларнинг жамоавийлиги тамойили давлатларининг барпо бўлиши, жамиятнинг ижтимоий фаровонлигини таъминлаган омил бўлиб қолган. Жамоавийлик халқнинг ижтимоий тизими бўлиб, турли туман миллий-диний ёки сиёсий кучга таянган ҳолда жамиятнинг истиқболли мақсадларига ҳар бир фуқаронинг жамоавийлик манфаатларига итоат этиши ҳосил қилинадиган уюшмадир. Ўзбек халқининг жамоавийлиги деганда аҳолининг барча қатламларининг жамият манфаатларини умумий тан олиниши, маҳалла ва оиланинг ҳамкорлиги, серфарзанд оилаларнинг мустаҳкамланишида ўз ифодасини топади. Ўзбек жамиятида ҳар бир одамнинг ўз манфаатидан кўра жамоа, айниқса маҳалла манфаатларининг устуворлиги, унда маҳалла бошқарув назоратининг ўрнатилиши билан изоҳлаш мумкин. Маҳалла жамоавийлиги оилада серфарзандлик ва никоҳнинг барқарорлигига таянади. Шу



маънода толерантлик маҳаллий халқларда жамоавийлик негизларига қурилган. Биз анологик мазмундаги илмий тадқиқот натижалари билан фикримизни далиллаймиз [11].

Оила ва никоҳ диалектик ўзаро алоқадорлик ва ривожланишда давлатнинг ижтимоий ҳаёти билан узвий алоқдорликда фарзандлиликка муеносабат ўзгариш жараёнларини англаш имконини беради. Болаларнинг ижтимоий ишлаб чиқариш, ҳўжалик юритишдаги иштироки серфарзандликни таъминлаган [2]. Хотин-қизларнинг давлат ва жамият моддий-маънавий ишлаб чиқаришидаги иштироки эркакларнинг оила бюджети таъминотидан халос этиши “оилавий қурилма”да эркак кишининг ижтимоий мақоми ва функционаллигини ўзгартирди. Чунки аёл ишлаб чиқаришда иштироки билан оила иқтисодини ўз зиммасига олиши, кўп ҳолларда иш ҳақининг юқорилиги ҳам эркак билан коммуникациясида тенглик ва эркинлик руҳиятини мустаҳкамлади, эркакнинг оилавий “маскулинизми” хотин-қизларнинг давлатнинг маъмурий бошқарув ёрдамида феминизми толерантликнинг янги ижтимоий жиҳатини долзарб муаммога айлантирмоқда.

Ўзбекистонда давлат томонидан “...аёлларни жамоат ишлаб чиқаришига кенг миқёсда жалб қилиниши, аёллар учун касбий, оилавий ва репродуктив функцияларни айна пайтда бажариш учун шароит яратилганлиги, имтиёзлар, нафақалар, бола туғилиши ва болани парвариш қилиш билан боғлиқ таътиллار бериш каби ижтимоий муҳофаза тизими”да намоён бўлмоқда [5; 9]. Биз мазкур ёндашувда ўзбек хотин қизларини репродуктив эксплуатациясини эътибордан четда қолиши, оила ва никоҳни трансформациялашуви янада чуқурроқ талқини зарурият, деб ҳисоблаймиз.

Тадқиқотчи З. Рахимова ўзбек оила ва никоҳининг уч босқичини, айниқса феминизм тантанаси ҳақида “Эркаклар ва аёллар қатнашувидаги асимметрияни турли сабабларини изоҳлаган: аёлларнинг эҳтиёж ва хоҳишларини инобатга олувчи амалий тенглик механизми йўқлиги, жамиятда патриархал меъёр ва ақидаларнинг сақланиши” ҳақида танқидий баҳосини қўллаб қувватлаймиз [9, 50 б.]. Шу билан бирга Шўролар тузуми даврида хотин-қизларнинг илмий интеллектуал салоҳиятининг ўсиши фарзандлилик билан бирга уларнинг таълим ва тарбиясида юксак маънавият ва ахлоқийликка эришилгани, уларнинг ижтимоий капиталида китоб мутолааси ва маънавий баркамоллик омили, деган қарашларга ҳамфикрмиз [3].

«Мобил оила» модели минтақа аҳолисининг ҳорижий давлатларга турли мақсадлардаги миграцияси, ота-она, фарзанд муносабатларида ўзгаришлар, отанинг миграцияси, алоҳида ҳолларда онанинг оилавий бизнеси туфайли фарзандларнинг таълим ва тарбияси бобо ва бувиларнинг қарамоғига ўтиши вазиятни мураккаблаштирмоқда. Бу трансформация анъанавийлик (консерватив) ва замонавийлик (либерал) тенденцияларида ижтимоий зиддиятли жараён тусини олмоқда. Шу боис биз хорижий олимларнинг ўзбек тожик ва қирғиз оилаларида ҳам деформация ёки девальвация ҳолатини этник жиҳатларига эътиборига қўшиламиз. Чунки, «катта ёки мураккаб оила»дан нуклеар оилага ўтиш, катта авлоднинг ёш авлод билан оилавий назоратида ворисийлик ижтимоий оилавий рўзғор юритиш тажрибаларини мерос қолдириш анъанасида узилиш кузатишмоқда [1, 38 б.].

Ўзбек халқининг оилавий муносабатларида сабр-тоқат фалсафасининг ижтимоий асослари юзасидан қуйидаги хулосаларни қилиш мумкин:

1. Оила жамиятнинг тарихий тараққиёти таъсирида одамзотни демографик популяциясида маънавий оқилона барқарор ривожини таъминлаган кишиликнинг қон-қариндошлқ асосидаги кооперациясидир. Жамиятнинг демографик тараққиётида соғлом ва маънавий ахлоқий етуқлик этномаданий толерантликдир. Шу маънода оила ва никоҳ ижтимоий бирлашма, эркак ва аёлнинг самимий турмуш тартиби авлодларни соғлом, ақлий етуқлигида жамоавий уюшма, яъни бошқарув институтидир. Ибтидоий жамоа тузуми



давридан оила ва никоҳ жамиятни жамоавийлиги контекстида ижтимоий бағрикенглик тажрибаларини шакллантирган этномаданий цивилизация ҳисобланади.

2. Оила ва никоҳ ислом динида марказий масала бўлиб, ижтимоий муносабатларнинг бош бўғинидир. У мурсою мадора макони, ота-оналарнинг авторитетида фарзандларнинг ижтимоий бирлиги миллий жамоавийликнинг бошланғич ячейкаси ҳисобланади. Оила ва никоҳда патриархаллик тартибида эркак ва аёлнинг никоҳланишида ҳуқуқ ва мажбуриятлар оилавий сабр тоқатга қурилиши ижтимоий қонуният сифатида расмийлаштирилган.

3. Техноген цивилизация, ахборот технологияларининг глобллашуви оила ва никоҳнинг муқаддаслиги, оиланинг ижтимоий ота-она ва фарзандларнинг қон-қариндошлик муносабатларида дарз кетиши юз бериб, анъанавий турмуш тарзида катта авлод ва ёш авлод алоқадорлиги барҳам топмоқда. Катта авлод ёш авлоднинг оила ва никоҳида пассив ўринга туширилди. Мураккаб оила ўз ўрнини нуклеар оилага бўшатиши туфайли ота-оналик ва фарзандларнинг таълим ва тарбияси назоратидан чиқишида ифодаланмоқда.

4. Замонавий оиланинг муҳим хусусиятида оилавий либерализмнинг тантанаси, гендер тенглиги, ёшларнинг оила қуришдаги эркинлиги, ота оналар фарзандларнинг никоҳида иштирок этолмаслиги ижтимоий деформация, ёшларнинг девиантлигида намоён бўлмоқда. Натижада, фуқаролик никоҳи билан бирга турли туман муқобил никоҳ, хатто ноанъанавий сексуал мўнжаллилар, трансгендерлар сони ортиб бормоқда. Шу маънода толерантлик бефарқлик эмас, балки ижтимоий барқарорликка жамоавий ҳамкорлик омилидир.

Адабиётлар руйхати

1. Абашин С. Парадокс в советском изучении среднеазиатской семьи. -Берлин. Гейбелберг университети 2016. -С. 38
2. Джураева Н. А. Современные методологические подходы в изучении парадигмы цивилизаций // Вестник науки и образования. – М.: – 2019. – № 24 (78). – С.24-27.
3. Feree M.M. Beyond Separate Spheres: Feminism and Family Research // <https://www.semanticscholar.org/>
4. Зидер Р. Социальная история семьи в Западной Европы. -М.: Владос. 2007. -С.292
5. Мезенцева Е.Б., Юкина И.И. Гендер муносабатлар назария ва амалиётига кириш. -Тошкент.: БМТнинг Гендер Дастури. 2007. –421 б.
6. Одинаева З. Ўзбек миллий идентиклиги аксиологик тамойил ва қонуниятлари/ Фалс. фан. бўйича дисс –Тошкент: 2021. –142 б.
7. Қўчқоров В. Миллий ўзликни англаш ва ижтимоий-сиёсий жараёнлар. – Тошкент: Академия, 2007. -126 б.
8. Расулова З. А. Ўзбек оила ва никоҳ анъаналарида маҳалла институтининг роли// Современное образование. -2016. -№12. – Б. 69-76
9. Рахимова, З. М. «Хотин-қизлар» масаласининг ижобий натижалари// Молодой ученый. –2017. –№ 24 (158). – Т.2. -С. 50-52.
10. Рош С. Семья в Центральной Азии: новые исследовательские перспективы. - Берлин. Гейбелберг университети. 2016. -С.8-18.
11. Телегин А.М. Исторический опыт коллективизма: социально-философский аспект//Вестник Армавирского государственного педагогического университета. –2021. –№ 1 –С.122-127



12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 ноябрдаги ПҚ-4038-сонли “Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепцияси” қарорига 2-ИЛОБА // <https://lex.uz/docs/4084926>

Adxamjonova Rayxona
Turan international university

MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ASOSIY OMILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada millatlararo totuvlik, hamjihatlik masalalari haqida fikr yuritilgan. Maqolada millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyasining mamlakatlar rivoji va taraqqiyotidagi ahamiyati va aksincha bo'lsa, taraqqiyot zavoli bo'lib hizmat qilishi haqida, mustaqil O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy voqealikka aylangani va bu borada qilingan ishlar borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: millat, millatlararo totuvliklik, din, diniy bag'rikenglik, konfessiya, milliy-madaniy markazlar, baynalmilal madaniyat.

O'zbekiston azaldan turli millatga mansub, turli dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o'lka bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz boshqa din vakillariga doimo hurmat bilan munosabatda bo'lgani, Vatan taraqqiyoti yo'lida yelkadosh bo'lib mehnat qilgani tarixiy manbalarda ko'p qayd etilgan. Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining soni 38 mln.dan oshgan bo'lib, ular 136 dan ziyod millat va elatlarga mansub hisoblanadi. Fuqarolarning 90% dan ziyodi islom diniga e'tiqod qiladi. 3,5% ga yaqin fuqarolar pravoslav diniga mansub bo'lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillarini tashkil etadi. Hech shubhasiz, yurtimizda turli sohalarda erishilayotgan barcha ulkan yutuqlarimizning zamirida jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik hisoblanadi. Ushbu holat davlatning katta yoki kichikligi, dini va millatidan qat'iy nazar, tinchlik va barqarorlik naqadar aziz ne'mat ekanini yana bir bor isbotlab bermoqda. Bu Asosiy qonunimiz Konstitutsiyamizning 8-moddasida “O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”[1] mustahkamlab qo'yilgan. Millatlararo totuvlik g'oyasi-umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaqa va davlatlar milliy taraqqiyotida muhim omil bo'lib, shu joyda tinchlik va barqarorlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Bu borada 2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning bo'yicha “Taraqqiyot strategiyasi”da Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan[2]. O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahli qo'shnichilik muhitini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Taraqqiyot strategiyasining yuqoridagi bosqichi bo'yicha respublikamizda ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Bir qancha qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Respublikamizda faol “xalq diplomatiyasi” asosida xorijdagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni qolaversa, madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy an'analari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta



do'stlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Fuqarolar totuvligi barqarorligini, turli millatlar vakillari o'rtasidagi tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashga, vatandoshlarimiz ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlashga, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirishga, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga, mamlakatimizning jamiyat turli sohalaridagi yutuqlari mazmun va mohiyati targ'ibotiga, shuningdek, ushbu yo'nalishda bajarilayotgan ishlarni va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni samarali muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish maqsad qilib qo'yilgan. Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda dinlar, ayniqsa, jahon dinlaridagi bag'rikenglik tamoyillarini yoritish va yoshlar ongiga singdirish muhim vazifa hisoblanadi. Binobarin, turli din vakillari o'rtasidagi o'zaro murosai madorani ta'minlashda diniy bag'rikenglik eng samarali omildir.

O'zbekiston ko'p millatli, ko'p konfessiyali davlatdir. Bunday davlatda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun millatlararo totuvlik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. O'tgan qisqa davr ichida mazkur yo'nalishda qator ishlar amalga oshirildi va millatlararo totuvlikni rivojlantirishga keng zamin yaratildi. Fuqarolik jamiyati o'z navbatida, turli etnik nizolar, ziddiyatli vaziyatlar, to'qnashuvlar yuki ostida qolgan hozirgi davrda, bir tomondan, insoniyat o'zining bir butunligini, ikkinchi tomondan, alohida olingan har bir jamiyat ichki birlik, totuvlik va hamkorlik bo'lgandagina mavjud muammolarni hal qilish, yangilari paydo bo'lishining oldini olish va taraqqiyotni ta'minlash mumkinligini tobora chuqur anglab bormoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda ijtimoiy bag'rikenglik muhitini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega.

Diniy bag'rikenglik vijdon erkinligi va ma'naviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yo dinga hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi. Madaniy bag'rikenglik o'zga tilda yaratilgan san'at va madaniyat boyliklaridan o'z madaniyatini ustun ko'rmaslik, ulardagi ma'no va go'zallikni tan olish, o'zga madaniyatlardan nimanidir o'rganishni bildiradi. Madaniy bag'rikenglik turli millatga mansub ziyolilarni bir-biriga ruhan yaqinlashtiradi. O'zidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga yordam beradi. Etnomadaniy hamkorlik yagona mamlakatda yashovchi turli millatga mansub xalqlarning muayyan mafkura asosida qo'lni qo'lga berib ishlashi, bir maqsad yo'lida faoliyat olib borishini bildiradi. "Millatlararo totuvlik" ("tolerantlik") deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Ularni umumlashtirib "bag'rikenlik" chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga ega deyish mumkin. Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o'zining to'liq ifodasini topdi[4].

Mamlakatimizda "Jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish davlatimiz siyosatidagi kun tartibidagi doimiy masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasida jami 2276 ta diniy tashkilot va 16 ta diniy konfessiya faoliyat yuritib kelmoqda (5). Mamlakatimiz hududida yashayotgan millatlar urf-odati hamda islom dinining madaniy va tsivilizatsion merosi, ma'naviy-falsafiy ahamiyatini chuqur o'rganish bo'yicha ishlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad — fundamental ilmiy



tadqiqotlar natijalari asosida diniy bag'rikenglik, millatlararo munosabatlarning tarixiy ildizlarini chuqur o'rganish va uni bugungi kun sharoitida rivojlantirishdan iborat. Bu borada Islom tsivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy nomidagi xalqaro tadqiqot markazlari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Muqaddas dinimiz bundan buyon ham xalqimizni birlashtirib, millati va tilidan qat'iy nazar, ma'naviy poklanish, odamlarni tinchlik, ezgulik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va totuvlikka undaydigan, o'rnini hech narsa bosa olmaydigan vosita bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Islom dini faqat nurli hayotga, ilm-ma'rifatga, yaxshilikka undaydigan. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo'ravonlikka chaqirmaydi(3).

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida ijobiy va o'zaro hurmatga asoslangan muhit mustahkamlandi. So'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarida yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T.: "O'zbekiston", 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan PF-158-sonli "O'zbekiston -2030 " Taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi farmoni. <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 mayda qabul qilingan "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
4. Mirziyoev Sh.M. Millatlararo do'stlik va hamkorlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining muhim omili. «Ma'rifat» gaz., 2017 yil 25 yanvar. <https://old.gov.uz/oz/news/view/9078>
5. Ibragimov S. Ibragimov J Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir. file:///C:/Users/user/Desktop/millatlararo-totuvlik-va-diniy-bag-rikenglik-o-zbek-xalqining-yuksak-qadriyatidir%20(2).pdf

Чубоева Озодахон Кувонбековна

НамДУ, в.б. доценти

ЎЗБЕКИСТОНДА ДИН–ДАВЛАТ МУНОСАБАТЛАРИ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИК ВА АМАЛИЁТ

Аннотация: Жамиятда ижтимоий барқарорликка эришиш, аввало, дин ва давлат ўртасидаги муносабатларни тўғри ҳуқуқий ҳамда институционал асосда йўлга қўйиш, шунингдек, жаҳон миқёсида кечаётган дин-дунёвийлик муносабатлари таҳлили ва турли мамлакатлар тажрибасини чуқур ўрганишни талаб этади. Ўзбекистонда сўнгги ўттиз йил давомида сақланиб келаётган тинчлик ва осойишталик, миллатларaro ва динларaro тотувлик, фуқаролик ҳамжиҳатлиги – бу давлат томонидан олиб борилаётган изчил, ўйланган ва прагматик ижтимоий сиёсатнинг амалий самарасидир. Мамлакатда Конституциявий тамойиллар, инсон ҳуқуқлари, дунёвийлик ва виждон эркинлиги асосида шаклланган секуляр сиёсат миллий барқарорлик ҳамда глобал ўзгаришлар шароитида ижтимоий ҳамжиҳатликни таъминлашда муҳим ўрин тутди.



Калит сўзлар: Конституция, ижтимоий барқарорлик, жамият, секуляризм, дин, дунёвийлик, қадрият, глобаллашув, ижтимоий сиёсат, миллатлараро тотувлик, виждон эркинлиги.

Кириш. XXI аср бошларига келиб глобаллашув жараёнларининг жадал суръатлар билан кечаётгани жаҳон ҳамжамияти олдига қатор янги ва мураккаб муаммоларни кун тартибига қўймоқда. Диний омилнинг сиёсий жараёнлар, ижтимоий ҳаёт ва маданий майдонга таъсирининг ортиб бориши, айрим ҳудудларда дунёвийлик тамойилларининг заифлашиши ёки аксинча, кескин кучайиши хронологик ва географик жиҳатдан турлича оқибатларга олиб келмоқда. Қатор минтақаларда секуляризация жараёни ва диний радикализмнинг бир пайтнинг ўзида рўй бериши ижтимоий беқарорлик, қуроли тўқнашувлар, миграция оқимлари, қочоқлар сонининг кўпайиши каби глобал муаммоларни кучайтирмоқда. Бу эса "донийлик ва дунёвийлик нисбати" масаласини қайтадан жаҳон миқёсида долзарб илмий ва амалий мавзулар қаторига олиб чиқди.

Таҳлил ва натижалар. Замонавий давлатлар учун фуқаролик жамиятини ривожлантириш, инсон қадр ва манфаатларини таъминлаш, ижтимоий адолат ва тинч-тотувликни мустаҳкамлаш устувор вазифага айланди. Бу жараён, аввало, сиёсий институтлар, жамоат ташкилотлари, таълим ва маънавий муассасалари, маҳалла ва оила институти каби ижтимоий тузилмаларнинг ҳамкорлигида амалга оширилади. Шу билан бирга, ҳар бир давлат дин ва давлат муносабатларига ёндошиш стратегиясини халқаро стандартлар, миллий қадриятлар ва тарихий тажрибалар уйғунлигида белгилаши зарур бўлиб бормоқда.

Ўзбекистон Республикаси янги таҳрирдаги Конституцияси 1-моддасида “Ўзбекистон-бошқарувнинг республика шаклига эга бўлган суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат” деб асосланган.(2. Б-3)

Мамлакатимиз секуляр (дунёвий) давлат деб белгиланиши билан бирга аҳолимизнинг ислом эътиқодига эга бўлиши қадриятимиз сифатида эъзозланади.

Ўзбекистонда фуқаролик жамиятини шакллантириш ва уни диний қадриятлар билан уйғун ҳолда ривожлантириш бугунги куннинг энг муҳим стратегик вазифаларидан бири ҳисобланади. Фуқаролик жамиятининг исломий қадриятлар билан узвий боғлиқ ҳолда юксалиши, аввало, халқнинг ижтимоий, маънавий ва иқтисодий эҳтиёжларини қондириш, миллий маданиятнинг софлигини сақлаш ҳамда маънавий мероснинг узлуксизлигини таъминлаш нуктаи назаридан назарий ҳамда амалий аҳамият касб этади.

Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида “азалий миллий қадриятлар, аجدодларимиздан мерос бўлиб келаётган одоб-ахлоқ” [3. – Б. 266] тамойилларини асраш ва ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, анъанавий ва замонавий қадриятлар уйғунлигини таъминлаш – жамиятда динийлик ва дунёвийлик мувозанатини сақлаш, уларнинг ижтимоий мезонларини белгилаш ҳамда фуқаролик онгини шакллантиришнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади.

Шу боис, исломий маърифат, маънавий мерос ва фуқаролик институтлари ўртасидаги узвий боғлиқликни чуқур ўрганиш, уларнинг ижтимоий-ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш ва амалий ҳаётга татбиқ этиш замонавий жамият тараққиёти учун долзарб илмий вазифа бўлиб қолмоқда.

Мазкур шароитда Ўзбекистон учун ҳам секуляр (дунёвий) давлат сиёсатининг мазмун-моҳиятини чуқур ўрганиш, унинг ҳуқуқий, маънавий ва ижтимоий асосларини мустаҳкамлаш ҳамда замонавий глобал ўзгаришлар контекстида қайта баҳолаш муҳим аҳамият касб этади.



Ўзбекистонда секуляр сиёсат, жаҳоннинг кўпчилик давлатларида бўлгани каби, дин ва виждон эркинлигига оид қонунчилик талаблари асосида амалга оширилади. Бу сиёсат умуминсоний ҳуқуқий тамойилларга таянади ва инсон эркинликларини кафолатлашга қаратилган.

Мазкур тамойиллар XX асрнинг ўрталарида қабул қилинган қатор нуфузли халқаро ҳуқуқий ҳужжатларда ўз аксини топган. Жумладан:

1948 йил 8 декабрда қабул қилинган “Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси”;

1966 йилдаги “Фуқаровий ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро пакт”;

1966 йилдаги “Ижтимоий, иқтисодий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги Халқаро пакт”;

1981 йилдаги “Дин ва эътиқод асосида мурасизлик ва дискриминациянинг барча шаклларига барҳам бериш ҳақидаги Декларация” ва бошқа халқаро ҳуқуқий меъёрларда дин ва эътиқод эркинлиги ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамлаб қўйилган.

1991 йилда мустақилликка эришган Ўзбекистон халқаро ҳамжамиятнинг тенг ҳуқуқли аъзоси сифатида мазкур меъёрларни тан олди ва миллий қонунчилигига имплементация қилди.

Бундай сиёсий-ҳуқуқий ёндашув Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг инсон ҳуқуқлари ва эркинликларига оид моддаларида, шунингдек, 2021 йил 4 майда Олий Мажлис Қонунчилик палатаси томонидан қабул қилинган ва 2021 йил 26 июнда Сенат томонидан маъқулланган “Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида”ги Қонуннинг янги таҳририда ўз ифодасини топган.

Ўзбекистонда амалга оширилаётган фуқаровий сиёсатнинг асосий мақсади – инсон ҳуқуқ ва эркинликларини демократик тамойиллар асосида таъминлаш ва кафолатлашдан иборат. Бу жараёнда секуляр сиёсат муҳим ва ажралмас таркибий қисми сифатида намоён бўлади. Чунки диннинг жамият ҳаётида тутган ўрни сиёсий жиҳатдан доимо мураккаб ва зиддиятли жараён саналади. Бу зиддият, аввало, сакрализация (динийлаштириш) ва секуляризация (дунёвийлаштириш) жараёнларининг ўзаро қарама-қаршилигида, жамиятда маънавий-гегемонлик учун кечаётган курашларда ўз ифодасини топади.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон ҳудудида 16 та диний конфессия фаолият юритиб келмоқда. Рус православ черкови қошида семинария ишлаб турибди. Шунингдек, протестант ва католик черковлари фаолияти учун ҳам етарли ҳуқуқий ва моддий шароитлар яратилган. Ушбу диний масканларда диний билимлар билан бир қаторда дунёвий таълим элементлари ва маърифий тарғибот ишлари ҳам амалга оширилмоқда.

Диний таълим муассасаларига қабул жараёни қатъий меъёрлар асосида ташкил этилган бўлиб, уларга тасодифан учраган шахс эмас, балки умумтаълим мактабининг мажбурий ўрта таълим босқичини тамомлаган абитуриентлар қабул қилинади. Диний ўқув юртларида таълим тизимида дунёвий ва диний фанлар нисбати ўртача 40/60 фоизни ташкил этади.

Дунёвий олий таълим муассасаларида ҳам “Диншунослик” фани ўқитилиб, “Фалсафа” фанининг ўқув дастурига дин ва эътиқодга оид мавзулар киритилган. Энг муҳими, дин масалалари бўйича дарсларни фақат малакали ва илмий асосланган билимга эга мутахассислар олиб бориши талаб этилади. Бу ҳолат 2017–2021 йилларга мўлжалланган Ҳаракатлар стратегиясининг 5-устувор йўналиши – **миллатлараро тотувлик ва динлараро бағрикенгликни таъминлаш** вазифалари доирасида белгиланган бўлиб, ушбу сиёсат келгусида ҳам изчил давом эттирилиши режалаштирилган.

Ўзбекистоннинг изчил ва барқарор ривожланиши, Президент Ш.Мирзиёев таъбири билан айтганда, “миллий тикланишдан – миллий тараққиёт сари” ҳаракатланаётган бу босқичда, дин ва давлат муносабатларини замонавий сиёсий ёндашув асосида қайта кўриб



чиқишни талаб этади. Бунинг учун сакраллаштириш ва секуляриштириш жараёнларини мувозанатли ва илмий асосланган сиёсий мақомда ҳал этиш, глобал миқёсда дин омилининг трансформациясини ҳисобга олган ҳолда эски сиёсий қолиплардан воз кечиш зарур.

Зеро, “дунёвийлик” ва “динийлик” тушунчаларининг ижтимоий-фалсафий мазмунини тадқиқ этиш бугунги куннинг энг долзарб ижтимоий-гуманитар муаммоларидан бири ҳисобланади[4. – Б. 649-650]. Таъкидлаш жоизки, дунёвийлик ва динийлик тушунчалари қадимдан кўплаб файласуфлар, мутафаккирлар ва уламолар томонидан ўзаро қарама-қарши, бир-бирини инкор этувчи икки тамойил сифатида талқин қилиб келинган.

Халқаро тажриба шуни кўрсатадики, жаҳон динлари – хусусан, христианлик, ислом ва буддавийлик – дунёнинг кенг ҳудудларида тарқалган эътиқод тизимларидир. Улар орасида айниқса ислом дини алоҳида ўрин тутати. Зеро, бугунги кунда 1,2 миллиарддан ортиқ мусулмон дунёнинг 120 дан зиёд мамлакатларида истиқомат қилади. Осиё ва Африканинг камида 50 та давлатида эса ислом дини давлатнинг мафкуравий асоси сифатида эътироф этилган[5. – Б. 228.].

Мана шу ҳолатдан келиб чиқиб, секуляризм (дунёвийлик) масаласи на фақат Ўзбекистонда, балки бутун дунё миқёсида муҳим сиёсий-ижтимоий аҳамият касб этмоқда. Аслида дунёвийлик тамойиллари ҳар бир диннинг муайян даражадаги моҳиятида мавжуд. Хусусан, Қуръони Каримдаги “Динга зўрлаб киритиш йўқдир” (Бақара сураси, 256-оят)[1. – Б.75.] деган илоҳий хитоб дунёвийликнинг асосий мезонларидан бири сифатида қаралади. Ушбу илоҳий қоида инсоннинг виждон эркинлиги, эътиқодни эркин танлаш ҳукуки ва диннинг мажбурий эмас, балки онгли равишда қабул қилиниши лозимлигини англатади.

АҚШнинг Афғонистондан аксилтеррор кучларини чиқариб кетиши, шунингдек, АҚШ ва Эрон ўртасидаги муносабатларнинг кескинлашуви Марказий Осиёдаги геосиёсий мувозанатга, хусусан, Ўзбекистонда ҳукм сураётган тинчлик ва барқарорликка муайян даражада таъсир кўрсатиши табиий ҳолдир. Шу боис Ўзбекистонда секуляр сиёсатни фақат ички ижтимоий эҳтиёж нуктаи назаридан эмас, балки минтақавий ва глобал хавфсизлик контекстида ҳам таҳлил этиш долзарб аҳамият касб этади.

Марказий Осиёда Хитой, Россия, АҚШ, Туркия ва Эрон каби етакчи давлатларнинг геосиёсий манфаатлари кесишган. Бу манфаатлар ўртасидаги рақобат ва стратегик қарама-қаршилиқ айрим ҳолларда минтақавий интеграция жараёнларига салбий таъсир кўрсатиши эҳтимоли бор.

Бироқ масаланинг асосий жиҳати шундаки, Ўзбекистон – ислом дунёси цивилизацион маконининг муҳим таркибий қисми ва ислом маданияти марказларидан бири сифатида (ISESCO, 2007 й.) – ўзининг келгуси ривожланишида секуляр сиёсатни изчил ва мувозанатли равишда давом эттириши лозим. Бунинг учун қуйидаги икки йўналишнинг уйғунлашуви асосий шарт сифатида намоён бўлади:

Биринчи томондан, Ўзбекистон ислом дунёси билан дўстона муносабатлар, маданий-диний мулоқот ва ҳамкорликни сақлаши;

Иккинчи томондан, миллий тараққиёт йўли сифатида танлаб олинган дунёвий-демократик давлат қуриш моделини қатъий ва изчил равишда давом эттириши зарур.

Айнан мана шу мувозанат – Ўзбекистонни келгусида жаҳон ҳамжамиятида муносиб ўрин эгаллаши, тараққий этган демократик давлатлар қаторига қўшилиши ва барқарор ривожланишнинг кафолати бўлиб хизмат қилади. Бунинг учун барча объектив омиллар мавжуд – жумладан, демографик жиҳатдан Ўзбекистон аҳолиси Марказий Осиё аҳолисининг деярли ярмини ташкил этгани унинг нуфузи ва масъулиятини янада оширади.



Хулоса. Бугунги кунда Тошкент ислом университетининг Халқаро Ислом академиясига трансформация қилиниши, Тошкентдаги Имом ал-Бухорий номидаги ислом институти ҳамда Ўзбекистон мусулмонлари идораси ҳузурида фаолият юритаётган ўндан ортиқ диний таълим муассасаларида маърифий ислом анъаналари асосида таълим жараёни йўлга қўйилгани давлатнинг дин соҳасидаги оқилона сиёсатининг амалий ифодасидир. Бу ислохотлар диний ниқоб остидаги радикал ғоялар тарқалишининг олдини олиш, жамиятнинг маънавий иммунитетини мустаҳкамлаш ва ижтимоий барқарорликни таъминлашда муҳим омил бўлиб хизмат қилмоқда.

Ривожланган давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, агар дунёвий ва диний таълим ўртасидаги мувозанат бузилса ёки диний таълим миллий ва маънавий хусусиятлардан ажралган ҳолда фақат догматик ёндашув асосида ташкил этилса, бундай шароит сиёсий исломнинг кучайиши, диний ақидапарастлик, экстремизм ва фундаментализмнинг вужудга келишини рағбатлантириши мумкин. Шу сабабли Ўзбекистонда бу хавф ўз вақтида англанди ва турли диний ниқобда кириб келган миссионерлик фаолияти ҳуқуқий асосда чекланди.

Ўзбекистоннинг тараққий этган давлатлар қаторига қўшилиши ва барқарор ривожланишга эришиши, аввало, дунёвийлик сиёсатини замон талабларига мос равишда такомиллаштириш ҳамда уни давлат ва жамият бошқаруви амалиётида самарали татбиқ этишга боғлиқ. Бу жараёнда маърифатли ислом анъаналари ва замонавий дунёвий билимлар уйғунлиги ижтимоий барқарорлик, маънавий юксалиш ва миллий хавфсизликнинг муҳим кафолатларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қуръони Карим. Таржима ва изохлар муаллифи Алоуддин Мансур. Тошкент: Чўлпон, 1992. –Б.75.
2. Ўзбекистон Республикаси янги тахрирдаги Конституцияси. Тошкент: O'zbekiston, 2025. – Б.3
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. – Б. 266.
4. Саифназаров И. Ўзбекистонда дунёвийлик ҳамда динийлик мувозанатини таъминлашнинг асосий шарт ва омиллари. “Yangi O'zbekiston: barqaror rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari”. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 23. 2022. – Б. 649-650.
5. Одилқориев Х.Т., Раззоқов Д.Х. Сиёсатшунослик Тошкент: Ўқитувчи. 2008. – Б. 228.

Шерзодбек Махсудов

Наманган давлат техника университети

мустақил тадқиқотчиси

Абдурашид Мирзахмедов

Наманган давлат техника университети

профессори, илмий раҳбар.

ТОЛЕРАНТЛИК ВА ИЖТИМОЙ ТАРТИБНИНГ УЙҒУНЛИГИ

Аннотация. Глобаллашув турли туман сиёсий тузилмаларнинг хўжалик ва иқтисодий иш юритиши, этноконфессионал ранг-баранглик маконини ҳосил қилиши билан давлатлараро ва миллатлараро бағрикенгликка эҳтиёжни жиддий ортиши, совуқ урушни исиб кетиши таҳдиди ҳолатида заруриятга айланмоқда. Шу маънода мақоланинг мақсади глобаллашув шароитида ижтимоий тартибнинг нафақат алоҳида олинган давлат, балки, глобал маконда таъминлашнинг ижтимоий таҳлиллари амалга оширилган. Толерантликнинг ижтимоий тартиб билан ўзига хос уйғунлиги фанлараро тадқиқ этилган.

Калит сўзлар. Глобализация, ижтимоий тартиб, толерантность, этноконфессионал мулоқот.

Аннотация. Глобализация становится необходимостью в условиях экономической и политической деятельности различных региональных политических структур, формирования пространства этноконфессионального многообразия, существенно повышающего потребность в межгосударственной и межнациональной толерантности с угрозой потепления “холодной” войны. В этом смысле целью статьи является социальный анализ обеспечения общественного порядка в условиях глобализации не только в отдельном государстве, но и в глобальном пространстве. В междисциплинарном ключе изучается специфика совместимости толерантности и общественного порядка.

Ключевые слова: Глобализация, общественный порядок, толерантность, этноконфессиональный диалог.

Abstract. Globalization is becoming a necessity in the context of the economic and political activity of various regional political structures and the emergence of a space of ethno-confessional diversity, significantly increasing the need for interstate and interethnic tolerance with the threat of a warming Cold War. In this regard, the aim of this article is a social analysis of maintaining public order in the context of globalization, not only in individual states but also globally. The specific compatibility of tolerance and public order is examined from an interdisciplinary perspective.

Keywords: Globalization, public order, tolerance, ethno-confessional dialogue.

Кириш. Рақамли жамият, ахборот коммуникацияларининг глобаллашуви шароитида ижтимоий-дунёвий давлат шакллантиришдаги ижтимоий ислохотлар ижтимоий ҳаётни барқарор ташкилини ўта муҳим вазифага айлантирмоқда. Ахборотлашган жамиятга миллий мослашув (адаптация) ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларини янгилаши, ёшларнинг ижтимоий медиа фаоллиги туфайли ижобий ўзгаришлар билан ижтимоий тартибни ўрнатишга, фуқароларнинг қонуний ҳатти-ҳаракатларини талаб этади. Давлат фуқароларнинг мулкӣ ва номулкӣ фуқаролик муносабатлари, ижтимоий институт ва давлат корхоналарини



иш юритишини ўзга мулк субъектлари билан алоқаларини тартибга солиш орқали адолатли фуқаролик жамиятини ривожлантирмоқда.

Глобаллашув дунё давлатларининг иқтисодий ишлаб чиқариш ва маҳсулотларни аҳолига етказиб беришда яхлит бир маконга айланиши, рақобатбардош маҳсулотларни жаҳон бозорларида оммавий сотилиши, кичик ва хусусий бизнесни касодга учраши, ишлаб чиқаришда постиндустриал жамиятнинг учинчи тўлкини дунёни хўжалик юритишида умумийлашув билан характерланади [6]. Бу ҳол жаҳон хўжалик юритишда янги ижтимоий тартибларни вужудга келтириб, транснационал корпорацияларнинг маҳсулотлари дунё бўйлаб тарқалиши жаҳон ҳамжамиятини ишлаб чиқарувчи ва истеъмолчи давлатларга айланишига олиб келади. Ишлаб чиқарувчиларнинг иқтисодий ўсишига тескари пропорционалликда ривож антиглобализм ҳаракатини “Глобализм эълон қилинмаган уруш” маъносида ифодаланмоқда. Илмий тадқиқотларда замонавий дунёнинг ижтимоий тартиботида анъанавийлик ва инновация зиддияти, айниқса “Оммавий маданият” миллий маданиятларга таҳдидида ўз ифодасини топмоқда. Биз анологик фикрларни Россиялик олимларнинг илмий тадқиқотларида учратамиз [1, 7 б].

Натижа ва муҳокамалар. Ўзбекистондаги конституцион ислохотларнинг табиати инсон манфаатларининг устунлиги, давлат халқнинг розилиги учун фаолият юритиши билан янгиланиши давлат бошқарувида бир томондан, раҳбарларнинг ўз фаолиятини эскича усулидан воз кечиши билан халқнинг эскича яшай олмайдиган муносабатлари, давлат билан хал орасидаги тўсиқларни олиниши ижтимоий толерантликка заруриятни туғдирмоқда. Биланс, ҳар қандай ижтимоий тузилмаларнинг ўзгариши янги тартибларга адаптацияси учун вақт талаб этилади. Давлат миқёсида меъёрий тартиб ўрнатилиши ижтимоий миллий тараққиётда муҳим аҳамият касб этишидан тадқиқотчилар жамиятнинг ўз ўзини бошқарадиган ташкилий оқилоналиги барқарорликни нисбий таъминлаши, жамиятда ижтимоий гуруҳ ва қатламларнинг яшаш учун кураши ўзаро ҳамкорликка чорлайди, иккинчи томондан, уларнинг ўзаро ҳамкорлигида ижтимоий ўсишга бўлган иштиёқ ва ижодий кучлар фаолиятига бевосита боғлиқлиги ҳақидаги қарашларга қўшилиш мумкин [1, 10]. Дарҳақиқат, ўзбек халқининг турмуш тарзида меъёрий тартибдан кўра ижтимоий тартибга мослашувчанлиги ҳуқуқийликдан кўра ахлоқийликка мойиллигини бағрикенгликда кузатилади.

Ўзбекистондаги конституцион ислохотлар давлат ва фуқаро муносабатларидаги анъанавий алоқадорликни умуминсоний ҳуқуқий қадриятлар билан ислоҳ этиши янги меъёрий тартибларни ҳосил қилиши табиий ҳол бўлганидан этноконфессионал турмуш тарзига янги ҳуқуқий мақом ва муносабат ўзгаришларини киритмоқда. Ўзбекистоннинг мустақиллиги йиллари ўз моҳиятига кўра миллий манфаатлар, фуқароларнинг фаровонлиги йўлида ҳуқуқий тартибни янгилаш орқали одамларни янгича ҳаёт кечириш тартибига ўтказиш жараёни, деб ҳисоблаймиз. Айни вақтда ўзбек халқининг бой миллий-маънавий меросини тиклаш жараёнида либерал умуминсоний қадриятлардан фойдаланишда нозик ижтимоий вазият вужудга келиши, ўзбек миллий менталитети манфаатларини ҳисобга олишда толерантликнинг оқилоналиги заруриятга айланмоқда. Гап юртимизга кириб келаётган умуминсоний қадриятларнинг миллий маданиятимизга “либерал оммавийлик” таҳдиди ҳақида бормоқда.

Глобаллашув жараёни ёшларнинг миграциясини ўсиши туфайли уларнинг руҳиятида Ватандан ўзга маконга кўникиш, у ерда меҳнатга муносабат туфайли моддий шароитни яхшиланиши ватансизлик туйғусини “қорин тўқлиги” билан компенсация қилмоқда. Натижада, ёшларнинг табиатида космополитик дунёқараш ахборот технологияларининг



ижтимоий ҳаётнинг барча соҳаларини қамраб олиши билан “Оммавий маданият” таъсирига тортиб кетмоқда. Ёшларнинг миллий маданиятдан кўра оммавийлик ва либералликка берилиб кетиши назарда тутилмоқда. Бу ҳол ижтимоий девалвация ҳолатига қарши диндорликнинг намойишкорона, алоҳида ҳолларда мутаасиблигига олиб келиши ҳам аниқланди. Биз фикримизни миллий адабиётлардаги тадқиқотларнинг натижалари билан ҳам далиллаймиз [5, 694 б].

Глобаллашувнинг давлатлар ва халқлар тараққиётига ижобий таъсири ҳақидаги қарашлар бир томонлама характерда бўлиб, замонавий ижтимоий сиёсий муносабатларда бахсли жиҳатлар билан миллийликка таҳдид шаклига ўтмоқда. Чунки, ёшларнинг ижтимоий-иқтисодий, маданий таъсирлар остидаги ижтимоийлашуви анъанавийлик, аниқроғи оилавийликдан кўра “кўча тарбияси” моделида шаклланимоқда. Шу боис, замонавий таълим ва тарбиянинг янги фалсафаси миллий ва диний қадриятлар асосига қурилган ижтимоий тартибда миллий идентиклик йўналишига ўтиши тараққиётнинг қонуний талабига айланимоқда. Биз замонавий педагогиканинг “оммавийлик” жиҳати устуворлиги туфайли миллий маънавий тарбияда натижадорликка салбий таъсир этишини ҳам аниқладик. Ёшларнинг умуминсонийлик руҳидаги таълим ва тарбияси миллийликка қурилмас экан ўзлигини унутган янги “ижтимоий тармоқ авлоди”ни маънавий худбинлик ва жангариликка етаклайди. Бу ҳол глобаллашувда ёшларнинг жаҳон халқлари маданияти ютуқларидан баҳраманд бўлиши, лекин миллий ўзликни сақлаб қолиши толерантлиги хусусида бормоқда [4].

Жамият тараққиётида ижтимоий тартибнинг ислоҳи ижтимоий дунёвий давлатнинг меъёрий маконини яратиш орқали фуқароларнинг мослашув, қонунийликка итоаткорлигини қадриятлашувига эришилади. Рақамли жамиятда интерактив давлат хизматлари аҳолининг мобил ҳаракатчанлиги билан бирга ижтимоий воқеликдаги бўлаётган ўзгаришларни фаол назоратчисидан унинг янгиланиши жараёнида иштирокчига айлантиради. Жамият ҳаётида ёшлар ва аёллар орасида жиноятчиликнинг ўсиши, давлат бошқарув тизимидаги коррупция ва уюшган жиноятчиликка қарши ижтимоий кайфиятни шакллантириш жамоат тартибining конституциявий асосларини мустаҳкамлайди. Бу ҳол ижтимоий меъёрий тартиб фуқароларнинг толерантлик маданиятини шакллантириш билан узвий алоқадорлигида юз беради. Шу ўринда биз жамият ҳаётида тарихийлик асосида ўтмиш қадриятлари руҳиятидан тўла халос бўлолмаслик янги ижтимоий қадриятларни қабул қилолмаслик ҳолатини ҳам социологик тадқиқотларда аниқладик. Шу маънода жамиятнинг ижтимоий тараққиётида қадриятларнинг ўзгаришига ижтимоий маконда давлат сиёсатининг ўзгариши ҳам детерминант ролини ўйнамоқда. Натижада, либерал Ғарб маданияти билан Шарқнинг “Осиёча ишлаб чиқариш” патриархал моделининг зиддияти юз бермоқда.

Жамият тараққиётида ижтимоий тартибнинг меъёрий қадриятлашуви бўйича ёшлар “...давлатимизни ёшларга кўрсатаётган ғамхўрлиги ва халқимизнинг уларга бўлган ишончини теран ҳис қилишлари ва шунга мос фаолият олиб боришлари лозимлигини тушунтириб бориш, таълимнинг ҳар бир босқичида иш юритаётган ҳар бир мураббий ва ўқитувчининг асосий фаолиятига айланиши зарур. Қачонки ёшлар онгида, Ўзбекистон ягона Ватан, шу Ватандагина инсон камол топиши мумкинлиги қатъий ишончга айланса яъни мафкуравий иммунитет ҳосил қилинса, улар ... ишончни аъло ўқиш, илмий-иждоий муваффақиятлар, халқимиз фаровонлиги, мамлакатимиз тараққиёти ва Ватанимизнинг ёруғ-истикболи йўлидаги фидокорона меҳнати билан оқлай олади” деган фикрларни муҳим қафолатлиги ҳақидаги фикрлар билан ҳамфикримиз [3, 6 б].



Хулоса. Ижтимоий тартиб ва толерантлик ўзаро бир-бирини тақозо этувчи диалектик ижтимоий ҳодиса бўлиб, жамият тараққиётининг тарихий бурилиши, радикал ислохотлар шароитида аҳолининг янгиланаётган жамият ҳаётига кўникиши жараёнидир. Толерантлик миллий-диний тарихий тараққиётида шаклланган ижтимоий тартибни меъёрий тизимини таъминлаш орқали миллий маънавий маконда демократик инсонпарвар турмушни кадриятлашуви ҳам ҳисобланади.

Толерантлик нафақат бефарқлик ва лояллик ҳолати, балки сабр-тоқат, муросаю мадора билан ижтимоий тараққиётга хизмат қиладиган ижтимоий тартибни меъёрий элементи, ижтимоий муносабатларни бошқарув категорияси, деб ҳисоблаймиз. Чунки, толерантлик маданияти ўз моҳиятига кўра ижтимоий тартибни таъминлашга қаратилган ҳуқуқ субъектларининг ижтимоий келишувидир. Шу маънода глобаллашув шароитида толерантлик ижтимоий тартибни таъминлашнинг халқаро тартиби, муносабатларнинг тизимини функционал ҳамкорлиги билан миллий асосларини мустаҳкамлайди.

Адабиётлар

1. Агафонов Ю. А. Становление нового социального порядка в России и проблема толерантности// Общество и право. – 2004. –№2 (4). –С.7-14
2. Агафонов Ю. А. Становление нового социального порядка в России и проблема толерантности// Общество и право. -2004. –N. 2 (4). –С.7-14
3. Аминова, М. М. Глобаллашув шароитида баркамол авлод тарбияси// Молодой ученый. –2017. –№ 4.2 (138.2). –С.3-6
4. Лебедева М. М. От конфликтного восприятия к согласию. – Полис. Политические исследования. –1996. –№ 5. –С. 163 -170.
5. Сатторов А. А. Глобаллашув шароитида диний секталармаънавий-сиёсий таҳдид сифатида// Academic research in educational sciences. –2023. –№ 4(5) –Б.694-704.
6. Чумаков А. Н. Вопрос национальной идентичности в контексте глобализации. –М.: РФО. 2016. –261 с.

Мирзахмедова Дилрабо Махмудовна
Мустақил тадқиқотчи

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ДАРСЛАРИДА ТОЛЕРАНТЛИК КўНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

Аннотация. Мақолада Дунё глобаллашуви таълим мақсади ва мазмунини ўзгартириш орқали таълим стандартларининг янги авлоди яратиш эҳтиёжи пайдо қилмоқда. Муаллиф мақолада бошланғич синф ўқувчисининг ижтимоий ҳис-туйғуларини ва шахсиятини ривожлантириш учун синфга кўшилиш жуда муҳимлиги ҳақида ёзган. Синфдошлар ва ўқитувчилар билан шахслараро ўзаро муносабат, тенгдошлар муносабатлари тизимида маълум ўрин егаллаган ҳолда, ўқувчининг ижтимоий ҳуқ-атвор нормалари ва қоидаларини амалий ўзлаштиришини таъминлайди.

Калит сўзлар. Таълим, Бошланғич мактаб ўқувчи, Ижтимоий кўникма

FORMATION OF TOLERANCE SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL CLASSES

Abstract. The article states that the globalization of the world gives rise to the need to create a new generation of educational standards by changing the purpose and content of education. The author of the article writes that inclusiveness in the classroom is very important for the development of social skills and the personality of a primary school student. Interpersonal interaction with classmates and teachers, occupying a certain place in the system of peer relationships, ensures practical assimilation of the norms and rules of social behavior by the student.

Keywords. Education, Primary school student, Social skills

Кириш. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев: “Маълумки, ёш авлод тарбияси ҳамма замонларда ҳам муҳим ва долзарб аҳамиятга ега бўлиб келган. Аммо биз яшаётган XXI асрда бу масала ҳақиқатан ҳам ҳаёт-мамонт масаласига айланиб бормоқда”²², деб алоҳида қайд етди. Шу боис мамлакатимизда “мустақил фикрлайдиган, мамлакатимиз истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш”²³ ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларидан бири сифатида белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-5040-сон Қарори: “Эл-юрт тақдирига лоқайдлик, маҳаллийчилик, уруғ-аймоқчилик, коррупция, оилавий кадриятларга беписандлик ва ёшлар тарбиясига масъулияцизлик каби иллатларга барҳам беришга қаратилган комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш”²⁴ муҳим вазифа сифатида ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон “Ўзлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори²⁵да “Маънавий- маърифий ишларнинг таъсирчанлигини ошириш, маънавий соҳасидаги ички ва ташқи таҳдид ҳамда хавф-хатарларга қарши самарали курашиш, жамиятда мафкуравий иммунитетни мустаҳкамлаш, давлат ва жамоат ташкилотларининг бу борадаги фаолиятига яқиндан кўмаклашиш” муҳим вазифа сифатида белгилаб берилган.

Натижа. Бугунги замонавий таълим жараёни нафақат академик билим берибгина қолмай, болани ижтимоий ҳаётга тайёрловчи микромодел (жамиятнинг кичик намунаси) сифатида намоён қилади. Енди дарс бу синф деворлари орасидаги машғулот емас, балки болани реал ҳаётга тайёрловчи аниқ мақсадларга йўналтирилган мураккаб жараёндир. Бу

²² Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар—эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир // Халқ сўзи. – 2017. – 1 июль.

²³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда.

²⁴ “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 26.03.2021 йилдаги ПҚ-5040-сон

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Ўзлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори 1-илоvasи. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.



жиҳат еса мактаб педагоглар жамоаси, уларнинг ақлий салоҳияти ва мактаб моддий техник базасига бевосита боғлиқдир. Юқоридаги омилларни еътиборга олган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Мактабгача ва мактаб таълим вазирлиги бу борада Президентнинг қарор ва фармонларини амалиётга тадбиқ етиб келмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026-йилларда мактаб таълимини ривожлантириш бўйича миллий дастурни тасдиқлаш тўғрисида”ги 2022-йил 11 майдаги ПФ-134-сонли фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024-йил 21 июндаги ПҚ-231 сонли “Мактабгача ва мактаб таълими ташкилотлари ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори ва бу қарорга мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси мактабгача мактаб таълими вазирининг 2024-йил 07.08 даги “Умумий ўрта таълим муассасалари ўқитувчилари учун “Касбий ривожланиш куни” ва “Касбий ривожланиш соати” тадбирларини босқичма-босқич жорий етиш тўғрисида”ги 246-сон буйруғи қабул қилинган. “Касбий ривожланиш куни” ва “Касбий ривожланиш соати” тадбирлари ўқитувчиларнинг касбий ривожланиш тизими узлуксизлигини таъминлаш, улардаги касб маҳорати ва малака савиясининг доимий ўсиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш асосида умумий ўрта таълим муассасаларида таълим сифатини оширишга йўналтирилган.

Мактабга ижтимоий кўникма еҳтиёжида қадам қўйган Бошланғич синфи о‘қувчиси сифатида ёш болалик (4-7 ёш), болалик (8-12 ёш) педагогик ёш даврларини о‘товчиси ҳисобланади. Бу даврда, улар психологик ривожланиши билан ижтимоий-руҳий оламини сезиларли ўзгаришлар билан бойитади. Болалар атроф-муҳитни тез ўрганишга, мулоқотга киришишга, ўз шахсиятини намоён етишга интиладилар. Уларнинг еътибори беқарор, ҳиссиётлари кучли, хулқ-атвори еса кўп жиҳатдан катталар таъсирида шаклланади. Шу боисдан бу босқичда берилган тарбия ва таълим келажакда боланинг шахс сифатида шаклланишида ҳал қилувчи аҳамият касб етади. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев: “Болаларимизнинг меҳнат кўникмаларини мактаб давридан бошлаб шакллантириб бориш мақсадида “касбга ўргатиш тизими” жорий етилади”²⁶. – дея ижтимоий кўникма давлат сиёсатида еканалигини тасдиқлайди.

Бошланғич синф ёшидаги ўқувчилар ҳали ҳаётий тажрибага ега емас, уларнинг дунёқараши янги шаклланаётган вақтда мактабга борадилар. Шу боис улар учун дарс, атроф-муҳитни ўрганиш, жамиятдаги ижтимоий нормаларни тушуниш жараёни ҳамдир. Ҳар бир фан, ҳар бир машғулот боланинг нафақат ақлий ривожланишига, жисмоний, ижтимоий шаклланишига ҳам таъсир қилади. Масалан, ўқиш дарсларида ўз фикрини оғзаки баён етишни, она тили дарсларида еса ушбу фикрларни ёзма тарзда ифодалашни, муомала етикасини ўрганадилар. Жисмоний тарбия дарслари еса боланинг жисмоний ривожланиши ва соғлигини мустаҳкамлашга ёрдам берса, тарбия дарсларида еса дастлабки ижтимоий меъёр ва муносабатларни ўрганади. Бошланғич синф ўқувчилари учун дарс жараёни нафақат билим олиш воситаси, балки ижтимоий муҳитга мослашиш, ўзини тутиш, бошқалар фикрини ҳурмат билан ешитиш ва муомала қилиш кўникмаларини шакллантириш воситаси ҳамдир. Айниқса, мактаб таълимининг бошланғич босқичида ушбу кўникмаларнинг шаклланиши келгусида бола шахсиятини ривожланишида мустаҳкам пойдевор вазифасини бажаради. Биз биламизки,

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4057> (мурожаат санаси: 01.12.2024)



“Дарс - мактаб таълимининг асосий шакли, муайян миқдордаги ўқувчилар таркиби билан қатъий тартибда уюштириладиган ва аниқ мақсадга йўналтирилган дидактик тадбирдир”²⁷.

Шарқ алломалари орасида ўзининг илмий ва педагогик қарашлари билан танилган Ибн Сино (980-1037) синфий-таълим шаклининг афзалликларини илк бор илмий асосда изоҳлаган мутафаккирлардан биридир. У ўзининг “Рисола фи-т-Тарбиях”(ХИ аср) асарида таъкидлайдики, ўқувчиларнинг жамоавий, яъни синф шаклида ўқитиш яккама-якка таълимдан самаралироқдир. Унинг фикрича болалар синфда бир-бирлари билан мулоқотда бўлиб, рақобат руҳида бир-бирдан ўрнак олиб, мунозаралар орқали фикрлаш қобилиятини ривожлантиради, ўрганишини осонлаштиради. Мазкур фикр замонавий таълимда “коорпоратив таълим” ва “ижтимоий компетенциялар”ни шакллантиришнинг муҳим жиҳатларидан бири сифатида қаралади.

Бежизга файласуф ва шоир Шайх Саъдий Шерозий (ХИИИ) “Устод муаллим бўлса беозор, гўдак ели бозорда харсанг ўйнар” деб айтмаган. Бу орқали С. Шерозий муаллимдаги педагогик қатъият ва тартибнинг аҳамиятини таъкидлаган, яъни ўқитувчи талаб қилинадиган қатъиятга ега бўлмаса, синфда тартибсизлик бўлади. Аксинча, ўқитувчидаги мавжуд фазилатлари ўқувчида бир қатор ижобий ҳислатларни шакллантиради.

Буюк мутафаккир Алишер Навоий ҳам ўзининг “Махбуб ул-қулуб” (“Кўнгилларнинг севгани” 1500) асарининг 18-фаслида “Мактабдор бегуноҳ маъсумларга жафокор. Атфол азобиға роғиб ва алар таъдибиға муртакиб. Мактабдорнинг иши одамдин келмас, қайси одамки, дев қила олмас, ҳар қаттиғ кишини бир тифл муҳофазати ожиз етар, ул бир сурукка илм ва адаб ўргатгай, кўрким анга не йетгай?”²⁸.- дея жамиятда ижтимоий кўникмалашув ҳамма даврда муҳим еканлиги тасдиқлаган.

Методист олима Маматова Г.А. Ижтимоий кўникмаларни шакллантиришда дарс жараёнларига нисбатан: “...бошланғич синф ўқувчиларида шеър, ҳикоя, масал, топишмоқ, мақол, адабий қаҳрамон, сарлавҳа, матн, режа каби дастлабки адабий тушунчаларни шакллантира боришни тақозо етади. Шу мақсадга қаратилган адабий таҳлил ўқитувчи ва ўқувчининг қатъий режа асосида изчил ҳамкорликда изланишини талаб етади”²⁹. – дея ёндошган.

Ҳар бир дарсда ўқитувчи ўқувчиларнинг фаоллигини ошириш, уларни фикрлашга, баҳс-мунозараларда иштирок етишга ундаш орқали ижтимоий кўникмаларнинг шаклланишига хизмат қилади. Дарс давомида турли темпераментдаги ўқувчиларни жамиятда самарали ва тўғри мулоқотга ўргатиш, жамоада ишлаш кўникмасини шакллантириш, эмпатия ва маъсулият каби кўникмаларни шакллантириш педагогларнинг асосий вазифалари қаторига қиради. Дарс - меъёрга солинадиган ижтимоий тажриба майдонидир. Ўқувчи бу жараёнда жамиятда йўл қўймаслиги керак бўлган ижтимоий ҳатоларни(бошқага бақириш, навбат кутмаслик, маъсулиятдан қочиш, уй вазифасини бажармаслик каби) хавфсиз муҳитда синаб кўради ва тузатиш имкониятига ега бўлади. Бу еса болага реал ижтимоий ҳаётда мувозанатли, тартибли ва тарбияли шахс бўлишига замин яратади.

Методист олима М.А. Раҳимова томонидан “ижтимоий кўникма” тадқиқот муаммосига: “Ижтимоий кўникмалар — бу ижтимоий ҳуқ-атворнинг ўзлаштирилган элементлари бўлиб, улар ижтимоий олам, ўзи ва бу ёруғ дунёдаги ўрни ҳақидаги

²⁷ Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2004. –Б. 105

²⁸ Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб: (Қалблар севгилиси) – Тошкент: Ёшлар, 2018. – Б. 26.

²⁹ Маматова Г.А. Бошланғич синф ўқиш дарсларида ўқувчиларда адабий тушунчаларни шакллантириш методикаси. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) Диссертацияси автореферати. - Тошкент –2020. - Б. 10.



билимларга, ижтимоий ўзаро алоқаларни осонлаштирадиган хатти-ҳаракатлар ҳақидаги билимларга ҳамда инсонга атроф-муҳит билан муносабатларни самарали равишда ўрнатишга, ўз ўрнини белгилаб олишга ва ўзлигини намоён қилишга имкон берадиган ҳаракатларга асосланади ҳамда бу муваффақиятли ижтимоий мослашув ва умуман ижтимоийлашишга ёрдам беради”.³⁰ – дея “ижтимоий мослашув”чанлик масаласида ёндашув қилган.

Педагог олима Саидова М.Ж.: “Коммуникатив кўникмалар – таълим жараёнида ахборот воситалари, синф муҳити билан мақсадли муносабатлар ўрнатиш лаёқати, турли хил ўргатувчи дастурларда топшириқлар ифодаланишининг тушунарлилиқ даражасини таҳлил қилиш, берилган ижодий ишлар мазмунини ва натижаларни башоратлаш; ҳиссий муносабат ўрнатиш лаёқати”³¹. – дея дарс жараёнларида кўникма муҳим эканлигини тасдиқлашга ҳаракат қилган.

Навбатдаги олима Гофурова М.А.: “Бошланғич синф математика дапслапида ўқув-билиш фаолиятини ташкил қилиш ўқитувчи ва ўқувчиларнинг бипгаликдаги фаолият усулларидан саналиб, бу фаолият опқали янги билим, малака ва кўникмаларга епишилади”³² – дея ҳамкорлик асосида кўникма шаклланиши ҳақида ёндошув қилган.

Методист олима М.А. Асқарова ижтимоий кўникмани шакллантириш масаласида: “Малака - муайян усул билан беҳато бажариладиган, ўрганиб қолинган автоматлашган онгли ҳаракатдир. Малака бир хатти-ҳаракатнинг ўзини бир хил шароитда кўп марта такрорлаш натижасида ҳосил қилинади”.³³ – дея малака тушунчаси муҳим томони сифатида ёндашув қилган.

Хулоса. Замонавий таълим ёндашувининг асосий ютуқларидан бири ўқувчининг олган ижтимоий кўникмаларини таҳлил қилишни ўргатади. Масалан “Дўстларим мени фикримга ишондимми?”, “Бу гуруҳга мен керакманми?” каби. Бу еса ўқувчида ижтимоий рефлексия яъни бола ўзини жамиятда қандай тутганини англаш имконини беради. Бундан ташқари дарс жараёнлари ташқи ҳаётга кўприк вазифасини бажаради. Кўп ота-оналар фарзандларини мактабда яхши ўқишини, лекин оилада ёки бошқа ижтимоий жамоада муаммоли эканлигидан шикоят қилишади. Бу еса ўқувчининг дарс жараёнларидан олган билимларини ҳаётда қўллай олмасликларини кўрсатади. Яхши ташкил етилган дарслар ва билимли педагог бу тафовутни йўқота олади. Дарслар болада ижтимоий когнитив мослашувни шакллантиради. Яъни бола жамиятда бошқалар фикрини тушунишни, инкор етмасликни, бошқалар фикрига қарши чиқмасликни ўрганади. Бу еса болада муросавийлик ҳислатларини шакллантиради. Бу жиҳат кўп миллатли ўқувчилар ўқийдиган синфларда муҳимдир. Дарслар болада ижтимоий масъулият ҳиссини ривожлантиради. Масалан, ҳар куни ерталаб мактабга бориш, белгиланган формада юриш, дафтар-китобларини олиб юриш, ўқитувчини кутиш, навбат билан гапириш- бу оддий ҳаракатлар емас. Бунинг ортидан болада ўқишга нисбатан интизомлилиқ шаклланади.

³⁰ Раҳимова М.А. Бошланғич синф ўқувчиларида ижтимоий кўникмаларни шакллантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси. – Наманган–2022. - Б. 16.

³¹ Саидова М.Ж. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси автореферати. - Тошкент –2020. - Б. 17.

³² Гофурова М.А. Бошланғич синф математика дарсларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси автореферати. - Тошкент –2020. - Б. 13.

³³ Асқарова М.А. Бошланғич синф ўқувчиларида ўқиш ва матнни тушуниш кўникмаларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси. - Тошкент –2020. - Б. 20.



Фойдаланилган алабиётлар

1. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар—эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир // Халқ сўзи. – 2017. – 1 июль.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда, 20-сон, 354-модда.
3. “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 26.03.2021 йилдаги ПҚ-5040-сон
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 1059-сон Қарори 1-илоvasи. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 03.01.2020 й., 09/20/1059/4265-сон.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси URL: <https://president.uz/uz/lists/view/4057> (мурожаат санаси: 01.12.2024)
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2004. –Б. 105
7. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб: (Қалблар севгилиси) – Тошкент: Ёшлар, 2018. – Б. 26.
8. Маматова Г.А. Бошланғич синф ўқиш дарсларида ўқувчиларда адабий тушунчаларни шакллантириш методикаси. педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) Диссертацияси автореферати. - Тошкент –2020. - Б. 10.
9. Раҳимова М.А. Бошланғич синф ўқувчиларида ижтимоий кўникмаларни шакллантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси. – Наманган–2022. - Б. 16.
10. Саидова М.Ж. Бошланғич синф математика дарсларида ахборот технологияларидан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси автореферати. - Тошкент –2020. - Б. 17.
11. Гофурова М.А. Бошланғич синф математика дарсларида ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси автореферати. - Тошкент –2020. - Б. 13.
12. Асқарова М.А. Бошланғич синф ўқувчиларида ўқиш ва матнни тушуниш кўникмаларини ривожлантириш. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) - Диссертацияси. - Тошкент –2020. - Б. 20.

Burxonjonova Dilnura Narimon qizi

Namangan prezident maktabi,
maktab SFS club mentori

YOSHLAR ONGIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA VOSITALARINING O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy media vositalarining yoshlar ongida tolerantlik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot davomida aralash metodologiya asosida ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, yoshlarning bag'rikenglik haqidagi qarashlari va turli axborot kontentlariga nisbatan qabul qilish darajalari o'rganildi. Tahlillar natijasida media vositalarining ijobiy ta'siri bilan bir qatorda, salbiy kontentlarga qarshi tanqidiy fikrlash va media savodxonlikning zaruriyati asoslab berildi. Tadqiqot tolerantlikni rivojlantirishda media vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi.

Kalit so'zlar: tolerantlik, media vositalari, yoshlar, axborot, ijtimoiy tarmoqlar, madaniyatlararo muloqot

Globalashuv jarayoni kuchayib borayotgan hozirgi zamonda turli millatlar, dinlar va madaniyatlar o'rtasidagi munosabatlar tobora murakkablashib bormoqda. Bunday sharoitda jamiyatda totuvlik, o'zaro hurmat va tolerantlikni ta'minlash dolzarb ijtimoiy vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, bu masala yoshlar ongida to'g'ri yondashuv va tarbiyaviy strategiyalar asosida shakllantirilishi zarur. Chunki yosh avlod – kelajak jamiyatining asosiy ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

Bugungi kunda yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan media vositalari (ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, bloglar va videoplatformalar) ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va xatti-harakatlariga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Media orqali tarqatilayotgan ijtimoiy, madaniy va axloqiy kontent yoshlarning jamiyatdagi boshqa guruhlariga bo'lgan munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu bois, media vositalarining yoshlar ongida tolerantlik madaniyatini shakllantirishdagi o'rni ilmiy tadqiqotlar doirasida tahlil qilinishi muhimdir.

Ushbu maqolada media vositalarining yoshlar orasida bag'rikenglik, madaniy xilma-xillikka hurmat va millatlararo totuvlik g'oyalarini singdirishdagi ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Tadqiqot tolerantlik tushunchasining mohiyatini, zamonaviy media vositalarining kommunikativ xususiyatlarini hamda O'zbekiston yoshlarining media iste'mol madaniyatini tahlil qilishga qaratilgan.

Ushbu tadqiqot yoshlar ongida tolerantlik madaniyatining shakllanishida media vositalarining o'rnini chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, aralash uslubdagi (mixed-methods) yondashuv asosida



olib borildi. Bunda sifatli (qualitative) va miqdoriy (quantitative) tadqiqot metodlari uyg'unlashgan holda qo'llanildi. Bu uslub muammoning kompleks mohiyatini har tomonlama ochib berish va ilmiy asoslangan xulosalarga erishishga xizmat qildi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Toshkent, Andijon va Samarqand viloyatlaridagi umumta'lim maktablari, litsey va oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan 120 nafar yosh tanlab olindi. Ishtirokchilar media vositalaridan faol foydalanadigan, 16–22 yosh oralig'idagi shaxslar bo'lishiga e'tibor qaratildi.

Ma'lumotlar yig'ish jarayonida turli uslublar qo'llanildi. Avvalo, maxsus ishlab chiqilgan anketalar orqali yoshlarda media kontentga nisbatan qiziqish, foydalanish tezligi va tolerantlik g'oyalari bo'lgan munosabat o'rganildi. Shuningdek, fokus-guruh suhbatlari tashkil qilinib, ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan millatlararo munosabatlar, madaniyatlararo muloqot, bag'rikenglik va nafrat nutqlari haqidagi fikrlar muhokama qilindi. Media psixologiyasi va ta'lim sohasi vakillari bilan o'tkazilgan yarim strukturalangan intervyular orqali esa, media vositalarining tarbiyaviy va axloqiy ta'siri keng qamrovda tahlil qilindi.

Tadqiqotning yana bir muhim jihati sifatida, yoshlar orasida keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlar - Telegram, Instagram, TikTok va YouTube'dagi mashhur sahifalardagi kontentlar kontent-tahlil asosida o'rganildi. Ayniqsa, tolerantlik, millatlararo do'stlik va insoniylik g'oyalari targ'ib qilinadigan postlar va videoroliklar tematik yondashuv asosida saralandi.

Yig'ilgan ma'lumotlarning miqdoriy qismi SPSS statistik dasturi yordamida tahlil qilindi. T-test, dispersion tahlil va o'rtacha qiymatlar orqali yoshlarning turli media platformalarga bo'lgan munosabati va tolerantlik darajasidagi o'zgarishlar aniqlangan. Sifatli ma'lumotlar esa NVivo dasturi yordamida kodlanib, asosiy temalar ajratib olindi: "media ta'siri", "tolerantlik haqidagi tasavvurlar", "ixtilofga munosabat" va "pozitiv media tarkibining roli".

Tadqiqot davomida etik normalarga qat'iy rioya qilindi. Ishtirokchilarning roziligi oldindan olinib, anonimlik va maxfiylik ta'minlandi.

Tadqiqot davomida yig'ilgan empirik ma'lumotlar asosida yoshlar orasida tolerantlik madaniyatining shakllanishida media vositalarining ahamiyatli o'rin egallashi aniqlandi. So'rovnomalarga asoslangan statistik tahlillar shuni ko'rsatdiki, ishtirokchilarning 82 foizi media kontentlar orqali boshqa madaniyat, til va millatlar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega ekanini bildirdilar. Bu esa ularning madaniyatlararo tushuncha va bag'rikenglik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Fokus-guruh suhbatlarida ko'pchilik yoshlar ayniqsa YouTube, Telegram va TikTok platformalarida uchraydigan qisqa videoroliklar, hujjatli filmlar va bloggerlar chiqishlari orqali o'zlarida boshqa millat vakillariga nisbatan qiziqish va hurmat hissi ortganini ta'kidladilar. Shu bilan birga, ayrim ishtirokchilar ayrim holatlarda media vositalarida tarqatilayotgan stereotipik,



kamsituvchi yoki noto'g'ri axborotlar bag'rikenglikka salbiy ta'sir ko'rsatishini ham qayd etdilar. Bu esa, media tarkiblarining sifatli va pedagogik nazorat asosida bo'lishi zarurligini ko'rsatadi.

NVivo dasturida olib borilgan sifatli tahlil natijasida asosiy uchta tematik yo'nalish ajratib olindi:

1. "Media orqali ko'ngil ochishdan – o'zini anglashgacha" – bu yo'nalishda yoshlar nafaqat ma'lumot oluvchilar, balki o'z fikrini ommaga yetkazuvchilar sifatida shakllanayotgani kuzatildi.
2. "Tolerantlikka undovchi kontentlar" – yoshlar o'zlariga ijobiy ta'sir qilgan blogerlar, interaktiv loyihalar va ijtimoiy tashabbuslarni sanab o'tishdi.
3. "Media tahdid va xavfsizlik" – ayrim ishtirokchilar internetda nafrat nutqi va noto'g'ri kontentlar orqali radikal kayfiyatlarning yuzaga kelishi mumkinligini tilga oldilar.

Miqdoriy natijalar tahliliga ko'ra, respondentlarning 76 foizi tolerantlik haqida tasavvurlari aynan media orqali kengayganini tan oldilar. 68 foiz yoshlar boshqa millatlar, madaniyatlar va diniy guruhlar haqida ijobiy fikr shakllanishini ijtimoiy tarmoqlardagi misollar orqali bog'lashdi.

Shuningdek, maktab, kollej va universitetda o'qiydigan yoshlarda tolerantlik darajasida sezilarli tafovutlar aniqlandi: oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar orasida bag'rikenglik darajasi yuqoriroq bo'ldi. Bu esa, yoshning intellektual darajasi va ta'lim muhiti media kontentlar ta'sirini qanday qabul qilishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy media vositalari yoshlar ongida tolerantlik g'oyalarini shakllantirishda muhim tarbiyaviy va kommunikativ omil sifatida xizmat qilmoqda. Olingan dalillar yoshlar orasida madaniy xilma-xillik, millatlararo hurmat va diniy bag'rikenglikka nisbatan ijobiy munosabat shakllanishida aynan media kontentlarning ahamiyatini tasdiqlaydi.

Fokus-guruhlar va intervyular orqali aniqlanishicha, yoshlar ko'pincha o'zlari munosib deb bilgan axborot manbalaridan ijobiy tolerantlik namunalarini oladilar. Xususan, ijtimoiy tarmoqlardagi ta'sirchan blogerlar, madaniyatlararo muloqotni yorituvchi vloglar va hujjatli filmlar yoshlarning boshqa millat va madaniyat vakillariga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu holat global madaniy integratsiya jarayonlarining yosh avlod ongida bevosita ifodasidir.

Biroq, tadqiqotda ishtirok etgan ayrim yoshlar nafrat uyg'otuvchi, stereotiplarni mustahkamlovchi va radikal qarashlarga chorlovchi kontentlarning ham keng tarqalganini bildirdilar. Bu esa media vositalarining ikkiyoqlama xususiyatini – ham ijobiy, ham salbiy ta'sir potensialini ko'rsatadi. Demak, media savodxonligini rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni shakllantirish tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning ajralmas omiliga aylanadi.

Tadqiqot shuningdek, yoshlarning yosh guruhi, ta'lim darajasi va yashash hududi kabi omillar media ta'sirini qabul qilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini aniqladi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan yoshlar orasida bag'rikenglik va madaniy xilma-xillikka ochiqlik darajasi



nisbatan yuqoriroq bo'ldi. Bu esa tolerantlikni targ'ib qiluvchi kontentlar ta'lim jarayoni bilan uyg'un bo'lganda, kuchliroq samara berishini anglatadi.

Ilmiy adabiyotlar bilan solishtirganda, ushbu tadqiqot Zeer (2005), Slobodchikov (1995) va Leontyev (2001) kabi mutaxassislarning inson ongida axloqiy pozitsiya shakllanishi media va ijtimoiy muhit orqali amalga oshishini ta'kidlovchi qarashlarini qo'llab-quvvatlaydi. Biroq bu tadqiqot O'zbekiston yoshlarining aniq ijtimoiy-madaniy kontekstida olib borilgani bilan farq qiladi va lokal xususiyatlarga asoslangan xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Yoshlar ongida tolerantlik madaniyatining shakllanishi zamonaviy jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, media vositalari – ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar – yoshlarning boshqa millat, madaniyat va diniy guruhlariga bo'lgan munosabatini shakllantirishda kuchli vosita sifatida xizmat qilmoqda. Tolerantlik g'oyalarini ifoda etuvchi, madaniy xilma-xillikni targ'ib qiluvchi kontentlar yoshlar ongida bag'rikenglik, hurmat va hamkorlikka asoslangan qadriyatlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda.

Biroq bu jarayon biryozlama emas. Media orqali tarqatilayotgan salbiy stereotiplar, noto'g'ri axborotlar va ijtimoiy tarmoqlardagi nafrat nutqlari yoshlar ongida noxolis tasavvurlarni shakllantirishi mumkin. Shu bois, media vositalarining ta'sirini boshqarish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va media savodxonlikni oshirish bu borada muhim omil hisoblanadi.

Tadqiqotda aniqlanganidek, ta'lim darajasi, yosh toifasi va hududiy farqlar media ta'sirining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa shuni anglatadiki, tolerantlikni shakllantirishda individual yondashuv, madaniy kontekstni hisobga olgan pedagogik va axborot siyosati zarur.

Umuman olganda, yoshlar orasida tolerantlik madaniyatini shakllantirishda media vositalaridan samarali foydalanish uchun ularning tarbiyaviy salohiyatini maksimal darajada ishga solish, salbiy axborotlardan himoya qilish va ijtimoiy mas'uliyat bilan yondashish lozim. Bu esa, nafaqat yoshlarning, balki butun jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va madaniy uyg'unligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chelysheva, I. V., & Mikhaleva, G. V. (2019). Interethnic tolerance among university students in the context of contemporary Russian and foreign media education. *Mediaobrazovanie*, 59(1), 14-22.
2. Togaiybayeva, A., Yessengulova, M., Zhukonova, G., Ramazonova, D., & Issembayeva, N. (2016). The role of education and mass media in the development of inter-ethnic tolerance as a necessary condition for the national unity of Kazakhstan. *Global Media Journal*, S3:21.
3. Supa, M., Römer, L., & Hodboř, V. (2022). Including the experiences of children and youth in media education. *Media and Communication*, 10(1), Article 5709.
4. Asthana, S. (2007). Innovative practices of youth participation in media. *UNESCO*.



5. Natalya, Y. S. (2018). The experience of students' interethnic tolerance formation in a modern multicultural society. *Revista espacios*, 39(05), 19.

Oripov Faxriddin Yo'ldashevich,
katta o'qituvchi
Namangan davlat universiteti

YOSHLAR EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DINIY QADRIYATLARNING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirish jarayonlarini xalqimizning ijtimoiy hayotidan asrlar davomida chuqur o'rin egallagan diniy qadriyatlardan kelib chiqib yoritib berishga harakat qilgan. Muallif maqolani yoritishda hozirgi davrda dolzarb umuminsoniy muammoga aylanib ulgurgan ekologik muammolarni mahalliy sharoitlarda yoshlar ekologik madaniyatini yanada ravnaq toptirish borasida diniy qadriyatlarning ham o'ziga xos muhim o'rni borligiga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: demokratik davlat, diniy e'tiqod, diniy davlat, ekologiya, ekologik madaniyat, geografik hudud, tabiat unsurlari, islomiy an'analar, manipulyatsiya.

THE ROLE OF RELIGIOUS VALUES IN IMPROVING YOUTH'S ECOLOGICAL CULTURE

Abstract: The article attempts to shed light on the processes of improving the ecological culture of youth at the new stage of development of Uzbekistan, based on religious values that have been deeply embedded in the social life of our people for centuries. In covering the article, the author draws attention to the important role of religious values in further developing the ecological culture of youth in local conditions, which have become an urgent universal problem in the current era.

Keywords: democratic state, religious belief, religious state, ecology, ecological culture, geographical area, natural elements, Islamic traditions, manipulation.

Kirish. Demokratik davlat fuqarolarning diniy e'tiqod qilish erkinligini tan oladi va ba'zi diniy masalalarni qonun bilan tartibga soladi. Ammo ayrim dunyoviy davlatlarda "asosiy din" yoki "davlat dini" mavqeyi saqlab qolingani. Germaniyada ish haqidan olinadigan soliqning ma'lum foizi cherkovga o'tkazib beriladi. Yoki, aholining 60 foizi musulmon bo'lsa-da, Malayziyada islom "davlat dini", - deb e'lon qilingan. Hatto dunyoviy davlat hisoblangan Italiyada ham katolik dini davlat dini sifatida tan olingan. Din – ma'naviyatning tarkibiy qismi bo'lib, u insonlarni doimo ezgulikka, birodarlikka chorlab, tarbiyaviy va yana qator ijtimoiy vazifalarni bajarib kelgan. Uning o'ziga xos mazmun va mohiyatga ega bo'lgan ontologik, gnoseologik, aksiologik, prognostik kabi xususiyatlari mavjudki, ular bevosita insonni borliqqa, tabiatga oqilona munosabatlarini shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Bu jarayon ta'lim, amaliy loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar orqali keng qamrovda olib borilmoqda. Boz ustiga, 2025-yil "Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili" deb rasman e'lon qilingan. Bu borada turli mazmundagi yangicha yondashuvlar va qadriyatlarga katta e'tibor qaratilmoqda.



Tahlil va natijalar. Tabiatga bo'lgan ramziy e'tiqod dastlabki diniy tasavvurlarni va uning ko'rinishlari bo'lgan totemizm, fetishizm, animizm va sehrgarlik kabilarni vujudga keltirdi. Keyinchalik bu tasavvurlar barcha dinlar uchun fundamental mazmunga aylanishga erishdi. Shu tariqa tabiat hodisalari va unsurlari (quyosh, chaqmoq, o'simlik, jonivor, olov va h.k.) ilohiylashtirilgan, hamda ularga nisbatan qadriyatli (aksiologik) munosabatlar shakllana boshlagan. Bunday qarash va tasavvurlar keyinchalik, milliy, hamda jahon dinlari rivojlanish jarayoniga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Ilmiy manbalardan ma'lumki, qadimda dunyoning ko'plab xalqlari tabiat unsurlari (yer, suv, tog', o'simlik kabilar)ni muqaddaslashtirganlar, ularni g'ayritabiiy kuchga ega, [1] - deb e'tiqod qilganlar.

Markaziy Osiyo, jumladan, o'zbek xalqi madaniyatining asosi bo'lgan islomiy an'analar asrlar mobaynida odamlarni ozodalik, poklik, yerni, suvni, havoni bulg'amaslikka da'vat etgan.

Barcha dunyoviy dinlar ichida islom dini insonlarni doimo ma'rifatga, ezgulikka, yuksak odob egasi bo'lishlikka chaqiradi.

Lekin afsuski, vaqt o'tgani sayin inson muqaddas ta'limotlarni, yuksak ezgu g'oyalarni ma'lum ma'noda ba'zan unutib qo'ymoqda, shuning barobarida jabrini ham tortishga ulgurmoqda.

Bu borada O'zbekistonning birinchi prezidenti I.A.Karimov haqli ravishda: "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir, uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir", - deb ta'kidlagan edi [4]. Darhaqiqat, bizningcha bugun kunda barcha xalq, millat va elatlarning vazifasi – bu atrof-muhitga ziyon yetkazmagan holda tabiat boyliklaridan oqilona foydalanishlari va uni muhofaza qilishlaridan iboratdir. Bu vazifani bajarishda jamiyat a'zolarining, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasida tabiiyki, ezgulik, nafosatlilik g'oyalari singdirilgan insonni tabiatga munosabatini barqarorlashuviga xizmat qiluvchi eng muhim qadriyatlarimizdan biri bo'lgan islom dinining ahamiyati beqiyosdir.

Bizga ma'lumki, islom dini ezgulikka asoslangan bo'lib, insonlarni halollikka, poklikka, tabiatga nisbatan odilona, oqilona munosabatda bo'lishga da'vat etadi. Hadislarda Payg'ambarimiz Muhammad (sallallohu alayhi vasallam) aytadilar: "Pok bo'linglar, zero Islom pok dindir va faqat pok kishilar jannatga kirur"[5]. Islom dini odamlarni atrof-muhitni asrashga, hayvonot va o'simlik dunyosiga zarar yetkazmaslikka, ne'matlardan o'z ehtiyoji uchun foydalanganda isrof etmaslikka, Alloh yaratgan tabiatdagi muvozanatni va jipslikni buzmasdan ulardan to'g'ri foydalanishga, ona zaminga mehr-muhabbatli bo'lishga va tabiatdan oqilona foydalanishga chaqiradi.

Asosiy manba bo'lmish Qur'oni Karim va hadisi shariflarda islom qonun qoidalari, shariat ahkomlari bilan bir qatorda, atrof-muhitni toza saqlash, tabiiy boyliklardan to'g'ri foydalanish, ularni isrof qilmaslik, insonning yashash tarzi, shaxsiy gigiyenasi zurriyatini tozaligiga, o'simlik va hayvonot dunyosini asrashga, umuman ekologiya va tabiatni muhofaza qilishga katta ahamiyat berilgan. Masalan, A'rof surasi 56-oyatida bunday deyilgan: "Obod qilib qo'yilgan yer yuzasida buzg'unchilik ishlarini qilmang". Hadislarda olamning birligi, undagi qatradan tortib okeangacha, zarradan boshlab quyoshgacha, odam, o'simlik, hayvonot dunyosi xudoning irodasi bilan o'zaro bog'langanligini, o'zaro payvandligi va bir-biriga muvofiq holda harakatda ekanligi aytilgan. Umuman olganda muqaddas kitoblarda alloh taolo inson uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni muhayyo qilingan ekanligini, uning sog'lom irsiy taraqqiyoti uchun sof havo, toza suv, oziq-ovqat, shifobaxsh nur, o'simlik va hayvonot dunyosini in'om etganligi uqtiriladi. Faqat bu marhamatdan me'yorida, isrofsiz foydalanish ko'rsatiladi, aks holda suv, yer, havo va nur nojo'ya qilmishlarimiz uchun jazolaydigan va butun dunyoni larzaga soluvchi qurolga aylanishini hozirgi zamon fani isbotladi.

Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v. Madinada bezgak kasali ko'payganda ko'lmak



suvlarni quritishga, kechasi ovqat idishlarini og'zini yopib qo'yishga, quturgan itlarni yo'q qilishga buyurganlar. Misollardan ko'rinib turibdiki, payg'ambarimiz qandaydir ko'zga ko'rinmas (inson uchun) zararli jonzotlar borligini bilib, ularning ko'payishini oldini olganlar. Alloh Taolo maxluqotlarning bir zarrachasi bo'lgan hayvonlarga hech bir sababsiz zarar keltirmaslikka, mehribon bo'lishlikka chaqiradi. "Baqara" – Sigir, "An'om" – Chorvalar, "Nahl" – Asalari, "Na'ml" – Chumoli, Fil kabi hayvon va hasharotlar nomlari bilan bog'liq ayrim suralarning Qur'oni Karimda bo'lishligi ham albatta bejiz emas.

Shuningdek, islom dini yil davomida maxsus joylarda hayvonlarni sababsiz o'ldirish, daraxtlarni kesish va o'simliklarni nobud qilishni ma'n qilgan. Hadislarga chuqurroq yondashilsa, ekologiyaning hamma jabhalariga oid-shaxsiy gigiyena, o'simlik, hayvonot va tuproq ekologiyasiga oid bo'lgan ko'rsatmalarni ham topish mumkin. Mana, shulardan ba'zilariga e'tibor beraylik... Soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni Tangri do'zaxga mahkum etadi; O'q otish mashqida jonli narsani nishon qilib qo'ymanglar; Kimki chumchuqdek qushni so'yishda o'z rahmdilligini ko'rsatadigan bo'lsa, Tangri bunday kishiga qiyomat kuni o'z mehribonligini ko'rsatadi; Dunyo yam-yashil go'zaldir. Kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, undan baraka topadi. Kimki nafs xohishi bilan dunyoni mukkasidan ketib egallasa, qiyomat kuni do'zaxdan boshqaga erishmaydi deyilgan.

Jumladan, "Baqara" surasining 205-oyatida o'simlik va hayvonot olami inson uchun eng zarur narsalar ekani ta'kidlangan. Kim bularga zarar yetkazsa, insoniyatga zarar yetkazgan bo'ladi. Qur'oni Karimda barcha jonzotlar insonlar kabi "ummat" ekani ta'kidlanadi. Aynan shu ta'kid insonni o'zi kabi ummat bo'lgan barcha jonli mavjudotga nisbatan mehribon bo'lishga undaydi. Bu xususda Alloh taolo "An'om" surasida bunday deydi: "Yer yuzidagi har bir jonzot va ikki qanoti ila uchuvchi qush borki, hammasi siz kabi ummatlardir" (38-oyat), ya'ni hayvonlarning har bir turi yoki oilasi alohida olingan ummat hisoblansa, aynan shu hukm bilan ular boshqa ummatlar orasida yashashga, mavjudlik haqqiga egadir.

Islom dinida hayvonot olamiga alohida e'tibor berilgani kabi nabotot olamiga ham juda katta urg'u beriladi. Unga ko'ra nabotot olami Allohning insonga ato qilgan ulug' ne'matlaridan biri bo'lib, bu olam bo'lmasa, yer yuzida hayot bo'lmas edi.

Jumladan, Zumar surasi, 21-oyatda "Alloh osmondan suv tushirib, uni yerdagi manbalardan oqizib qo'yanini ko'rmadingizmi! So'ngra u ila turli rangdagi ekinlarni chiqaradi. Keyin u quriydi. Bas, uni sarg'aygan holida ko'rursan. So'ngra uni quruq cho'pga aylantirur. Albatta, bunda aql egalari uchun eslatma bordir"[6], deb aytilgan. Shuning uchun ham Alloh bu olamni insonga hayot vositasi, unga va chorvasiga rizq qilib bergani haqida ko'p g'oyalar ilgari surilgan. Ko'rinib turibdiki, atrof muhitni toza saqlash, tabiatni muhofaza qilish, Alloh in'om etgan hayvonot va nabotot olami inson manfaatlariga xizmat qiladi. Xususan, "U quyosh va oyni muttasil harakatlantirib, sizga beminnat xizmatkor qilib qo'ydi. Shuningdek, sizga kecha ila kunduzni ham beminnat xizmatkor qilib qo'ydi. Va U sizga barcha so'ragan narsalaringizdan berdi. Agar Allohning ne'matlarini sanasangiz, sanog'iga yeta olmassizlar. Albatta, inson o'ta zolim va o'ta noshukurdir" (Ibrohim surasi, 33-34-oyatlar). "Va sizga osmonlardagi narsalarni va yerdagi narsalarni – hammasini O'z tomonidan beminnat xizmatkor qilib qo'ydi. Albatta, ana shunda tafakkur qiladigan qavmlar uchun oyat (belgi)lar bordir" (Josiya surasi, 13-oyat), kabi misollarni ham keltirib o'tish mumkin.

Yer yuzidagi barcha narsalar inson uchun yaratilgan, ularga oqilona yondashgan holda, to'g'ri va yaxshi munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir. Zero, Alloh taolo "Baqara" surasining "U yer yuzidagi barcha narsani sizlar uchun yaratgan" - deb boshlanadigan 29-oyatida inson uchun, uning tasarrufi va foydasi uchun yaratgan narsalarga, jumladan, yer osti boyliklari va konlarga ishora qiladi.

Biz buni to'g'ri anglagan holda yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini



tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ma'naviy qadriyatlarimizda ilgari surilgan g'oyalarga tayanishimiz kerak. Bu g'oyalar yoshlarning tabiatga va hayvonot dunyosiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishda, umuman "tabiat – jamiyat – inson" tizimi munosabatlarini mamlakatimizning yangi taraqqiyot bosqichida uyg'unlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, islom dini xalqimizning tabiatga munosabatini to'g'ri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U ona Vatanimizning tabiatini asrab-avaylashga bo'lgan mehr-muhabbatni kuchaytiradi va uni asrash orqali o'sib kelayotgan avlod uchun zarur hayotiy shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirishda diniy qadriyatlarga e'tibor berish falsafiy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega. Diniy qadriyatlar atrof-muhit, tabiat va insonni bir butunlikda va ularning o'zaro munosabatlari kontekstida ko'rish imkonini beradi. Quyida ushbu nuqtai nazardan uning imkoniyatlari va ahamiyati haqida bir necha muhim tomonlarni ko'rib chiqamiz:

— Birinchidan, axloqiy qadriyatlar: dinlarda tabiatni muhofaza qilish, uning resurslari va bio xilma-xillikka bo'lgan e'tibor orqali ta'rif berilishi ekologik nazoratni kuchaytirishi mumkin. Bunday axloq yoshlarda tabiatga mustaqillik, ehtirom va mas'uliyat hissini shakllantirishi uchun asos bo'lishi mumkin.

— Ikkinchidan, ijtimoiy mas'uliyat borasida - diniy da'vatlar jamiyatda insonlarning bir-biriga va atrof-muhitga bo'lgan munosabatini ta'minlashga yo'naltirilgan. Diniy qadriyatlar yoshlar orasida jamiyatning umumiy manfaatlarini olg'a surish va atrof-muhitni muhofaza qilish uchun jamiyatni birlashtirishda katta rol o'ynaydi.

— Uchinchidan, falsafiy uyg'unlik nuqtai nazaridan - diniy ta'limotlar ekosistemaning tuzilishi va muhiti bilan bog'liq ko'pgina falsafiy tushuncha va ta'riflarga ega, masalan, insonning tabiatdagi o'rni, tabiat va insoniyat orasidagi mukammallik. Bu ushbu masalada yoshlarning dunyoqarashini rivojlantirishda muhimdir.

— To'rtinchidan, tabiat va uning asl maqsadi: dinlarda tabiatni yaratish va uning sog'lomligini ta'minlash maqsadini falsafiy tomondan ko'rib chiqish mumkin. Yoshlarga tabiatga ongli munosabatda bo'lish va uning asl maqsadi bo'lgan obyektiv qonunlarga bo'ysunuvchi munosabatlarni rivojlantirishga e'tibor berish, uni asrashga bo'lgan e'tiborlari g'oyatda muhim.

— Beshinchidan, ryhiyat borasidagi tadbirlar, din insonning ruhiy va ma'naviy rivojlanishidagi hissiyotlari orqali mavjud ekosistemaga nisbatan moslashib yashash imkonini beradi. Din yoshlar orasida sog'lom muhit, uyushuvchanlik, kommunikativlik va shu kabi yashash parametrlarini saqlashga da'vat etadi.

— Oltinchidan, tarbiya va ta'lim sohasida - diniy ta'limotlar yoshlarga atrof-muhit va uni muhofaza qilish bo'yicha zarur bilimlarga ega bo'lgan ota-onalardan, jamoaviylikdan, taniqli yoki yoshi ulug' ko'plab qadriyatlarni o'zida mujassam etgan insonlardan vorisiylik munosabatlari asosida uzatiladi. Din va ekologik ta'limni integratsiya qilish ekologik madaniyatni yuksaltirishda samarali natija berishini doimo yodda tutish lozim.

— Ettinchidan, hamkorlik va jamoatchilik borasida - dindor jamoalar yoshlarni ekologik faoliyatlarda ishtirok etishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ekologiyani muhofaza qilish masalalarini muhokama qilish va tadbirlarni uyushtira oladilar.

Diniy qadriyatlarni yoshlar ekologik madaniyatini yuksaltirishda ta'sir qiluvchi tarbiyaviy, axloqiy vosita sifatida falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish, yoshlarning tabiat, jamiyat va o'zlari o'rtasidagi munosabatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday yondashuv, yoshlarga nafaqat ekologiya, balki butun borliqqa nisbatan munosabatlarini rivojlantirishga yordam beradi.



Hadislarda tabiatni sevish va asrashga oid bir necha muhim ma'lumotlar va ko'rsatmalar mavjud. Islomda tabiat va uning resurslariga ehtirom bilan munosabatda bo'lish, ularni asrash va muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi hadislarda ilgari surilgan g'oyalar bizning fikrimizcha tabiatni sevish va asrash to'g'risidagi Islomning nuqtai nazarini ko'rsatadi:

— Tabiatning ahamiyati: Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) tabiatni va uning resurslarini asrashga, ulardan oqilona foydalanishga chaqirgan. Uning "Tabiatni asrash va uning resurslarini samarali foydalanish" haqidagi fikrlari, insonning tabiat bilan munosabatini belgilaydi.

— Tabiatni muhofaza qilish borasida: "Kimda-kim bir daraxtni kessa, u odamning jamiyatga va tabiatga bo'lgan munosabatidagi mas'uliyatini ko'rsatadi",- degan. Bu hadis tabiatni asrash va uning resurslarini muhofaza qilishning ahamiyatini ta'kidlaydi deb tushunishimiz mumkin.

— Tabiatga ehtirom xususida: "Allohning har bir jonzoti va tabiatning har bir qismidan foydalanishda ehtiyotkor bo'ling" - degan hadislar, insonning tabiatga bo'lgan munosabatini va uning resurslarini muhofaza qilishdagi mas'uliyatini ko'rsatadi.

— Suvni asrash to'g'risida esa "Suvni isrof qilmang, hatto agar siz jannatda bo'lsangiz ham" deyilgan. Bu hadis suvni asrash va uning qadrini anglashga chaqirishda muhim ahamiyatga ega.

— Tabiat va jonzotlarga mehr ko'rsatish borasida esa - "Kimda-kim jonzotlarga mehr ko'rsatsa, Alloh uning mehrini qabul qiladi" deyilgan hadis tabiat va jonzotlarga bo'lgan munosabatdagi muhabbatni ko'rsatadi.

— Tabiatning mukammalligi: Islomda tabiatning mukammalligi va uning resurslarini adolatli taqsimlashga e'tibor berilgan. "Alloh har bir narsani mukammal yaratgan" degan ta'limot, tabiatning ahamiyatini va uni asrash zarurligini ko'rsatadi.

Ushbu hadislar Islomda tabiatni sevish, uni asrash va resurslardan oqilona foydalanishning muhimligini ta'kidlaydi.

Islomdagi tasavvuf falsafasi ta'limotiga ko'ra, dunyo to'rt unsur: tuproq, suv, shamol va olov asosiga qurilgan. Aynan mazkur to'rt unurning har biridan to'rt xususiyat, to'rt holat, to'rt mayl va to'rt sifat yuzaga kelgan deyiladi. **Tuproqdan** sabr, umid, ezgu xulq va muruvvat; **suvdan** quvonch, saxovat, nazokat, birlik; **shamoldan** yolg'on, ikkiyuzlamachilik, sabrsizlik, tantiqlik; **olovdan** esa nafs, kibr, tama, hasad kabi sifatlar. Aksiologik tarafini tahlil etsak, xalqimiz, ajdodlarimiz o'tmishda suvni quvonch, saxovat va birlik ramzi ma'nosida qadrlab, tiriklik va hayot timsoli deb bilishgan. Qur'onning "Haj" surasi 5-oyatida "...Va yerni qaqragan holda ko'rarsan. Qachonki Biz unga suv tushirsak, u seskanadir, ko'pchidir hamda har xil go'zal juftlarni o'stiradilar"[7], - deyiladi. Ko'rinib turibdiki, yerga yomg'ir yog'sa, u harakatga kelib, undan o't-o'lanlar asta unib chiqib, yashillikka burkanadi. O'zbek xalqining suvga bo'lgan mehri, hurmati azaldan cheksiz qadriyat bo'lgan munosabat kabi. Dov-daraxtlarning hayoti, jamiyatning yashovchanligi, inson tirikligi-bularning barchasi bebaho ne'mat-suvga bevosita bog'liqdir, bejizga suv – bu hayot deyilmagan. Qur'ondagi "Anbiyo" surasi 30-oyatida: "Biz ularni ochganimizni va suvdan barcha tirik narsani (paydo) qilganimizni bilmaslarmi?"[8], - deb marhamat qilinganligi unda chuqur falsafiy mazmun o'z ifodasini topganidan dalolatdir.

Tabiat ne'matlarining qadrlab yashash, ularni asrash, isrof qilmaslik, bulg'amaslik xususida islom dinida ko'plab qimmatli ko'rsatmalar berilgan. Chunonchi, ekologik tarbiyaga oid masalalar, xususan, shaxsiy gigiyena bilan bog'liq fikrlar ham bildirilgan. Jumladan, hadislarda: "Rasululloh idish og'zidan uch bor suv ichib, har gal nafaslarini tashqariga chiqargan edilar"[9], - deb ta'kidlangan. Ushbu hadis ko'plab musulmon olimlari tomonidan atroflicha sharhlangan. Masalan, Imom Qurtibiy ta'biricha: "Suv ichayotib idishga nafas chiqarishdan qaytarilganligimizning sababi og'izdagi badbo'y hid yoki so'lak bilan suvni ifloslantirishdan saqlanishdir"[10], - deb ta'kidlaydi.



Shu bilan birga, bizningcha, ayni shu hadis orqali musulmon madaniyatidagi suvning tozaligini saqlash va chanqoqni qondirish bilan bog'liq odob qoidalari bayon qilingan. Islomda tabiatga bo'lgan munosabat insonning axloqiy va ma'naviy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, “tabiat – jamiyat – inson” tizimi munosabatlarini muvozanatga keltirishda, diniy qadriyatlardan oqilona foydalanish, tabiatni asrab- avaylashga oid islom dinidagi g'oyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Zero, ma'naviy qadriyatlarimiz asosida farzandlarimizning ongiga atrof-muhitni ozoda tutish, havoning ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatimiz tabiatini, hayvonot va o'simlik dunyosini asrash kabi tushunchalarni singdirib borishimiz kerak.

Yoshlar ekologik madaniyatining falsafiy mazmuni juda keng bo'lib, u atrof- muhit, inson, jamiyat va tabiat o'rtasidagi muammolarni, munosabatlarni, qadriyatlarni va etik tamoyillarni qamrab oladi. Ushbu falsafiy mazmun bir necha asosiy prinsiplar va g'oyalar orqali ifodalanadi:

— Ekologik muammolar insonning iqtidori va jamiyatning rivojlanishidagi turli jarayonlarni inobatga olishni talab etadi. Yoshlarning ekologik faolligi ekosistemalarning solishtirilgan o'sishi va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

— Yoshlar tomonidan kelajakda iqlim o'zgarishlariga moslashish uchun aniq strategiyalarni qurish, ya'ni o'zgarishlarga moslashish yoxud o'rni kelganda ularni rad qilish rejalari bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Иванова Ю.В. Следы сольярного культа / Календарные обычаи и обряды в странах зарубежной Европы конец XIX-XX вв. /Исторические корни и развитие обычаев. – Москва: Наука, 1983. –С. 105-115;
2. Мирзиёев Ш. М. Республика Маънавият ва маърифат кенгаши нинг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. // Янги Ўзбекистон, 2023 йил 23 декабрь.
3. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари // Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т.6. – Т.: 1998.
5. Нўмонов М. Исломда табиатга муносабат. –Т.: Мовароуннахр, 2011.
6. Саййид Мубашшир Тарозий Соф табиат дини / Тарж. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. – Т.: Hilol- nashr, 2019.
7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. -Тошкент: Ҳилол-нашр, 2017. 332-бет.
8. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. -Тошкент: Ҳилол-нашр, 332-бет.
9. Саҳиҳи Бухорий, 2-жилд. –Тошкент, 2008 йил, 327 -бет.
10. <http://qadriyat.uz/islom/772>. Ҳидоят., 2012. 419-бет.

**Uktamov Nodir Ibroximovich**

Namangan davlat universiteti

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: nodiruktamov2@gmail.com

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIIY KAPITALNING ROLI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ijtimoiy kapitalning o'rni va ahamiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy kapitalning asosiy tarkibiy unsurlari bo'lgan ishonch, ijtimoiy tarmoqlar, hamkorlik va o'zaro birdamlik munosabatlarining yoshlarning mafkuraviy barqarorligini ta'minlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlariga qarshi kurashishda oilaning, ta'lim muassasalarining, fuqarolik jamiyati institutlarining hamda mahallaning imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yoshlar ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda ijtimoiy kapital muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, ijtimoiy kapital, mafkuraviy immunitet, yoshlar, ijtimoiy ishonch, ijtimoiy tarmoqlar, fuqarolik jamiyati, milliy qadriyatlar, mafkuraviy tahdidlar, ijtimoiy hamkorlik.

Аннотация: В данной статье с социально-философской точки зрения анализируются роль и значение социального капитала в формировании идеологического иммунитета молодежи в условиях глобализации. Исследуется влияние основных компонентов социального капитала — доверия, социальных сетей, сотрудничества и общественной солидарности — на обеспечение идеологической устойчивости молодежи. Особое внимание уделяется возможностям семьи, образовательных учреждений, институтов гражданского общества и местных сообществ в противодействии идеологическим угрозам и информационным воздействиям, возникающим в процессе глобализации. Результаты исследования показывают, что социальный капитал является важным фактором развития идеологического иммунитета молодежи, основанного на национальных и общечеловеческих ценностях.

Ключевые слова: глобализация, социальный капитал, идеологический иммунитет, молодежь, социальное доверие, социальные сети, гражданское общество, национальные ценности, идеологические угрозы, социальное сотрудничество.

Abstract: This article analyzes the role and significance of social capital in the formation of ideological immunity among young people under the conditions of globalization from a socio-philosophical perspective. The study examines the contribution of key components of social capital, such as trust, social networks, cooperation, and social solidarity, to strengthening the ideological resilience of youth. It also explores the potential of the family, educational institutions, civil society



organizations, and local communities in counteracting ideological threats and information challenges emerging in the globalization process. The findings demonstrate that social capital serves as an important factor in developing ideological immunity based on national and universal values among young people.

Keywords: globalization, social capital, ideological immunity, youth, social trust, social networks, civil society, national values, ideological threats, social cooperation.

Globalashuv sharoitida axborot oqimining kuchayishi va turli mafkuraviy ta'sirlarning kengayishi yoshlar ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifaga aylanadi. Mafkuraviy immunitet yoshlarning zararli g'oyalarga nisbatan barqaror qarshilik ko'rsatish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatini anglatadi.

Mazkur jarayonda ijtimoiy kapital muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy kapital – bu jamiyatdagi o'zaro ishonch, ijtimoiy aloqalar va hamkorlik tizimi bo'lib, yoshlarning ijtimoiylashuvi va ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynaydi. Oila, ta'lim muassasalari va mahalla kabi institutlar orqali shakllangan kuchli ijtimoiy kapital yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu bois, ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy kapitalni mustahkamlash, yoshlar o'rtasida ishonch va hamkorlik muhitini rivojlantirish, media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni kuchaytirish orqali ularning mafkuraviy immunitetini oshirish mumkin. Bu esa jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni qurishda va zamonaviy o'zbek jamiyatini yaratishda yoshlarda ijtimoiy kapital omilini oshirish va bu yo'lda global rivojlanishni maqsad qilib olish, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarni tubdan o'zgartirish, shu bilan axborotlashgan jamiyat asosini yaratish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Bu yo'lda albatta inson-jamiyat-davlat o'rtasidagi o'zaro munasabatlarni yaxshilamasdan turib biror-bir yutuqqa erishish qiyin masala. Shundan kelib chiqib bugungi kunga yoshlar qatlami orqali globalashuv jarayonlarida ongli faoliyat yuritish maqsadida yangi nazariya va konsepsiyalarga ehtiyoj sezayotganini barchamiz yaxshi bilib turibmiz. Ushbu konsepsiyalardan biri shubhasiz ijtimoiy kapitaldir. Ushbu tushuncha to'g'risida o'tgan asrning so'nggi davrlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan barcha izlanuvchilarning diqqat markaziga aylanib ulgurdi. Ijtimoiy kapital atrofida asosan iqtisodchilar, sotsiologlar, faylasuf va siyosatchilar keng muhokamalar olib borishdi. Shuning uchun bu atama zamonaviy jamiyatning keng tarqalgan tendensiyalardan biridir. Avvalo ijtimoiy kapitalning jamiyatdagi muhim rolini tushuntirish uchun ijtimoiy kapitalning o'zini tushunishimiz kerak. Ijtimoiy kapital, insonlar, guruhlar va jamiyat tashkilotlarining o'zaro aloqalarida o'zlashtirilgan bilim, tajriba, umumiy qabilyatlar, kommunikatsiya va hamkorliklardan iborat. Bu esa jamiyatning o'zaro ishonch, qo'llab quvvatlash,



erkinlik, adolat, inson huquqlari, innovatsiyalar, ijtimoiy taraqqiyot va demokratiyaning rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy kapital yoshlar munosabatlarida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan bir konseptual asos bo'lib xizmat qiladi. Bu, yoshlar jamiyat bilan hamkorlik qilish, o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlashni o'zlashtirishini, jamiyatning rivojlanishini, innovatsiyalar va ishlab chiqarish kuchini oshirishni, davlat siyosatiga mo'ljallik jarayonlarda fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlashda, ijtimoiy barqarorlik va istiqbollarni ta'minlashni o'z ichiga oladi. Mamlakatimiz rahbari ta'kidlaganlaridek —biz amalga oshirayotgan iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligini, uning hayot darajasi va sifatini oshirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi haqiqatdan ham ijtimoiy kapitalning yuqori darajada bo'lishi esa jamiyatning umumiy rivojlanishiga va barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatadi [1]. Ijtimoiy kapitalning yuqori darajada bo'lishi esa jamiyatda ko'plab ijobiy hatti-xarakatlarni yuzaga chiqaradi. Ijtimoiy kapitalning yuqori darajada bo'lishi g'oyalar va innovatsiyalarning jamiyatda rivojlantirilishini oshiradi. Ijtimoiy kapital, jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash va adolatni oshiradi, bu esa barqaror va mustahkam jamiyatning rivojlanishiga olib keladi. Ijtimoiy kapital, jamiyatning rivojlanishida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lgan muhim aspektlardan biridir. Davlat strukturasida ijtimoiy kapitalning roli orqali ko'plab munosabatlarni yoshlar ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga erishish omillari ijobiy tashkil etish mumkin. Ijtimoiy kapital, davlat va jamiyat tashkilotlari bilan bir qatorda ishlash orqali davlat strukturasini tashkil etadi, uning faoliyatini rag'batlantiradi va o'zgarishlarni oshiradi. Bugungi kunda fuqarolarni davlat strukturasidagi munosabatlarini ta'minlashda ijtimoiy faollikni oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali ijtimoiy kapital, davlat strukturasining ishtirokchilikni oshirish va jamiyatni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalarining muhim qismini tashkil etadi. Xususan, fuqarolik faolligining pastligi, fuqarolar o'rtasidagi zaif aloqalar, bu jamiyatning ijtimoiy kapitali zaxirasini kamaytiradi [3]. Bu strategiyalar orqali davlatlar, jamiyatning o'zining faol fuqarolik pozitsiyasini qo'llab-quvvatlash, o'zaro muloqot va hamkorliklarni rivojlantirish, inson huquqlarini himoya qilish, to'lov va soliq tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy iqtisodiyotni mustahkamlash va boshqalar kabi masalalarni hal qilishga intilishadi.

Buning yaqqol misoli sifatida O'zbekistonni 2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2022-2026 yillarga mo'ljallangan, Taraqqiyot strategiyasi orqali mamlakatimiz har tomomlana rivojlanib bormoqda. Yoshlar siyosatida ijtimoiy kapitalni o'zlashtirish uchun quyidagi yo'llar keng qo'llaniladi: Birinchidan- Ta'lim va ijtimoiy-ma'naviy sohani rag'batlantirish: Davlat ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirish orqali ijtimoiy kapitalni o'zlashtirish mumkin. Bu ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi islohotlarni oshirish, fan va texnikalar sohasida o'zgarishlar, ta'limning qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash, ta'lim resurslarini



kuchaytirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi. Ikkinchidan- Sog'liqni saqlash va sog'lom turmush tarzini yaxshilash:

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. – Б. 21.
2. Inson-jamiyat-davlat: ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotga erishish omillari 97 2. Райт Э. О. Что такое аналитический марксизм? // Вопросы экономики, 2007. № 9. 3.
3. Putnam R. D. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York; Touchstone Books by Simon & Schuster, 2001. p.85
4. Sodirjonov M. M. Monitoring the issues of human capital research in ethnosocial processes and social trends //Social policy and social partnership. – 2021. – №. 6. – С. 6.

Глобаллашув шароитида миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик масалалари

Музаффар Хўжамов Рулжонович

Наманган давлат чет тиллари институти катта ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада глобаллашув жараёнида миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик масалалари, дўстлик, тинчлик ва тотувлик муҳити, толерианглик ва диний бағрикенглик, миллатлараро интеграциялашув масалалари ҳамда унинг ютуқлари муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: глобаллашув жараёни, миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик, дўстлик, тинчлик ва тотувлик, диний бағрикенглик, миллатлараро интеграциялашув

Музаффар Ходжамов

Преподаватель Наманганский государственный институт
иностранных языков

Доктор философии (PhD) по истории

Вопросы межнационального согласия и толерантности в условиях глобализации

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы межэтнического согласия и толерантности, атмосферы дружбы, мира и согласия, толерантности и религиозной толерантности, межэтнической интеграции и её достижений в процессе глобализации.

Ключевые слова: процесс глобализации, межэтническое согласие и толерантность, дружба, мир и согласие, религиозная толерантность, межэтническая интеграция

Muzaffar Khojamov

Namangan State Institute of Foreign Languages

History of Doctor of Philosophy (PhD)

Issues of international harmony and tolerance in the context of globalization

ANNOTATION

This article discusses issues of inter-ethnic harmony and tolerance, environment of friendship, peace and harmony, tolerance and religious tolerance, inter-ethnic integration and its achievements in the process of globalization.



Key words: globalization process, inter-ethnic harmony and tolerance, friendship, peace and harmony, religious tolerance, inter-ethnic integration

Бугунги кунда дунё халқлари ўзаро ҳамкорлик, дўстлик ва бағрикенгликка муҳтож. Чунки ҳар қандай тараққиёт, аввало, тинчлик ва тотувлик муҳитида пайдо бўлади. Миллатлараро тотувлик — бу инсонлар ўртасидаги меҳр, ҳурмат ва ҳамжиҳатликнинг ифодасидир ҳамда тушунчалар нафақат Ўзбекистонда балким бутун дунёда инсоният учун чуқур аҳамиятга эга бўлган ҳамда қадрланадиган тушунчалардир. Шу ўринда глобаллашув жараёнига тўхталадиган бўлсак — бу дунёнинг турли бурчаклари ўртасида иқтисодий, маданий, сиёсий ва ижтимоий алоқаларнинг тобора кучаяётган жараёнидир [1]. Шу шароитда ҳар бир жамиятда миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик — жамиятда турли миллат, этник, дин ва маданият гуруҳлари ўртасида тинч-ахил муносабатларни сақлашдир — янада долзарб масалага айланади.

Инсоният тарихига назар ташласак, тинчлик ҳукм сурган жамиятларда доимо тараққиёт, фаровонлик ва бирлик устувор бўлганини кўрамиз. Миллатлараро тотувлик — бу халқнинг энг катта бойлиги, ҳар қандай давлатнинг барқарорлиги ва куч-қудратининг асоси ҳисобланади.

Глобаллашув жараёнида миграция, қочқинлик, трансмиллатли алоқа, туризм ва интернет орқали турли миллат ва маданиятлар ўзаро юзма-юз бўлиши учун шароит яратди. Бу эса бағрикенглик ва ҳамкорлик учун янги имкониятлар очади [2]. Бугунги кунда дунёда халқаро ташкилотлар, жумладан, БМТ, UNESCO ва шу каби уюшмалар маданий хилма-хиллик ва эмоцияларни тарғиб қилиш орқали глобал жамиятда бағрикенгликни рағбатлантирмоқда [3]. Бу албатта ижобий ҳолатлардан саналади. Чунки бунги дунё кўп қутибли сиёсат юритаётган даврда тинчлик энг қимматли ва долзарб масала бўлиб қолмоқда. Ана шундай шароитда миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик, тоқатлилик ҳамда ҳамжиҳатлилик ҳар бир жамиятни ҳар бир мамлакатни у билан ҳисоблашишга мажбур қилиши лозим. Мамлакатлар ўртасидаги ўзаро маданий мулоқотлар натижасида ёшлар, оилалар ва жамиятларда “улкан кимлик” эмас, балки “турлиликини қадрлаш” деган ёндашув шаклланаётгани ҳақида тадқиқотлар мавжуд [4] бўлиб бу эса ўз навбатида дунёда мамлакатларнинг интеграциялашуви мавжуд эканлигидан далolat беради.

Айни вақтда глобаллашув турли маданиятларнинг бир-бирини тушунишини оширади, аммо иккинчи томондан, айрим жамиятларда бунда идентификация инқирозини, маданиятларнинг сиқилиши ёки йўқолиши (масалан, маҳаллий тиллар, анъаналар) юзага келтиради [5]. Глобаллашув натижасида этник ёки маданий гуруҳлар орасида нотенгликлар, ресурслар учун рақобат, мигрантларга нисбатан дискриминация каби муаммолар вужудга келмоқда [6] бу миллий ва этник низоларни келтириб чиқаришга олиб келади. Турли миллат ва маданият вакиллари бир жойда яшай бошласалар, умумий қадрият ва дастаклар етишмаслиги эҳтимоли ортмоқда, бу эса жамиятда фрагментацияга йўл очиши мумкин [7]. Милиятлараро тотувликни таъминлашда муҳим жиҳатлар ҳам мавжуд. Ҳусусан, ҳуқуқий ва сиёсий механизмлар ишлаши ва амалиётда акс этиши даркор. Жумладан, давлатлар конституция ва қонунлари орқали барча миллат ва этник гуруҳларнинг ҳуқуқларини қафолатлашлари керак. Масалан, бир жамиятда барча хил гуруҳлар учун тенг имкониятлар яратиш лозим бу эса миллатлараро тотувликни ҳамда бағрикенглик муҳитини яратади. Натижада кўп ёки кам миллатли мамлакатларда ҳам тинчлик тотувликни таъминлайди.

Миллий сиёсатда маданий ва этник гуруҳларнинг жамиятга интеграция қилиниши учун механизмлар — таълим, маданий марказлар, тиллар ва анъаналарни ҳимоя қилиш бўлиши



лозим бўлади. Чунки ҳар бир миллат ва элатнинг ўз тили, дини, маданияти ҳамда ўзининг асрий қадриятлари бор ва бу эса улар учун бу ҳаёт-мамот масаласи ҳисобланади. Жумладан, бугунги кунда UNESCO нинг “Universal Declaration on Cultural Diversity” декларацияси мавжуд бўлиб бу мамлакатлар ва миллатлар ўртасида маданий хилма-хилликни тарғиб қилади[8]. Бундай дасдурларнинг амалиётга тадбиқ қилиниши миллатлараро бағрикенгликни ва тотувликни янада мустаҳкамлайди. Амалга оширилаётган маърифий ва маданий тадбирлар жамиятда бағрикенглик маданиятини шакллантириш яъни бошқаларнинг маданияти, тили, диний эътиқоди билан ҳурматли муносабатда бўлишга сабаб бўлади.

Жумладан мактабларда ва олий таълим муассасаларида этник толерантликни ривожлантириш хизмати мавжуд бўлиши керак[8] деб ҳисоблайман. Чунки ҳар қайси мамлакатда албатта унинг таълим тизимида турли миллатлар ва элатлар таълим оладилар бу улар ўртасидаги ижтимоий муҳитни ва муносабатларни яхшилайдиган ҳамда мустаҳкамлайди.

Шу ўринда таъкидлаш керакки оммавий ахборот воситалари ҳам миллатлараро тотувликда рол ўйнайди: улар мусбат мулоқот ва ҳамжиҳатликни тарғиб қилса жамиятда бағрикенгликни рағбатлантиради [9]. Давлат ва жамият даражасида барча маданият ва миллат гуруҳларини қамраб олган интеграция ва инклюзия сиёсати юритилиши зарур. Жумладан, мутасаддилар ва жамият аъзолари томонидан мулоқот платформаларини яратиш: парламент, жамоалар, интерконфессия форумлари, маданий фестиваллар ташкил этилиши лозим ва медиа-манбаларда (телевидение, интернет, ижтимоий тармоқлар) миллатлараро позитив хабарлар, ижобий образлар тарғиб қилиниши ижтимоий муҳитни ва муносабатларни янада яхшилайдиган

Ўзбекистон турли миллат ва маданиятлар яшайдиган жамият бўлиб, бу шароитда миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик мамлакатнинг барқарорлиги учун муҳим аҳамиятга эга. Масалан, республика таркибида бир неча этник гуруҳлар яшайди, шунинг учун давлат сиёсатлари миллий ва диний чидамчанлик, маданий марказлар ва таълим орқали бу жиҳатлар эътиборга олинган. Конституциямизнинг 4-моддасида Ўзбекистон Республикасининг давлат тили ўзбек тили экани мустаҳкамлангани баробарида, Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида истиқомат қилувчи барча миллат ва элатларнинг тиллари, урф-одатлари ва анъаналари ҳурмат қилинишини таъминлаши, уларнинг ривожланиши учун шароит яратиши қайд этилган. Шу асосда ҳозирги вақтда мамлакатимиз таълим муассасаларида ўқиш 7 тилда олиб борилаётгани, газета ва журналлар 10 дан ортиқ тилда чоп этилаётгани, теле-радио кўрсатувлари ва эшиттиришлари эса 12 тилда эфирга узатилаётгани жуда муҳимдир. Бош Қомусимизнинг 8-моддасида **«Ўзбекистон халқини миллатидан қатъи назар, Ўзбекистон Республикасининг фуқаролари ташкил этади»** деган норма белгилаб қўйилган. Ана шу конституциявий талабдан келиб чиқиб, ўз тақдирини Ўзбекистон билан боғлаган, мамлакатимиз фаровонлиги йўлида ҳалол ва виждонан меҳнат қилаётган, ўзларига боғлиқ бўлмаган ҳолатларга кўра фуқаролиги бўлмаган шахсга айланиб қолган фуқароларнинг ҳаётий муҳим масалаларини ҳал этишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Мамлакатимиз фуқаролигига қабул қилиш, чегара муносабатларини тартибга солиб, оға-ини, қардош-биродар бўлиб яшаган халқларнинг азалий муносабатларини қайта тиклаш, уйсизларга уй бериб, мухтожларга мурувват кўрсатиш, давлат идораларини тўла-тўқис халқ учун хизмат қилдириш каби узоқ йиллар давомида ўз ечимини кутган бундай оғриқли муаммоларни ҳал этиш осон кечгани йўқ. Табиийки, буларнинг барчаси — юксак ақл-идрок, донишмандлик, оқилона сиёсат, фидойилик ва матонат маҳсули.

Хулоса қилиш мумкинки глобаллашув шароитида миллатлараро тотувлик ва бағрикенглик нафақат ҳозирги, балки келажак жамиятлари учун ҳам муҳимдир. У



жамиятларнинг барқарор ривожланиши, турли маданият ва миллат гуруҳларининг бирликда яшаши ҳамда ҳамкорликда ҳаракат қилишини таъминлайди. Бироқ бу жараён ўз ичида муаммоларни ҳам олиб келади — идентичлик инкирози, маданий йўқолиш, интеграция муаммолари ва ҳоказо. Шунинг учун давлат, жамоат, таълим ва маданий институтлар биргаликда тегишли механизмлар яратиши зарур.

Фойдаланилган адабиётлар

- 1.https://press.un.org/en/2010/sgsm13220.doc.htm?utm_source=chatgpt.com "As Globalization Draws People Closer Together, Secretary-General Says, Making Most of Cultural Diversity, Promoting Cross-Cultural Dialogue Can Ease Tensions | Meetings Coverage and Press Releases"
- 2.https://www.iatp.org/files/Globalization_Growth_and_Poverty_Building_an_I.htm?utm_source=chatgpt.com "Globalization, Growth, and Poverty: Building an Inclusive World Economy"
- 3.https://en.wikipedia.org/wiki/UNESCO_Universal_Declaration_on_Cultural_Diversity?utm_source=chatgpt.com "UNESCO Universal Declaration on Cultural Diversity"
- 4.https://link.springer.com/article/10.1007/s43545-024-00847-3?utm_source=chatgpt.com "A globalization diversity ideology | SN Social Sciences"
- 5.https://www.meer.com/en/73855-the-impact-of-globalization-on-culture-and-politics?utm_source=chatgpt.com "The impact of globalization on culture and politics | Meer"
- 6.https://www.e-ir.info/2013/10/22/has-globalization-exacerbated-ethnic-conflicts/?utm_source=chatgpt.com "Has Globalization Exacerbated Ethnic Conflicts?"
- 7.https://sabri.org/the-negative-effects-of-multiculturalism-and-globalization/?utm_source=chatgpt.com "The Negative Effects of Multiculturalism and Globalization - sabri.org"
- 8.https://www.europeanproceedings.com/article/10.15405/epsbs.2016.02.40?utm_source=chatgpt.com "Ethnic tolerance among students | European Proceedings"
- 9.https://www.degruyterbrill.com/document/doi/10.1515/culture-2025-0054/html?utm_source=chatgpt.com "The Role of Media in Building Social Tolerance in Kyrgyzstan's Ethno-Cultural Diversity"

1-SHO'BA. YOSH AVLODDA MILLATLARARO TOTUVLIK TUSHUNCHASI:
MUAMMO VA ECHIMLAR

1. Karimov Bobir Sharopovich	
FASILITATIV QADRIYATLAR MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNING MUHIM OMILI.....	10
2. Izzatillayev Otabek Olimjonovich	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATI VA "YUMSHOQ KUCH" SIYOSATI: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	12
3. Rahimboeva D. A.	
YOSH AVLODNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASHDA OILAVIY MUNOSABATLAR VA AYOLLARNING O'RNI.....	19
4. Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich	
SOVET DAVRIDA MILLAT NAZARIYASI VA TARIXIY NARRATIVLARNING SIYOSIY INSTRUMENTALLASHTIRILISHI (Iosif Stalinning "Marksizm va millat masalasi" asari misolida).....	23
5. Axmedova Iroda Shaxitbekovna	
RADIKALIZMGA QARSHI G'OYAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA DERADIKALIZM JARAYONLARI.....	29
6. Karimjonova Gulshanoy Sherali qizi	
MA'NAVIY TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA MILLIY VA DINIY QADRIYATLAR.....	34
7. Tashayev Latif Abduraxmonovich	
YOSHLAR IDENTIKLIGINI MILLIY QADRIYATLAR NEGIZIDA TARBIYALASH MEXANIZMLARI.....	37
8. Abdurahimova Shirinoy Shermirza qizi	
MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK-KELAJAK TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI.....	41
9. Abdullayeva Ozoda Odiljon qizi, Abdumannobova Dilshoda Abdurauf qizi, Buriyeva Umida Baxriddin qizi, Xamrayeva Sunbula Dilshod qizi, Kasimova Venera Faraxad qizi, Sobirjonov Baxromboy Abdurashid o'g'li	
PEDAGOGIK JARAYONDA YOSHLARNI BAG'RIKENGLIK VA TOTUVLIK QADRIYATLARIGA YO'NALTIRISH.....	43
10. Akayeva Marapat Abduhalikovna	
MARKAZIY OSIYODA HAMKORLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	47
11. B.B.Mallabayev	
GLOBAL IJTIMOY MAKONDA DESEKULYARIZATSIYA VA RESEKULYARIZATSIYA JARAYONLARINING YEVOLOYUTSIYASI.....	52
12. Hakimov U.	
O'ZBEKISTON: MILLATLARARO TOTUVLIK, QO'SHNIHLIK MADANIYATI VA MADANIY UYG'UNLIK MAKONI.....	55
13. Inamov Qodir Tursunovich	
MILLIY –MADANIY MARKAZLAR FAOLIYATIDA MILLATLARARO TOTUVLIK G'OYASINING SINGDIRILISHI.....	58
14. Muydinova Moxira Mukumjonovna	
MILLATLARARO TOTUVLIK JAMIYAT BARQARORLIGINING MUHIM OMILI.....	62
15. Xoliqulov Muhammad Qaxor o'g'li	
MARKAZIY OSIYO MAMLUKATLARIDA SIYOSIY INTEGRATSIYA DINAMIKASI VA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	65



16. Исмоилова Нигорахон Усмонжановна	
СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АСПЕКТ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ ЛИЧНОСТИ.....	67
17. To'xtarov Ismatullo	
MILLATLARARO TOTUVLIK VA IJTIMOYIY TARAQQIYOT.....	71
18. O'rmonjonova Dilnozaxon Muhammadjon qizi	
O'ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTINING YOSHLARNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASHDA TUTGAN O'RNI VA ZAMONAVIY IJTIMOYIY ISH TIZIMLARI BILAN INTEGRATSIYASI.....	74
19. Ravshanov Abbosjon Axmat O'g'li	
DESIGNING A FRAMEWORK FOR CULTIVATING THE LOGICAL AND PSYCHOLOGICAL THINKING SKILLS OF CHESS LEARNERS.....	79

2-SHO'BA. YANGI O'ZBEKISTONDA DINIY BAG'RIKENGLIK: ZARURIYAT VA ISTIQBOLLAR

1. Maxkamov Qodirjon Odiljonovich	
FUQAPOLIK JAMIYATI INCTITUTLAPINING MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI.....	84
2. S.D. Boltabayev	
IJTIMOYIY DAVLAT KONSEPSIYASIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK AYRIM MULOHAZALAR.....	86
3. Иқболжон Орзиев	
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА ДИНИЙ ВА ДУНЁВИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУВОЗАНАТИ: СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИ.....	91
4. Muxtorov Karimbek Boymirza o'g'li	
NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNING JAMIYATGA INTEGRATSIYASI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO AMALIYOT QIYOSIY TAHLILI.....	95
5. Nematova Orzigul Axmedovna	
YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA HUSNI-XULQ BAG'RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI MA'NAVIY MEZON.....	99
6. Tashxodjayev Murodjon Valijonovich	
YANGI O'ZBEKISTONDA DUNYOVIYLIK - BAG'RIKENGLIKNING ASOSIDIR.....	103
7. Teshaboyev Abbas Xoldorjon o'g'li	
FUQAROLIK JAMIYATI VA IJTIMOYIY INSTITUTLAR TUSHUNCHASINING IJTIMOYIY-FALSAFIY TAHLILI.....	107
8. Beshimov Xamidjon Sayidovich	
MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASH VA INSON QADRINI OSHIRISHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	111
9. Akmal Gadaymurodovich Abdullayev	
IBN SINONING DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIGA DOIR SOTSIOLOGIK TA'LIMOTLARI.....	115
10. Ravshanov Abbosjon Axmat O'g'li	
JISMONIY TARBIYA KADRLARINING KASBIY VA MILLIY-GUMANITAR SALOHIYATINI OSHIRISH.....	118
11. Nasridinov Yigitali Borataliyevich	
GLOBAL AXBOROT MAKONIDA SEKULYAR MODERNIZATSIYA VA DINIY AN'ANALAR INTEGRATSIYASI.....	123
12. Eraliyev Nodirbek Muhammadjon o'g'li	
MINTAQAVIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOTDA O'ZBEKISTONNING GEOSIYOSIY ROLI.....	127
13. Oybek Olimjonov	
JADID MEROSIDA MILLIY BIRLIK VA BAG'RIKENG SIYOSIY UYG'UNLIK.....	130



14. Rustamov Rahmonjon

MADANIYAT TRANSFORMATSIYASI: GLOBALLASHUV, DIN VA DUNYOVIYLIK.....135

15. Mamatov Jasurbek Qodirqul o'g'li

YOSH AVLODNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA ZIYORATGOHLAR VA MUQADDAS QADAMJOLARNING O'RNI.....138

16. Нуриддинов Абдулвоҳидхон Орифхўжаевич

МАҲДУМИ АЪЗАМ НИКОҲ ВА ОИЛА ҲАҚИДА.....142

17. Mirzaxalov Sardorbek Jamoliddinovich

MILLATLARARO TOTUVLIK — O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING ASOSASI.....146

18. To'xtarov Xurshid Ismatullayevich

DINIY BAG'RIKENGLIK VA AQIDAPARASTLIK.....148

3-SHO'BA. GLOBALLASHYOTGAN DUNYONING IJTIMOY MANZARASI

1. Sodirjonov Muxriddin Mahamadaminovich

JADID MA'RIFATI: BAG'RIKENGLIK VA HAMJIHATLIK TALQINI.....152

2. Yunusov Kamaldin Abzalovich

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MARKAZIY OSIYO MINTAQASIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMKORLIKNI TA'MINLASHGA ILMIY-INNOVATSION YONDASHUV.....157

3. Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich

TADBIRKORLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLATLARARO BAG'RIKENGLIKNING O'RNI.....161

4. Norbekov Suhrob Farxod o'g'li

SHARQIY SLAVYAN DIASPORASI VA MAHALLIY AHOLI O'RTASIDAGI MADANIY MULOQOT HAMDA INTEGRATSIYA: 1918–1924 YILLARDA MILLATLARARO TOTUVLIKNING TARIXIY MODEL.....163

5. Turayev Abrar Saloxiddinovich

NEOKONSERVATIV YO'NALISHDAGI "AQL MARKAZLAR"NING MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK TAMOYILLARIGA MUNOSABATI.....170

6. Normatov Sanjar Abdug'ani o'g'li

GLOBALLASHUV DAVRIDA MILLATLARARO TOTUVLIK TAMINLASHDA MULOQOT MADANIYATINING AHAMIYATI.....173

7. Abdullayeva Zarifaxon

O'ZBEKISTONNING MINTAQAVIY BARQARORLIK VA TARAQQIYOTDAGI O'RNI.....176

8. Jo'rayev Akbarali

JAMIYATNING YANGI RIVOJLANISH BOSQICHIDA IJTIMOY - MADANIY QADRIYATLAR USTUVORLIGI.....180

9. Nuriddinov Manasbek Nasriddin o'g'li

CHEGARA SIYOSATIDAN STRATEGIK HAMKORLIK SARI: O'ZBEKISTON–QIRG'IZISTON MUNOSABATLARINING ZAMONAVIY BOSQICH.....184

10. Xolmatov G'ayratjon Muxtoralievich, Tojiboyeva Fotimaxon Akmalxon qizi

JADIDLARNING YOSHLAR TARBIYADAGI O'RNI VA PEDAGOGIK QARASHLARI.....188

11. Abduvaliyeva Jasmina

DINIY BAG'RIKENGLIK – TINCHLIK VA TOTUVLIK GAROVI.....191

12. Axmadjanova Muazzam Islomjanovna

GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSH AVLODNI MILLATLARARO TOTUVLIK RUHIDA TARBIYALASHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....193

13. Nabiyeva Maftuna Abduraximovna

KONSTITUTSIYADA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK SIYOSATI.....196



14. Mixliyeva Gulshoda Zarip qizi

THE ROLE OF HUMANITARIAN SCIENCES IN EDUCATING RESPONSIBLE PERSONS IN SOCIETY.....198

15. O'razova Muxlisa

AN'ANAVIY QADRIYATLAR VA TARIXIY XOTIRANING BAG'RIKENGLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI.....201

16. To'xtarov Ismatullo

O'ZBEKISTONDA DAVLAT VA DIN MUNOSABATLARINING TOLERANTLIK TAMOIYILI.....205

17. Nurmuxamadova Dilobar Muhammadrasul qizi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK TAMOIYILLARINING IJTIMOIIY-MADANIY TALQINI.....208

18. Xolmirzayev Xayrullo Lutfillojon o'g'li

MULLA SHAMSIDDIN SHAHVQIY MEROSIDA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALASI.....211

19. Boydedayev Dostonbek Xusniddin o'g'li

MARKAZIY OSIYODA BIRLIK MASALASI VA UNING ISTIQBOLLARI.....213

20. Rafiqova Gulnoza Valijonovna

O'ZBEKISTON VA TURKMANISTON MUNOSABATLARINING SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI.....216

4-SHO'BA. RAQAMLI JAMIYATDA BAG'RIKENGLIK MADANIYATI TRANSFORMATSIYASI

1. Mirzaxmedov Xurshid Abdirashidovich

TOLERANTLIK QADRIYATI TRANSFORMATSIYASI.....223

2. I.A.Ikramov

MILLIY IJTIMOIIY XOTIRANI SHAKLLANTIRISH: TARIXIY MEROS, MADANIY UZVIYLIK VA ZAMONAVIY JARAYONLAR.....228

3. Akramova Gulrux Alihanovna

EMOTSIOANL-PSIXOLOGIK BARQARORLIK TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI.....232

4. Difuza Sharifovna Egamova

RAQAMLI SIVILIZATSIYA KONTEKSTIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK MADANIYATINING O'ZGARISH DINAMIKASI.....235

5. Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich

MILLATLARARO BAG'RIKENGLIKNI TADBIRKORLIK AXLOQIGA TA'SIRI.....240

6. Safarova Jasmina Alisher qizi

OILAVIY NIZOLAR TURLARI VA VUJUDGA KELISH SABABLARI.....242

7. Xodjayev Dilshod Xamidxonovich

CHET TILI O'RGANISH MAQSADIDA MUTOLAA QILINADIGAN XORIJIY BADIY ADABIYOTLARNING O'QUVCHINING KOMILLIGIGA TA'SIRI.....246

8. Nematova Orzigul Axmedovna

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA HUSNI-XULQ BAG'RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRUVCHI MA'NAVIY MEZON.....250

9. Qosimova Nigina

RAQAMLI JAMIYATDA INSON QADRI, TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK.....255

10. Qurbonova Komila

MILLIY O'ZLIK VA MA'NAVIY MEROSNING GLOBALLASHUV DAVRIDAGI TRANSFORMATSION TALQINI.....259

11. A. A. Turaqulov

XXI ASR: FUTBOL VA DINIY BAG'RIKENGLIK.....262



12. Hamdamov Jamshid	
YANGI O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI.....	265
13. A. Абдуллазизов	
ПРОБЛЕМЫ ТОЛЕРАНТНОСТИ В ЭПОХУ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.....	269
14. Баҳром Джамолович Джалолов	
ЎЗБЕКИСТОНДА ВИЖДОН ЭРКИНЛИГИ МАСАЛАСИ: КЕЧА ВА БУГУН.....	273
15. Qoraboyev Sherzodbek Raximovich	
MASJIDLAR FAOLIYATI VA DINIY BAG'RIKENGLIK MASALASI.....	278
16. Choriyev Jo'raqul Gafforovich	
MILLATLARARO KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASI VA TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI.....	282
17. Мухиддинова Шахноза Анваровна	
РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030».....	287
18. Habibjonova Nodira Shavkat qizi	
OILAVIY MUNOSABATLARNING YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI IJTIMOY FALSAFIY AHAMIYATI.....	292
19. Mavludaxon Jo'raboy qizi Jo'rayeva	
THE TRANSFORMATION OF THE TOLERANCE IN DIGITAL SOCIETY.....	296
20. Ibrohimova Mohidil Murotali qizi	
RAQAMLI JAMIYATDA AYOL SHAXSINING TRANSFORMATSIYALASHUVI.....	299
21. G'ofurov Nizomjon Oktyabrovich	
BAG'RIKENGLIK – IJTIMOY-MADANIY BARQARORLIK KAFOLATI.....	302
22. Dexkanov Narimon Burxanjanovich	
JADIDLAR QARASHLARIDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA SIYOSIY UYG'ONISHNING IJTIMOY-FALSAFIY ASOSLARI.....	304
23. Қўзиев Ғайрат Собитович	
ЭТНОСОЦИАЛ ОМИЛЛАР ВА ИНСОН КАПИТАЛИ РИВОЖИ.....	309
24. Mavlanov Xusanboy Abdurohim o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MILLIY QADRIYATLAR VA INTELLEKTUAL SALOHİYAT UYG'UNLIG.....	315
25. Севара Пардаева, Сурайё Дехқонова	
ЎЗБЕК ХАЛҚИНИНГ ОЙЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРИДА САБР-ТОҚАТ ФАЛСАФАСИНИНГ ИЖТИМОЙ АСОСЛАРИ.....	320
26. Adxamjonova Rayxona	
MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK DEMOKRATIK JAMIYAT QURISHNING ASOSIY OMILI.....	325
27. Чубоева Озодахон Кувонбековна	
ЎЗБЕКИСТОНДА ДИН-ДАВЛАТ МУНОСАБАТЛАРИ: ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР, МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИК ВА АМАЛИЁТ.....	327
28. Шерзодбек Махсудов, Абдурашид Мирзахмедов	
ТОЛЕРАНТЛИК ВА ИЖТИМОЙ ТАРТИБНИНГ УЙҒУНЛИГИ.....	332
29. Мирзахмедова Дилрабо Махмудовна	
БОШЛАНҒИЧ СИНФ ДАРСЛАРИДА ТОЛЕРАНТЛИК КЎНИКМАЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.....	335
30. Burxonjonova Dilnura Narimon qizi	
YOSHLAR ONGIDA TOLERANTLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA VOSITALARINING O'RNI.....	341
31. Oripov Faxriddin Yo'ldashevich	
YOSHLAR EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA DINIY QADRIYATLARNING O'RNI.....	345
32. Uktamov Nodir Ibroximovich	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR ONGIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY KAPITALNING ROLI.....	351
33. Музаффар Хўжамов Рулжонович	
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО TOTUVLIK VA БАҒРИКЕНГЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	354

“Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – kelajak taraqqiyotining muhim omili” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami (Namangan sh., 14 noyabr 2025) / mas'ul muh. Q.O.Maxkamov. — Namangan: NamDU, 2025. — 362 b.

KONFERENSIYA TAHRIRIYAT KENGASHI:

Xaydaraliyev Shuhratjon Abdulazizovich

Falsafa fanlari doktori (DSc), v.b. professor (Namangan, O'zbekiston)

Norqo'ziyev Sodiqjon Xakimovich

Falsafa fanlari nomzodi, dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Abdulazizov Abduvoxid Xabibullayevich

Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Nuriddinov Abdulvoxid Orifxo'jayevich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Ortiqov Yosin Abdulboqiyevich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Namangan, O'zbekiston)

Muydinova Moxira Mukumjanovna

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

Qozoqov Sobirjon Zokirjonovich

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

Turaqulov Akmaljon Anvarovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

Mirzaxolov Nodirbek Tojiboyevich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Namangan, O'zbekiston)

DIZAYNER:

@devdasdesign



[HTTPS://NAMDU.UZ](https://namdu.uz)